@tarixchi_kutubxonasiga

O‘ZBEKISTON TARIXI

VI

@tarixchi_kutubxonasiga

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI,
O‘ZFA TARIX INSTITUTI, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI,
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT BOSHQARUVI AKADEMIYASI

O‘ZBEKISTON TARIXI

Xrestomatiya

VI jild

(1860 – 1917-yillar)

(O‘zbekiston tarixi va manbalari)

TOSHKENT
«O‘ZBEKISTON»
2023

@tarixchi_kutubxonasiga

UO'K 94(575.1)«1860/1917»
KBK 63.3(5O')«1860/1917»
O' 17

Tahrir hay'ati:

Ahmadali Asqarov – hay'at raisi, tarix fanlari doktori, akademik,
Azamat Ziyo, Bahrom Abduhalimov, Anatoliy Sagdullayev, Akbar Hakimov, Gulchehra A'zamova, Ashraf Ahmedov, G'aybulla Boboyorov, Dono Ziyoyeva, Muhayyo Isoqova, Farhod Maqsudov, Shokir Pidayev, Qahramon Rajabov, Rustam Sulaymonov, Sherzod Abdullayev, Dilorom Yusupova, Halim To'rayev

Mas'ul muharrir:

D.H. ZIYOYEVA

Taqrizchilar:
D.Y. Yusupova, B.M. Bobojonov, N. Mahkamova

Ushbu jildda vatanimizning 1860–1917-yillardagi tarixiga oid keng turdagi manbalar, xususan, qo'lyozmalar, toshbosma asarlar, rus va mahalliy arxiv hujjatlari, sulh shartnomalari, vaqfnomalar, qozilik hujjatlari, xorijiy sayyohlar safarnomalari, ilmiy ekspeditsiya ma'lumotlari, memuarlar, tarixiy va ilmiy adabiyotlar, milliy matbuot, statistika va taftish materiallaridan namunalar hamda qisqa parchalar o'rin olgan.

Mazkur manbalar o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, tashqi aloqalar va savdo munosabatlari, madaniy hayot tarixini, shuningdek, vatanimiz tabiatini, ilmiy izlanishlar holatini o'rganishda muhim asos bo'lish bilan birga, juda ko'p tarixiy ma'lumotlarni ilmiy iste'molga kiritish imkonini ham beradi.

Kitobda ingliz, nemis, fransuz, fors, rus tillaridagi manbalardan ayrim parchalarning o'zbek tiliga tarjimasi ilk bor chop etilmoqda, shuningdek, o'sha davrda arab alifbosida o'zbek tilida chop etilgan toshbosma asarlar, milliy matbuot namunalari zamonaviy kirill alifbosiga o'girilgan holda taqdim etilgan.

Kitob tarixchi olimlar, professor o'qituvchilar, talabalar hamda mamlakatimiz tarixiga qiziqqan keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Mazkur xrestomatiya O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2019-yildagi 5-716-25 «O'zbekistonning eng qadimgidan hozirgacha bo'lgan davri tarixi yoritilgan «O'zbekiston tarixi» nashrini tayyorlash va chop etish» nomli maqsadli ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida tayyorlangan va O'zR FA Tarix instituti ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-8054-4-6

© «O'zbekiston» NMIU, 2023

@tarixchi_kutubxonasiga

«O'tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo'lishi zarur».

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

KIRISH

O'zbekistonning boy o'tmish tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan qimmatli manbalarni aniqlash, o'rganish va ilmiy iste'molga kiritish hamisha dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan vazifalardan bo'lib kelgan. So'nggi yillarda bu masalalarga e'tibor yanada kuchayib, tegishli shart-sharoitlar yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 24-mayda imzolangan «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori[1] alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda respublikada va xorijda saqlanayotgan tarixiy manbalarni aniqlash, saqlash va ilmiy iste'molga kiritish borasida muhim vazifalar belgilangan.

O'zbekiston tarixi bo'yicha tayyorlangan va keng ommaga taqdim etilayotgan mazkur jildda vatanimizda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida kechgan tarixiy jarayonlarni yoritgan manbalar namunalaridan qisqa parchalar o'rin olgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur davr tarixiga oid manbalar nihoyatda keng qamrovli bo'lib, ular nafaqat mahalliy, balki xorijiy mualliflar tomonidan ham yozilganligi, ajdodlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti, siyosiy jarayonlar tarixiga oid muhim ma'lumotlarga boyligi bilan ajralib turadi[2]. Ushbu manbalar mintaqada sodir bo'lgan jarayonlar guvohi yoki ishtirokchilari tomonidan bitilgan bo'lib, tili, mazmuni, mualliflarning tarixiy voqealarga daxldorligi, dunyoqarashi va siyosiy maslagi nuqtayi nazaridan hamda rasmiy yoki norasmiy xususiyati bilan bir-biridan farq qiladi.

Shu holatlarni nazarda tutgan holda mazkur kitobdan o'rin olgan manbalar quyidagi tartibda tizimlashtirilgan:

Mahalliy qo'lyozma va toshbosma asarlar.

Arxiv hujjatlari.

Milliy va rus matbuoti.

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi «Qadimiy yozma manbalarni saqlash va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2995-sonli Qarori // Xalq so'zi. № 103 (6797), 25-may 2017-yil.

[2] O'zbekistonda intellektual meros tarixiga oid manbalar (XIX–XX asr boshlari). [Mas'ul muharrir: t.f.d., prof. Ziyoyeva D.H.]. – Toshkent: «Adabiyot uchqunlari», 2018.

@tarixchi_kutubxonasiga

Xorijiy mualliflar asarlari.
Memuarlar.
Rus tilidagi manbalar.

Mazkur turkumlash aynan shu kitobga kiritilgan manbalar mazmuni xususiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan bo'lib, amalda bu davrga oid tarixiy manbalarning turi ham, yo'nalishi ham ancha keng va xilma-xildir. Har bir turkumda manbalar turiga va mazmuniga ko'ra guruhlanib, mualliflarga hamda asarga qisqacha sharh berilganligi ularni o'rganishda qulaylik tug'diradi.

XIX–XX asr boshiga tegishli mahalliy qo'lyozma va toshbosma asarlarga to'xtalib, shuni qayd etish lozimki, bugungi kunda shu davrga mansub 600 dan ortiq manbalar bibliografik ro'yxatlardan o'rin olgan[1]. Shulardan 150 ga yaqini tarixiy asarlar bo'lib, ularda Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarining siyosiy tarixi, iqtisodiy ahvoli va madaniy hayotiga oid muhim ma'lumotlar qayd etilgan. XX asr boshlariga kelib an'anaviy tarixshunoslik maktablari uslubida yozilgan asarlar bilan bir qatorda, o'sha davrning ilg'or fikrli ziyolilar qalamiga mansub tarixiy-publitsistik asarlar ham yuzaga keldi.

Mazkur davrga oid manbalarning katta qismini O'zbekiston Respublikasining Markaziy davlat arxivida hamda viloyat, tuman va shahar arxivlari jamg'armalarida saqlanayotgan hujjatlar tashkil qiladi. Ularning yaratilishi mustamlaka ma'muriyat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan. Ushbu hujjatlarning katta qismi rus tilida bo'lib, asosan rasmiy xarakterdagi yozishmalar, o'lka ma'muriyatining metropoliya hukumatiga yo'llagan hisobot va axborotlari, turli maqsadlarda to'plangan statistik axborotlar va boshqa turdagi ma'lumotlardan iborat[2]. Mazkur hujjatlar mustamlaka siyosatining mohiyati, strategik maqsadlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Arxiv jamg'armalari orasida Buxoro amiri qushbegisi [I-126] va Xiva xoni mahkamasi [I-125] jamg'armalari alohida o'rin tutadi. Bu jamg'armalarning katta qismi arab alifbosida fors va o'zbek tillarida yozilgan bo'lib, ular asosan xonlar saroyida saqlangan hamda mamlakat hayotiga oid qimmatli ma'lumotlarga ega. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ularning katta qismi hozirga qadar ilmiy iste'molga kiritilmagan.

Shuningdek, arxivning sharq tillaridagi hujjatlar jamlangan jamg'armasida [I-323] arab alifbosida fors va o'zbek tillarida yozilgan manbalar saq-

[1] O'zbekistonda intellektual meros tarixiga oid manbalar (XIX–XX asr boshlari). [Mas'ul muharrir: t.f.d., prof. Ziyoyeva D.H.] – Toshkent: «Adabiyot uchqunlari», 2018. – 30-105-betlar.

[2] *O'raqov D.* Turkistonda Rossiya ma'muriyatining rasmiy hisobotlari – tarixiy manba sifatida. (XIX asr oxiri – XX asr boshlari): tarix fan. nom... diss. avtoref. – Toshkent, 2006.

@tarixchi_kutubxonasiga

langan. Afsuski, ularning aksariyat qismi ilmiy muomalaga kiritilmagan. Bu jamg'armada vaqf hujjatlari, vaqfnomalar, vasiqalar va boshqa turdagi hujjatlar jamlangan.

O'zbekistonning mustamlaka davri tarixini o'rganishda matbuot materiallari katta o'rin tutadi[1]. Rus va o'zbek tillarida chop etilgan rasmiy va norasmiy matbuot materiallaridan o'lka tarixiga oid turli ma'lumotlarni olish mumkin. Mahalliy matbuot sahifalarida chop etilgan maqolalarda o'sha davr ziyolilarining jamiyat hayotidagi turli muammolar, xususan, milliy madaniyatni rivojlantirish, ta'lim tizimi islohotlari hamda ma'rifat masalalari haqidagi qarashlari va ma'lumotlari keng o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-ma'naviy hayotni o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida qayd etilgan manbalarning qisqacha tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur davrda kechgan o'ta ziddiyatli jarayonlar tarixini yoritishda masalaga turli toifa vakillari yondashuvini aks ettirgan manbalarni qiyosiy va tanqidiy o'rganish muhimdir. Bu borada kitobdan o'rin olgan memuarlar alohida qiziqish uyg'otadi va mustamlaka ma'muriyatning arxiv hujjatlarida atayin qayd etilmagan yoki xaspo'shlab o'tilgan voqealarni o'rganishda toliq yordam beradi.

Mazkur jildda ilk bor O'zbekistonning mustamlaka davr tarixiga oid mahalliy, xorijiy va rus manbalaridan parchalar chop etilmoqda. Unda asosan ingliz, qisman nemis va fransuz tillaridagi xorijiy sayyohlar safarnomalari va asarlaridan ayrim parchalar tarjimasi o'rin olgan. Bugungi kunda 300 dan ortiq nemis, fransuz tillaridagi tarixiy asarlar borligi aniqlangan[2]. Ular mahalliy manbalar bilan bir qatorda vatanimiz tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi[3].

Ushbu nashrni tayyorlash jarayonida mavjud manbalarning barchasini qamrab olish imkoni bo'lmaganligi, ularning qamrovi va turlari nihoyatda kengligi, manbalar bilan to'liq tanishishni istagan tadqiqotchilar ularning asl nusxalarini tegishli jamg'armalardan olib, ishlash imkoniga egaligi bois turli manbalardan namunalar va kichik parchalar keltirildi. Manbalarni tarjima qilish va nashrga tayyorlash jarayonida tarixiy, etnik, geografik atamalar bilan bog'liq ko'plab noaniqliklarga imkon qadar aniqlik kiritildi. Matnlarda, ayniqsa, qo'lyozmalarda arab, fors tilidagi

[1] *Shodmonova S.B.* Turkiston tarixi – matbuot ko'zgusida (1870–1917). – Toshkent: «Yangi nashr», 2011.

[2] O'zbekistonda intellektual meros tarixiga oid manbalar (XIX–XX asr boshlari). [Mas'ul muharrir: t.f.d., prof. Ziyoyeva D.H.] – Toshkent: «Adabiyot uchqunlari», 2018. – 229–272-betlar.

[3] O'zbekiston hududida tabiiy fanlar yo'nalishidagi ilmiy tadqiqot va ekspeditsiyalar (XIX–XX asr boshlari). [Loyiha rahbari t.f.d., prof. Ziyoyeva D.H.]. – Toshkent: «Akademnashr», 2019.

@tarixnikutubxonasiga

iboralar, notanish so'zlarga zamonaviy o'zbek tiliga mos tushunchalar asosida izoh va sharhlar berildi. Ba'zi hollarda manbaning mazmunini saqlab qolgan holda qo'shimcha so'zlar (masalan, zaruriyatga qarab, gapning mazmunidan kelib chiqib, kesim yoki ega) qo'yildi. Ayrim holatlarda muallifning subyektiv, bir yoqlama mulohazalari, o'ta chalkash ma'lumotlar o'quvchini noto'g'ri fikr hamda xulosalarga olib kelmasligi uchun tushirib qoldirildi.

Matnlar bilan ishlash jarayonida ularning tarixiy ahamiyatga molik qismlaridan parchalar keltirishga e'tibor qaratilib, ayrim ortiqcha tafsilotlar chetlab o'tildi.

Matbuot materiallarini to'plashda va tanlashda asosiy e'tibor jadid taraqqiyparvarlari va yosh buxoroliklar tomonidan Turkiston va Buxoroda chop etilgan milliy matbuot namunalariga qaratilib[1], o'sha davrdagi eng o'tkir va dolzarb masalalar ko'tarilgan maqolalar tanlab olindi. Rus tilidagi matbuot materiallari o'z tadqiqini kutmoqda.

Rus tilidagi manbalarni tanlashda, asosan, bir nechta arxiv hujjatlari, tarixiy adabiyotlar va statistik tadqiqotlardan ayrim namunalar keltirish bilan cheklaniladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, rus tilidagi ma'lumotlar qamrovi nihoyatda keng va turli-tumanligi bois bu borada kelajakda yana alohida manbalar to'plami tayyorlash rejalashtirilgan.

Ushbu kitobga jami olti tildagi 180 ga yaqin manbalar kiritildi. Bunda imkon qadar mahalliy, xorijiy va rus tilidagi 10 dan ortiq turdagi manbalar – qo'lyozma, toshbosma asarlar, matbuot, memuar, ilmiy asarlar, mahalliy va rus arxivlari, taftish va statistika materiallari, safarnomalar va tarixiy adabiyotlardan namunalar keltirildi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ular mavjud tarixiy manbalardan ayrim namunalar, xolos. Ular O'zbekiston tarixining dolzarb va noma'lum sahifalarini o'rganish hamda yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

D.H. ZIYOYEVA,
tarix fanlari doktori, professor

[1] Milliy matbuot materiallarini tanlash va jamlashda jadid taraqqiyparvarlariga bag'ishlangan turkum va «Tanlangan asarlar» materiallaridan ham foydalanildi.

@tarixchi_kutubxonasiga

* * *

Ushbu manbalarni to'plash, tarjima qilish va nashrga tayyorlash ishlarida quyidagi yetakchi olimlar, yosh tadqiqotchilar ishtirok etdilar:

I bob. «Mahalliy qo'lyozma va toshbosma asarlar» – t.f.d., prof. Sh. Vohidov, t.f.d. O'.A. Sultonov, t.f.n. O. Bo'riyev, t.f.n. A.Z. Tog'ayeva, t.f.n. N. Toshev, t.f.n. Q.K. Yakubov, f.f.n. I. Adizova, f.f.n. N. Jumayev, f. f.n. J.A. Jo'rayev, t.f.n. I.Sh. Azizov, Sh. Tosheva, N. Mirzayev.

II bob. «Mahalliy arxiv hujjatlari» – t.f.d. O'.A. Sultonov, t.f.n. Q.K. Yakubov, t.f.n. I.Sh. Azizov, t.f.n. Sh. Ziyodov, N. Ismatova, D.Sh. Vahobov, N. Mirzayev, M.A. Darmonova.

III bob. «Mahalliy matbuot materiallari» – t.f.d., prof. D.H. Ziyoyeva, t.f.d., prof. S.B. Shodmonova, t.f.d., prof. Sh. Hayitov, t.f.d. N. Mustafayeva, t.f.n. K. Vohidova, t.f.n. M. Orziyev, N.Q. Rahimjonova, N. Kariyeva.

IV bob. «Xorijiy manbalar» – t.f.n., dots. Z.A. Saidboboyev, t.f.n. D.B. Rasulova, X. Abdurasulov, V. Xolov, M. Yakubova.

V bob. «Memuar asarlar» – t.f.d., prof. D.H. Ziyoyeva.

VI bob. «Rus tilidagi manbalar» – t.f.d., prof. D.H. Ziyoyeva, t.f.d., prof. S.B. Shodmonova, t.f.d. J. Ismoilova, t.f.d. M.S. Isakova, t.f.n. A.Z. Tog'ayeva, t.f.n. Q.K. Yakubov, t.f.n. I.Sh. Azizov, t.f.n. T. Safarov, Sh.H. Davurova, X. Abdurasulov, t.f.n., dots. D. Rajabova, N. Kariyeva, V. Xolov, J.A. Peremkulov, X. Mamadaliyev, N.Q. Rahimjonova, N. Shirinova, N. Mirzayev.

Izohli lug'at hamda **ko'rsatkichlar** O'zR FA Tarix institutining «O'zbekistonning XIX asr ikkinchi yarmi – XX asrning boshlari davri tarixi» bo'limi xodimlari tomonidan tayyorlandi.

@tarixchi_kutubxonasiga

I BOB. MAHALLIY QO'LYOZMA VA TOSHBOSMA ASARLAR

Mahalliy qo'lyozmalar muhim tarixiy manba sifatida so'nggi yillarda tarixchilar, sharqshunos olimlar tomonidan alohida e'tibor bilan o'rganilmoqda. Zero, asosan mahalliy mualliflar qalamiga mansub bu asarlarda tarixiy jarayonlar tafsilotlari batafsil yoritilganligi, ko'p jarayonlarga ularning o'zlari guvoh va ishtirokchi bo'lganligi ular qimmatini yanada oshiradi.

Mustamlaka davr tarixiga mansub qo'lyozma va toshbosma asarlarda keng yoritilgan masalalardan biri – o'lkaning Rossiya imperiyasi tomonidan istilo etilishi bilan bog'liqdir. Bu masalalar turli mualliflar asarlarida turli tafsilotlar bilan qayd etilishi o'rganilayotgan muammoni chuqurroq tahlil etish imkonini beradi. Bu ma'lumotlar sovet tarixshunosligida «O'rta Osiyo o'z ixtiyori bilan qo'shilgan» degan mazmundagi uydirmalar asossiz ekanligini, mahalliy aholining vatan mudofaasiga shiddat bilan otlanganligini asoslab berish bilan birga, bu jarayonga ta'sir etgan boshqa mahalliy omillarni ham aniqlashga yordam beradi. Quyida Toshkent istilosi bilan bog'liq masalalar yoritilgan mahalliy mualliflar qalamiga mansub qo'lyozmalardan parchalar keltiriladi[1].

MUHAMMAD SOLIHXO'JA TOSHKANDIY

«Tarixi jadidayi Toshkand»

Muhammad Solihxo'ja Rahim Qoraxo'ja o'g'li *XIX asrda Toshkent shahrida yashab, faoliyat yuritgan mahalliy tarixchilardan biri. U 1840–1852-yillarda Toshkentdagi Eshonquli dodxoh, Beklarbegi va Xo'ja Ahror madrasalarida, Qo'qondagi Azimboy madrasasida, 1856-yilda Buxorodagi Ko'kaldosh madrasasida ta'lim olgan. 1863-yildan boshlab Toshkentning Qiyot mahallasidagi masjidda imomlik vazifasini bajargan, ayni vaqtda, talabalarga dars berish bilan mashg'ul bo'lgan.*

Muhammad Solihxo'ja Toshkandiyning «Tarixi jadidayi Toshkand» asari 1863–1888-yillarda yozilgan bo'lib, Toshkent shahrining o'sha davr tarixi bo'yicha

[1] Bu o'rinda masalani to'liq ochib berish uchun qo'lyozmalardan parchalar berish tartibi ularning yaratilgan davriga emas, balki tarixiy jarayonlar silsilasiga qarab keltiriladi.

@tarixchi_kutubxonasiga

muhim manba sanaladi. Unda nafaqat Toshkent, balki Qo'qon xonligining iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotiga oid qimmatli ma'lumotlar ham qayd etilgan.

Asarning muallif o'z qo'li bilan fors tilida bitgan asl qo'lyozma nusxasi hozirda O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar jamg'armasida 7791-raqam ostida saqlanadi[1].

Quyida asarning ikkinchi jildidan o'rin olgan Toshkent shahrining Rossiya imperiyasi tomonidan istilo etilishi bilan bog'liq ma'lumotlardan parchalar keltiriladi[2].

t.f.d. O'.A. Sultonov, t.f.n. O. Bo'riyev

Toshkent shahriga harbiy xurujlar va shahar mudofaasi

...Mulla Alimquli Toshkand oqsoqollari va arboblari, akobirlari va a'yonlariga farmon berib, bu viloyatdan bo'lgan har kishi xoh tuya va xoh otda, arava yo piyoda bo'lsin din xotirida bo'lib, yuklarni, podshohlik to'pxonasi va zambaraklarini, sultonlik chodiri va sarpardasini Farak [Chirchiq] suvining u tomoniga o'tkazishga buyruq berdi. Juma namozi adosidan so'ng farmoyish bo'lib, suvoriy va piyodalar Farak suvi [Chirchiq]dan o'tib, qariyb asr namozi vaqtida Mingo'rikka, shahzoda borgohiga yetdilar va asr namozini Sulton Saidxon xoqon ibn Xoqoni said Mallaxon shahid va Mulla Alimquli amirlashkar g'oziy hamrohligida ado qildilar.

Shu orada Sho'rtepa yuqorisida, Rusiya askarlari tomonida bir havoyi mushak osmonga otildi. Bu voqeadan so'ng Mulla Alimquli amirlashkar o'rnidan sakrab turib, baland ovozda bu Rusiya askarlarining o'zlarinikiga voqeadan ogohlantirish berayotganini va ertaga jang bo'lishi mumkinligini aytdi...

...Nogoh Sho'rtepa tomondan Siddiq to'ra navkarlari kelib, Rusiya qo'shinidan ikki firqa Sho'rtepa yuqorisidan Oltintepa[3] tarafga kelayotgani xabarini yetkazdi. Ular [ruslar] Oltintepadan o'tib, qariyb Nazarbek qo'rboshi qo'rg'oniga yaqinlashdi. Ularning o'rtasida bir zambarak bo'lgan bir firqasi suvoriylar, bir firqasi piyodalar bo'lgan bu ikki firqa Salor arig'i bo'yida to'xtadi.

...Mulla Alimquli tamom tezlikda Afrosiyob tepaligidan Xo'qand darvozasiga borib, avvalo Jomador to'pchiboshi navkarlarini otashxona va zambaraklari bilan guruh-guruh qilib, bir safga tortdi. Ularning saflari shu qadar

[1] Institut qo'lyozmalar jamg'armasida asarning aslidan ko'chirilgan yana ikki nusxasi mavjud: biri Nabiraxo'ja ibn Saidxo'ja tomonidan 1936-yilda ko'chirilgan nusxasi (ikki muqovada, inventar raqamlari 11072, 11073); ikkinchisi institut ilmiy xodimi Abdulla Nosirov qo'li bilan 1940-yilda ko'chirilgan nusxasi (inventar raqami 5732).

[2] Nashrga tayyorlash jarayonida tegishli qismlarga shartli ravishda sarlavhalar berildi.

[3] *Oltintepa* – Shayxontohur dahasidagi mavze.

@tarixchi_kutubxonasiga

to'g'ri ediki, ko'rganlar bir odamning suvrati der edi. Va bu saflar o'rtasiga 36 ta zambarak qo'ydilar. Uchqur otli din mujohidlari esa, Tarxon-sayyod arig'il labiga, tarxonlar yeriga yetdilar.

U tomondan Rusiya askarlari Salor arig'idan o'tib ro'parama-ro'para bo'ldilar. Kamina ham o'z do'stlari bilan o'sha yerda edim. Shu payt Rusiya tarafdan zambarak o't ochib, piyoda askarlar yoniga tushdi. Shundan so'ng, Mulla Alimquli amirlashkar ham Jomador to'pxonaboshi va Hindubacha yuzboshiga, o'q otuvchilar va sarbozlarga zambaraklardan o't ochishga buyruq berdi.

...Dushman tomonga to'fang va zambaraklardan otilgan tinimsiz o't ochishlardan so'ng [musulmonlar] uch tomondan kengayib, suvoriylar va o'qchilar tomon tez sur'at bilan Nazarbek qo'rboshi qo'rg'onchasidan o'tib, u yerdan Olimbek yo'li va Oltintepadan o'tib Sho'rtepa tarafga, tepadan pastlikka qarab to'xtadilar.

Rusiya askarlari esa chekinishga majbur bo'ldi. Mulla Alimquli amirlashkar jangda jonbozlik ko'rsatgan Jomador to'pxonaboshi, Hindubacha yuzboshi, Xayrmuhammad afg'on ellikboshi, ponsadg'ozilik Mirbobo ponsadboshi va ularning sarbozlarini jasorati uchun munosib taqdirladi. Yaradorlar va murdalarni shaharga yubordi.

...Shom namozi adosidan so'ng bu dargohda hozir bo'lguvchilar, bir tomonda Toshkand, ikkinchi tomonda Qo'qon akobirlari [kattalari] joy olsin va ertangi muhoraba [jang] to'g'risida qanday maslahat ko'radilar, aytsinlar, deyildi. Toshkand qabilalari sardorlari dedilarki, bugungi jang g'alaba ovozasi har tarafga tarqaldi. Jasur jangchilar va toshkandliklar Siddiq to'ra va Arslon to'ra hamrohligida Dashti Qipchoqqa yuborilsa. Avvalo Chimkent diyoriga borib, ul shahar eshiklari kalitini qo'lga kiritsalar. So'ngra ikki firqaga [qismga] bo'linib, har firqaga Dashti Qipchoq qabilalari sardorlarini o'zlariga sarhang qilib, birini Turkiston qal'asi navohisidan Oqmasjid qal'asigacha, birini Avliyoota qal'asi, To'qmoq, Ashfara, Olmatudan to G'uljagacha harb va jihod ila yuborsak.

...Xabar yetdiki, Hindubacha yuzboshi to'pxonasi yuqorisidan Abdullabek libosbardor qirg'iz valadi Olimbek qirg'iz [dastasi uchqur otlari bilan] Jomador Hindustoniy jang qilayotgan yerga yetib bordi. (Baribir) ahvol tang edi. Mulla Alimquli tartib bilan [shaharga] chekinishni tayinladi. Ular Abdullabek libosbardor hamrohligida va Xayrmuhammad afg'on va Jomador Hindustoniy yoniga yetgan edilarki, Abdullabek libosbardor otining ko'zi to'fang o'qidan jarohat oldi. Abdullabek darhol o'q otgan o'sha nasroniyni shamshiri bilan halok qildi. Mulla Alimquli esa boshqasini. So'ng Ab-

[1] *Tarxon-sayyod arig'i* – Shayxontohur dahasida, shahar devoridan tashqarida oqib o'tuvchi ariq. Unga yaqin yerlar shu nom bilan atalgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

dullabek boshqa tulporni minib, Mulla Alimquli bilan birga Xayrmuhammad afg'on to'pxonasi tomon yo'l oldi.

Shundan so'ng, Xayrmuhammad afg'on to'pxonasiga kelgach, Toshkand ahliga sekin-asta shahar ichiga qaytishga, sarboz va mujohidlarga esa, jang maydonida qolib, jangni davom ettirishni buyurdi.

So'ng Jomador Hindustoniy va Hindubacha yuzboshi birgalikda barcha zambarak va to'pxona, qo'rxona va qo'rg'oshin, doru va asboblarni Mulla Alimquli oldiga jam' qildilar. Zambarak va to'fangdozlik qilib, uch joydan nasroniylar tomonga olti zambarakdan olti bor o't ochdilar. Nasroniylar ham olti zambarakdan olti bor o't ochdi. Jang shunday davom etib, Salor arig'igacha yetib keldilar. Biz ham Tarxon-sayyod yeridan o'tib, shu yerdagi chorbog'imiz tomon ravona bo'ldik. Mulla Alimquli g'oziylar bilan katta ko'chada jang bilan mashg'ul bo'lib, bir oz turib qoldi.

...Bir payt ot ortida Asadullabek tabib valad Abdullabek Qobqoziy Mulla Alimqulini yelkasida ko'tarib kelardi...

Shu asnoda Asadullabek valadi Abdullabek va Abdullabek libosbardor Mulla Alimquli amirlashkar g'oziyni jang maydonidan Toshkand o'rdasiga olib bordilar. ...O'rda tomondan, Abdullabek valadi Mulla Alimquli amirlashkar podshohlik mehmonxonasiga o'z mulozimlarini qo'yib, masjid[1] jilovxonasiga kelib salom bergach, «Ey saodatpanoh, Mulla Alimquli bu dorulg'ururdan dorulsururga, zavq-u huzur bog'iga rihlat qildi. Men sizning amakzodangiz Yusuf Alixo'ja valadi No'monxo'ja chitfurush hovlisiga borib, o'z odamlarim va mulozimlarimdan bir nechasini olib, shom namozini o'qigach, Mulla Alimquli mayitini Hazrat Shayx Xovand Tahur [qabri nurga to'lsin] mozoriga olib borib kafanlab, janozasini o'qib dafn qilsak», – dedi. Ikkilanmasdan, «Bundan yaxshiroq yana qanday yo'l bo'lishi mumkin», deb javob berdim va kamina ham shom namozidan so'ng Katta ko'chaga borib kutib turishimni aytdim. Shom namozidan so'ng amakzodam ko'chasiga borib bildimki, bir necha kishi Qiyot mahallasiga yuborilibdi. Bir ozdan so'ng Abdullabek murdaga sarocha tashlab, Mulla Salom valadi Dodaboy og'aliq va yana Qiyot mahallalik to'rt kishi tobutning to'rt tomonidan ko'tarib kelardi. Kamina ham tobutning bir tomonidan ko'tarib yig'lashga tushdim. Boshqalar ham yig'i bilan Shayxontohur dahasi tashqarisiga chiqdik. Tobutni Langar hovuzining shimol tarafiga, qayrag'och daraxti ostiga qo'ydik. O'sha qayrag'och hozir ham bor bo'lib, qabrning janub tomonidadir. Avvalo Qoraboshxo'ja mutavalliga xabar berildi. So'ng Eshonquli dodxoh madrasasi ahli, g'assol va Mir Shafoat go'rkov hozir bo'ldi. Takfin va tajhiz amalini[2] Muhammad Razzoqxo'ja valadi Iskandarxo'ja bajardi. Qora-

[1] Asar muallifi Qiyot mahallasidagi Bekmuhammadbiy masjidida imomlik qilgan.

[2] *Takfin va tajhiz amali* – murdani yuvish va kafanlash ishlari.

@tarixchi_kutubxonasiga

boshxo'ja mutavalli isqot amalini[1] bajarib, davrani hozir qildi va fonus hamda sham keltirib, atrofni yoritdi. Bu orada Eshonquli dodxoh madrasasidan Ali Akbarxo'ja eshon domulla, Abdurasulxo'ja valadi Abduxoliq Marg'iloniy, Said Ahmadxo'ja mufti, Ismoilxo'ja imom, Mulla Muhammad Iso oxund, Ja'farxo'ja valadi Buzurgxo'ja qozi, Nurxo'ja valadi Qoraboshxo'ja mutavalli va boshqa talabalar ham hozir bo'ldilar.

...Qoraboshxo'ja mutavalli tinmay: «Ey mo'minlar, Amirlashkar din va Toshkand fuqarolari tinchligi uchun shahid bo'ldi», – der edi. Abdullabekdan marhumning ibtidosidan intihosigacha bo'lgan hayotidan so'radim. G'assol murdaning kiyimlarini, jomasini, kurtasini[2] va o'sha davr odamlari jig'a deb atovchi qizil-oq rangli shimini yechdi. Ko'rdimki, o'q Amirlashkarning orqasini chap tomoniga, belining pastki qismidan tegib, o'ng tomoni yuqorisidan o'tib ketibdi. Murda yuvilgach, mushki anbar surtilib, kafanlandi va tobut o'sha hovuz bo'yiga qo'yildi. Ali Akbarxo'ja domulla imomlikka o'tdi, biz iqtido qilib janoza namozini o'qidik. So'ngra to'rt kishi tobutni to'rt tomondan ko'tarib, go'rxona tomon ravona bo'ldik. Shodmonxo'ja [murda uchun tayyorlangan] sag'anani ochib, Mir Shafoat go'rkov chirog' tutib yoritib turardi. Darhol tobutni shimol tomonidan yerga qo'ydik. Go'rkov [murdaning] oyog'idan tutib ko'tardi. Qoraboshxo'ja mutavalli va Abdullabek belidan, kamina esa boshidan ohista ko'tardik. So'ng go'rkov murdani sag'anaga olib kirib lahadga qo'yib, yig'lab yubordi. So'ng lahaddan chiqib, sag'ana og'ziga g'isht tera boshladi. Men g'isht olib berib turdim. Kalomi rabboniy tilovat qilingach, go'ristondan chiqib hovuz bo'yiga, janozagohga bordik. Ali Akbarxo'ja domulla yana bir bor tilovat qildi. Abdullabek 36 nafar janozaxon va dafn marosimi sarfini xat qilib oldi va payshanba kuni yana kelib, ma'raka va xudoyi marosimlari sarfini o'tkazishini aytdi.

Hijriy 1281-yil zulhijja oyining 25-kuni [milodiy 1865-yil 21-may] yakshanbadan dushanbaga o'tar kechada zamon bahodiri va davr jangchisi, asr sipohsolori va sarhangi bo'lgan Mulla Alimquli amirlashkarni qabrga qo'ydik.

Toshkent muhorabalari yakunidagi ikki taraf munozaralari

...Ko'p o'tmay mullo Solihbek oxundga o'z tobelari bilan Shirinuf [Chernyayev]ning[3] chodiriga yetib kelsinlar, degan xabar keldi. O'sha zaho-

[1] *Isqot amali* – mayitning diniy majburiyatlarini bo'ynidan soqit qilish «davra» tadbiri.

[2] *Kurta* – ust kiyim, ko'ylak.

[3] *Shirinuf (Chernyayev)* – Mixail Grigoryevich Chernyayev (1828–1898-yy.), Rossiya imperiyasining harbiy qo'mondoni.

@tarixchi_kutubxonasiga

ti mullo Solihbek oxund, Berdiboy sarkor Sebzoriy, Halimboy mirzo Azimboy qushbegi [672a-varaq] [Xo'qandiy o'g'li]; Fayzbachcha Toshkandiy, Qosimboy Qarotutiy, Toshkandiyning birodari Azimboy, sanjiqli [sanchiqli] jamoasidan[1] mullo Qo'shqazoq va boshqa turli a'yonlar Childuxtaron mavzesida[2] to'plandilar.

Shirinuf ularning oldiga kelib shunday dedi: «Poytaxt Fetirburx [Peterburg]dan, ya'ni poshsholikdan menga ma'lumot keldi. [Unda] sulh sababini va Turkiston zaminining [Rossiya] hukumatiga bo'ysundirilishini to'lato'kis o'sha viloyat aholisi guvohligida xatga tushirib, bu tomonga jo'natilsin, deyilgan».

Shunga ko'ra, sizlarga shuni ham aytmoqchi edimki, maktub quyidagi mazmunda yozilishi kerak:

«Uzoq vaqtlar va zamonlardan buyon, bu Turkistonzamin[3] o'lkasida Farg'ona hukmdorlari [tomonidan] kambag'allarga va xalqqa jabr, zulm va sitam qilib kelindi. Zakot va xirojni [ko'paytirib], ko'chmanchilarni turli tomonga to'zitib-tarqatib yubordilar. Chorvadan olinadigan va boshqa zakotlarni me'yoridan oshirib, urf-odat, rusum va taomildan qaytdilar, hech bir mehr-shafqat qilmadilar. Ko'p yillar davomida katta boshliqlar o'rtasida hukmronlik uchun talash ketib, ular [672b-varaq] ko'pincha fitnachilar, buzg'unchilar va ig'vogarlar so'ziga uchib, o'rtada nohaq qonlar to'kildi. Shariat hukmlari va ulamolar aytganini inkor etmishlar, ulamo mehr-muhabbati va fuzalo suhbatidan uzoqda erurlar. Farg'ona va Turkistonzaminni ko'pincha qipchoqlar, qirg'izlar, qozoqlar, avboshlar va beboshlar boshqarib kelmoqdalar. Shu sababdan, biz o'z ixtiyorimiz va istak-xohishimiz bilan, ularning jabr-zulmiga xotima berish uchun, aholi va mamlakatning tinchligini o'ylab, Rusiya va nasroniyaning askarlari, qo'shinlari va sardorlarini olib keldik va mamlakatni topshirdik». [Buni eshitgan] Mullo Solihbek oxund xomush holatda o'yga cho'mdilar ... bosh ko'tarib, shunday dedilar:

«Bizlar bo'lib o'tgan voqealarni o'zgartirmasdan va almashtirmasdan haqiqatni aytamiz. Ya'ni, Oqmasjid shahridan Xulja [G'ulja] tomondan Turkistonzamin va Toshkand [ga qarashli] qal'alar va viloyatlarni nasroniya va Rusiya jang, talash va urush bilan qo'lga kiritdilar. Ulardan ko'pi tunda shaboxun yo'li bilan [674b-varaq] to'satdan, hech bir muzokarasiz, va'dasiz, muhlatsiz, qattiq urush-talashlar bilan yuz berdi. Ayniqsa, Tosh-

[1] *Sanchiqli jamoasi* – Toshkentning Eski shahar qismidagi Chaqichmon (Saqichmon) mahallasida yashovchilar.

[2] *Childuxtaron mavzesi* – shaharning sharqiy tomonida joylashgan mavze, u yerga Salor ko'prigi orqali o'tib borilardi (*A. O'rinboyev, O. Bo'riyev.* Toshkent Muhammad Solih tavsifida. – Toshkent, 1983. – 41-bet).

[3] *Turkistonzamin* – bu yerda, asosan, Toshkentdan shimoli-sharqdagi yerlar nazarda tutilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

kand shahri zulhijja [oyi]ning o'rtasidan to safar oyining o'n ikkinchi kunigacha suvsiz va oziq-ovqatsiz [jang qildi]. Lashkarboshi [amirilashkar] mullo Alimquli shahid bo'lgandan so'ng sardorsiz, sultonsiz, askarsiz, qo'shinsiz, lashkarsiz va Buxoro amiri, Xorazm, Urganj, Farg'ona va turli Muhammadiya va islomiyaga mansub viloyatlardagi elatlar va qabilalar ko'magisiz, urush asbob-anjomlari, doru [porox] va qo'rg'oshini [o'q] bo'lmagan holda, fuqaro, aholi va Toshkand shahrida yashovchilar g'azot e'lon qilib urushdilar.

Seshanba kuni tongga yaqin Rusiya va nasoro Xiyobon darvozasi va devor [safil] ustidan fuqaroni g'aflatda qoldirib oshib tushib, oshkor bo'lib qolgach, urush qilmoqqa kirishib, to payshanba kunigacha jang-jadal davom etib, ko'p imoratlarga o't ketib, [odamlar] suvsiz, och va holdan toygan [bir holatda], dushman va do'st [barcha] yelkama-yelka turib qattiq jang bo'ldi.

Nihoyat, payshanba kuni peshindan so'ng, ahli nasoro va Rusiya yarashish istagida [675ª-varaq] va'dalar berib, ahd-paymonlar qilib, sulh tuzishga rag'bat ko'rsatdi. Bizlar ham [ma'lum] shartlar asosida sulh tuzdik».

...Shirinuf jahl va g'azab bilan: «Kimki mullo Solihbek oxundga qo'shilsa, bir tomonga o'tsin!» – dedi. Oxund domullo, Berdiboy sarkor Sebzoriy, Halimboy mirzo Azimboy qushbegi o'g'li, mullo Qo'sh [qozoq], Azimboy, Fayzbachcha va boshqalar [jami] yetti kishini [Chernyayevning] buyrug'i bilan Rusiya sallotlari [soldatlari] o'rtaga olib, Chimkent qal'asidan po'shta [pochta] aravasiga solib, Qiziljar qal'asi tomondan olib ketib, Qafol va Do'm mavzeiga eltmishlar.

...Undan so'ng Shirinuf eshon Hakimxo'ja qozikalonni chaqirtirib, xatning o'sha musavvaddasini berib: «Xatni yozib bo'lgach, shaharning a'yonlari, oqsoqollari, savdogarlar va tojirlariga muhr bostirib yetkazing», – dedi.

So'ngra Shirinuf Abdusaid eshon va Hodixo'jani chaqirtirib, xatni ularga berdi. Ular podshohlik hisobidan haj qilish bahonasi bilan [xatni] Fetirburxga yetkazib, keyin Istanbulga, undan Ka'ba uyiga o'tishlari kerak bo'lgan.

Ular ul mamlakatga yo'l olganlar. Mahallalar va manzillarni bosib o'tib, Fetirburxga yetib borganlar. [U yerda] xatni hukmdorga topshirib, so'ng Istanbulga borganlar. Ular bormasdan, Osiyo Turkistonzamin mamlakatining to'la-to'kis roziligidan iborat o'sha xat po'shta [pochta] axboroti vositasida [yetkazilib], axbornomalar Istanbulning devorlari, bozorlari va saroylariga yopishtirib chiqilgan edi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Toshkent shartnomasi[1]

Quyida «Tarixi jadidayi Toshkand» asaridan berilayotgan manbada Toshkent shahri general M.G. Chernyayev boshliq harbiy kuchlar bilan keskin kurashlardan so'ng bosib olingach, bosqinchilar bilan shaharning nufuzli kishilari o'rtasida tuzilgan shartnomaning qisqacha mazmuni o'z aksini topgan.

...Binobarin, xufton namozidan so'ng, [ruslar] dastlab Xiyobon tomonga, yana bir zambarakda Shayxovandtohur tomonga otdilar. Sahar namozidan keyin Ko'kcha darvozasidan to Xiyobon darvozasi, Shayxovandtohur va Hazrat Imom ko'chasigacha [bo'lgan mahalla-ko'ylarga] ahli nasoro o't qo'yarmish, degan ovoza tarqaldi.

Odamlar sarosimaga tushib qolgan bir paytda, elchilar kelishi haqida odamlarga xabar yetdi. Ko'p o'tmasdan Mullo Solihbek oxund qoshidan bir ishonchli kishi kelib, «Shayxovandtohur qozisi, Azim oqsoqol, ulamo va fuzalolar, akobirlar va viloyat a'yonlari Xiyobonga Mullo Solihbek oxund huzuriga yig'ilsinlar, o'sha yerda Rusiya elchilari va nasorolarga birgalashib savol-javob qilamiz», deb xabar yetkazdi. Shunga ko'ra, har bir masjiddan uch kishidan Xiyobonga yetib bordilar, u yerdan o'tib qo'rg'on tashqarisiga – Xo'ja Alambardorning nurlari to'la makoniga qirq kishi to'plandi. Ul yerda Buzrukxo'ja eshon qozining to'ng'ich o'g'li Sayyid Ahmadxo'ja eshon muftiy kelib, kundalik [667-varaq] voqea-hodisalar [ta'rix]ni yozib beruvchi [kamina]ning qo'lidan ushlab, ulamolar davrasidan iborat majlisga eltdi, bir chekkaga o'tkazib, o'zi ham mening yonimga o'tirdi.

Bir ozdan so'ng [menga] qarab: «Noittifoqlik [bizlarni] shu ko'yga soldi, mana Shirinuf [general Chernyayev] kelibdi, endi u nima derkin» [dedi]. Shu payt chodirdan Shirinuf va Oqmasjidning hokimi Kuriz ismli [kishi] yetib kelishdi. U darhol qozi Hakimxo'ja, Abdulqosim eshon, domla Solihbek, uchta qozi, ulamolar, Toshkentning to'rt rukn [qism]ining oqsoqollari, shaharning akobirlari, sardorlari, savdogarlari va kadxudolari bilan birma-bir ismini aytib tanishib, hol-ahvol so'radi.

Shundan so'ng va'dalar berib, sulh tuzish haqida iltimos qildi. Bu haqda u o'z podshohlari nomidan, bu tomondagilar [toshkentliklar] esa, hozirgi va kelajak fuqarolar nomidan ahdnoma va shartnoma tuzdilar.

Toshkent shahrining to'rtta arkoni uchun to'rtta ahdnoma: bir ahdnoma beshyog'ochliklar dahasi uchun, bir ahdnoma Hazrat Shayx [Shayxovandtohur dahasi] uchun, bir ahdnoma sebzorliklar uchun va Ko'kcha [dahasi] uchun bir ahdnoma.

---

[1] Mazkur shartnoma Ubaydulla Toshkandiy qalamiga mansub «Xulosat ul-ahvol» asarida ham keltirilgan. Shartnoma 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil topgach, o'z kuchini yo'qotgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

To'rt arkonning muftilari, a'lamlari [668ᵇ-varaq] va qozilari to'rtta ahdnomani yozib, unda quyidagi shartlarni ko'rsatdilar:

1. Musulmonlar o'zlarining qadimiy tamoyillarida qat'iy qoladilar.

2. Har yilgi hosildan zakot va xirojni ham Muhammad [payg'ambar] shariatiga [shariat qonunlariga] muvofiq tarzda musulmon amlokdorlar yig'ib beradilar.

3. O't-o'lanlar, o'rmonlar, to'qayzorlar, umuman, xalq foydalanadigan, podshohlikka tegishli [shunga o'xshash] narsalardan foydalanish qadimgi taomilga ko'ra bo'ladi.

4. [Rossiya] podshohlarining askarlari [mahalliy] xalq hovlilarini qo'shxona qilmaydilar.

5. Aholidan yillik daromad solig'i olmaydilar, chunki, bu zulm qilish demakdir.

6. Bir [millat] vakili boshqa bir [millat] vakiliga shariatga xilof tarzda zulm qilmaydi. Agar shariat asosida sabablar bo'lsa, u holda islom qozisiga murojaat qiladilar va o'sha paytdagi shariat peshvolari aniqlab beradilar. Noshar'iy yo'l bilan birov-birovdan bitta xas ham olmaydi.

[Ana shu tarzda] hamma narsani shariat asosida tasdiqlab, o'sha yerda hozir muharrirlar yozdilar.

Rusiya va nasroniya tomonidan sulh shartlari va talablari qayd etilgan yana bitta ahdnomani yozib, uni Shirinufga berdilar.

Majlis hozirlari ahdnomaga to'la-to'kis muhr bosdilar [668-varaq]...

...Domlo [Solihbek oxund] menga: «Ey o'g'lim, yaqinroq kelib, bu ahdnomalarni diqqat bilan o'qib chiqsang, chunki [bu hujjat] bizlardan keyin sizlar uchun asqotadi», – dedilar. Men Beshyog'och ahdnomasini ibtidosidan intihosigacha o'qib chiqdim...

MUHAMMAD AZIZ MARG'INONIY

«Tarixi Aziziy»

Muhammad Aziz ibn Muhammad Rizo Marg'inoniy (Marg'iloniy) XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yashab faoliyat yuritgan tarixchilardan bo'lib, 27 yil davomida Marg'ilon uyezdining boshlig'i mahkamasida mirzolik qilgan. Uning «Tarixi Aziziy» asarida Qo'qon xonligi va mustamlaka davrida Farg'onadagi voqealar tarixi yoritiladi.

«Tarixi Aziziy» asari faktlarga boy bo'lib, muallif uni yozishda turli manbalardan foydalanish bilan birga, o'z ko'rgan-kechirganlaridan ham hikoya qilgan.

«Tarixi Aziziy»ning muallif qo'li bilan yozilgan yagona nusxasi O'zR FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar jamg'armasida 11108-raqam ostida saqlanmoqda. Mazkur asar o'zbek tilida arab alifbosida yozilgan bo'lib, besh

@tarixchi_kitoblar_olami

bobdan iborat. Asarning V bobi izohlar bilan 1999-yilda nashr etilgan[1] bo'lib, unda XIX asrning ikkinchi yarmidan 1910-yilgacha Farg'onada ro'y bergan siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Quyida mazkur asardan Marg'ilondagi mashhur tujjorlar [savdogarlar] va ularning el-yurt manfaati va obodonchiligi borasidagi xayrli ishlari haqidagi ma'lumotlardan parchalar keltiriladi.

t.f.d., prof. Sh.Vohidov

...Farg'ona chor mustamlakasi davrida[2]

...So'z bundaydirki, general Skobelevni Turkiston general-gubernatori fon Kaufman – yarim podsho Farg'ona muzofotiga voyenniy gubernatorlik mansabiga tayinlab, hamma askariya va to'p-u to'pxona, xazina-yu dafinalarni topshirgani jihatidan tamomi ishlarni shu Tufroqqo'rg'onda turib sarishta qilib, nihoyatlik zabt-u raft [siyosati] bilan har qanday ish tepasida o'zi turar edi. Bir dasta otliq qozoq, o'rus bir tug'li odam bilan birga yuradur. Shukuhi raftori misli shamol goh bu tarafga, goho boshqa tarafga esadi. Gunohkor odamlar uning siyosatidan yuragi sado qilib turadi va haybatidan amaldor va fuqaro jonini qo'liga olib turardi.

Farg'onadagi tamomi musulmon to'p-u miltiqlarini va har joyda g'amlab qo'ygan miltiq dorusini oldirib kelib, Tufroqqo'rg'onga yig'ib, tamomi miltiq dorusini necha chaqirim dashtga olib borib, Skobelevni[ng] o'zi tepasida turib, el yetib kelishi vaqtida birdan o't berdi, go'yoki Marg'ilon shahrini janub tarafining tamomisi to osmongacha batamom otash-alanga olib to'lib ketdi. Farg'ona ahliga general-gubernatorning shul qilgan sipohigarlik siyosati butun kormori [qilmish] bo'ldi.

Marg'ilonda qancha qishloq va yurtni qo'shib, aning nomini Marg'ilon uyezdi deb daftarga yozib, unga bir hokim nasb qilib Marg'ilonga tushirdi. Bu uyezd hokimiga bir noib va yana bir noibi kichik tayinladi. Marg'ilondagi podsholik bog' ichiga kelib turib, hokimlik ishiga mashg'ul bo'ldilar. Bu hokimi kabir[3] mahkama qilib berar ekan. Hamma ishlarni va farmon hukmini, xat-u xutut va daftar-paftari, yozuv ishlari shu mahkamada bo'lar ekan. Unga bir mirzaboshi, unga esa bir noib, yana besh-olti adad o'rus mirzolari hozir-u farmonbardor ekan. Hammalari oylik olar ekan. Ammo fuqarolardan bir nimarsa ololmas ekan. Chunonchi, zokun nizomi shunday mustahkam ekan.

---

[1] *Muhammad Aziz Marg'iloniy.* Tarixi Aziziy. Nashrga tayyorlovchilar, so'zboshi va izohlar mualliflari: t.f.d.,prof. Sh. Vohidov, D. Sangirova. – T., «Ma'naviyat». – 1999.

[2] Asarning o'quvchilar hukmiga havola etilayotgan beshinchi bobi aslida nomlanmagan bo'lib, uni nashrga tayyorlagan Sh. Vohidov va D. Sangirovalar asar mazmunidan kelib chiqib, shunday ataganlar.

[3] *Kabir* – katta.

@tarixchi_kutubxonasiga

Mazkur hokimning nomi Bekchurin degan no'g'ay bolasi ekan. Musulmon tili va xatiga mohir bo'lgan ekan. Katta noib va kichik noibi o'rus bolasidan ekanlar. Xo'qand shahri ichiga bir hokim tayin qildi va tashqarisidagi hamma qishloqlarni uyezd qilib, unga bir hokim tayinladi. Andijonni ham bir uyezd qilib, unga Semyonov degan o'rusni tarix 1876-isaviyada, musulmon hijriya 1294-da Andijon uyezdiga hokimlikka tayin qildi. Yurt qishloqlari ko'pligidan to'rt adad noib qo'liga topshirdi. O'sh, Namangan va Rishtonning har qaysisiga qishloq yurtlarini zam qilib, nomini uyezd qilib, har qaysisiga hokim va noib tayinlab, hokimiyat ishiga faol qildi.

Valekin, bu uyezdlarning hammasi Farg'ona Ublastnoy [Oblastnoy] mahkamasiga qarar ekan. Ublastnoy mahkama deb, voyenniy gubernator [tayin] qilib, farmoyish joriy etib, pochtada farmoyish yuborib, xat-u ariza, ya'ni ropurt [raport] va daftarini olib turadigan eng katta, hamma mahkamalarning onasini aytar ekanlar.

Voyennuy gubernator[lik] o'zi qaysi shaharda tursa, o'shal shaharda ochilur ekan va ham xazinaxona ochilur ekan. Ammo voyenniy gubernator[lik] o'sha Tufroqqo'rg'onda farmon joriy qilib turgan mahalda, vaqtincha shul mavzeda ochilib turildi.

...Eski Marg'ilon shahrida bo'lmish ma'ruf-u mashhur ahli tujjorlar

Birinchi – Ismoil mahzum, laqabi Karnay mahzum. Ko'p saxovatli, hurmatli kishi, ko'p masjidlar, madrasa va avqoflar [vaqflar] qilgan. Qorixona va maktabxonalar bino qilgan. Katta bozordagi g'ishtin madrasani ham shu xudo rahmatli bino etib, yoniga hammom solib, unga [madrasaga] vaqf qilgan. O'zi ham, otasi ham yaxshi odam edilar.

Ikkinchi – Muhammad Ibrohim boy otlig', ko'p yaxshi savdogarlarning ashrafi [sharaflisi] edi.

Uchinchi – Mir Salimboy, katta savdogar edi. Qoziguzar mahallasida katta yaxshi bir madrasa bino qilgan kishi edi.

To'rtinchi – Muhammad Karimbek otlig' savdogar bor edi. Toshloq mahallasida g'ishtdan madrasa bino qilib ketdi.

Beshinchi – Eski Marg'ilonda Hoji Azimjonboy bacha. Bu kishi ham chand adad masjidlar bino qildi.

Oltinchi – Mullo Oxunjonboy hoji. Mazkur Ismoil mahzumning o'g'li. Oxiri umrlarida ko'p vaqflar tayin etibdi.

Yettinchi – saxovatpesha va bechora odamlarga qo'llari ochiq va ahli qalam odamlari uchun ko'p shafqat-u muruvvatlik eski marg'ilonlik Boboyor Mirzo Salimboy o'g'li. Bu kishi o'z yoshlik vaqtida madrasalarda tahsili ulum qilib yurub, biloxir Sulton Murodbek xizmatida omborxonaga muta-

@tarixni_kutubxonasiga

saddi mirzo bo'lib obro' topdi. Ancha yil o'rda ichida bo'lib, andan so'ngra Eski Marg'ilon qo'rboshisi bilan turib, podsholikka darkor bo'ladigan nimarsalarni tayyorlab berib turarga hamda katta bozordagi hamma torozularni pudrat qilib olib, har qaysisi tepasiga o'zi sarkor va mirzo qo'yib, davlati kuchli bo'lgan vaqtda O'rusiya davlati kelib doxil bo'lgandan keyin shu ishda qoldi.

Har xil odamlar naf ko'rib, davlatmandlik martabasiga yetdi. Bundan boshqa ko'p katta ishlarga mutasaddiy bo'lib, oxirgi martabada Eski Marg'ilonning katta bozoridagi Sulton Murodbek vaqflikka tayin etgan saroyini to 25 yil pudrat qilib olgandan keyin uni buzib, hammasini bozorlik rastalar bino etib, bozorni obod qildi. Xalq so'ziga qaraganda, bu Mirzo [Salimboy] Pochchoni ko'p katta aqchasi sarf-u xarajat bo'libdi. Bir katta martabalik o'rus: «Bir joningiz uchun bu qadar mehnat tortursizmu?» – deganida: «Bu xil mehnatlik ishlarni qilaman va meni g'araz g'oyatim har xil. Odamlar bu ishlarga aralashib, qo'limdan pul olib, ovqat qiladilar va bo'lak vaqtda bu xil bechoralarga naf' yetkazolmayman», – deb aytarmish.

Sakkizinchi – bu Eski Marg'ilonda yana bir yaxshi odam emish. O'zi yoshlik vaqtida musulmon xonlari asrida mirzolik xizmatida qalam ushlab xizmat etib, obro' topgan Mullo Muhammadsharif Mirzo hammaga ma'ruf va mashhur ekanlar. Mashhad dahasiga mingboshi ekanlar. Iloho hamisha salomat bo'lsinlar.

Yana Eski Marg'ilonda Marjonqizboy otliq katta ahli tujjor ma'ruf kishi bor ekan. O'z asrida ko'p yaxshi shijoatpesha, sadaqayi joriya ishlariga sa'ylik va masjid-u madrasa bino qilgan odam ekan. Marhum bo'lib, o'rnida ikki o'g'illari joynishin [o'rinbosar] qolibdur. Katta o'g'illari – Mullo Musajon boyvachcha ko'p oliyhimmat, xayr-u ehsonlik va zakotni o'z vaqtida beruvchi va mullolarni do'st tutuvchi saxiy kishi emishlar.

Yana Farg'onaga qarashli hamma shaharlarda mulk-u amvol [mol-u mulk], zobut [zavod] va gumashta farmonbardor odamlari bor, o'zi Xo'qand shahrida turib olamdan ketgan, katta savdogar nomi olamda ma'ruf Olimjonboy. Bu kishidan, xususan, bir yaxshi o'g'li joynishin qolubdur, nomlari Mullo Solihjonboy. Yaxshi, hammaga nihoyatsiz maqbuliyat topgan, ko'p ma'rif-u mashhur bo'lgan, saxovatpesha va fuqaro xalqiga muruvvatli. Qirq-ellik ming so'm puli musulmonlarga sarf bo'lsa, go'shay xotiriga kelmaydurgon, turfa saxiy va xushatvor, beva-bechoralarga ko'p zakot va ehson qilguvchi, ammo o'zi ko'p donishmandi purdon kishidur. Suxan [so'z] markazida hayron bo'lgan ahli tujjor va ahli qalamlarni yo'llaguvchi, yo'lga soluvchi odam bo'lgan ekanlar. Hatto, bizlarni bir ko'rib, daf'atan in'omidan sarafroz [in'omlaridan minnatdor va rozi] qilgan edi. Xo'qandda doimo va fazilatshior va har xil akobirlarga xo'b maqbul bo'lgan ekan. Bir soat suhbatida o'tirib mazmun oldim, xo'b aflotuntab' kishi ekanligini imtihon qilib

@tarixchi_kutubxonasiga

edim. Shunday behbud kishi salomatligini tilamoq yaxshidur, chunki ommayi xaloyiq boshiga mabodo biror mushkul tushur bo'lsa, o'z musulmonlarini har joyda qo'llab, madad berishga uddasidan chiqadigan martabadagi odam ekanini ommai xaloyiq so'zlaydilar...

MUHAMMAD YUSUF BAYONIY

«Shajarayi Xorazmshohiy»[1]

Muhammad Yusuf Bayoniy (1840–1923) Xorazm ilmiy-adabiy muhitining ko'zga ko'ringan vakillaridan, iste'dodli shoir, tarixchi, tarjimon va musiqa bilimdoni edi.

Muhammad Yusuf Bayoniy o'zining «Shajarayi Xorazmshohiy» va «Xorazm tarixi» asarlari bilan Xorazmda uzoq asrlar davom etib kelgan tarixnavislik maktabi an'analarini davom ettirdi. Xususan, «Shajarayi Xorazmshohiy» nomli asari mazmuni va g'oyaviy yo'nalishiga ko'ra Munis va Ogahiy tarafidan yozilgan tarixiy asarlarning davomi hisoblanadi.

Muhammad Yusuf Bayoniy o'z asarida tarixiy jarayonlarni xolisona yoritishga alohida e'tibor qaratib, «Tarix kitobi yozishni bir sharti bor. Tarixiy voqealarni yozuvchi tarafdorlik etmasdan, bo'lgan voqealarni rostlik bilan bayon etishi kerak. Agar rostlik bilan bayon etmasa, uning so'zlari hech bir odamga ma'qul bo'lmaydi», degan fikrlarni alohida ta'kidlaydi.

«Shajarayi Xorazmshohiy» asari 16 bobdan iborat. Asarning muqaddimasida qayd etilishicha[2], Bayoniy 1911-yil mayda Xiva xonidan Tolibxo'ja ibn Avazberdi orqali mazkur asarni yaratish haqida buyruq olgan. Qo'lyozma Xiva xoni Asfandiyorxon buyrug'iga ko'ra ko'chirilgan. Mazkur nusxa 1915-yilda Usta Juma Niyozning o'g'li Muhammad Ya'qub tomonidan nasta'liq xatida fabrika qog'oziga ko'chirilgan[3].

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar jamg'armasida «Shajarayi Xorazmshohiy» asarining 1913–1914-yillarda ko'chirilgan ikkita qo'lyozma nusxalari (274 va 9596-raqamlar bilan) saqlanmoqda. Quyida mazkur asarda Xiva xonining so'nggi hukmdorlari – Muhammad Rahimxon Feruz va Asfandiyor Muhammad Bahodirxon hukmdorligi davrida ijtimoiy madaniy hayot, adabiyot hamda mamlakat obodonchiligi, madrasalar qurilishi haqidagi qiziqarli ma'lumotlardan parchalar qisqartishlar bilan keltiriladi. Tabdil jarayonida o'sha davrga oid iboralarga tegishli izohlar berildi.

f.f.n. I. Adizova,
f.f.n. N. Jumayev

---

[1] *Muhammad Yusuf Bayoniy.* Shajarayi Xorazmshohiy. Mas'ul muharrir: N. Jumayev, nashrga tayyorlovchi, lug'at va izohlar muallifi: I. Adizova.

[2] *Munirov Q.* Xorazmda tarixnavislik. – T.: Adabiyot va san'at, 2002. – B.56–57.

[3] Xorazmda bitilgan qo'lyozmalar. – T.,1997. – B.17.

@tarixchi kutubxonasiga

...Ma'lum bo'lsunkim, xon hazratlari bag'oyat mushfiq[1] fuqaro va bag'oyat xayrdo'st kishi erdilar. Ko'p madrasalar va masjidlar bino qildilar...

Andog'kim, Muhammadmurod devonbegi bir madrasa bino qildi, Yusuf mahramga buyurub bir madrasa bino qildilar. Qadam yasovulboshi bir madrasa bino qildi, Ibrohimxo'ja bir madrasa bino qildi, Yusuf yasovulboshi bir madrasa bino qildi, Husayn Muhammadboy bir madrasa bino qildi, Do'st Olim bir madrasa bino qildi, qozi-ul quzzot Qozi Muhammad Salim bir madrasa bino qildi. Islomxo'ja bir minorali madrasa bino qildi[1]. Bu binolarning hammalari ul hazratning targ'iblari bila bo'ldi. Yana Nurullohbek otlig' hovlilarining atrofida va yana Tozabog' atrofida ham ko'p bevatanlarni vatanli etdilar va to'rt oliy masjid bino qildurub, Tozabog'da vatan tutg'on bevatanlar to'rt masjid qavmi bo'ldilar. Yana Yangi qal'ada Nurullohbek hovli va bog'larining sharqi-shimol tarafida ko'p bevatanlarga vatan berib va bir oliy masjid bino qildurub, ul yerni Sultonobod ismi bila mavsum etdilar. Ul masjidning qavmi yuz uyli bo'ldi. Alhaq, ko'p yerlarni obod etdilar.

Ko'p masjidlar, madrasalar va qorixonalar bino bo'lub, ko'p yerlar obodon bo'ldi. Xaloyiq ham «Annosu ala dini mulukihim» muqtazosicha amali xayrg'a rog'ib bo'lub, hatto, Muhammad Panohboy degan ham masjidi kalonning orqa tarafida bir madrasa bino qildi. Qori bazzoz Yusufbek ibn Fozilbiy mag'furning o'z mahallasidag'i hovlilarining o'rnida bir minorali madrasa bino qildi. Hijratning ming-u uch yuz yigirma ikkilamchisida Muhammad mahram madrasasining binosini itmomiga yetkurub, faqirdin tarix aytmoq iltimosin etib erdi.

...Xon hazratlari she'rga ko'p zavq paydo qilib erdilar. O'zlari ham burundan «Feruz» taxallusi bila mutaxallis bo'lub, she'r aytur erdilar. So'ngroq she'rg'a ko'proq haris bo'ldilar. Har kishining she'r aytmoqg'a sahl qobiliyati bo'lsa, nav'i she'rlarni aytib dargohi oliyg'a olib bora berdilar. Shoirlarning adadlari kam... Ali mahramning Ahmad otlig' bir o'g'li bor edi. Ul ham o'zini «Tabibiy» taxallusi bila mutaxallis etib, she'r aytmoq boshladi.

Xon hazratlari o'z g'azallaridin yuz g'azalni shoirlarg'a berib buyurdilar: «Munga payravlik etib g'azal aytinglar». Shoirlarning har biri onga payravlik etib, g'azal aytdilar. Xon hazratlari Tabibiyg'a amr etdilar, tokim, ul g'azallarni masnaviy zimnida jam' qilib bir kitob etgay. Tabibiy farmoni mujibi bila amal qilib, ul g'azallarni jam' qilib, har g'azalni yozmoqchi bo'lg'onda, masnaviy bila ul g'azalni aytg'on kim erkanin bayon etib, bu tariqada tamo-

[1] Matndagi ortiqcha so'z birikmalari (va...va...) qisqartirildi.

@tarixchi_kitobxonasiga

mi g'azallarni jam' qilib tamom etib, ul kitobg'a «Majmuat ush-shuaro» ot qo'yuldi...

...Xon hazratlari haftada ikki kun: juma va dushanba oqshomlarida ulamo bila suhbat tuzub, kitobxonliq etdurur erdilar. Andog'kim, Yusuf hoji oxund va Ismoilxo'ja oxund va Xudoybergan oxund va olim-u ulum ma'qul va manqulda Mullo Muhammad Rasul va faqiri haqir majlisi humoyunlarig'a haftada ikki martaba hozir bo'lub, kitobxonlik etar erduk.

Goho domla Muhammad Rasul bila ikkovimiz kirib, suhbati humoyunlarida kitobxonliq bo'lur erdi va sipohiylar va to'ralarni ham kitobxonliq etarga targ'ib etar erdilar. Bas, hamma kitobxon bo'ldilar. Alqissa, «Annos-u ala dini mulukihim»ning muqtazosicha, tamomi viloyat xalqi kitobxon bo'ldilar...

...Hijratning ming uch yuz yigirma sakkizlamchi yilida xon hazratlariga bir qottig' bemorlik oriz bo'lub, bir necha kunlardin so'ng andak afoqat toptilar. Ammo ul maraz badani muboraklaridin zoyil bo'lmadi. Tamomi atibbo oning muolijasida ojiz bo'ldilar. Harchand zohidlar va obidlar dam soldilar, ta'sir etmadi. To borur erdi, bemorliqlari ishtidod topar erdi. Ore, muqaddar bo'lg'on kun tugonib, ajali mav'ud yetushsa, hech kishida ul qudrat yo'qdurkim, oning bir soat miqdori taqdim yo ta'xiriga bois bo'la olg'ay...

Hijratning ming uch yuz yigirma sakkizlamchisi, muvofiqi it yili va sunbulaning sakkizlamchisi va sha'bon oyining yigirma to'rtlamchisi va dushanba kuni erdi, jahon bo'stonidin jannat gulistonig'a xirom etdilar. Amali ta'miya bila «ashk» lafzin isqot etildi. Ul hazratning ayyomi hayotlari oltmish olti yil va muddati saltanatlari qir[q] yetti yil-u o'n besh kun erdi. Hazratlaridin olti o'g'ul yodgor qoldi. Avvalg'isi Asg'ar to'ra, ikkilamchi Mehdiyor to'ra, uchlamchi Sayyid Abdulloh to'ra, to'rtlamchi hazrati valiahdi davron Sayyid Asfandiyor to'ra doma umruhu va davlatuhu, beshlamchi Ubaydulloh to'ra, oltilamchi Muhammad Yusuf to'radurlar.

...Vaqtikim, hazrat Sayyid Muhammad Rahimxoni jannatmakon bu dorilfanodin bo'stoni jinong'a ravon bo'ldilar, tamomi quzzot-u ulamo va tamomi to'ralar-u beklar va tamomi umarovu arkoni davlat Arkka kelib jam' bo'ldilar. Hamma ittifoq bila shahzodayi valiahdning qomati qobiliyatlarin libosi saltanatg'a loyiq bildilar. Bas, hijratning ming-u uch yuz yigirma sakkizlamchisi va sunbulaning yigirma besh-u sha'boni muazzamning yigirma to'rtlamchisi va dushanba kunidakim, oftobning g'urubig'a ikki yarim soat qolib erdi, hazrat shahzodayi valiahd Sayyid Asfandiyor

@tarixchi_kutubxonasiga

to'ra doma umruhu va davlatuhu muborak boshlarig'a jig'ali telfakni kiyib, xon bo'lub ota taxtida o'lturdilar. Hamma xushhol bo'lub, muborakbodlig' ovozlari baland bo'la berdi. Munodogarlar ko'chalarda «Davr – davri Sayyid Asfandiyor Muhammad Bahodirxon!» deb, munodo ura berdilar... Ertang bila xoni garduntavon hazrati Sayyid Asfandiyor Muhammad Bahodirxoni xalladallohu taolo mulxkahu va sultonahu shon-u shavkat va shukuhi hashamat bila otlanib Ark oldidag'i madrasaningkim, xoni mag'furning o'zlarining bino qilg'on madrasalari erdi, sahnida bir borgohi oliy barpo qilib erdilar, borib madrasaning peshtoqining oldida otdin tushub, kirib borib, ul borgohda qaror tutdilar. Tamomi quzzot-u ulamo borgohning bir tarafida va tamomi amaldorlar bir tarafida, oliyqadr Mirob ham qaror tutdilar. Ul holda tamomi to'ralar-u beklar xoni mag'furning mayyitlarin ko'tarib olib kelib, afzalil quzzot Qozi Muhammad Salim imomat etib, namozlari o'qul-di. Ondin so'ng, faqir tamomi beklar bila mayyitning izida imoratg'a borib, hazrat Sayyid Muhammad Mahruyjonning javori shariflarida bino qilg'on qubbayi oliylari bor erdi, onda qo'yub qaytduq.

Vaqtikim, xon hazratlari taxti mavrusiylarida qaror tutdilar, g'oyati lutf-u karamlaridin tamomi omillar-u amaldorlarni burung'i amallarida barqaror etdilar. Ondin so'ng, amri oliy sudur toptikim, viloyatlarining umuman tamomi yerlariga tanob urulub murattab etilgay. Ma'murlar, fil-hol, masohat 264 shior muhandislarni topib, Fatang tarafidinkim viloyatning bir tarafidur, tanob urmoqni og'oz qildilar.

Chun Xevaq shahrining orqa tarafi tamomi viloyat xalqining rohguzarlaridur, bag'oyat vayron va nozirlarg'a boisi nafrat erdi. Xohladilarkim, ul yerlarni obod etib, Toza Xevaq ismi bila mavsum etgaylar. Bas, Otajon devong'a buyurdilar, tokim, qal'aning orqa darvozasinikim, oni Urganch darvozasi derlar, yiqib tozadin o'rnig'a ikki darvozaxona bino qilg'ay. Biri elning shaharg'a kirmaklari uchun va biri chiqmoqlari uchun, ne uchunkim, bu yo'l tamomi viloyat xalqining yo'llaridur. Xalq izdihom bilan kelganlarida bir aroba darvozadin o'tub ketguncha necha arobalar yo'ldin kanorag'a chiqib ma'tal bo'lub turar erdilar. Xon hazratlari fuqaroparvarlik yuzidin tiladilarkim, xalq shaharga duxulu xurujda bir-birlariga mazohim bo'lmag'aylar.

Yana darvozaning yovuqida yo'l ustida bir tilgiromxona bino qilmoqni ham Otajon devong'a buyurdilar, tokim, xalqning atrofdin xabar olmoqg'a ehtiyojlari bo'lg'onda, betasdi' hojatlari ravo bo'lg'ay va oning muqobilida yo'lning sharq tarafinda bir g'oyatda vase' dorushshifo bino qilmoqni Rahimberganga buyurdilar, tokim, viloyatlarining bemorlari dinor-u dirham xarj etmay, roygon sihatlik davlatin topg'aylar. Nechunkim, vi-

@tarixchi_kutubxonasiga

loyatning jaholatnishon turk tabiblari bemorlarning dinor-u dirhamlarin olib, muhlik dorular berib, o'zlarin o'lturub yo o'lmakka qarib etib yuborur erdilar. Xohlardilarkim, xaloyiq olarning sharlaridin najot topg'aylar va yana ul dorush-shifoning va Pahlavonning juyining orqa tarafida bir vase' madrasaning binosin Muhammad Amin devong'a buyurdilarkim, janub tarafdag'i ikki guldastasining o'rnida ikki baland minora bino qilg'ay. Bag'oyat vus'atli va bosafo madrasa bo'lg'ay. Tokim, ko'p mustahiq tolibi ilmlar ul madrasada vazifali bo'lub, ilm tahsilig'a mashg'ul bo'lg'aylar. Bas, ma'murlar muzdurlarg'a korfarmoyliq etib, hunarli va mahoratli boniylarni topib, ul binolarni boshlab, tamomi lavozimlarining tayyorliqig'a mashg'ul bo'ldilar.

G'allaning bahosi g'oyatda og'ir erdi. Faqir va darvesh kishilar muzdurliq bila holati maxmasadin najot topib, xon hazratlarining umr-u davlatlarining duosin etmakka ishtig'ol ko'rguzur erdilar.

Hijratning ming-u uch yuz o'ttuzlamchisida darvozaxonaning binosi itmomg'a yetib erdi... Ushbu yil tilgiromxonaning binosi ham itmomg'a yetdi... Ushbu yil zulqa'da oyida dorushshifo, ya'ni duxturxonaning binosi itmomg'a yetdi. Xon hazratlari onda yaxshi to'y berib, tamomi ulamo va tamomi to'ralar-u beklar va tamomi amaldor-u oqsoqollar va tamomi elni da'vat etdilar va Rusiya duxturlaridin ikki duxturni talab etib kelturmish erdilar. Biri muzakkar va biri muannas erdi, ul ikkovi viloyatning tamomi zukur-u anosdin bemor bo'lg'onlarig'a mudovo etmakka mutakaffil bo'lub, ul duxturxonada qaror toptilar. Olarg'a vofir vazifalar ta'yin etdilar. Tamomi xaloyiq xushhol bo'lub, zukur va anosdinkim, bemor bo'lsa, kelib shifo topib ketar erdilar.

Hijratning ming uch yuz o'ttuz ikkilamchisidakim, muvofiqi bars yili erdi, muharramning yettilamchi kuni xon hazratlarining o'zlari Muhammad Amin devon bino qilib yurgan madrasaning tamoshosin etdilar. Ko'rdilar, ul madrasa bag'oyat tang-u tor va ko'p kichik va badbichim bo'lubdur. Xon hazratlari parishon bo'lub, noiloj oni yiqdurmoqqa farmon berdilar.

Ondin so'ng, karvonboshiga buyurdilarkim, yiqilg'on madrasaning sharqi-shimol tarafida va Toza Xevaqda bino bo'lg'on toza bog'larining darvozasi oldida bir g'oyatda vase' madrasa bino qilg'aykim, to'rt kunjida to'rt guldastaning o'rnig'a to'rt minora bino qilg'ay va ichida to'rt darsxona binosin etgay. Karvonboshi ta'zim qilib, filhol, kamoli vus'atda avval madrasaning binosin boshladi. Faqiri haqir Bayoniy bu yerda ushbu kitobning iftitohin ihtimom sarhadiga yetkurdi.

@tarixchi_kutubxonasiga

SAYYID HOMID TO'RA – KOMYOB

«Tavorix ul-xavonin»[1]

***Sayyid Homid to'ra ibn Sayyid Muhammadxon to'ra** (1861–1930) shoir**ning to'liq ismi, **Komyob** uning adabiy taxallusidir. Komyobdan bizga bitta she'riy devon, Xorazm tarixiga oid «Tavorix ul-xavonin», «Muntaxab ul-voqeot» kabi tarixiy asarlari va XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazmda yuz bergan tabiat o'zgarishlari to'g'risida ma'lumot beruvchi esdaliklar yetib kelgan.*

«Tavorix ul-xavonin» – Xiva xonlari tarixiga bag'ishlangan asar. Asarda turkiy musulmon tarixnavisligi an'anasiga muvofiq insoniyatning yaratilishidan boshlab, izchil tarzda turkiy xalqlar, turkiy xoqonlar, qo'ng'irot urug'i, ulardan chiqqan hukmdorlar to'g'risida so'z yuritilib, nihoyat Xorazmda hokimiyatni qo'lga olgan qo'ng'irot inoqlari tarixini yozishga kirishilgan. Asar muqaddima, besh bob va muallifning o'z hayoti hamda ijtimoiy muhit to'g'risida ma'lumot beruvchi bir maqola va xotimadan tarkib topgan.

«Tavorix ul-xavonin»ning original va qimmatli bo'lgan qismi beshinchi bob va muallifning o'zi to'g'risida yozgan maqola qismidir. Bu qismda Komyob qo'ng'irot inoqlarining qay tarzda hokimiyat tepasiga kelishi va ularning markazlashgan hukumat tuzish yo'lida doim olib borgan kurashi, ya'ni, ajrab chiqishga harakat qilib kelgan yovmutlar, Orolbo'yi, Qo'ng'irot aholisiga qarshi hamda chegara yerlari uchun Buxoro bilan olib borgan tinimsiz kurashlari to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Shu bilan birga, rus qo'shinlarining xonlikka bosqichma-bosqich kirib kela boshlashi va nihoyat, bosib olinishiga doir tarixiy voqelik qalamga olinadi.

Hozirgacha «Tavorix ul-xavonin»ning uchta nusxasi ma'lum. Ular 3730/I, 7717/I va 853/II raqamlari ostida O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanmoqda.

fil.f.n. J.A. Jo'rayev

...ul hazrati xoni mag'firatnishoni jannatmakon jahon ayvonidin jinon bo'stonsaroyiga nuzul qilg'ondin so'ng ulug' o'g'lin akobiri quzzot va akosiri oliysifot, ulamo, vuzaro va umaro ittifoq bila ato masnadida o'lturtdilar. Aza va musibat adosidin so'ng ato ruhi shodliki uchun ob-u osh berib, kalomi sharifi Rabboniyni qoriyi qur'onxonlarga buyurub, xatm qildurdi [174-varaq]...

...hamul yo'sun va ravishda O'rusiya podshohidin elchi Xorazmg'a kelib va Xorazm xonidin elchi o'rusga borur erdi. [188³-varaq] Otam Sayyid Muhammadxoni marhumiyning zamonida ham O'rusiya podshohidin o'ziga loyiqa tuhfalar va royiqa hadya, torto'qi tansuqlar bila Nikolay

[1] O'zR FA Sharqshunoslik institutidagi 7717/I va 853/II raqamli qo'lyozmalar... Sayyid Homid to'ra Komyob. Nashrga tayyorlovchilar: fil.f.d. J.A. Jo'rayev, fil.f.n. J.A. Jo'rayev, t.f.n. N. Norqulov, fil.f.n. T. Tog'ayev. – T.: «Akademiya». 2002.

@tarixiy_kutubxonasiga

Ingichib degan elchi kelib erdi. Ul xoni marhumiy hamul elchini Gandumkondagi hovliga tushurub, o'ziga loyiq izzat va hurmat va navozit qilib erdi. Va Ankariqdagi hovliga chiqib, elchini onda chaqirib, ziyofati rif'ati shohona marotib etib, elchi bila aqvoli shirin va savoyili rangin bila podshohi qadirdoni, do'stonlikin tafaqqudi bisyor va taftishi beshumor bila so'rashib, sarupoyi mulukona va taomi anjomi shohona bila xursand va arjumand qildi. Tag'oni Mahmudbek der edikim, hamul kun Hasanmurod qushbegi bila solmaning labida elchining qushiga qarab o'lturub erduk, bir o'rus to'g'riga chiqib turub va qaytib chodiriga kirib, [188b-varaq] bir oz fursatdin so'ngra bir qog'az kelturub, qushbegining qo'liga berdi. Qushbegi ko'rub, bizlarga ko'rsatti. Ko'rsak qushbegining suvrati erkan, shul yerda o'lturg'on odamlar ko'rub, taajjubg'a qoldilar va elchiga o'ziga bo'lg'udek xarjidin ziyodati qo'nuq berib, kun-bakun siylogin ortturub, avotifi xusravona va baxshishi benihoyalar in'omi tamom qilur erdi. To o'z viloyatig'a qoytg'uncha har kun umaroyi a'zamdin birovni yuborib, elchi holidin iltifoti shohona bila tajassusi shahriyorlig' bila va tafahhusi multafati istinor qilur erdi. Va elchi ruxsat olib, O'rusiya mamlakatiga qaytmoqchi bo'ldi. Ul xoni mag'firatnishon o'z podshohligiga loyiq va munosib va muvofiq tortuq tuhfa va [188a-varaq]hadyayi tansuqotlar bila Otajon a'lamni elchi qilib, hamul elchi bila qo'shub Rusiya podshohiga yubordi. Beki mazkur der erdikim, hamul elchi bo'lub kelgan Yorim poshsho yig'inida bor erkan. Otiga Qo'shbormoq to'ra der erkanlar. Mani ko'rub tanib so'rashti. Man dedimkim: «Mani Mahmudbek erkanimni nechuk bilding?». Ul dedikim: «Elchi bo'lub kelganimda, Hasanmurod qushbegini Gandumkonda ziyofat qilib choqirg'onda, hamroh kelib erding», – deb qadrdonlig' qilib, hazrati xoni jannatmakonni va qushbegini va o'zimni holimdin ham istifsor etib, oshnolig' marosimin bajo kelturub so'rashti va Yorim poshshoh yurtni olgondin o'n besh kun miqdori o'tgandin so'ng hamul oshno va qadirdonlig'i jihatidin ul hazrat a'lo xonining [188b-varaq] izidin xat yiborib, kelturub yurtin o'ziga berdi va Xorazmshohlik saririda yana o'z masnadida o'lturg'uzdi...

...va Xorazm kishvarining Jayhun bahri nahrikim-muzofot viloyatining o'rtasidin daryoyi Amuyadur, oqib tengizga quyar erdi. Sharqi-janubidan shimoli-g'arbg'a, orqa tarafidagi bilod va qaryalar qibla [190a-varaq] tarafidag'i kent va qal'alardek ma'mur va obodlig' ermas erdi. Qazoq va qaroqalpoq va turkman jamoasikim, o'zga mutavattinlaridin ko'b erdi. Oni avvalg'i borish-kelish va oshnoliqi huquqi rioyasi vafoligi sababidin va yo yo'li o'zining yurtig'a to'g'riligi vajhidin o'zidin ul muzofot va mavze'larda yig'in va hokim qo'ymoq uchun oldi va qal'a soldi va daryoning janub jonibidog'i Xivaq dorulamora Xavarnaqikim, ul hazrati raf'at manzilat a'lo xoni oliyshonning o'tgan ota va bobolaridin mavrusiy yo'sinida qolg'on poytaxti erdi, ul muzofot va mavze'larni o'ziga berdi ...[190b-varaq].

@tarixchi_kutubxonasiga

ABDULLA BOLTAYEV

«Xorazm tarixiga doir materiallar»

Abdulla Boltayev (1896–1966) – xivalik tarixchi, naqqosh, O'zbekiston xalq rassomi. Xorazm naqqoshligining yirik vakillaridan biri bo'lib, Islomxo'ja madrasasi va minorasining qurilishida va bezashda, Ko'hna Ark, Toshhovli, Nurullaboy saroyi va boshqa me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash ishida ishtirok etgan. Uning qalamiga mansub «Xorazm tarixiga doir materiallar» hamda «Xiva xonligi tarixiga oid materiallar» nomli qo'lyozmalar avlodlari qo'lida, ya'ni shaxsiy arxivida saqlanib qolgan bo'lib, 1-qo'lyozma 24 bet asosiy matn hamda Xiva xonligi madrasalari ro'yxati keltirilgan ilovadan iborat.

Mazkur qo'lyozmada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligidagi masjid, madrasalarning vaqf mulklari, ularning daromadlari, vaqf muassasasi xodimlari haqida, shuningdek, saroy mansablari va amaldorlari, bekliklar soni va ular ixtiyoridagi yerlar haqida ma'lumotlar berilgan. Quyida shu qo'lyozmadagi ma'lumotlar ilk bor chop etilmoqda. Matnda kelgan ayrim so'z va iboralar hozirgi o'zbek tili qoidalariga mos ravishda tahrir qilindi.

t.f.n. Q.K. Yakubov

Xiva xonlari vaqtidagi amaldorlarning mansab o'rinlari

1.	Amirlik o'rni	2.	Beklarbegi
3.	Otaliq	4.	Biy – qozoq, qoraqalpoq
5.	Shig'ovul – Elchilar boshlig'i	6.	Chanog'oloqbegi
7.	El oqsoqoli	8.	Chag'otoy Inoq
9.	Arbob	10.	Udaychi
11.	Inoq	12.	Mirobbegi
13.	Qushbegi	14.	Mehtar
15.	Vazir	16.	Shayx al-Islom
17.	Yasovulboshi	18.	Mahramlar boshlig'i
19.	Karvonboshi – Savdo ishlari	20.	Parvonachi – xon oldida xizmat qiluvchi
21.	To'shakchi	22.	Bosh mehtar
23.	Yilling (Ellik)boshi	24.	Yuzboshi
25.	Dahboshi (O'n boshi)	26.	Tunqotar
27.	Mirshabboshi – Jallod boshlig'i	28.	Naqib
29.	Qozikalon	30.	Qozi O'rda (Qozi Askar)
31.	Qozi xoss	32.	Devonbegi
33.	Mirzaboshi	34.	Xazinachi
35.	Dorug'abegi–Amirlik o'rni	36.	Qurjiboshi
37.	Miroxur – Otboqarlar boshlig'i	38.	Sarhang – Oxur boshliq
39.	Saritib–To'pchilar boshlig'i	40.	Dasturxonchi

@tarixchi_kutubxonasiga

Xiva xonligi tumanlaridagi ekin yerlari va xo'jaliklari (1911-yilga oid ma'lumot)

T/r.	Xon tomonidan 1911-yil-da hokimlar tayinlangan tumanlar nomi	Ekin ekilgan yerlar hisobi (tanob hisobida)	Shundan paxta, g'o'za (tanob hisobida)	Xo'jaliklar-ning soni
1.	Darg'on Ota	60000	900	500
2.	Pitnak va Sadvor	10000	1500	1700
3.	Hazorasp	25000	3750	5000
4.	Besh Ariq	30000	4500	4000
5.	Xiva	50000	7500	10000
6.	Xonqa	12000	3000	2500
7.	G'ozi Obod	8000	1500	1500
8.	Gurlan	30000	6000	4500
9.	Mang'it ham Qaroyilg'in	45000	9250	2000
10.	Qipchoq	12000	3000	1500
11.	Xo'jayli	20000	8000	2000
12.	Qorodoshli Turkmaniya	20000	3000	2000
13.	Ilyoli	48000	9600	3500
14.	Qilichboy	18000	3600	1500
15.	Taxta Turkmaniya	40000	8000	7000
16.	Manoq	20000	3000	2800
17.	Toshovuz	40000	12000	5500
18.	Urganch	25000	5000	4500
19.	Kat	12000	1800	2500
20.	Shoh Obod	10000	250	1500
21.	Qo'ng'irot	1500	ekilmagan	–
22.	Fursi Chovdur	30000	3000	7000
23.	Ko'hna Urganch	40000	2250	8500
24.	Chumonoy	5000	2750	4000

Xivadagi madrasalar ro'yxati:

T/r	Madrasa nomi		
1.	Pahlavon Bobo madrasasi	29.	Ya'qub Mehtar madrasasi
2.	Arabxon madrasasi	30.	Muhammad Murod Devonbegi madrasasi
3.	Sherg'ozixon madrasasi	31.	Ibrohim Xo'ja madrasasi
4.	Allohqulixon madrasasi	32.	Islom Xo'ja madrasasi
5.	Rahimqulixon madrasasi	33.	Yusuf Yasovulboshi madrasasi
6.	Muhammad Aminxon madrasasi	34.	Do'st A'lam madrasasi
7.	Muhammad Rahimxon madrasasi	35.	Qozi Salim madrasasi
8.	Mozori sharif madrasasi	36.	Shoh Qalandar madrasasi
9.	To'rt Shabboz madrasasi	37.	Abulg'ozi Xorazmiy madrasasi
10.	Nurullabek madrasasi	38.	Eshmurod Mirob madrasasi
11.	Sayyid Muhammad Mohi Ro'y madrasasi	39.	Qaro Ko'z madrasasi

@tarixchi_kutubxonasiga

12.	Sayyid Muhammad Mohi Ro'y Kichik madrasasi	40.	Sayyid Niyoz Sholikor madrasasi
13.	Otajon To'ra madrasasi	41.	Muhammad Murodboy madrasasi
14.	Muso To'ra madrasasi	42.	Muhammad Niyoz Devonbegi madrasasi
15.	Amir To'ra madrasasi	43.	Muhammad Rasulboy Mirzoboshi madrasasi
16.	Qutluq Murod Inoq madrasasi	44.	Qadam Yasovulboshi madrasasi
17.	Abdullohxon madrasasi	45.	Ummat Mahram madrasasi
18.	Nurullohboy madrasasi	46.	Abdurasulboy madrasasi
19.	Rofinak madrasasi	47.	Polvon Qori madrasasi
20.	Muhammad Amin Inoq madrasasi	48.	Gadoyniyoz Yasovulboshi madrasasi
21.	Ko'hna Imorat madrasasi	49.	Pozaboy madrasasi
22.	Fozilbek madrasasi	50.	Tillaboy madrasasi
23.	Nurullaboy madrasasi	51.	Xudoybergan Karvon madrasasi
24.	Mehtar Oboddagi Muhammadxon madrasasi	52.	Mirzo Sarrof madrasasi
25.	Sayyid Homid To'ra madrasasi	53.	Otajonxo'ja madrasasi
26.	Rahmonberdibiy madrasasi	54.	Beginiyozboy madrasasi
27.	Chubin madrasasi	55.	Boyjon Juvozchi madrasasi
28.	Xo'jash Mahram madrasasi		

«Xiva xonligi tarixiga oid materiallar»

Ikkinchi – «Xiva xonligi tarixiga oid materiallar» qo'lyozma asari O'zR FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar jamg'armasida 11645-inventar raqami ostida saqlanadi. Asarda Xiva xonligida masjid va madrasalarning soni va qurilgan sanasi, vaqf mulklari va daromadlari, vaqf muassasasi xodimlari soni, saroy mansablari va amaldorlari haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Mazkur manbada qayd etilgan ba'zi ma'lumotlarda, xususan, statistik ma'lumotlar umumiy natijasining hisob-kitoblarida chalkashliklar uchraydi. Hujjatning asl nusxasini saqlab qolish maqsadida ularga tuzatish kiritilmadi. Ammo matndagi ba'zi so'zlarga aniqlik kiritildi.

t.f.n. Q.K. Yakubov

Xiva shahrining ichkari va tashqari qal'asining kattaligi 468 tanobdur. Har ikki yarim tanob bir gektar bo'ladi.

@tarixchilarkutubxonasiga

Ichkari qal'adagi masjidlar	34 ta
Tashqari qal'adagi masjidlar	45 ta
Jami masjidlar:	79 ta
Xiva shahri ichkarisi va tashqarisidagi madrasalar	62 ta
Xiva shahri ichkari qal'asidagi xo'jaliklar	909 ta
Xiva shahri tashqari qal'asidagi xo'jaliklar	4 049 ta
Jami xo'jaliklar:	4 958 ta
Xiva shahri ichkari qal'asining jon hisobi	3 316
Xiva shahri tashqari qal'asining jon hisobi	13 767

Ushbudagi materiallar Xiva muzeyida saqlanibdurg'on invintar numrasi 3147. 1922-yilda o'zbek texniki [muhandisi] Matkarim Naqqosh Ne'matullo o'g'lini o'z qo'li birlan chizib olg'an plandin [rejadan] ko'chirib ushbug'a yozdim. Boltayev Abdulloh, Xiva muzeyi.

Madrasalar ichida bo'lg'on hujralarning soni 1 229. Shul madrasalarning vaqf yerlarini miqdori 244 104 tanob.

Xorazm bo'yincha umumiy vaqf o'runlari:

	Vaqfga egalik qiluvchi muassasalar	Vaqf yerlari (tanob hisobida)
1	Xorazmda Xivadin boshqa rayonlardag'i madrasalar	61
2	Masjidlarining jam'isi	1 363
3	Qorixonalarining jam'isi	164
4	Mozorlar	74
5	Katta jome' masjidlar	63
6	Maktablar	1 363
7	Katta daxmalar	10
8	Muqaddas ziyoratgohlar	71

Yuqoridagi vaqf o'runlarining vaqf yerlarining jam'i – 284326 tanob. Shundan ekilibdurg'on yerlar 122855 tanob bo'lub, ekilmay forqov bo'lubdurg'on yerlar 161417 tanob yer bo'lg'ondir.

Xivadagi bo'lg'on 63 ta madrasadagi xizmatchilar hisobi:

1	Dars beruvchi oxundlar	158 nafar
2	Imomlar	74 nafar
3	Muazzinlar	62 nafar
4	Sartaroshlar	56 nafar
5	Farroshlar	60 nafar
6	Quduqchilar	31 nafar
7	Suvchilar	43 nafar
8	Mutavallilar	69 nafar

@tarixchi_kutubxonasiga

HASANMUROD LAFFASIY

«Gulshani saodat»

Xivalik tarixchi va tazkiranavis ***Hasanmurod Laffasiy*** *(1880–1949) qalamiga mansub «Gulshani saodat» asari Asfandiyorxon (1910–1918) hukmronligi tarixiga maxsus bag'ishlangan mahalliy asar bo'lib, u Xiva xonligining mazkur davriga oid eng mufassal va qimmatli manbalardan biri sanaladi.*

Asar muallifining to'liq ismi Mullo Hasanmurod qori ibn Muhammadamin ibn Muhammadnazar devon ibn Qilichniyozboy ibn Niyozmuhammad mahramdir. Laffasiyning bobolari xonlar saroyida xizmat qilgan. U o'zi tug'ilib o'sgan Xiva shahridagi an'anaviy boshlang'ich maktabda, so'ng madrasada ta'lim olgan. 1933-yildan Xiva davlat muzeyida faoliyat ko'rsatgan.

Asar Xiva xonlari Asfandiyorxon, Sayyid Abdullaxon hukmronlik qilgan davr voqealarini qamrab oladi. Uning ikkita qo'lyozmasi O'zR FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar jamg'armasida 7771 va 7797-inventar raqamlari ostida saqlanmoqda. Quyida asarning Xiva xoni Asfandiyorxonning taxtga chiqish marosimi, mamlakatda olib borilgan qurilish, me'morchilik ishlari, xonning Peterburgga safari va xonlik ijtimoiy-siyosiy tarixiga oid qismidan lavhalar keltirildi.

Asarda uslubiy («Xon hazrat fuqaroning osoyishi va farog'ati uchun buyurdilarkim, tamomi fuqaro va podshohliq yerlar[i]g'a tanob urmakg'a amr qildilar) va imloviy («gunohig'a» o'rniga «gunohsig'a», «yasovul» o'rniga «yasovil» va h.k.) xatolar, g'aliz jumlalar uchraydi. Tabdilda bunday xatolar, shuningdek, «va» bog'lovchisini tashlab ketish, «p» harfi o'rniga «f» qo'llash singari o'sha davrlar turkiy yodgorliklariga xos xususiyatlar qayd etilmasdan, tuzatildi, ko'pincha xatolar bilan yozilgan arabiy duolar tushirib qoldirildi. Tabdil, asosan, 7797-qo'lyozma asosida amalga oshirildi.

t.f.n. N.Toshev

...Hijriyakim, 1328 – muvofiq it yili – mohi sha'bon ul-mukarram yigirma to'rtida dushanba kuni [1910-yil 30 avgust; dushanba – 29 avgust[1]] shomdin to'rt soat avval hazrati xilofatpanoh, saltanatdastgoh, sipehrif'at, xurshidmartabat, iskandarnishon, sulaymonmakon, Jamol ul-Mulk va-l-Milla, Jalol ud-Din Sayyid Asfandiyor Muhammad Bahodurxoni soniyi farruxiqbol taxti saltanatg'a minib, toji xusravonani muborak boshig'a kiyib, nigini Sulaymoni hukumatni qabzayi taxti tasarrufig'a oldi...

[1] Xiva manbalarida keltirilgan hijriy sanalar ba'zan bir yoki ikki kunga farq qiladi. Bu narsa hafta kunlari berilganda ma'lum bo'ladi.

@tarixchi_kutubxonasiga

...Chun asari farog'at, sharafi rafohiyatdin shahar-u sahrolarda mahofili aysh-u nishot orosta va bog'-u murg'zorlarda majolisi zavq-shavq birlan inbisoti farog'atda bo'lub, ag'niyodin to fuqaro sarxushi bodayi mast surur erdilar va umarodin to raoyo tamomi faqir-u g'ani bodayi maynushlig' qilib, xon hazratlarining haqlarida duoyi sanolar qilib, farog'atda bo'ldilar. Xon hazratlari tamomi fuzalo-yu supaholar-u amaldorlarni [5ᵇ-varaq] o'z joy-amallarida barqaror qo'yib, Qutluqmurod yasovulboshini azl etib, o'rnig'a Shayxnazarboy valadi Muhammadmurod devonbegini yasovulboshi qilib, Sayyid Islom Xo'jag'a vaziri akbarlik mansabin berdilar...

...Xon hazrat fuqaroning osoyishi va farog'ati uchun tamomi fuqaro va podshohliq yerlarg'a tanob urmakg'a amr qildilar. Tamomi talabgorlar bel bog'lab, amrlarig'a qulluq etib, Xivaning bir haddi sharqi Sadbar va Dorg'onota erdi, ondin boshlab tanob [6ᵃ-varaq] urmaqg'a amr qildilar. Talabgorlar ruxsat olib chiqib ketdilar...

...Ondin so'ng xon hazratimiz Sayyid Islom Xo'jag'a amr qildilarkim, Xivaning shimol taraf darvozasikim, eski bo'lub erdi, ani yiqib, o'rnig'a tozadin ikki qo'sh darvoza bino qildurg'il, nechunkim Xivaningdurkim, yo'li omma[1] [6ᵇ-varaq] erdi, fuqarolar qal'ag'a kirib-chiquvda ko'p muattal bo'lur erdilar. Sayyid Islom Xo'jamiz amrlarig'a muvofiq etib, qo'shdarvoza binosin Otajon devong'a buyurdilar.

Ondin so'ng xon hazratimiz Sayyid Islom Xo'jamizg'a fuqarolarning farog'atligi va osoyishi uchun va savdogarlarning manfaati uchun Xiva qal'asining shimolida hazrat Pahlavon Ota anhorining janubida rohi ommaning g'arbida bir po'shta-teleg'romxona bino qilmoqg'a amr qildilar, tokim savdogarlar jamoasining ishi, sotuv-oluv muattal bo'lmasun. Va yana yo'lning sharqida, Pahlavon Ota [7ᵃ-varaq] yofining[2] janubida bir shifoxona-xastaxona bino qilmoqg'a amr qildilar, tokim fuqaro, g'arib, yetim, beva, g'ani, faqirlar manfaat olsunlar, har nave marazi va har nave kasali bo'lsa, xastaxonada shifo topsunlar. Xiva hakimlari johil, nodon turur, tib ko'rmay, marazin bilmay, kasallarg'a davo qilurlar, deb fuqaroparvarlik qilib, xayr-ehson qilmoqg'a amr qildilar. Sayyid Islom Xo'ja Rahimbergan mahramlarig'a buyurdilar, tokim talabgor jam bo'lub, shifoxona binosig'a mashg'ul bo'ldilar.

Bozor narxi – g'alla ko'p qimmat erdi; bug'doy, jo'gari yigirma besh va o'ttuz tanga erdi. Bechora fuqarolar chiqib kunlik ishlar erdilar. [7ᵇ-varaq]. Har kunda talabgorlarg'a besh non, uch tanga berur erdilar, tokim bechora fuqarolar bir nonni o'zi yeb, qolg'an to'rt nonni bola-chaqalarig'a berib avqot kechirib, xon hazratimiz haqig'a duo qilur erdilar.

---

[1] *Yo'li omma* (yoki *rahi omma*) – ko'pchilik yuradigan katta yo'l.

[2] *Yof* – ariq, kanal.

@tarixchi_kutubxonasiga

Va yana xon hazratimiz ko'ngillarig'a vaqf ehson qilmaq tushub, Sayyid Islom Xo'jag'a buyurdilarkim, hazrat Pahlavon Mahmud Ota yofining shimolida, yo'lning sharqida bir madrasa bino qildurg'il, tokim ikki burjida ikki ko'k minor bo'lsun, ichida qirq hujra, olti daxmayi shohiy bo'lsun. Sayyid Islom Xo'ja amrlarig'a muvofiq [8ª-varaq] madrasa binosig'a mashg'ul bo'ldi...

...[10ª-varaq] Ushbu yil 25-nchi mohi zulqa'da [1912-yil 5-noyabr] po'shta teleg'romxona binosi bitib erdi, xon hazratimiz xushnud bo'lub, tamomi ulamolarg'a to'y berib, po'shtaxonani obod qilib, yurt manfaati uchun xushnud bo'ldilar...

...[17ᵇ-varaq] Sanayi 1331-nchi – muvofiq bars yili – 13-nchi mohi rabi ul-avvalda [1913-yil 20-fevral] xon hazratimiz ikkinchi martaba Oq Podshoh tarafig'a safar etmak uchun o'runlarida fuqarolarning arz-dodi uchun Qoziyi dor ul-qazo Muhammadsalim oxund birlan Qoziyi askar Hikmatulloh oxund, Devonbegi Husaynmuhammadboyni qo'yub, qal'a muhofazati uchun Shayxnazarboyni qo'yub, 13-nchi mohi rabi ul-avval seshanba kun safarg'a chiqib ketdilar. Ikkinchi Nikalovich Oq Podshoh xizmatlarig'a borib, o'n ikki kun xizmatlarida turub, yana Oq Podshoh ko'p mehribonliq qilib, ko'p hadya berib, Xiva qaytmoqg'a ruxsat berdilar. 12-nchi mohi jumodo ul-avvalda [1913-yil 19-aprel] inbisoti farog'at birlan [18ª-varaq] kelib, taxti saltanatda barqaror bo'ldilar. Yurtimizg'a ajab bir xushhalliq dast berib, tamomi faqir-u g'ani fuqarolar xon hazratimiz haqig'a duoyi xayr etib, farog'atda bo'ldilar...

...Mazkur yili mohi zulqa'dada [1913-yil oktabr] shifoxona-do'xturxona binosi bitib erdi. Xon hazratimiz ko'p xursand bo'lub, Rusiya davlatidin Oq Podshoh Aleksoy Nikalovichdin ruxsat olib, ikki erkak do'xtur, ikki nochor do'xtur kelturub, tamomi ulamo-yu supoholarg'a kasalxona [19ᵇ-varaq] ichra bir ulug' to'y berib, do'xturlarni qo'ydilar. Shul to'yg'a Toshkanddin general-guburnatir noyibi G'alkin[1] ham kelib, Xiva dor-us-saltanat ulamolarining og'izbir, diljamligin ko'rub ko'p xursand bo'lub, xon hazratimizga ko'p-ko'p xushomadlar aytib, do'xturlarg'a ham ko'p in'om-ehson berib, yana Toshkand qaytib ketdi. Tamomi faqir-u g'ani, supaholar ham andak marazi bo'lsa, do'xturxona borib, shifo bo'lur erdilar. Xotun jamoasining marazin xotun do'xtur qarab sihat qilur erdi. Tamomi faqir-u g'ani fuqarolar xon hazratimiz va shahzoda valiahd Temurg'ozi to'ramiz haqlarida subh-u shom, balki ala-d-davom salavoti xums adosidin [20ᵇ-varaq] so'ngra duo qilib, farog'atda bo'ldilar.

Sanayi 1332-nchi [1913–1914] yil erdikim, xon hazratimiz ko'rdilarkim, hazrat Pahlavon Mahmud Ota yofining shimolidagi o'zlari bino qildurg'an

[1] Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori (1911–1916-yillarda) general-leytenant A.S. Galkin nazarda tutilmoqda.

@tarixchi_kutubxonasiga

madrasa va daxmayi shohonalari ko'p ziq va ham zayxona erkan. Muhammadvafo karvonboshi birlan Oshur mahramg'a buyurdilarkim, bul madrasani yiqib, hazrat To'rt Shahboz javorlarida hazrat Abulvafoyi Xorazmshoh ustida bir oliy madrasa bino qilg'il, deb. Chun Muhammadvafo karvonboshi xon hazratimiz amrlarig'a muvofiq qirq hujra[li] madrasa, ikki ko'k minor, olti shohi daxmani yiqib, hazrat Abulvafoyi Xorazmshoh ustida bir oliy madrasa binosig'a mashg'ul [20[b]-varaq] bo'ldilar...

MUHAMMAD ALI BALJUVONIY

«Tarixi nofeiy» («Foydali tarix»)

Muhammad Ali ibn Muhammad Sayyid Baljuvoniy Samarqand va Buxoro madrasalarida tahsil olgan, davlat ishlarida faoliyat yuritgan. Uning «Tarixi nofeiy» nomli qo'lyozma asari Buxoro amirligining XIX – XX asrlardagi tarixiga oid muhim manbalardan biri bo'lib, 1923–1927-yillarda fors tilida yaratilgan[1].

Asar mazmunan 15 qismga bo'linsa-da, qo'lyozmada 7 ta bob aks etgan. Unda muallif XX asr boshida Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni voqealar guvohi sifatida yoritadi. Asarda Buxoro amirligining ma'muriy boshqaruv tizimi va tartiblari, amaldorlar faoliyati, harbiy kuchlari, shaharlari, ta'lim tizimi, madrasalari, masjid hamda qabristonlari mamlakat hayotidagi muammolar haqida qiziqarli ma'lumotlar bor. Quyida shu asardan parchalar keltiriladi.

t.f.d., prof. Sh.Vohidov

Buxoroyi sharif o'lkasining fazilatlari haqida

Bilmoq lozimki, bu shaharni «ilm bog'chasi» deydilar. Buxoro so'zining asl ma'nosi ilmdir. Binobarin, Buxoro deb atashgan. Bu shaharda ulamo, fuzalo, sulaho [solih odamlar] ko'pdir. Unga «Islom markazi» deb nom berganlar... Podshohlar vasiqalarida «Sonahullohu anil-ofoti va al-baliyot» [«Olloh uni ofat va balolardan asrasin»] deb yozardilar. [Buxoroda] shahid avliyolar va ulug'lar ko'p bo'lgan. Hazrati Ayyub (a.s.) Buxoro va Buxoro ahli uchun ko'p duolar qilganlar. Bu baladni [shaharni] «Baldat ul-omon» [Tinchlik shahri] hamda «Foxira» [faxr etuvchi] deydilar. Sabab shulkim, qiyomatda bu o'lkadan, uning ahlidan payg'ambarlarning faxri bo'lmish Rasulimiz (s.a.v.) faxr qilar ekan. Shuning uchun Buxoroni «foxira» derdilar.

[1] Asar ilk bor Ahror Muxtorov tomonidan tojik tilida nashr etilgach, uning tarjimasi asosida 2001-yilda o'zbek tiliga o'girilib, so'zboshi va izohlar bilan chop etilgan. *Qarang:* Muhammad Ali Baljuvoniy. Tarixi nofeiy. Tojik tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar mualliflari Shodmon Vohidov, Zoir Choriyev. – T., «Akademiya». – 2001.

@tarixni_kutubxonasiga

Bu o'lkaning xalqi juda rahmdil va farishtasifat, musofirdo'st, ilmomuz, nozikfahm, shirinso'zdirlar. Ba'zi tarixiy asarlarda bu o'lkani shunday tavsif etganlar: Buxoro jannat bo'stonlarining biri, uning qishloqlari zebolikda jannatning ko'shklariga o'xshar, havzlari ra'nolikda firdavs havzlariga monand, uning masjidlari va madrasalari jannat ul-adan qasrlariga o'xshaydi, ulamolari latofatda samarali daraxtlarga o'xshaydi, bu o'lkaning ahli sharofatda farishtalarga monand, devor-u qal'alari jannatning imoratlariga o'xshaydi.

Banda bu o'lkani qancha vasf qilib, hamd-u sanolar aytsam ham, so'zim kamlik qiladi, bu risolaga ham sig'maydi. Agarda Buxoroning vasfini to'liq yozsam, hamd-u sanoim uchun ming man qog'oz kerak bo'ladi.

Bu baldai foxirada avliyo va taqvodorlar ko'pdir. Qariyb 400 ta madrasasi, bir qancha qabristonlari va qorixonalari mavjud. Men bilgan madrasalar nomini quyida keltiraman:

1.	Ko'kaldosh madrasasi	2.	A'lam madrasasi
3.	Devonbegi madrasasi	4.	Pushaymon madrasasi
5.	Muhammad Nazar madrasasi	6.	Abdulhafiz madrasasi
7.	Govkushon madrasasi	8.	Rashid madrasasi
9.	Mirzo Bahrom madrasasi	10.	Modari xon madrasasi
11.	Muhammad Sharif madrasasi	12.	Xo'rjin madrasasi
13.	G'oziyon madrasasi	14.	Mullo Hasan madrasasi
15.	G'arbiya madrasasi	16.	Al-Banoqo madrasasi
17.	Qurbon Attor madrasasi	18.	Mirakoni Nav madrasasi
19.	Qurbon Go'rkov madrasasi	20.	Jo'yborcha madrasasi
21.	Fatxullo Qushbegi madrasasi	22.	Xiyobon madrasasi
23.	Mavlono Sharif madrasasi	24.	Chuchukoyim madrasasi
25.	Chuqur madrasasi	26.	Naqib madrasasi
27.	Zargaron madrasasi	28.	Salimbek madrasasi
29.	Kamol Xo'ja madrasasi	30.	Xalifa Xudoydod madrasasi
31.	Bozori cho'p madrasasi	32.	Qalmoqjon Oyim madrasasi
33.	Miskin madrasasi	34.	Oli Sangin madrasasi
35.	Badalbeki Ko'hna madrasasi	36.	Oli Cho'bin madrasasi
37.	Badalbeki Nav madrasasi	38.	Shayx Islom madrasasi
39.	Miri Arab madrasasi	40.	Qofilon madrasasi
41.	Olimxon Nav madrasasi	42.	Abdullaxon madrasasi
43.	Tursunjon madrasasi	44.	Muhammad Ali Hoji madrasasi
45.	Afg'on madrasasi	46.	Asiriya madrasasi
47.	Ayoz madrasasi	48.	Ahmadjon po'stindo'z madrasasi
49.	O'tkur Qushbegi madrasasi	50.	Shodmonbiy madrasasi
51.	Hoji Zohid madrasasi	52.	Boloyi Havz madrasasi
53.	Husaynboy madrasasi	54.	Xo'ja Nihol madrasasi

@tarixchi_kutubxonasiga

55.	Mirzo Hamdam madrasasi	56.	Dorush-shifo madrasasi
57.	Atoliq madrasasi	58.	Askarbek madrasasi
59.	Xo'ja Davlat madrasasi	60.	Kofarobodjon Bahodur madrasasi
61.	Cho'bini Hammomi Ko'hna (Eski yog'och hammom madrasasi)	62.	Fathali dallol madrasasi
		63.	Mirzo Ulug'bek madrasasi
64.	Kosagaron madrasasi	65.	Mullo Abdushukurboy madrasasi
66.	So'fiyon madrasasi	67.	Mullo Abdushukur Cho'bin madrasasi
68.	Sobungaron madrasasi	69.	Go'sfand madrasasi
70.	Turdiali madrasasi	71.	Nazarcha Husayn madrasasi
72.	Mirakoni Ko'hna madrasasi	73.	Domullo Sher madrasasi
74.	Miyon Molik madrasasi	75.	Sadrbek madrasasi
76.	Jo'ybori Kalon madrasasi	77.	Xalifa madrasasi
78.	Shayx Jalol madrasasi	79.	Xidirboy madrasasi

Hamchunin, bu baladning ikkita mashhur kattakon masjidlari bor. Aslida, bu binolar besh vaqtlik namoz uchun qurilgan bo'lib, juda ham kengdir. Bu ikki masjidning har birida taxminan 3–4 ming namozxon jamoat bilan namoz o'qishlari mumkin. Avvali, Labi Havzi [Labi Hovuz] Devonbegi masjidi, ikkinchi, Boloyi Labi Havzi Oliy masjidi. U ham juda oliy va serviqordir.

Buxoroda yana 17 ta jome' masjidi mavjud. Avvalan Masjidi Kalon binosiga Imom Qutayba (r.a.)[1] asos solgan, keyingi bino Shams ul-mulknikidir[2]. Uchinchi binoni Abdulazizxon ibn Abdullaxon ibn Mahmud Sulton[3] qurgan. U hozir Abdullaxon nomi bilan mashhur. Boshqa bir rivoyatga ko'ra, ikkinchi imorat qizil Arslonxonniki[4] bo'lgan ekan.

Poyanda [Poyi Ostona – *Sh.V.*] masjidi, Usto Ro'zi masjidi, Shayx Shona masjidi, Govkushon masjidi [Xo'ja nomi bilan mashhur], Mavlono Muhammad Sharif masjidi, Shoh Aqso masjidi, G'oziyon masjidi, Shikastaband masjidi, Xiyobon masjidi, Jo'ybor masjidi, Mir Do'stum masjidi, Bobo Porado'z masjidi, Shayx ul-islom masjidi, Fayzobod masjidi, Hazrat Imom Abu Havs Kabir masjidi, Xalifayi Chin masjidi.

Madh etilayotgan o'lkaning uchta masjidida iydayn [ikki iyd – hayit] namozini o'qirdilar: birinchisi – Masjidi Kalon, ikkinchisi – Masjidi Poyanda, uchinchisi – Shayx Jalol madrasasi darvozaning tashqarisida. Shams ul-mulk chorbog'ida ham iydayn namozlarini o'qiydilar.

---

[1] *Qutayba ibn Muslim* – arab sarkardasi. 705-yili Xurosonda hokim bo'lgan.

[2] *Shams ul-mulk Malik* – Shams ul-mulk Nasr ibn Ibrohim Tamg'ochxon Qoraxoniy 1073–1079-yillarda Movarounnahrda hokimlik qilgan.

[3] *Abdulazizxon ibn Abdullaxon* – Shayboniylar sulolasining hukmdorlaridan, 1540–1550-yillarda Buxoroda hukmronlik qilgan.

[4] *Qizil Arslon* – Muhammad ibn Sulaymon, Qoraxoniylar sulolasidan, hukmronlik yillari hijriy 1102–1130 [1690–1717]-yillar.

@tarixchi_kutubxonasiga

Buxoroda mashhur avliyo va murshidlarning qabrlari ko'pdir. Men ularni sanab o'taman:

Eng birinchisi, avliyolar sarvari bo'lmish Baho ul-haq vad-din[1]; 2. Hazrati shayx Sayfuddin-shayx ulamo qutbi[2]; 3. Hazrat Bobo Shavq[3]; 4. Hazrat Shayx Jaloliddin Boharziy[4]; 5. Hazrati Imlo[5]; 6. Hazrat Xalifa Xudoydod Vali[6]; 7. Hazrati Xo'ja Muhammad G'injor[7]; 8. Podsho Ismoil Somoniy[8]; 9. Chashmai Hazrat Ayyub; 10. Toj ush-sharianing avlodi, «Sharhi Viqoya»ning muallifi[9]; 11. Xo'ja Chorshanbe, uni Hoshid Gumnom ham deydilar. Arab sultonlaridan bo'lgan ekan[10]; 12. Imom Qozixon[11]; 13. Mullo Ahmad Jandiy, «Sharhi Aqoid» [asarining] muallifi[12]; 14. Mavlono Shamsiddin Qahistoniy[13]; 15. Mavlono Husayn[14]; 16. Xo'ja Nurobod Imom Abu Hafs, Mir Umoduddinning shogirdi. U esa Abu Hanafiya rahmatlining shogirdi bo'lgan; 17. Hazrat Imom Abu Hafsi Kabir Buxoriy[15]; 18. Hazrat Xo'ja

---

[1] *Baho ul-haq vad-din* – Xo'ja Bahovuddin Naqshband, ya'ni Sayyid Muhammad Bahovuddin ibn Sayyid Jaloliddin. 1319–1389-yillari yashagan buyuk orif va murshid.

[2] *Shayx Sayfiddin* – shayx Sayfiddin Boxarziy, 1174–1260-yillarda yashagan Abul-Maoli Said ibn Mutathar nazarda tutilmoqda.

[3] *Bobo Shavq(iy)* ([Muhammad] Sharif Shavqiy To'raqo'rg'oniy) – shoir. Milodiy 1841–1875-yillarda yashab ijod qilgan.

[4] *Shayx Jaloliddin Boharziy* – murshid va orif.

[5] *Hazrati Imlo* (Mullo Muhammad Imlo ibn Alouddin ibn Aziz ibn Shayx Yusufiddin ibn Xorunxo'ja Arab) – 1688-yili Afg'onistonning Sangarak qishlog'ida tug'ilib, 1749-yili Buxoroda olamdan o'tgan.

[6] *Xudoydod Vali* – XVIII asrda yashagan, Buxoroda shuhrat qozongan ishqiya sulukining murshidlaridan.

[7] *Xo'ja Muhammad G'injor* – Abu Abdulloh Muhammad ibn Abubakr Ahmad ibn Muhammad ibn Sulaymon ibn Komil Buxoriy Varroqiy G'unjor. 1021-yili olamdan o'tgan.

[8] *Ismoil Somoniy* – Somoniylar sulolasidan, 874–907-yillarda amir bo'lgan.

[9] *Toj ush-sharia* – Umar ibn Sadr ush-shariya, 1274-yilda vafot etgan. Bu olim «Misor ul-iqbol fi mafoxiri shol fi tarix» [fors tilida], «Min al-bu'sati ila xilofati Ali» va «Nihoyat ul-kifoya fi diroyat il-hidoya-al-Marg'inoniy fi-furu'» [arab tilida] asarlarining muallifidir.

[10] *Hoshidi Gumnom* – Abu Abdulloh Hoshid ibn Abdulloh as-So'fi al-Obid al-Buxoriy. Hijriy 246 [860]-yili Buxoroda vafot etgan. Asli arab amirlaridan bo'lgan. Amirlikni so'filikka almashtirgan olim.

[11] *Imom Qozixon* – Hasan ibn Mansur ibn Mahmud ibn Abdulaziz al-Marg'iloniy. «Fatoviy», «Jomi' ul-kabir» va «Jomi' us-sag'ir» asarlarining muallifi. Hijriy 592 [1195]-yili vafot etgan.

[12] *Ahmad Jandiy* – shayx ul-imom Abu Nasr Ahmad ibn al-Fazl ibn Muso al-Jandiy bo'ladi.

[13] *Mavlono Shamsiddin Qahistoniy* – Mulla Shamsiddin Muhammad al-Qahistoniy [XVI a.]. «Al-kofiya» asarining shorehi.

[14] *Mavlono Husayn* – Muhammad Sharif ibn Mavlono Muhammad al-Husayniy al-Alaviy. «Sharif al-Buxoriy», «Hoshiya ala al-favoidi ziyoiya» asariga sharh yozgan olimdir.

[15] *Imom Abu Hafs* – I. Ahmad ibn Hafs ibn al-Zabirkon al-Buxoriy – «Abu Hafsi Kabir», hijriy 150–217 [767–832]-yillarda yashagan. II. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad Safkardariy – «Abu Hafsi Sag'ir», 264 [877]-yilda olamdan o'tgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ismat[1]; 19. Siyovush Vali[2]. Chor Bakr ham borlar[3]. Juda muxtasar qilib zikr qildim, illo bu shaharning har bir ko'chasida yuzdan uch yuzgacha avliyoi komil ko'milgan. Qizil Arslonxonning qabri ham Buxorodadir.

Buxoro shahri va nohiyalarida boshqa azizlar ham ko'p o'tgan, har birlarining manoqiblari haqidagi kitob ikki yuz-uch yuz bet keladi va yosh-u qarilarga manzur bo'lgan.

Shular jumlasidan avliyolar sarvari Hazrat Xo'ja Abdulxoliq G'ijduvoniydir[4]. Yana Sayyid Amir Kulol[5], Bobo Samosiy[6], Xo'ja Orif Revgariy[7], Xo'ja Ubonkim, Usmon zun-nuraynga tutingan o'g'il bo'ladi. Buxoro nohiyalarida taxminan 8 farsax keladigan masofada bir qancha haqiqat pirlari yotibdi. Har birlari qutb va g'avs martabasigacha yetganlar.

Bu zaif banda sochlarining har bir tolasi bu jo'mardlarning vasfini qilsa ham ming yil yetmaydi.

Bu shaharda 196 ta mahalla, 299 ta besh vaqt namoz o'qiladigan masjid mavjud. Bu diyorning atrofi devor va qal'a[lar] bilan o'rab olinib, 11 ta darvoza o'rnatilgan:

1. Qarshi darvozasi, uni Qavola darvozasi ham deydilar. 2. Boboyi Porado'z darvozasi. 3. Namozgoh darvozasi, Silohxona [qo'rxona] darvozasi ham deyilur. 4. Shayx Jalol darvozasi. 5. Qorako'l darvozasi. 6. Tirgaron darvozasi. 7. Talopoch darvozasi. 8. O'g'lon darvozasi. 9. Hazrati Imom darvozasi. 10. Samarqand darvozasi. 11. Mazori Bahoviddin darvozasi.

Qal'a binosiga imom Qozixon asos solgan. Haloku[8] davrida qurib bitkazilgan ikkinchi binosi hozirgacha saqlanib turibdi. Shaharda qabriston va maqbaralar ko'p. Shaharning o'rtasida Afrosiyob qurgan bir qal'a bor. Hozir uni Arki Oliy deydilar. Shaharda balandligi 96 gaz keladigan bir minora bor. Uni Qizil Arslonxon qurdirgan. O'sha minoradan turib namozga azon aytilgan. Kamina bu shaharning sifatini qancha gapirsam ham milliondan biriga teng kelmas...

---

[1] *Xo'ja Ismat [Buxoriy]* – Xo'ja Faxriddin Ismat Buxoriy. Milodiy 1426–1436-yillar orasida vafot etgan shoir.

[2] *Siyovush Vali* – Firdavsiyning «Shohnoma»sida vasfi keltirilgan Siyovush nazarda tutilgan.

[3] *Chor Bakr* – Abu Bakr Rig'damuniy, Abu Bakr Sa'd, Abu Bakr Tarxon (Abdulloh ibn Muhammad ibn Ali), Abu Bakr Fazl (Muhammad ibn al-Fazl ibn Ja'far al-Buxoriy)lar nazarda tutilgan.

[4] *Xo'ja Abdulxoliq G'ijduvoniy* (ibn Abduljalil. «Xo'jai jahon») – Xo'jagon tariqatining asoschilaridan. Milodiy 1103–1179-yillarda yashagan.

[5] *Sayyid Amir Kulol* (Sayyid Umar ibn Sayyid Kulol) – 1400-yilda vafot etgan, pir va murshid.

[6] *Bobo Samosiy* – Xo'jagon tariqatining murshidlaridan.

[7] *Xo'ja Orif Revgariy* – Xo'jagon sulolasining pirlaridan. Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida yashab, milodiy 1259-yilda vafot etganlar. «Orifnoma» nomli asarning muallifi.

[8] *Halokuxon (Elxon Haluka)* – 1256–1265-yillarda hukm surgan mo'g'ul hukmdori.

@tarixchi_kutubxonasiga

Buxoroyi sharif saltanati va podsholigining tartibi haqida

Shuni bilmoq lozimki, Buxoro podsholari aslida Sayyid nasablaridan bo'lib, ota yoki ona tomondan Choryori azim avlodlariga bog'lanadilar. Shu avlodi pok baxti kimni qo'llasa, u sultonlar darajasiga musharraf bo'lg'ay. Lekin Buxoro sultonligi meros qoldirilgan. [Podsho] hayot vaqtida loyiq farzandini «valiahd» qilgan. Uning tartibi shundaki, davlatxona a'yonlarini yig'ib ahd-u paymon qilib, valiahdini saltanatga loyiqligini e'lon qilgan. Otasi hayotligi vaqtida uni «valiahd» deb ataganlar.

Podsholik taxtiga ko'tarilish quyidagicha bo'lgan: hamma vazirlar, qozi ul-quzzot va muftilar kigizning to'rt burchagidan ko'tarib podsholik taxtiga qo'yib, sultonlik tojini boshiga kiygizib, islom bayrog'ini qo'liga berganlar. Keyin Qur'onni oldiga qo'yib aytganlar: «Shariat yo'lidan chiqish mumkin emas, hukmi shariatga mos kelgan ahkomlarga rioya qilib, iqror va farmonbardor bo'lish zarur», – deb ont ichirganlar. Agar shar'iy hukmlarga, Kalomulloh hukmlariga tajovuz etsa, Qur'onga havola etish joiz bo'lmagay. Diniy shart-sharoitlarni tushuntirib, shoh nomiga shohona tabl [nog'ora]larni urib: «Islom podshosi, amir al-mo'minin sayyid amir falon ibn falonning saltanat davri bo'ldi, Alloh uning hukmronligini va sultonligini abadiy qilsin», – deb jar solganlar.

Mamlakatning hamma ixtiyori uning qo'liga o'tib, hokimlarni tayinlash va u[lar]ni ishdan olish ham shohning buyrug'i bilan bo'lgan.

Podshoh taxti oldida bir qancha Shig'ovul, Mahram-u Mahramboshi, mehmonxona mahramlari xizmatda turganlar. Ariza va muborak nomlarni olib podshoga berganlar. Hudaychi ham amir xizmatida bo'lib, amirni doim duo qilib turgan. Hudaychining amali Shig'ovul amalidan yuqori turgan. Safar va harakat chog'ida [uzangida] Shig'ovul va Hudaychi amir bilan yurganlar.

Hudaychi va Shig'ovul qo'llariga tillo va kumushdan aso olib, bellariga tillo hamda kumush bilan bezatilgan kamarband taqqanlar.

Ularning hashamati, siyosati va ziynati shu darajaga yetgan edi.

Xizmat uchun mahramlar – ma'mur, mehmonxona mahramlari esa «mehmonxona amaldorlari» deb atalgan. Ular viloyat va shaharlar xizmatiga ma'mur hokimlarni nasb-u azl qilish [lavozimga tayinlash va ozod etish], da'vogarlar talablarini isloh qilish kabi ishlarni bajarganlar. Ularning har biri jibachi, qorovulbegi, miroxo'r, to'qsabo yoki beklik amalida bo'lgan. Amirning oliy marhamati bilan chorbog', tegirmon yoki boy sarpolarga ega bo'lishlari mumkin bo'lgan.

Amaldor bir nom [mansab] ila mashhur bo'lgan. Masalan, chuhra oqosi, mirobboshi. Agar bekzoda bek avlodi bo'lsa, avvalo, tunqotar, keyin jibachi

@tarixchi_kutubxonasiga

bo'lgan. Bekzoda bo'lmasa, ikki amaldan so'ng, ya'ni avval tunqotar, keyin jibachi lavozimiga erishgan, qorovulbegi, miroxo'r, to'qsabo, eshik og'aboshi, bek, parvonachi, dodxoh, inoqi xurd [kichik inoq], inoqi kalon, devonbegi, qushbegi, otaliq.

Agarda biror shahar va viloyatga hokim tayinlamoqchi bo'lsalar, avvalo to'qsabolardan tayinlaganlar. Unga yorliq berib yuborganlar. Buxoroda – poytaxt bo'lgani uchun mashvarat qilish, isloh va tartib uchun katta mansab, ahli hukumati Buxoro qonuni bilan aytganda, qushbegi vazifasini joriy etganlar. Biri qushbegi poyon [kichik qushbegi], uni zakotchi deydilar, ikkinchisi hokimlardan mirshab – shahar va muzofotlar aholisidan xabar olib turadigan shaxs bo'lgan.

Shuningdek, navkarlarning sarkardasi [boshlig'i] bo'lgan. Ular aksar ishonchli shaxslar bo'lib, har birining qo'sh va tanhohi bo'lgan. Ular amir marhamati soyasida beparvo yashab yurganlar. Zikr qilganlarimiz siyosatchi hukumatdorlar hisoblangan.

Ulug' vazirlar shariat asosida hukm chiqarganlar. Ularning biri qozi kalon, uni qozi ul-quzzot deb ataganlar. Uning qo'lida hamma vaqflar, sultoniy dahyaklar, hujra ishlari va imomlar bo'lgan. Uni yana «Qozi shar'i sharif» ham deganlar. Shariat hukmlarini ijro etish uchun raisi kalon bo'lgan. U islom ishlari, bozor-u rastalar, masjid ishlarini tekshirgan. Raisi kalon va qozi kalonning noiblari bo'lib, ular o'zlariga tegishli ishga javob berganlar.

Janobi shayx ul-islom, oxund, a'lam, muftiyi askar va hamma muftilar shariat hukmlariga qattiq rioya qilganlar.

Yana biri mir zakotchi – uni qushbegi poyon deganlar. Mol zakoti, daryo, chegara, yo'l qorovullari uning qo'lida bo'lgan. Savdogarlardan boj va zakotlarni uning noib va mulozimlari olganlar. Ular podsho manfaati uchun nihoyatda jonbozlik ko'rsatganlar.

Qushbegi kalonni «Vazorati oliy» deb aytishgan. Davlatning hamma ishlari uning qo'lida bo'lgan. Uning shavkati va hashamati toj-u taxtda amirdan pastroq turgan. Xazina manfaati uchun bajarilgan ishlari shahar qal'asining darvozalari, mahbuslar, o'g'ri va qaroqchilar, umuman davlat mahbuslarining ixtiyori uning qo'lida bo'lgan.

Miri xazina – u ham vazirlar jumlasidan hisoblanib, davlatning muhim ishlari bo'yicha qozi kalon, raisi kalon, qushbegi kalon, qushbegi poyon va miri xazinachilar bilan birgalikda mashvarat qilib, amirga fikrlarini aytganlar. Podsho ularning ittifoqiga tayanib, maslahatlariga quloq solib ish tutsa, natijasi yaxshi bo'lgan. Bu vazifalardan birortasining fikri boshqalarnikiga qarshi bo'lsa ish tez hal bo'lmay, podsho fikr-u mulohazaga borib, o'z fikri bilan ish tutgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Amaldorlar va ularning siyosatlari haqida

Saltanatda amaldorlarning soni ko'p bo'lgan. Avval qushbegi xizmatida shogirdpeshalar turgan. Ular chuhra-oqosi, miroxo'r va to'qsobo mansablarigacha ko'tarilgan. Bu jamoa josuslik, elchilik, xususiy qorovullikka o'xshash ishlarni bajarganlar.

Bular qushbegining buyrug'i bilan yaqin va uzoq mahallalarga xizmat va da'vo uchun yuborilganlar. Ular zarur ishlarni tartibga keltirar edilar.

Qushbegining bu amaldorlari bek yoki dodxoh mansabiga, yoki boshqa mansabga ega bo'lsalar, ularni miri dasta, amiri no'kariya [navkariya] yoki sarkarda deb ataganlar.

Besh yuz, ming, undan ham ziyod navkarlar ularning qo'l ostida bo'lgan. Bek o'z vazifalarini amir farmoni bilan bajargan.

Ular qo'sh, tanho, bog'-u tegirmon va boshqa mulklarga ega bo'lganlar. Sarkardaning no'kari ham biror-bir amalga, masalan, chuhra-oqosi, mirzaboshi va boshqalarga erishishi mumkin bo'lgan. Ular ham miroxo'rlik va to'qsabolik amaliga yetganda sarkarda bo'lib, dasta olganlar. Bu jamoa boshqa shaharlarga ham xizmat uchun yuborilgan.

Yana qushbegining shotiri va bir necha darvozaboni [soqchisi] bo'lgan. Nizomiy askarlaridan ham qorovullari bo'lgan. Qushbegining huquqi boshqa vazirlarnikidan ko'p darajada ortiq bo'lib, u hibsga olish, jazo berish, qatl etish, gunohkor molini musodara qilish huquqlariga ega bo'lgan. Uning bir necha umumiy devonbegilari bo'lib, ular minglab kishilarga taom va sarpo berishlari mumkin edi. Qushbegining hashamati podshoning hashamatiga yaqin bo'lgan.

Qozi kalon va raisi kalon vazirlardan hisoblangan, siyosatlari ham shar'i sharif yuzasidan bo'lgan. Chunonchi, jazo berish, molini musodara qilish, murofi'ai shar'iy [shariat bo'yicha sud qilish], hibsga tashlashga batamom huquqlari bor edi. Ammo nizomiy askarlaridan xizmatchilari yo'q, chunki ular haqiqatda shariat hokimlari bo'lib, ularning siyosat jarayonidan tashqari askarga ishlari tushmagan. Boshqa jihatdan, odamlar muhim ishlar bilan, asosan, qozi kalonga murojaat qilganlar, chunki u raisi kalonga yaqin turgan.

Siyosiy hukumatga tegishli ishlar mirshab qo'lida bo'lib, u shahar muhofazasiga ma'mur hisoblangan. Davlatning mahbuslari uning ixtiyorida bo'lgan. Amirning shig'ovullari, hudaychilar [udaychilar]i o'z ixtiyorlari bilan biror ishni qilmaganlar, faqat amir buyrug'iga bo'ysunganlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

Buxoro vazirlari va hokimlarining tayinlanishi hamda ishdan olinishi haqida

Buxoro vazirlarining eng ulug'i qushbegi hisoblangan. U davlatning eski, tajribali, ishbilarmon, siyosiy ahvoldan xabardor odamlaridan tasdiqlangan. Nomzod avval devonbegi mansabiga musharraf bo'lmog'i lozim bo'lib, shunda qushbegi bo'lishga loyiq sanalgan.

Agarda hokim bo'lsa, uni vazirlik mansabiga tayinlaganlar. Hamma oliy va davlat ishlari unga buyurilgan. Haqiqatdan ham podshoning eng ulug' siyosatga ega kishisi – vaziri [qushbegi] bo'lgan. U podsho, askar, ahli vazifa fuqaro manfaati uchun harakat qilmog'i zarur edi. Shunda davlati oliy uzoq muddat davom etadi. Aks holda bu ishning uddasidan chiqmasa, manfaatidan zarari ko'p tegsa, beparvo bo'lsa, kundalik va viloyat islohini bilmasa, mansabidan olingan... Qushbegi poyon harbiy yurishlar vaqtida lashkarboshi etib tayinlangan.

Qozi ul-quzzotni raislikdan olib, qozi kalonlikka qo'yganlar. Raisi kalonlik mansabiga a'lam va mufti askardan olib qo'yganlar. A'lam oxundlikka oxundni, shayxulislomlikka shayxulislomni, din a'yonlarini naqib va mirasad mansabiga nasb qilganlar. Lekin qozi kalonlik, raisi kalon, shayxulislom va mufti-yu mirasadning hukumati va siyosati yuqori bo'lib, boshqa mansablarda bunday shavkat va huquq bo'lmagan.

Hokimlarni tayinlash bayonida

Shaharlarda siyosat yuritish, hokimlik mansabiga musharraf bo'lmoq va a'lohazrat Buxoro podshohining lutfi sharafiga muyassar bo'lish uchun saltanat poytaxtidan uzoqda joylashgan shaharlarda podsho tomonidan uchta hokim tayinlangan. Avvalo, mirbekkim, uni mir deyishgan. U mamlakatning muhofazasi, siyosati va fuqarolar o'rtasida adolat o'rnatish hamda xiroj-u dahyak olish uchun tayinlangan.

Hokim yana ikkita hukmdor tayinlagan. Ularning biri amlokdor bo'lib, u podsholik xiroj-u ushri [dahyak solig'i]ga nomzod bo'lgan. Amlokdor huzurida ba'zi bahsli masalalar ko'rib chiqilgan. Amlokdorning ham bir qancha xizmatkorlari bo'lib, dorug'a va mingboshi deb atalgan, ular amlokdor [turkchasi «bek», ruschasi «volostnoy»]ga yordam berganlar.

Sulton [amir] yana [viloyatda] shar'iy [shariat asosida] masalalarni ko'rib chiqish uchun qozi tayinlagan. Uni ham bir necha xizmatkorlari, muharrir va noiblari bo'lgan. Nizo va janjallar, shar'iy murofi'alar, masalalar, rivoyatlar tuzish o'sha shaxs hukmi bilan bo'lgan.

Hokimlarning yana biri [amir tayinlaydigani] raisdir. Shar'iy murofi'a, masjidlar va bozorlarni tekshirish, shu o'lka ahlidan bo'lmish musulmonlar

@tarixchi_kutubxonasiga

ahvoli shu janob qo'lida bo'lgan. O'nlab mirzo-yu muharrir, noib-u xizmatkorlar doim qishlog'-u bozorlarda yurib, ma'muriyat ishlarini ijro etganlar. Rais ham rivoyat hozirlab, nizo va bahsli masalalarni amir nomidan hal qilgan.

Izoh: bu uchala hokim [bek, qozi va rais] podsho tomonidan tayinlangan. Bular uzri shar'iy bilan gunohkor molini musodara etib, jazo berishga haqlari bo'lgan. Lekin birovni podsho amrisiz va muftilarning rivoyatisiz qatl qilolmaganlar.

Buxoro mulkining har bir shahrida shu uchala hokimning hukmi joriy va mansub hisoblangan va har juma ular podshodan ko'ngil so'rab, sadoqatlarini izhor qilish uchun «jumagiy, bandagi va duogo'y», deb amir saroyiga ariza yuborishlari lozim bo'lgan. Aks holda qattiq jazo berilib [mol-mulki musodara qilinib], vazifasidan olingan yoki hibs etilib, o'rniga boshqa hokim tayinlangan. Buxoro tobeotiga hokimlarni tayinlash shu tartibda bo'lgan.

Buxoroning nizomiy askari va asbobi harb siyosati haqida

Bilinglarkim, Buxoroning nizomiy va askariy quvvati boshqa davlatlarga qaraganda zaif va yengilroqdir. Chunonchi, bu davlatning askariyasi faqat ikki yuz ming nafarga yetgan. Lekin shular orasida tajribali va jasur bahodurlari ham ko'p bo'lgan.

Ammo urush asboblaridan, ya'ni har davlat uchun loyiq bo'lgan qurol-aslahalardan 40 ta to'p, yuz adad pulemyot, 500 ming to'pponcha va miltig'i bo'lgan. Siyosat bobida Buxoro ko'p davlatlardan zaif turgan. Ilm kuchi yetmagan. Ilm hamda siyosiy bilimlarni bilmaganlar, shuning uchun ham xorlik, ham zaiflik ostonasini o'pganlar. Aslida podsho askariyati haqida g'amxo'rlik qilishi, ularga siyosiy ilmlarni, siyosiy kuch-quvvatni berishi lozim edi. Ammo achinarlisi shuki, qadim zamonda boshqa davlatlarda siyosiy ilm taraqqiy topmagan davrda Buxoro davlati bir buyuk davlatga aylanib bo'lgan edi. Bugunga kelib esa, boshqa davlatlar yangi sanoat va fanlarga ega bo'lib, Buxorodek bir necha davlatlarni bosib olib, o'zlariga tobe qilganlar...

...Buxoro nega xor-u zor va tushkun bo'ldi? Ilmsizlikdan, ya'ni Buxoroda siyosat ilmiga umuman yo'l bermaganliklaridan. Buxoro saltanatining ravnaqi mashhur, lekin siyosati yo'qdir. Vaholanki, podsholar siyosat ilmini bilishlari lozim bo'lgan. Dushmanga qarshi siyosat qilish bilan birga odamlarning hayotini saqlab qolish darkor. Ming afsus! Davlatimizda askar-u qurol bor-u, ammo bu askarda siyosat va jasorat yo'q! Siyosiy hokimlarimiz siyosat tartibidan bexabardirlar.

Davlatimizdagi behisob xazina va boylik vazirlar-u amaldorlar ziynati uchun sarf-u xarj qilingan. Jahon davlatlari Buxoro davlatlaridek bo'lishni orzu qilardilar.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ilgari Buxoroning ilmga rag'bati bor edi, hozir esa ziynatga bino qo'ygan. Bundan nima foyda? Bu esa o'ziga o'zi oro berganga o'xshaydur. Davlatga esa siyosiy ziynat arziydi. Buxoro davlati siyosat shukuhidan bebahradir.

Buxoro davlatining hashamati, zeb-u ziynati hech bir davlatda yo'q. Boshqa davlatlar esa siyosiy ilmlarda ko'zga ko'ringanlar. Shunga qaramasdan, Amir Temur zamonidan bu davlat barqaror va begona qo'liga giriftor bo'lmagan.

Buxoro Turon qit'asida, ya'ni Turkistonda ma'mur va obod bo'lgan. Unda diniy ilmlar taraqqiy topgan. Turkiston masohati keng bo'lib, aholisi 3,5 million bo'lgan. Beshinchi va to'rtinchi iqlimning o'rtasida joylashgan.

Buxoro shahri Jayhunning bu tarafidagi Xuroson bilodlariga kirib, 30 ta hokim o'tiradigan katta shahar bo'lgan, har bir shaharda 300 dan to ming-tagacha nizomiy askari bo'lib, ba'zi viloyatlarda to'p va urush qurollari qo'riqxonalarda saqlangan.

Buxorodagi tobe shaharlarning nomlarini eslatib o'tmoqchiman, bular: Chorjo'y, Karki, Kalif, Qarshi [Nasaf], Karmina, Nurota, Ziyovuddin, Xatirchi, G'uzor, Shahrisabz [Kesh], Kitob, Yakkabog', Chiroqchi, Jomchi va Sherobod, Boysun, Dehnav, Sariosiyo [Sarijo'y], Hisor, Qorategin, Darvoz, Baljuvon, Ko'lob [Xatlon], Qo'rg'ontepa, Qubodiyon. Bu shahar [Buxoro] Buxoro saltanatining hokimlari o'tiradigan markaz bo'lgan. Ba'zi shaharlar shu viloyatlarga tobe bo'lgan. Masalan, Ko'lobga Mo'minobod, Baljuvonga Xavoling va Qo'ng'irot, Hisor tobeligiga Dushanbe va Qoratog' kirgan. Baldai muazzama Buxoroga ham bir qancha shahar va qo'rg'onlar tobe sanalgan. Jumladan, Romiton, Xayrobod, Qorako'l, Bahovuddin, Xo'ja Bo'ston [Vardonze[1]], Xo'ja Ubon, Xo'ja Orif, Mohi Tobon, Vobkand, Zandana va boshqalar.

Har bir shaharda uchta amlokdor bo'lib, yigirma besh yoki o'n sakkiz amlokka bo'lingan. Shuningdek, ularda yana qozi, rais-u mirshab va bitta lashkarboshi bo'lib, mamlakat tinchligini ta'minlaganlar.

Buxoro mamlakatining nizomi, tobiotining asbob-u oloti shu kabi bo'lgan.

Buxoroda ilm, dunyoviy va uxraviy fanlarning rivoji, olimlar, shayxlar hamda ahli vazifa haqida

Bilginki, Buxoro Turkiston va Movarounnahrdagi davlatlar orasida ilm-u madaniyat, shariat fanlarining taraqqiy etganligi bilan afzal. Tafsir, hadis, fiqh, kalom, usul, sarf-u nahv ilmlaridan iborat bo'lgan shariat ilmlari shu

[1] *Vardonze* – eramizning V–VIII asrlarida mavjud bo'lgan vardonxudotlar saltanatining maxsus qarorgohi, hozirda Buxoro viloyati Shofirkon tumani hududida joylashgan. Narshaxiyning yozishicha, Vardonze Buxoro shahridan qadimiyroq bo'lgan. Xalq o'rtasida «Qo'rg'oni Vardonze» nomi bilan mashhur.

@tarixchi_kutubxonasiga

muazzam diyorda rivojlangan, hikmat ilmini ham madrasalarda zarurat yuzasidan o'qitadilar.

Bu ilmi hikmat mantiq, qismati ilohilardan iborat bo'lgan, biroq riyoziy va siyosiy ilmlar azaldan ham bu shaharda keng tarqalmagan. Shuning uchun Buxoro davlatining siyosati boshqa islomiy davlatlar singari orqada qolgandir. Bu davlatda taxminan uch-to'rt ming talabalar o'qiydilar. Dars beruvchi mudarrislarning soni taxminan 800 nafar.

Buxoroyi sharifning a'lo darajali mudarrislariga eshon-qozi ul-quzzot, eshon-raisi kalon, eshon-shayx ul-islom, eshon-oxun, eshon-a'lam va eshon-muftiy askar kiradilar. Bundan tashqari, shariat fatvolari sohasidan dars beruvchi muftiylar ham bor. Ularning soni 22 nafar. Bular a'lo va avsatlar bo'lib, o'rta darajali mudarrislarga bo'linadilar.

Bu muftiylar o'roqlik mansabiga erishishi mumkin bo'lganki, u eshik oqoboshi amali darajasiga teng kelgan, shu bilan birga sudurlik, sadrlik, shayx ul-islom, naqiblik, miri asadlik mansablariga ham yetishganlar. Bu jamoaga umumiy imtihondan so'ng «Hidoyai sharif»ni o'qib tugatishlari bilan amir buyrug'iga ko'ra dahyak [ushr] berilgan. Agar tolibi ilm tahsili ilmda peshrav bo'lsa yoki bundan ham ko'p bilimlarga ega bo'lgan bo'lsa, «Hidoyai sharif»dan o'qitib – imtihon qilib, dahyak berganlar, mansabdor qilganlar. Dahyak mansabiga ega bo'lish Buxoroning islomiy qonunlaridan biri bo'lgan.

Banda hijriy 1337-yili [milodiy 1919-yili] hazrati eshon qozi kalon huzurlarida «Hidoyai sharif»dan «Kitobi nikoh», «Avliyo va akfo» bobini o'qib, dahyak olish uchun imtihon topshirib, dahyakka musharraf bo'lgan edim.

Mudarrislarning yana bir jamoasi «banoraspo'sh» [banoras kiyadigan] bo'lgan, banoraspo'shliklardan chiqqanlari muftiy mansabiga erishganlar. Ular taxminan 200 nafardirlar. Bularni yana «avsata tadriysiy» – [o'rta mudarrislar] ham deydilar. Yana bir guruh – «asfal tadriysiy» [past darajadagi mudarrislar] hisoblangan. Ularni «beqasampo'sh»lar deyishgan. Yana imom, mudarris va shunga o'xshashlari ham borki, ularning soni uch yuzdan ko'proqdir.

Bu shaharda 400 madrasa va 296 ta besh vaqt namoz o'qiladigan masjid, 18 ta jome' masjidi, 80 ta qabriston mavjud. Bu haqda o'tgan bobda aytib o'tgan edik. Buxoroda 13 ta kitobxona, 96 ta qorixona [qiroatxona] va maktabxona faoliyat ko'rsatadi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, ilm va fan bobida boshqa o'lkalarga qaraganda Buxoroning imkoniyatlari kengroqdir.

Madrasa, masjid, maqbara, maktabxona va qorixonalarning har biriga vaqf tayinlangan. Madrasalarning hujralari oldi-sotdi ham qilinadi. Ammo podsholik madrasalari [hujralarining] oldi-sotdisi man qilingan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Buxoro shayxlari va sayyidlari haqida. Bular ham Buxoroning ahli muazzam va mukarramlaridan hisoblanadilar. Sayyidlarga ham amaldorlar kabi qo'sh va tanho ajratishgan. Ahli ulamo kabi ularga ham ma'muriy, sudurlik, sadrlik va mirasadlik va naqiblik mansablarini berganlar. Shayxlarga ham ma'lum vazifalar berib, mashhur xonaqoh va masjidlar ajratganlar. Ular asosan duogo'ylik vazifasini bajarganlar.

Nihoyat, «Shoh aqso» martabasi haqida. Undan yuqori martaba va manzarat bo'lmagan. Yuqoridagilar amir va vazir ziyoratiga borib, har xil in'om va hadyalar olib turganlar. Shoh aqsoning hashamati va silsilasi sarkardalarnikiga qariyb yaqin kelgan. Buxoro shayxlari va sayyidlarining qisqacha bayoni shulardan iborat.

IBN AL-MUBORAK MUHAMMAD AL-QAZVINIY

«Javohirnoma»

Ibn al-Muborak Muhammad al-Qazviniy qalamiga mansub «Javohirnoma» asari[1] *fors tilida yozilgan bo'lib, 146 varaq, 292 sahifadan iboratdir. Asar Buxoro nastaliq xatida 1891–1892-yillari yozilgan. Muallif asarning kirish qismida alloma Tusiyning «Kosi mizoj al-Zanjil» nomli arab tilidagi asarini fors tiliga tarjima qilganligini, bu asarda javohirlardan foydalanish va ularni bilish usullari ko'rsatilmaganligini va al-Qazviniy tarjimasiga ushbu qismlarni o'zi kiritganligini yozgan. Muallifning qayd etishicha, fors tilida javohirlarning sifatini bilishga bag'ishlangan asar yozilmagan.*

Asarda javohirlarning inson tanasiga ijobiy va salbiy ta'siri, ulardan ayrim kasalliklarda foydalanish usuli, ayrim kasalliklarda ularni tanovul qilish qoidalarini bilish ham zarurligi ta'kidlangan. Asarning muqaddima qismida olamning yaratilishida insonning o'rni va ma'danlarga munosabatning qanday bo'lishi haqidagi falsafiy fikrlar bayon qilingan. Shuningdek, javohirlarga egalik qiluvchi shaxslarning madaniyati haqida ham fikr bildirilgan.

Manbaning asosiy qismida javohir, yoqut, zumrad, zabarjad, olmos, a'yn alhur, la'l, feruza, yozhar (axjori hayvon), aqiq, juru', maqnotis, sinboda, dahna, lojuvard, marjon, subliam, billur, xashmat toshlariga ta'rif beriladi. Bu toshlarning navlarga ajralishi, ularni farqlash va sifatini aniqlash, inson tanasi va organizmiga ta'siri haqida keng ma'lumotlar berilgan.

t.f.n. I.Sh. Azizov

[1] *Ibn al-Muborak Muhammad al-Qazviniy.* Javohirnoma / O'zR FA SHI. Asosiy jamg'arma. 3053-sonli qo'lyozma.

@tarixchi_kutubxonasiga

...Birinchi ma'dan javohir bo'lib, bu ma'dan shaffofroqdir. Va lekin, javohirning kattasi va teshilmaganini dur va ham lu'lu' derlar. Ma'danlarning qattig'i va eng qimmatlisi olmosdir. «Olmos» so'zi arab tilidan «eng qattiq» deb tarjima qilinadi.

... Birovga javohir sovg'a qilinishi lozim bo'lsa, unga ishlov berish va teshtirish lozim. Shu bilan birga she'r aytib topshirish javohir egasining madaniyatidan dalolat beradi. Durga ishlov bermasdan va teshmasdan sovg'a qilish misli oltin va kumushni eritmasdan ruda holida sovg'a qilish bilan barobardir. Ammo, sotish va ayirboshlash maqsadida bo'lsa, javohirning teshilmagani qimmatliroqdir.

...Ma'danlar va qimmatbaho toshlar faqatgina zeb-u ziynat, shon-u shavkat va dunyoni zabt etish uchun xizmat qilmay, balki inson kamoli, salomatligi va ilm egallashi uchun xizmat qilishi lozimdir. Agar mavjudlikdan maqsad bisyor mavjudot bo'lsa, vojib alvujuddir, qachonki inson tarafidan yasalgan ashyo bo'lsa, mumkin alvujud bo'lishi mumkin. Nur va zulmat kabi vojib alvujudlar javhardir. Bunga ilm va nafs kabi qo'l bilan ushlab bo'lmaydigan ma'naviy tushunchalarni kiritish mumkin. Ammo, qo'l bilan ushlanadigan va moddiylik kasb etadigan narsalar javohirdir.

...Javohirlardan va barcha toshlardan tibbiy va notibbiy maqsadlarda foydalanish inson kamoli uchun maqsadga muvofiq hisoblanadi. Javohirning foydalari juda ko'p bo'lib, katta va kichik uchun muazzamdir va bu hech kimga sir emasdir. Shuningdek, ba'zi javohirlarning nafisligi haqida Hakim Safoshiy asarida bordir[1].

...Maxfiy qolmasinki, Buxoroyi sharif zaminida Oltintog' deb nomlangan tog' bor. Oltintog'ning g'arbida yo'l bo'lib, uni Eldur derlar. Eldur yo'lining g'arbida soy bordir. Soyning quyisida yana tog' bo'lib, bu tog' yakka o'zi turadi. Tog'ning ichidagi qora g'orda chuqurlik bo'lib, chuqurlikda o'n ziroat suv bor. Suv ostida feruza va tanakor ma'dani mavjud. Quduqning oftob tushib turadigan qismida xat bor. Qoratog' tog'idan so'ng Nuratog'da temir mavjud. U yerdan kunchiqar tomonga qaraganda Arslontog' bo'lib, u yerda hammaga yetadigan qalay mavjud. Undan so'ng kunbotar tomonga qaraganda Omontoy tog'i bo'lib, u yerda hammaga yetadigan nuxos mavjud. Omontoy tog'ining kunbotar tomonida Chaqmosh bo'lib, uning kunbotar tomonida Oltintog' joylashgan. Uning tosh tomonida feruza, boshqa tomonida feruzaning qattiq navi mavjud. Undan so'ng Yuzqo'rg'on tog'i konining kunbotar tomonida Eldur changalzori, changalzorning kunbotar tomonida Eldur konida oltin va xajar alaxmar (qizil tosh) mavjud. Uning kunchiqar tomonida Timostog' tabiatiga ko'ra

[1] *Ibn al-Mubarak Muhammad al-Qazviniy*. Javohirnoma / O'Z R FA SHI. Asosiy jamg'arma. 3053-sonli qo'lyozma. 25-bet.

@tarixchi_kutubxonasiga

quruq bo'lib, undan oqib tushib yig'ilgan suvlar hisobiga atrofida keng o'rmon hosil bo'lgan. Pilitning bir tarafida feruza koni bo'lib, u bisyordir, hammaga yetadi. Arslontog'ning orqasida buloq bo'lib, u yerning qoyosh botar tarafida o'rmon hosil qilsa yaxshi joydir. Uning quyisida oqtosh ham mavjud. Eldur tepaligining kunbotar tomonida hammaga yetadigan qalay mavjud. Nuratog'ning quyisida mis koni mavjud. Uning atrofida qadimdan ko'milgan xazina ko'pdir.

ABDURAUF FITRAT

«Hind sayyohining qissasi»

Abdurauf Fitratning «Hind sayyohining qissasi» asari ilk bor 1912-yili Istanbulda nashr etilgan.

Mazkur asarda voqealar Buxoroga kelgan hindistonlik musulmon sayyoh bilan savol-javob tarzida bayon etilib, unda mamlakatdagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolar xususida so'z boradi. Aslida hind sayyohi to'qima obraz bo'lib, muallif uning tilidan mamlakatdagi turli sohalardagi, xususan, ilm-fan, ta'lim va xalq xo'jaligidagi qoloqlik, amir hukumati, amaldorlar adolatsizligi, diniy ulamolar mutaassibligini keskin tanqid ostiga oladi. E'tiborlisi shundaki, muallif bu masalalarni shariat nuqtayi nazaridan, islom dini tushunchalari bilan solishtirgan holda tahlil etadi. Bu muammolarni isloh etish, jamiyat hayotiga yangiliklar olib kelish shariat qonunlariga zid emasligini ishonchli dalillar bilan asoslab beradi. Quyida Buxorodagi ijtimoiy-madaniy muhitni o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ushbu asardan parchalar keltiriladi[1].

t.f.n. A.Z. Tog'ayeva

...Buxoroda ikki yuzga yaqin madrasa bo'lib, ular uch toifaga bo'linadi: oliy, o'rta va ibtidoiy.

Oliy toifadagi madrasalar va ularning yillik vaqf daromadi

T/r	Madrasalarning nomi	Yillik vaqfi (tanga hisobida)	T/r	Madrasalarning nomi	Yillik vaqfi (tanga hisobida)
1.	Ko'kaldosh	150000	2.	Ja'farxo'ja	250000
3.	Jo'ybor	130000	4.	Miri Arab	150000
5.	Muhammad Ali Hoji	150000	6.	Fursunjon	140000
7.	Devonbegi	150000	8.	Govkushon	190000

[1] Abdurauf Fitratning «Hind sayyohining qissasi» asari adabiyotshunos olim, tarjimon Hasan Qudratullayev tomonidan tojik tilidan o'zbekchaga o'girilib, ilk bor «Sharq yulduzi» jurnalining 1991-yil 8-sonida chop etilgan. 2000-yilda esa uning rus tiliga tarjimasi e'lon qilingan.

@tarixchi_kutubxonasiga

9.	Abdulazizxon (ikki madrasa)	120000	10.	Mirzo Ulug'bek	60000
11.	Kalobod	80000	12.	Xo'ja Porso	50000
13.	Ibrohim Oxund	40000	14.	Fatxullo qushbegi	80000
15.	Bibi Xalifa	50000	16.	Xalifa Niyozqul	55000
17.	Mullo Muhammad Sharif	60000	18.	G'aribiya	40000
19.	Xiyobon	60000	20.	Jo'yborcha	60000
21.	Abdulloxon	50000	22.	Modari xon	40000
23.	Asiriy	40000	24.	Xo'janihol	50000
25.	Shodimbek	40000	26.	Dorush-shifo	40000
27.	Chorbakr	70000	28.	Badalbek	40000
29.	Xo'ja Davlat	120000	30.	Miskin	60000
31.	Domullo Sher	40000	32.	Do'stchehra Oqosi	40000
33.	Naqib	120000		JAMI:	2815000

O'rta toifadagi madrasalar va ularning yillik vaqf daromadi

T/r	Madrasalarning nomi	Yillik vaqfi (tanga)	T/r	Madrasalarning nomi	Yillik vaqfi (tanga)
1.	Xizr	25000	2.	Afg'on	15000
3.	Rahmonqul	30000	4.	O'tkur qushbegi	25000
5.	Huseynboy	30000	6.	Olimjon	20000
7.	Atoliq	25000	8.	Ismoilxo'ja	30000
9.	Modari xoni xurd	30000	10.	Rashid	25000
11.	G'oziyon	25000	12.	Giriboni chok	30000
13.	Chuchukoyim	25000	14.	Sharofatbonu	30000
15.	Naqibi xurd	25000	16.	Cho'bini kalon	30000
17.	Boloyi havz	30000	18.	Marjon Ali	30000
19.	Asqarbek	30000	20.	Sadrbek	25000
21.	Eski Badalbek	25000	22.	Qo'ng'irot hofizi	35000
23.	Iskandarxon	25000	24.	Chorbaqqoliy	22000
25.	Sartarosh	30000	26.	Mirzo Fuzayl	25000
27.	To'pchiboshi	20000	28.	Sayyid Kamol	22000
29.	Abdulshukurboy	20000	30.	Karbos	24000
31.	Chuqur	30000	32.	Qozi Latif	18000
33.	Badriddin	6000	34	Pushaymon	2000
35.	Ernazar	35000	36.	Domullo Hasan	15000
37.	Eshoni pir	16000	38.	Mirkamol	14000
39.	Jo'rabek	12000		JAMI	931000

Ibtidoiy [boshlang'ich] toifaga mansub madrasalar yuzdan ortiq bo'lib, ularning vaqfi ming tangadan o'n ming tangagachadir. Bu madrasalarning umumiy vaqf miqdori 500 ming tangaga yetadi.

Buxoro uch yuzta ibtidoiy maktab va o'n bitta katta kutubxonaga ega.

@tarixchi_kutubxonasiga

Buxorodagi kutubxonalar va ularning yillik vaqf daromadi

T/r	Kutubxonalarning nomi	Yillik vaqfi (tanga)	T/r	Kutubxonalarning nomi	Yillik vaqfi (tanga)
1.	Ja'farxo'ja	18 000	2.	Govkushon	5 000
3.	Xo'janihol	8 000	4.	Ko'kaldosh	1 000
5.	Abdulazizxon	2 000	6.	Mirzo Ulug'bek	800
7.	Badalbek	800	8.	Dorush-shifo	3 000
9.	Bozori Go'sfand	1 500	10.	Boloi Havz	1 600
11.	Jo'ybor	1 400	JAMI		43 100

Buxoroda yigirmadan ortiq yirik va kichik taomxonalar bor. Yirik taomxonalarning har birining yillik vaqfi o'n mingdan qirq ming tangagacha, kichik taomxonalarning har birining yillik vaqfi esa to'rt mingdan to'qqiz ming tangagachadir. Bulardan tashqari, besh yoki oltita qorixona va qirqqa yaqin tahoratxona ham bor. Ularning har biri uchun ko'p miqdorda yillik vaqf tayinlangan...

...Bizning otalarimiz... ilm olishning ahamiyati va darajasini tushunib yetib, ikki yuz madrasa, har madrasada esa o'ntadan o'n beshtagacha hujralar qurganlar. Mudarrislar va shogirdlarning kundalik xarajatlarini inobatga olgan holda, yiliga to'rt million tangadan oshiq vaqf puli ajratganlar. Bu bilan ham kifoyalanmay, talabalarning o'qishlarini to'la ta'minlash uchun o'n bitta kutubxona qurib, o'z davrlarining jami kitoblarini shu yerda to'plaganlar. Ilm-u fanning kundalik taraqqiyotini inobatga olib, har yili kitob va turli majmualarni yaratish uchun qirq ming tanga vaqfiya ajratdilar. Sharq ilmiga alohida ahamiyat berdilar.

Madrasalar bilan kifoyalanmay, besh yoki oltita qiroatxona qurib, uning ham yillik vaqfini tayinladilar. Biz – bu himmat egalarining aziz farzandlari esa, shunchalik baxtli sharoitga qaramasdan, badbaxt, johil va miskin holda qoldik. Madrasamiz bor, kutubxonamiz bor, biroq yurtimizda tafsir va hadisning bir betini, hatto arab tilidan bir baytini xatosiz o'qib, komil ravishda tushuntirib beradigan bironta allomaga ega emasmiz! Oh, yo rabbiy! Sharaf egasi bo'lgan bir qavm uchun qanchalik xo'rlik!...

...Hammaga ma'lumki, har bir millatning taraqqiyoti uchun ilm asosiy sababdir. Sizning ilmingiz yo'q. Lekin to'la iftixor bilan aytamanki, bugun ilm olish uchun sizning shahringizda barcha sharoit muhayyodir. Masalan, bir johil millatning olim bo'lishi uchun uch narsa zarurdir: pul, madrasa, sa'y-u amal. Sizning Buxoroingizda madrasa ham, pul ham bor, chunki bu vaqflarning barchasi ilm olish uchun vujudga kelgan; sa'y-u amal – intilish ham mavjud; chunki Buxoro ahli ilm tahsiliga muhabbatlikdir. Faqat shuni aytish kerakki, sizlarning dars berish va dars olish tartiblaringiz yomon,

@tarixchi_kutubxonasiga

madrasalarning vaqfi esa hisobsizdir. Har ikkalasini ham tuzatish oson. To'la ishonch bilan aytamanki, bir odil, to'g'ri fikrlovchi amir va tadbirkor, xudodan qo'rqadigan vazir bo'lsa, bu ishlarning barchasini isloh etsa bo'ladi.

Haqiqatan ham shukr qilishingiz mumkin, chunki bir odil podshoh va bir dono vazir Buxoro madrasalarining islohi uchun bel bog'lasalar, o'sha kuni Buxoroda ellikta oliy, ellikta o'rta madrasa va uch yuz-u oltmishta ibtidoiy maktab ochilishi muqarrardir.

Ovrupa ahli bu orada musulmonlar bilan yaxshi munosabat o'rnatib, juda ko'p moddiy va ma'naviy foyda ko'rdilar. Masalan, Farangiston dorilfununining Sharl Sanivyus ismli muallimi quyidagilarni qayd etgan: «O'n birinchi asrda Ovrupa va islom olami butunlay bir-birlariga qarshi edilar. Ovrupa shaharlari kichik va oddiy, qishloqlari vayron kulbalardan iborat edi. Yo'lda o'ldirishlaridan qo'rqib, hech kim o'z uyidan o'n farsax uzoqqa borolmas edi. Islom olami esa, Bag'dod, Shom, Misr va Andalus singari butunlay obod va ko'rkam shaharlar, marmar bilan bezalgan saroylar, mukammal korxonalar, hashamatli madrasa va maktablar, muzayyan va ozoda bozorlarga ega edi. Dalalarining har qadamidagi so'lim go'shalar-u xirmon-xirmon hosilni ko'rganning ko'zi quvonar edi. Ispaniya bilan Turkiston o'rtasida savdo karvonlari bemalol borib-kelardi. Ovrupaliklar musulmonlar taraqqiyotini xolis niyat bilan qabul qilib, kasb va ilm o'rganish niyatida islom shaharlarida tahsil ko'rar edilar. Ovrupa musulmonlar bilan munosabat va aloqada bo'lish yo'li orqali taraqqiy etgan. Ovrupaliklarning islom olamidan qabul qilgan ishlari quyidagilardir:

Ziroat: ko'k bug'doy, tut daraxti, guruch, xurmo, limon, mandarin, paxta, qahva va nayshakar.

Sanoat: shohi gazlamalar, zar to'qish, shisha, oyna... va qog'oz.

Ilm-fan: aljabr va al-muqobala, handasa, chizmachilik, kimyo va hokazo. Islom ahli Yunon, Eron, Hind va Chinning ilm-u fan ixtirolarini to'plab va o'zlaridan ko'pgina narsalarni qo'shib, oqibatul-amr, bularning barini ovrupaliklarga topshirdilar».

Bu bir buyuk farang muallimining islom olami taraqqiyoti haqida bildirgan iqroridir. Endi diqqat bilan nazar solsak, darhaqiqat, ovrupaliklar o'zlarining yuksalish asoslarini islom ahlidan olganliklarini ko'ramiz. Bugun esa, yo rabbiy, qo'ldan ketgan madaniyatimizni tiklashga harakat qilgan zahotimiz ulamolarimiz «kofir bo'lding» deb, bizni yo'q qilish payiga tushadilar...

...Buxoro madrasalaridan birini tibbiy madrasaga aylantirish, sizni unga mudir etib tayinlash, Ovro'podan muallimlar olib kelish va har yili bir necha iste'dodli yoshlarni tibbiy ta'lim olish uchun O'rusiyaga yuborish – bu-

@tarixiy_kutubxonasiga

larning birontasi shariatimizga qarshi ishlar emas. Zero, olamning faxri bo'lmish sollallohu alayhi vasallam buyurganlar: «Utlubul-ilma va lav bissini», ya'ni, «Ilm agar Chinda bo'lsa ham uni tilab o'qingiz». Ana shu Hadisi sharif mazmuniga diqqat bilan e'tibor beraylik. Payg'ambarimizning Chinni misol keltirishlaridan maqsadlari, albatta fiqh va tafsir ilmini o'rganish emas, chunki Chin kofiristondir (bu o'rinda, o'sha davrda musulmon bo'lmagan xalqlar nazarda tutilgan). Bu hadisda tilga olingan ilm dunyoviy ilm, ya'ni tib va san'atdir. Ma'lum bo'ldiki, dunyoviy ilmlarni g'ayridinlardan o'rganish ham bizning shariatimizga mosdir. Bu hadisdan tashqari yana bir hadis mavjuddir... «Hikmat – mo'minlarning yo'qotgan molidir, uni har qayerda ko'rsangiz, olishingiz mumkin. Tahsil qilingiz, hikmatga hikmat qo'shilsa, u qaysi manbadan kelib chiqmasin, zarar qilmas». Rasulullоh alayhissalomning ushbu hadislari shundan dalolat beradiki, so'zlaringiz shar'i sharifga mutlaqo qarshi emas.

Endi islom tarixiga bir nazar solsak: islomning buyuk vakillari juda ko'p nasroniy va majusiy tabiblarga pul berib, o'zlarining sihatlarini yaxshilaganlar, ularning ayrimlarini o'zlarining xos tabiblari etib tayinlaganlar va ayrimlarini o'z davrlarida tibbiyot muallimi etib belgilaganlar...

Xalifa Mansur abbosiylarning ikkinchi toifasi bo'lib, Jurjis binni Baxtyasho' ismli bir nasroniy tabibni Bag'dodning bosh tabibi etib tayinlagan edi. Xalifa Xorun ar-Rashid abbosiy ham Monko ismli bir majusiyni va yuqorida zikr etilgan Baxtyasho'ning o'g'lini o'zining shaxsiy tabibi etib tayinlagan edi. Yuqorida nomlari zikr etilgan tabiblardan tashqari juda ko'p nasroniylar ham abbosiy xalifalar tomonidan mansab va davlatga ega bo'lib, izzat-u ikromga musharraf bo'lgandilar. Abbosiy xalifalar yunon kitoblarini arab tiliga tarjima ettirib, Bag'dod madrasalarida nashr etar edilar. Men yunon kitoblarini Bag'dod xalifalari nasroniy tabiblariga buyurib tarjima qildirganliklarini sizlarga arz etsam:

1) Kitob al-kasr; 2) Kitob taqaddimat al-ma'rifa; 3) Kitob al-axloq; 4) Kitob qotityun; 5) Al-ma' va al-havo; 6) Tabiat al-inson. Bu kitoblarning muallifi Buqrotdir. Yana: 1) Kitob al-farq; 2) Kitob al-mavlud lisbaata ash-shahr; 3) Kitob al-mizoj; 4) Kitob rido' al-nafs; 5) Kitob al-nabz; 6) Kitob al-jabul; 7) Kitob shifo al-amroz; 8) Kitob qaviy ag'ziya; 9) Kitob al-ilal va al-amroz; 10) Kitob al-tadbir-al-mulassaf; 11) Kitob al-himoyot; 12) Kitob mudovot al-amroz; 13) Kitob al-buhron; 14) Kitob ilal savt; 15) Kitob al-tabib va al-faylasuf... Bu kitoblarning muallifi yunonlik Jolinusdir, xalifa Ma'mun abbosiy topshirig'i bilan Hanin nomli nasroniy arab tiliga o'girgandir. Shunday qilib, abbosiy xalifalar davrida ilmga eng chanqoq odamlar – olimlar va faqihlar yashagan bo'lsa ham, juda ko'p tabiblarga va g'ayridin fozillarga pul va mansab berib, yunon va hind fanidagi yutuqlarni arab tiliga o'girib, Bag'dod madrasalarida o'qitganlar.

@tarixchi kutubxonasiga

Yuqoridagi misollar tib ilmining tahsili uchun Ovrupaga talabalarimizni yuborsak va u yerdan donishmand tabiblarni chaqirib, madrasalarimizda muallim etib tayinlasak, yomon bo'lmasligini isbotlab turibdi. Buxoro hukumati ishbilarmon va dono odamlarga ega bo'lishi kerak. Siz bu fikrni ularga ayting, umid qilamizki, qabul qilarlar. Do'xtur mening bu so'zlarimdan mamnun bo'lib, bizdan ruxsat so'rab chiqib ketdi.

Butunlay tuzalganimdan keyin yana bir necha kun Buxoroda bo'lib, keyin sayohatga chiqish rejasini tuzdim. Uyning egasi Buxoroning mo'tabar kishilari nomidan katta shaharlarning qozisi, hokimlari nomiga maktublar olib berdi. ...Biz Qarshi qozisining uyiga tushdik...

Qarshi Buxoroning katta shaharlaridan biridir. Bir vaqtlar bu shaharning tijorati Buxorodagichalik ekan. Biroq temir yo'l bo'lmaganligi sababli, savdo ancha orqada qolibdi. Ilm va maorif ham anqoning urug'i. Ko'pchilik hatto xat-savoddan ham mahrum. Sanoati-yu hunarmandchiligi poytaxt sanoatidan yaxshiroq. Xalqi obdasta yasash va gilam to'qishda o'ta mohir, ayniqsa, alocha to'qishda tengi yo'qdir. Biroq, afsuski, ushbu narsalarning barchasini eski usulda tayyorlaydilar, ya'ni korxonalarning barchasida qo'l mehnati ustun. Mashina bilan ishlovchi korxonalarga ega emaslar va uni yaratish xayollariga ham kelmaydi.

Kunlardan birida qozi mulozimlarining biri bilan birga mashhur bir alocha to'quvchi ustaning uyiga bordik. Ustaxona egasi meni juda e'zozladi. Bir soatcha suhbatlashdik. Shunda so'radim:

– Sizning korxonangiz Qarshi shahrining boshqa korxonalaridan katta va sizning alochangiz boshqa alochalardan nafis va nozukroqdir. O'ruslarning ipak matohlari nozik va chiroyli, ammo pishiqlik va chidamlilikdan mahrum. Sizning alochalaringiz esa ham nozik, ham chidamli ekan. Bu borada ajib bir hikoya ham eshitgan edim. Uni so'zlab bersam. Buxoro hojilaridan biri bir kiyimlik alochangizni hadya etish uchun Madinai munavvaraga olib borgan. Ammo [bilmadim, nima sabab ekan] alochani qaytarib, Buxoroga olib kelmoqchi bo'lgan. Hajdan qaytib, Odessa shahriga yetishi bilan Rossiya bojxonasining ma'murlari o'sha sizning alochangizni Farangiston moli gumon etib, undan boj talab etganlar. Bechora hoji bor tovushi bilan «bu alocha Buxoroning mahsulidir», deb faryod cheksa ham, bojxonadagilar: «Hali Buxoroda bu darajadagi molni to'qiydigan fabrika qurilgan emas. Bu Farangiston molidir. Sen buni Istanbuldan sotib olgansan», deb ayta berganlar. Bechora hoji, noiloj, bir necha so'm boj puli berib, o'zining alochasini qaytarib olgan ekan. E'tibor bering-a, bunda gunoh Rossiya bojxonasining xizmatchilarida emas, balki sizning tayyorlagan alochangizda. U bir qaraganda Farangiston molining o'zi, balki chidamlilikda undan ham ustundir. Do'konning egasi ushbu so'zlardan mamnun bo'ldi...

@tarixchi_kutubxonasiga

«...Bir kuni qozining huzurida bo'lib, Shahrisabzning ahvoli haqida suhbat qildik.

Qozi: Janobi musofir, bu viloyatni qay ahvolda ko'rdilar?

Men: Juda ma'qul mulkdir, muvofiq havosi va aholisining komil iste'dodi bor, biroq ne choraki, boshqa islom mamlakatlari qatori bu shahar ham xarobaga aylangan.

Qozi: To'g'ri, biz musulmonlar hech vaqt mamlakat obodligi haqida bosh qotirmaymiz.

Men: Sizning bu viloyatingiz Samarqand bilan qo'shnidir. Havosi va boshqa fazilatlarining Samarqanddan kam joyi yo'q. Shahringizning Samarqandchalik obod emasligi haqida hech o'ylab ko'rganmisizlar? Qozi janoblari, ma'lumki, bugun butun islom olami hunarsizlik va ilmsizlik tufayli abadiy falokat tomon ketmoqda. Siz ham musulmonlarning mamlakat obodligiga e'tiborsiz ekanligini ta'kidladingiz... Ajabo, Muhammad ummatlari nega faqir va nodon ekanlar? Islom mamlakatlari nega vayrona va xarobazor bo'lib qolishi kerak? Masalan, Qarshi va Kitobning biron bir alocha to'quvchisi Farangistonda yashasa, boshdan oyoq zar-zevarlarga botar edi. Bu bechoralarning esa yeyishga noni yo'q. Agar shu Shahrisabz yerlari Yopon elida bo'lganida edi, zar ekib, zar undirardilar. Bu yerlar nega sho'razorga aylangan?

Savollarning har biri har qanday mutafakkirni dovdiratib qo'yadi: Faqat shuni tushunmayman: nega bu masala sizlarning xayollaringizga kelmaydi?

Qozi: Birodar, yaxshi bilasiz, xalqimizning fikr doirasi taraqqiy etmagan, ular bu ishlarning mohiyatini tushunmaydilar. Tafakkuri yuksak bo'lmagan kishilar qo'ylarga o'xshaydilar, har xususda cho'ponga tobedirlar va o'z buyuklarining payravidirlar. Men shunga ham iqror bo'lib aytamanki, biz buyuklar ham umrimizning aqalli bir daqiqasini xalqimiz osoyishtaligi va saodati yo'lida sarf etganimizcha yo'q. Xalqning tinchligi, mamlakatning obodligi kabi masalalar birontamizning xayolimizga kelgan emas.

Har bir hokim o'zini uch tomonning vakillari tanishini istaydi: birinchi – mamlakat, ikkinchi – raiyat, uchinchi — podshoh. Chunki hokimiyat vatan va millat vujudi bilan bog'liqdir. Agar millat mahv etilib, vatan xarob bo'lsa, na biz hokim bo'lamiz, na podshoh. To'g'ri, bizni amir hazratlari hokim etib tayinlaganlar. Lekin qayerda? Shahrisabzda. Agar Shahrisabz va bu joyning xalqi bo'lmasa, bizning hokimligimiz xuddi go'ristonga oqsoqol bo'lishdek ma'nosiz va kulgili bo'lar edi. Biz buxoroliklar bir shaharda hokim bo'ldik deguncha mamlakat va xalq huquqini butunlay esdan chiqaramiz. Hatto Xudoni ham unutamiz. Vaqtimizni podshohni shod etish yo'lida sarf etamiz. Qiziq joyi shundaki, bunga ham tuzuk-quruq erisholmaymiz.

@tarixchi_kutubxonasiga

Podshohlar qanchalik toshbag'ir bo'lishmasin, mamlakatning vayronaligi va xalqning bechoraligiga chiday olmaydi.

Shohimizning adolatparvarlik, raiyat, do'stlik va xalqparvarlikda nazir yo'qdir. Imonim komilki, u zot hamisha millatning tinchligi, vatanning obodligi bilan shug'ullanadilar, biroq shu ham aniqki, bir kishining donishmandligi va adolatparvarligi to'rt million kishilik elga ta'sir etishi qiyin. To'g'ri, amirimiz odillar, biroq xizmatchilarining ko'pchiligi adolat ko'chasidan o'tmagan. Shuning uchun, mamlakatimiz haligacha obod bo'lmaydi va aminmizki, agar shu hol davom etsa, bir umr obod bo'lmas».

Bir hafta Shahrisabzda turib, keyin Samarqand tomon yo'lga tushdik. «Firdavsmonand» bu shahar Buxoroga nisbatan ancha tartiblidir, aholisining ruhiyati ham Buxoro aholisining ruhiyatidek emas. Samarqandliklar ikki-uch ibtidoiy maktabga ega, ularning eng yaxshisi Shakuriy maktabi. Agarchi bu maktab unchalik taraqqiy etgan bo'lmasa-da, har holda, mudir va muallimlarining oliyjanob himmatlari soyasida qisqa vaqt ichida rivoj topib, kamolotga yetishishiga umid bog'lasa bo'ladi.

Yana shuki, nuktadon muharrirlar va zukko fozillar ko'pligiga qaramasdan, samarqandliklar haligacha bironta milliy gazetaga ega emaslar. Samarqandlik birodarlarimizga «himmatingizdan umidvorligimiz kattadir» deb, safarimizni davom ettirdik.

Samarqanddan vagonga o'tirib, Xatirchi stansiyasigacha yetdik. Stansiyadan Xatirchigacha ikki farsax yo'l. Bir buzuq aravaga men bilan oltita xatirchilik o'tirishdi. Ular Xatirchining mo'tabar kishilari bo'lib, butunlay savodsiz edilar. Yo'lning mashaqqati shu darajada ediki, agar uni Puli sirot o'rnida do'zax ustidan o'rnatsalar, hech kim jannatning orzusini qilmas edi! Arava odamlarni go'yo zilzila bo'lgandek, bir-birlarining ustiga olib otar, juda noxush taraq-taraq bilan yurar edi. Men Samarqand stansiyasiga olib boradigan yo'lni eslab, bu balo yo'l bilan o'shani qiyoslab, o'zimcha der edim: «Qara, yo'lning farqi qayoqdan qayongacha!»

Shunday qilib, bu do'zaxsimon yo'ldan to'rt soat yurib, Xatirchi mulkiga yetdik. Hokim uyini manzil etdik. Bizga alohida xona ajratdilar. Bu shaharning ahvoli Shahrisabz va Qarshi shaharlariga o'xshash, ya'ni ularga yopirilgan balolarga bu shahar ham mubtalo bo'lgan. Bu shaharning ahvoli u shaharlardan battarroqdir. Qishloqlarning juda ko'p yerlariga ekin ekilmagan, xalqi faqir va falak qarg'ishiga uchragan kishilardir. Masalan, men o'zim bir kishini Xatirchi qo'rg'oni atrofidagi bir necha tanob yerning har tanobini o'n yetti tangadan sotib olganini ko'rdim...

@tarixchi_kutubxonasiga

Xatirchida bir hafta turib, keyin Buxoro yo'liga ravona bo'ldik. Xatirchi stansiyasiga kelib, poyezdga o'tirdim. Men bilan birga ikki tojir va bir buxorolik mulla ham yo'lga chiqishgan ekan. So'radim, dedilar:

– Samarqanddan kelyapmiz. Buxoroga boramiz.

Vagon tez sur'at bilan ketib borar edi. Har kim o'z ishi bilan mashg'ul. Tujjorlar savdo ishlari mavzuida suhbatlashar edilar. Men bir kitobni olib mutolaa qila boshladim. Mulla o'zini uyquga soldi. Bir stansiya yo'l yurdik, hali ham hamma o'zi bilan o'zi ovora edi. Biroq, mullaning uyqusi kelmay, axiyri yuragi siqilib, chuqur «uh» tortdi-da, menga qarab, dedi:

– Birodar, bu ikki kishi o'z suhbatlari bilan mashg'ullar. Siz bilan biz ilm ahlimiz, nega bir-birimiz bilan suhbat qilib ketmaymiz?

Men: faqir kitob mutolaa etmoqdamen, biroq siz nega sheriklaringiz suhbatiga qo'shilmaysiz?

Mulla: birodar, biz ilm ahlidirmiz, bular esa dunyo ahli. Biz ularning suhbatidan hech narsa tushunmaymiz.

Men: yaxshi, Siz bular bilan suhbatlashing, zora bular Sizning so'zlaringizdan bahramand bo'lsalar.

Har ikkala tujjor o'z suhbatlarini to'xtatib, bizning gaplarimizga quloq solar edilar.

...Domulla janoblari, birinchidan, Payg'ambar hazratlari iftixor qilgan narsa qashshoqlik emas, balki Alloh roziligi bilan nafsni tiyishdir. Bunday faqirlik davlatdor kishilarda ham mavjuddir. Masalan, bir davlatmand kishi ramazon oyi to'la ro'za tutmasdan kunduzi uyida bekinib olib, lazzatli taom pishirib yeb, kechalari uyida majlislar tuzab, ichkilikbozlik bilan shug'ullanib, sharob shishalaridan foydalanishi mumkin. Lekin u bularning hech birini qilmaydi, hech qanday jabr va iqrorsiz, faqat Xudoni rozi etish uchun kunduzlari ro'za tutib, kechalari namoz-u ibodatga tayyor turadi. Uning bu ishini «nafsni jilovlash va Allohning rizoligi» deydilar. Ana shu Hazrat payg'ambar iftixor etgan faqirlikdir. Keyin Siz, Buxoro ulamolari qashshoqlik tarafdoridirlar, dedingiz. To'g'ri, Buxoro ulamolari qashshoqlik tarafdoridirlar, biroq o'zlari qashshoq emaslar. Sizning ulamolaringiz qashshoqlikni o'zlari uchun emas, balki o'zgalar uchun munosib biladilar. Shuning uchun ular «sen o'lgin-u men qolay», deydilar. Endi asl maqsadga qaytaylik. Shariatning ham pulni muhofaza etish va tijorat tashviqi haqida ko'p topshiriqlari bor. Shu jumladan, ayrimlarini zikr etay: «Niso» surasida Robbul izzat hazratlari buyurganlarki, «O'z mollaringni aqli past va bilimsiz, madaniyatsiz kishilarga bermanglar, chunki Alloh taolo sizni bor-budingizning shakllanishi va manfaatingiz uchun yaratgandir». Rasulullo hazratlari ham o'z Hadisi shariflarida bunday deb aytganlar: «Rostgo'y tojir va amin payg'ambar sodiq kishilar va sayyidlar qatorida turadi...»

@tarixiykutubxonasiga

Shunday qilib, islom shariati tijorat va davlatdorlikni man etgan emas, balki amr etgan. Shuni ham bilishimiz kerakki, islom bizni tijoratdan man etmagan-u, biroq baxillik, isrofgarchilik va tamagirlikdan qattiq tergagan. Shunday ekan, har kim Xudoning va uning rasulining mutei ekan, puldorlik va tijorat ishiga intilishi kerak va tama hamda isrofgarchilik kasalidan hazar etishi zarur.

...Tojir [tujjor]: Sizning so'zlaringizdan juda mamnun bo'ldim. Buxoro mullalari bizni «dunyo odami» deb ko'p dakki beradilar.

Men: to'g'ri, agar davlatmand kishi rostlik va saxovatdan uzoq bo'lmasa, ham aqlan, ham shar'an madh-u sanoga sazovordir. O'ylab ko'ring, musulmonlar o'z dinlari haqida qayerda ta'lim oladilar? Madrasada. Namozlarini qayerda o'qiydilar? Masjidda. Bu masjid va madrasani biz uchun kim quradi? Davlatmand kishilar. Shuning uchun davlat egalari haqoratlashga emas, madh va maqtovga loyiqdirlar. Men bizning dinimiz tijoratga tarafdorlik qilish haqida sizlarga fikr bildirdim. Biroq bu masala borasida hech narsa demadim. Endi shu haqda bahs qilmoqchiman. Ajabo, islom dini nega tijoratni qo'llagan? Chunki, tijorat masalasi bashariyatning hayot-mamot masalasidir. Dunyo xalqlaridan birontasining ishi tijoratsiz amalga oshmaydi. Ayniqsa, bizning davrimizda savdo ishi juda e'tiborga sazovordir. Qadim zamonda olamning amir va podshohlari faqatgina o'zlarining shahvoniy nafslari uchun bir-birlari bilan yarashar va urushar edilar. Agar qadimgi janglarga diqqat bilan nazar solsak, ularning asl sababi o'sha podshohlardan biri qizini ikkinchisiga bermaganligi va uni izzat-ikrom etmaganligi bo'lib chiqadi.

Lekin bizning davrimizda bo'ladigan urushlarning asl sababi savdo mojarolaridan boshqa narsa emas. Masalan, taraqqiy etgan bir davlat o'z tijoratini kengaytirish niyatida boshqa qoloq davlat yeriga boradi va ayrim imtiyozlarga ega bo'lib, u mulkning yo'lini o'z tijorati uchun ochadi va ma'lum muddatdan keyin bu mulk ahli uning tijoratiga monelik qilib xalaqit bera boshlasa, shu zahotiyoq ularning ustiga lashkar tortib, har qanday yo'l bilan ularning yerlarini o'ziniki qilib olishga harakat qiladi. Agar boshqa bir kuchli davlatda ham o'sha paytda tijorat ishlari yuksalgan bo'lsa, u ham o'z savdo miqyosini himoya etish uchun qarshi tomondan lashkar tortib urushga kirishadi. Shunday qilib, ikki buyuk davlat boshqa bir kichik davlatning yerida tijorat ravnaqi uchun lashkar tortadilar.

Tojirlar: ajabo, davlatlar savdolarining himoyasi uchun bunchalik o'zlarini qurbon qilmasalar? Faraz etaylik, ularning ikki-uch odami foyda qildi yoki zarar ko'rdi, buning davlatga nima daxli bor?

Men: bu davlatlar har mulkning molini o'ziga sarf etadilar va faqat o'sha yerning tijoratidan foydalanadilar. Masalan, bugun Hinduston inglizlarning qo'lida, biroq Hinduston moliyotidan bir pul ham inglizlar xa-

@tarixchi_kutubxonasiga

zinasiga kirmaydi. Barchasi faqat Hinduston obodligiga sarflanadi. Ingliz davlati faqat u yerning tijoratidan foydalanadi. Shuning uchun ham bu tijorat uchun joni boricha harakat qiladi. Chunki, ma'lumki, agar Hindustonda Angliya tijorati o'rnini Germaniya egallasa, unda Angliya uchun Hindustonning bor-yo'qligining farqi qolmaydi. Endi ozgina bo'lsa-da, buxorolik tujjorlar ahvolini tadqiq etaylik. Menimcha, sizlarning bugungi tijoratlaringiz bizning payg'ambarimiz amr qilgan tarzdagi emas, balki abadan foyda keltirmaydigan, o'zgacha tijoratdir. Payg'ambarimiz bizga amr etgan tijorat bugungi ovro'poliklarning tijoratidir, chunki ular bundan manfaat ko'rish uchun foydalandilar.

Biroq, sizlarning savdogarlaringizning aksariyati bugungacha faqatgina foyda ko'rish uchun emas, balki o'zlarining nafsoniy havaslari tufayligina bu ish bilan shug'ullanganlar. Masalan, Buxoroda falon boy oltmish ming teri oladi. Nega? Chunki boshqa bir boy ham shunchalik teri olgan. Bu yil falon boy tijorat uchun Amerikaga boradi. Nega? Chunki, ko'ngli sayohatni tilabdi. Bu ishlarni tijorat demaydilar. Ana shu o'yinlarni tijorat deb qabul qiladigan har bir qavm albatta mahv va nobud bo'lishi muqarrardir.

Bu fikrimni isbotlash uchun bir oz bahs qilmoqchiman. Sizdan so'rasam: Buxoro tujjorlari avval paxta savdosi bilan shug'ullanganlar. Endi esa shug'ullanmay qoldilar?

Tojir: chunki paxta savdosidan ko'p zarar ko'rdilar.

Men: shu kunlar [ya'ni, buxorolik tujjorlar paxta savdosidan qo'l tortganlaridan keyin] Buxorodagi begona savdogarlar ham paxta savdosi bilan mashg'ulmilar yoki ular ham bu ishdan qo'l tortdilarmi?

Tojir: shu kunlarda Buxoroga juda ko'p kishilar paxta sotib olish uchun keladilar va ko'p pul ishlaydilar.

Men: ana shu begonalar Buxoro savdogarlari kabi zarar ko'radilarmi yoki foyda olmoqdalarmi?

Tojir: agar ular ham bizning tojirlarimizdek zarar ko'rganlarida edi, paxta sotib olishdan qo'l tortar edilar. Biroq, hozircha bu ishdan to'xtaganlaricha yo'q, aksincha, har yili avvalgisidan ko'ra ko'proq daromad olmoqdalar. Aytish mumkinki, zarar ko'rmaydilar, balki foyda oladilar.

Men: ajabo, Buxoro tujjorlari buxorolik bo'la turib, o'z shaharlarining past-balandini begonalardan yaxshiroq bilsalar-da, nega paxta savdosidan zarar ko'rmoqdalar? Begonalar begonaligiga qaramasdan, Buxoroning yo'l-yo'rig'ini bilmay, qanday qilib foyda olibdilar?

Tojir: begonalar barcha uskunalarini o'zlari quradilar, tuzatadilar, biz bu jihatdan ularga muhtojmiz va shuning uchun ham bizning xarajatimiz ularning xarajatidan ko'proqdir.

@tarixchi_kutubxonasiga

Men: sizlarning falokatga botishlaringizning sababi faqat bugina emas. Yana bir yirik illat ham bor. Ajnabiylar o'zlari ittifoq va birlikka ega. Sizlar esa, pullaringizni hamisha o'zaro qarama-qarshiliklaringiz yo'lida sarf etasizlar. Molni sotib olayotgan paytda sizning fikr-o'yingiz buxorolik falon boy ustidan g'alaba qozonish borasida bo'ladi. Undan ko'proq mol olib, uni sindirsangiz bas. Shuning uchun juda ko'p holda bir-birlaringizga qasd etib, paxtani Moskov narxidan to'rt baravar oshiq olib, tengsiz zarar ko'rgansizlar. Teri sotib olishda ham ahvol shu. Biroq ajnabiylar bu yo'lni tutmaydilar. Ular bozorga kirib savdo qilishdan oldin, to'planishib maslahat qilishadi. Ko'radilarki, paxtaning narxi Maskovda o'n besh so'm, ular bu yerda o'n so'mdan oshirmaslikka qaror qilishadi. Keyin bozorga kirib, o'z ahdlarida turib savdo qiladilar. Paxta narxi o'n so'm-u bir tangaga teng kelishi bilanoq, barchalari hamyonlari og'zini bekitadilar. Chorasiz qolgan dehqon yana bir tanga tushib, arzon sotadi. Endi sizning fikringiz va mening qarashlarimni bir joyga jamlasak, quyidagi natija hosil bo'ladi:

1. Begonalar o'zaro ittifoq tuzish va birlashish kuchiga ega, sizlarda esa nifoq va begonalik bor.

2. Begonalarning o'z fabrikalari bor, sizlarda yo'q.

3. Ular savdo ilmini necha-yil zo'r berib o'qiganlar va biladilar, sizlar bilmaysizlar.

Shuning uchun ham ular foyda ko'radilar, sizlar – zarar. Shuning uchun paxta tijoratini butunlay va pilla tijoratini qisman sizlardan olganlar va aminmanki, agar uskunasizlik va ilmsizlik, o'zaro nifoqlar tugamasa, teri tijoratini ham boy berishingiz shak-shubhasizdir. Boshqalar sizlarning tijoratingizni tortib olmasligi uchun nima qilish kerak?

Eng avvalo, o'rtangizda ittifoq va birlik bo'lmog'i lozim. Dini mubiynimiz islom har xususda ham ittifoq va birlikni amr etgan. Oh, agar ulamolarimiz shunday bir muhim ilohiy amrni bizga durustroq tushuntirsalar edi va biz ham amal qilsak edik, bugun bunchalik qattiq balolarga uchramas edik. Keyin, sizlarning o'z fabrikalaringiz bo'lmog'i lozim.

Shuni tan olib aytamanki, bugun Buxoroda sarmoyasi ham fabrika qurib, ham tujjorlik qilishga yetadigan kishi yo'q. Agar o'nta buxorolik sarmoyadorning puli bir joyga to'plansa, to'rtta fabrikaga ega bo'lish mumkin va bu sarmoya egalari muvaffaqiyat bilan savdo ishini yurita oladilar. Ovro'poliklar shirkatlarning afzalligini yaqinda kashf etib, o'z millatlarini bu shirkatlarni tuzishga da'vat etdilar. Biroq, bizning payg'ambarimiz bundan bir ming uch yuz yil oldin amr etib, degan edilar: «Alloh taolo deydiki, ikkita bir-biriga xiyonat qilmaydigan sheriklarni men himoya etaman va qachonki xiyonat etsalar, mening himoyamdan mahrum bo'ladilar».

@tarixiy_kutubxonaga

Uchinchidan, sizlar o'z farzandlaringni tijorat maktablariga yuborib, savdo ilmida o'qitingiz, chunki begonalar tijorat ilmidan xabardor, siz esa bexabarsiz. Alloh taolo bu ma'nini Qur'onda xabar bergan: «Bilmaganlar bilganlarga tenglasha olmaydilar». Yana boshqa masala ham bor. Buni ham arz etay. Tijoratdan maqsad – boylik orttirishdir [ya'ni pul topish]. Ammo, sarvatni qo'lga kiritishning yo'li faqatgina tijorat emas. Buning juda ko'p yo'llari bo'lib, tijorat – shulardan biridir. Boshqa yo'l: «ixroj san'ati», ya'ni yer osti boyliklarini chiqarib olish va «amal san'ati», ya'ni uskunalar [fabrika, zavodlarni] yaratishdir. Afsuslar bo'lsinki, siz buxoroliklar bu ikkala tomonga mutlaqo e'tibor bermagansizlar. Buxoroga tegishli yerlarda tilla, mis, temir, ko'mir, lampa moyi va boshqalar ko'pdir. Siz buxoroliklar ulardan bahramand bo'lmaganlaringdan keyin, bu boyliklardan nima foyda? Yana qaytaraman, yirik shirkatlar tuzib, nifoq va begonalikni bir tomonga yig'ishtirib, intilish va harakatlaringizga muntazir qolgan va Xudoning ne'mati bo'lgan yer osti boyliklaridan bahramand bo'lingiz. Ammo bu boyliklar, rudalardan fabrika va mashinalar yordami bilan toza va ozoda holda foydalanish lozim.

Shuni ham bilingki, agar siz buxoroliklar, ta'kidlaganimdek, bu Xudo bergan ne'matdan foydalanmasangiz, albatta hayal o'tmay begonalar bu boyliklarga ega bo'lib, ularning har birining ustida fabrikalar va hayratangiz mashinalarni o'rnatadilar. Dunyo-dunyo pul ishlab oladilar. Minglab xizmatchilar bu ishga safarbar qilinadi. U vaqtda sizlarning farzandlaringiz chorasiz qolib, ularning xizmatlariga bo'yin egishlari muqarrar.

Bugungi kunda «amal san'ati»ning bir qismi, masalan, alocha to'qish va boshqalar sizning mamlakatingizda mavjud, biroq bularning barchasini eski usul bilan qurgansiz. Agar ularni qaytadan, yangicha qurmasangiz, san'atlarning barchasi ham qo'lingizdan ketishi muqarrar.

Murodim nasihat aytmak, aytdim.
Xudoga topshirdim, dedim-u, ketdim.

@tarixchi_kutubxonasiga

SADRIDDIN AYNIY

«Buxoro inqilobining tarixi»[1]

Sadriddin Ayniy (1878–1954) XX asrning birinchi choragida Buxoro amirligi va BXSRda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisi, taniqli adib, o'zbek va tojik xalqlarining sevimli yozuvchisi edi. U O'zbekiston FA ning faxriy a'zosi (1943-y.), Tojikiston FA ning birinchi prezidenti (1951–1954) va Tojikistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1940) bo'lib, ko'plab tarixiy, badiiy va ilmiy asarlar yaratgan. Uning ijodiy merosi asosan tarixiy mavzularda edi.

Sadriddin Ayniyning «Buxoro inqilobining tarixi» nomli asari 1920–1921-yillarda yozilgan bo'lib, XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi siyosiy jarayonlar, islohotchilik harakatlari voqealar guvohi va ishtirokchisi tomonidan yoritilgan muhim manba hisoblanadi.

Asar to'rt qismdan iborat bo'lib, uning 1908–1917-yillardagi ijtimoiy-siyosiy voqealar tarixiga bag'ishlangan ikkinchi qismida yangi usul maktablari, mutaassib ulamo bilan taraqqiyparvarlar orasidagi bahs-munozaralar, yosh buxoroliklarning yashirin jamiyati va uning faoliyati to'g'risida mufassal ma'lumot beriladi[2].

Asar ilk bor 1926-yilda Moskvada mafkuraviy tazyiqlar ta'sirida katta qisqartirishlar bilan arab imlosida nashr qilingan. Sadriddin Ayniyning sakkiz jildlik tanlangan asarlarining birinchi jildiga ham katta qisqartirishlar bilan kiritilgan.

2010-yilda asarning O'zR FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar jamg'armasida 2125 va 36-raqamlari ostida saqlanayotgan nusxalari asosida ilk bor ilmiy-tanqidiy matni tayyorlanib, nashr etildi[3]. Quyida ushbu nashr asosida asardan Buxoro amirligida Rossiya imperiyasiga siyosiy qaramlik sharoitida Rus siyosiy agentligi tomonidan olib borilgan tazyiqlar, yosh buxoroliklarning yashirin jamiyatlari haqidagi parchalar keltiriladi. Asarni tabdil qilish jarayonida matn mazmuni tushunarli bo'lishi uchun tinish belgilari o'zbek tilining hozirgi imlo

---

[1] Sadriddin Ayniyning «Buxoro inqilobining tarixi» asari Buxoro Respublikasi Maorif nozirligining majlisida (1920-yil sentabr) inqilob tarixini yozish uchun tuzilgan maxsus komissiya buyurtmasi asosida o'sha yili martda yozib tugatilgan. Bunga qadar u 1918-yilda o'zining ilk yirik tarixiy asari – «Tarixi inqilobi fikri dar Buxoro» («Buxoroda fikriy inqilob tarixi») asarini yozgan edi. Mazkur asarning o'zbekcha qayta ishlangan variantiga 1919–1920-yillar voqealari kiritilgan va ilk bor 1920-yil sentabr – 1921-yil fevralda «Mehnatkashlar tovushi» gazetasining bir necha sonida chop etilgan.

[2] Asarning yosh buxoroliklar harakatiga oid qismi mustaqillik davrida Fayzulla Xo'jayevning 100 yilligi munosabati bilan tayyorlangan ilmiy to'plamda chop etildi. *Qarang*: Fayzullo Xo'jayev 100 yil. Mas'ul muharrir: t.f.d., prof. D.A. Alimova. – Toshkent, Fan, 1997.

[3] *Sadral-Din Ayni.* Buxoro inqilobining tarixi. Nashrga tayyorlovchilar: Shimada Shizuo, Sharifa Tosheva. – Tokio, 2010.

@tarixchi_kutubxonasiga

qoidalariga mos ravishda o'zgartirildi, siniq qavs orasida ba'zi forsiy va arabiy so'zlarning o'zbekcha tarjimasi berildi.

Sh.Toshеva

Jahon urushi va rus elchixonasi

1914-yil iyul oyinda jahon muhorabasi [urushi] boshlanib, dunyo tarixinda yangi fasl va boblar ochildi. Rus elchixonasi ma'murlari urush choqlarinda umumiy ahvolni diqqat bilan, faqat mutavahhimona [vahimali] bir sur'atda ta'qib etmakda edilar.

Rus ma'murlarining urush chog'inda tutgan xatti-harakatlarini bayon qilmasdan burun bularning umuman tutgan yo'llarindan bir oz ma'lumot berib o'tmak lozim ko'runadir.

Rus hukumati mustabidasi davrinda Buxorodagi rus ma'murlarining maqsad va g'oyalarini ikki nuqtag'a xulosa qilmoq mumkindir. Birinchisi, o'z shaxsiy manfaatlarini har vosita bilan bo'lsa-bo'lsun, hosil qilmoq. Ikkinchisi, haq bo'lsun, nohaq bo'lsun, har yerda rus hukumati mustabidasining quvvat-u nufuzini ko'rsatmak edi. Ushbu ikki matlabni shundoq yo'llar bilan hosil qilar edilarki, rus davlati muazzamasining mujassam misoli bo'lmoq o'rnida davlatning obro'y va nomusining barbod bo'lishig'a sabab bo'larlar edi.

[152-varaq] Avbosh va firibgarlarni rus raiyasi deb himoya qilarlar, bular har kimsaga har qanday taarruz [hamla, ziyon, ranj] qilsalar, mashru' [qonuniy, shar'iy] sanalar, nomus-u moli talaf bo'lg'on Buxoro raiyasi gunohkor va aybdor hisoblanar edi.

Bank va firmalardan qarzdor bo'lg'on Buxoro raiyasi eflos [bankrot] e'lon qildig'i [sindig'i] taqdirda yoki o'lsa, uyi va xotun-bolalarining kiyimlarigacha sotilib olinar, qarzning qolamasi oning qavm-u qarindoshlarindan to'latilar, agar bu bilan ham qarz ado bo'lmasa, oning hisoblari [noto'g'ri bo'lsa ham] bir tiyin qolmasdan berilar edi.

Hatto biron rus raiyasi Buxoro raiyasindan soxta bir veksel bilan haq talab qilsa ham Buxoro hukumati rad qila olmas va oning matlabini ijro qilishg'a majbur edi.

Buxoro shahrining ichi va mashhur viloyat-u tumanlari rus xufiyasi va rus voqeanavislari bilan to'ldirilg'on, bu voqeanavislar har bir kimsaning mol-u nomusig'a hokimi mutlaq edilar.

So'ng zamonlarda Buxoro darvozasining ostinda vokzal maydoninda rus po'lis [politsiya] idorasi ochildi. Bu idora Buxoroning ichinda har bir ishga muxtor va muqtadir [qodir] edi. Buxoro hukumat ma'murlari va Buxoro raiyalari ushbu idoraning amrlarig'a bo'yunsunmoqdan boshqa choralari yo'q edi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Xususan, ushbu idoraning boshig'a Velman ismli bir kimsa o'lturg'ondan so'g'un shahardan amniyat butun barham yedi. Yaroq axtarmoq bahonasi ila har bir uyni borib bosar, istagan kimsalarini obro'ysiz qildirar edi. Xufiyalik [voqeanavislik] uchun Buxorodan har bir nomussiz va avbosh kimsalarni o'z tevaragiga yig'gan, bular kecha-yu kunduz mast bo'lib, ochiqdan ochiq har bir fasodni qilib, istagan odamlarindan rishva olib, istagan o'g'ul va qizlarig'a taarruz qilib yurarlar edi.

[153-varaq] Buxoro vokzalinda bir qimorxona bor edi. U qimorxona Velmanning himoyasi ostinda sanaldig'indan har bir taarruzdan mahfuz edi. Butun buzuqlar, butun o'g'rilar, butun voqeanavislar onda yig'ilarlar, har bir fasodning plani o'shal yerdan chizilib chiqar edi. Velman janoblarining bir tanaffusgohi [dam olaturg'on o'rni], bir manbai voridoti u qimorxona edi.

Umumiy urush choqlarinda imperator bandalarining buzuq va mustabidona ishlari taraqqiy qildi. Elchixona ma'murlarindan Shulga [Shulga] ismli bir kimsa rus davlatining quvvat va nufuzindan istifoda qilib, o'z manofeyi xasisasi uchun yaxshigina xizmat qildi.

Shulga ba'zi kattaroq hokim va qozilarg'a xat va xabar yo'lini ochib, do'stliq ko'rsatar, lozim bo'ldig'i vaqtlarda o'z himoyat va muovinatini va'da qilar, shu bilan hadya va taoruf yo'li [to'g'ri iborat bilan, rishva tariqi] ochilar edi. Buxoro hukumat ma'murlari ham bu to'g'rida «qushlar tilini qushlar tushunarlar» maqolincha rumuzi fahm edilar.

Shundoqg'a vaqtlarda osh qilib, elchi noibi janoblarini xursand qilarlar edi. Agar ushbu hokimlardan birontasi noib janoblarining muddaosini anglamasa yoki o'zini bilmaslikka solsa, voy, oning holig'a voy! Oning boshiga biron falokat kelishi aniq edi.

Chunonchi, Shulga mashhur qozilarning birisiga bir necha qatla maktub yozib, do'stliq ko'rsatdi. Bunga muqobil mazkur qozi ham quruq do'stliq maktubindan boshqa biron narsa yubormadi. Zero, Shulga vositasi ila taraqqiy qilishni nafsi qabul qilmadi. Oqibat Shulga bir nafar firibgar rus raiyasining murofaasi [da'volashish, sudlashuv] bahonasi ila Buxoro hukumatindan mazkur qozining azlini [lavozimidan chetlatishni] talab qildi. Amir va qushbegi mazkur qozini bir necha kun ma'muriyatindan olib, Buxoroda saqladilar va jurmona [jarima] bahonasi ila bir mablag' aqcha elchixonag'a bergandan keyin qozini yana o'rnig'a yubora oldilar.

Shulga o'zining xususiy manfaatini ko'proq elchixonada eskidan beri xizmat qilib kelgan Mirzo Ahmadbek vositasi bilan hosil qilar edi. Biron kun ishning usti ochilib, mas'uliyat o'z bo'ynig'a tushmak ehtimolindan qo'rqib, har kimning oldinda Mirzo [153] Ahmadbekni g'ayrimo'tamad [ishonchsiz] va rishvaxo'r [poraxo'r] ko'rsatar edi. Ushbu tadbir soyasinda, agar Mirzo

@tarix_bilan_kutubxonasiga

Ahmadbekning biron kimsadan Shulga ismiga rishva oldig'i bilinib qolsa, Mirzo Ahmadbekning o'z xiyonatindan sanalar va Shulga janoblari oppoq oqlanib qolar edi.

Shulga jahon muhorabasi choqlarinda har vaqtdan ko'proq manfaat hosil qilmoqg'a kirishdi. Siyosiy tuhmatlar bilan odamlarni tuhmatlab, masalani rishva [pora] bilan hal qilaberdi.

Shulga Burhoniddin qozikalon va oning inisi Mir Ikrom maxdum bilan o'zini qalin va qil o'tmas oshna hisob qilar edi. Ushbu do'stliq Burhoniddinning qozi bo'lishi muqaddimasindan boshlanib edi. Burhoniddinning qozikalon bo'lishig'a muhim o'yinni Shulga o'ynag'on edi. Tabiiy, munga muqobil qozikalon ham do'stliq nishonasini Shulganing orzusindan ortiqroq ko'rsatgan edi.

Qozikalonlik mansabig'a yorlashgandan keyin na Burhoniddin, na Ikrom maxdum do'stona ziyofat va maktublardan bo'lak ko'zga ko'rinarlik biron xizmat ko'rsatgan bo'lmasalar kerakki, Shulga boshqa bir yo'l tutdi: «Qorako'l qozisi Ikrom maxdum siyosiy suhbatlar qilar emish, munga tanbeh bermak lozim», deb qushbegiga maktub yozdi.

Elchixona oldinda turaturg'on Buxoro ma'muri Ato Xo'ja vositasi ila Ikrom maxdumning o'ziga ham yuqoridagi mazmunda xat yubordi. Natijada, masala buyuk bir hadya bilan hal bo'ldi.

Burhoniddinning o'ziga ham: «Kuyovingiz va o'g'lingiz siyosiy suhbatlar qilar ekanlar», deb xususiy xat yozdi. Ushbu xatdan muddao hosil bo'lmag'onindan keyin ikkinchi qatla shiddatliroq: «O'g'lingiz va kuyovingiz ma'xaz [ovoza, mish-mishlar] va mansablarg'a tadoxil [daxl] qilar emishlar. O'zingiz murofaalarni shariatg'a muvofiq so'ramas ekansiz. Xalq sizdan hamisha noroziliq qilib, bizga murojaat qilarlar...» – deb, maktubning oxirinda: «Maktubning homili [yetkazuvchisi] har nima so'ylasa, to'g'ri sanalsin» jumlasini ilova qilib, Mirzo Ahmadbek ila yubordi.

Burhoniddin mazkur maktubni o'qug'ondan keyin Mirzo Ahmadbekdan shifohiy siporishni [og'zaki topshiriqni] ham bu muammoning hali chorasini so'radi. Mirzo aytdi: «Siz do'stlarning qadrini bilmaysiz. Noib janoblari sizga ko'p xizmatlar qildilar. Sizning ushbu mansabg'a yetishmagingizga chalishdilar. Ammo siz xayrixoh do'stlaringizni esdan chiqardingiz. Shulga janoblari bu yil uylandilar. Siz biron narsa to'yona guyon ham yubormadingiz!...».

[155-varaq] Ushbu musohabaning [suhbatning] natijasinda qozikalon Shulgaga muhim va tuzuk bir hadya (sodda ibora ila, rishva) yubormoqchi bo'ldi. Mirzo Ahmadbek ushbu mablag'ning oltin [tilla] bo'lishini shart qildi. Xulosa, Mirzo Ahmadbek ila bir mablag' oltin (soni esimdan chiqibdir) Shulgaga yuborildi.

@tarixni_kutubxonasiga

Mirzo Ahmadbek ushbu oltin vositasi ila bu ikki do'sti xolisning oralarini tuzatdi. Muning ketindan Shulga qozikalonga roziliq va do'stliq izhor qilib, yana bir maktub yubordi (Qozixonadagi bir do'stim vositasi ila ushbu maktublarni bizzot [mohiyatan, shaxsan] mutolaa qilg'on va musohabalarni tafsiloti bilan onglag'on edim. Ushbu voqea 1915-yilda edi).

Endi bu yerda bir oz muhokama yuritaylik. Agar haqiqatan siyosiy suhbatlar bor bo'lub, oni yo'qotmoq maqsad esa yoki mumtane' ul-isloh [isloh etib bo'lmaydigan] bo'lg'on qozixonaning islohi matlab bo'lsa, nima uchun bir miqdor hadya bilan masala hal bo'ldi? Mundan ochiq bilinadirki, u zamondagi rus ma'murlarining maqsadlari o'z manfaatlarini hosil qilmoq va bu yo'lda har turli tuhmat va razolatlardan keyin turmak ekan.

Rus ma'murlari va yoshlar[1]

Umumiy urush boshlang'ondan keyin rus ma'murlari ko'proq yoshlarni ta'qib qila boshladilar. Shaharni voqeanavis bilan to'ldirib, butun amniyatni barham berdilar.

1915-yil yoz faslinda Shulga ichkari Rusiyag'a ketdi. Ushbu diplomat qaytib kelguncha ahvol bir oz tinchlanib turdi. Esimdan chiqg'on bo'lmasa, 1915-yil avgust oxirlari yo sentabr boshlarinda G'ijduvon tumanig'a o'z uyimg'a borgan edim.

Bir kun G'ijduvon bozorinda Buxorodan yangi kelgan bir do'stim bilan ko'rushib, shaharning ahvolini so'radim. Do'stim tinchliq va omonliq javobini bergandan keyin Shulganing Rusiyadan kelganligi xabarini berdi. (156-varaq)

Men: «Shulga kelgan bo'lsa, biron yangi hodisa ijod qilmadimi?» – dedim.

Do'stim: «Shulganing kelishiga uch kun bo'ldi. Bir-ikki kunni rasmiy ziyoratlar bilan o'tkazdi. Biron narsa to'ratmoqchi bo'lsa, mundan buyon to'ratar», – dedi.

Ushbu hodisaning ertasi kuni o'zim Buxorog'a bordim. Hujramg'a kirayotg'onda madrasa muazzini: «Bugun sizni qushbegi odami axtarib kelib edi», – dedi.

Ruhshunosliq farosati bilan Shulganing biron o'yin o'ynadig'ini muqarrar qildim. Oqshom ahvolni qushbegi kotiblarindan bo'lg'on bir do'stimdan tahqiq etdim. Darvoqe, bugun qushbegi bir necha odamlarni oldig'a chaqirib, «sizlar siyosiy suhbatlar qilar ekansizlar» deb tanbeh qilg'on ekan va menim otim ham olarning orasinda bor ekan.

[1] «Yoshlar» deganda Sadriddin Ayniy «Yosh buxoroliklar»ni nazarda tutgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Qushbegi odamining takror kelishini kutmasdan, erta bilan o'zim turib qushbegi oldig'a bordim. Nasrulloh qushbegi mani tanimas edi. Ism va laqabimni aytib, nima uchun chaqirildig'imni so'radim. Qushbegi tizzasining oldindan bir kog'azni ko'tarib o'qib, menga qarab aytdiki: «Rus axborna'oislari bir necha kishini siyosiy suhbat qilarlar, Rusiyaning shikasti, Germaniya va Turkiyaning g'alabasindan so'ylasharlar, deb yozmishlar. Sizning ismingiz ham shul orada bor».

Men: «Men biron kishi bilan borish-kelish qilg'on emasman. Siyosiy suhbat nari tursin, oddiy suhbatlardan ham xushlanmayman. Ahvolimni madrasa aholisindan taftish qilsangiz ma'lum bo'lur», – dedim.

Qushbegi: «Fitrat ila borish-kelishingiz yo'qmi?»

Men: «Yo'q!»

Qushbegi: «Ma'rifat kutubxonasig'a borasizmi?»

Men: «Ma'rifat kutubxonasig'a kitob, qalam, kog'az kabi narsalar olmoq uchun kunda boraman. Lekin onda o'lturub biron kimsa bilan suhbat qilg'on emasman», – dedim.

Qushbegi: «Undoq bo'lsa, sizning ismingiz bu ro'yxatda yana uchinchi darajasinda nima uchun yozilg'on?» – dedi.

Men: «Muning haqiqiy sababini albatta yozg'on odam bilur. Ehtimolki, menim doiman g'azeta [157-varaq] o'qushimdan voqeanavislar siyosiy suhbatlarni intizo qilg'on bo'lsalar», – dedim.

Qushbegi: «Sabab ma'lum bo'ldi. Nima uchun g'azeta o'qiysiz?» – dedi.

Men: «G'azeta o'qush mamnu' [man qilingan] bir narsa emas. G'azetalar rus matbaalarinda bosilib, rus senzurlarining [senzorlarining] qo'lindan o'tib, rus pochtasi bilan kunda yuzlarcha nusxasi Buxorog'a kelar, minglarcha odamlar o'qiydirlar. Menga qolg'onda nima uchun bu ish mamnu' bo'lsun?» – dedim.

Qushbegi: «Siz mashhur bir mullo. Sizning g'azeta o'qushingiz diqqatni jalb qiladir. Siz kitob o'qung, Qur'on o'qung, munosibi shul!» – dedi.

Men: «Qur'on va kitoblar ham o'z vaqtinda, o'z navbatinda o'qilur. Men mutolaag'a haris bir kimsa. Ham hirsim ishq darajasinda yetishgan. Agar biron kun g'azeta o'qimasam, xafaqon xastalig'iga uchrab, xarob bo'laman», – dedim.

Qushbegi ushbu javobdan bir oz kulgandan keyin: «Undoq bo'lsa, muhoraba bitguncha g'azeta o'qimang», – dedi.

Men: «Bir necha g'azeta va majmualarg'a mushtariydirman. Xoh o'qisam, xoh o'qimasam, rus pochtasi keltirib beradir. Shuning uchun bu va'dani bera olmayman», – dedim.

Qushbegi qaysi g'azeta va majallalarg'a mushtariy ekanligimni so'rab, munosib javoblarni olg'ondan keyin, tizzasining oldig'a ishorat qilib: «Mana

@tarixchi_kutubxonasiga

bizga ham har turli g'azetalar keladir. O'qimayman deng, sizga ruxsat», – dedi.

Har nima bo'lsa, ushbu darma-daroz istintoq [so'roq] yoki musohaba natijasinda tanbeh va tahdid ko'rmasdan, qutulib ketdim. Ushbu ro'yxatda Mirzo Sahbo, Hoji Dodxoh, G'ozibek, Hoji Abdusattor, Mirzo Abduvohid, Ahmadjon maxdum, Muhyiddin maxdum, Fitrat va boshqa qirqg'a yaqin odamlarning ismi bor ekan. Bularning bir qismi yoshlardan bo'lub, qolg'on bir qismi Mirzo Urganjiyning o'g'li kabi kimsalar bo'lub, bularning otlarini bu orada yozmoq qo'rqitib rishva [158-varaq] olmoq uchun ekanligi beishtiboh edi.

Taajjub bu yerdadirki, ushbu ro'yxatda taftish kunidan ikki oy burun Rusiyag'a safar qilib va u kunlarda Makariyada[1] bo'lg'on Porso Xo'ja, Mirzo Izzatulla va Hoji Hamroh kabi zotlarning ham ismlari yozilg'on edi. Mundan ma'lum bo'ladirki, rus ma'murlari hech bir ishni taftish qilmasdan, ma'lum bir maqsad ila yashirin vaqtlarinda yozilib qo'yulg'on ismlarning nusxasini ko'tarib, qushbegiga yuborgan ekanlar. Qushbegi ro'yxatda ismlari yozilg'on kimsalarning Buxoroda topilg'onlarini o'z oldig'a chaqirib, tanbeh qildi. Shu bilan ushbu masala bir daraja bitdi.

Buxoroda istibdod zamoninda bo'lmag'onlar yoki mundan buyon dunyog'a kelaturg'onlar istibdodning bu darajasig'a hayron qolib, ehtimol, mubolag'aga haml qilsalar [yo'ysalar] va rasman nashr bo'lub turg'on g'azetalar o'qishining man'ini [man' etilganiga] inonmasalar. Lekin bu haqiqat edi.

Bizning xushbaxtligimizdan ushbu voqea chog'inda Buxoro qushbegisi Mirzo Nasrulloh edi. Xudo ko'rsatmasun, agar bu ishning asnosinda Mirzo Urganjiy kabi bir odam qushbegi bo'lsa edi, hech bir so'zsiz, so'rog'siz bizning yotaturg'on yerimiz obxona bo'lur edi.

Mundan so'g'un Shulga qozi Burhonidding'a ham bir maktub yozib, yoshlarg'a qarshi harakat qilishg'a undadi. Maktubning bir yerinda: «Siz qo'rqmasdan ushbu firqani yo'qotishg'a chalishingiz! Bu to'g'rida bizdan har bir himoyatni ko'rarsiz», – dedi.

Xulosayi kalom, Buxoro xalqining orasinda «noibcha» deb mashhur bo'lg'on ushbu diplomat o'zining kim ekanligini yolg'iz yoshlarg'agina emas, butun Buxoro aholisig'a tanitdi.

Yashirin jamiyatni ta'qib[2]

Jahon urushi asnosinda rus ma'murlari Buxoro yoshlarini diqqat bilan ta'qib qildiqlari uchun yashirin jamiyat tez-tez yig'ilmas va yig'ilg'on

[1] *Makariya* – Nijniy Novgoroddagi savdo yarmarkasi.

[2] «Yashirin jamiyat» deganda, Sadriddin Ayniy Yosh buxoroliklarning yashirin uyushmalari va faoliyatini nazarda tutgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

choqlarda ham shaharning biron burchaginda yig'ilib, ishini kamoli ehtiyot bilan yuritar edi.

Rus elchixonasi to'g'ri bir axbor bilan emas, qiyosan bir yashirin jamiyat borlig'ini sezdi. Ko'kaldosh madrasasinda ushbu satrlarni yozg'uchi turdig'indan, Dasturxonchi guzarinda Fitrat afandi va Fazliddin maxdum kabi mashhur taraqqiyparvarlar bo'ldiqlarindan yashirin jamiyatning yig'ilaturg'on o'rni ushbu yerlarda bo'lur, deb gumon qildi.

Ushbu qiyos va gumonlarga binoan qushbegi qozikalonga: «Ko'kaldosh madrasasinda va Dasturxonchi guzarinda yashirin jamiyat bor ekan. Yashirin odamlar vositasi ila ushbu jamiyatdan yig'ilg'on chog'inda xabardor bo'lib, a'zolarini hibs va daftarlarini zabt qilingiz», deb maktub yubordi [ushbu maktub kelgan kuni yoshlarg'a ma'lum bo'lib edi].

Qushbegi bilan qozikalon mazkur yerlarda yashirin tergovchilar qo'yib, bir oy chamasi ko'zlatdilar. Tergovchilar Ko'kaldosh madrasasi ichinda oshnalar paydo qilib, oqshomlar poylandilar. Tabiiy, ushbu tahqiq va taftishlar natijasinda biron foyda qo'lg'a kirmadi. Lekin elchixona a'zolari va po'lis [politsiya] ma'murlari haqiqat darajasinda aniq deb gumon qildiqlari yashirin jamiyatni topa olmayin, jonlari siqilar va tobora diqqat bilan ta'qib qilar edilar.

Rus po'lisining boshlig'i Velman o'zi bizzot ishga kirishib, Buxoro hukumatining vositachilig'idan boshqa taftish qila boshladi. Bu jumladan, Ko'kaldosh madrasasinda turg'uchi Akbarxon bilan oshna bo'lub, oning vositasi bilan har turli xabarlar topmoqchi bo'ldi. Tabiiy, Akbarxon ham madrasadan biron xabar topib bera olmadi. Zero, madrasada hech bir narsa yo'q edi. U kunlarda men Akbarxonning Velman odami ekanligindan xabarsiz edim. Har bir bahona ila hujramg'a kelib ketar edi.

[160-varaq] Bir oqshom shom bilan xuftan orasinda Akbarxon kelib, meni o'z hujrasig'a chaqirdi va: «Hujramg'a bir tatar mehmon keldi. Siz bilan ko'rushmak istaydir», dedi. Qabul qilib bordim. Hujraning eshigindan kirar-kirmas ko'zim mehmonning ko'ziga tushdi. Diqqat qilib qarasam, beqasam to'n kiyib, yuzini teatr sahnasig'a chiqaturg'on artistlardek bo'yab, to'rg'a o'lturg'on tatar afandi po'lis mudiri Velman janoblari edi.

Tabiiy, men o'zimni bilmaslikka solib, ko'rushub, hol-u ahvol so'rashdim. Asli qaysi guburnadan[1] bo'lub, hozir qayda turdig'ini va nima ish bilan mashg'ul bo'ldig'ini so'radim. Birinchi savolimning javobini berar-bermas, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi savollar berar edim. Yarim soat chamasi shundoqqa ma'nisiz savollar bilan mehmon tatar qiyofasig'a kirgan po'lis mudiri janoblarining boshini shishdurub, «hujramda zarur ishim bor», deb musoada olib, «bismilloh» deb ushbu shaytonning oldindan chiqib qochdim.

[1] Guberniya.

@tarixchi_kutubxonasiga

Urush choqlarinda yoshlarning ishlari

Urush choqlarinda yoshlar ko'zga ko'rinarlik biron ish qila olmadilar. Yuqorida yozildig'idek, rasman maktablar bog'liq bo'ldig'indan maorif ishi saktaga [turg'unlikka] uchrag'on edi. Shuning ila barobar yoshlar orasinda xususiy o'qish va o'qitish yaxshigina borar edi. Abdurauf Fitrat o'z uyinda o'lturub, murojaat qilg'on yoshlarg'a dars berar, ta'lim va tarbiya yo'linda ko'shish qilar edi.

Abdurauf Fitrat uyindan boshqa yana bir necha joyda xususiy maktablar bor edi. Bu jumladan, qarshilik Hoji Abdumajid uyinda Mukmiliddin maxdum qo'l ostinda, Mirzo Muhiddin uyinda G'ulom Qodir qo'l ostinda, yana bir necha joylarda yashirin suratda [161-varaq] boshqa muallimlar qo'l ostlarinda xususiy maktablar davom qilmoqda edi.

Shahrisabzda shahid Islomqul to'qsoba himoyatidagi maktab rasman davom qilmoqda edi. Ushbu maktabda bir necha vaqt buxoroli Ato Xo'ja muallimliq qildi, so'ngra Shahrisabzning o'zindan shahid Mirzo Yusuf va shahid Nizom maxdum yetishib, o'z ishlarini o'zlari bajara berdilar. Karkida ham ishlar yaxshi bormoqda edi. Karki bizzot rus himoyatig'a bo'lib, ondagi ilmiy harakatlarga Buxoro hukumati va oning qozikaloni taarruz qila olmadi.

Buxoroda «Barakat shirkati» va «Maorif kutubxonasi» tevaraginda muhim bir qism yoshlar yig'ilg'on, kamoli jiddiyat bilan xalqg'a yangi adabiyot va yangi fikrlar tarqatmoqda edilar. Muhoraba munosabati ila xalqning har bir tabaqasi matbuot va g'azetalarg'a rag'bat ko'rsatgan va bu soyada yoshlarning tashviqotig'a keng yo'l ochilg'on edi. Samarqandda mufti Mahmud Xo'ja [Mahmudxo'ja Behbudiy] qo'l ostinda chiqaturg'on «Oyna» majallasi bir daraja yoshlarg'a noshir afkorlik vazifasini o'tab turar edi.

Atrofda ham adabiyot tarqalishi yaxshigina edi. G'ijduvon, Vobkand, Qorako'l va Chorjuy tuman va shaharlarinda dasta-dasta g'azetalar va kitoblar tarqalar edi. Karki kutubxonasi har turli asarlarni yig'ib, butun Kiyikchi yoshlarini o'z tevaraginda to'pladi.

Urush choqlarinda, xususan, rus ma'murlari va Buxoro hukumatining shiddatli ta'qibotlarindan keyin yoshlarning muhim ishlari xalqg'a siyosiy fikr tarqatmoq edi. Bu ishga bir darajada muvofiq bo'lg'on kabi ham ko'rinar edilar.

Urush vaqtinda Buxoro yoshlarindan Ziyouddin maxdum Ufag'a, Zuhuriddin Fathiddinzoda O'runburg'ga tahsili ilm uchun safar qildilar.

[162-varaq] Yashirin tashkilotning holi

Urush vaqtinda yashirin jamiyat tez-tez yig'ilmas edi. Yolg'iz biron muhim ahvol yuz berdigi taqdirda bir kecha yig'ilar va lozim ko'ringan qaror-

@tarixchi_kutubxonasiga

larni qabul qilib, tarqalar edi. Shundoq ham bo'lsa, yashirin jamiyat 1917-yil fevral inqilobig'a dovur Buxoro yoshlarig'a markazlik va rahbarlik vazifasini o'tab turdi. Fevral inqilobi asnosinda ushbu jamiyatning siyosiy ishlari boshqa bir jamiyatning qo'lig'a o'tganligindan, tabiiy, muning siyosiy vazifasi tamom bo'ldi. Shundoq ham bo'lsa, bu jamiyatning sirlari umum yoshlarg'a ochilmadi.

Yashirin jamiyat Buxoroning ilmiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy inqilobig'a boshlab xizmat qildig'i sababli, buyuk tarixiy ahamiyatg'a molikdir. Shuning uchun ushbu jamiyatg'a a'zo bo'lg'on zotlarning ismlarini to'plab, ushbu sahifalarda yozib qo'yishimiz lozimdir:

Mirzo Abduvohid Manzum, Ahmadjon maxdum Hamdiy, Fazliddin maxdum, mudarris Hoji Rofe', mudarris Hoji Siroj, Homid Xo'ja Mehriy, Mirzo Abduqodir Muhiddin o'g'li, Aminjon maxdum Ziyoiy, Muhyiddin maxdum Sudurzoda, Abdunasr maxdum Sudurzoda, Porso Xo'ja Hasan Xo'ja o'g'li, Hoji Hamroh Yo'ldosh o'g'li, Ahmad Kamol, Mukmiliddin maxdum Burhon o'g'li, Mazhar maxdum Burhon o'g'li, Muhammad Nazar maxdum, Musojon Yo'ldosh o'g'li, Ismoil Sadriy, Hoji Abdusattor dallol, Qori Hoshim Shoiq, Qurbonbek yuzboshi Shams o'g'li, Mirzo Nazrulloh Abdug'afur o'g'li, So'fi Abdurahim, Mirza Izzatulloh Amin o'g'li, Mirzo Muhammad va Sadriddin Ayniy.

Ilm va maorif yo'lig'a yoshlar va yosh fikrlilar tomonlarindan qilinaturg'on ittifoqiy ionalar [yordam, xayriya] jamiyat a'zolari vositalari ila ushbu jamiyat xazinasig'a yig'ildig'idek, jamiyat a'zolari jamiyatning sirini ochmasdan, bir necha maorifparvarlarni muayyan oyliq ionag'a ham bog'lag'on edilar.

Bu jumladan, Mirzo Muhiddin Mansur o'g'li, qozi Sharifjon Sadr, qozi Sayyidjon va yana ismlari esimda qolmag'on bir necha zot har oy boshinda [163] muayyan bir miqdor oyliq berib turar edilar. Shuning ila barobar, ma'naviy jihatdan bo'ldig'idek, moddiy jihatdan ham ushbu jamiyatning og'ir yuki shul bir hovuch o'z a'zosi bo'ynig'a tushar edi.

Jamiyat xazinasinda to'plang'on aqcha jamiyatning umumiy majlisi qarori bilan lozim ko'ringan yerlarga sarf qilinar va hisobi jamiyat daftarig'a qayd bo'lar edi.

Jamiyat a'zolarindan vafot va shahid bo'lg'onlar

Mirzo Fo'lad [Po'lat], Salimjon va So'fi Abdurahim Buxoroda tinchlik vaqtinda o'z ajallari bilan vafot qildilar. Mirzo Nazrulla 1917-yilda amirning islohot farmoni munosabati bilan qo'zg'olg'on aksil harakatda amir tomonindan 75 tayoq urildi, uch kundan keyin ushbu jarohat bilan Kogon xastaxonasinda shahid bo'ldi.

@tarixiy_kutubxonasiga

Homid Xo'ja Mehriy, Hoji Abdusattor dallol, mudarris Hoji Siroj 1918-yilda Qolisuf [Kolesov][1] voqeasi munosabati ila qo'lg'a olinib, mullolarning fatvosi, amirning buyrug'i bilan amir jallodlari tomonindan Buxoro arkinda degxona dediklari obxona ichinda boshqa yuzlarcha mazlumlar qatorinda eng qattig' azoblar bilan bo'g'ulib, shahid qilindilar.

Fazliddin maxdum, mudarris Hoji Rofe' 1918-yilda Qolisuf voqeasi munosabati ila Toshkandg'a hijrat qilg'ondan keyin u yerda ter xastalig'i [tif] bilan marhum bo'ldilar.

Dunyo urushi choqlarinda jamiyat a'zolarindan Mazhar maxdum, Muhammad Nazar maxdum va Qori Hoshim Shoiq Istanbulda bo'lub, qolgani Buxoroda edi.

Muharrir tarafindan ixtor

Jamiyatning tarixini yozayotg'onimda qo'limda jamiyatning daftari yo'q edi. Shuning uchun har bir ma'lumotni yoddan va esdan yozdim. Jamiyat a'zolari butun esimda qoldiqlari ila barobar, olarning duxul [kirish] tarixlari ochiq bir suratda xotiramda qolmag'on edi. Shuning uchun jamiyat a'zolarining ismlarini yozayotg'onimda duxul tarixlari rioya (164) qilinmadi.

Yuqoridagi sababga binoan, jamiyatning xarj-u daxli va Istanbulga qancha talaba yubordig'i va boshqa hisoblari to'g'risinda mufassal ma'lumot bermakdan ojizman.

Shunisini ham esga tushurib o'tamanki, jamiyat a'zolarining butun ismlari esimda bor, deb da'vo qildig'im holda, ba'zi bir birodarlarning esimdan chiqib qolg'on bo'lishi ehtimoldir. Agar banogoh ismi unutilg'on jamiyat a'zosi bo'lsa, ondan ham afv o'tinaman...

AHMAD DONISH
«Navodir ul-vaqoye»

Ahmad Donish (to'liq nomi Ahmad ibn Mir Nosir ibn Yusuf al-Hanafiy as-Siddiqiy al-Buxoriy) *Buxoro amirligida XIX asrning o'rtalarida yashab ijod etgan, ilg'or fikrlari bilan nom qozongan shoir, mutafakkir, ma'rifatparvardir.*

Ahmad Donish madrasada olgan bilimlar bilan kifoyalanmay, riyoziyot, falakiyot, adabiyot, musiqa, me'morchilik, tarix va falsafa bilan shug'ullangan. Falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, badiiy masalalar bilan birga tabiiy fanlarni, ayniqsa, astronomiya ilmini o'rganishga katta e'tibor bergan.

[1] *Kolesov F.I.* – Turkiston Xalq komissarlar sovetining raisi.

@tarixiykutubxonasiga

Uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari «Navodir ul-vaqoye», «Risolai muxtasare az tarixi saltanati xonadoni mang'itiya» kabi asarlarida o'z aksini topgan. Ahmad Donishning eng muhim asari «Navodir ul-vaqoye»dir. Bu asarda juda ko'p ijtimoiy-axloqiy masalalar bilan bir qatorda tabiiy ilmlar, xususan, yerning tuzilishi masalasiga ham e'tibor qaratadi. Quyida Ahmad Donishning ushbu asaridan parchalar keltirilgan.

N. Mirzayev

Yerning tarkibi, yer osti ma'danlarining yaratilishi va unga aloqador so'zlar hamda samandar qushining bayoni haqida

Bilmoq kerakki, gohida yashnab, goh vaqtda bo'zarib turgan bu yerimiz yuqori va quyi olamning markazidir. Falaklar, Oy, Quyosh va yulduzlar uning atrofidan aylanadilar. Tuxum qobig'i jo'ja chiqarish uchun ichidagi mag'zini asraganidek, hamda falaklar uni asrab, tarbiya qiladilar. Shuning vositasi bilan yer qornida uch movolid, ya'ni hayvonot, nabodot, ma'daniyot yaratiladi. Bularning yaratilishlari esa kavnm fasod, ya'ni buzulish va tuzilish qonuniga asoslanmishdir. Tuzilishning boshlanishi issiq bilan ho'llikdan bo'lganidek, buzulishning sababi esa sovuq bilan quruqlikdan bo'ladi. Bu to'rt unsurning aralashganidan turli sifatdagi narsalar vujudga keladi. Aql o'lchovi bilan jismlar olamining yaratilish yo'li shundaki, falakil buruj, ya'ni sakkizinchi falakning o'tlik uch burchidan doim issiqlik tushib turadi. Shunga o'xshash uning havolik uch burchidan to'xtovsiz sovuqlik, sulik uchburchidan hamisha ho'llik, tuproqli uchburchidan esa doimo quruqlik tushib turadi. Ammo bu to'rt unsurning tushishi ketma-ket bo'lib, oralarida hech vaqt uzilish bo'lmaydi. Endi bu osmonlar va ulardagi yulduzlar o'z davrlarini keragincha yetkazganlaridan so'ngra bu to'rtovi oyning falagi ostida to'planib aralashadilar. Bularning eng yengil va tiniqlari o't, havo orqali yuqoridan joy olib to'xtaydilar. Bularga qaraganda og'ir va quyuq bo'lganlari esa tuproq hamda suv bo'lib pastlikda turishga qaror topadi. Bular ichida eng og'ir va eng qalinrog'i tuproq bo'lganidan, hammadan tubanroqda joylanib, hayot olamining markazi hisoblanadi. Qolgan tuxumning po'sti sarig'ini o'raganidek, Yerning atrofini o'rab, doimo yerning ichki va tashqi tarbiyasi bilan shug'ullanadilar. Bundan esa tarkibli jismlar paydo bo'ladi. Demak, bu to'rt unsurning qo'shilishi va aralashishidan Yer yuzaga chiqadi... *[97-bet]*.

...Bu unsurlarning yerga tushishlari to'xtovsiz bo'lganidek, yerdan yuqoriga ko'tarilishlari ham to'xtovsizdir. Bular ichida o't unsuri sof va yengil bo'lganligidan, hammadan ilgari markazga yetib, bu zaif tuproqni markazdan qo'zg'ab, uni tarqatib yuborib, joyini o'zi egallaydi; tuproq-

@tarixchi_kutubxonasiga

ni esa yuqori ko'taradi. O't markazga yetib, o'z ta'sirini ko'rgazgandan so'ng, suv ham to'xtovsiz o'zining og'irlik va sustligidan markaz tomonga jo'nab, o't ko'tarib chiqargan tuproqni bosadi va yana markazga haydaydi. Ich tomondan o't tuproqni tuptib yana yuqori surib chiqaradi. Shunday qilib, ostidan o't, ustidan suv – ikki orada qattiq surishishlar yuzaga keladi. Buning natijasida markazga tushgan o'tning ustki tomoniga yopishib to'plangan tuproq o't va suv o'rtasida pishib toshga aylanadi... Yuqoridan o't moddalari markazga to'siqsiz tushib turishi hamda inson va hayvonlarga makon bo'lishi uchun yerning to'rtdan birini ochiq qoldirdilar. Bu yerga tushgan suvlar esa yer osti va usti haroratning ta'siridan tarqalib, uning usti quruq bo'lib turadi.

Yer osti o'ti markazga yetganida undan quyuq bug' ajralib qolib, uning musaffo, tiniq suyuqligi dastlab chiqqan yuqori joyiga qaytadi. Suv markaz atrofiga yetsa, uning loyqalanganlari u joydagi yopishqoq balchiqqa qo'shiladi. Sof tiniqlari esa havo tabiati bilan buloqlaridan, yer teshiklaridan, tog' oralaridan kelib chiqadi. Ortiqchalari esa oqib borib ulug' dengizga qo'shiladi. Shunga o'xshash havo ham tabiatning qistovi otida yer qatlamlari orasiga kirib, unga boshqa moddalar qo'shilib quyuladi va hayvonlar, o'simliklar [98-bet] va ma'danlarning mag'izlariga kirib singadi. Uning sof, toza suyuqlari u joydan sachrab chiqib, o't kurasi ostida o'z markaziga qo'shiladi.

Bizning bu isbotimizga ko'ra, Yerning ichi uch tabaqadan tarkib topgan bo'ladi. Birinchi tabaqasi quruq tuproqdirki, buning to'rtdan uch hissasi dengizga botmishdir. Ikkinchisi yopishqoq loy tabaqasidir. Bu esa yuqoridan tushgan ho'llik vositasi bilan tuproq loyga aylanib, tosh tabaqasini o'rab olmishdir. Uchinchisi sahro tosh tabaqasidir. Bu esa yer ostida qizg'in bug' bo'lib, ho'llangan tuproqni pishirib, uni toshga aylantirgandir. Ammo yer markazining o'zi esa qizg'in, sassiq bug' bilan to'ldirilgan va u ichi bo'sh tarvuzga o'xshaydi...

Bunday qizg'in issiq bug'ning yer markazida qamalib turishida necha minglab hikmatlar bordir. Chunonchi, bu hikmatlarning biri Yer atrofining ichkari va tashqaridan katta tog'lar bilan mustahkamlanishidir. Aks holda, tashqaridan daryolarning mavjlari, ichkaridan bug'larning hujumlari bo'lib, bechora yerni parchalab yuborar edilar. U hikmatlarning yana biri shuki, yer ustidagi buncha ko'p ulug' tog'lar shu markazda qaynab, qizib yotgan bug'larning ta'siridan paydo bo'lib, yerning tarqalib ketishidan saqlaydi. Ana shuning vositasi bilan tog'larning bag'rida xalq foydasi uchun ma'danlar va har xil qimmatbaho asl toshlar paydo bo'ladilar.

Quruqlikdagi va dengiz ichidagi tog'larning paydo bo'lishiga sabab o't unsurining to'xtovsiz tepadan yer markaziga tushib, yana o'z joyiga qaytib chiqishidir. Mana shu choqda uning eng yengil, sof va toza qismi tosh

@tarixchi_kitobxonimga

qatlamining yorug'laridan, yerning bo'shlig'idan yo'l topib, yuqoriga ko'tariladi. Yer ustidagi tutun va bug'larga aralashib, o'zining sofligi va yengilligini yo'qotganlari esa yo'l topib chiqolmay, yer markazida qamalib qoladi. Lekin unda ham yuqori tomonga intilish kuchi [99-bet] bo'lganligidan doim yuqori chiqishga yo'l axtarib, shu yoqqa tomon tortilib turadi. Uning shu harakatlaridan tosh qatlamlarida yorilishlar va ayrilishlar paydo bo'ladi. Qattiq qizigan tandir darz ketib yorilganidek, tosh ham darz ketib yoriladi. Markazda qamalib turgan bug'lar shu yoriqlardan yo'l topib, yuqori ko'tariladi. Lekin yuqoridan markazga uzluksiz tushib turadigan rutubatlar unga to'sqinlik qilganligidan tashqariga chiqib ketolmaydi va o'zida bo'lgan issiqlik kuchi bilan turgan joyining atrofini toshga aylantiradi. Natijada tosh tabaqasi ostidagi yopishqoq loy ichida tog' paydo bo'ladi. Agar bu yorilish, ajralishlar kengroq bo'lsa, avvalgi tog'ning atrofidan va uning ustidan ikkinchi bir tog' unib chiqib, tuproq qatlamining ichida turadi. Agar bu yoriqlar yana ham kattaroq va kengroq ochilgan bo'lsa, undan paydo bo'lgan tog'lar ham katta bo'lib, dengiz ichidan yoki quruqlikdan bosh chiqarib, o'z kattaliklariga qarab yuqori ko'taradilar. Agar bu tog'larning taglaridagi moddalardan ularga madad yetib tursa, ular borgan sayin ulug'lashadilar. Aks holda, dengizdagilari suvdan bosh chiqarolmay uzoq yillar o'tgandan so'ng suvga yem bo'lib yo'qoladi. Shu kabi quruqlikdagi tog'larni ham, agar ostidan modda yetishib turmasa, havo yeb tugatadi.

O'tgan hukamolar tog'lar ichidagi ma'danlarning paydo bo'lishini quyosh nurining ta'siridan deb bilganlar. Aqli komillar bu so'zni qabul qilishdan chekinadilar. Haqiqatda esa tog'lardagi hamma ma'danlar yer markazida qamalgan o'sha issiq bug'dan paydo bo'ladi. Uning tartibi shundaki, markazdan chiqqan qizg'in bug'lar tog' tomirlariga tarqaladi. Undan yo'l topib chiqib keta olmasa, uzoq zamonlar tog' bag'rida yotib pishib yetiladi. Agar u qamalgan bug' suyuq va yengil bo'lsa, undan yoqut, oltin, kumush kabi qimmatbaho ma'danlar paydo bo'ladi. Agar u og'ir va quyuq bo'lsa, undan temir, mis kabi ma'danlar tug'iladi [100-bet]. Tog'lar va ma'danlarning yaratilishida quyoshning xizmati hammadan ko'proq desak, u holda, o'tgan hukamolarning so'zlari ham to'g'ri bo'ladi.

Buloq suvlari va tog' ustlaridagi g'or va chuqurliklarning paydo bo'lishlarining sababi shulki, tog'larning og'irligidan yopishqoq loy tabaqasida biror joy yorilib ajraydi. Loy tabaqasida yoki quruq tuproq tabaqasidan bir qancha yeri bir tomonga surilib, o'rni ochilib qoladi. Buning sababi esa, haroratlik bug'ning yer markazidan yuqoriga ko'tarilishi yoki tog'ning ba'zi bir joylari bo'shashib ketganligidir. Shunday bo'lgach, tosh tabaqasi ostida yig'ilgan suyuqlik yoki tuproq tabaqasi tagida qamalgan bug' qaysi tomondan bo'shliq, yumshoq yer topsalar, shu yoqqa qarab yo chiqish, yo tushish harakatini qiladilar. Yer ostida tiqilib-siqilib yotgan bug'larning bunday

@tarixchi_kutubxonasiga

kuchli harakatlaridan o'sha yerda zilzila paydo bo'ladi. Bunday tog' atrofidagi ba'zi joylar yorilib suv buloqlari oqadi; yoki u haroratning zarbasidan yer yorilganda undan qattiq sadoli tovush chiqadi. Tog', tepaliklarning oralari ajralib, ulardan ungur, teshiklar paydo bo'lib qoladi.

Ba'zan haroratli bug'lar yerning chuqurroq joylarida qamalib qoladi. Bu ham bir hikmatdan xoli emasdir. Yana bir necha buloqlardan oqqan suvlar bir g'orga kirib, yer osti yo'li bilan ikkinchi bir joydan chiqib, buloq bo'lib oqadi. Gohida qurib qolgan bir buloqdan qattiq shamol yoki o't, yoki tutun chiqib turadi. Yoki o't shu'la urib turgan teshiklarning o'ti o'chib, yana undan suv chiqadi. Buning paydo bo'lishi shundayki, yer osti markazidan yorilib, tog' cho'qqisigacha uning darzi ketgan bo'ladi. Ba'zan o't yo'llari to'silib, suv yo'llari ochilganda suv buloq shaklida oqadi. Gohida suv yo'llari bekilib, u teshiklardan g'arillab o'tlar sochiladi. O'tning g'arillashining sababi esa, bu o't teshigining ikkinchi tomonidan shamol uradigan yana bir teshik borligidandir *[100-101-betlar]*.

Bu o'tning shu'la urib alangalanib yonishi yer qornida qamalgan ba'zi bir yonuvchi moddalarning aralashuvidan bo'ladi. Yo'q esa temir va toshlardagi o'tlar kabi markazdagi o'tning rangi ham, shu'lasi ham bo'lmaydi. Bizning ost-ustimizdagi o'tlar ham rangsizdir. Qachon bir-birlariga qattiq urilganlarida, ulardan o't paydo bo'lib, yerdagi narsalar bilan aralashgandan so'ng, unga rang kirib, kuydirish kuchiga ega bo'ladi [102-bet].

Bizning qilgan tadqiqotlarimiz yunon hukamolarining mazhablariga muvofiqdir. Butun hukamolarning aytishlaricha, yerning shakli kuraviy, ya'ni yumaloqdir. Falaklar unsurlari dol o'rtasida hech narsaga suyanmay muallaq turadilar. Faranglarning tog' va suvlarini sayohat qilgan olimlari yer kurrasini aylanib, osti-usti va janubi-shimollarini necha martadan o'lchab chiqqanlar; yerning yumaloq to'p shaklida ekanligini aqliy dalillar bilan isbot qilganlar. Mana shu kunlarda ingliz davlatlari tomonidan ularning bir necha sayyoh olimlari shimoliy va janubiy qutblarni tekshirib chiqishga buyurilgan bo'lib, ular esa hozir o'sha tomonlarni tekshirish ustida turadilar *[103-bet]*.

@tarixchi_kutubxonasiga

II BOB. MAHALLIY ARXIV HUJJATLARI

1-§. MA'MURIY-HUQUQIY VA XO'JALIK HISOBIGA OID HUJJATLAR

Buxoro amirligi ma'muriy-hududiy tuzilmasiga oid hujjatlar

Buxoro shahri ma'muriy-hududiy tizimida guzarlar alohida ahamiyat kasb etgan bo'lib, ular haqida ilmiy adabiyotlarda ilk bor O.A. Suxarevaning[1] *asarida va tarixiy geografiyaga oid tadqiqotlarda ma'lumot berilgan.*

Quyida O'zbekiston Milliy arxivining «Buxoro amirligi qushbegisi» [I-126] jamg'armasida saqlanayotgan hujjatda qayd etilgan XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Buxoro shahrida mavjud bo'lgan guzarlar ro'yxati keltirilmoqda[2].

N. Ismatova

1. Fathulloh Qushbegi
2. Xo'ja Tabband
3. Sa'dagon
4. Muhammad Qosim
5. Kokilayi Kalon
6. Hullabofon
7. Kuyi Murg'kush
8. Xo'ja Bo'lg'or
9. Po'shti Zog'on
10. Bozor Xo'ja
11. Mehtari G'ayr
12. Imom Qozikalon
13. Mulloyon
14. Mirzo Zuhur Devoni Kalon
15. Korxona
16. Kalobod
17. Mehtar Shofe'
18. Islom
19. Barakiyon
20. Eshoni Pir
21. Arabon
22. Shayx Shoh
23. Qutluq
24. Mullo Hoki Roh
25. Obi Ravon
26. Po'stinduzon
27. Sesuki Tarrohi
28. Govkushon
29. Ja'far Xoja
30. Qora Kamol
31. Ko'chabog'
32. Dilkushoyi Darun
33. Marvxona
34. Xo'ja Nurobod
35. Juyi Chappa
36. Mahallayi Pesxona

[1] *Сухарева О.А.* Квартальная община позднефеодального города Бухары. – М., 1976.
[2] O'z MA, I-126-jamg'arma, 1-ro'yxat, 73-yig'ma jild.

@tarixchi_kutubxonasiga

37. Dust Chuhra Og'osi
38. Kuchayi Sangin
39. Masjidi Bisutun
40. Mirzo Qaro
41. Aloqabandon
42. Xo'ja Nizomiddin
43. Qatag'on
44. Ra'adzoda
45. Qaltikiyon
46. Musulmon Enaga
47. Modari Xon
48. Amiri
49. Pochchoqul Hoji
50. Xo'ja Zayniddin
51. Hammomi Kunjak
52. Sharifjon
53. Siddiqiyon
54. Suzangaron
55. Hofiz Qo'ng'irot
56. Bozori Gul
57. Degrizi
58. Mavlono Sharif
59. Kemuxtgaron
60. Mullo Shoh
61. Zabuda
62. Mohitobon
63. Mag'oki Ko'rpa
64. Hay
65. Siyohgaron
66. Hoji Omonboy
67. Mahdumi A'zam
68. G'oziyon
69. G'aribiya
70. Chahor Haros
71. Kuyi Daraxt
72. Dabiyon
73. Mirzajon Qassob
74. Labi Hovuzi Arbob
75. Boboyi Nonkash
76. Ko'hna Mahalla
77. Masjidi Alvonj
78. Xo'ja Halim
79. Shamsiddin Muhammad Sharshara
80. Mahallayi Nau
81. Amirobod
82. Mehtar Qofilon
83. Qo'shmadrasa
84. Abdulloh Qushbegi
85. Xo'ja Aspgardon
86. Miyonkoliyon
87. So'fiyon
88. Morkush
89. Kosagaron
90. So'rxiyon
91. Kuyi Xonaqoh
92. Sari Puli Ravgangaron
93. Poyi Ostona
94. Mir Ibrohim
95. Mexchagaron
96. Xo'ja Zomucha
97. Xo'ja Porso
98. Hovuzi Oybotoq
99. Kokilayi Xurd
100. Abdulloh Qo'chqor
101. Kuyi Dehqonon
102. Shayx Rangrina
103. Mirzo G'ofur
104. Mirhoshim
105. Muhammad Ali Hoji
106. Xo'ja
107. Mirtabib
108. Maddohon
109. Chorshanba Qozoq
110. Iskandarxon
111. Kamongiron
112. Tagbandbofon
113. Qosimshayx
114. Qozi Zohid
115. Xo'ja Avliyoyi G'arib
116. To'pxona
117. Sarrojon
118. Ko'kaltosh
119. Xo'ja Arabon

@tarixchi_kutubxonasiga

120. Mirjon Ali
121. Hammomi Kappa
122. Yalangi Boqijon Qushbegi
123. Mehtar Idrok
124. Mirakon
125. Shayx Jalol
126. Urganjiyon
127. Hovuzi Nau
128. Po'xtabofon
129. Xonaqohi Jo'ybor
130. Chaqir
131. Chahordara
132. Dastorbandon
133. Juyi Zar
134. Xalifa Xudoydod
135. Shahri Nau
136. Jonafaron
137. Qarchig'ay
138. Charmgaron
139. Qirg'iz Ay'im
140. Ashyoni A'lo
141. Sobungaron
142. Volida Xoni Shohid
143. Boqixon
144. Chakar Mahalla
145. Axtachi
146. Masjidi Baland
147. Hoji Tuyg'un
148. Shishaxona
149. Hovuzi Baland
150. Mirzoyon
151. O'zbek Xo'ja
152. Kuchayi Bodom
153. Masjidi Kunjak
154. Bahodir Qalmoq
155. Oqmasjid
156. Qulmuhammad Xo'ja
157. Zindafil Ahmadi Jomi
158. Qobilota
159. Langi Arab
160. Paxsa
161. Muhammad Pay
162. Jandagiyon
163. Usto Ruhi
164. Mudda'o
165. Toqiya
166. Do'rmon
167. Shikastabandon
168. Chashmayi Ayyub
169. Mirjon Ali
170. Podshoh Ismoil Somoni
171. Mirzo Bekpoyon
172. Jilauxonayi Murdashuyon
173. Tabibon
174. Pistashikonon
175. O'rusiyon
176. Arroki
177. Abdulboqi
178. Shermuhammad Juvozkan
179. Xo'ja Qurbon
180. Nazarcha
181. Askarbek
182. Shodimbek
183. Mirzo Bekbola
184. Xossai Fulod
185. Jonqubod
186. Guzari Hojiho
187. Quttisozon
189. Biruni
190. Azizon
191. Chubboz
192. Chohi Zanjir
193. Xo'ja Kalon
194. Alim Xo'ja
195. Buryobof
196. Chahor Baqqoli
197. Xo'ja Hakim Sobungar
198. Shoh Axsi
199. Mavlavi Mirzajon
200. Mir Do'stumbek
201. Xonaqohi Atoliq
202. Xonaqohi Turki Jandi
Alayh al-Rahmatuhu

@tarixchi_kutubxonasiga

Buxoro amirligi viloyatlari hokimlari

Buxoro amirligidagi eng yirik ma'muriy bo'linma – bekliklar hokimlar tomonidan boshqarilib, ular mamlakat hukmdori amir tomonidan tayinlangan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining «Buxoro amirligi qushbegisi» [I-126] jamg'armasida saqlanayotgan quyidagi hujjatda[1] XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi viloyatlar va tumanlarni boshqargan hokimlarning ro'yxati keltiriladi. Bu ro'yxat o'sha davrda Buxoro amirligining boshqaruv apparati va ma'muriy tuzilishi haqidagi ma'lumotlarga aniqlik kiritib, to'ldiradi[2].

N. Ismatova

1. Ostonaqulbek Qushbegi – Hisor viloyati (hokimi)
2. Pirnazar Parvonachi – Ko'lob viloyati (hokimi)
3. Abdulqodir Parvonachi – Baljuvon viloyati (hokimi)
4. Muhammad Murodbek Dodxoh – Darvoz viloyati (hokimi)
5. Olmosbek Dodxoh – Qorategin viloyati (hokimi)
6. Abdulkarimbek To'qsoba – Denov viloyati (hokimi)
7. To'ra Mo'minxon – Boysun viloyati (hokimi)
8. Abdulhalilbek Parvonachi – Sherobod viloyati (hokimi)
9. Ernazarbiy Dodxoh – Kerki viloyati (hokimi)
10. Fozilbek – Kalif viloyati (hokimi)
11. Akromxonto'ra – G'uzor viloyati (hokimi)
12. Jonmirzobek Parvonachi – Shahrisabz viloyati (hokimi)
13. Avliyoqulbek Dodxoh – Kitob viloyati (hokimi)
14. Sayyidqulbek To'qsoba qalmoq – Chiroqchi viloyati (hokimi)
15. To'raxo'ja Sudur – Qarshi viloyati (hokimi)
16. Abdulrahimbek – Yakkabog' viloyati (hokimi)
17. Qulmuhammad To'qsoba – Narazum viloyati (hokimi)
18. Haydarqulbek Dodxoh – Chorjo'y viloyati (hokimi)
19. Xo'jabek Qovoqli – Usti viloyati (hokimi)
20. Mo'minbek Miroxo'r – Qorako'l viloyati (hokimi)
21. Muhammad Taqobek – Xatirchi viloyati (hokimi)
22. Qorabek To'qsoba – Ziyavuddin viloyati (hokimi)
23. Rahmatullohbek To'qsoba – Karmana viloyati (hokimi)
24. Abdulqorbek To'qsoba – Nurota viloyati (hokimi)
25. Abdulrahimbek To'qsoba – Qorabog' viloyati (hokimi)
26. Abdulsattorbiy Bahrayni – Qabodiyon viloyati (hokimi)
27. Mirzo Muhammad To'qsoba – Xo'ja Jahon tumani (hokimi)

[1] O'zR MDA, I-126-jamg'arma, 1-ro'yxat, 69-yig'ma jild.
[2] Fors-tojik tilidagi mazkur hujjatda bekliklar viloyat deb beriladi.

@tarixchi_kutubxonasiga

28. Abdulqodirbek Miroxo'r – Vobkand tumani (hokimi)
29. Musoxo'ja O'roq – Vag'onzi tumani (hokimi).

Xiva xonligi ma'muriy-hududiy tuzilmasi va xo'jalik hisobiga oid hujjatlar

O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining «Xiva xonlari arxivi» [I–125] jamg'armasida saqlanayotgan Xiva xonligiga oid arxiv daftari[1] 1910-yilda tuzilgan bo'lib, xonlikning ma'muriy-hududiy tuzilishi, aholisi, aholining milliy va ijtimoiy tarkibi, chorva mollari, yer turlari va miqdori, asosiy ekin turlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Quyida ushbu daftarda qayd etilgan Xiva xonligi ma'muriy-hududiy bo'linmalaridagi xonadonlar, yerlar, chorva va yilqilar sonini aks ettiruvchi hujjatlardan muhim faktlar keltiriladi. Matnda kelgan ayrim so'z va iboralar hozirgi o'zbek tili qoidalariga mos ravishda tahrir qilindi.

t.f.n. Q.K. Yakubov

1328 moh-i Jumodil-avval 17 si [26-may 1910-y.]da taxminan yozilgan Xiva tobe'yining hisobi

Darg'onotada o'lturumli-ko'chmali chorvalar

xonadonlari	500 adad	ekin yerlari (ahyo yerlar)	6000 tanob
ekilmaydigan yerlari (adro)	5000 tanob	otlari	500 adad
ho'kiz va sigirlari	700 adad	eshaklari	300 adad
qora qo'ylari	10000 adad	tuyalari	200 adad

Sadbar tobe'yilaridagi o'lturumli chorvalar [168-v.]

xonadonlari	700 adad	ekin yerlari (ahyo)	5000 tanob
ekilmaydigan yerlari (adro)	3000 tanob	otlari	500 adad
ho'kiz va sigirlari	700 adad	eshaklari	100 adad
qo'ylari	10000 adad	tuyalari	300 adad

Pitnak tobe'yidog'i fuqarolar

xonadonlari	1000 adad	ekin yerlari	500 tanob
ekilmaydigan yerlari	3000 tanob	otlari	700 adad
ho'kiz va sigirlari	1000 adad	eshaklari	500 adad
qo'ylari	10000 adad	tuyalari	300 adad

Hazorasp tobe'yi fuqarolari

xonadonlari	5000 adad	ekin yerlari	25000 tanob
ekilmaydigan yerlari, ko'llari	10000 tanob	otlari	2000 adad

[1] O'zR MDA, I-125-jamg'arma, 1-ro'yxat, 527- yig'ma jild, 97–170-varaqlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

ho'kiz va sigirlari	2500 adad	qo'ylari	15000 adad
eshaklari	1000 adad	tuyalari	500 adad

Beshariq tobe'yi fuqarolari

xonadonlari	4000 adad	ekin yerlari	30000 tanob
ekilmaydigan yer va ko'llari	10000 tanob	otlari	2000 adad
ho'kiz va sigirlari	2000 adad	qo'ylari	10000 adad
eshaklari	1000 adad	tuyalari	500 adad

Xiva qal'asi atroflari

xonadonlari	10000 adad	ekin yerlari	50000 tanob
ekilmaydigan yer va ko'llari	15000 tanob	otlari	3000 adad
ho'kiz va sigirlari	4000 adad	eshaklari	2000 adad
tuyalari	2000 adad	qo'ylari	15000 adad

Xiva qal'asi ichidog'i o'lturumli fuqarolor

xonadonlari	7000 adad
mashg'ulotlari	kosibchilik

Xonqa tobe'yi fuqarolari

xonadonlari	2500 adad	ekin yerlari	12000 tanob
ekilmaydigan yer va to'qaylari	5000 tanob	otlari	500 adad
eshaklari	1000 adad	ho'kiz va sigirlari	1000 adad
tuyalari	300 adad	qo'ylari	6000 adad

G'oziobod tobe'yi fuqarolari

xonadonlari	1500 adad	ekin yerlari	8000 tanob
ekilmaydigan yer va to'qaylari	7000 tanob	otlari	700 adad
ho'kiz va sigirlari	1000 adad	tuyalari	5000 adad
eshaklari	300 adad	qo'ylari	5000 adad

Urganch tobe'yi fuqarolari

xonadonlari	4500 adad	ekin yerlari	25000 tanob
ekilmaydigan yerlari va ko'llari	10000 tanob	otlari	1000 adad
eshaklari	800 adad	tuyalari	500 adad
ho'kiz va sigirlari	1000 adad	qo'ylari	8000 adad

Kat tobe'yi fuqarolari

xonadonlari	2500 adad	ekin yerlari	12000 tanob
ekilmaydigan yerlari, to'qay va ko'llari	5000 tanob	otlari	500 adad
eshaklari	200 adad	tuyalari	300 adad
ho'kiz va sigirlari	1000 adad	qo'ylari	3000 adad

Shohobod (Shovot) tobe'yi fuqarolari

xonadonlari	1500 adad	ekin yerlari	10000 tanob
ekilmaydigan yer va to'qaylari	5000 tanob	otlari	500 adad

@tarixchi_kutubxonasiga

eshaklari	200 adad	ho'kiz va sigirlari	500 adad
tuyalari	200 adad	qo'ylari	3000 adad

Manoq tobe'yi fuqarolari

xonadonlari	2800 adad	ekin yerlari	20000 tanob
ekilmaydigan yer va to'qaylari	5000 tanob	otlari	700 adad
eshaklari	200 adad	ho'kiz va sigirlari	700 adad
tuyalari	200 adad	qo'ylari	300 adad

Toshhovuz tobe'yi fuqarolari

xonadonlari	5500 adad	ekin yerlari	400000 tanob
ekilmaydigan yer va to'qaylari	1500 tanob	otlari	1500 adad
ho'kiz va sigirlari	1500 adad	eshaklari	300 adad
tuyalari	500 adad	qo'ylari	7000 adad

Hiloli (Ilyoli) tobe'yi fuqarolari

xonadonlari	1500 adad	ekin yerlari	18000 tanob
ekilmaydigan yer va ko'llari	10000 tanob	otlari	700 adad
tuyalari	300 adad	eshaklari	200 adad
ho'kiz va sigirlari	500 adad	qo'ylari	5000 adad

Qilichboy tobe'yi fuqarolari

xonadonlari	1500 adad	ekin yerlari	18000 tanob
ekilmaydigan yerlari	10000 tanob	otlari	500 adad
ho'kiz va sigirlari	500 adad	tuyalari	200 adad
eshaklari	100 adad	qo'ylari	4000 adad

Gurlan tobe'yi fuqarolari

xonadonlari	4500 adad	ekin yerlari	30000 tanob
ekilmaydigan yer va ko'llari	10000 tanob	otlari	1000 adad
ho'kiz va sigirlari	1000 adad	tuyalari	500 adad
eshaklari	500 adad	qo'ylari	5000 adad

Mang'it tobe'yi fuqarolari

xonadonlari	3000 adad	ekin yerlari	25000 tanob
ekilmaydigan yerlari ko'llari bilan	5000 tanob	otlari	500 adad
ho'kiz va sigirlari	500 adad	eshaklari	200 adad
tuyalari	200 adad	qo'ylari	10000 adad

Qipchoq tobe'yi fuqarolari

xonadonlari	1500 adad	ekin yerlari	12000 tanob
ekilmaydigan yerlari	5000 tanob	otlari	200 adad
ho'kiz va sigirlari	200 adad	tuyalari	200 adad
eshaklari	100 adad	qo'ylari	4000 adad

@tarixchi_kutubxonasiga

Xo'ja Eli (Xo'jayli) tobe'yi fuqarolari

xonadonlari	2000 adad	ekin yerlari	20000 tanob
ekilmaydigan yer, to'qay va ko'llari	40000 tanob	otlari	500 adad
tuyalari	500 adad	eshaklari	200 adad
ho'kiz va sigirlari	1000 adad	qo'ylari	2000 adad

Ko'hna Urganch tobe'yi fuqarolari

xonadonlari	3000 adad	ekin yerlari	15000 tanob
ekilmaydigan yerlari	4000 tanob	otlari	1000 adad
ho'kiz va sigirlari	700 adad	tuyalari	700 adad
eshaklari	100 adad	qo'ylari	2000 adad

Chumanoy tobe'yi fuqarolari

xonadonlari	4000 adad	ekin yerlari	5000 tanob
ekilmaydigan va to'qay yerlari	100000 tanob	otlari	500 adad
ho'kiz va sigirlari	6000 adad	tuyalari	200 adad
eshaklari	200 adad	qo'ylari	2000 adad

Qo'ng'irot tobe'yi fuqarolari

xonadonlari	5000 adad	ekin yerlari	15000 tanob
ekilmaydigan va to'qay yerlari	200000 tanob	otlari	2000 adad
tuyalari	1000 adad	ho'kiz va sigirlari	6000 adad
eshaklari	500 adad	qo'ylari	5000 adad

Kulli[1] viloyat fuqarolarining taxmin hisobi

jami	75000 xonadon	mazkur xalqlarning ekib o'tirgan yerlari	4006000 tanob
va mazkur xalqlarning ekilmaydigan yer, to'qaylari va ko'llari		518000 tanob	
har yili mazkur yerlarga ekiladigan hosilning taxminiy hisobi	amirkoni g'o'za va jaydari g'o'za – 50000 tanob	bug'doy	181000 tanob
jo'xori	50000 tanob	sholi	25000
tariq, kunjut, mosh, arpa va qovun, yurunja (beda)			100000 tanob

Mazkur viloyat xalqlarining:

jami otlari	21000 adad	tuyalari	10000 adad
ho'kiz va sigirlari	34300 adad	qo'ylari	144000 adad
eshaklari	10000 adad		

[1] *kulli* – barcha

@tarixchi_kutubxonasiga

Majmu'yi Xiva tobe'yining yer, uy va mol hisobi

xonadoni	106000 adad	Har uyga 7 jondan 742000 nafar (yarmi xotun) 15000 tanob
mazkurlarning ekib turg'on ekin yerlari	571000 tanob	mazkurning 120000 tanobi taxminan vaqfdor
ekilmaydigan yerlari va to'qaylari (taxminan)	1018000 tanob	ekilmaydigan yerlari ondin ziyod bo'lsa ham ehtimoldur

Sulh shartnomalari, rasmiy kelishuvlar bilan bog'liq hujjatlar

Rossiya imperiyasining 1860–1870-yillarda O'rta Osiyoga tajovuzi natijasida Qo'qon, Buxoro va Xiva xonliklari o'z siyosiy mustaqilligidan hamda hududlarining katta qismidan mahrum bo'ldilar. Savdo munosabatlarida rus savdogarlari katta imtiyozlarni qo'lga kiritdilar. Quyida Rossiya imperiyasi va xonliklar o'rtasida tuzilgan savdo va sulh shartnomalari keltiriladi.

1868-yil yanvar oyida tuzilgan Rossiya–Qo'qon xonligi savdo bitimi[1]

Mazkur savdo bitimiga asosan Qo'qon xonligining barcha shahar va qishloqlarida Rossiya savdogarlari uchun bemalol savdo-sotiq bilan shug'ullanish imkoni yaratiladi. Shunga o'xshash Qo'qon savdo ahliga ham Rossiyaga qarashli yerlarda savdo qilish huquqi beriladi.

M.A. Darmonova

Rossiya savdogarlariga xonlik shaharlarida, xohlasalar, o'z karvonsaroylariga ega bo'lishga ruxsat beriladi. O'z navbatida, Qo'qon xonligi savdogarlariga bunday imkon Rossiya shaharlarida yaratiladi.

Savdoning borishini va bojlarning qonun asosida olinishini nazorat qilib turish uchun rus savdogarlari xonlikning barcha shaharlarida o'zlarining savdo agentlarini tayinlaydilar. Bunday huquq Rossiya qo'l ostidagi shaharlarda Qo'qon savdogarlariga ham beriladi.

Rossiyadan Qo'qon xonligiga va bu yerdan u joyga olib ketiladigan mollardan Turkiston o'lkasida olinadigan miqdorda, ya'ni mollarning tannarxidan 2,5 foiz boj olinadi.

Rus savdogarlari karvonlarining xonlik yerlari orqali qo'shni xonliklarga bemalol va xavf-xatarsiz qatnashlari ta'minlanadi. Shuningdek, bunday sharoit qo'qonliklarga Rossiya yerlarida ham yaratiladi [86-87-betlar].

[1] «Кокандское ханство по новейшим известиям». – «Военный сбор.», №7, СПБ., 1809.

@tarixchi_kutubxonasiga

Rossiya – Buxoro sulh shartnomasi (1873-yil)

Rossiya imperiyasi hamda Buxoro amirligi o'rtasida 1873-yilning 28-sentabrida 1868-yili Samarqandda tuzilgan Rossiya–Buxoro sulh shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadida yangi shartnoma imzolanadi. Mazkur shartnoma ikki – rus hamda eski o'zbek tilida bitilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining «Buxoro amirligi qushbegisi» [I-126] jamg'armasida saqlanadi[1]. Quyida shu hujjatning o'zbek tilidagi nusxasi matni keltiriladi. Matn o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun zarur joylarda tinish belgilarni qo'llash maqsadga muvofiq deb topildi.

N. Ismatova

Buxoro mamlakati bilan Rusiya o'rtasida do'stlik xususida voqe' bo'lg'on ahd-u paymon ushbudur

Avvalg'i bob

Imperatur podshohi a'zamning mahkumlari bilan janobi oli[y] amiri Buxoroning mahkumini cheki ilgarig'i yozilg'on ahdnoma, ya'ni may oyini[ng] yigirma uchunchi kuni 1868-yilda Samarqand shahrida maktub bo'lg'on ahdnomaning avvalg'i bobida tayin bo'lg'on erdi. O'shal ahdnomada yozilg'on chek xususi mazkur holida boqi[y] qoladur. Ammo Xivag'a tobe' bo'lub turg'on daryoi Amuning o'ng tarafi ushbu kunda mamlakati Rusiyag'a doxil bo'lg'on sababdin aknun Buxoro mamlakati bilan Xiva mamlakatining orasida chek voqe' bo'lmaydur. Chunonchi, Buxoro bilan Xivaning qadimg'i cheki Holotodin jonib qiblasi to Gugerdlig'acha erdi, alhol barham bo'ldi. Emdi janobi oli[y] amiri Buxoroning mamlakatlarig'a Buxoro bilan Xivaning qadimg'i chekidin Gugerdlig'acha va andin to Meshiklig'acha va Meshiklidin qadimg'i Buxoro bilan Xiva mamlakatining chegi Rusiya mamlakatining chekig'a yetgon yerg'acha qo'shuladur.

Ikkinchi bob

Alon daryoning o'ng tarafi kullan Xiva mamlakatidin judo bo'lg'on[i] uchun Buxoro viloyatidin chiqib, shimol tarafig'a qarab yurodurg'on karvoniyalar maxzi O'rusiya mahkumi bilan va yurub boradur. Ushbu ikki davlatxona, ya'ni Rusiya bilan Buxoro mamlakati o'shal karvoniyalarni mazkur yo'llarda o'zini[ng] mahkumidin salomat o'tub ketmoqlaridan xabardor bo'lub tursalar kerak.

[1] O'zR MDA, I-126-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1139-yig'ma jild, 5-7-varaqlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

Uchunchi bob

O'rusiyaning o't kemasi va g'ayri kemalari xostan xoh podshohliqg'a taalluq bo'lsun va xoh fuqarolarg'a, daryoyi Amuning amiri Buxorog'a tobe' yerlarida Buxoroning kemalaridek yurmoqlarig'a ruxsatdur.

To'rtinchi bob

Agar Buxorog'a tobe' daryoni har ikki tarafida kema to'xtatmoqg'a va mol sotmoqg'a yer darkor va loyiq bo'lsa, ul yerg'a to'xtatmoqg'a uchun va mol qo'ymoq uchun joy tuzatmoqg'a O'rusiyaning ixtiyori bordur. Mamlakatdorla[r]i ul yerlarni xavf-xatardin saqlamoqni zimmalarig'a oladur. Kema va mol qo'ymoqg'a xohlag'on yer Movarounnahrda O'rusiyadin turg'on hukmronning qabul qilmog'i bilan bo'ladur.

Beshinchi bob

Buxoro mamlakatidag'i jumla shaharlar va qishloqlar mundin so'ngra rus savdogarlarig'a kashodadur. Rus savdogarlari va karvoniyalari bahuzur barcha Buxoro mamlakatining ichida yuradurlar va har yerni[ng] hukumatdorlari alarg'a ko'b yaxshi homiy bo'lub tursalar kerak. Karvonlarni va yana mollarini xatardin saqlamoqni Buxoro mamlakatdorlari zimmalarig'a oladur va ushbu mazmun ba'ayna ilgari Samarqand shahrida yozilg'on ahdnomaning ikkinchi bobida mazkurdur.

Oltinchi bob

Barcha maxsus Rusiya savdogarlarini molidin xoh ul mol Rusiyadin Buxorog'a kelsun va xoh Buxorodin chiqib, Rusiya viloyatlarig'a borsun, Buxoroda ul moldin yuzdin ikki yarim, ya'ni qirqdin bir zakut olinadur. Chunonchi, Turkiston mamlakatida ham qirqdin bir zakut olinadur. Ushbu qirqdin bir zakutdin o'zga g'ayri ortiq chiqim olinmaydur.

Yettinchi bob

Rus savdogarlarig'a Buxoro mamlakati orqali jumla hamsoya yerlarg'a mollarini boj bermasdin olib bormoqqa ixtiyor beriladur.

Sakkizinchi bob

Rus savdogarlarig'a ixtiyor beriladur Buxoroda va Buxorog'a tobe' o'zga viloyatlarda mollarini qo'ymoq uchun. Agar xohlasalar saroy solmoqg'a, chunonchi, ushbu ixtiyorni Buxoro savdogarlarig'a Turkiston viloyatlarida beriladur.

@tarixchi_kutubxonasiga

To'qquzinchi bob

Rus savdogarlari agar xohlasalar Buxoro shahrida va yo Buxorog'a tobe' o'zga viloyatlarda hokimlar bilan so'zlashib turmoq uchun va savdo ishi[]ni to'g'rilik bilan qilmoqini qarab turmoq uchun va zakunga muvofiq zakut bermoqlarig'a qarab turmoq uchun o'zlarig'a karvonboshi qilmoqni ixtiyorlari bordur. Chunonchi, ushbu ixtiyorni Turkiston viloyatlarig'a Buxoro savdogarlarig'a ham beriladur.

O'nunchi bob

Rus bilan buxoroliklar orasida savdo to'g'risida bo'lg'on va'dalarni har ikki taraf buzmay, durust bajo kelturub tursalar kerak. Buxoro mamlakatdorlari va'da beradurlar har ish to'g'risida odillik bilan turmoqni va yana savdogarlar ishi xususida ham halollik bilan ish qilib turmoqg'a.

O'n birinchi bob

Agar Rusg'a tobe' odamlardin Buxoro mamlakatlarig'a kelib ish qilmoq va kasb qilmoqni xohlasalar, misli Buxoroning o'z odamlaridek alarg'a ham ixtiyor beriladur. Ammo bashartike, alar o'shal ishni qilmoqni shariat buyurg'on bo'lsa, chunonchi, Buxoro odamlari Rus mamlakatlarig'a borib, Rusiya zakuni buyuradurg'on ishni qilmoqg'a ixtiyorlari bordur.

O'n ikkinchi bob

Rusga tobe' odamlar Buxoro mamlakatida yer va imorat olmoqni xohlasalar ixtiyor beriladur. Ammo o'shal olg'on yer va imoratlari to'g'risida Buxoro xalqi ne tariqa chiqim berib tursalar, alar ham andog' chiqim to'lab tursalar kerak va inchunin Buxorog'a tobe' odamlarg'a Turkiston viloyatlarida ushbu ixtiyor beriladur.

O'n uchinchi bob

Rusiyag'a tobe' odamlar Buxorog'a kelsalar, albatta o'z mamlakatdorlaridin bilit [bilet], ya'ni hamsoya viloyatig'a o'tmoqg'a yo'l xat bilan kelsalar kerak. O'shandog' ruxsatnoma bilan kelgon kishig'a barcha Buxoroning mahkumig'a bormoqg'a ixtiyor beriladur. Ammo Buxoro mamlakatdorlari har yerda alarg'a homiy bo'lub tursalar kerak.

O'n to'rtinchi bob

Rusiya mamlakatidin chiqib kelgon va rus mamlakatdorlaridin bexat kelgon qaysi mazhabdag'i kishi bo'lsa ham Buxoro mamlakatdorlari hech

@tarixiy_kutubxonasiga

bir vajh bilan o'z mahkumig'a kirguzmaydur va agar rus mahkumidag'i gunohkor odamlardin o'zlarini zakundin qochurub, Buxoro mamlakatida yursalar Buxoro mamlakatdorlari ul odamni tutub, tayin yerda turg'uchi rus hukumatdorig'a tobshurmoqni zimmasig'a oladur.

O'n beshinchi bob

Movarounnahrda Rusiyadin turg'on hukmron bilan g'ayri kishini orag'a aralashturmay, so'zlashib turmoq uchun amiri Buxoroning tarafidin Toshkand shahrida bir e'timodlik odam doimo tursa kerak. Ushbu amiri Buxorodin Toshkandg'a borib turg'uchi elchi o'zga viloyatlardin oshnolik to'g'risida kelib turg'on elchilardek hovli va o'zga sarf-xarajotlari o'zini podshohisini ustudin bo'lub tursa kerak.

O'n oltinchi bob

Rusiya davlatxonasi bir e'timodlig' kishini Buxorog'a kelib turmoqni lozim ko'rub, agar xohlasalar ixtiyorlari bordur. Rusiyadin Buxorog'a kelib turodurg'on elchini barcha sarf va xarajot va uylari misli Toshkandg'a borib turg'on Buxoro elchisidek o'z podshohisidin bo'lub tursa kerak.

O'n yettinchi bob

Barcha Rusiya mamlakatining imperatur podshohi a'zamlarining xursandlig'lari uchun va ham alarning nomlarig'a qolmoq uchun janobi oli[y] Sayyid Amir Muzaffar muqarrar qildilarki, ushbu kundin buyon Buxoro mahkumida banda savdosig'a Xudog'a xush kelmaydurg'on ish to oxir vaqtg'acha barham bo'lsun, deb. Sayyid Amir Muzaffar ushbu amrni bajo kelturmoq uchun barcha o'z mahkumidag'i mamlakatdorlarg'a mazkur xususda qattig' farmoyishnoma yuboradurlarki, bandafurushlik minba'd bo'lmasun, deb va yana sarhadlaridag'i viloyatlarig'a alohida farmoyishnoma yuboradurlarki, o'zga odamlar Buxoro odamlarig'a sotmoq uchun banda keltursa, qo'lidin bandasini olib, ozod qilib yuborib o'zini hibs aylamoqqa.

O'n sakkizinchi bob

Samarqand shahrida iyun oyida 1868-yilda mustahkam qiling'on ahdnomadin so'ng fuqaroning manfaati uchun Rusiya bilan Buxoroning o'rtasida muddati besh yildin buyon oshnolik paydo bo'lub, barqaror turub erdi. Ushbu no'u' oshnolik xususining janobi oli[y] amiri Buxoro xohlaydurlarki, mundin buyon yana ham oshnolik oshkora va mustahkam bo'lub turmoqni. Shul sababdin Turkiston general-guburnatori generol-ad'yutant fun [fon] Kaufman tayin qilib, yuborg'on ushbu yuqorida mazkur bo'lg'on o'n yetti

@tarixchi_kutubxonasiga

bob ahdnomani qabul ayladilar va mazkur o'n yetti bobni jam' qilib, Rusiya mamlakati bilan Buxoro mamlakatining orasida ahd-paymon bo'lub, ushbu ahdnomadin ikki nusxa yozildi va har nusxasida rusiyacha va ham musulmoni tilida yozilg'ondur. Ushbu ahdnoma Sha'bonni o'n yetti, ya'ni sentobrni yigirma sana 1290-yilda, ya'ni Rusiyaning 1873-yilda Shahrisabz viloyatida tahrir bo'ldi.

Ushbu ahdnomaning ravshan aylab o'zumning umrim boricha va avlodlarim umrlarida ham mahkum bo'lub qolmog'i uchun turkiy tilida yozilg'on xatg'a Sayyid Amir Muzaffar muhrimni bostum.

Rossiya – Buxoro boj shartnomasi

Buxoro amirligi 1894-yildan Rossiya imperiyasining bojxona tizimiga kiritilgandan so'ng amirlikning tashqi savdo aloqalari imperiya manfaatiga bo'ysundirilib, chet mamlakatlar bilan savdo-sotiq aloqalariga cheklovlar qo'yilgan. Shu maqsadda Turkiston general-gubernatorligi hamda amirlik o'rtasida maxsus nizom asosida tartib-qoidalar belgilab berilgan. Quyida O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining «Buxoro amirligi qushbegisi» [I-126] jamg'armasida saqlanayotgan ushbu nizomning[1] arab alifbosida o'zbek tilida yozilgan nusxasi matni keltiriladi. Hujjatning mazmunidan ma'lum bo'lishicha, 1894-yilda Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi boj tizimiga kiritilishi uning tashqi aloqalarini ancha cheklab qo'ygan.

Matn o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun unga zamonaviy o'zbek tili qoidalariga muvofiq ba'zi aniqliklar kiritildi.

N. Ismatova

Buxoro stansiyasi bojxona shartnomasining nusxasi

(Nusxai shartnomai bojxonai istansai Buxoro)

Bojxonaning ta'rif, ya'ni qoidalarini savdogarlarg'a bir joylariga aniq tushunmas, deb man' bo'lg'on molni va har qaysisidan qancha boj olish kayfiyatini ushbu ilan zikr qildim:

Buxoroyi sharif bozorida man' bo'lg'on, ya'ni ruxsat berilmag'on [mahsulotlar]: Yevropa iqlimidan ...kelinaturg'on farang mol bamulaqqab [deb nomlangan matolar]: **birlamchi**, Istanbul yo Hindistondin kelaturg'on anbar bo'y, **ikkilamchi** saf, **uchlamchi** kimxob, **to'rtlamchi** shol anbar sari. Ushbu zikr etilg'onlardin boshqa g'ayr mamlakatlardin kelaturg'on mis va fag'furdin [chinnidan] qiling'on mollar va g'ayri narsalarning kelturmog'i ham man'dur.

Hindiston charmidan qilg'on etikni har qadoqidan bir so'm tillo hisobida boj olinadur. Qimmatbaho tosh va mazkurg'a o'xshash g'ayri toshlar, har

[1] O'zR MDA, I-126-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1101-yig'ma jild, 1-4-orqa varaqlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

xil toza marvarid, ipg'a chizilg'on, yo bo'sh kelturilg'on aqiq va marjon, yo marjong'a o'xshash boshqa teshilg'on, yo teshilmag'on, naqshlik yo benaqsh toshning har qadoqidan tillo hisobida uch so'm boj olinadur. Qimmatbaho toshlarga tillo, yo nuqra [kumush], yoki boshqa halqa qilingon bo'lsa, ul vaqtda oning boji bojxonaning 148 lamchi bobig'a muvofiq olinsa kerak.

Nil [to'q ko'k rang bo'yoq], nuqra va boshqa xildan har pudidan olti so'm qog'oz boj olinadur. Oq dokaning har qadoqidan bir so'm qog'oz boj olinadur. Murabbo va qandlik non, konfet va qandlik meva, nobbot [novvot]ning pudidan bir so'm oltmish besh tiyin qog'oz boj olinadur.

Uchlamchi, Yevropa savdosig'a muvofiq mollar, af'yun va ko'll [butkul] kayf qilaturg'on narsalar, har xil to'fang [miltiq], har qandog' jangg'a darkor asbob va selohlar [qurol-yarog'] kelturmakg'a man'dir.

To'rtlamchi, bul tarafdin boshqa yurtg'a ifak [ipak] qurtining tuxumi, ya'ni urug'i, har qandog' daraxt va aning ko'miri, asbobi jang va miltiq dorusi [dorisi olib borilishi man'dir].

Beshlamchi, mazkur zikr etilg'on mollardin boshqalarini bu tarafdin boshqa mamlakatlarg'a beboj olib borishga ruxsat va ijozat berilgandir.

...Vaziri moliyot [moliya vaziri] 1894-yildan olib kelinadurg'on amvollarning [quyidagi] ta'rif va qoidalarini mustahkam [joriy] qildi:

Zakaspiy viloyati bilan [Kaspiyorti orqali] Buxoroyi sharifga boshqa mamlakatlar, *birlamchi,* Eron va Afg'onistondan kelaturg'on molning boji aning bahosining beshdan biridur [ya'ni, keltiriladigan mol bahosining beshdan bir qismi miqdorida]. *Ikkilamchi,* Yevropa bilan ingliz va Hindiston mollarining tubinda zikr qilg'ondin boshqalarini olib kelishi man'dur: apelsin va limun [limon] ning boji har bir qopi va yo qutisi birlan o'lchalg'on pudidan tillo hisobida yetmish tiyin olinadur. Quruq xurmo va turkning «rohati luqum» degan komfeti [konfet], halvoning har pudidan bir so'm sakson tiyin boj tillo hisobida olinadur. Kichik qutilarg'a solib kelturg'on quruq mevalardin boj mazkur qutilari bilan birga o'lchanib olinadur. Shirini birinji [shirin guruch], nil, za'faronning har pudidan o'n to'rt so'm qirq tiyin boj tillo hisobida olinadur. Ikkilamchi karvon va siporiydin to'rt so'm sakson tiyin tillo hisobida har pudidan olinadur. Qalanfur [qalampir] va aning boshi, dolchin, murch, bodiyon va g'ayri shularg'a o'xshash narsalardin har bir pudidan tillo hisobida uch so'mdin boj olinadur. Mazkur zikr etilgan narsalar maydalanib kelinsa, ul vaqtda alarning boji mazkur uch so'mning ustiga boz har yuz so'mg'a ellik so'mdin ziyoda bo'lsa kerak. Lavroviy list [lavr yaprog'i] va aning mevasining har pudidan boji tillo hisobida bir so'm o'ttuz tiyindur. Qora choyning har pudining boji yigirma besh so'm qog'ozdur. Xalmuraning har pudining boji o'n to'rt so'm qirq tiyin qog'ozdur. Past xili, masalan, nav zuhur...ning har pudining boji olti so'm qog'ozdur.

@tarixiy_kutubxonasiga

Oltilamchi, ko'k choyni Zakaspiy oblastig'a [Kaspiyorti viloyati] va Buxoro mamlakatig'a tranzit birlan Botum, Boku va Uzunoda ustidin Ashxobod va Buxoro bojxonasiga olib kelishga ruxsat berilg'ondur, lekin mazkur bojxonalarda yuqorida zikr etilg'on bojini bersalar kerak.

Yettilamchi, Eron molini Ashxobod va Uzunoda ustidin tranzit birlan beboj o'tkazishg'a ruxsat berilg'ondur.

Sakkizlamchi, Xurosondin Eron mollarini Ashxobod va Uzunoda ustidin tranzit birlan Kaspiy dengizi labidagi shaharlarga va alardin boz Xurosong'a beboj olib borishg'a ruxsat berilg'ondur.

To'qqizlamchi, Erong'a qandni ... pulini qaytarib olib va nechtadan qilg'on matolarning kfitonsalarini [kvitansiya] ma'lum qilib, mazkur narsalarni nechtadin mato qilg'oniga xarajat qilg'on pulini qaytarib olib, Ashxobod va Dushox bojxonalarini ustidin o'tkazub olib borishig'a ruxsat berilg'ondur.

O'nlamchi, yo'lovchi va musofirlarning narsalarini 1892 lam chi yilda joriy bo'lg'on boj zakonini 1293 lamchi bobig'a muvofiq yuboradilar.

O'n birlamchi, Zakaspiy oblasti [Kaspiyorti viloyati] va Buxoro mamlakatig'a boshqa atroflardin kelturaturg'on narsalardin boj choy, nil, doka va qand qo'shub qilg'on narsalardin boshqadan tillo hisobida olinadur.

Xulosayi kalom, bojni nechuk tariqa bilan olish vaziri moliyot [moliya vaziri] ning farmoyishig'a muvofiq bo'lsa kerak. Lekin Uzunoda bojxonasi har qandog' moldin bojini tillo birlan oladur.

Ushbu ta'rif va qoida, ya'ni nizomga vaziri moliyot [moliya vaziri], janob voyenniy [harbiy] qo'llarini qo'yg'ondurlar. Ushbuning haqiqatlig'iga ko'li Turkiston viloyatining bojxonalarini boshlig'ining lavozimin ado qilg'uchi okrujnuy [okrujnoy] revizur, ya'ni tergovchi Arsenuf [Arsenyev] qo'lini qo'yg'ondur.

Rossiya–Xiva sulh shartnomasi[1] (1873-yil)

Rossiya imperiyasining 1873-yilda Xiva xonligiga qarshi uyushtirgan harbiy tajovuzi natijasida mamlakatning katta qismi istilo qilindi. O'sha yili 12-avgustda Xiva yaqinidagi Gandimiyon qishlog'ida mamlakat hukmdorining yozgi bog'ida Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman va Xiva xoni Sayyid Muhammad Rahimxon II [Feruz] o'rtasida sulh shartnomasi imzolandi. Mazkur shartnoma Xiva davlat «Ichan qal'a» tarixiy-me'moriy muzey-qo'riqxonasi hujjatlar jamg'armasida 3241- inventar raqami ostida saqlanadi.

[1] Xiva davlat «Ichan qal'a» tarixiy-me'moriy muzey-qo'riqxonasi, KP-3241.

@tarixchiyxudbxonasiga

Sulh shartnomasi 18 bobdan iborat bo'lib, unda Xiva xonligining Rossiya imperiyasiga tobeligi va rus savdogarlariga mamlakat hududida berilgan imtiyozlarning huquqiy asoslari o'z aksini topgan. Matnda kelgan ayrim so'z va iboralar hozirgi o'zbek tili qoidalariga mos ravishda tahrir qilindi.

t.f.n. Q.K. Yakubov

Xiva shahrig'a jam' bo'lg'on askarlarning sardori general-ad'yutant Fon Kaufman qilg'on taklif va Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon qabul qilg'on Rusiya mamlakati iylan Xiva mamlakatining o'rtasida bo'lg'on ahd-paymonning shartlari ushbudur.

Turkiston mamlakatining general-guburnatori va yana Xiva mamlakatig'a kelib ish qilib turg'on barcha O'rusiya askarining sardori, ya'ni general-ad'yutant Fun Kavufmon [fon Kaufman] barcha O'rusiya mamlakatining imperotur a'zim podshoh hazratlarining muborak ixtiyorlarini bajo kelturub, may oyining yigirma to'qquzunchi kuni Xiva shahrig'a kirib, barcha Xiva mamlakatini tobe' ayladilar...

Xivadin urus askarini chiqormasdin ilgari oning sardori Turkiston general-guburnatori, general-ad'yutant Fun Kavufmon janobi oliy Sayyid Muhammad Rahimxon Bahodurxon iylan so'zlashib, ushbu min ba'd [quyida] yozilg'on shartlarni qildilar.

Avvalg'i bob

Sayyid Muhammad Rahimxon o'zini O'rusiya mamlakatining imperoturig'a muti' va xizmatkor biladur. Ul o'z to'g'risidin hamsoyadog'i xonlar va hukumatdorlar birlan makotabat va oshnoliq qilmoqdin saqlanadur va ham alar birlan har qandog' savdo va boshqa to'g'rida ahdiyon qilmoqdin saqlanadur. Movarounnahrda turg'on o'rusning ulug' hukmronidin beruxsat va bejavob hamsoyadog'i viloyatlar birlan hech bir muhoraba ishni boshlamaydur.

Ikkinchi bob

O'rusiya mamlakatining yeri birlan Xiva mamlakatining yeri sarhadi Amudaryo bo'ladur. Sarhadi yer Kukurdlidin tuban daryo yoqasi ilan to kun botar tarafdag'i yerchadin oxiri daryodin chiqg'on daryo birlan borib, shul yerdin to Orol tengizi [dengiz], ya'ni, Sir tengizig'a [dengizig'a] quyulg'on yergacha va ul yerdin sarhadi yer va tengizning bo'yi ilan to Urganing aylanmasig'a borib, andin Usturt, ya'ni qumning qibla jonibidag'i yorning tegi ilan borib qolg'an Amudaryoning bo'yi sarhadi bo'ladur.

@tarixchi_kutubxonasiga

Uchinchi bob

To ushbu vaqtg'acha Xivag'a tobe' bo'lub turg'an daryoi Amuning barcha, o'ng taraf barcha ta'luqlari ilan Xivaning hukumatidan chiqib, jumla o'lturg'an odamlari birlan va elatiyalari birlan O'rusiya mamlakatig'a tobe' bo'ladur. Daryoning o'ng tarafidag'i xoniya yerlar va xonning o'zga mulozimlarig'a foydalanmoq uchun bergan qit'a-qit'a yerlarning jumlasi o'rus podshohsig'a teyishlidur. Ilgari tusarrif qilib turg'an egalarini[ng] hech bir daxli qolmaydur. O'shal yerlarning egalari ko'rgan zararlarini xon daryoning chap tarafidin yer berib qaytarsa bo'ladur.

To'rtinchi bob

Agar imperotur podshoh hazratlarining ixtiyorlari bo'lub daryoning o'ng tarafidagi yerning bir hissasini Buxoro amirig'a marhamat qilsalar, Xivaning xoni o'shal qadam o'ziga tobe' bo'lub turg'an yerga Buxoro amirini podshoh-i shar'iy biladur va mazkur yerda o'zining har turluk hukumat yurguzmak maqsadini ko'nglidin chiqoradur.

Beshinchi bob

O'rusiya o't kemasi va g'oyri [boshqa] kemalari xossatan xoh podshohliqg'a ta'luq bo'lsun va xoh fuqarolarg'a ta'luq bo'lsun, bahuzur daryoi Amuda yurmakka ruxsatdur. Ushbu ixtiyor Xivaning ham, Buxoroning ham kemalarig'a beriladur, ammo O'rusiyaning Movarounnahrda qo'yg'an ulug' hukmroni beruxsat bo'lmasa kerak.

Oltinchi bob

Agar daryoning chap tarafining yoqasida kema tutmoqg'a zarur va loyiq yer bo'lsa, ul yerga kema to'qtoq uchun o'zlariga joy tuzatmakka O'rusiyag'a ixtiyor bordur. Xiva mamlakatdorlari ul kema to'qtoydurg'an joylarni xavf-xatardin saqlamoqni zimmalarig'a oladur. Kema uchun xohlag'an yer Movarounnahrda O'rusiyadin turg'on hukmronning qabul qilmoqi ilan bo'ladur.

Yettinchi bob

Kema to'qtoydurg'on joylardin o'zga daryoi Amuning chap tarafida yuk qo'ymoqg'a va yukni saqlamoqg'a saroy [faktoriya] solmoqg'a O'rusiyag'a ixtiyor beriladur. Saroyda xizmat qilib yurgan odamlarg'a mavze' qilmoqg'a va Saroyda ishi bor odamlarg'a joy qilmoqg'a, boy savdogarlar o'zlariga hi-

@tarixchi_kutubxonasiga

sobxona soldurmoqg'a va ziroat qilmoqg'a joyni fuqarodin xoli yerdin ... Movarounnahr hukmroni ko'rsatgan yeridin Xiva mamlakatdorlari darkorlig'incha yer bermakni zimmalarig'a oladur. Shul joylarda turg'on odamlarni va saroyg'a qo'yg'on mollarni saqlamoq xuddi Xiva mamlakatdorlarining o'zining himoyatida bo'ladur va Xiva mamlakatdorlari xavf-xatardin olarni saqlamoqni zimmasig'a oladur.

Sakkizinchi bob

Xiva mamlakatidag'i barcha shaharlar va qishloqlar mundin so'ngra urus savdogarlarig'a kushodadur [ochiqdur]. Urus savdogarlari va karvonlari bahuzur barcha Xiva mamlakatining ichinda yuradurlar va har yerning hukumatdori olarg'a ko'b yaxshi homiy bo'lub tursalar kerak va karvonlarni va yana solib qo'yg'on mollarni xatardin saqlamoqni Xiva mamlakatdorlari zimmasig'a oladur.

To'qqizinchi bob

Xiva mamlakatida turub savdo qilaturg'on o'rus savdogarlari zakot bermakdin va savdo to'g'risida har turluk chiqimlardin xalos bo'ladur. Chunonchi, Xiva savdogarlari ko'p zamondin buyon Qazolidin [Kazalinskdan] o'tganda Urumburg'da [Orenburgda] ham Ashtarxon tingizining kemasi to'qtaydurg'an joyda zakot bermas erdilar.

O'ninchi bob

O'rus savdogarlarig'a Xiva mamlakati orqali barcha hamsoya yerlarga mollarig'a boj bermasdin olib bormoqg'a ixtiyor beriladur.

O'n birinchi bob

O'rus savdogarlari, agar xohlasalar, Xiva shahrida yo Xivag'a tobe' o'zga viloyatda hokimlar birlan so'zlashib turmoqg'a va savdo ishini to'g'riliq ilan qilmoqni ko'rmakka, o'zlariga karvonboshi qilmoqning ixtiyori bordur.

O'n ikkinchi bob

O'rusiyag'a tobe' odamlar Xiva mamlakatida yer va imorat olmoqni xohlasalar ixtiyor beriladur. Olg'on yerlari to'g'risida olarg'a chiqimni Movarounnahrning hukmronining maslahati ilan soladur.

O'n uchinchi bob

O'rus ilan xivaliqlarning orasida savdo to'g'risida bo'lg'on va'dalarni har ikki taraf buzmay dust yubo[rib]-kelturub tursalar kerak.

@tarixchi_kutubxonasiga

O'n to'rtinchi bob

O'rusiyag'a tobe' odamlarning Xivag'a tobe' odamlarning ustidin arz da'volari bo'lsa, Xiva mamlakatdorlarig'a taftish qilmoqni zimmalariga oladur va agar rost aytgan bo'lsa, daf'atan roziliqg'a yetkursa kerak va agar bir kishi o'rusdin ham xivaliklardan qarzdor bo'lub taftishga tushsa, avval o'rusning so'zi ilgari yursa kerak.

O'n beshinchi bob

O'rusg'a tobe' odamlarning qilg'on arzi da'volari, agarchi alar Xiva mamlakati ichida turg'on bo'lsalar ham, ishlarimiz o'rusning yaqin yerida turg'on hukumatdorig'a yuborilib, taftish qilib tofshuruladur.

O'n oltinchi bob

O'rusiya mamlakatindin chiqib kelgan o'rus mamlakatlaridin bexat yurgan qaysi mazhabdagi kishi bo'lsa qochurub, Xiva mamlakatida yursalar, Xiva mamlakatlari ul odamni tutub yaqin yerda turg'uchi O'rus hukumatdorig'a topshurmoqni zimmasig'a oladur ham Xiva mamlakatlari o'z mahkumig'a hech bir vajh birlan kirguzmaydur...

O'n yettinchi bob

Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon 12 o'tkan iyunda Xiva mamlakatdag'i qullarni ozod qilmoq va odam sotmoq mutlaqo yo'q bo'ladur, deb yozib ma'lum qilg'on e'lamnomasi komil bir qaror turadur. Xiva mamlakatlari ushbu ish xususida qo'llaridin kelguncha mahkamlik ilan va ehtiyot ilan bajo kelturub turmoqni zimmalariga oladur.

O'n sakkizinchi bob

Xiva mamlakatlari va Xiva xalqining o'zlari sabab bo'lub, keyingi muhorabada o'rus xazinasidin sarf bo'lg'on aqchani to'lamoq uchun Xiva mamlakatining ustiga ikki milliyo'n va ikki yuz ming manot, ya'ni, yigirma ikki lak manot solindi. Xiva mamlakatida kifoya qilg'udek aqcha bo'lmagan uchun, xususan, Xiva mamlakatlari ushbu ta'in qilg'on aqchani yaqin fursatda berib o'hda qila [uddalay] olmaydur. Shul mushkul ahvolni fahmlab va idda' kesib, hisob qilib, har yilda manot boshig'a besh tiyindin foydasi ilan bermakka onga ixtiyor beriladur, shul shart birlankim, avvalg'i ikki yilda O'rus xazinasig'a yuz ming manotdin beriladur. 1878-yilda yuz ellik ming

@tarixchi_kutubxonasiga

manotdin beriladur, yana yuzdan so'ngg'i ikki yilda bir yuz yetmish ming manotdin beriladur va ba'd az on 1881-yilda, ya'ni, sakkiz yildin so'ng har yili ikki yuz ming manotdin bersa kerak. To aqchani g'am berib bo'lg'uncha har yili ikki yuz ming manotdin kam berilmasa kerak. Aqchani berganda o'rusning qog'oz aqchani bersa ham mumkin, yo Xivaning yurib turg'on tangasidin bersa ham mumkin, qaysisidan bersa Xiva mamlakatlarining ixtiyoridadur. Avvalg'i boshlab beratug'on va'dasi dikabr oyining avvalg'i kunida 1873-yildadur. Ushbu beratug'on aqchaning ichiga daryoning o'ng tarafida turg'uchi odamlardin hozir o'tub turg'on yil uchun soliq olmoqni ruxsat beriladur, to ushbu vaqtg'acha yig'nab turg'on aqchani miqdoriga ushbu aqchalarni Xivaning aqcha jam' qilatug'on kishisi o'rus hokimig'a mashvarat ilan, ushbu yil dikabr avvalg'i kunig'acha yig'ib g'am qilsa kerak. Qolg'on aqchani har yili no'yabrda foydasi ilan to soling'on aqcha g'am bo'lg'uncha berilib tursa kerak. 19 yildin so'ng 1892-yilda avvalg'i noyabrda o'shal 1892-yilning ikki yuz ming manot aqchasini bergandin so'ng Xiva mamlakatidag'i yetmish ming ellik to'rt manot qoladur. Ba'd az on 1893-yilda avvalg'i no'yabrda oxirg'i qolg'on yetmish ming manotni foydasi oyda hisob qilib, yetmish uch ming besh yuz ellik yetti manot bermak lozimdur va agar Xiva mamlakati aqcha berutg'on yilni kam qilmoqni xohlab va qolg'on aqchaning foydasini kam qilmoqni qasd qilib, har yilg'i bermakni ta'in qilg'on aqchadin ziyodaroq qilib, bermakni xohlasa Xiva mamlakatlarig'a ixtiyor beriladur.

Turkiston General-gubernatori, General-ad'yutant fon Kaufman imzosi.

Shartnomaning turkiy matnida Sayyid Muhammad Rahimxon II ning muhri va imzosi.

Xiva xonligi tomonidan Rossiya imperiyasiga to'langan o'lpon [kontributsiya] haqida ma'lumotlar (1875-yil)

Rossiya imperiyasining Xiva xoni bilan tuzilgan, yuqorida matni keltirilgan sulhga asosan, Xiva xonligiga yuklagan o'lpon – kontributsiya xalqning zimmasiga og'ir yuk bo'lib tushdi. Xiva xoni kelishuvga asosan, kontributsiyani bir necha yil davomida to'lab borgan. Xiva xoni arxivida mazkur masala yuzasidan olib borilgan rasmiy yozishmalar, ya'ni kontributsiyani to'lash jarayonini tasdiqlovchi tarixiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining «Xiva xonlari arxivi» [I-125] jamg'armasida saqlanib qolgan[1]*. Quyida ana shu hujjatlardan parchalar keltiriladi.*

t.f.n. I.SH. Azizov

[1] O'zR MDA, I-125-jamg'arma, 1-ro'yxat, 13-yig'ma jild, 9, 20-varaqlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

...Baland martabali oliy darajali janob oliy Xivaning xoni hazratlariga. Siz janob oliyning Abdulloh bilan berib yuborgan 3584 manot birlan 70 tiyin aqcha tegdi. Yetganligiga Abdullohga sanod[1] berildi. Shuni siz janob oliyga ma'lum qilib, ...ushbu xat sentabr oyining 8-kunida 1875-yilida bitildi.

Amudaryo muzofotining hokimi polkovnik Ivanov.

...Noyabr oyining birinchi kunidir. Endi shul aqchani beradigan vaqti yaqin bo'lgani uchun shuni Siz janob oliyning yodlariga solmoqni darkor ko'rdim.

...ushbu xat oktabr oyining 11-kunida 1875-yilda bitildi.

Amudaryo muzofotining hokimi polkovnik Ivanov.

...Turkiston harbiy okrugi Amudaryo bo'limi. 1875-yil, 2-noyabr. Oliy darajali Xiva xoniga!

Avvalambor, siz martabali Xonga to'lashingiz lozim bo'lgan 14500 tillo [ni] [yoki 26100 rubl] o'z vaqtida to'laganingiz uchun samimiy minnatdorchiligimni bildiraman. Ushbu hodisa haqida hozirning o'zidayoq general-gubernator janoblariga ma'lum qilaman.

Berib yuborgan 14500 tillongizning 18800 manoti ushbu 1875-yilda berajak 125000 manot aqchaning hisobig'a kirodur. Qolg'on 7300 manot aqcha mamlakatingizdin kelar 1876-yilda bitishli aqchaning hisobig'a kirodur. Shul aqchaning tigkonig'iga aqchani sanob bergon kishilaringizg'a sanab beriladur.

Baland martabali, oliy darajali janob oliy Xivaning xoni hazratlariga.

Siz janob oliyga ma'lum qilamankim, Yusuf mahram bilan berib yuborgan 4300 tillo manot hisobiga 7740 manot aqcha tegdi. Shuni ushbu bilan bergan general-gubernatorga ma'lum qilib turubman.

...ushbu xat dekabr oyining 13-kunida 1875-yilda bitildi.

Amudaryo muzofotining hokimi polkovnik Ivanov.

Baland martabali, oliy darajali Xivaning xoni hazratlariga.

Oktabr oyining 2-kunida man siz janob oliyga xat yuborib tilab edimki, guzarlarning darakidin qolgan 406 tilloni noyabr oyida menga berib yuborsangiz deb, lekin u aqcha bu vaqtiga berib yuborgani yo'q. Shu sababli siz janob oliydan yana tilaymanki, shu aqchani menga berib yuborsangiz.

...ushbu xat dekabr oyining 18-kunida 1875-yilda bitildi.

Amudaryo muzofotining hokimi polkovnik Ivanov.

[1] *Sanod* – kvitansiya [to'lov qog'ozi].

@tarixchi_kutubxonasiga

Ma'lumnoma

Dekabr oyining o'n ikkinchi kunida erta birlan o'n bir soatda Amudaryo muzofoti hokimining mahkamasinda Amudaryoning olti guzarini 1875-yilining birinchi fevralidin to 1875-yilining birinchi yanvarigacha sotg'un bermak uchun savdo bo'lubdur. Savdosi uch kundin so'ngra olg'ay. Dekabrning 16-kunida yana bo'ladur, savdosi yuzma-yuz bo'ladur va ham yana tilab ma'lumnoma xatlar bersa ham bo'ladur. Beriladurg'on guzarlar shuldurki: 1. Hazorasp guzari, 2. Xonqah guzari, 3. Urganch guzari, 4. Gurlan guzari, 5. Qifchoq guzari, 6. Xo'jayli guzari savdosi ushbu yilda olg'on bahodin boshlanadur, va'dasi shuldurkim:

Birinchi, guzarlar savdo birlan kimda qolsa, shul odamlar o'z xarajatidin yaxshi kemalar darkorlik kema hech birlan qo'ymoqg'a niyatli bo'lsa kerak. Qo'yoturg'on kemalari bir guzarda ikkidin kam bo'lmasa kerak.

Ikkinchi, daryoning orqa tarafidin qibla tarafg'a va qibla tarafdin orqa tarafig'a o'taman degan odamlarni mazkur olti guzarning bittasini olg'on odamlar to'qtovsiz o'tkuzub turmoqg'a minnatli bo'lsa kerak va ham kemani daryo labina chiqorg'onda odamlar-u mollar suv bo'lmay osonliq birlan chiqaturg'on yerda turg'uzsalar kerak.

Uchunchi, o'tkuzgonning haqisig'a kelgon bahodin ortiq pul olmasa kerak. Kelgon bahosi shuldurkim, yuksiz tivadin [tuya] yarim tanga, otdin yarim tanga, yuksiz otli arobadin ikki tanga, toydin yarim shoyi [shohi tanga], oshoqdin bir shoyi, qoramoldin bir shoyi, tida yoki g'alladin va kurdin va baliqdin yarim tanga va o'tundin bir shoyi, piyoda kishidin yarim shoyi, savdogar yuklarining har bir toyidin yarim.

To'rtinchi, nochordin kema birlan kelib daryoning orqa tarafig'a chiqg'on savdogar mollaridin guzarlarni olg'on kishilar boj haqqi so'ramasa kerak.

Beshinchi, agar savdogarlar Buxorog'a, yo Chimboyg'a, yo Qo'ng'irotg'a, yo Qazolig'a mollarini yubormak uchun boshqa kema topib solsalar, alarg'a guzarbonlar daxl qilmasalar kerak.

Oltinchi, askarlardin va sipoy [oddiy] odamlardin daryoning qaysi tarafig'a o'tsa ham, haq olmasa kerak.

Yettinchi, savdogarlardin va fuqarolardin hech bir odam sotg'un berilgon guzarlardin boshqa yeridin o'tmasak kerak. Muni qilmag'on kishilar jazo ko'rsa kerak va a'ybi uchun guzar haqqisini guzarbong'a ikki hissa bersa kerak.

Sakkizinchi, guzarlarning haqqisini xazinag'a uch bo'lak qilib bersa kerak. Avvalgi bo'lagi may oyining birinchi kunida, ikkinchi bo'lagi sentabr oyining birinchi kunida, uchinchi bo'lagi dekabr oyining birinchi kunida 1876-yilda beriladur.

@tarixchi_kutubxonasiga

Guzarlarni olg'on odamlar guzar haqqini xazinag'a durustliq birlan topshurmoqlari [lozim bo'ladi]...

1875-yilda dekabr oyining 16-kunida savdo bo'lubdurkim, Amudaryoning guzarlari 1876-yilining birinchi yanvarigacha sotg'un bermak uchun so'ngg'i savdo guzarlarini olg'on odamlar guzarini Xivag'a tobe' mullo Avaz Rahimberdi o'g'li 916 manot birlan ikki tanga qoldi [ya'ni, shunchaga oldi].

2-§. VAQF HUJJATLARI

Vaqf hujjatlari ijtimoiy-madaniy masalalar tarixini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Zero, bu hujjatlar tahlili orqali juda ko'p masalalarni, xususan, ta'lim va diniy muassasalarning moddiy ta'minoti, vaqf mulklaridan foydalanish tartibi, vaqf ma'muriyatining faoliyati, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida, meros masalalarida vaqf mulklarining o'rni va roli, musulmon jamiyati hayotida xayr-ehson, ilm-fan va dinga munosabat kabi masalalarni o'rganish mumkin. O'zbekiston arxivlari hamda qo'lyozmalar jamg'armalarida juda ko'plab vaqf hujjatlari saqlangan bo'lib, ularning katta qismi hanuzgacha ilmiy iste'molga tortilmagan. Quyida Toshkent, Qo'qon, Buxoro va Xiva masjid va madrasalariga tegishli vaqf hujjatlaridan namunalar keltiriladi. Hujjatlardagi o'sha zamonga xos ba'zi tushunchalar va iboralarga tarjima va nashrga tayyorlash jarayonida zamonaviy o'zbek tili qoidalariga moslashtirilgan ayrim aniqliklar kiritildi.

TOSHKENT MADRASALARINING VAQF MULKLARIGA OID HUJJATLAR

O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining Toshkent shahar boshqarmasiga tegishli 36-tarixiy jamg'armasida 2 ta ro'yxat: 449-yig'ma jildda 1868-yilda Toshkentning Eski shahar qismidagi madrasalar ro'yxati[1] *hamda 2482-yig'ma jildda Toshkent shahridagi madrasalarning 1884-yilda tuzilgan ro'yxati*[2] *saqlanadi.*

Bu ro'yxatlar shaharning to'rt dahasida alohida belgilangan kishilar tomonidan tuzilib, rus tiliga tarjima qilingan. Bundan maqsad vaqf qilingan katta yer maydonlari, ko'plab do'konlar va boshqa ko'chmas mulk shakllarini mustamlaka ma'muriyatining ro'yxatiga olish, ularning daromadini aniqlab, nazorat qilish, soliqqa tortish masalalarini ishlab chiqishdan iborat edi.

Mazkur hujjatlar tarixiy manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ularda Toshkent shahridagi katta-kichik madrasalar, ularning moddiy ta'minoti va daromad manbaini aks ettiruvchi vaqf mulklari, shahar tuzilishiga oid topografik ma'lumotlar, xususan, shaharning ichki qismi va tashqarisidagi mahalla va mavzelar, bozorlar, savdo

[1] O'zR MDA, I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 449-yig'ma jild.
[2] O'zR MDA, I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2482-yig'ma jild.

@tarixchi_kutubxonasiga

rastalari, shahar suv tarmoqlari hamda ularning o'sha davrdagi holati haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Quyida ana shu hujjatlar arab alifbosidan tabdil qilinib, qisqartirilgan holda e'lon qilinmoqda.

t.f.d. O'.A. Sultonov

Toshkent madrasalarining 1868-yil ro'yxatidan

Shayx Xovand Tohur dahasida:

Mahmud dasturxonchi madrasasi[1]. Yuqori Degrez mahallasida masjid va madrasa, Mahmud bobo dasturxonchi Hasanjon o'g'li bino qilgan[2]. Imomlari – mulla Mirrahim mulla Alimboy o'g'li va Shoh Ahmadxo'ja Shoh Mansurxo'ja o'g'li, so'fisi Avliyoxo'ja Muhammad Rahimxo'ja o'g'li, sartarosh Ibrohimxo'ja Shohxo'ja o'g'li, sartarosh Nazar Muhammad Qo'yliboy o'g'li. Mutavalli – Is'hoqxon Mahmud dasturxonchi o'g'li.

Vaqflari. Mahmud dasturxonchi Eski Jo'va mavzeida 34 hujrali karvonsaroy, Namat bozorida bir hammom va 18 ta do'kon vaqf qilgan. Mazkur vaqflarning yillik daromadi 240 tilla. Shundan 60 tilla imoratlar ta'miriga sarflanadi. So'ng mutavalli 18 tilla olgach, qolgani to'qqiz qismga bo'linib, 1/9 qismini imom, so'fi, sartarosh va farrosh quyidagi tartibda oladi: ikki imom 3 tilladan, sartarosh va farrosh 4 tilladan. Imomlarning mahalla ahlidan ham daromadi bor.

Qolgan 144 tillani uchga bo'lib, 1/3 qismi uch mudarrisga beriladi. Shundan Lutfulloh oxund mudarris mulla Mirxon o'g'li 24 tilla, Mulla Rahimjon mudarris mulla Miralim o'g'li 12 tilla, Mulla Salimjon mudarris Halimjon o'g'li 10 tilla olgan. Qolgan 96 tillani madrasaning 25 ta hujrasida istiqomat qilib tahsil olayotgan talabalar oladi.

Yana ushbu saroyga tutashgan 1 ta do'kon madrasaning tahoratxonasiga vaqf qilingan. Do'kondan keladigan bir yillik daromad 90 tanga bo'lib, uning 45 tangasi tahoratxona qarovchisiga, 45 tanga farroshiga beriladi.

Yunusxon madrasasi[3]. Shayx Xovand Tohur [mozori] ichida Hazrat Yunusxon[4] [qabri] qibla tarafida Boboboy degan qurdirgan madrasa bor[5].

---

[1] O'zR MDA. I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 449-yig'ma jild, 116-orqa varaq, 117-varaqlar.

[2] Mazkur shaxs Qo'qon xoni Muhammad Alixonning (1822–1841) vaziri va Toshkent hokimi Lashkar beklarbegining yaqin do'sti bo'lib, Toshkent, Qo'qon va Andijonda madrasalar qurdirib, ko'plab vaqf mulklar ajratgan. Toshkentdagi vaqf mulklarini boshqarish ham uning Qo'qondagi avlodlari qo'lida bo'lgan.

[3] O'zR MDA. I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 449-yig'ma jild, 115-varaq orqasi.

[4] *Yunusxon* – Yunusxon ibn Vaysxon, (1462–1487) – Chig'atoyxon avlodiga mansub. 1485-yilda Xo'ja Ahrorning qo'llab-quvvatlashi sababli vaqtinchalik Toshkent boshqaruvini qo'lga kiritgan.

[5] *Yunusxon* madrasasini qurdirgan shaxs haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Yuqoridagi ro'yxatga qaraganda, bu madrasa keyingi davrda Boboboy degan shaxs tarafidan qayta ta'mirlangan bo'lsa kerak.

@tarixchi_kutubxonasiga

Mazkur Yunusxon madrasasining vaqfnomalari Buxoroda Xonxo'ja eshonning Abdurahmonxo'ja degan o'g'lining qo'lida ekanligi sabab vaqflari aniq zikr etilmagan.

Eshonquli dodxoh madrasasi[1]. Shayx Xovand Tohur [mozori] ichida Zanjirlik mahallasida bir xishtin madrasa [bo'lib], Eshonquli dodxoh Lashkar beklarbegi o'g'li qurdirgan[2]. Madrasa bir masjid, bir darsxona va 34 ta hujra, hujralarning barchasida talabalar bor.

Mutavallilar – Tursun Muhammad va Niyoz Muhammad Lashkar beklarbegi o'g'illari. Mudarrislari to'qqizta: Aliakbarxo'ja eshon Abdurahimxo'ja o'g'li, Abdurasulxo'ja qozi Ya'qubxo'ja eshon o'g'li, Ya'qubxo'ja eshon a'lam Boboxon eshon o'g'li, Mahmudxo'ja a'lam Ne'matxo'ja o'g'li, Otapodshohxo'ja a'lam Podshohxo'ja o'g'li, Ne'matxo'ja mufti Shodixo'ja o'g'li, Nasrulloxo'ja Azamatxo'ja o'g'li, Bahouddin maxzum mulla Miriso o'g'li, Zaynuddin maxzum mufti mulla Miriso o'g'li.

Madrasa masjidining imomi – Ismoilxo'ja Abdurahimxo'ja o'g'li, so'fisi Dovudxo'ja Sulaymonxo'ja o'g'li, madrasa sartaroshi usta Abdulvahhob, farroshi Hayit Muhammad.

Vaqflari. 1) Eshonquli dodxoh bozorda 2 ta saroy vaqf qilgan, hozirgi vaqtdagi daromadi 270 tilla, ba'zida bundan kamroq. 2) Registon mavzeida 11 ta do'kon ijarasidan olinadigan daromad 49 tilla, ba'zi yilda kam, ba'zida ko'p. 3) Zakotxona saroyida, Lijomgaron[3] rastasida, Fo'stindo'z, Zargaron rastalarida 15 ta do'kon ijarasidan bir yilda 82 tilla. 4) Zakotxona saroyining kun botish tarafida bir bo'lak yer, Eshonquli dodxoh vaqf qilgan. Hozirda chitfurushlar, taqachilar, duro'yafurushlar[4] 30 ta do'kon qilgan, 18 tilla beradilar. 5) Eshonquli dodxoh Qiyot mahallasida 2 ta tegirmonni joylashgan yeri bilan birga vaqf qilgan, ijarasi har yilda 50 tilla. 6) Turk mahallasida 1 ta, Zanjirlik mahallasida 1 ta tegirmon joylashgan yerlari bilan vaqf qilingan. Ikkalasidan har yilda 30 tilla ijara puli.

Jami puldan avval o'ndan birini ikkala mutavalli oladi. Qolganidan mazkur imoratlar ta'miriga, ba'zi yillarda 200 tillagacha bo'ladi. Shulardan ortgan pulni uch qismga bo'lib, 1/3 qismi to'qqizta mudarrisga quyidagicha taqsimlanadi: Ya'qubxo'ja a'lam bir qismning 1/7 qismini oladi. Qolgan olti qism o'nga bo'linib, 2/10 qismi Aliakbarxo'ja mudar-

[1] O'zR MDA. I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 449-yig'ma jild, 115-old va orqa varaqlar.

[2] *Eshonquli dodxoh* – Toshkent hokimi Lashkar beklarbegining to'ng'ich o'g'li, otasi Toshkentda hokim bo'lib turgan yillari Turkistonda hokimlik qilgan. «Tarixi jadidayi Toshkand» asaridagi ma'lumotlarga qaraganda, ushbu madrasa hijriy 1256/1838–1839-yilda Yunusxon madrasasining janubi-sharqida. Katta ko'chaga tutash yerda qurilgan.

[3] *Lijomgaron rastasi* – bozordagi otga yugan yasab sotuvchi hunarmandlar joylashgan rasta.

[4] *Duro'yafurush* – mato chetiga tikiladigan maxsus qismni tayyorlab sotuvchi hunarmand.

@tarixchi_kutubxonasiga

ris, 3/10 qismini Eshon qozi mudarris va Mahmudxo'ja a'lam mudarris oladi. Qolgan 5/10 qismini Ne'matxo'ja mufti mudarris, Otapodshohxo'ja a'lam mudarris, Nasrulloxo'ja mudarris, Bahouddinxo'ja mudarris va Zaynuddin maxzum mudarris hammalari teng oladi.

Yuqoridagi uch qismning qolgan ikki qismini ham o'n qismga bo'lib, 1/10 qismi sakkizga bo'linadi. Shu sakkizning 3/8 qismini masjid imomi, 2/8 qismini so'fi, 3/8 qismini sartarosh va farrosh oladi. O'nga bo'lingan qismning qolgan to'qqizi 34 ta hujradagi talabalarga bo'lib beriladi.

Sebzor dahasida:

Beklarbegi madrasasi[1]. Registon mavzeida, bozorda. Madrasa 59 ta hujra, bir masjid va bir darsxonadan iborat. Mudarrislari – Sharofuddin maxzum, imom Mulla Shohmahmud. Mutavalli – Sayyid Umar maxzum, Muzaffar maxzum, Tursun Muhammad va Niyoz Muhammad[2]. Muazzinlari – Ulug'xo'ja va Xo'jamberdi.

Vaqflari. Uchta saroy: Zakotxona, Mahramboshi, Xishtin. Bu uch saroydan 300 tilla ijara [puli], yuz do'kondan 30 tilla tagjoy, bir tegirmondan 12 tilla ijara puli. Jami vaqf daromadi 542 tilla. Bul vaqfdan uchdan biri – 180 tilla 12 tangani mudarris, o'ndan biri 54 tillani mutavallilar, qolganini vaqfnoma buyrug'icha imom, muazzin, sartarosh, farrosh va talabalar oladi. Talabalar soni har bir hujrada 4 tadan. Ammo mazkur madrasani buzilgan yeri bo'lsa, avval anga sarf qilurlar. Agar ortsa, quyidagi shart bo'yincha olurlar. Talabalar uchga bo'lingan: bir bo'lagi a'lo, bir bo'lagi avsat va bir bo'lagi adno. Adno bir hissa olur, avsat anga ikki hissa [ko'p] olur, a'lo avsatga ikki hissa oladi.

Shukurxon madrasasi[3]. Mudarrislar Mirzo Muhammad a'lam va Mulla Mavlon. Bir masjid va bir darsxonadan iborat. Tolibi ilmlar soni o'ttizta, yigirmatasi Mirzo Muhammad a'lamda, o'ntasi Mulla Mavlonda o'qur. Mulla Mavlonning mudarrisligi oltidan bir. Imomlari Mulla Abdumavlon mufti va Mulla Abduxoliq. Muazzin Mulla Usmon.

Vaqflari. 1) Ikki adad saroy ijarasi 180 tilla. 2) Sakkiz adad do'kon ijarasi 11 tilla, jami 191 tilla. Bundan uchdan biri uchun mudarrislar 60 tilla olur. Mutavallisi ham mazkur ikki mudarrisdur, mutavalliligiga 19 tilla olur. Mirzo Muhammad a'lam mudarris 67 tilla, Mulla Mavlon mudarris va mutavalliligiga 13 tilla olur. Qolgan vaqfini imom, muazzin, sartarosh, farrosh va tolibi

[1] O'zR MDA. I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 449-yig'ma jild, 223-varaq. Beklarbegi madrasasi 1838–1840-yillarda Toshkent hokimi Lashkar beklarbegi tomonidan qurilgan.

[2] *Tursun Muhammad va Niyoz Muhammad* – Lashkar beklarbegining o'g'illari. Niyoz Muhammadning avlodlari hozirda ham Toshkent shahrida istiqomat qiladi.

[3] O'zR MDA. I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 449-yig'ma jild, 223-varaq. Toshkentda Shukurxon nomida ikkita madrasa bo'lib, ulardan biri Sebzor dahasining Tinchbof guzarida, ikkinchisi Ko'kchada joylashgan. Qurilgan yili noma'lum.

@tarixchi_kutubxonasiga

ilmlar vaqfnoma hukmi birla madrasani sarfidan ortsa, olurlar. A'lo, avsat va adno martabasi bo'yicha.

Hazrat Mo'yi Muborak madrasasi[1]. Mirzo Ahmad parvonachi bino qilgan, o'n uch hujra, bir masjiddan iborat. Mudarrislar – Imomxon maxzum va Abdulmajidxon maxzum[2]. Mutavallilar – Mirtohirshoh va Mulla Ya'qubjon. Muazzinlar – Sodiq so'fi va Iris Muhammad so'fi. Yana bir sartarosh, bir farrosh va bir darbon. Tolibi ilmlar har bir hujrada to'rttadan.

Vaqflari. Mirzo Ahmad parvonachi tarafidan Eski Toshkand, Sariog'och, Oqtepada joylashgan, 1 tanob[3] tok va yarim tanob bedazor vaqf qilingan. Hosilning uchdan birini ikki mudarris olur, o'ndan birini ikki mutavalli olur. Qolgani vaqfnoma hukmi birla madrasa sarfidan ortsa imom, muazzin, sartarosh, farrosh, darbon va tolibi ilmlar a'lo, avsat va adno martabasi bo'yicha olur.

Baroqxon madrasasi[4]. O'ttiz to'rt hujra, bir masjid va bir darsxonadan iborat. Madrasaning yarmiga mudarris – Mulla Sayyid Ahmad oxund[5]. Imomi – Akbar qori, muazzin – Mulla Jiyan so'fi, yana bitta sartarosh va bitta farrosh bor. Tolibi ilmlar 42 ta. Shundan 12 tasi a'lo, 12 tasi avsat va 18 tasi adno. Mutavallisi – Eshon Oyxo'ja shayx ul-islom.

Vaqflari. 1) Normuhammad qushbegi vaqf qilgan bir saroy. Ijarasi 200 tilla, shundan 20 tillasi bo'lak joyga vaqf. 2) Chig'atoy darvozasida Allon mavzeida 15 tanob yer. 3) Oqsoq otaga qarashli yer, Qanoat otaliq o'z otasidan qolgan merosiy mulkini vaqf qilgan. U yerda qang'li, sanchiqli, sergili, qirg'iz, chaqchim va sartiya jamoalari dehqonchilik qiladi. 4) Madrasa oldidagi sakkizta do'kondan 50 tanga ijara. Daromaddan 1/3 qismini mudarris-

---

[1] O'zR MDA. I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 449-yig'ma jild, 223-varaq. Madrasa Toshkent hokimi Mirzo Ahmad qushbegi tomonidan 1856–1857-yillarda qurilgan. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda eski madrasa o'rnida qayta tiklangan.

[2] *Imomxon maxzum va Abdulmajidxon maxzum Yunusxon o'g'illari* – shaharning obro'li va ilmli kishilaridan bo'lib, ikkalasi ham Toshkent, Qo'qon va Buxoro madrasalarida ta'lim olgan. Xususan, Buxoroda tahsil olib qaytgan Imomxon maxzum Buxoro va Toshkent ulamolari orasida katta mavqega ega bo'lgan. Abdulmajidxon maxzumning o'g'li Eshon Boboxon 1943–1957-yillarda Markaziy Osiyo va Qozog'iston musulmonlar diniy idorasi birinchi muftiysi bo'lgan.

[3] *Tanob* – O'rta Osiyoda keng tarqalgan sath o'lchov birligi, mintaqalar bo'yicha turlicha. Toshkent shahri va Sirdaryo viloyatida XIX asrning 2-yarmida 1 tanob 1820,83 kv. metrga teng bo'lgan. *Bu haqda qarang:* Давидович Э.А. Материалы по метрологии Средневековой Средней Азии. – М., 1970. – С.130.

[4] O'zR MDA. I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 449-yig'ma jild, 222-varaq orqasi. Madrasaning qurilishi Baroqxon nomi bilan tanilgan Navro'z Ahmadxon ibn Suyunchxo'jaxon (1533–1551-yillarda Toshkent hokimi, 1551–1556-yillarda Shayboniylar davlati oliy hukmdori) davrida yakunlangan.

[5] Ikkinchi mudarris nomi keltirilmagan.

@tarixiy_kutubxonasiga

lar, 1/10 qismini mutavallilar olur. Qolgani vaqfnoma hukmi bilan madrasa sarfidan ortsa imom, muazzin, sartarosh, farrosh, darbon va tolibi ilmlar olur. A'lo, avsat va adno martabasi bo'yicha.

Eshon Qozi kalon madrasasi[1]. Bir masjid, bir darsxona, o'n to'rt hujra va tahoratxonadan iborat. Madrasaning kunchiqar tarafida katta mozor joylashgan. Mudarris va imom – Muhammad Hakimxo'ja qozi[2], mutavalli – Oyxo'ja shayx al-islom[3], muazzin – Mullo Ashur so'fi. Tolibi ilmlar soni – har bir hujrada 4 tadan.

Vaqflari. 1) O'nta do'kon, hozirda har qaysisini tanidan chiqarib, o'n beshta bo'lgan. Ijarasi 12 tilla. 2) Madrasani oldida bir hovli va maydon. 3) Jangalzor mavzeida taxminan 3 tanob bog' yer, bedazor va bo'sh yer. 4) Oqqo'rg'on mavzeida 2 tarnovlik[4] yer. 5) Qoramurt mavzeida ...[5].

Daromaddan 1/3 qismi mudarrislar, qolgani[ni] vaqfnoma hukmi birla imom, muazzin, sartarosh, farrosh va tolibi ilmlar a'lo, avsat va adno martabasi bo'yicha olur.

Jumanbiy madrasasi va masjidi[6]. Madrasa-masjid 8 ta hujradan iborat. Mudarrislar – Mullo Abdushukur muftiy va Mullo Rahimberdi, imomi – Shoh Abduqahhorxo'ja eshon, muazzin – Mirsayyid so'fi. Ikkala mudarris qo'lida yigirma nafar talaba tahsil oladi.

Vaqflari. Juman masjid, Uchtepa, Yuqori Tarnav, O'rta Tarnav mavzelarida [yerlar] hamda Poyaki mavzeida bir saroy va bir do'kon vaqf qilingan. Vaqfdan hosil bo'lgan daromad avvalo binolar imoratiga, so'ng mudarrislar, imom, muazzin hamda talabalar o'rtasida taqsimlanadi.

---

[1] O'zR MDA. I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 449-yig'ma jild, 222-varaq orqasi. Mazkur madrasa Qo'qon xoni Muhammad Alixon davri (1822–1841)da Toshkent qozikaloni Isaxo'ja Yunusxo'ja o'g'li tomonidan qurilgan. Isoxo'ja qozikalon qabri Sebzor dahasining Qoziko'cha mahallasidagi Isoxo'ja mozorida bo'lgan.

[2] *Hakimxo'ja qozi* – Eshon Muhammad Hakimxo'ja qozikalon Norxo'ja eshon o'g'li (taxm. 1815–1875). Buxoroda tahsil olgan. 1864-yilda Qo'qon xoni Sulton Sayyidxonning (1863–1865) lqonga yurishidan oldin Hakimxo'ja eshonni qozikalon, uning akasi Oyxo'ja eshonni shayx ul-islom etib tayinlagan. Hakimxo'ja qozikalon 1865-yilda Toshkent mudofaasi rahbarlaridan bo'lgan, istilodan keyin ham qozikalonlik mansabida qoldirilgan. N. Ostroumovning yozishicha, vafotidan so'ng Sebzor dahasidagi Qoziko'cha mahallasi qabristoniga dafn etilgan. Uning o'g'li Muhiddinxo'ja uzoq vaqt Sebzor dahasida qozi bo'lgan. Остроумов Н. Последние по времени Шейхуль ислам и Казы каляи города Ташкента, братья Аяходжа и Хакимходжа // РТКЛА. Год 20-й. – Т., 1915. – С. 11–24.

[3] *Oyxo'ja shayx ul-islom* – Oyxo'ja eshon Norxo'ja eshon o'g'li 1864-yilda Toshkent shayx ul-islomi etib tayinlangan. Haj paytida Madinada vafot etgan. Uning o'g'li Azizlarxon eshon va nabiralari qozi va mudarris amallarida xizmat qilgan.

[4] *Tarnovlik yer* – bosh ariqdan kelgan bir tarnov suv miqdori bilan sug'oriladigan yer birligi.

[5] Matnda bo'sh qolgan.

[6] O'zR MDA, I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 449-yig'ma jild, 227-varaq. Jumanbiy Taxtapuliy madrasasi 1856-yilda qurilgan, 1884-yili esa Jumanbiyning o'g'li mutavalli Mulla Ya'qubjon tarafidan ta'mirlangan.

@tarixchi_kitoblar_guruhiga

Ko'kcha dahasi:

Saqichmon mahallasidagi masjid-madrasa[1]. Bo'rixo'ja Boboshayx o'g'li bino qilgan[2]. Imomi Iso Muhammad qori domullo Xoldor o'g'li, so'fisi Quvondiq Norbo'ta o'g'li. Ismoiljonboy Bobojonboy o'g'li Bo'rixo'janing mazkur mahallada qurdirgan madrasasi va masjidi sarflari uchun Saqichmon mahallasida bir hammom vaqf qilgan. Bo'rixo'ja va mulla Abdumutallib Ismoiljonboy o'g'li mazkur masjid sarfi uchun shu mahallada saroy vaqf qilgan. Ikkisining ham vaqfnomasi bor.

Toshkent madrasalarining 1884-yilgi ro'yxatidan

Shayx Xovand Tohur dahasida:

Eshonquli dodxoh madrasasi[3]. Madrasaga 47 yil bo'lgan.

Vaqflari: 1) Sebzor dahasidagi chit bozori, shohi bozorida 47 adad uskunalik do'kon, 170 adad tagjoy oladigan do'kon. 2) Qiyot mahallasida 2 ta, Turk mahallasida 1 ta, Zanjirlik mahallasida 2 ta, jami 5 ta tegirmonlardan keladigan ijara, tagjoy puli 31800 so'm.

Mutavallilar – Niyoz Muhammad Beklarbegi o'g'li va Sayyidalixo'ja Sulaymonxo'ja o'g'li 3180 so'm oladi. Qolgan 31620 so'mdan[4] uchdan bir qismi vaqfnomada ko'rsatilganidek, to'qqiz adad mudarrisga beriladi: To'raxo'ja eshon Xonxo'ja eshon o'g'li – 381 so'm 45 tiyin, Mahmudxo'ja eshon Ne'matxo'ja eshon o'g'li – 392 so'm 60 tiyin, Ya'qubxo'ja eshon – 388 so'm, Rahmatullaxo'ja A'zamxo'ja eshon o'g'li, mulla Zaynuddin maxzum, Nasrulloxo'ja eshon Qoraxo'ja eshon o'g'li, Abdusattor maxzum Aliakbarxo'ja eshon o'g'li, Orifxo'ja maxzum Sharifxo'ja eshon o'g'li, Eshonxo'ja maxzum Mahmudxo'ja eshon o'g'li barobar, ya'ni 346 so'm 40 tiyindan [jami 2078 so'm 4 tiyin] oladi. Madrasadagi imom, so'fi, sartarosh va farroshga 3108 so'm beriladi. Qolgan pul madrasadagi 14 adad a'lo, 14 adad avsat va 14 adad adno bosqichidagi talabalarga taqsimlanadi.

Shayx Xovand Tohur mozori ichidagi madrasa[5] [Yunusxon madrasasi]. Madrasaga Oqmasjid mahallasida[gi] ikki ko'cha o'rtasi va Niyozbek volostida Pulemas arig'i vaqf qilingan. Ammo necha vaqtdan beri joriy bo'lib, yer

---

[1] O'zR MDA, I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 449-yig'ma jild, 206-varaq.

[2] *Bo'rixo'ja Boboshayx o'g'li* – Muhammad Solihxo'janing yozishicha, Eshon Bo'rixo'ja Sanchiqmoniyning Ko'kcha dahasi Saqichmon mahallasida qurdirgan madrasaning tarkibida katta jome' masjid bo'lgan. Arxiv hujjatlarida qayd etilishicha, madrasa 1820-yilda qurilgan. Masjid va madrasaning 1847–1887-yillarga mansub vaqf hujjatlarida keltirilishicha, bu vaqtda Bo'rixo'ja jome' masjidi xonaqoh, ayvon, bir necha hujralardan iborat bo'lgan kichikroq madrasa va masjid sahnidan tarkib topgan.

[3] O'zR MDA, I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2482-yig'ma jild, 26-varaq.

[4] Bu yerda mutavallilar ulushidan so'ng qolgan mablag' aslida 31620 emas, 28620 so'mni tashkil qiladi. Madrasa daromadini taqsimlashda keyingi o'rinlardagi hisob-kitoblarda ham bir oz xatolik ketgan.

[5] O'zR MDA, I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2482-yig'ma jild, 26-varaq orqasi.

@tarixchi_kutubxonasiga

haqi olinmas, vaqfnomasi esa Alchakuf to'ra[1] qo'lida ekan. 1881-yilda saylov bilan Sulton Mahmudxo'ja eshon Sulton Sa'idxo'ja eshon o'g'li mudarris bo'lgan. Madrasada 20 adad talaba dars o'qiydi, ammo hech qanday vaqf daromadi yo'q.

Degrez mahallasidagi madrasa[2]. Ho'qandlik Mahmud dasturxonchi bino qilgan.

Vaqflari. 1) Sebzor dahasida Eski Jo'va mavzei ichida 23 ta hujrasi bor bir saroy. Saroy oldida 9 ta do'kon bor. 2) Namad bozorida bir murcha, uning oldida 17 ta do'koni bor. Mazkur saroy, murcha va do'konlar ijarasi jami 3900 so'm. Ba'zi yil ko'p, ba'zi yil kam bo'ladi.

Mutavalli – xo'qandlik mulla Eshonjon Mahmud dasturxonchi o'g'li o'ndan bir qism – 390 so'm oladi. Mudarrislar – Najmiddinxo'ja Kattaxo'ja o'g'li va mulla Mavlonxon Ziyo maxzum o'g'li. Har ikkisi barobar 380 so'mdan oladi. Bir imom mullo Siddiq mullo Mirrahim o'g'li 340 so'm, so'fi Qodir Abdulloh o'g'li 317 so'm, sartarosh 312 so'm, xatmi xo'ja[3] uchun 320 so'm beriladi. Qolgan pul 50 adad talabaga a'lo, avsad va adno darajasida taqsimlanadi. Mutavallining vakili – Eshonxo'ja Najmiddinxo'ja o'g'li. Madrasa vaqfini bo'lganiga 48 yil bo'lgan.

Mo'g'ulko'cha mahallasidagi masjid va madrasa[4]. Qosimboy bino qilgan[5].

Vaqflari. Mazkur Qosimboy 1000 tilla, Ibrohimboyvachcha A'zamboy o'g'li 50 tilla naqd pul vaqf qilgan. Mazkur pullarga vaqfnoma yo'q, bir joydan uskuna qilib, so'ng vaqfnoma qilurman, debdilar.

Qosimboy 1883-yilda madrasaning yonidan bir hovli olib, A'zamboy Mirzo Yusuf mavzeida 1,25 tanob terakzor olib, vaqf qilgan. Madrasa mutavallisi – Qosimboyning o'g'li Ibrohimboyvachcha. Qosimboy mullo Minhojiddin mulla Ne'mat o'g'lini mudarris-xatib qilgan. Madrasaning 21 ta hujrasida yuz adad talaba ilm oladi. Mullo Olim, Qosimboy, Ibrohimboyvachchalar vaqf puli ijarasi deb, mudarris, mullo, imomga yiliga 3120 so'mni taqsimlab berar ekanlar. Madrasaga 12 yil bo'lgan.

O'qchi mahallasi masjididagi madrasa[6]. Masjidning 10 adad hujrasida mulla Abulqosim mulla Boymuhammad oxund darsgo'ylik qiladi. Hujralar-

[1] *Alchakuf to'ra* – rus amaldori yoki savdogarlaridan, ismi-sharifini aniqlab bo'lmadi.

[2] O'zR MDA. I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2482-yig'ma jild, 26-varaq orqasi – 27-varaq.

[3] *Xatmi xo'ja* – tasavvuf ahli tarafidan o'tkaziladigan maxsus xatm marosimi, «xatmi xo'jagon» deb ham ataladi. Tilga olingan davr arxiv hujjatlariga qaraganda, Toshkent shahri madrasa va masjidlarida, ziyoratgoh mozorlarda uyushtiriladigan bunday marosim, odatda, vaqf daromadi hisobidan o'tkazilgan.

[4] O'zR MDA, I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2482-yig'ma jild, 27-varaq.

[5] Madrasa ikki tomoni ayvonli, bir xonaqohdan, 10 ta hujra va g'ishtli gumbazdan iborat bo'lib, pishiq g'ishtdan qurilgan. U arxiv hujjatlarida joylashgan mahalla nomi bilan Mo'g'ulko'cha madrasasi deb tilga olingan va 1871-yili qurilgani qayd qilingan.

[6] O'zR MDA, I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2482-yig'ma jild, 27-varaq orqasi.

@tarixchi_kutubxonasiga

dagi talabalar soni 34 adad. 1883-yilda Mirjalil oqsoqol Gulmirza oqsoqol o'g'li masjid ehtiyoji va xatmi xo'ja uchun bir do'kon vaqf qilgan. Ijarasi 312 so'm. Ammo madrasaning hech bir vaqfi yo'q.

Sebzor dahasida:

Beklarbegi madrasasi[1]. Mudarrislari – domullo Shohmahmud oxund, domullo Xodi a'lam, Sayyid Umar maxzum, Sayyid Muzaffar maxzum, Mullo Azimbek. Mutavallilar Sayyid Umar maxzum, Sayyid Muzaffar maxzum, No'mon maxzum va Niyoz Muhammad.

Vaqflari. Bazzozlik rastasidagi Xishtin saroyi, jomafurushlik rastasida 26 ta do'kon, jomafurushlik rastasida bir saroycha, Zakotsaroyning o'rnida 71 ta do'konga tagjoy, Zakotsaroy o'rnida 26 ta do'kon uskunasi bilan, bazzozlik rastasida 2 ta do'kon, sham bozorida 93 ta do'konning tagjoyi, Registon mavzeida 1 ta tegirmon. Bular Beklarbegining o'zi qilgan vaqfdur. Ulardan har yilda keladigan 1000 so'mni o'n qismga bo'lib, 1/10 qismini mutavalli oladi. Qolgan to'qqizini uch qismga bo'lib, 1/3 qismini mudarrislar oladi. Qolgan ikkisini o'n qismga bo'lib, 1/10 imom, so'fi, farrosh va sartaroshga, qolgani madrasaning boshqa vazifadorlariga berilar ekan.

Madrasaga yana Nazarbek qilgan vaqf ham bor ekan[2]. Olti yildan beri mullolarga tegmay, podshohlikka olinur ekan. Mullolar bosh hokimlarga shul vaqf to'g'risida ariza ham berganlar.

Mo'yi Muborak madrasasi[3]. Mutavalli – Mirzo Ahmad qushbegi. Mudarrislar – Imomxon eshon va Abdulmajidxon.

Vaqflari. 1) Eski Toshkand mavzei butunlay vaqf. Shundan Mirzo Ahmad qushbegi yiliga 400 so'm madrasaga berib, qolgani nimaga sarf bo'lishini mullolar bilmaydur. Lekin qushbegidan avvalgi mutavalli davrida [madrasaga] yiliga 1000 so'm berar ekan. 2) Sariog'och mavzei butunlay vaqf. Bu yerni Sobunkub degan to'ra zo'rluq qilib tortib olgan ekan. Shu sabab bu mavzedan hech bir foyda yo'q. 3) Oqtepa mavzei butunlay vaqf. Bu yerni Xo'ja Ahror Valiy [madrasasi] mullolari da'vo qilib, qoziga hujjat ko'rsatib olgan ekan.

Baroqxon madrasasi[4]. Mudarrislar Sayyid Ahmad oxund, Mullo Abdullojon qozi. Mutavalli Sayyid G'anixo'ja.

---

[1] O'zR MDA, I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2482-yig'ma jild, 41-varaq orqasi.

[2] *Nazarbek vaqfi* – ushbu vaqf aslida o'rta asrlarga mansub bo'lib, vaqfi avlod tarzida Nazarbiy avlodlari uchun qilingan. Nazarbiy avlodlari qolmagach, Toshkent qozixonasi ijozati bilan taxminan Lashkar beklarbegi hokimligi vaqtida uning madrasasi ixtiyoriga o'tkazilgan bo'lsa kerak. Mazkur ro'yxat 1884-yilda tuzilganini hisobga olsak, Nazarbek vaqfining madrasa ixtiyoridan olinishi 1878-yilga to'g'ri keladi.

[3] O'zR MDA, I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2482-yig'ma jild, 38-varaq orqasi.

[4] O'zR MDA, I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2482-yig'ma jild, 42-varaq.

@tarixchi_kutubxonasiga

Vaqflari: 1) Normuhammad qushbegi saroyi oldidagi do'konlari bilan. Uning hosili avval madrasa va saroyning ta'miriga sarflanadi. Shundan ortsa, 1/10 qismi Shayx Xovand Tohur [mozori]dagi qorixonaga beriladi. Qolgani yana o'n qismga bo'linib, 1/10 qismi mutavalliga, 1/10 qismi imomga, so'figa, farroshga, sartaroshga beriladi. Qolgan sakkizini uch qismga bo'lib, 1/3 qismi mudarrislarga, 2/3 qismi mullolarga beriladi. 2) Oqsoq ota mavzei butunligicha vaqf. Vaqfnomalari, xonlar bergan inoyatnomalari va o'sha yer odamlari tilidan bergan vasiqalari ham bor ekan. [Madrasa ahli] shu mavzedan tanob va xiroj olar ekanlar. Lekin O'rusiya kelgandin keyin uchinchi yilda madrasaning mazkur vaqfi podshohlikdan o'tmagan ekan. 3) Madrasa mutavallisini[ng] qo'lida yana 250 tilla [mablag'i] ham bor ekan. Bundan kelgan foyda – 32 tilla mullolarga taqsimlab berilar ekan.

Isaxo'ja qozi madrasasi[1]. Mudarrislar – Muhiddinxo'ja qozi va Ahmadxo'ja eshon. Mutavalli – Eshon Boboxo'ja maxzum.

Vaqflari: 1) dokafurushlik rastasida 1 ta do'kon, yaxtak bozorida 7 ta do'kon, gulbozorida, qozonfurushlik bozori yaqinida 4 ta do'kon, bazzozlik rastasida 1 ta do'kon, charxchilar oldida 3 ta do'koni bor bir hovli, Labzak mahallasida bir juft objuvoz va bir tegirmon. 2) Qoramut mavzeida 500 tanob arpa, bug'doy va beda ekiladigan yerlar. Bu yerlar hosilining 1/3 qismi mazkur madrasadagi masjidga vaqf ekan. Qolganini boshqa vaqflar hosiliga qo'shib, o'n qismga bo'lib, 1/10 qismi mutavalliga, 1/10 qismi imom, farrosh, sartarosh va so'figa [berilar ekan]. Qolgan sakkizi uch qismga bo'linib, 2/3 qismi mullolarga, 1/3 qismi mudarrislarga berilar ekan. 3) Oqqo'rg'on mavzeidagi yerlarni In'omxo'ja mingboshi xatlab olgan ekan.

Jumanbiy madrasasi va masjidi vaqflari[2]:

1) Bir saroy, poyakilik [rastasi]da. O'rta Tarnav mavzeida taxminan 1 mann[3] yer, Tuyabo'g'zi mavzeida 6 botmon yer. Mutavalli Ya'qubjon 1/10 qismini oladi. Qolgani to'rtga bo'linib, 1/4 qismi mudarrislarga, 1/4 qismi madrasa ta'miriga, 2/4 qismi talabalarga a'lo, avsat va adno darajalarida beriladi. 2) Achchi mavzeida taxminan 150 tanob hosili bor daraxtzor yer. Vaqf daromadi uchga bo'linib, mutavalli Xoliqbek 1/3 qismini, mudarrislar 1/3 qismini va Shoh Yunusxo'ja avlodlari 1/3 qismini olgan. 3) Shu ma-

[1] O'zR MDA, 1-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2482-yig'ma jild, 42-varaq.

[2] O'zR MDA. 1-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2482-yig'ma jild. 36-varaq orqasi.

[3] *Mann* – 1) yer o'lchov birligi. O'rta Osiyo hududida yer yuzasini o'lchashda katta (20 kg gacha) va kichik (4,32 kg gacha) mann ishlatilgan. Yerni o'lchashda ma'lum bir og'irlikdagi don ekiladigan yer nazarda tutilgan; 2) og'irlik o'lchovi, mintaqa bo'ylab turli og'irlikda qo'llanilgan. Toshkentda mann o'rnida ko'proq botmon ishlatilgan bo'lib, XIX asrda 1 botmon 10 – 10,5 pudga, ya'ni 163,8 – 171,99 kg ga teng bo'lgan. *Bu haqda qarang:* Давидович Э.А. Материалы по метрологии Средневековой Средней Азии. – М., 1970. – С. 92, 124.

@tarixchi_kutubxonasiga

hallada[1] bir do'kon, daromadi olti qismga bo'linib, 1/6 qismi mutavalliga, qolgani madrasadagi masjid ehtiyojlariga sarflangan.

Ko'kcha dahasida:

Shukurxon madrasasi vaqflari[2]. Vaqfi bir saroy, daromadi 600 so'm. Voqif va mutavalli Mirzo Ahmad qushbegi. Shundan mudarris va mullolarga 100 so'm berilar ekan. Mudarrislar Fazl Ahad qori, Mullo Abdumavlon va Mullo Ali Muhammad oxund. Yana 7 ta do'kon madrasadagi masjid imomi va so'fisiga vaqf qilingan. Daromadi 14 so'm.

Saqichmon mahallasidagi Bo'rixo'ja eshon madrasasi vaqflari[3]. Madrasaga bir hammom va bir saroy va 5 ta do'kon vaqf qilingan, daromadi 300 so'm. Mutavallisi Abduhakim Mirzo o'g'li. Daromadi madrasa va masjid ehtiyojlari, mudarris, imom, so'fi va talabalarga taqsimlab beriladi. Mudarris Mullo Zunnun qori.

Beshyog'och dahasida:

Xo'ja Ahror Valiy madrasasi vaqflari[4]. 1) Oqqo'rg'on mavzeidan bir yilda olinadigan tanob va xiroj 1140 so'm. 2) Oqqo'rg'on mavzeidagi Yangi tarnav degan yerdan bir yilda 152 so'm. 3) Qo'ng'roq mavzeidan bir yilda ... so'm[5]. 4) Otchofar va Oqtepa mavzelari nobudlik sababidan hech qanday daromad yo'q. 5) Beshyog'och dahasidagi Kichik Qozirabot va Qurama uyezdiga qarashli Katta Qozirabot mavzelaridan har yilgi xiroj va tanobi 380 so'm. 6) Shahar ichidagi birinj [guruch] bozoridagi 18 ta do'kondan bir yilda 234 so'm. Shu bozorda bir kaffon daromadi bir yilda 60 so'm. 7) Arfa [arpa] bozorida bir kaffon daromadi bir yilda 80 so'm. 8) Un bozori, mosh bozori, arfa bozori, sabzi bozori, birinj bozorida jami 255 ta do'konning tagjoyi bir yilda 336 so'm. 9) Birinj bozorida 200 adad fuqaro foydalanadigan bir kaffon bor ekan. Ammo 3 yildan beri foydalangani uchun yer haqqi bermas ekanlar. 10) Sebzor dahasiga qarashli poyakilik bozorida bir saroychaning tagjoy daromadi bir yilda 12 so'm. 11) Sebzor dahasiga qarashli yerda bir saroycha va u yerdagi 8 ta do'kon ijarasi bir yilda 1140 so'm. 12) Qurama uyezdiga qarashli Achchi hamda Ko'kcha dahasiga qarashli Qoraqamish mavzelarining bir yillik tanobi 1140 so'm. Xiroji esa 150 botmon g'alla.

---

[1] Madrasa joylashgan Taxtapul mahallasi nazarda tutilgan.

[2] O'zR MDA, I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2482-yig'ma jild, 19-varaq.

Ko'kcha dahasidagi Shukurxon madrasasi daha bozor yonida bo'lib, arxiv hujjatlariga qaraganda, bu madrasa keyinchalik xaroba holga kelib qolgan va madrasa 1901-yilda Turkiston O'lkasi maorif boshqarmasi buyrug'i bilan yopilgan.

[3] O'zR MDA, I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2482-yig'ma jild, 19-varaq.

[4] *Xo'ja Ahror madrasasi* – Toshkentning qadimiy madrasalaridan, 1451-yilda Xo'ja Ahror Valiy tarafidan qurdirilgan. O'zR MDA, I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2482-yig'ma jild, 59-varaq orqasi–60-varaqlar.

[5] Arxiv hujjatida qog'oz buklangan joyida raqam ko'rinmay qolgan.

@tarixchi_kitobxonaga

Madrasa mudarrislari – Sharifxo'ja qozi mudarris Podshohxo'ja o'g'li, domullo Umarbek oxund mudarris Mullo Jonibek o'g'li, Azizlarxon qozi mudarris Oyxo'ja eshon o'g'li, domullo Muhammad Obid oxund mudarris Mullo Bobojon oxund o'g'li, Mullo Abdusattor mudarris Yarashboy o'g'li, Mullo Salimxon oxund mudarris.

Madrasa mutavallilari – Mo'minxonto'ra Sayyidxonto'ra o'g'li, Nasriddinxonto'ra To'rajonto'ra o'g'li va Husaynbek maxzum domullo Solihbek oxund o'g'li.

Xo'ja Ahror Valiy madrasasining jami vaqf daromadi 5586 so'm. Shundan mutavallilar o'ndan bir, mudarrislar uchdan bir olib, qolgani madrasa ahliga taqsimlanadi.

Ko'kaldosh madrasasi vaqflari[1]. Shahar ichida 7 ta do'kon hujjatlik va yana 230 ta do'kon [o'rni] ijarasi, hammasi bir yilda 570 so'm.

Madrasaning mudarris va ayni vaqtda mutavallilari – Mullo Ya'qub oxund Ne'matshayx o'g'li, Yunusxon eshon Xonxo'ja eshon o'g'li, domullo Abdurahmon Xudoyberganboy o'g'li, Nuriddin maxzum Qori qozi marhum o'g'li.

Abulqosimxon eshon madrasasi vaqflari[2]. Yangi mahallada vaqflar quyidagicha: 1) shahar ichida, qovun bozorida bir saroy 12 ta do'koni bilan, har yili 1400 so'm. 2) Sham bozorida 1 ta do'kon ijarasidan har yilda 20 so'm. 3) Sarrojlik bozorida 1 ta do'kondan 16 so'm. 4) Beda bozorida 1 ta do'kondan 10 so'm. 5) Tovoq bozorida 1 ta do'kondan 10 so'm. 6) Qurama uyezdiga qarashli Boboxon ota mavzeining xiroj va tanobonasi har yilda 60 so'm. 7) Bir objuvozning yarim daromadidan 50 so'm. Yuqorida zikr qilingan vaqflar daromadi jami 1566 so'm. 8) Eski Namozgoh degan joyning tagjoyi ha· yilda 150 so'm. Ammo mazkur Eski Namozgohni taftish qilib so'ralgan vaqtda bir necha qariya ishonchlik odamlar ayturlarki, mazkur eski Namozgoh mavzei qadim vaqtlardan Hazrat Xo'ja A'lamdor[3] [mozori]ning vaqflari deb javob berdilar[4].

Madrasa mudarrislari – Mullo Muhammad oxund Mullo Bobojon oxund o'g'li va Mir Badi' maxzum. Mutavalli – Abulqosim eshonning o'zlari[5].

---

[1] O'zR MDA, I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2482-yig'ma jild, 59-varaq.

[2] O'zR MDA, I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2482-yig'ma jild, 58-varaq orqasi. Ushbu madrasa Abulqosim shayx, Qoraxon eshon, Ma'dixon eshon, Boqixon qozi madrasasi kabi nomlar bilan ham atalgan. Arxiv hujjatlarida uning ochilgan yili 1790 va 1855-yil deb ko'rsatilgan. Lekin madrasa faoliyati asosan Abulqosim eshon faoliyati bilan bog'liq bo'lgani sabab ikkinchi sana to'g'riroq bo'lsa kerak.

[3] *Xo'ja A'lamdor* – Xo'ja A'lambardor, Toshkentning Beshyog'och dahasiga qarashli Kamolon mahallasida joylashgan yirik mozor va ziyoratgoh.

[4] *Ushbu masala haqida qarang:* Sultonov O'.A. Qo'qon xoni Sulton Sa'idxonning Toshkentdagi bir vaqfnomasi xususida // Farg'ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda. Farg'ona, 2009. 194–199-betlar.

[5] *Abulqosim eshon* – Abulqosimxon eshon Xonto'raxon eshon o'g'li (vaf. 1892-y.) XIX asrda Toshkentdagi taniqli tasavvuf namoyandalaridan bo'lib, nasabi Is'hoq boy vositasida Hazrat Ali (r.a.) ga ulangan. Abulqosim eshon vafotidan so'ng madrasada uning o'g'li, Beshyog'och dahasi qozisi Boqixon mudarrislik qilgan.

@tarixga_kutubxonasiga

Mullo Otaboyhoji mahallasidagi masjid-madrasa vaqflari. Mullo Otaboyhoji bino qilgan.

Vaqflari: 1) Chorsuda bir hammomning yarim daromadi, yiliga 500 so'm. 2) Chitbozorda 1 ta do'kondan yiliga 15 so'm. 3) Oqmasjid viloyatida bir karvonsaroy vayron bo'lgani uchun daromadi yo'q. 4) Hayitboy tol degan mavzeda 6 botmon sholikor yer quruq bo'lib qolgani uchun daromad yo'q.

Masjid va madrasaning mudarrisi Mullo Ahmadullo maxzum mulla Mo'minjon o'g'li vaqf daromadidan 1/5 qism olar ekan. Mutavallilari Hakimboyvachcha va Azimboyvachcha Otaboyhoji o'g'illari.

QO'QON XONLIGI VAQF HUJJATLARI

D.Sh. Vahobov

Vaqfnoma №1[1]. *Hamroqul eshik oqoboshi valadi Jurqunboy o'zining 1 ta xonaqoh, 1 ta ayvon va 6 ta hujradan iborat qorixonasi va 1 ta hovli-joyini talabalar, hofizi Qur'on va o'zining qabriga atab qilgan vaqfnomasi.*

Hijriy 1279-yilning zulqa'da oyi [1863-yil, aprel-may]da Hamroqul ibn Jurqunboy Ho'qand shahri qozixonasiga kelib, shariatga ko'ra iqrori joiz holda quyidagicha iqror qildi:

«Men iqror qiluvchi boshqaning haqidan xoli o'zimning pok mollarimdan va vaqfni man' qiluvchi shartlardan xoli bo'lgan [holda] o'z mulkimga tutashgan 1 ta qorixona va 1 ta hovli-joyimni vaqf qildim va shar'iy sadaqa qildim. Vaqf Ho'qand xonligiga qarashli Yoybuta mahallasida joylashgan. Qorixona shimol, janub va g'arb tarafdan ushbu vasiqa egasi bo'lmish Hamroqul ibn Jurqunboyning mulkiga, sharq tarafdan omma arig'iga tutashgan. Hovli-joy ham mazkur mahallada joylashgan bo'lib, g'arbdan omma arig'iga, shimol va janub tarafdan mazkur vasiqa egasining mulkiga va sharq tarafdan omma yo'liga tutashgan. Chegaralari barcha huquqlari hamda belgilari bilan aniq ajratilgan holda hofizi Qur'on va talabalar [foydasiga] hamda o'zimning qabrimga atab vaqf qildim».

Mazkur voqif ushbu vaqfning mutavallisi to hayot ekan o'zi, vafotidan so'ng o'z avlodlaridan solihrog'i bo'lishini hamda vaqf qilingan qorixona va hovlida yashaydigan qori va talabalar o'qigan Qur'on va masalalarini savobini voqifning ruhiga bag'ishlashini shart qildi.

Muhrlar: Qozi Muhammad Sodiq ibn Mullo Muhammad Sharifga tegishli 1 ta muhr, Qozi Mullo oxund Bobo mufti ibn Mullo Shohnazarga tegishli 1ta muhr, Amir Fuzayl domla ibn Miraziz muftiga tegishli 1 ta muhr, Hamroqul mehtar ibn Jurqunboyga tegishli 1 ta muhr.

[1] O'zR MDA. I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2482-yig'ma jild, 58-varaq.
[2] O'zR MDA. I-19-jamg'arma, 1-ro'yxat, 34538-yig'ma jild, 2-varaq.

@tarixchi_kurbxonaga

Janob Toshkand hokimi Pulkovnik Betunsov xizmatlarig'a[1]

Bizlar shahar ichida[gi] madrasai Ko'kaltoshning tuman [xat so'ngi]da qo'l qo'yg'uvchi mudarris va mullolari va ahli vazoif [xizmatchi]lari shul xususida o'tunub arz qilamiz. Qadimul ayyom qovun bozori va yangi rastani o'rnida har kishi har nima sotub o'ltursa, mazkur madrasag'a vaqfligi sababli tag-joyi berub o'lturur erdilar. Xususan, mohi Ramazoni sharif mudarris va mullolarni sababi zindukorchiliklari [kundalik hayot ehtiyojlari] bozor ichidan shul yerni tag-joyisi erdi. Bulturg'i yil siz adolatlu hokim viloyatning obodlig'i uchun yangi rasta qildurub, ba'zi iflosroq bo'ladurg'on joylarni toza qildurub ko'b yaxshi qildingiz. Alloh rozi bo'lsin. Hozirda qadimiy ta'omul bo'yincha vaqfni xayriyati ahli vazoif bechora duogo'ylarni avqot [taom] va zindukorchiligi uchun joyini olmoq to'g'risinda ijozat so'rab umid qilurmizkim, ro'za ayyomi va shul kecha va kunduz mazkur rasta har xil furushanda [sotuvchi] ko'b o'lturadurgon vaqti fursat o'tmay tezlik ilan [bilan] qadimiy tartib va ta'omul joriy qilmoqqa farmoyish qilsangiz ekan, deb umid tutub, arznoma yozub, 3-iyunda 1886-yilda Mirzo Yunus Bobojon o'g'li tahrir qildim.

Qo'l qo'yg'uvchilar: Domlo Ya'qub oxund mudarris Ne'matshayx o'g'li, Mullo Abdurahmon mudarris Xudoybergan o'g'li, Mullo Yunusxon mudarris, Mullo Islomxo'ja Boboxo'ja o'g'li, Mullo To'raxon, Mullo Abdullo qori Orif qori o'g'li, Mavlonxo'ja Eshon Ne'matxo'ja o'g'li.

Vaqfnoma №2[2]. *Turkiston muzofotining baland darajali General-Gubernatori Janoblarig'a Xo'qand shahridagi madrasai Muhammad Alixonni[ng] mudarris va imom va mutavalli va ahli vazoif [xizmatchi]laridin ariza.*

Shul xususidakim, bizlar mazkur madrasai Muhammad Alixonni mudarrisi va imomi va mutavalli va ahli vazoiflari o'tunub arz qilurmizkim, Xo'qand shahrini bo'lib o'tmish podshohi Said Muhammad Alixon o'z podshohlik vaqtida, muddat 76 yil bo'lubdurkim, o'z halol molidin bir katta madrasa bino aylab, mazkur madrasag'a darsxona va masjid va hujralar qilib, mazkur madrasag'a mudarris va imom va mutavalli va ahli vazoif va so'fi va farrosh ta'yin aylab, mazkurlarni ovqatlari uchun Xo'qand shahrini Roshidon volisig'a qarashli mayit [o'lik, hosilsiz] yerlarni ih'yo qilib [tiriltirib], ya'ni ziroat hosil bo'lmaydirg'on yerlarg'a arig' chiqarib, ziroat hosil bo'ladurg'on qilib, mazkur yerlardin podshohlik haqlarini, ya'ni besh hissadin bir hissasini podshoh-

[1] O'zR MDA, I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2366-yig'ma jild.
[2] O'zR MDA, I-1-jamg'arma, 12-ro'yxat, 218-yig'ma jild, 141-varaq.

@tarixchi_kutubxonasiga

likg'a ta'yin aylab, qolg'on to'rt hissasini o'z mulki maxsusi qilib, hurri xolis aylab mazkur madrasani[ng] mudarris va imom va mutavalli va ahli vazoiflari uchun oq vaqf qilib va birmuncha sharoitlar ta'yin aylab va vaqfnoma aylab, o'z podshohlik muhrin bosib va o'shal asrdagi ulamolarni ham muhrlarin bostirib, o'z asrida o'zi mutasarrif bo'lib, andin so'ngra madraso mutasaddilarig'a topshirg'on edi. To shu zamong'acha hech bir podshoh daxl va ta'arruz aylamay vaqflikka qaror berib erdilar. Bizlar madrasada istiqomat qiluvchilar mazkur yerlardin bo'lg'on hosillarni vaqfnoma bo'yicha taqsim qilib olib, bola-chaqalarimiz bilan avqot [ovqat] qilib yurgan erdik. Bo'lib o'tmish kiborlar ham daxl va ta'arruz qilmay oqliqg'a muqarrar bo'lib, ushbu Rusiya zamonida xususan, ko'p xotirjam va xursand erdik. Ushbu ovanda kamissarlar xo'b tahqiqlab oqlikka muqarrar qilg'on uchun 1902-yilda, 1903-yilda yangi o'lfonni xazinadin olib, bola-chaqalarimiz birla Janob imperator A'zam va bosh hokimlar haqlarig'a duo qilib va alarning avlodlarini duo qilib yurgon erdik. Al onda ushbu 1904-yilda yilni o'lfonidin olmoq bo'lib umid tutib turganimizda Xo'qand mahkamalaridin eshitildiki, vaqflaringiz xazinag'a qoldi, deb. Ushbu xabarni eshitib, ko'p hayron bo'lib, Siz baland darajalug'a yig'lab arzihol qildukki, vaqflarimiz oq vaqf bo'lsa, to shul zamong'acha hech bir podsho daxl va ta'arruz qilg'on bo'lmasa va madrasadagi mudarris va imom va mutavallilar mo'ysafid va boshqa kasb va hunari yo'q odamlar bo'lsa, vaqfdin bo'lak tirikligi bo'lmasa, Janobi imperator A'zam zilzilada qolg'onlarg'a va ota-onalari yo'qlarg'a va jinnilarg'a va har xil bebizoat kambag'allarg'a avqot tayin qilg'onlari sababli biz bechora mullolar ham umid qilamizkim, shundoq katta podshohni[ng] zamonlarida bola-chaqalarimiz birla avqot qilib yurgon oq vaqflarimizni xazinag'a qoldirmasalar. Ne uchunkim, boshqa kifoya qilg'udek avqot yo'qdur. Shul sababdin, marhamatlariydin umid tutib arzihol qildikkim, vaqflarimizni tegishli joylarg'a ma'lum qilib, barqaror va mustahkam qildirub olib bersalar, deb arzihol yozdik. Bizlar mazkur madrasani mudarris va mutavalli va imom va inobatlik ahli vazoiflari ushbu ariza rostligiga muhrimizni bosdik.

Jami 20 ta muhr: Domlo Abdurahmon maxdum A'lam ibn Domlo Abdulqayyum, Mullo Nasriddin mutavalli, Mullo Muhammad Ali mutavalli, Mullo Shohrahmat mutavalli, Abdurahim maxdum mutavalli, Mullo Muhammad mudarris, Mullo Yo'ldosh ibn Muhammad mudarris, Mullo Nasrullo ibn Muhamad Rizo va boshqalar...

Vaqfnoma №3[1]. *Abdulqayyumboy valadi Subxonquliboy o'ziga tegishli sholi ekiladigan 2 qit'a yerini Qo'qon viloyati Qorako'l kalon qishlog'idagi Aliboy masjidi va shu masjid hujrasida yashaydigan talabalar uchun qilgan vaqfnomasi.*

[1] O'zR MDA, I-19-jamg'arma, 1-ro'yxat, 34538-yig'ma jild, 54-varaq.

@tarixchi_kutubxonasiga

Hijriy 1289-yilning jumodul-avval oyi [1872-yil, iyul-avgust]da Abdulqayyumboy valadi Subxonquliboy Xo'qand viloyati mahkamasiga kelib, shariatga ko'ra iqrori joiz holda quyidagicha iqror qildi:

«Men iqror qiluvchi boshqaning haqidan holi o'zimning pok mollarimdan va vaqfni man qiluvchi shartlardan xoli bo'lgan [holda] o'z mulkim bo'lgan 2 qit'a sholikor yerimni mazkur qishloqdagi Aliboy masjidi va uning hujrasida yashovchi talaba va qorilar uchun vaqf qildim va shar'iy sadaqa qildim. Vaqf yeri Xo'qand viloyati Qorako'l kalon qishlog'ida joylashgan. Ushbu yer shimol tarafdan Otaxo'ja valadi Kattaxo'jaboyning yerlariga, janub tarafdan domla Muhammad Aziz qozi mahdum Buxoriyning vaqf yerlariga, g'arb tarafdan omma arig'iga va sharq tarafdan mazkur qishloq masjidi vaqf yerlariga tutashgan. Chegaralari barcha huquqlari hamda belgilari bilan aniq ajratilgan holda Aliboy masjidi hujrasida istiqomat qiluvchi hofizi Qur'on, talabalar va xalq [foydasiga] atab vaqf qildim».

Mazkur voqif ushbu vaqfning mutavallisi to hayot ekan o'zi, vafotidan so'ng o'z avlodlaridan solihrog'i bo'lishini hamda vaqf yeridan keladigan daromadni 10/1 qismini mutavalli, 2/5 qismini masjid farroshi va qolgan qismini mazkur masjid hujrasida yashovchi talaba va qorilarga berilishini shart qilgan.

Muhrlar 7 ta:
Mullo G'oyibnazar ibn Mullo Muhammadsholi mufti,
Qozi To'raxo'ja ibn domlo Miraziz maxdum,
A'lam Xolxo'ja valadi qozi Yunus,
Mullo Tursun Muhammad mufti,
Hoji Kamoliddin ibn Mullo Shamsiddin,
Muhammad Sodiq qozi askar ibn Muhammad Sharif,
Mullo Abdulvalihob qozi kalon ibn Shayx Muhammad.

Vaqfnoma №4[1]. *Hoji Mir Saydullohning o'ziga tegishli bo'lgan 2 ta kaffon Isaroyini Namangan viloyati Niyozboy mahallasida joylashgan masjid va madrasa uchun vaqf qilgani xususidagi vaqfnoma.*

Birinchi kaffon o'z ichiga bir necha do'konlar va ayvonlarni olgan bo'lib, u Namangan viloyati Niyozboy mahallasida joylashgan. Chegara hududlari: g'arb tomondan omma yo'liga, sharq tomondan Boltaxo'ja valadi Ya'qubxo'ja Koshg'ariy, musammoti Zilolabibi, Bobojonxo'ja va Azizxo'jalar mulkiga, shimol tomondan omma yo'liga hamda yuqorida zikr qilingan Bobojonxo'ja va Azizxo'jalar mulkiga, janub tomondan Sa'idboy va usto Mirzo Kafshdo'zlarning mulkiga tutashgan.

[1]O'zR MDA, I-19-jamg'arma, 1-ro'yxat, 34861-yig'ma jild, 97-varaq.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ikkinchi kaffoncha ham mazkur hududda joylashgan bo'lib, g'arb va janub tomondan mazkur mahalla masjidiga, sharq tomondan omma yo'liga, shimol tomondan foydalanilmaydigan ko'chaga tutashgan. Chegaralari barcha huquqlari hamda belgilari bilan aniq ajratilgan.

Hijriy 1281-yil, Ramazon oyining 27-kuni [1865-yil 22-fevral] Hoji Mirzo Saydulloh qozixonaga kelib sahih bo'lgan va barcha tasarrufotlarni amalga oshirishga munosib [bo'lgan holda] shariatga ko'ra iqrori joiz holda quyidagicha iqror qildi:

«Men iqror qiluvchi boshqaning haqidan xoli o'z toza va pok mollarimdan va vaqfni man qiluvchi shartlardan holi bo'lgan [holda] o'z haqim va mulkim bo'lmish yuqorida zikri kelgan ikkita kaffonning hammasini va to'laligicha Namangan viloyati Niyozboy mahallasi masjidi va madrasasi uchun vaqf qildim va shar'iy sadaqa qildim. Va quyidagilarni shart qildim: toki hayot ekanman ushbu vaqf mutavallisi o'zim, mendan so'ng mazkur mahalla madrasasining aholi tomonidan tayinlangan mudarrisi bo'lsin. Vaqf mulklaridan keladigan daromad o'n qismga ajratilib, bir qismi mutavalliga, bir qismi boshqa mudarrislarga nisbatan ko'proq dars beradigan mudarrisga va qolgan qismi mazkur masjid imomi, muazzini va madrasa talabalariga berilsin». Ushbu vaqfnoma vaqf qiluvchi sog'lom va o'zi hozir bo'lgan holda tuzildi. Bu vaqf mulklari boshqa birovga sotilmaydi va hadya ham qilib berilmaydi.

Muhrlar: Qozi kalon Muhammad Amin ibn Mullo Muhammad Ya'qub (2 ta), Ja'farxo'ja ibn Hakimxo'ja mufti, Mullo Ahmad Oqil ibn Ahmad Sodiq, Mullo Muhammad Murod ibn Mullo Miskin Muhammad mufti, Sultonmuhammad ibn Sayyid Rahmon mufti, Mullo Abdulloh ibn Mullo Odina mufti, Mullo Oxund Bobo ibn Mullo Muhammadqosim mufti, Oxundxon ibn Mullo Muhammad Hofiz mufti, Mullo Bobojon Xudaynazar mufti va boshqalar...

BUXORO AMIRLIGI VAQF HUJJATLARI

O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining «Vaqf yorliqlari kolleksiyasi» [I-323] jamg'armasida katta hajmdagi vaqf hujjatlari jamlangan bo'lib, ular mazmun jihatdan IX asrdan to XX asrning 1-yarmigacha bo'lgan tarixiy davrni, hududiy jihatdan esa, asosan Buxoro amirligi, shuningdek, Xiva va Qo'qon xonliklarini qamrab oladi. Buxoro amirligiga tegishli vaqf hujjatlari fors tilida tuzilgan bo'lib, aksariyatini vaqfnomalar tashkil etadi. Mazkur hujjatlar hukmdorlar, amaldorlar, mulkdorlar tomonidan madrasalar, kutubxonalar, shifoxonalar, maqbaralar, masjidlar va xonaqohlar foydasiga tuzilgan.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, XIX asr oxirlarida O'rta Osiyo xonliklarida Saudiya Arabistonining Makka va Madina shaharlaridagi muqaddas ziyoratgohlar foydasiga mulklarni vaqfga aylantirish an'anasi keng yoyila boshlagan. Xususan,

@tarixchi_kutubxonasiga

Buxoro amirligida hukmdorlar, yirik boylar qatori mayda mulk egalari tomonidan ham Madina shahridagi «Harami Muhtarama»[1] hamda u yerda o'tkaziladigan diniy tadbirlar uchun salmoqli mulklar vaqf sifatida ajratilgan.

Quyida nintaqaning boshqa hududlaridan Buxoro shahriga kelib tahsil olgan talabalar, amirlikda faoliyat yuritgan madrasalar, shifoxonalar va kutubxonalar, shuningdek, Madinadagi muqaddas ziyoratgohlar foydasiga tuzilgan vaqf hujjatlari tarjimalaridan namunalar keltiriladi. Matn o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun hujjatlar mazmuni saqlangan holda hozirgi zamon o'zbek tili qoidalariga muvofiq hamda tinish belgilar qo'llanilgan holda tarjima qilindi[2].

N. Ismatova,
N. Mirzayev

Vaqfnoma №1[3]. *Mizrobboy Rahimboy Andxuylik o'g'li hamda uning muvakkillari*[4] *nomidan Andxuy viloyatidan Buxoro shahriga tahsil olish uchun kelgan talabalar foydasiga tuzilgan vaqfnoma.*

... Rajab oyi 1284 [29-oktabr – 27-noyabr, 1867] sanada qora soqollik va o'rta bo'ylik Mizrobboy Rahimboy Andxuy [andxuylik] o'g'li faxrli Buxoroyi sharif qozixonasiga kelib, o'zi hamda O'g'iloy G'afforberdi qizi, Xolbibi Odina qizi, Niyozali, Zuhrobboy, Muhammadrizo, Oybibi hamda Yoqutoy Muhammad Rahimboy avlodlari nomidan vakil sifatida [vakilligi] har biri guvohlik berishga layoqatli va munosib bo'lgan Mullo Hayit Mullo Husayn o'g'li va Mullo Ostonaqul Qulmuhammad o'g'li shohidliklarida [tasdiqlangan] shar'an iqror etishga ijozat berilgan holatida sahih, shar'iy ishonchli [tarzda] quyidagicha iqror qildi:

«O'zim hamda mazkurlarning vakili sifatida o'zimning va mazkur muvakkillarimning eng yaxshi mollar hamda eng sara mulklarimizdan [hisoblangan] haq va mulkimiz bo'lgan bir-biri bilan tutashgan to'rtta shamfurushlik do'koni sukniyotini hammasini va to'laligicha vaqf qildim. [Do'konlar] mazkur shahardagi Labi Hovuzi Devonbegi rastasidagi [daromadlari] muayyan maqsadlarga mo'ljallangan vaqf yerida joylashgan. Mazkur to'rt do'konning to'rt tarafi chegaralari g'arbdan Foziljon Abdulloh o'g'li tasarrufidagi vaqf

[1] Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning uylari bo'lib, Harami Sharif nomi bilan ham ataladi.

[2] Qayd qilingan hujjatlardan I-323-jamg'arma, 1-ro'yxat, 127, 80, 1037, 1041- yig'ma jildlar Ismatova Nargiza, I-323-jamg'arma, 1-ro'yxat, 369, 400- yig'ma jildlar Mirzayev Nasriddin tomonidan tarjima qilindi.

[3] O'zR MDA, I-323-jamg'arma, 1-ro'yxat, 127- yig'ma jild.

[4] Muvakkil (arabcha «vakkala» fe'lidan olingan, «ishonch bildirmoq», «topshirmoq», «zimmasiga yuklamoq» kabi ma'nolarni bildiradi) – tadqiq etilayotgan davr yuridik hujjatlarida vakilga ishonch bildiruvchi shaxsga nisbatan qo'llanilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

do'koniga, shimoldan umumiy yo'lga, sharqdan Usto Mullo Abdulloh o'g'li tasarrufidagi vaqf do'koniga, janubdan Mir Ubayd shayx Mir Homid o'g'lining nonvoylik do'koniga tutashgan. Chegaralari barcha huquq va [mulkka aloqador] alomatlari bilan ma'lumdir». Mazkur voqif o'zi hamda vakolatga muvofiq ushbu vaqfning shar'iy mutavallisi mazkur Mizrobboy to hayot ekan, [uning] o'zi, vafotidan so'ng o'g'il avlodidan eng taqvodori va munosibi bo'lsin, deb shart qildi. Yana mazkur voqif ushbu vaqf do'konlaridan har qancha foyda bo'lsa, mutavalli avvalo ushr[1] olib, qolganini Andxuy viloyatidan Buxoroyi sharifga diniy ilm olishga kelib istiqomat qilayotgan talabalar o'rtasida teng miqdorda taqsimlab bersin, deb shart qildi. Yana mazkur voqif ushbu talabalarning har biri har juma va dushanba kechki payt «Hazrati Mulk» surasini tilovat etib, savobini avvalo ... [payg'ambar] Hazrat Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallam ruhlariga, mazkur voqif muvakkillari, ularning ajdodlari va avlodlari ruhlariga baxshida etsin, deb shart qildi...

Majlisda hozir bo'lganlar:

Sayyid Aminboy, Turobboy, Mullo Mir Hodi, Mirzoboy Oqsoqol, Mavlonberdi Karvonboshi, Mullo Hayit Murod, Olimboy, Ostonaqul, Sultonxo'ja, Hayit Niyoz va boshqalar».

Muhrlar: *Qozi al-quzzot qozi Mullo Abdulhamid Maxdum bin Domullo Boqi Muhammad A'lam; Sulton Muhammadxo'ja Mufti bin Abdullohxo'ja shayx ul-islom, 1277*.*

Vaqfnoma №2[2]. *Abdulhakimboy Fayziboy o'g'li nomidan Muhammad Solih Xo'qandiy masjidida ramazon oyi xatmi, shuningdek, ushbu masjidda «Solati Mas'udiy»[3] kitobini o'qish hamda Nodir Devon xonaqohida masnaviyxonlik qilish uchun tuzilgan vaqfnoma.*

...1316-yil zulqa'da oyi [24-mart – 21-aprel 1898]da faxrli [mashhur] Buxoroyi sharif shahar, Alloh bu shaharni ofatlardan asrasin, qozixonasiga kelib, sahih bo'lgan va barcha tasarrufotlarni amalga oshirishga munosib [bo'lgan holda] shariatga ko'ra iqrori joiz holda quyidagicha iqror qildi:

«Men iqror qiluvchi boshqaning haqidan xoli o'z toza va pok mollarimdan va vaqfni man qiluvchi shartlardan xoli bo'lgan [holda] o'z haq va mulkim bo'lmish yetti do'konning hammasini va to'laligicha vaqf etdim va shar'iy sadaqa qildim. Ulardan ikki do'kon Janubiy Rudning Qavolayi Kajida joylashgan.

---

[1] *Ushr* – o'ndan bir hissani anglatadi.

[2] O'zR MDA, I-323-jamg'arma, 1-ro'yxat, 400-yig'ma jild.

[3] Samarqandlik Mas'ud bin Mahmud bin Yusuf (XIII–XIV) tomonidan yozilgan ushbu kitobda Hanafiya fiqhiga oid masalalar yoritilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Birinchi do'kon g'arbdan Usto Sodiqning meros do'koniga, shimoldan musulmonlar qabristoniga, sharqdan umumiy yo'lga, janubdan ham sharqdagiday [umumiy yo'lga] tutashgan. Ikkinchi do'kon g'arbdan Abrorxo'ja Hodixo'ja o'g'li do'koniga, shimoldan umumiy yo'lga, sharqdan ham shimoldagiday [umumiy yo'lga], janubdan mazkur Abrorxo'janing saroy do'konchasiga tutashgan. Mazkur yetti do'kondan boshqa yana bir [do'kon] shaharning Mullo Shamsiddin Muhammad guzarida joylashgan bo'lib, g'arbdan Odil Boyjon o'g'lining do'koniga, shimol va sharqdan Ota Fozilning meros yukxonasiga, janubdan umumiy yo'lga tutashgan.

Yetti do'kondan yana boshqa bir do'kon sukniyoti mazkur shahar Qulbobo Ko'kaltosh madrasasining sahni ostidagi namakfurushiy[1] rastasidagi vaqf yeridagi maydonda joylashgan bo'lib, g'arbdan Abduljalilning meros do'koniga, shimoldan mazkur madrasa sahniga, sharqdan Mullo Nurullohning meros do'koniga va janubdan umumiy yo'lga tutashgan.

Mazkur yetti do'kondan yana biri ushbu shahardagi Shur degan joyning pastki qismidagi qassoblar rastasidagi vaqf yeri sahnida joylashgan. G'arbdan mazkur rastadagi tahoratxonaga, Mullo Abdulloh Mullo Mo'min o'g'lining do'koniga, sharqdan umumiy yo'lga, janubdan Hoji Mullo Oston Qulmuhammadboy o'g'lining do'koniga tutashgan.

Vaqf sahnida joylashgan yetti do'konning boshqasi Mirzo Haydar guzarining mazkur shahar tepasidagi kadufurushiy[2] rastasida joylashgan. G'arbdan umumiy yo'lga, shimoldan Muhsinning meros do'koniga, sharqdan mayizfurushiy[3] saroyining markabxonasiga[4], janubdan esa Mullo Faqirning meros do'koniga tutashgan.

Mazkur [Buxoro] shaharning Bozori Gul guzarida joylashgan ushbu yetti do'konning [yana boshqa] biri g'arbdan umumiy yo'lga, shimoldan Qurbon Abdulloh o'g'lining hovlisiga, sharqdan Muqimboy Abdulloh o'g'lining hovlisiga, janubdan ba'zisi mazkur Muqimboyning hovlisiga va ba'zisi Muzaffarxo'ja Badalxo'ja o'g'lining hovlisiga tutashgan. Chegaralari barcha huquq va [mulkka aloqador] alomatlari bilan ma'lumdir».

[Mazkur vaqf qilingan do'konlar] Ja'farxo'ja guzaridagi cho'p [yog'och] va xom g'ishtdan bino qilingan xalifayi Muhammad Solih Xo'qandiy masjidida ramazon oyi xatmi uchun va ushbu masjidda «Solati Mas'udiy» kitobini dars qilishi uchun hamda imom haqi uchun vaqf qilingan. Shuningdek, xalifa Husayn masjidi uchun masjid pishiq g'isht, yog'och va

[1] *Namakfurushiy* – tuz sotiladigan rasta.
[2] *Kadufurushiy* – qovoq sotiladigan rasta.
[3] *Mayizfurushiy* –mayiz sotiladigan joy.
[4] *Markabxona* – ulovlar turar joyi.

@tarixchi_kutubxonasiga

ganjdan bino qilingan. Mazkur masjidda ham «Solati Mas'udiy» kitobini dars qilish uchun vaqf qilingan[1].

Nodir Devon xonaqohida masnaviyxonlik qilish uchun ham vaqf qilingan. Xonaqoh pishiq g'isht va ganjdan bino qilingan. Shuningdek, Hullabofon guzaridagi masjidda masnaviyxonlik qilish shart qilindi. Masjid pishiq g'isht, yog'och va ganjdan bino qilingan. Yuqorida zikr qilingan masjidlar mashhur bo'lganlari sabab chegaralashga hojat yo'q. Mazkur voqif to hayot ekan, ushbu vaqflarga o'zi mutavalli bo'lishini shart qildi...

Muhrlar: *qozi al-quzzot qozi Mullo Mirzo Badriddin bin qozi al-quzzot qozi Mullo Mirzo Sadriddin.*

Vaqfnoma №3[2]. *Mullo Jo'raboy Fozilboy o'g'li nomidan Sho'rko'l guzaridagi masjid hamda Chahorshanbayi Karvonboshiydagi ikki masjid foydasi uchun tuzilgan vaqfnoma.*

...Hijriy 1317-yilning 29-muharram oyi [8-iyun, 1899-yil]da Mullo Jo'raboy soqolli, o'rta bo'yli, Fozilboy o'g'li faxrli [mashhur] Buxoroyi sharif shahrining qozixonasiga kelib, shariatga ko'ra iqrori joiz holda quyidagicha iqror qildi:

«Men iqror qiluvchi boshqaning haqidan xoli o'z toza va pok mollarimdan va vaqfni man' qiluvchi shartlardan xoli bo'lgan [holda] bir-biriga yopishgan vaqf sahnida joylashgan uch do'kon o'z haqqimni vaqf etdim va shar'iy sadaqa qildim. Vaqf shirinfurushiy[3] rastasida bo'lib, mazkur shaharning Labi Hovuzi Devonbegida joylashgan. G'arbdan umumiy yo'lga, shimoldan daromadlari aniq maqsadlarga sarflanadigan vaqf yeriga, sharqdan Hoji Nasrulloh Rahmatboy o'g'lining do'koniga, ba'zisi vaqf do'koniga, janubdan Mirsaid G'iyosiddin o'g'lining do'koni bilan tutashgan. Chegaralari barcha huquqlari hamda belgilari bilan aniq ajratilgan holda Sho'rko'l guzaridagi masjid [foydasiga], Chahorshanbayi Karvonboshiydagi ikki masjid [foydasiga], Hakim sobungarning masjidi ramazon xatmi uchun [vaqf qilindi], bularni chegaralashga ehtiyoj yo'qdir». Alloh taolo undan qabul qilsin.

Mazkur voqif ushbu vaqfning mutavallisi to hayot ekan o'zi, vafotidan so'ng o'g'li Husayn, Husaynning vafotidan so'ng uning o'g'il farzandlari bo'lsin, deb shart qildi...

---

[1] Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, so'nggi o'rta asrlarda Buxoro shahrining aksariyat masjidlarida bomdod va xufton namozlaridan keyin ushbu kitob odatiy ravishda tez-tez jamoaga o'qib berilgan. Shu sababli kitobni boshqa masjidlarda ham dars tayyorlashga qayta-qayta ishora qilinayapti.

[2] O'zR MDA, I-323-jamg'arma, 1-ro'yxat, 369-yig'ma jild.

[3] *Shirinfurushiy* – shirinliklar sotiladigan joy/rasta.

@tarixchi_kutubxonasiga

Majlisda hozir bo'lganlar:

Abdulhafiz oqsoqol, Jo'raboy oqsoqol, O'rinboy, Abdulvosi' oqsoqol, Tohirboy, Mullo Mir Kamol.

Muhrlar: *Qozi al-quzzot qozi Mullo Mirzo Badriddin bin qozi al-quzzot qozi Mullo Mir Sadriddin.*

Vaqfnoma №4[1]. *Mullo Jo'raboy Mullo Yunus o'g'li va Akram Tursunboy o'g'lining Quchor Qur'iy guzaridagi hujjatlari yo'qolgan vaqf mulklari uchun guvohlik berganlari xususidagi vaqf hujjati.*

...Buxoro shifoxona madrasasi sahnida joylashgan bir do'konning chegaralari g'arbdan umumiy yo'lga, shimol va sharqdan mazkur madrasaga olib boradigan yo'lga, janubdan Mullo Boboqul Qurbonboy o'g'lining ayvonchasiga tutashgan. Hamda nisfi masho'[2] ayvonchayi ro'g'anfurushiy[3] sukniyotining chegarasi – bu ham mazkur shifoxona madrasasida joylashgan. G'arbdan umumiy yo'lga, shimol va sharqdan ham umumiy yo'lga, janubdan Safarboy Abdulloh o'g'lining vaqf do'koniga tutashgan. Chegaralari barcha huquqlari, belgilari bilan aniq ajratilgan.

1340-hijriy yilning 21-sha'bon oyi [1922-yil 18-aprel]da Mullo Jo'raboy Mullo Yunus o'g'li va Akram Tursunboy o'g'li faxrli [mashhur] Buxoroyi sharif shahrining ikkinchi qozixonasiga kelib xabar va guvohlik berishdi:

«Biz guvohmiz – Alloh uchun xolis guvohlik beramizki, vaqf hujjatining boshida chegaralari aytib o'tilgan mazkur masjidning ikki vaqfi Quchor Qur'iy guzarida joylashgan. Kunlar o'tishi bilan va zamonlar aylanishi bilan bu vaqfning hujjati yo'q bo'lgan bo'lsa ham, ammo voqifning yo'qolgan vaqf hujjatida qilgan shartlariga binoan shart-u sharoitlari joriy bo'lib kelmoqda. Ushbu vaqfning mutavallisi mazkur guzarning masjid imomi bo'lishi shart qilingan. [Shuningdek], mazkur mutavalli ayvonchalarni ularda istiqomat qilayotganlarning qo'lidan olib o'zgartirib, ulardan o'z haqi ushrini olishi, qolganlarini ikkita uchdan biri qilib, uning ikki uchdan birini o'zi imomchilik haqi uchun olishi va qolgan uchdan birini masjid muazziniga berishi, har dushanba va juma oqshomlari voqifning ruhiga duo va fotiha o'qishi va qolganlarini boshqa musulmon kambag'allariga berishi shart etilgan».

Mazkur zikr qilingan guvohlarning guvohliklariga binoan vaqfning shart-u sharoitini qayta yozdik va bu sahih, shar'iy, doimiy, abadiy toki, Alloh yerni, undagi narsalarni meros qilib qoldirgunicha [zeroki, Alloh me-

[1] O'zR MDA, I-323-jamg'arma, 1-ro'yxat, 369- yig'ma jild.

[2] To'liq bir kishiga yoki bir joyda joylashmagan, tarqoq va bo'lingan yerlarga nisbatan «nisfi masho'» deb aytiladi.

[3] *Ayvonchayi ro'g'anfurushiy* – yog' sotiladigan joy.

@tarixchi_kutubxonasiga

ros qoldirguvchilarning yaxshisidir] vaqf bo'lib qoldi. Ushbu voqea ikkinchi xalq qozisi Mullo Abdunaimxo'ja Azimxo'ja o'g'li va boshqalar huzurida bo'ldi.

Kotib: *Muhammad Yusuf.*

Muhrlar: *Mullo Abdunaimxo'ja qozi.*

Vaqfnoma №5[1]. *Hoji Mirzo Hikmatulloh Mirzo Lutfulloh o'g'li nomidan Saudiya Arabistonining Madina shahridagi Buxoriyxon foydasiga tuzilgan vaqfnoma.*

...Hoji Mirzo Hikmatulloh Mirzo Lutfulloh o'g'li ... Muharram, 1324 [25-mart – 25-aprel, 1907] sanada faxrli Buxoroyi sharif qozixonasiga kelib, shar'an iqror etishga ijozat berilgan holatida sahih, shar'iy ishonchli [tarzda] quyidagicha iqror qildi:

«Men iqror qiluvchi boshqaning haqidan va vaqfni man qiluvchi shartlardan xoli bo'lgan o'zimning eng yaxshi mollar hamda eng sara mulklarimdan [hisoblangan] haq va mulkim bo'lgan do'konimni hammasini va to'laligicha vaqf etdim va shar'iy sadaqa qildim. [Mazkur do'kon] ushbu faxrli [Buxoro] shahridagi Mirzo Haydar Bolo guzaridagi non rastasida joylashgan bo'lib, g'arbdan [daromadlari] muayyan maqsadlarga mo'ljallangan vaqf saroyiga, shimoldan vaqf do'koniga, sharqdan umumiy yo'lga, janubdan shimoldagiday [vaqf do'koniga] tutashgan. Chegaralari barcha huquq va [mulkka aloqador] alomatlari bilan ma'lum holda Madinayi Munavvara, Alloh sharif etsin, Harami Muhtaramadagi bir nafar Sahihi sharifi Buxoriyxon [foydasiga berildi]». Mazkur voqif ushbu vaqfning shar'iy mutavallisi janobi shariatpanoh faxrli [Buxoro] qozi al-quzzoti bo'lsinlar, deb shart qildi. Mazkur mutavalli vaqf qilingan do'konni shar'iy ijaraga qo'yib, ijara badalidan agar [do'kon] ta'mirga muhtoj bo'lsa, avvalo ushbu do'konning zaruriy ta'miriga ishlatishi, aks holda esa, mutavalli haqi sifatida ushr olib, ushrdan qolganini Madinayi Munavvaradagi takya [takyaxona][2] mudarrisi va posboni Mullo Abdulhakimga yuborilishini, ushbu mudarris o'z ushrini olib, qolganini o'n ikki qismga ajratib, har kecha bir qismini bir nafar tolibi ilmga berishini, [talaba ham o'z navbatida] har kuni Zuhr namozidan so'ng saodatli nabaviy, alayhu

[1] O'zR MDA, I-323-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1037-yig'ma jild.

[2] *Takyatxona* (arab. *musofirxona*) – musulmon mamlakatlarida boy-sarmoyador kishilar tomonidan qurilgan vaqtincha yotoq, boshpana sifatida bepul xizmat ko'rsatadigan mehmonxona. Rabot, zoviya, xonaqoh kabi nomlar bilan ham ataladi. Takyaxonalar, asosan, darvish, qalandar va musofirlar uchun yashash joyi sifatida karvon yo'li ustida, turli ziyoratlar maqsadida tez-tez mehmonlar kelib turadigan joylarda qurilgan. Islom. Ensiklopediya. –T.: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2017. – 447-bet.

@tarixchi_kutubxonasiga

afzal salavot va salomlar bo'lsin, hujralari qarshisidagi «Harami Muhtarama»da «Kitobi sahihi sharifi Buxoriy», undan keyin ikki-uch oyat «Kalomi Mulki A'llam[1]»dan tilovat qilib, savobini .... [payg'ambar] Hazrat Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallam ruhlariga, chahoryor va sahobayi kiromlar ruhlariga, mazkur voqifa, uning ajdodlari va avlodlari ruhiga baxshida etib, [bu jarayonni] shar'iy uzrlarsiz tark etmasin, deb shart qildi. Mazkur sahihxon tasdiqlovchisi to hayot ekan, Mullo Asadulloh Buxoriy, undan so'ng yana Buxoro yoki unga tobe' [viloyatlar] ahlidan tanlab olinib, tilovatga mas'ul shaxs bo'lsa, o'sha bo'lsin...»

Muhrlar: *Qozi al-quzzot qozi Mullo Mirzo Badriddin bin qozi al-quzzot qozi Mullo Mirzo Sadriddin.*

Vaqfnoma №6[2]. *Munavvaraoy Mirzo Umar qizi nomidan Buxorodagi Mir Do'stumbiy madrasasi hujralari foydasiga tuzilgan vaqfnoma.*

...19-safar, 1334 [26-dekabr, 1915] sanada musammot Munavvaraoy Mirzo Umar qizi faxrli Buxoroyi sharif qozixonasiga kelib, shar'an iqror etishga ijozat berilgan holatida sahih, shar'iy ishonchli [tarzda] quyidagicha iqror qildi:

«Men iqror qiluvchi boshqaning haqidan va vaqfni man' qiluvchi shartlardan xoli bo'lgan o'zimning eng yaxshi mollar hamda eng sara mulklarimdan [hisoblangan] haq va mulkim bo'lgan besh tanob mulki hurr[3] yerimni hammasini va to'laligicha vaqf etdim va shar'iy sadaqa qildim. [Mazkur yer] Somjin tumanidagi Qo'rg'una mavzesida joylashgan bo'lib, g'arbdan marhum Pochchoxo'janing meros yeriga, shimoldan Qalandarxo'ja Abdullohxo'ja o'g'li yeriga, sharqdan Fayziboy Abdulmo'min o'g'li yeriga, janubdan Rahimqulboy Abdulhakimboy o'g'li yeriga tutashgan. Chegaralari barcha huquq va [mulkka aloqador] alomatlari, ariqlari bilan ma'lum holda Mir Do'stumbiy masjidi madrasasining hujralari [foydasiga berildi]». Mazkur voqifa ushbu vaqfning mutavallisi Mullo Najmiddin Mullo Shamsiddin o'g'li, uning vafotidan so'ng uning avlodidan, avlodining avlodidan eng taqvodori va munosibi bo'lsin, deb shart qildi. Yana mazkur voqifa [mutavalli] vaqf hissasi sifatida ushbu vaqf qilingan yerning korandalaridan har yili har bir tanob yerga 60 tanga olib, [undan] avvalo mutavalli haqi sifatida ushr ajratib, qolganini Mir Do'stumbiy guzari masjidi madrasasi hujralarida istiqomat qiluvchi talabalarga taqsimlab berishi, talabalar [o'z navbatida] har juma va dushanba kechki vaqt

[1] Qur'oni karim.

[2] O'zR MDA, I-323-jamg'arma, 1-ro'yxat, 80-yig'ma jild.

[3] *Mulki hurri xolis yoki mulki hurr* – soliqlardan ozod yer. *Bu haqda batafsil qarang:* Чехович О.Д. Бухарские поземельные акты XVI–XIX вв. // Проблемы источниковедения, IV. – Москва, 1955. – С. 237–242.

@tarixchi_kutubxonasiga

qayerda bo'lsalar ham uch marotaba «Ixlos» surasini tilovat qilib, savobini voqifa, uning ajdodlari ruhiga baxshida etsinlar, deb shart qildi ...»

Muhrlar: *Qozi al-quzzot qozi Mullo Mir Burhoniddin bin qozi al-quzzot qozi Mullo Mir Badriddin.*

Vaqfnoma №7[1]. *Allomaoy Mullo Najmiddin qizi nomidan shar'iy vakili orqali Saudiya Arabistonining Madina shahridagi Daloilxon foydasiga tuzilgan vaqfnoma.*

...2-sha'bon, 1334 [3-iyun, 1916] sanada Mullo Mir A'zam Mullo Mir Sharif o'g'li Musammot Allomaoy Mullo Najmiddin qizi nomidan shar'iy vakil sifatida [vakilligi] har biri guvohlik berishga layoqatli va munosib bo'lgan Mullo Nusratulloh Mullo Omonulloh o'g'li va Mullo Avaz Qori Qurbon o'g'li shohidliklarida [tasdiqlangan] faxrli Buxoroyi sharif qozixonasiga kelib, shar'an iqror etishga ijozat berilgan holatida sahih, aniq, shar'iy ishonchli [tarzda] quyidagicha iqror qildi:

«Men iqror qiluvchi mazkur vakolatga muvofiq muvakkilimning eng yaxshi mollar hamda eng sara mulklaridan [hisoblangan] haq va mulki bo'lgan ko'p uylarni o'z ichiga olgan hovlisini hammasini va to'laligicha vaqf etdim va shar'iy sadaqa qildim. [Hovli] Buxoro shahrining Hoji Omonboy guzarida joylashgan bo'lib, g'arbdan Mahmudshoh Shoh Muhammad o'g'li hovlisiga, shimoldan mazkur Mullo Nusratulloh hovlisiga, sharqdan Mir Ashraf Mir Afzal o'g'li hovlisiga, janubdan Farmon Qorovulbegi Abdulloh o'g'li hovlisiga tutashgan. Chegaralari barcha huquq va [mulkka aloqador] alomatlari bilan ma'lum holda Madinayi Munavvaradagi, Alloh sharafli qilsin, bir nafar Daloil al-xayrotxon[2] [foydasiga berildi]». Mazkur vakil vakolatiga ko'ra, ushbu vaqfning shar'iy mutavallisi janobi shariatpanoh faxrli [Buxoro] qozi al-quzzoti bo'lsinlar, deb shart qildi. Mutavalli vaqf qilingan hovlini adolatli qiymatda sotib, o'sha mablag'ga vaqf qilishga munosib do'kon yoki er xarid qilib, [ularni] vaqfga aylantirib, foydasidan mutavalli haqi sifatida ushr olib, ushrdan ortganini o'sha yerda [Madinai Munavvarada] istiqomat qiluvchi, shariatpanoh qozi al-quzzot shar'iy mutavalli tomonidan tayin qilingan hurmatli kishilardan bir nafariga etkazilishi, [u o'z navbatida] «Daloil al-xayrot» kitobidan tilovat qilib, savobini avvalo... [payg'ambar] Hazrat Rasulu Akram sollallohu alayhi vasallam ruhlariga, so'ngra mazkur voqifa, uning ajdodlari ruhiga baxshida etib, [bu jarayonni] shar'iy uzrlarsiz tark etmasin, deb shart qildi ...

[1] O'zR MDA, 1-323-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1041/1- yig'ma jild.

[2] *«Daloil al-xayrot»* – XV asrda musulmon aqida olimi Muhammad ibn Sulaymon Jazuliy (1404–1465) tomonidan arab tilida yozilgan kitob. Muhammad (s.a.v.)ga atab o'qiladigan salavot va madhiyalardan iborat. Islom. Ensiklopediya. – T.: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. – 2017. 131-bet.

@tarixchi_kutubxonasiga

Muhrlar: *Qozi al-quzzot qozi Mullo Mir Burhoniddin bin qozi al-quzzot qozi Mullo Mir Badriddin.*

XIVA XONLIGI VAQF HUJJATLARI

O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining «Xiva xonlari arxivi» [I-125] jamg'armasida XX asr boshlariga oid vaqf daftarlari saqlanadi. Mazkur vaqf daftarlari 483, 484 va 485-raqamlar bilan belgilangan bo'lib, ularda Xiva xonligida mavjud vaqf xo'jaliklari – madrasalar, masjidlar, qorixonalar, maktablarga tegishli vaqf mulklari va ularning turlari, joylashgan joyi hamda miqdori, vaqf muassasasi xodimlari o'rtasidagi daromadlar taqsimoti kabi qimmatli ma'lumotlar aks etgan. Quyida mazkur hujjatlardan namunalar keltiriladi. Matnda kelgan ayrim so'z va iboralar hozirgi o'zbek tili qoidalariga mos ravishda tahrir qilingan holda berildi.

t.f.n. Q.K. Yakubov

Jannatmakon Muhammad Aminxon marhumining madrasalariga mavqufa [vaqf etilgan] yerlar bayoni[1]

1. Xoni mazkurning vaqf etilgan yerlarining jumlasidin barkashida [o'lchami] o'ttiz tanob[2] yerkim, koyina [joylashgan]dur. Ko'hna Urganchda sharq tomondan mamlakati podshohiy, shimol va g'arbdan qum [sahro yoki cho'l hududi] va janub tomondan omma yofi [umumiy foydalaniladiga'ı kanal]. Mazkur yerdin har yil besh tillo cho'p puli[3] olinur erkan, mutavaili iqrori va daftari bilan [daftariga muvofiq].

2. Dog'i ul-jumladin [yana, shuningdek] yetti qit'a [bo'lak] yerkim, Toshhovuz mavzesida [joylashgan]. *Avvalg'i qit'asi,* o'lchami – yetmish tanob, sharq va shimol tomondan omma yofi [umumiy foydalaniladigan kanal], g'arbdan Shohmurod Inoq va Muhammad Murod Mahram va janub tomondan Xudoyor Biy, Muhammad Nazarboy, Sayyid Muhammad va ba'zi [ayrim qismi] vaqfi muayyan [bilan chegaradosh].

Ikkinchisi, o'lchami – o'ttuz tanob, sharqda vaqfi muayyan, shimolda omma yofi, g'arbda ka-sharqa [sharqdagidek chegaralangan], janubda ko'l.

Uchinchisi, o'lchami – o'n besh tanob, sharq tomondan Qurbonkal, shimoldan umumiy yo'l, g'arbdan Qutushkusa, janubdan Shohobod yofi [bilan chegaralangan].

---

[1] O'zR MDA, I–125-jamg'arma, 1-ro'yxat, 483-yig'ma jild, 114-varaq.

[2] *1 tanob* – 0,4 gektar.

[3] *Cho'p puli* – Xiva xonligida amalda bo'lgan soliq turlaridan biri.

@tarixchi_kutubxonasiga

To'rtinchisi, o'lchami – to'rt tanob, sharqda Mullo Oshur, ba'zi [ayrim qismi] mamlakati podshohiy, shimolda mazkur Mullo Oshur va ba'zi [ayrim qismi] Qalandar va Safoboy, Abdulg'affor, g'arbda omma, janubda g'arbdagidek chegaralangan, ba'zi [ayrim qismi] Muhammad Niyozbek [bilan chegaradosh].

Beshinchisi, o'lchami – bir tanob, sharqdan Usto Quvondiq, shimoldan, g'arbdan va janubdan mamlakati podshohiy.

Oltinchi qit'asi [bo'lagi], o'lchami – olti yarim tanob. Sharqdan Muhammad Safoboy, shimoldan Jum'a Niyozboy, g'arbdan Abdulkarim va Otaniyoz, janubdan omma yo'li.

Yettinchisi, o'lchami – o'n tanob, sharqda va shimolda mushtaraka [sherikchilik asosda foydalaniladigan] solma[1], g'arbda Abdulg'affor va Abduljabbor matrukasi [meros qolgan mol-mulklari], janubda omma yofi. Jami: bir yuz o'ttiz olti yarim tanob.

Mazkurni ijarasi har o'n tanobig'a o'n olti botmon g'alla, nisfi [yarmi] bug'doy va jugari [jo'xori]. Mazkur barcha mulklarning bir yuz o'n sakkiz tanobi ahyo [ekiladigan yer] bo'lub, bir yuz sakson to'qqiz botmon g'allani mutavalli olur erkan. Mundin boqiy [qolgan] o'n sakkiz yarim tanobi adro [ekilmaydigan yer] erkan...[2].

Muhammad Aminxon marhumining ahyo [ekiladigan yer] mavqufalari [vaqf yerlari]ning jami 10 957,75 tanob. Mazkurning jami: 17400 botmon g'alla, 8700 botmon bug'doy va 8 700 botmon jo'xori. 3 123 tanob yerning ijara [haqi] 435 tillo. Endi cho'p puli 9 tanga ijarasiga berilgan yerlarning jami 13 681 tanob, 3 sari[3], 64,5 ag'ri[4]. Shirsholi mavzeidagi 1 000 tanob yer Ibodulloh To'rada. Ijarasi 20 botmon jo'xori. Tangasining jami 1013 tillo. Endi bu mazkurlardin jami 8 100 tanob 40 ag'rikim, 15000 tanob yer adro [ekilmaydigan yer] turur. Endi majmui 33 754,5 tanob 24,5 ag'ridur.

Yana vaqf mulklari jumlasidan bir hammom, uning ijarasi [haqi] 40 tillo. Yana do'kon ijaralari [haqi] 15 tillo. Yana 440 tillo, ijarasi [haqi] 44 tillo. Jami 99 tillo.

---

[1] *Solma* – ariq.

[2] Keyingi o'rinlarda mazkur madrasaga tegishli, Xiva xonligi bo'yicha 30 [jami 32] bo'lak yer vaqf mulklari ro'yxati va ularning joylashgan chegaralari, yerlar turlari hamda o'lchami, ijara sharti haqida ma'lumotlar keltiriladi.

[3] *Sari* – og'irlik o'lchovi, 1/40 mann. Mann [botmon] Xiva, Hazorasp, Toshhovuz, Shohobod [Shovot], Kat va boshqa hududlarda 20 kg, Xonqa, Urganch, Qo'ng'irot, Beshariq, Sho'raxon va Shayx Abbos Vali [Shabboz] 40 kg ga teng og'irlik o'lchovi. [*Qarang*: Давидович Э.А. Материалы по метрологии средневековой Средней Азии. – Москва, 1970. – С. 87.]

[4] *Ag'ri* – og'irlik o'lchovi, 62,5 gramm. [*Qarang*: Давидович Э.А. Материалы по метрологии средневековой Средней Азии. – Москва, 1970. – С. 79.]

@tarixchi_kutubxonasiga

Qorixonai Muso To'ra marhumi vaqfi[1]

Mazkur vaqf etilgan mulklar jumlasidin barkashida [o'lchami] 750 tanob yerkim [Abdurahmon mutavalli], Yumri mavzeida joylashgan. Sharqda Kalxonim Beka, shimolda omma yofi [umumiy foydalaniladigan kanal], g'arbda solmayi mushtaraka [sherikchilik asosda foydalaniladigan ariq], ba'zi [ayrim qismi] matrukai Sulton Mahmud Biy marhumi [bilan chegaradosh], janubda yo'l, ba'zi [ayrim qismi] matrukai Sulton Mahmud Biy marhumi. Ijara: har tanobig'a bir botmon g'alla. Mazkurni 370 tanobi ahyo [ekiladigan yer] bo'lib, 370 botmon g'alla [ijara haqi] olinur. Boqiy [qolgan] 380 tanobi adro [ekilmaydigan] bo'lub, hech nimarsa [nima] olinmas ekan. Mazkurning sharti: kulli [barcha] mahsulot uch taqsim etilur. Ba'd az dahyak [1/10 miqdordagi haq olingach], ondin [undan] bir qismini qorixonadagi to'rt qoriga berilur. Va ikki qismini bir martaba qorixonada va ikki martaba madrasada xatm va iftor qilinur.

Tohir Eshon alayhi al-Rohmaning masjidlarini[ng] bayoni[2]

Ul jumladin [shu jumladan] taxminan 30 tanob yer Oqyoqda joylashgan. Sharqdan vaqf bilan mushtaraka solma [sherikchilik asosda foydalaniladigan ariq], shimoldan sharqdagidek chegaradosh, mushtaraka qorim, ba'zi [ayrim qismi] yo'l va yana qorim [bilan chegaralangan], g'arbdan sharqdagidek chegaradosh, janubdan Abdulloh To'ra yofi [kanal]din o'tib mushtaraka solma [sherikchilik asosda foydalaniladigan ariq], ba'zi [ayrim qismi] yofi [kanali] Oqyof. Mazkur yer mutavalli iqroriga ko'ra 35 tanob. Ijara [haqi] har tanobi ikki botmon g'alla. Ushbudin 69,5 botmon g'alla olinur. Mazkurni sharti Iyd va Juma oqshomlarida obi osh etilur.

Yana ul jumladin [shular jumlasidan] taxminan 7 tanob yer Oqyoqda [joylashgan], vaqfnomasi yo'q bo'lg'on. Mutavallisi Ibrohim Xo'janing iqrori bila Bekjon va Pahlavon va Bekjoni digar [shu ismli boshqa shaxs] larning qo'llarida. Ijarasi bir botmon, chirog' yog'i olinur.

Yana, o'lchami 1 tanob yer G'avikda joylashgan, sharqdan Ota Niyoz, shimoldan Usto Bobo va Muhammad Ya'qub, g'arbdan Esh Niyoz, janubdan rohi omma [umumiy yo'l]. Ijara [haqi] 2,5 botmon g'alla olinur.

Yana taxminan chahor yakkam 2 [1,75] tanob Shohobodda [joylashgan], sharqdan Do'sim, shimoldan yof, g'arbdan Nur Muhammad va janubdan yo'l [bilan chegaradosh]. Ijara [haqi] 4 botmon g'alla olinur.

Yana taxminan bir tanob, Shohobodda [joylashgan], sharqdan Qutluqmurod, shimoldan Qutluqmurodi digar [shu ismli boshqa shaxs], g'arbdan,

[1] O'zR MDA, I–125-jamg'arma, 1-ro'yxat, 485-yig'ma jild, 311-varaqning orqasi.
[2] O'zR MDA, I–125-jamg'arma, 1-ro'yxat, 485- yig'ma jild, 77-varaq.

@tarixchi_kutubxonasiga

janubdan Hakim Otaliq [bilan chegaradosh]. Ijara [haqi] 2 botmon g'alla. Mazkur er adro [ekilmaydigan yer].

Yana, o'lchami 10 tanob yer, Toshoyoqli Erniyoz Qoraning qavmida [joylashgan] sharqda Eshmurod mirob, shimolda solma [ariq]din o'tib Ro'zmuhammad, ba'zi [ayrim qismi] Ota Niyoz, ba'zi [ayrim qismi] Bobo, g'arbda ham Bobo, janubda Abdujabbor Shayx bilan chegaradosh. Ijara haqi 20 botmon g'alla olinur.

Yana bir bo'lak yer, Ibrohim Atojon mutavallilarning iqrori bilan, [hisobga olingan va] Sirchalida [joylashgan], vaqfnomasi yo'q bo'lg'on. Muhammad Sharif, Abdullohlarning qo'lida. Ijara [haqi] 15 botmon g'alla olinur.

Majmui: 45,5 tanob. Mazkur jamidin 111 botmon g'alla. Mazkur g'alladin 41,5 botmon g'alla imomtan[ga]. Boqiysi [qolgan] mazkur obi osh. Mutavallisi Ibrohim Xo'jai mazkur.

Yana eshoni mazkurning imomtan[ga tegishli] mablag'i mavqufalari 2120,5 tillo. Mazkurdin 852 tillo 3 tanga ribhi [foydasi] asliga zam bo'lub, alon [hozir] shul mablag'i mazkurg'a yetishgondur, 1331 [milodiy 1912]-yilda, mohi Shavvolda.

Dog'i [yana] muazzintan[ga] mablag'i mavqufalari [vaqf mulklari] 560 tillo [etib belgilangan]. Yana 200 tillo tahoratxona [uchun], 50 tillo bisoti [gilam] masjid [uchun], 33 tillo obi osh [uchun], iftor [uchun] 50 tillo. 20 tillo maktabxona o'tunig'a [sarflash uchun taqsimlangan]. Yana 220 tillo xatmona [uchun mo'ljallangan].

Majmui: 3 253,5 tillo.

3-§. QOZILIK HUJJATLARI

XIX asr oxiri – XX asr boshidagi ijtimoiy masalalar tarixini o'rganishda o'sha davrda faoliyat yuritgan mahalliy sud tizimi vakillari – qozilar faoliyatiga oid hujjatlar tadqiqi katta ahamiyat kasb etadi. Bunday hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining «Toshkent qozikaloni» [I-164] hamda «Ko'kcha dahasi qozisi» [I-364] jamg'armalarida saqlanadi.

1869–1892-yillarda Toshkent shahrining Sebzor dahasi qozisi lavozimida xizmat qilgan Muhammad Muhiddinxo'ja va uning ajdodlari, qarindoshlari faoliyatiga oid hujjatlar «Toshkent qozikaloni» [I-164] jamg'armasida saqlanadi. Hujjatlar davriy jihatdan 1822–1922-yillarni qamrab oladi. Ularning asosiy qismi Muhammad Muhiddinxo'ja tomonidan to'plangan. Jamg'armaning «Toshkent qozikaloni» deb atalishining sababi, undagi qator hujjatlar Muhammad Muhiddinxo'janing otasi, Toshkent shahrining qozikaloni Hakimxo'ja Eshon ibn Norxo'ja faoliyatiga oidligi bilan izohlanadi. Mazkur jamg'armadagi jami 800 dan ortiq hujjat 58 jildga jamlangan bo'lib, ular asosan o'zbek, fors-tojik, qisman rus tilida yozilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

«Ko'kcha dahasi qozisi»ning [I-364] jamg'armasi 91 ta yig'ma jild hamda 3 ta kitobdan iborat bo'lib, ular «Ko'kcha qozisining hukmi va e'lonlari kitobi», «Hukmlar kitobi», «Dalolatnomalar kitobi» deb nomlanadi.

Ushbu jamg'armalardagi hujjatlarda o'sha davrdagi muhim ijtimoiy muammolar, xususan, sag'irlar, ya'ni yetim bolalar haqini rasmiylashtirish masalalari o'rin olgan.

Quyida qozilik faoliyatida yetim bolalar huquqi va merosi bilan bog'liq turli hujjatlar – tilxat, ibro, dalolatnoma, vasiqa kabi hujjatlardan ba'zi namunalar keltiriladi.

t.f.n. SH. Ziyodov,
N. Mirzayev

1. Tilxat

Tilxat[1]. *Fayzi bibi binti Oqbo'taboy o'zining yosh bolalari ehtiyoji uchun marhum erining vaqf qilingan matrukasi hisobidan Eshon Muhiddinxo'ja qozidan 20 so'm pul va «Maslak ul-muttaqiyn»*[2] *kitobini olgani haqida.*

1307-yil 13-ramazon [1890-y. 2-may] [hoshiyada 1890-y. 20-aprel, juma] da marhum Mullo Sayyid Akramning xotini, 11 yoshlik San'atulloh, 9 yoshlik Lutfulloh va 14 yoshlik Zohida bibining onasi Fayzi bibi binti Oqbo'taboy to'g'ri va shar'iy asosda ushbu mazmunda iqror bo'lgan: Men mazkur marhumning barcha qarzlarini uzish uchun vaqf qilingan va Eshon Muhammad Muhiddinxo'ja qozi valadi Hakimxo'ja qozi kalonga topshirilgan matrukasidan mazkur sag'irlarning ehtiyoji uchun, ya'ni ularni boqish va kiyintirishga zarur 20 so'm rus pulini [rubl] mazkur qozi qo'lidan oldim. Shuningdek, mazkur marhumning matrukasidan mazkur Zohida bibi maktabda o'qishi uchun bitta *Maslak ul-muttaqiyn* qo'lyozma kitobini mazkur janob Eshon qozidan oriyatan[3] oldim.

Mazkur Fayzi bibi va uning muarrifi[4] [tanishtiruvchisi] Boboqo'zi oqsoqol valadi Ro'zimuhammadboy xat bilmagani sababli iltimoslariga ko'ra Shoh Sayyidxo'ja Shoh Obidxo'ja o'g'li qo'l qo'ygan.

Guvohlar: Isroilxo'ja Oxundxo'ja o'g'li, Shahobiddinxon Imommuhammadxon o'g'li, Muhammadrasul Sobirboy o'g'li».

---

[1] O'zR MDA, I-164-jamg'arma, 1-ro'yxat, 7-yig'ma jild, 41-varaq, 1890-y.

[2] So'fi Olloyor [vaf. 1720 yoki 1723-y.]ning fors tilidagi she'riy asari, 1699–1700-yilda yozilgan.

[3] Biron narsaning oriyatan berilishining omonatga berilishdan farqi shundaki, omonatga berilgan narsa ishlatilmay saqlanadi va muddati kelganda egasiga topshiriladi. Oriyatan olingan narsani esa egasiga topshirguncha ishlatish va foydalanish mumkin.

[4] Ayol kishi paranjida bo'lgani uchun uni yaxshi taniydigan erkak unga muarrif bo'lgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Matn ostida Shayx Xovand Tohur dahasi qozisi Qozi Sayyidumar mahdum imzosi bor.

Muhr: Qozi Sayyid Umar maxdum ibn domullo Miribodulloh oxund a'lam marhumiy, 1307/1890-y. 4,2 sm (dumaloq);

Vasiqaning 1956-yil 5-oktabrda Nurxo'jayev va Sagdullayeva tarafidan amalga oshirilgan qisqacha ruscha tavsifi alohida kartochkada mavjud.

O'lchami: qog'oz: 19x22,5 sm; matn 12x18 sm; 11 satr.

2. Ibro[1]

Ibro[2]. *Tarnovboshi mahallasida yashovchi Toshxo'ja Ulug'xo'ja Eshon o'g'lining o'zi vakil va vasiy bo'lgan kishilarga tegishli 456 so'm 96 tiyin aqchani Eshon Muhiddinxo'ja qozidan olgani va boshqa hech qanday haq va da'volari yo'qligi haqida.*

1899-yil 13-fevralida [rus sanasi], ya'ni 1317-yilning 15-shavvol oyida Toshkent shahri Sebzor dahasi fuqarosi Tarnovboshi mahallasida yashovchi 42 yoshlik Toshxo'ja Ulug'xo'ja Eshon o'g'li marhum Abdumalikxo'janing beva xotini Asolat bibi Avliyoxo'ja Eshon qizi tarafidan shar'iy vakil sifatida mazkur Asolat bibi nomidan hamda mazkur Abdumalikxo'janing voyaga yetmagan farzandlari – Abdurahimxo'ja, Abdushukurxo'ja, Karomat pocha va Jannat pochaning vasiysi sifatida ular tarafidan o'tgan 1898-yilda Sebzor qozixonasida 516-raqamda bo'lgan vasiylik xati bo'yicha, mazkur 1898-yilda Sebzor qozixonasida 518-raqamda bo'lgan vakolati bo'yicha Toshkent shahrining Shayx Xovand Tohur dahasi qozixonasida o'z ixtiyori bilan hozir bo'lib, shar'iy asosda ushbu mazmunda iqror bo'lgan:

«Men mazkur sag'irlarning haqi bo'lgan va Eshon Muhammad Muhiddinxo'ja qozi valadi Hakimxo'ja qozikalonga muhofazat uchun topshirilgan 456 so'm 96 tiyin aqchani to'laligicha mazkur qozi qo'lidan oldim. Endi men vakil va vasiy bo'lgan kishilarning mazkur qozi zimmasida mazkur mablag' yoki boshqa narsa yuzasidan hech qanday haqlari va da'volari qolmadi.

Guvohlar: Mullo Pirmuhammad muftiy Tursunmuhammad xalifa o'g'li, Alibek Badalmuhammad o'g'li, Muhammadrasul Sobirboy o'g'li».

Matn ostida Shayx Xovand Tohur dahasi qozisi Mullo Eshonxo'ja domullo Muhammad xalifa o'g'lining imzosi bor.

Печать: Судьи Шайхантаурской части г. Ташкента Сырдарьинской области. 3 см (dumaloq).

O'lchami: qog'oz: 24x22 sm; matn 21x18,5 sm; 19 satr.

---

[1] *Ibro* – haqdan kechish.

[2] O'zR MDA, I-164-jamg'arma, 1[a]-ro'yxat, 7-yig'ma jild, 37[a]-varaq, 1899-y.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ibro[1]. *Bibijon bibi binti Mulla Siddiq oxundning vasiy sifatida o'z bolalari Ahmadali va Abdullohga tegishli podshohlik bankining 4800 rus so'midan iborat chekni Eshon Muhammad Muhiddinxo'ja qozi qo'lidan to'la olgani haqidagi iqrori.*

1309-yil 6-sha'bon [1892-y. 6-yanvar]da Mullo Muhammadali oxundning beva xotini, Oxund guzari mahallasida yashovchi 37 yoshlik Bibijon bibi binti Mullo Siddiq oxund o'zining va mazkur Mullo Muhammadalining sag'ir bolalari Ahmadali va Abdullohning barcha ishlarini bajaruvchi shar'iy vasiy sifatida to'g'ri va shar'iy asosda ushbu mazmunda iqror bo'lgan:

«Men mazkur vasiylik asosida Ahmadali va Abdullohning haqi va mulki bo'lgan podshohlik bankining 4800 rus so'mi [rubl]dan iborat 2026-raqamli va 1892-yil 20-fevral sanasiga oid chekni Eshon Muhammad Muhiddinxo'ja qozi valadi Hakimxo'ja qozikalon qo'lidan to'la-to'kis oldim. Bundan so'ng mening va men vasiy bo'lgan kishilarning mazkur chek va boshqa biron narsa yuzasidan Muhammad Muhiddinxo'ja qoziga nisbatan hech qanday haqimiz va da'vomiz yo'q. Iqror bo'luvchini tanishtiruvchilar: Muhammadkarim Hoji valadi Rahimboy Hoji, Hasanboy valadi mazkur Mullo Siddiq oxund. Turkiyda: Bibijon bibi va Muhammadkarim Hoji va Hasanboy mazkurlar xat bilmaganlari sababli iltimoslari bilan Mullo Toshmuhammad Sultonboy o'g'li qo'lim qo'ydim.

Guvohlar: Muhammadtursun Muhammadxalifa o'g'li, Usmonxo'ja Dadaxo'ja o'g'li».

Ko'kcha qozisi Muhammad Umarbek qozi qo'l qo'yib muhr bosgan.

Печать: Народного судьи Кукчинской части гор. Ташкента Сырдарьинской области. 3,5 см (dumaloq).

O'lchami: qog'oz: 25,5x22 sm; matn 17,5x18,5 sm; 14 satr.

Ibro[2]. *Mullo Toji Hakimning o'z xotini Fazilat bibining vakili sifatida Muhiddinxo'ja Eshon qo'lida bo'lgan marhum Sultonboy sarrofning bolalariga tegishli mablag'ni to'la olganligi haqidagi iqrori.*

1896-y. dekabr [1314-yil rajab]da Toshkent shahri Sebzor dahasiga tobe' Xo'jagon mahallasida turuvchi 46 yoshlik Mullo Toji hakim Suyundukboy o'g'li o'z ixtiyori va rizosi bilan Toshkent shahrining Ko'kcha dahasi qozixonasida hozir bo'lib, shar'iy ushbu mazmunda iqror bo'lgan:

«Men marhum Sultonboy sarrofning sag'ir bolalari – Rahmatulloh, Sharofat bibi va Salomat bibilarning vasiyalari bo'lmish o'z xotinim Fazilat bibi Mirtolib hoji qizi tarafidan vakil bo'lib, Sebzor qozisi Muhammad

[1] O'zR MDA, I-164-jamg'arma, 1[a]-ro'yxat, 7-yig'ma jild, 47[a]-varaq, fors/o'zb. 1309/1892-y.
[2] O'zR MDA, I-164-jamg'arma, 1[a]-ro'yxat, 7-yig'ma jild, 52[a] -varaq,1896-y.

@tarixchikutubxonasiga

Muhiddinxo'ja Eshonning ushbu yilda 2072-raqamda bergan guvohnomalari bo'yicha podshohlik bankasida mazkur sag'irlar nomlariga turgan aqchalaridan 333 so'm aqcha keltirib, Sebzor qozixonasida Muhammad Muhiddinxo'ja qozi qo'liga topshirgan edim. Ushbu aqchadan mazkur sag'irlar sarf-xarajatlari uchun mazkur qozi qo'llaridan 33 so'm aqcha olgan edim. Mazkur Rahmatulloh ulg'ayib, mening ishtirokimda 97 so'm aqchani mazkur qozi qo'lidan olib, 2091-raqamda vasiqa berdi.

Yana ushbu aqchalardan 100 so'mini Mirzikrulloh choyfurush Mirabdulloh o'g'li uchun shar'iy ijara tariqasida mazkur Salomat bibi nomiga berdirib, tilidan Sebzor qozixonasida 2113-raqamda vasiqa oldim. Endi mazkur qozi qo'llarida qolgan 103 so'm aqchani mazkur Sharofat bibining tegishli jihozlariga sarf-xarajat qilish uchun oldim. Pullar mazkur vasiya mashvarati [maslahati] bo'yicha sarflanib, bankadan keltirilgan 333 so'mdan mazkur qozi qo'llarida hech narsa qolmadi, deb mazkur vasiyaning vakili Mullo Toji Suyunduk o'g'li qo'lim qo'ydim.

Guvohlar: Nurmuhammad qori Mirzo Muhammad o'g'li, Mullo Inomjon Dodojon o'g'li».

Toshkent shahri Ko'kcha dahasi qozisi Abdurashidxo'ja Ya'qubxo'ja a'lam o'g'li qo'l qo'yib muhr bosgan.

Печать (Muhr):

1) Народного судьи Кукчинской части гор. Ташкента Сырдарьинской области. 3,5 см (dumaloq).

2) Toshkent shahri Ko'kcha dahasi qozisi.

O'lchami: qog'oz: 30,5x22 sm; matn 20x18,5 sm; 17 satr.

Ibro[1]. *Xosiyat bibining vasiy sifatida o'z sag'ira qizlariga tegishli mablag'ni Muhiddinxo'ja Eshon qo'lidan to'la olganligi haqidagi iqrori.*

1897-y. 11-oktabr [1315-yil 27-jumod al-avval]da Yangi shahardagi Chig'atoy mahallalik 31 yoshlik Xosiyat bibi usta Ibrohim qizi o'z ixtiyori bilan qozixonaga kelib, o'z bolalari, Sebzor dahasidagi Chigitboshi mahallalik marhum To'laganboyning sag'ira qizlari – Karomat bibi va Shahodat bibining vasiysi sifatida shar'iy iqror qildi: o'tgan 1895-yil 4-noyabrda Sebzor qozixonasida 2239-raqamli vasiyat xati bo'yicha o'z ixtiyori va rizosi bilan mazkur sag'iralarga tegishli 567 so'm va 65 tiyin mablag'ni Sebzor dahasining hurmatli qozisi Muhammad Muhiddinxo'ja Eshon qozi valadi Hakimxo'ja qozikalon qo'llariga topshirilib, ba'zi odamlarga muomalayi shar'iyaga berilgan edi. Mazkurlarning muddati tamom bo'lgandan so'ng, ushbu 567 so'm 65 tiyin aqchani janob qozi Muhammad Muhiddinxo'ja qo'lidan oldim.

[1] O'zR MDA, I-164-jamg'arma, 1[a]-ro'yxat, 7-yig'ma jild, 61[a]-varaq, 1897-y.

@tarixchi_kutubxonasiga

Endi mazkur qozi zimmasida mazkur sag'iralarimga tegishli va yo men iqror bo'luvchining o'ziga tegishli hech bir narsa qolmadi, deb ushbu vasiya Xosiyat bibini tanishtiruvchi o'z otasi mazkur usta Ibrohimboy temurchi Bobojonboy o'g'lidir. Xosiyat bibi Ibrohimboy qizi qo'lim qo'ydim, mazkur Xosiyat bibining muarrifi Abdullohboy temurchi Mullo Abduhakim o'g'li ham qo'l qo'ygan.

Guvohlar: Mullo Isomuhammad Imommuhammad o'g'li, Nurmuhammad Mirzomuhammad o'g'li».

Toshkent shahri Ko'kcha dahasi qozisi Abdurashidxo'ja Ya'qubxo'ja a'lam o'g'li qo'l qo'yib muhr bosgan.

Печать (Мухр):

1) Народного судьи Кукчинской части гор. Ташкента Сырдарьинской области. 3,5 см (dumaloq);

2) Toshkent shahri Ko'kcha dahasi qozisi.

O'lchami: qog'oz: 27x22 sm; matn 20x18 sm; 17 satr.

3. Dalolatnoma

1899-yilgi 7-raqamli dalolatnoma[1]

Obnazir mahallalik Yo'ldoshjon 18 yoshli va Usmonjon 15 yoshli va Jamilabibi 16 yoshli marhum Komiljonboy yetim bolalarining shar'iy vasiysi o'z amakisi, mazkur mahallalik Mullo Po'ladjon Mullojonboy o'g'lidir. Uning qo'lida mazkur etimlarga tegishli mablag' o'n uch ming sakkiz yuz qirq to'rt so'mdir. Mazkur yetimlarga tegishli ushbu mahallada bir hovli[2] hamda Ko'kcha Oqtepasida bir bo'lak mulklari bor va ulardan daromad yo'q.

Ushbu yilda mazkur vasiyni qozixonag'a hozir qilib so'ralganda mazkur vasiy aytdiki, bo'lib o'tgan Rahimxo'ja qozi zamonida meni chaqirganlarida Yo'ldoshjonni birga olib borib hisob bergan edim, deb. Rahimxo'ja Eshonni qilgan hisob daftari ko'rib chiqildi. Unda vasiy Yo'ldoshjonni qozixonaga hozir qilib aytdiki, Yo'ldoshjon voyaga yetgan. Endi o'z hissasidan pul olib tijorat qilmog'iga izn beriladi.

Yo'ldoshjon holatidan kelib chiqib, uning aqli raso bo'lgani [yoshi katta bo'lgani]ni ko'rib, shunga binoan mazkurni tijorat qilmog'iga izn berildi. Mazkur puldan Yo'ldoshni hissasi besh ming besh yuz o'ttiz olti so'm ekan, mazkur vasiy uning hissasi uchun o'z tilidan 332-raqamdagi vasiqa[3] berdi va qolgan 8719 so'm Usmonjon va Jamilabibiga tegishli ekani [ma'lum qilindi]. Ma'lum bo'lsinki, mazkur bolalarni pullari yuqorida zikr bo'lgan 13844 so'mning foydasi mablag'i to'rt yuz o'n bir so'm [411] qo'shilib, jami 14255

[1] O'zR MDA, I-164-jamg'arma, 1[4]-ro'yxat, 50-yig'ma jild, 5-varaq.

[2] Bu yerda hovli-uy ma'nosida ishlatilgan.

[3] *Vasiqa* – tilxat, hujjat.

@tarixchi_kutubxonasiga

so'mga vasiqa bo'ldi deb [vasiy bayon qildi]. Vasiyga tayin qilindiki, Yo'ldoshjonni tijorat ishini hamisha mulohaza qilib, [undan] xabardor bo'lib, sekin-sekin ishga o'rgatgin deb.

Mazkur vasiy iqrori shar'iy qilib, mazkur tariqada hisob bo'lganini tasdiqlab, mazkur pul meni qo'limda va tasarrufimda turubdi, deb iqror qildi. Agar halok va nobud qilsam, o'z molimdan to'larman, deb Po'lodjon qo'lim qo'ydum.

Guvohlar: Ismoilbek Ibrohimbek o'g'li va Mullo Muhammad Ayyub Muhammad Rahim qori o'g'li».

[Qozi] Mullo Odil Is'hoqboy o'g'li muhrim[ni] bosdim.

1899-yilgi 8-raqamli dalolatnoma[1]

Kallaxona mahallalik Karimbobo ...yoshli va Sabrinniso va Mariyamniso marhum Mullo In'om Hoji yetimlarining shar'iy vasiysi o'z akalari Mullo Abdulqodir qori mazkur In'om Hoji o'g'li. Mazkur yetimlarga tegishli bosh pullari mablag'i bir ming olti yuz to'qson ikki so'm. Mazkur yetimlarga tegishli mazkur mahallada bir hovli va Ayrilish mahallada bir bo'lak yer va Toshkent uyezdiga tobe' Kengsoy mavze'ida bir bo'lak yerlari bor, ulardan daromad yo'q. Mazkur vasiyni qozixonaga hozir qilib so'ralganda vasiy bir [qarzdorlik] vasiqa ko'rsatdi. Ilombobo Hoji mazkur In'om Hoji o'g'li iqror qildiki, mazkur mablag'ga qarzdorman deb [vasiqani tasdiqladi]. O'tgan yilda 1081-raqamda vasiqa bergan ekan, joiz bo'lgan savdo [to'g'risida]. Lekin vasiqani[ng] muddati o'tib ketgan, shu sababli mazkur vasiyga buyurildi. Mazkur pulni madyun [qarzdor]dan undirib podshohlik bankiga qo'ygin, deb [qozi vasiyga buyurgan]. Hodisa shu edi, yozildi. Mazkur Abdulqodir qori qo'lim qo'ydim. 208-raqamga asosan qarzdor vasiyga qarzini to'lashga hukm qilindi.

Guvohlar: Mullo Muhammad Ayyub Mullo Muhammad Rahimqori va Ismoilbek Ibrohimbek o'g'li.

[Qozi]: Mullo Odil Is'hoqboy o'g'li muhrum[ni] bostum.

1899-yilgi 11-raqamli dalolatnoma[2]

Pichoqchi mahallalik Inoyatboy 10 yoshli va Hojarbibi ...yoshli Mullo Ahmadjon yetim bolalarining shar'iy vasiysi Xadichabibi Muhammadiyboy qizi qo'lida mazkur yetimlarga tegishli bosh pullari mablag'i ikki ming uch yuz o'n so'm [bordir]. Mazkur puldan Inoyatga tegishli bir ming uch yuz yigirma sakkiz so'm va Hojarbibiga tegishli to'qqiz yuz to'qson yetti so'm

[1] O'zR MDA, I-164-jamg'arma, 1ª-ro'yxat, 50-yig'ma jild, 5-varaq orqasi.
[2] O'zR MDA, I-364-jamg'arma, 1-ro'yxat, 50-yig'ma jild, 7-varaq.

@tarixchi_kutubxonasiga

50 tiyin bor ekan. Mazkur pullarni vasiy durust o'rinda ishlata olmagani sababli, [bo'lib] o'tgan-yilda Rahimxo'ja Eshon hukm qilgan ekanki, mazkur vasiy pullarni podshohlik bankiga topshirsin, deb [buyurgan]. Shu sababdan, tegishli oqsoqolga [buyurib], 118-raqamli qog'oz yozildi. Mazkur hukmni o'rniga kelturmoqlik [amalga oshirish] uchun. Hodisa shu edi, yozildi. Mazkur qog'ozni oqibati [natijasi] ma'lum bo'lmaganligi sababidan 1901-yili 5-martda yana tegishli [mazkur] oqsoqolga 118-raqamli qog'oz [xat] yozildiki, tezlik bilan ishning natijasini ma'lum qilgin, deb.

Guvohi: Ismoilbek [Ibrohimbek o'g'li].

Qozi: Mullo Odil Is'hoqboy o'g'li.

1899-yilgi 12-raqamli dalolatnoma[1]

Chaqichmon [Saqichmon] mahallalik marhum Rasul Muhammadning yetim o'g'li Ergash 14 yoshli, mazkur yetimning vasiysi o'z onasi Durmohbibi G'aniboy qizidir. Mazkur yetimga tegishli pul uch yuz o'ttuz so'm, mazkur mahalladagi sotilgan hovlidan tekkan hissasidir. Va yana mazkur yetimga tegishli Qorasuv mavze'ida bir qit'a [parcha] mulki bor, yarmi bedazor va [qolgan] yarmi daraxtzor [dan tashkil topgan] ekan. Mazkur vasiy pullardan uch yuz so'mni Chuqur Ko'kcha mahallalik Muqim Kunji Tursunboy o'g'liga berib, undan vasiqa [xat] qilib olgan ekan. Qolgan o'ttiz so'm pul vasiyning qo'lida ekan hamda mazkur mulk mazkur vasiyning tasarrufida [bo'lib turgan] ekan. Hodisa shu erdi, yozildi. Mazkur vasiy xat [yozishni] bilmaganligi uchun [o'rniga] Iso Muhammad Imom Muhammad o'g'li qo'l qo'ygan [ekan].

Guvohlar: Mullo Mirzo Rahmatboy o'g'li.

Qozi: Mullo Odil Is'hoqboy o'g'li.

4. Vasiqa

Qozilik hujjatlari turlaridan biri bo'lgan quyidagi vasiqa o'ziga xos mazmunga ega. Chunki bu vasiqa oqsoqol tomonidan muhrlangan bo'lib, unda o'sha davrning nufuzli kishilaridan biri, Sebzor dahasi qozisi Muhiddinxo'jaga tegishli mulklarni tasdiqlovchi vasiqalarning mahalliy boshqaruv tizimi vakillari tomonidan qayta ko'rilib, ularning haqiqiy ekanligi tasdiqlanganligini namoyon etadi. Bu hol qozilar tomonidan tasdiqlangan vasiqalar zaruriyat tug'ilganda mahalliy boshqaruv tizimi vakillari – oqsoqollar tomonidan qayta ko'rilib, tasdiqlanganligidan dalolat beradi.

Vasiqa[2]. *Toshkent hokimi farmoyishiga binoan Sebzor oqsoqoli guvohlar ishtirokida Mulla Muhammad Muhiddinxo'ja valadi marhum qozikalon Muhammad*

[1] O'zR MDA, I-364-jamg'arma, 1-ro'yxat, 50-yig'ma jild, 7-varaq orqasi.

[2] O'zR MDA, I-164-jamg'arma, 1-ro'yxat, 6-yig'ma jild, 6[ob]-varaqlar, o'zb. 1883-y.

@tarixchi_kutubxonasiga

Hakimxo'janing Toshkent shahriga tobe' Qizilqo'rg'onning Tikanlik mozor mavzesidagi yerlarining chegaralari, ularning haqiqatdan o'z mulki ekanligini tasdiqlovchi vasiqalarni tekshirgani haqida tuzilgan hujjat. Sebzor oqsoqoli nomidan yozilgan bo'lib, ostiga uning muhri bosilgan.

1883-yil 25-dekabrda Sebzor oqsoqoli quyidagi guvohlar: Avliyoxo'ja ibn Shoh Yunusxo'ja, Usmonxo'ja Dadaxo'ja o'g'li, Mirsoatboy Usmonboy o'g'li va Soyibnazar Eshnazar o'g'li bilan Mulla Muhammad Muhiddinxo'ja valadi marhum qozikalon Muhammad Hakimxo'janing Toshkent shahriga tobe' Qizilqo'rg'onning Tikanlik mozor mavzesidagi yerlariga borib, ushbu vasiqani yozgan.

1-bo'lak yer: mazkur mavzedagi Labzah arig'i sohilida. Qibla tarafi hammasi katta yo'lga tutashgan va 1149 sarjin; janub tarafi hammasi katta yo'lga tutashgan va 1108 sarjin; shimol tarafi hammasi Gavriil Mixaylovich Belyakov mulkiga tutashgan va 382 sarjin; sharqiy tarafi ba'zisi Abduraufxo'ja valadi Abdurahimxo'ja mulkiga tutashgan va 105 sarjin.

2-bo'lak yer: mazkur mavzeda joylashgan bo'lib, alohida qo'rg'oncha, imorat va daraxtlari bor. Qibla tarafi hammasi Solor arig'iga tutashgan va 297 sarjin; sharq tarafi hammasi katta yo'lga tutashgan va 240 sarjin; janub tarafi Solor arig'ining xos yo'liga tutashgan va 103 sarjin; shimol tarafi hammasi Solor arig'ining to'g'oniga boradigan yo'lga tutashgan va 169 sarjin.

3-bo'lak yer: mazkur mavzeda joylashgan. Qibla tarafi Hazrat Miyon Rofe' valadi Hazrat Kalon mulkiga tutashgan va 197 sarjin; shimol tarafi hammasi katta yo'lga tutashgan va 169 sarjin; sharqiy tarafi ba'zisi Zayniddinxo'ja valadi Rahmatullohxo'ja mulkiga tutashgan va 169 sarjin, ba'zisi Ganchtepa va Orqako'cha mahallasi odamlari mulkiga tutashgan va 73 sarjin; janub tarafi hammasi mazkur mahalla odamlari mulkiga tutashgan va 122 sarjin.

4-bo'lak yer: mazkur mavzeda joylashgan. Shimol tarafi hammasi katta yo'lga tutashgan va 410 sarjin; sharq tarafi ba'zisi Oyxo'ja Eshon matrukasiga tutashgan va 150 sarjin, ba'zisi orqa ko'cha mahallasi odamlari mulkiga tutashgan va 21 sarjin; janub tarafi hammasi mazkur mahalla odamlari mulkiga tutashgan va 220 sarjin; qibla tarafi hammasi mazkur mahalla odamlari mulkiga tutashgan va 200 sarjin.

Yuqoridagi yerlar tekshirilib, guvohlar xabaridan ma'lum bo'ldiki, hammasi Muhammad Muhiddinxo'ja Eshonning xos mulklari ekan. Mazkur yerlarga hech kimning daxli va da'vosi yo'q ekan. Muhiddinxo'janing qo'lida ko'p xat va vasiqalari bor ekan. Jumladan: 1-vasiqa 1081 [1670]-yilga oid, ya'ni tuzilganiga 220 yil bo'lgan; 2-vasiqa 1150 [1737]-yilga oid, ya'ni tuzilganiga 151 yil bo'lgan; 3-vasiqa 1210 [1795]-yilga oid, ya'ni tuzilganiga 91 yil bo'lgan; 4-vasiqa 1289 [1872]-yilga oid, ya'ni tuzilganiga 13 yil bo'lgan

@tarixchi_kutubxonasiga

ekan. Mazkur yerda boshqa hech bir odamning haqi va da'vosi yo'q. Uni qanday tasarruf qilish mazkur mulk egasi ixtiyoridadir. Mazkur yerlarning bahosi 1500 so'mdir.

«Tahqiq qilib, manga ma'lum bo'lgan hodisani yozib, guvohnoma qilib Sebzor oqsoqoli muhrim bosdim».

Muhr: Toshkent Sebzor oqsoqoli Muhammad Subhon. 1,6x2 sm (sakkizburchak).

O'lchami (matn 6^{a-b}-varaqning chap taraf yarmiga bitilgan bo'lib, varaqning qolgan yarmiga ruscha tarjimasi yozilgan): v. 6^a: qog'oz 35,5x22 sm; matn 32x9,5 sm; 23 satr; v. 6^b: matn 31x10 sm; 23 satr.

Buxoro amirligida soliqqa oid hujjatlar

O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining «Buxoro amirligi qushbegisi devonxonasi» [I-126] jamg'armasida amirlikning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir hujjatlar saqlanadi. Qushbegi devonxonasi jamg'armasidagi soliqqa oid hujjatlar yuridik kuchga ega bo'lib, ularning ko'pchiligida amir, qozi, rais, parvonachi va miroxo'r kabi mulozimlarning muhri bor. Bu hujjatlar umumiy nom bilan «ariza» deb nomlangani bois amlokdorlarning amir yoki qushbegiga hisoboti, qozilarning amlokdorlar xatti-harakati haqidagi hisobotlari, aholining shikoyati, qozilarning amlokdorlar ustidan shikoyati va taftishchilarning hisobotlari tashkil etadi. Hujjatlar vazifasiga ko'ra muboraknoma, ariza, sanod, poygir, ro'yxat, ma'lumotnoma va tilxatlarni tashkil etadi. O'quvchilar uchun amir Olimxonning taxtga o'tirish munosabati bilan bir yilga Aton viloyati aholisini 10% miqdorda xiroj solig'ini kamaytirgani, Rushon, Shug'non va Voxon ma'muriyatining amir Abdulahadxonning 3 yilga turli soliqlardan ozod qilganligi uchun minnatdorchiligi va turli sabablarga ko'ra aholi qiynalib qolgan yillari xazina hisobidan berilgan foizsiz qarzlarni qaytarish to'g'risida hujjatlardan namunalar havola qilinmoqda.

t.f.n. I. SH. Azizov

Buxoro amiri Olimxonning taxtga o'tirganligi munosabati bilan bir yilga xaroj miqdorini 10% ga kamaytirish haqidagi muboraknomasi[1]

U [Alloh] tirikdir!

Imoratpanoh izzat va aqidat ogoh Nusratulloh xo'ja biy, saltanatimiz marhamatidan sarafroz bo'lib, biling! Allohga shukronalar bo'lsinki, Ilohiy inoyat, arkoni davlat va fuqarolarimizning xursandchiligi bo'lmish, bizga meros saltanat sohibi bo'lganimiz munosabati bilan, fuqarolarimizning oso-

[1] O'zR MDA. I-126-jamg'arma, 1-ro'yxat, 768-yig'ma jild. 1-varaq.

@tarixchi_kitobxonasiga

yishtaligi va beva-bechoralarning rivojini o'ylab, xaroji sultoniyni narxi aniq bo'lgan har bir mann g'allaning, har ahbosidan 1/10 tangadan [ya'ni 10 foiz] mehribonlik qilib [kamaytirdik] kam qildik. Bu oliy marhamatimiz bilan har bir mann g'alladan 1/10 tangadan kam qilganimizning xabarini Aton viloyatining fuqarolariga yetkazing, va [bizning haqimizga] duo oling. Biz bu oliy muboraknomamizda Aton viloyatining qozi-raisiga farmon berdik, fuqarolarga rahm qilib, duo olsin va shariatga hech ham tajovuz qilmasin. Assalomu Alaykum! 1329-hijriy [1911-yil] sana.

Tuxmpulini yig'ish va xazinaga yuborish yuzasidan amlokdorlarning qushbegiga bergan arizasi[1]

... Imoratpanoh g'ulomingiz o'tgan yili oliy mavloyimning sharofatga to'la davlatidan narxning qimmatlashganligi sababli bu viloyatning bechora va fuqarolariga ikki ming mann bug'doyni sakson ikki tangadan ekin va urug'lik uchun berib, oliy zotning muborak haqqiga duo olingan edi. Mazkur imoratpanoh g'ulomingiz olinmay qolgan pulni fuqarolardan yig'ib olib, jami bir lak-u o'ttiz to'qqiz ming pulni muborizatpanoh Muhammad-g'oziybek qorovulbegining o'g'li janobi oliy mavloyimning boshqaruvlariga yuborib, duo qilib, fuqaro va ra'oyodan duo olgan bu rizojo'y va duogo'y g'ulom duogo'ylik taomili yuzasidan janobi oliy mavloyim va sohibimning muqaddas ma'lumotlariga bandalik arizamni bildirdim. Ilohim hazrat mavloyimning muborak soyalari hamma duogo'ylar va g'ulomlarning boshlariga, xususan bu nodon, notavon ojizning boshiga nur sochsin va mustahkam bo'lib, salomat bo'ling. Omiyn. Attaqsiyr. 1325-hijriy [1907-yil] sana.

Vag'onza tumani ma'muriyatining Vag'onza tumani uchun markaziy xazinadan berilgan oltmish ming tanga miqdoridagi foizsiz qarzni qaytarish uchun qushbegidan ruxsat so'rab yozilgan ariza[2]

Oliy hazratim!

...O'z vaqtida janob oliy hazratimga xizmat yuzasidan arz qilib, marhamat va mehribonliklaridan va oliy ijozatlari bilan tuxmpuli va govpuli uchun oltmish ming tanga mablag'ni Vag'onza tumani fuqarolariga berib, iqror xati olgan edik, hozir yig'ib oladigan vaqt bo'ldi, fuqarolarning iqror xatlarini mazkur tumanning amlokdori muborizatpanoh Sayyidbek miroxo'rga yuborsak, qo'limizdagi ishdirkim sanab, yig'ib, oliy davlatxo-

[1] O'zR MDA. I-126-jamg'arma, 1-ro'yxat, 618-yig'ma jild, 3-varaq.
[2] O'zR MDA. I-126-jamg'arma, 1-ro'yxat, 618-yig'ma jild, 1-varaq.

@tarixchi_kutubxonasiga

naga topshirsa yoki mening o'zim odam buyurib, yig'dirib, davlatxonaga topshirsammi, deb sharafingizga xizmatimni taklif qilaman. Ilohim hamisha badavlat va feruzmand bo'lib, janobi oliyning davlatlarida salomat bo'ling. Assalomu alaykum. Attaqsiyr. 1325-hijriy sana, 23-rajab oyi, shanba kuni.

Arizaning ijro etilishiga doir javob xati ariza so'nggida berilgan.

Ushbu xatrasid xohishimga ko'ra yozildi, Vag'onza amlokdori muborizatpanoh Sayyidbek miroxo'rga xat qilib, vasiqalarni yuboring, vasiqalar asosida yig'ib, oliy davlatxonaga topshirsin.

Muhr: Mirzo Abdulloh to'qsoba.

Baljuvon viloyati ma'murlarining zakotni o'z vaqtida to'lagan chorvadorlarga amir tomonidan berilgan sovg'alarni qabul qilib, chorvadorlarga tarqatilganligi to'g'risida amirga berilgan hisoboti[1]

... Tasadduq bo'layin o'n sakkizta oddiy to'n, o'ttizta jun matoli to'n, o'ttiz beshta farangi to'n, yetmishta atlas to'n, qirqta qo'qonning ipak to'ni, oltmishta yarim ipak to'n, oltmishta rus atlas to'ni, oltmishta chit to'n, oltmish adad doka, yuz adad bosh kiyim, jami uch yuz-u yetmish uch adad to'n bo'lib, oliy mavloyimning sharofatga to'la davlatlaridan zakot beradigan aholi kiyib, janobi oliy mavloyimni duo qildilar. ... tasadduq bo'layin imoratpanoh xizmatchingiz elliktadan qirqtagacha zakot beradiganlarga oddiy ichki to'n va doka bosh kiyim, qirqtadan o'ttiztagacha zakot beradiganlarga farangi ichki to'n va doka bosh kiyim, o'ttiztadan yigirmatagacha zakot beradiganlarga rus atlas to'ni, yigirmatadan o'n beshtagacha zakot beradiganlarga jun to'qimali matodan to'n berib, janob oliy mavloyimning muborak haqlariga duo oldik, hazrat mavloyimga ma'lum bo'lsin, deb xizmatchilik va bandachilik yuzasidan ariza berdim. Ilohim sayyidim va janob oliy mavloyimning muborak soyalari jamiki g'ulomlar va duogo'ylar boshiga nur sochsin va mustahkam salomatlik tilayman. Omiyn. Attaqsiyr.

Rushon, Shug'non va Voxon viloyatlari ma'murlari amir Abdulahadxonning ushbu viloyatlarni 3 yillik xarojdan ozod qilganligi uchun aholi nomidan minnatdorchilik bildirib yozgan xati[2]

...Janob oliy mavloyimning shohona muboraknomalarini vazoratpanoh Ostonqulbek biy Hisor qushbegisi xat qoldirib, Abbosali mirzoboshi Hiso-

[1] O'zR MDA. I-126-jamg'arma, 1-ro'yxat, 633-yig'ma jild. 9-varaq.

[2] O'zR MDA. I-126-jamg'arma, 1-ro'yxat, 770-yig'ma jild. 3-varaq.

@tarixchi_kutubxonasiga

riy shogirdpesha hamrohligida yuborgan edilarki, Muharram oyining oltisida yakshanba kuni keltirib yetkazdilar, [men] g'ulomingiz odob bilan ikki qo'limga oldim, o'pdim va ikki ko'zimga surdim, boshimga toj qildim, ta'zim va bandalik hurmatimni bajo keltirdim. Hazratimning shohona muboraknoma va tabarruk dastxatlari, oliy marhamat va mehribonliklari biz nodon g'ulomlariga baxt nasib qilgan ekanki, Shug'non viloyatining qonuniy taomillari yuzasidan arz qilgan edingiz.

Xudo bergan oliy davlatlarida mazkur viloyatning xaroji va fuqarolariga qonuniy joriy qilingan qo'rg'onga sarflanadigan o'tinni berish, qor kurash, axlat chiqarish, hokimning xatini oqsoqollarga piyoda yetkazish kabi ishlardan uch yilga ozod qildingiz, mazkur muddatdan bir yil o'tib, ikki yil-u bir kun o'tguncha mazkur taomillar yuzasidan bu yerning fuqarolariga daxl qilinmasin, fuqarolar osoyishta bo'lib, duo qilishsin [deyilgan ekan]. Bu kabi ishlarga pul berib, mardikor sifatida ishlatishsin, gap tegadigan ish bo'lmasin, Rossiya davlati biz Pomirni besh yillik soliqdan ozod qilgan edik, bizni xotirjam qiling, albatta, narsa talab qilmangizki, bu masalada juda gaplar ko'p [deyilgan ekan]. Siz bergan o'n ming tangadan mirzo qorovulbegiga xarajatlari uchun ming tangasini berdik, inshoalloh yana yuboramiz. ...Hazratimning bu marhamat va mehribonliklari boshimizni ko'kka yetkazdi. Beadad duolar qilib, janobi oliyning Xudo bergan davlatlaridan viloyatning uch yillik [soliqdan] kechib yuborishlari va mavloyimning otalarcha marhamatlarini eshitib, oliy amrga muvofiq daf'atan har qishloqning mavzelarining kattalari va arbob-u oqsoqollaridan uch-to'rt nafariga xabar berib, oliy marhamatni jamiki fuqarolarga eshittirib, har masala yuzasidan bir yil davomida g'ulomlarga mehribonlik qilgan bo'lsalar, bundan ularning hammalariga tanga berib, hamma fuqarolarni rozi va xursand qilib, barcha ishlardan bir yil davomida fuqarolar tilidan xat olib, jami fuqaro va ra'oyo oliy hazratimning mehribonliklari va marhamatlaridan boshlari ko'kka yetib, xursandliklaridan tamomila yig'i bilan duo qildilarki, «Makoni yo'q Xudoga», xususan, bu g'ulomlar hamd aytib, kecha-yu kunduz hazratimning aziz boshlarining salomatligini tilab, oliy marhamatlari bo'lgan oliy muboraknomaning rizoligi yo'lida boshqa murabbiy va pushti panohimiz yo'qdir, dedilar. Sohibimiz, janob oliy hazratim olomonning tirik va o'ligidan [xabardor]dirlar. Ilohiy janobi oliy hazratimning davlatlari mustahkam va barqaror bo'lsin. G'ulomlik, nodonlik va rizojo'ylik yuzasidan arz qildik. Yana ham hazratim sohibi ixtiyordirlar, ko'proq bilurlar! Omiyn va Robbi al-olamiyn. At-taqsiyr.

@tarixchi_kutubxonasiga

III BOB. MAHALLIY MATBUOT MATERIALLARI

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda davriy matbuotning vujudga kelishi mintaqa ijtimoiy-madaniy hayotidagi muhim voqelik bo'ldi. Zero, davriy matbuot sahifalarida ilk bor o'lkada sodir bo'layotgan siyosiy, iqtisodiy jarayonlar hamda jamiyat hayotidagi ijtimoiy-madaniy muammolar yoritila boshlandi.

O'lkada 1870-yilda tashkil etilgan «Turkestanskiye vedomosti» gazetasi Turkiston general-gubernatorligining rasmiy organi edi. Mahalliy tilda nashr etilgan ilk bosma rasmiy nashr – «Turkiston viloyatining gazeti» esa dastlab unga ilova sifatida chiqarilgan. 1883-yildan mustaqil gazeta maqomini olgan. «Turkiston viloyatining gazeti» muntazam ravishda 1917-yilgacha chop etilgan.

XX asr boshida Turkistonda ilk milliy gazeta va jurnallarning nashr qilinishi bevosita jadid taraqqiyparvarlarining nomi bilan bog'liq edi. O'lkada ilk milliy matbuot namunalari, xususan, «Taraqqiy» (1906-yil, Toshkent), «Tujjor (1907-yil, Toshkent), «Samarqand» (1913-yil, Samarqand) gazetalari, «Oyna» jurnali (1913–1915-yillar, Samarqand), «Sadoyi Turkiston» (1914–1915-yillar, Toshkent), «Sadoyi Farg'ona» (1914–1915-yillar, Qo'qon), «Buxoroyi sharif» (1912–1913-yillar, Buxoro), «Turon» (1912–1913-yillar, Buxoro) gazetalari rasmiy hukumatning tazyiqlari sababli qisqa fursatlarda yopib qo'yilgan. Ularning faoliyatida o'z zamonasining ilg'or fikrli ziyolilari – Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Muzaffarov [Rauf Muzaffarzoda], Abdulhamid Sulaymonov [Cho'lpon], Obidjon Mahmudov, Is'hoqxon Ibrat, Sadriddin Ayniy, Olloyor, Niyoziy Rajabzoda, Hoji Muin kabi o'nlab ma'rifatparvarlar muhim o'rin tutganlar.

Milliy matbuot nashrlarining aksariyati ma'rifatparvarlik maslagida bo'lib, jamiyatda kechayotgan jarayonlarga tanqidiy yondashuv, milliy taraqqiyot g'oyalarini xalqqa singdirish singari ezgu niyatlar mualliflarning asosiy maqsadi ekanligi gazetalar sahifalarida o'rin olgan maqolalar mazmunida yaqqol aks etgan.

Milliy matbuotda, eng avvalo, an'anaviy ijtimoiy-madaniy hayotning turli jabhalarida uchragan kamchiliklar qattiq tanqid ostiga olingan, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy taraqqiyot bilan bog'liq masalalar qizg'in muhokama qilingan. Taraqqiyparvar ziyolilar milliy matbuot vositasida o'lkadagi mavjud ta'lim tizimini isloh qilish, iqtisodiy hayotda ro'y berayotgan yangilanishlarni tahlil etish, jamiyatda

@tarixchi_kutubxonasiga

uchragan ijtimoiy muammolarni yoritish, madaniyat sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni targ'ib qilish, umuman olganda, o'lka taraqqiyoti borasidagi fikr-mulohazalarini bildirib, yo'l-yo'riq ko'rsatishga harakat qilganlar. Aynan shu sababli davriy matbuot materiallari o'sha davrdagi ijtimoiy-madaniy muammolarga turli xil qarashlarni aks ettiruvchi tarixiy manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, boshqa manbalarda, xususan, rasmiy hukumat arxivi hujjatlari yoki mahalliy manbalarda ushbu masalalar bu qadar keng aks ettirilmagan.

Quyida o'quvchilar e'tiboriga milliy matbuot sahifalaridan o'rin olgan maqolalar havola etilmoqda. XX asr boshida o'zbek publitsistikasi endigina shakllanayotgan davrda matbuot sahifalarida turli iboralar, kundalik muloqot so'zlarining keng qo'llanilishi, arab, fors va rus tillaridan kirib kelgan so'zlarning buzib yoki aynan ishlatilishi, shuningdek, matnlar arab alifbosida yozilgani bois tinish belgilarining deyarli qo'yilmaganligi yaqqol namoyon bo'ladi. Bu so'zlarga imkon qadar izoh berilsa-da, ko'p hollarda asl holida qoldirildi.

t.f.d., prof. D.H. Ziyoyeva, t.f.d., prof. S.B. Shodmonova,
t.f.d., prof. Sh. Hayitov

1-§. TURKISTON MILLIY MATBUOTI MATERIALLARI

Eski barakotlik savdogarchilik

Qadim zamonda ahli savdogarlar to'rt qism bo'lur ekanlar: eski savdogarlar, yangi savdogarlar, merosiy savdogarlar, xizmatchi savdogar, ya'ni, foyda sherik – birovning pulini ishlatib, foydasini bo'lib oladurg'on savdogar. Ushbulardan ba'zilari Troyskiy, Moskov, Stambul va uzoq-yaqin yerlarga mol olib borub, olib kelub turadurg'on, ba'zilari g'alla va har xil mollarni naqdga olub, ombor qilub, yana naqdg'a va qisqa muddatlik nasiyag'a sotar edilar. Ba'zilari qutidorlik qilib, naqd va nasiyag'a olub-sotub va bir necha mirzo saqlab, naqd va nasiyalarni terub, tijorat silsilasini tutub turar edilar. Ba'zilari otasidan qolgan dastmoya va amlokka sohib bo'lub, boybachchalik birla yerlarini boshlig'iga borub, o'zi yaxshi otlar va qo'shlar saqlab umr o'tkarurlar edi. Bulardan boshqa do'kondor, kosib, ahli talaba va kazo – hammasi yuqorida aytilgan to'rt qism savdogarlar madaniyatig'a yetushmoqni orzu qilur edilar va lekin ushbu ahli kosiblar hamma vaqt mazkur to'rt sinf savdogarni bir pirg'a o'xshatub, e'zoz qilub yurar edilar. Va ittifoqan bir ish boshqa tushsa, ... va bir hovli olsa, ushbu yuqoridagi to'rt sinf savdogarning qaysilariga borub: «Boybachcha, ellikta tuting!», deb to'rt-besh yuz so'm qarz so'rsa, boylar sanduqlarini ochub, do'kondorlarning hojatlari uchun chiqorub berur edilar. Uch-besh oydan so'ng qarzdorlar ik-

@tarixchi_laqabxonasiga

ki-uch taqsim qilib berur edilar. Lekin biror tiyin foiz degan narsa yo'q edi, balki qarzi hasana tariqa ... berur edilar.

Mirolimboy, Olimjonhoji, Xonboboboy va amsollari shu atrofdagi odamlar ko'p edilar. Bovujud az ro'yi hurmat, o'rtalarida bir nafarlarini bosh qilishub qo'yar edilarki, mabodo mahalla va bozor orasida biror talashlik bo'lsa, do'kondor savdogarni qaysisida ayb bo'lsa, ul janoblar so'kub, urushib, sulhga kelturub edilar. Demakki, sulhkorni hurmat va ta'zim yuzasidan so'zlarini qabul qilib, har holda sukut qilub, insof tarafidan chiqolmay va o'tolmay qolurlar edi. Shu af'ali hasana xosiyatidan har ishda barakat ham ko'b edi.

Faqat yigirma besh yildan buyon Farg'onada uch-to'rt xil qoida chiqdi, har ish bog'landi. Muruvvatli insoniyat degan narsa, manfaati shaxsiya degan xudbinlikka mabdil bo'ldi. Do'kondor kosiblar ham rasvo bo'ldi. Tanazzil, tanazzil, ag'darma, ag'darma – degan so'zlar chiqdi. Tamom olamg'a xijolatlikdan boshqa so'z yo'q. Ya'ni, ul vaqtlarda «Laxtin, Vikto'r» degan firmalar tanzilga pul va nasiyag'a mol oladurg'on va sotadurg'onlar chiqdi. Agar boshlarig'a ish tushsa, boylarg'a yugurib keladurg'on ahli kasabalarga protsent birla uzoq va'daga nasiya mol sotmoqg'a boshladilar. Va yuqoridagi kor qilingan saroynishin qutidor boylardan mazkur Vikto'r va Laxtinlar naqd aqchani protsentga qarz ola boshladilar.

Uch-to'rt yil o'tib Laxtin, Vikto'rlar sinub, bechora saroynishin qutidorlarni ham barobar sindirub, laxta-laxta qildilar. Va kichik ahli kasabalar ham katta ishni boshqara olmasdan sinub... qochub ketmoqg'a boshladilar. Va boylarg'a Vikto'r, Laxtinlar ham bizdan qirq foizdan foyda oldingizlar, emdi insof qilinglar deb sinub, yo'q o'ldilar. Va bizning barokatlik mansab qutidor boylarimiz ham, voqean bizning pulimiz Laxtin birla Vikto'rning nasiyasi ekan, bizlar omonat nikohdor ekanmiz, haq joyig'a qaror topdi, deb biram-biram do'kon olushub, do'kondorliqg'a chiqa boshladilar. Va ba'zilari arzon yerlar olub, dehqonchilik qilmoqqa aylanub ketdilar. Va ba'zilari, mo'ysafid to'g'rilari esa olamdan o'tib ketdilar.

Yana bir necha vaqt musulmonlarimizdan ma'nilik boylardan oz qolgandan keyin, musulmonlarimizning soddaliklari tamom olamg'a va firmalarga ma'lum bo'ldi. Va har foydalik ishda ham musulmonlarimizda ixtiroz qilub qoldilar. Faqat bu holda istifoda qilub, Vikto'r va Laxtinlarga aqchasi tushub kuymagan yahudiylar birla moskovliklar ish boshlab ketdilar. Ba'd musulmonlarimizning dastmoyasidan Vikto'r va Laxtinlar ajratub rasvo qilganda, yahudiylar bir tiyin ham kuydirmadilar. Balki biz musulmonlarda ham yaxshiroq ish biladurg'on ekanlarin, har ishda bizdan muqaddam tijoratda obro' topdilar. Va bir necha vaqtlar yahudiy boylari orqasidan yursak shoyad biror ish toparmiz deb, yahudiylar maslahati birla ish qilib yurildi. Bora-bora poyezd kelub, firmalarning kattalari kelub, tijorat ishlariga xo'b zehn solub

@tarixiy_kutubxonasiga

ko'rdilarki, Farg'ona muzofotining tamom yeri musulmonlardan ekan. Paxta, pilla va boshqa ziroat ishlari ko'p ekan. Ko'mir va qiymatig'a qaramasdan vekselg'a qo'l qo'yadiganlar, mol, yer va sotarlari turganlari ham musulmonlarning moli ekan. Bu holni ko'rgan banklar kelub, kredit ochilub, kredit nomida aqcha bermoqg'a boshladilar. Bu bankni ko'rib, firmalar «biz bankdan qolishmaymiz», deb har yerda savdo shu'balari ochdilar. Bir odamg'a bank 5000 so'm kredit ochkan bo'lsa, firmalar 10000 so'm kredit ochdilar. Biz musulmonlar bu pulni bankdan oldik va mollarni firmalardan oldik. Yana qishloqlarga nasiyaga paxtadan bermoqg'a sotmoq kerak deb, kuz sezon deb va'dag'a sotdilar. Paxta vaqtida nasiyadan aqcha undurmoq sentabr, o'ktabrda bo'ladur deb, go'yo yilning o'ng-so'ng kelishig'a qaramasdan, g'ofilona g'urur ketdilar. Ba'zi paxtachi firmalarni doverennosti bildik, falonchini falon qishloqg'a raft va omadi deb, firmadan mol olib, paxtaga berub, nomimizni «chistajib» qo'yib, daf'at paxtaga 5000 so'm aqcha olub, chistajiy bo'ldik, daftarlar qildik. Jaydari mirzolar qilduk. Bankdan uchotka olgan pulni osnovnoy kapital deb bilub, chistojiy bo'lub, firmadan nasiyag'a olgan mollarni zapasnoy kapital deb bilub, aqcha qilib, muvaqqat sanduqg'a solub qo'yub, yaxshi ot-arobalar olub, qimmatbaho imoratlar qilib, bid'at isrof to'ylar qilub, uloq, karnay, musiqoniy degan o'yunlar yasab va ortib qolgan aqchalarga uzoq yerlardan tanobi besh yuz-olti yuz so'mlik yer olub, bank uchun obro'yi bo'lsin deb, rastadan 100 so'm ijara unadurg'on do'konni 5000 so'mga olub, ushbu ravishda yetti–sakkiz yil chaqmoqni o'tidek, yalt-yult qildik, bizlar yalturagan sari banklar atrof-javonibg'a karnay chaldilar. Aqcha kerak bo'lsa, Farg'onaga kel va yuringlar deb, bir necha kunda 25 firma, 10 bank, 5–10 komissionniy konturalar ochilib, foizni olti va gohi yetti, sakkiz, o'n, o'n bir qilishib, o'n–yigirma tarafdan aqchani torta-tortaverdilar. Bir tarafdan paxtachi firmalar paxtani nihoyatda Moskov boft qilub olub, nabodiyaga bir nav' eskidag'i degan qoida joriy qilishub, 10 tiyindan necha so'mga qadar kamayturub olub, xariddan furushi arzonlashub qoldi.

Bir tarafdan g'isht ham katta mol bo'lub, usloviya taomillikda o'ng ming puddan yuz ming pudlarga qadar ovons [avans] – qishki aqchaga sotub qo'yub, vaqtida yetkurilmasdan, chigitdan 10–15 tiyin ziyoda bo'lsa ham ustimizdan xarid qilub, firma-zovudchilik o'z ishlarini bitirub, so'ngra paxtachi, gazborchi g'ishtlardan siz o'n oxirinda rascho't va otcho't [hisob-kitob] so'rashib, bechora yoltiroq, qolturoq bank chistojiydan aqcha olmoqda: faqat zapasno'y va osnovnuy kapitaldan [zaxira va asosiy sarmoya] ayrilib, yana ustig'a bir necha o'nlarcha ming so'm qarzdor bo'lib, savdogarlarni sinduradilar. Bu singan savdogarlarning xotiri uchun iltimos veksel bergan ham, odamlar ham baloyi a'ziymga qolub, birgalashub sinub, xullas, olam xarob bo'lmoqg'a boshladi. Ne uchunki, bul vaqt musulmonlar o'z shariatlariga qaramasdan, bank va firmalar faqat nizomg'a to'g'ri kelturub, ishlari-

@tarixchi_kutubxonasiga

ni o'zlari xohlaganlaricha qilub, qancha insofsizlik qila bilsalar, qildilar. Va bir-birlarini talaganlaricha taladilar.

Bu sho'rlik johil va nodon savdogar, nokaslar elektrik shu'lasi kabi yaltirab yo'q bo'lib, bir oz kundan so'ng koshki 20–25 tiyindan bitishub, bir-ikki yildan so'ng dvoynoy ko'piyasi bo'lub ko'krak kerub yurolsalar ekan!!!

Ul kungi veksel protes bo'la boshlasa, shul kundan boshlab bechora sis nuqlar bila xo'ra maslahatchilar biz-la maslahat, maslahat deb yurib, bir necha yuz so'mlar maslahat oshig'a ketub, balki sindurgan firmalar aqchasini olguncha o'rtag'a kirishgan bila xo'ralar yeb, tamom qilurlar. Bechora savdogar va dehqonlar ko'karib, unub-o'sub, yashasunlar!!!

Ko'p daf'alar o'zlarini atrofda ekishgan qator tol-teraklarini kesub sotub, hojatlarini bitirmasdan shaharga kelub, haris va firibgar paxtachilardan aqcha olub, shahar samovarxonalarida yeb, yashab, nima va nasaf aqchani qishloqig'a sarf qilib bitirub, paxta o'smay, unmay qolgan yillarda yerni o'zini sotub, qarzig'a berurlar. Lekin daraxtlarini sotub hojatlarini bitirsalar ajab emas ediki, yerni[ng] o'zi sotilmasa...

Obidjon Mahmudov,
«Sadoyi Farg'ona». 1914-yil, 23-may, 22-son.

Turkistonda tijorat va ziroat

Zotan bu yillarda Turkistonda tijorat va ziroat ishlari tanazzul qilib, keyin ketib turmoqdadir. Bu yillardagi muvaffaqiyatsizliklarimizning birinchi sababi «nasiya»dur. Kichkina savdogarlardan boshlab Moskov, Varshava firmalariga qadar shul mudhish nasiya balosiga mubtalo bo'lmishlar. Chunonchi, Moskov boylari xorij mamlakat banklaridan 3–4 foiz ila ko'p aqcha olurlar va millionlar sarf etib, katta-katta fabrika va zavodlar ocharlar. Bunday korxonalar har yerda va har shaharda vujudga kelib, ortib-ko'payib turmoqdadur. Ashyo va mol esa kerak miqdordan ko'p ortiq ishlanib, xalqning hojatlaridan ortib qolur. Endi Moskov boylari, ya'ni korxona sohiblari shul mollarni tezroq sotmoq va sotib qarzlaridan qutulmoqning harakatini qilurlar. Bizning Turkiston savdogarlari 5–6 ming so'm aqcha ila Moskovga borsalar, Moskov firmalari 10–15 ming so'mni nasiya qilib, 15–20 ming so'mlik mol berib yuborurlar. Bizning savdogarlarimiz ul mollarni Moskovdan 10 foiz ila olib kelib, qimmat baho ila [nasiyaga] sotarlar. Agar nasiyaga bermasalar, ishlari to'xtalib qolur. Chunki, naqd aqchaga mushtariy topilmaydur. Shu tariqa nasiya rishtasi telefon chabg'i kabi Moskovdan boshlab Turkistonning shahar va quriyalariga [qishloqlariga] qadar cho'zilur...

Nasiya unmay qoluvining sababi xalqning faqirligidan kelur. Xalqning faqir va kambag'al bo'lishining sababi ziroat ishiga ahamiyat bermaslikla-

@tarixchi_kutubxonasiga

ridur. Bu yillarda dehqonchilik butun ahamiyatdan tushub boradir. Aholimizning ko'prog'i, balki hammasi ilmsiz va aqchasiz kuylarincha savdogar bo'lishni xohladilar.

Xalqimiz va boylarimiz ushbu kundan e'tiboran ziroat ishiga ahamiyat berib, dehqonchilik va bog'dorchilik ishlarini taraqqiy qildirsalar, suvsiz yerlarga ariq qazib, suvlar chiqarsalar, eskirgan yerlarni yangilab, yangi asbob va mashinalar iqtisod kuchiga molik bo'lishimiz muqarrardir. Chunki bu taqdirda xalqimiz nasiya va qarzdan qutulib, topgan aqchalarining hammasi o'z cho'ntaklariga kirib turar edi. Ziroat ishlarimiz taraqqiy qilib, iqtisodiy quvvatlarga molik bo'lsak, ohista-ohista sanoat ishlarini ham o'z qo'limizga olurmiz.

Y.N., «Sadoyi Turkiston». 1914-yil, 11-may, 9-son.

Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik

Muhtaram muharrir afandi! ...Butun Rusiyada manbotlik jihatdan vatanimiz Turkistonning ilgarida ekanligi hammaga ma'lumdir. Va hatto, butun dunyoda manbotlikning birinchisi Amerika bo'lsa, bizning Turkiston ham ikkinchi songadur. Vatanimizning tuprog'i shuncha manbot bo'lsa ham o'zimiz har vaqt umrimizni bank eshiklari ostida sudralib o'tkazamiz, har kuni gazetalarda falonchi sindi, falonchi vekseli foiz bo'ldi, do'koni pechatlandi, degonga o'xshash qo'rqinchlik xabarlarni o'qib eshitmoqda va ko'rib bilmoqda bo'lsak ham, ammo ibrat ololmaymiz, sababini hech tekshirmaymiz, yolg'iz bozor kasod deb o'taveramiz. Ammo bozorning kasod ekonligini tekshirmaymiz. Bunday taassuflik xabarlarni eshitgan amerikaliklar ta'jub qilsalar kerakkim, shunday manbot tuproqlik xalqi nimaga bundog', deb. Ammo, ul amerikaliklar ekin asboblari ishlatib, biz o'n kishi o'n kunda qilgan ishimizni ular ikki kishi bilan o'n soatda qilmoqdadurlar. Ularda o'rish, sochish, chopish, terish, ekish hammasi oson, mashina bilan tez tayyor bo'ladur. Ular o'sha mashina bilan vaqtida tez yig'ishtirib olurlar. Biz bo'lsak, yerimizni to'plab tashiguncha yomg'ir, qor yog'ib qolsa, dalada tamom qoldiramiz. Shu oson asboblar Rusiyani[ng] butun dehqonlarida bordur. Bizlar ham shu ekin asboblaridan olib ishlatsak, og'ir mehnatlarimiz yengillanur edi.

Bu to'g'rida «Oyna», «Sadoi Farg'ona»lar mumkin bo'lsa qishloq tilida ko'proq yozib anglatsalar. Bor-yo'qdan iborat yoshlarimiz ham bo'sh vaqtlarida qishloqlarga chiqqanlarida, og'izlariga papiros solib, onglamagan xalqga safsata sotmay, shundog' foydali narsalardan bildirsalar va tushuntursalar, xalq turmushini yengillik tarafiga necha odim otlatgan bo'lur edilar.

@tarixchi_kutubxonasiga

....O'tgan maqolamda dehqon qarindoshlarimizdan hech birlarining ziroat mashinalari ishlatmaganliklarini yozgan edim.

Maqolani yozgandan so'ng qishloqlarda yurib, o'zim ko'p dehqonlar bilan ko'rishib, fikr almashdim. Endi ularning fikrlarini o'ylagan millatparvar kishi ko'zlaridan qonlik yoshlarni oqizmay mumkin emas. Ular aytadiki, «Durust, ziroat mashinalari foydalik ekan, ammo pul kerak. Bizning qo'limizda bo'lsa naqd tayyor pul yo'qdur». Men aytdim, ekin vaqtida pul bo'lur yoki pul o'rniga ekkan ekinlardan olib borib bersangiz ham mumkinmi?

Ular shu taassuflik javobini berdilar.

Paxta eksak g'o'zasigacha, bug'doy eksak somonigacha qarzimiz badaliga xo'jayinlarimiz – boylarga olib borib beramiz. Yana ikki ekinga boradurg'on bo'lib, boylardan pul olib, qish bo'yi bola-chaqalarimiz ila ming mashaqqat va ming qiyinchilik ila ovqat o'tkazamiz. Qish chiqqandan keyin bola-chaqalarimiz bila[n] ishga tushamiz. Bolalarimiz o'qishdan qoladilar, mardikor olsak, yana sarf ziyoda bo'ladur. Pul yo'q. Noiloj bolalarimizning maktabdan qolishiga rizo bo'lib bo'lsa ham, bolalarimizni dalaga olib chiqib, qo'sh haydash, g'o'za chopish, chigit ekish, shunga o'xshash qiyin ishlarga qo'yamiz. Chigitga pul deb borsak, xo'jayinlar so'kib har turli haqoratlar ila yig'im-terim vaqtida 100 so'm qilib berishga qirq-ellik so'm beradurlar. ... Yana bu ahvolning ustiga bir to'y-mo'y bo'lib qolsa, tamom, och-yalang'och, yer-suvlarimiz boylar qo'lida, ko'chalarda talonchi [tilanchi] gado bo'lib qolurmiz, qani bunga chora, dedilar.

Bularni o'ylaganda ko'zlardan tamom qonlik yoshlar to'kmoqga to'g'ri keladur. Ey taraqqiyparvar yoshlar! Siz ham yozsangizlar, har vaqt bechora, mazlum dehqonlarni puldorlardan qullik, yesirlikdan qutuldurmoq choralari to'g'risinda yozinglar. Hammadan bul kerak...

Cho'lpon. «Sadoyi Farg'ona». 1914-yil, 7-may, 13-son; 26-sentabr, 65-son.

Sanoya moliyamiz yoxud faoliyati iqtisodiya

Afandilar, kichik maqolamizda aytgan edikki, dunyoda kun ko'rmoq, hayot o'tkazmoq va istiqboli ta'lim qilmoq uchun biz musulmonlarga tijorat va ziroat, sanoatga ahamiyat va ...g'ayrat qilmoqdan boshqa iloj yo'qdur. Haqiqatdan biz – musulmonlar uchun tijorat va iqtisodga ahamiyat bermoq – nazariyadan amaliyotga chiqazmoq uchun sa'y va taraddudimiz yo'qdur. Asl masalaning haqli jihatlari shudur. Biz kun bo'lar amaliyotga boshlarmiz. Nazariyotdan chiqmagan bo'lurmiz. Faqat ish vaqtidan o'tgan bo'lur. Hasratlar, fig'onlar ul vaqtda sud qilmas. Gazetchilarning so'zlarini ul vaqt-

@tarixchi_kutubxonasiga

da taqdirda qilurmiz. Lekin foyda bermas. Biz buxoriylar, balkim umumturkistonliklar vaqti bilan qancha ilmga, sinoatga molik holda asarlari ko'rilmoqdadur, oz-moz nazargohimizda ko'ringanlari so'nmoqda va uchmoqda bo'lgan shamdek yalt-yalt etmoqdadur. Har narsa bizga bobolarimizdan qolgan bo'lsa, bizning qo'limizdan tortishlar bo'lib, kundan kun mahv bo'lmoq holatidadurmiz.

Necha yuz yillar ul bir sinoat va bir ilmni olgan, ko'rgan bo'lsak, shu holatcha qoldirurmiz. Islohga va yangisiga g'ayrat qilmaymiz. Afandilar, zamonlar boshqa bo'lur, ehtiyoj o'zgarur ekan, deb fikr va xayolimizga keltirmaymiz. San'atimiz, hunarimiz zamon ehtiyojiga muvofiq bo'lmoqdan chiqibdur. Shu jihatdan qo'limizdagi narsalar barobar-barobar chiqmoqdadur.

Bir kun bo'lurki, bu ketishimiz bilan madaniyat hozir kundan kun ko'r, cho'loq bo'lub qolurmiz... Masalan, bugun Buxoromizning eski sanoat va hunarlari barobar qo'limizdan chiqmoqda. Va bu sanoatlarimizdan rag'bat va iltifot kundan kun ozaymoqdur. Holbuki, biz ul sanoatlar bilan minglarcha sana yashadik va hayot qurdik, maishatimizni ta'min qildik. Ajabkim, sabab bo'ldiki, u kunimizga kifoya qilgon va yaragon sanoatimiz bugun yaroqsiz, kifoyatsiz. Albatta, bunda bir sabab bordur. Shubhasizki, birinchi sabab, ul sanoatlarimizning rivojiga va taraqqiysiga va ularning zamoniga muvofiq suratda islohotga g'ayrat va ijtihod qilmagonimizdandur. Qo'l qazimasi, oyoq qazimasi sa'y, ya'ni harakat qilmoq lozimligini qat'iyan ko'rmoqda. Bizni shundog' qildi, deb qarab o'tirmoqqa shubha solmoqdadur.

Yer yuzindagi davlatlarning siyosat va tadbirlari va muhoraba qilmoqlari, minglarcha odamlarning halok bo'lib ketmoqlari – hammasi aqcha uchundir. Ko'z oldimizda Yaponiya ila Rusiya muhorabasi... aqcha uchundir. Aqchasi to'lmagan bir millat emasdur...

Balkim mudhish tog'larga, dengizlarga xulosa butun tabiat va tijorat hukmrondur. Biz musulmonlar nima uchun aqchaga bu qadar e'tiborsizlik qilamiz va hosil bo'ladurgon tariqlariga tavsil qilamiz. Agar o'zimizning bahomizni va salomat istiqbolimizni, madaniy millatlardek bo'lmog'imizni xohlasak, albatta, bizga ham aqcha lozimdur. Aqcha topmoq uchun qon to'kmoq yo jon bermoq bilan bo'lmas. Balki faoliyati iqtisod degan g'oyat mashrua va g'oyat muborak bir tarix bordur.

Iqtisod ma'no lug'ati bir narsani holati e'tiborda tutmoqdan iboratdur. Ma'no umumiysi tijorat va ziroatning daraja kamoliga yetkuzmoqdur. Taraqqiyot to'sig'i solib yubormoqdur, u kun yer yuzida qancha madaniy va sohibi iqtidor millatlar va davlatlar mavjuddurlar. Hammalari iqtisodni rioya qilmoqdan matarqiy va olamgir bo'lganlar. Bu iqtisod bugungi kunda bir katta olamga ilm bo'lib, bu kalimaning ifoda qildiga ma'noga vasoit berilibdur.

@tarixchi_kutubxonasiga

Olami tijoratda ilmlik voqif bo'lmagan zot millionlarcha aqcha va sarovatga molik bo'lsa ham, ish ko'ra bilmas, ojiz bo'lur...

...Chunki ilm iqtisodi sarovat aqchaning nechuk hosil bo'lmog'ini mendayin qavoid va sharoit ilan kunda tahsin bo'linmoq xususiyatlaridan bahs qiladur. Ovro'pa Rossiyadan qancha fabrika va muncha mashinalar va minglarcha asbob va sanoatlar ko'rarsiz. Bularning hammasi iqtisodning chetdan amalga kelgan narsalardur. Yevropa davlatlari bugun ikki ilmning soyasiga yorishurlar. Biri siyosiy, ikkinchi[si] iqtisodiydur. Siyosatlar ham iqtisodga bog'liqdur. Iqtisodimiz siyosat yo'liga ketmas. Har davlatlar bir boshqa davlatning siyosat ishiga maddoh-la qilmoqni xohlasa, ibtido iqtisod masalasidan boshlab aytadurki, kerak falon va falon imtiyozni menga bersang va falon tijorat muqovalasang, imzolasang, oz bir vaqtga mag'lub iqtisodidur, kechib mag'lub siyosiy ham bo'lodur. Yana bunga o'xshash bir necha misollar bor. Masalan, ingliz davlati bundan bir necha asr muqaddam bir kichkina hukumat ediki, iqtisodi g'arbda hamma davlatlardan uzoq bir yerda baliqchilik bilan umrini o'tkazar edi. To yangi ilm va hunar, yana iqtisodning bir ketin yuvosh-yuvosh oqsay g'arbdan bosh ko'tarib, besh qit'a marta miskuncha istiqbol ilmini barpo qilib, olam siyosatiga bir katta rol o'ynadurgon bo'ldi. Osiyo va Afrikaning nihoyat oliy yerlariga sohib va molik bo'lib, bir necha saltanatlarni mahv va nobud qildi. Bu taraqqiy va tolesi nimadan bo'ldi? Albatta, iqtisoddan bo'ldi. Yana Eron davlati barqaror bunday ul dunyoga birinchi davlatman deb, o'z podshohlarini shahanshoh va falon olam deb, iftixor etar edilar. Besh ming yillik katta bir saltanat edi. Endi beilmlikdan va behunarlikdan va sanoatsizlikdan bir o'likka o'xshaydur. Buning ham sababi... iqtisodga ahamiyat bermaganligidandur. Chunki, ota-bobolarining ulkan qilichlariga orqa bo'lub, iqtisodga rioya qilmasdan g'aflat qilib yurganlariga bugun bu falokatlarga giriftor bo'ldilar. Tijorat va kitoblar ochib, tamom kerakli narsalarni o'z qo'llari bilan yasab, ma'danlar, temir yo'llari, kopitollari, banklar, shirkatning imtiyozini boshqalarga bermasdan, o'zlari qilar edilar. Albatta buncha tuproqlar va suvlar va joridlari o'zlariga qolib, bugun ham avvalgidek olam siyosatiga bir yaxshi maqom tutar edilar. Nima nafga Ovro'padan iqtisod endi orqada qolgandurlar. Alloh taolo o'zi chora qilsun.

Rajabzoda Niyoziy.
«Sadoyi Farg'ona», 1914-yil, 2-sentabr, 66-son.

Buxoroda bozorning ahamiyati

Buxoroni[ng] bozori xususida yozibdurlarki, Buxoro bozori hamma ishlarga payvasta bo'lub, hattoki vaqtni ham bozordin hisob qilodurlar. Chunonchi, biror odam bir bo'lgon hodisa qaysi vaqtda edi, degonda javob

@tarixchi_kutubxonasiga

berodurlarki, ikki bozor yoki uch bozor ilgari, deb. Va yana jami hukumat tarafidin elom [e'lon] qilinadurgon ishlar ham bozorda bo'lodur. Biror buyruq bo'lsa, yoki pista yig'moq va moliyot to'lash vaqti va yo biror xursandlik xabar, bayram va shunga o'xshash nimarsalarni ham Buxoro chinovniklari jarchi orqalik bozorda elom qilodurlar. Va avval bozorlarda xalqni[ng] ko'z oldida gunohkor odamlar qatl qilinub, nasiya mollarin va qarz aqchalar muomalasi ham bozorda bo'lub va ham keyingi kelodurgon bozorg'acha nonga, molga, go'shtga, yog'ga, tuxumga va ham boshqa nimarsalarga baho miqdor bo'lur ekon. Bozor kunlar amlokdorlarga nihoyatda xursandlik kun bo'lsa kerak, na uchunkim, o'shal kunlarda fuqarolar mulkdor eshiklariga o'zlarini bahs-u janjol [janjal], fitna va fasod ishlari birlan soat sakkizdin to kunduzi soat birg'acha amlokdorlarni[ng] hovlisida jang-u jadallar va da'volar so'rolib, ishtroflar hukm bo'lub... xullas kalom, bozor kunlari jangu jadal ko'b bo'lub, har qaysi Buxoro chinovnikig'a yemish topilur ekon. Masalan, birov birovni urub yoki birov-birovni chofonini yirtib, qarz bergan odam o'zini[ng] qarzdor odamini tutub olib kelib, amlokdorlarga va qozilarga daromad bo'lmaydurgon bozor kuni kam bo'lur ekon. Va yana bozor kunlari savdogarlarga ham zarur kun bo'lub, mollarini naqd va nasiyaga o'tkuzub va ham mollar xarid qilib, savdogarlar xarid qilsalar, aqcha to'lamasdin, oni muzdig'a mol to'lab, shul sabab mollarini narxini nihoyatda qimmat baho qo'yadurlar. Ammo har xil ajnos, chunonchi, pista, birinj [guruch], paxtalarga faqat aqcha to'lab va boshqa nimarsalarni nasiyaga, yarmig'a aqcha to'lab, yarmig'a mol to'lab, bir qancha foyda qilodurlar ekanlar. Mollarni nasiyaga bergon vaqtda bahosini va'da qilgon muhlatga qarab, baho qo'yur ekon. Chunonchi, bir to'f tikni naqdg'a o'ttuz besh–qirq tangaga sotsalar, qarzg'a berg'on vaqtda biror foydasig'a sotur ekonlar. Bir oyg'a sotsalar qirq tanga, olti oyg'a sakson tanga, bir yilg'a yuz tanga, xaridorni[ng] ahvolig'a qarab sotur ekonlar. Aksari fuqarolarda aqcha kamligidin mollarni nasiyaga oladurlar va ham fuqarolar molni nasiyaga olmoqlikka ko'b rag'bat qilodurlar. Ammo savdogarlari xaridorga nasiyaga mol bergon vaqtda kafil so'roydurlar. Ammo doimo kafil topmaqlik mushkul bo'lodur, na uchunkim, har qaysi kafil bo'lodurgon odam amlokdor tarafidin bir ishtrofga qolmoyluk, deb xavf qilodur. Shul sababdin shul tariqa xaridorlarga miroxo'r kafil bo'lodur. Agarda nasiya olgan xaridor aqchasini o'z vaqtida topib bermasa, ul vaqtda miroxo'r ul odamni aqchasini topib berguncha ijarasig'a ishlatadur. Buxoroda ishtrof [shtraf] uchun aqcha bermaqlik lozim bo'lodur, ammo shari'atda ishtraf aqcha olmoqlik man bo'lgon sababidin va ham har qaysi odam aqcha to'g'risig'a qattiq bo'lgon sababdin, Buxoro chinovniklari ishtrof aqchani o'rnig'a mol olmoqlikka rozi bo'lodur. Qarz qildukka biror ishtrof tushgon odam nasiyaga bir to'f tikni sakson tangaga olgon bo'lsa, ul tikni amlokdor yoki qozi o'ttiz besh tangadin ortuqqa olmay, bir soatdin yoki ikki soatdin

@ilmiy_kutubxonaga

keyin, yoki keyingi bozorda ul olgon bir to'f tikni qozi yoki amlokdor o'shal sotgon savdogarga yuborib, ul tikni qirq tangaga sotadur. Ul savdogar darhol yana bir shundog' baloki, uchragan xaridorga sotadur. Shul tariqa birlan yigirma yoki o'ttuz to'f tik yoki chit savdogarni[ng] do'konidin amlokdorni[ng] qo'lig'a tushub, andin yana do'kong'a qaytib kelib, sarson bo'lub yurodur. Buxoro bozorida bozor kunlarida qo'lida to'f chit va tik olib yurgon ko'b odamlarni ko'rub, ani sababini bilmasdin Buxoro bozorida savdo yaxshi, deb fikr qilodurlar. Agar shul tariqa fikr qilgon odam bozor tamom bo'lguncha qarab tursa ko'rar erdiki, bozordin bir yoki ikki to'f xaridorda qolib, qolgon to'flar amlokdorni[ng] yoki qozini[ng] uyida parda orqasig'a tikilotur erdi. Va yana ajoyibroqki, Buxoro savdogarlarida xaridorni chaqirmoq ul tarafda tursun, mollarni maqtamoq rasmi ham yo'q. Rusiya savdogari xaridor kelgonda molini maqtab, ko'p harakat birlan xaridorni aldasa, Buxoro savdogarlari maqtamasdin, bu harakat Rusiya savdogaridin ko'ra o'xshotib aldaydur. Mazkur savdogarlarni chaqirmaslikka sabab, taxtaga oladurgon xaridor ham yo'q. Agar nasiyaga aldab chaqirsalar, ul vaqtda ul nasiyachi xaridorlaridin do'konlarida mollarini bir soatg'a qo'ymay, olib ketsalar kerak.

Buxoroda bozor kunlari bozor kech boshlanib, ayni bozor soat o'ndin o'n ikkig'acha qizib, o'shal fursatda bozorg'a hamma joylardin odamlar kelib, tiqilib, shovqun, to'palong [to'polon] bo'lub, ba'zi vaqtlarda qarz bergon odamlar o'zlarini qarzdorlarini bozorda topib, shovqun qilib yoki bir jang-u jadal bo'lub qolib, shovqun bo'lodur. Xususan, betartiblik va janjolg'a dallollar sabab bo'lodur. Na uchunkim, ularsiz hech bir mol olmoqlik, sotmaqlikni[ng] iloji yo'qdur. Dallollar besh-o'n tangadin olib, savdogar birlan savdo qila boshlab, necha marotaba tillari chiqib, qancha qasamlar ichib, mol sotadurgon odamni[ng] qo'lini olib, bir tanga-ikki tangadin oshib chiqib, oxiriga zo'rlikdek qilib, savdogarga biy puli [patta] berodur. Ul savdogar biy pulini olgan zamon savdogar birlan xaridorni[ng] bir-birovini qo'l qoqishturub, ishni bitirub, ikki tarafdin bir yoki ikki tangadin olib, yaqin joyda qarab o'lturgon Buxoro chinovnigiga ul aqchani olib, ohista kelib, yana ikki tarafdin ham uch-to'rt tangadin nizomdin tashqari aqchani oladur. Bul orada mazkur dallol yana boshqa joyda shul tariqa bir-ikki savdogarni ishini bitiradur...

Bozor boshlangon soatdin boshlab to tamom bo'lguncha amlokdorlarni xizmatkorlari qo'llarida uzun qizil tayog' birlan yurub, o'tun ... va shunga o'xshash bozorg'a sotmaqlikka olib kelgon nimarsalardin boj olodurlar. Naroyvonchada podshohlik tarozu[si] bo'lub, Buxoro chinovnigi ul tarozug'a olib kelgon un, arpa va shunga o'xshosh nimarsalarni tortib, tortgoni uchun har qaysi o'n qadoq nimarsadin bir qadoqni olodurlar emish.

«Turkiston viloyatining gazeti»,
1910-yil, 21-noyabr, 87-son.

@tarixchi_kutubxonasiga

Tuproq nadur?

Tuproqlarni yangidan yaxshi qilmoq uchun hozirda juda ko'p choralar bordir. Ziroat xususida bo'lgan kitoblarni mutolaa qilsalar, yerning o'stirish quvvatini ortdurmoq uchun tuproqqa solinaturgan narsalar bordir. Qishloqlarda go'ng ila ham yerni isloh qilmoq odatdir. Go'ng yonib tuproq holiga aylansa, yerning eng yaxshi ajri bo'ladur.

Rizqimizni va maishatimizni ta'min qilish, bazm uchun ziroat kasbidan boshqa hech mumkin emas. Chunki bizda hunar-ma'rifat yo'q. Hozirgi kunda dunyoda yashamoq uchun bori ikki yo'l bor: biri ziroat va ikkinchisi ilm va hunar ila ulug' martabalar hosil qilib yashamoqdir.

Chunki, avvallarda bizning qo'limizda vayron holda yotib, oz bahoga sotilgan bog'larimiz hozirda eng mukammal bog' bo'lib, egalarini boyitmoqdadur. Qo'limizda ilm va hunar bo'lmagani kabi, dunyodan o'zimizga bo'lib berilgan hissalarimizni ham yaxshi isloh qilmaymiz.

Rauf Muzaffarzoda,
«Sadoyi Turkiston». 1914-yil, 16-son.

Turkistonda savdogarlik

Bizda zo'r sarmoyali savdogarlar oz bo'lib, ozgina sarmoyali savdogarlar nihoyatda ko'pdir. Bizning savdogarlarning bankrotlik ko'chasiga tushuvlariga birinchi sabab bo'lgan narsa – banklardur. Bu vaqtdan 15–20 yillar ilgari banklar yangi ochilgan vaqtlarda bank ila ish qilguvchilar oz bo'lganidan bank mutasaddilari savdogarlarimizga murojaat qilib, «Bank ochishimizdan asl maqsadimiz savdogarlarga kerak vaqtda aqcha berish va aqchasi bekor turgan kishilarning aqchalarini olib, ijaraga saqlab berishdur. Kelingiz, bizning bankimiz ila olish-berish qilingiz», deganlarida ul vaqtdagi ongli savdogarlarimiz: «Xudo ko'rsatmasin, bu qanday mumkin? Olmaymiz ham bermaymiz», deb javob qilur edilar. Ko'p vaqt o'tmasdan, bankka kamol atona ila yopisha boshladilar.

Boshqa millat savdogarlari ham bank puli ila ish yuriturlar. Faqat ular avvalo qiladigan ishlaridan chiqadigan foydani hisob qilurlar, 10 protsent ila bankdan pul olganlarida 20 protsent foyda chiqmog'iga ko'zlari aniq yetgandan so'ngragina olurlar, bizning savdogarlarimiz esa hisob-misob qilib o'tirmas.

Kasaldan tuzalamiz, deb salomatlik uchun eng lozim bo'lgan qonini sulukka [zulukka] so'rdirgan odamdek, savdogarlarimiz ham foyda ko'raman deb ming mashaqqat ila topgan foydalarini banklarga so'rdirib turibdilar. Boshqa millat savdogarlari banklar vositasila zo'r-zo'r ishlar vujudga chiqa-

@tarixchi_kutubxonasiga

rib turgan zamonlarida bizning savdogarlar banklar vositasi ila yaxshigina ishlardan ajrab turibdilar. Buning sababi o'qimaganligimiz, savdo ilmini yaxshi bilmaganligimiz.

«Sadoyi Turkiston», 1914-yil, 13-iyun, 18-son.

Oh, bonkalar bizni barbod etdi

– Shundaymi?
– Albatta yo'q.
– Bas, nima bizni barbod etdi?
– Nozoalla, hisobsizlik. To'g'risi, aql va tarbiyasizlik bizni barbod etdi.

Ayb bonkada yo'q, bizda. Chunki boshqa millatlar bonkalar sababi ila obod bo'lur. Davlati va mulki ortur. Ammo biz, zohiran bonkalar sababi ila barbod va faqir bo'larmiz. Avvalgi bor mulkimiz qo'ldan ketarki, muning asl sababi bonka emas, o'zimizni[ng] tarbiyasizligimiz va donishsizligimizni bilmaganimiz, tijorat ishi va ahli zamonadan bexabarligimizdan, xulosa, jaholat va nodonligimizdandur.

Bonka sababi ila yahudiy, armani va boshqalar davlatlik bo'lub, biz bo'lsa, bil'aks davlatimizdan, mulk va obro'yimizdan ayrilarmiz. Chunonchi, qo'ldagi bor nimarsamizni to'y va azog'a, behuda odatlarg'a sarf etarmiz. Ko'rpamizga qarab oyoq uzatmaymiz. Qarz ila imorat, to'y, fisq va boylik qilarmiz. Isrof qilarmiz. Oxiri «Xasr al-dunyo va-l oxira»[1] bo'lurmiz. Bu sabab ila faqirlik darajasinda tushub, so'ngra bonkadan dodxohlik qilarmiz. Bir karra diqqat qilinsun, bir yahudiy, bir o'rus, bir armani hech vaqt to'y degan balog'a besh ming so'm, hatto, bir-ikki ming so'm sarf qilgani eshitilmaydur. Biz bo'lsa, yigirma ming so'mlab sarf etarmiz. Koshki bu pul o'zimizniki bo'lsa ediki, yalg'uz isrof gunohi ila qutularduk. Yo'q, balki biz haq-ul-abddan[2] qo'rqaturgon musulmonlar boshqalar aqchasini barbod etib, oxiratg'a qarzi dunyog'a kulfat ortdurarmiz. Mundan noma'qul harakot, albatta, shar'an va aqlan gunohi azimdur, devonalikdur. Ho'qanddan janob M.D.R.M. afandi yozadurlarki, bonkadan foydalik aqcha olmoq durustmi? Va biz, musulmonlar nima uchun bonkadan pul olib sinarmiz? Avvalgi savol uchun javob berarmizki, shar'an bonkadan pul qarz olmoq to'g'risinda mo'tabar «Sho'ro» majallasinda tafsili ilan ko'b yozildi. Xohlasangiz, «Sho'ro»dan o'qub ogoh bo'larsiz va ul siz uchun hozirjavobdur. Ikkinchi savolg'a qisqalik ila shuni yozarmiz. Masalan, Abdullaboy bazzozni o'zidan besh ming so'm sarmoyasi bor. Do'konidan 500 so'mlik molni olti oy va'da ila nasiya sotdi. Albatta, bu sotilgan molg'a aqlan 50 so'm foyda

[1] *Xasr al-dunyo va-l oxira* – dunyo va oxiratni barbod etish.
[2] *Haq-ul-abd* – bandaning haqi.

@tarixchi_kutubxonasiga

qo'yub ediki, yuzda o'n yuzasidan bo'lur. Endi do'kondagi mol oz edi, yana mol olmoq uchun aqcha yo'q. Kanturdan nasiya olsa, avvalda naqdg'a nisbatan 7–8 hissa qimmat qilib berur. Masalan, 400 so'mlik molni olti oyg'a 470 so'm, balki ziyoda qilib berar hamda yaxshi molg'a yomonni qo'shar. Agarda Abdullaboy bazzoz bonkag'a sotilgan moli uchun olgan vekselini qo'ysa, olti oyda bonka 500 so'm naqd berib, faqat 15 yo 20 so'mgina foyda saxlaydurki, bizni bazzozimiz ushbu pulg'a 4–5 kanturdan chekkasig'a chertib, siylab molni arzon narxga olur. Ana bonka hikmati va kerakligi shundan iboratdur va ham shunday o'lchav ila muomala qilinsa, har kim bonkadan foyda ko'rar. Yo'q, bonka uni uchun emaski, bir pulsiz do'kon o'lturub va bonka pulini nasiya qilib, to'y va ziyofat va imorat va sharoratg'a, ko'bkari va azog'a sarf qilib yo bonkadan qarz olib, haj borib, dunyog'a baobro' va oxiratg'a qarz yuklab uchun emasdur. Muhtaram M.D.R.M. afandi! Mundan boshqa yana sinmoqimizg'a sabab tariyqi tijoratni, molni olish va sotish joyini bilmaganimiz, paxta va boshqa g'alla to'g'risinda Amriqo, Afriqo va Ovrupa bozor va ziroatlarini holidan, bo'lgan va bo'lmaganidan bexabarligimizdur. Bizni tojirlar aksariyat ila hech joydan bexabar «tavakkal» deb ish qiladurlarki, tashabbussiz tavakkal ila ish qilmoqni shar'an manhiyligidan bexabarligimiz boisdur. Eng oxirgi sabab sinmoqimizg'a shulki, tijorat maydoninda nodonligimizdan boshqalar tarafidan aldanarmiz. Xulosa, bizlar kommersant, ya'ni tojiri zamoniy emas, balki bizlarg'a dehqonlik lozim. Ammo maaltaassuf, unga ham ilmi basirat va hisob lozimki, bizg'a shu ilmi zamoniy yo'q, binobarin kelarimiz nihoyat qorong'udur. Mulklarimiz aksari qo'ldan ketar va qora mehnatkash bo'lub qolurmiz. Alloh basirat bersun. Shayx Sa'diy deyur: «... mudohili[1] o'n sakkiz va muhojiri[2] yigirmalik kishi holig'a yig'lamoq kerak. Kunduz chirog' yoqqan ablahning oqshom qorong'uda o'lturganini yaqindan ko'rarsan».

Mahmudxo'ja Behbudiy.
«Oyna», 1914-yil, 19-son, 342-344-betlar.

Banklar haqida

Bizning Turkistonda foydalanadigan banklarimiz «podsho xalq», «aksionerniy banklar» [aksiyadorlik banki] va «obshestvo i zayemniy kredit»lardir.

1) Podsho xalq banklar [ya'ni, podsho xalqiga maxsus aqchalar saqlanadurgan o'rin]. Shul mamlakatning podsho xalqiga maxsus aqchadan bir qismini bunga kapital [sarmoya] qilib ayrilur. Bu bankga xos bo'lgan podsho xalq naqadar zo'r va quvvatli [kuchli] va boshqa podshohlar qoshida

[1] *Mudohil* – kiruvchi.
[2] *Muhojir* – chiquvchi.

@tarixchi_kutubxonasiga

e'tiborli bo'lsalar, bu bank [podsho xalq banki] ham xalq orasida shu qadar e'tiborli bo'ladur. Aqchasi bo'sh va o'zi ishlatolmaydigan kishilarning ortiq aqchalari yoki bir g'araz ila uzoq saqlanadigan aqchalar [masalan, xayriya jamiyatlarining ortuq aqchalari va boshqalar] bir oz foyda muqobiliga saqlab bermoq uchun bu bankka beriladur. Shunday banklarning kapitali hamisha kuchli va boy podsho xalqining bo'sh aqchasi va xalqning bo'sh aqchasidan iborat bo'lgani uchun ko'p summalar yig'iladur. Bank ushbu summalarni bekorga saqlab yotmaydur, balki qisqa muddatga ishonchli bank, savdoxonalarga va savdogarlarga berib turadur. Shu vosita ila ulardan bir oz haq olinib, aqcha sohiblariga qadar alhissa taqsim qilinur.

2) Aksioner banklar. Bu bankni qo'lidagi ortiq aqchasini o'zi ishlatolmaydigan, ishlata bilsa ham oz foydaga qanoat qilmagan, to'g'risi, «loyqa suvda baliq tutmoqchi» bo'lgan ijtihodli kishilar tarafidan aksiya vositasi ila aqcha yig'ib ochiladur. Bu banklarning qadr va e'tibori ish boshida turgan kishilarning e'tibor va obro'si va sotilgan aksiyalaridan yig'ilgan summaning ko'pligi va qilgan foydalariga qarab tayin qilinadur. Bu banklar summalarining ko'pligiga qarab har shaharda sho'balar ocha olurlar. Bizning Turkiston qit'a azimasida ildiz otgan eng ishlakli [ishbilarmon] savdogarlarimizning foydalarin suluk kabi so'rib yotgan banklar shunday banklardur. Bularga bergan foydalarimizning bir tiyini bo'lsin, bizga qaytib kelmaydur. Ming mashaqqat ila topgan foydamiz bularning cho'ntaklariga doim oqib turmoqdadur.

3) «Obshestvo» va «zayom kredit» ismli banklardur. Bunday banklar so'nggi vaqtlarda ochila boshladi. Bularning biri ikkinchisiga yordam qilmoqni xohlagan, o'zining oz-moz aqchasi bor bo'lsa ham, yolg'iz o'z holicha ish qilolmaganlikdan shu aqchasini ishga kirgizib, shundan hisob olib, xo'jayin bo'lib turmoqni xohlagan, «aksioner bank»larining qisuvidan to'ygan va ularga foydasining hammasini berishni tilamagan, bir qismini bo'lsun o'ziga qaytarishni xohlagan, «podsho, xalq» va «aksioner» banklar ila so'ylashuvga qadar bo'lolmagan mayda savdogarlar va kosiblarga, hunarchi va dehqonlarga va birovning xizmatida turib qisib-qimtab ortdurgan aqchasini foyda kelturadurgan o'rinda saqlab, kerakli vaqtlarda ortig'i ila olishni xohlagan kishilarga yo'l ko'rsatmoqchi bo'lgan, o'z millatini va o'z shahridagi xalqning mashaqqatini tahmil qiluvchi [homiy] va ularda bo'lgan savdo, hunar, sanoat va ziroatning ilgari qadam bosmoqni xohlaguvchilar tarafidan ochiladur. Bu «zayom kredit» o'ziga a'zo bo'lgan kishilarning aqchasi bo'sh turgan vaqtda boshqa banklar beradurgan foydadan ziyoda foyda topib beradur. Muhtoj bo'lgan kishilarga mumkin qadar boshqa banklardan arzon qilib aqcha beradur.

Ammo chlen [a'zo] bo'lgan kishi ishining ohorini tamom anglasa va har vaqt ish boshiga qo'yilgan kishilardan shuni talab qilib tursa, shun-

@tarixchi_kitobxonasiga

da yuqoridagi maqsad vujudga chiqqan bo'ladur. Yo'qsa, chiqan bo'lganiga mag'rur va aqcha olganiga vaqti xush bo'lib, na maslahatdan, na hisobdan, na tekshiruvidan va na saylovdan xabari bo'lmasa, ish boshiga qo'yilgan ishchilarni xo'ja va aqcha beruvni tayin qiladurgan kishilarni aqcha egasi deb tanisa, ul vaqt albatta yuqoridagi maqsad vujudga chiqmaydur.

Bizning turkistonliklar aksioner banklarga sog'adurgan sigir bo'lsa, so'nggi vaqtlarda ochila boshlagan «zayom kredit»larga ham tilsiz xizmatlar bo'lib turadurlar. Qayda bo'lsa ham mashrua haqqimizdan foydalana olmog'onimiz kabi bunda ham o'z ixtiyorimizda va o'z qo'limizda bo'ladigan bu ishdan lozimincha foydalana olmaymiz. Aksioner banklarga sog'imli sigir bo'lgusi kelmagan savdogarlarimiz va unga achingan ongli sinfimiz «obshestvo» va «zayom kredit»lar yo'q joyda uni vujudga chiqarib, bor yerda har bir tariqa ila unga yordam qilib, uni o'z bankimiz va aqchasini o'z aqchamiz va uning qilgan foyda va zararini o'zimizga oid ekanini anglab, keragicha foydalanuv vaqtdur. Boshqa xalqdan aksioner banklar[ni] vujudga chiqaruv va ularga xo'ja bo'lib, hozirda bizga mumkin emas ekan, ne uchun mumkin bo'ladurganini qilmaymiz? Yetar endi ushbu vaqtgacha fursatni qochiruvimiz, bundan so'ng aslo qochirmaylik. Ish boshlagan vaqtda haddan tashqari kapital va bilimga hojat bo'lmaydur. Bunday «obshestvo» va «zayom kredit» bankini yo'q yerlarga ochaylik va bo'lganiga har bir tariqa ila yordam qilaylik va uning vositasi ila o'zimizdagi savdo, hunar, sanoat va ziroatni mumkin qadar rivojlantirishga harakat qilaylik. Bu vazifa hozirgi vaqtda o'zlarining borliqlarin ko'rsata boshlagan ongli sinfimiz va savdogarlarimizga yuklanadur. Bu to'g'rida oz-moz vaqtlarin sarf etib, oning joriy bo'lishiga sa'y va harakat qilsalar va qo'lidan kelgancha har kim yordamda bo'lsa, albatta, ko'zlangan maqsadlariga vosil bo'lsalar kerak. Chindan ixlos ila qilingan ijtihod hech vaqtda bekor ketmaydur. Bu har kimga ma'lumdir.

Turkistonlik S.M.
«Sadoyi Turkiston», 1914-yil, 20-iyun, 20-son.

Bank xususida

O'tgan gazetamizda zamonamizning banklari va bankga qiladigan muomalalari xususida yozilib erdi. Bank xususinda «Oyna» jurnali bosh maqolasi bu tariqa yozibdi. Banklar bizni barbod etdimi? Albatta, yo'q. Nima bizni barbod etdi? Nodonlik, hisobsizlik, to'g'risi, aql va tartibsizlik bizni barbod etdi. Ayb bankda. Yo'q, ayb bizda, chunki boshqa millatlar banklar sababi bilan obod bo'lib, mulki ortur. Ammo, bizning zohir banklar sababi ila barbod va faqir bo'lurmiz. Bor mulkimizning qo'ldan ketishiga

@tarixiy_kutubxonasiga

asl sabab bank emas, o'zimizning tarbiyasizligimiz va aqlsizligimiz va behisobsizligimiz va naf va zararimizni bilmagonimiz, tijorat tilidan va zamonadan bexabarligimizdan xulosa jaholat va nodonligimizdir. Bank sababi ila yahudiy, arman va boshqalar davlatlik bo'lur, biz bo'lsa davlatimizdan va obro'yimizdan ayrilarmiz. Chunki, qo'ldagi bor narsamizni to'y va azaga, behuda odamlarga sarf etamiz. Ko'rpamizga qarab oyoq uzatmaymiz. Qarz bilan imorat, to'y va boylik qilamiz. Bu sabab ila faqirlik darajasiga tushib, so'ngra bankdan dod qilamiz. Diqqat qilinsa, biror yahudiy va o'ris, arman hech vaqt to'y degan baloga 5000 so'm, hatto 100 so'm sarf qilgani eshitilmaydi. Biz bo'lsa, 20000 so'mlab sarf etamiz. Koshki bu pul o'zimizniki bo'lsa ediki, yolg'iz isrof gunohidin qutular edik. Yo'q, balki biz haq Allohdan qo'rqadigan musulmonlar boshqalar aqchasini barbod etib oxiratga qarz, dunyoga kulfat orttiramiz. Bundan noma'qul harorat albatta shar'an va aqlan gunohi azimdir. Qo'qondan janob M.D.R.M. afandi yozadiki, bankdan foydali aqcha olmoq durustmi? Biz musulmonlar nima uchun bankdan pul olib, siporamiz? Savol uchun javob beramizki, shar'an bankdan pul qarz olmoq to'g'risida mo'tabar sho'ro majallasida tavsifli ila ko'p yozildi. Xohlasangiz sho'rodan o'qib ogoh bo'larsiz. 2-savolga qisqalik ila... yozarmiz. Masalan, Abdulloboy bozorning o'zida 5000 so'm sarmoyasi bor do'kondan 500 so'mlik molni 6 oy va'da ila nasiya sotdi. Albatta, bu sotilgan molga oqlab 50 so'm foyda qo'yib ediki, yuzda o'n yuzasidan bo'lur, endi do'kondagi mol oz edi, yana mol olmoq uchun aqcha yo'q. Kontoradan nasiya olsa, avvalgi naqdga nisbat 7–8 hissa qimmat qilib berur. Masalan, 400 so'mlik mol ni 6 oyga 470 so'm, balki ziyod qilib berur hamda yaxshi molga yomonni qo'shar. Agarda Abdulloboy bazzoz sotgan mol uchun olgan vekselini bankga qo'ysa, olti oyga bank 500 so'm naqd berib, faqat 15 yo 20 so'mlik foyda xohlaydiki, bizning bazzozimiz ushbu pulni 4–5 kontoradan chakkasiga chertib, silab, molni arzon narxga olar. Ana bank himmati va kerakligi shundan iboratdir. Shunday o'lchov ila muomala qilinsa, har kim bankdan foyda ko'rar. Yo'q, bank uning uchun emaski, biz pulsiz do'kon o'tirib va bank pulini nasiya qilib, to'y va ziyofat va imorat va ko'pkari va azaga sarflab, yo bankdan qarz olib, haj borib, dunyoga beobro' va oxiratga qarz yuklab ketmoq uchun emasdir. Muhtaram M.D.R.M. afandi, bundan boshqa yana sinmog'imizga sabab, tariqa tijoratning molini olish va sotish joyini bilmaganimiz, paxta va boshqa g'alla to'g'risida Amriqo, Afriqo va Ovrupa bozor va ziroatlarining holidan va qanday bo'lgan va bo'lmaganidan bexabarligimizdir. Bizning tijoratlar aksariyat ila hech joydan bexabar, tavakkal deb ish qilarlar.

Mahmudxo'ja Behbudiy.
«Oyna», 1914-yil, 9-mart, 21-son.

@tarixchi_kutubxonasiga

Zo'raki boy

Oxirgi vaqtlarda biz turkistonlilar tijorat, hatto, ziroat va do'kondorlik ishlarinda na uchun sinarmiz, ya'ni iflos etarmiz. Muning eng birinchi sababi ilmsizlik, to'g'risi aqlsizligimizdur. Ore, bilib turub o'z zararini qilmoq aqlsizlikdur. Chunonchi, «Zo'raki boy» janoblarini o'n ming so'mlik merosi, bog' va xonasi bor edi. Bu odam agarda bog'ini yaxshi ishlatsa, muvofoqi shariat va insof tiriklik qilsa, isrofgarlik etmasa, to'y va azo deb o'zini barbod etmasa, albatta ortdurardi. Bu odam o'zidek va hatto, o'zidan oz nimarsalik kishilarni ko'rarga o'g'ul to'yig'a ikki-uch ming so'm sarf etar. O'g'lig'a xotun olib bersa, yana bir-ikki, uch ming so'm sarf etar. Bir o'luk ko'msa, besh-olti yuz so'm xarj etar. Hatto, olti oylik bolasini[ng] sochini olganda va yo olti kunlik bolasini beshikg'a bog'laganda bir-ikki yuz so'm sarf etar. Fotiha, chanladi[1], ... kultapo'shon[2], mo'ylabgiron... va boshqalarini nari qo'yduk, xulosa, bechora o'n ming so'mlik mulkdor qaraydurki, ish bo'lmaydur. O'g'ul va qizlar katta bo'lub turubdur. To'y lozim, xatna, nikoh, uning orqasidan keti uzulmas bir suruk ma'raka va qoidalar lozim. Ko'bdan chiqib bo'lmaydur. Bechora odam o'ylavg'a tushar. To'y qilmoq uchun bir-ikki tanob bog'dan va yerdan sotsa, ko'zi qiymaydur. To'y qilmasa, bo'lmaydur. Bas, noiloj o'ylab-o'ylab, do'kondorlik, ya'ni bazzozlik va choyfurushlik va yo boshqasini qilmoq bo'lub, do'kon ochar. Bonkalardan kredit ochar. O'n ming so'mlik merosiy mulki bor ekan, besh bonkadan uch ming so'mdan 15 ming qarz olur. Choy, qizil mol, gazvor, chinnivor, ... xullas, har nav' kantur va fermalardan ham bir-ikki yilg'a yetmasdan bir-o'n besh ming so'm urar. Bir vaqt ko'rarsan, 30 ming so'm ishlatguchi qib-qizil bir katta boy. O'zini muft dehqonligi ila ro'zg'or qilur ekan, bir ming so'mni butun umrig'a sanamagan 30 ming so'mlik mol ichinda ko'mganini ko'rub, bizni dehqonboyni avvalgi torgina aqli ham uchdi-ketdi.

Qavm-u qarindoshdan veksel olib, bonkag'a qo'yar. Sasib yotgan va alarni so'zincha, egasiz fabrikant molini to'g'ri kelgan kishig'a nasiya berar. Bir tarafdan yaxshi ot va arobalarg'a havasi ketar. Ekipaj, faytunlar va Maskav otlari olinur. Digar tarafdan, hovlig'a zamona odami o'lturaturgon imoratlar qilinur. Usti temur, osti taxta, devori rango-rang shishakori shahnishinlar, bir necha mehmonxonalar va onda zamona asboblari olinur. Bu imoratlarni va dastgohni odamlarg'a ko'rsatmoq uchun ziyofatlar, bazmlar kerak. Ferma va bonklarni mudir va a'zolarini-da alafrang shampanskilik ziyofatlar qilmoq kerak. «Zo'raki boy» janoblarini xotun va o'g'li ham mundan rang olib, isrofg'a yuz qo'yar. Chunki, xudo bergan davlat qayerdan kelib, qayerga ketar? Zo'raki boyni o'zi ham bil-

[1] *Chanladi* – charlari.

[2] *Kultapo'sh* – ayollar kiyadigan bosh kiyim.

@tarixchi_kitobxonlarga

mas. Bir vaqt to'y navbati yetdi. Endi terlamoqni zamoni keldi. Mashvaratlar, pro'grammlar [programmalar] tuzalur. Ho'qand, Andijon, Turkiston va Toshkentdan boshlab, Marv, Buxoro, Karki va Afg'oniston hududincha shuhratlik boylar va ko'rmagan oshnolar ro'yxat bo'lur. Ola. Muncha odamg'a xat yozmoq mushkul. Bosmaxonada zarhallik xatlar siporish berilur. Yoddan chiqqani tilgirom [telegramma] ila taklif qilinur. Xivadan, Farg'ona va Buxorodan mashhur juvon va mutrib va xonandalar chaqirilur. Bazmda firmalarning mudiri va bonkalarning muboshiri, hatto, rajoli hukumat taklif qilinur. U qadar isrof, u qadar behuda masorif bo'lurki, hisobi singandan so'ngra ma'lum bo'lub. Bu to'yni bazmi, juvoni, ko'bkarisi, fashangi, in'omi u qadar ko'b, u qadar qiziq bo'ldiki, munga o'xshagan boshqa bir zo'raki boy ham o'zini anga o'xshatmoq, balki o'tkarmoq uchun o'zini jardan tashlamoqg'a hozirlanur. Ya'ni, mundan ziyoda etmoqchidur. Biz avvalgi zo'raki boyning to'yi so'zini tamom qilgan yo'q eduk, boyg'a yana bir nikoh to'yi voqe' bo'ldi, ya'ni janoblari yosh xotun oldilar. Tabiiy, ellik-oltmish yasharg'a o'n besh yasharni ikki-uch ming so'm masorifsiz berilmaydur.

So'zni qisqa qilayluk. Bir vaqt eshitilur, zo'raki boy bonkag'a pul yetkurolmaydurlar. Imonsiz sarrof ham taqa-taq shildirni bilib, pul bermaydur. Ish «prava ucho't»g'a qoldi. Bir necha vaqt so'ngra yana eshitilurki, veksellar «protest» [bekor] bo'ldi. O'n ming so'mlik mulk ila do'kondagi besh-olti ming so'mlik mol hajz [arest]g'a olindi. Hisob qilib ko'rulsa, bilinurki, 30 ming so'm qarz maydonda. Otadan qolgan mulk ila to'rt-besh ming so'mlik aroba-g'altak ot-u tek do'kon mol endi nima bo'lur dersiz? Olti oy – bir yilg'acha avvalgi mulklar sudg'a sotilib, bechora zo'raki boy ahl-u ayoli ila darbadar qolur. Chunki, aqalli martaba singan yahudiydan ibrat olib, birgina hovlisini ham xotuni otig'a o'tkarmagan edi. ... Alloh taolo isrof qilguvchilarni do'st tutmaydur. Zeroki, boy janoblarini tarjimayi holidan «Oyna»da ko'b ko'rungan edi, ammo qisqartib yozildi. Balki boqiyasi bo'lur.

Mahmudxo'ja Behbudiy.
«Oyna», 1914-yil, 16-son, 270-273-betlar.

Namangan temir yo'li

Namangan ilan Ho'qand o'rtasiga yangidan barpo bo'ladurgon otash arobaga ushbu avgust chislosidan boshlab relslar, ya'ni o'ninchi avgustda o'n to'rt sarjinlik Sulton bayoz muzidan o'tib, Achchiq degan ko'lga yetkurubdurlar. Onda katta uzun ko'l bor uchun g'isht va semindan stalba [simyog'och] qilinadur ekan, binobarin, uch-to'rt kun ta'mir bo'lib, sentabrga daryo berkilsa kerak, deb o'ylashurlar. Bul biz Namangan xalqiga nihoyatda foydalik ish bo'lib, hamma xalq, alalxusus, savdogar va sayohat

@tarixchi_kutubxonasiga

qiladurgon kishiga zarurdir, inshoolloh. Noyabr oylarida Namanganga borsa kerak.

Chunonchi, o'zim Toshkentga bormoq bo'lib To'raqo'rg'ondan o'z kolyaskam birlan Chustga kelib, andin bir kunda bir ot ilan Ho'qandga soat beshda kirdim. Ko'rdimki, bir muddat kolyaska rohat ham bo'lsa, oti eski va yo'llar yangiki, hech iloj bo'lmay, nihoyatda qiyinlik ilan To'raqo'rg'ondin Ho'qandga kelguncha ikki kun yo'l azobini tortib, o'z ko'zimiz ilan ko'rib mushohada qilduk. Ammo, Ho'qanddan Toshkentga kelguncha bir oz huzur va tomoshadin o'zga hech va hoy-u havas bo'lmay, kechqurun soat to'rtda Ho'qanddan arobaga o'lturib, kechasi soat to'qqizda Chernyayevskiyda bo'lib, anda ikki soat turub jo'nab, erta soat sakkizda Toshkandga kirduk. Bovujud shuncha yiroq yo'l, bamashaqqat shahar azobidan qutulib qoldilar, ammoki, bizlar birga bormoq bo'lsak, albatta, sart aroba yoki dilijon degan aroba, yoki izvoshchik ilan borilur. Har joyda mashaqqatlidur. Binobarin, bul to'g'rida ko'rgan qiyinlik va onsonliklarni va ham otash aroba xususida aytgan manzuma tariximni gazitga yozmoqg'a lozim ko'rdim...

Is'hoqxon Ibrat.
«Turkiston viloyatining gazeti»,
1911-yil, 13-oktabr, 77-son, 3-bet.

Qo'qon – Namangan temir yo'lining ochilishi

Ushbu yettinchi iyulda Namangan otash aroba yo'li bitib, uning ochilganligiga shukrona bayrami bo'libdir. O'shal kuni soat birga Ho'qand istansiyasiga [stansiya] boboylardin yig'ilib, Namanganga boradurgon poyezdni ko'p ziynatlar berib, bayroqlar osib va aliflar bilan ziynat berilib, ul joyda duo va fotihalar qilib, ul yo'lni[ng] binosiga sabab bo'lgan odamlarni[ng] ham haqlariga duo qilib bo'lib, mazkur yasatilganni olib keldilar. Sar tortib qo'yilgan lentani kesib, oning ustiga «Namanganga salom» deb yozgan yozuvni vokzalga ro'baro' qilib, ul poyezdga Namanganga shukrona bayramiga boradurgon odamlar tushib, alohida chiroylik qilingan, ustiga «Yaxshi soatda» deb yozgan darvozadan poyezd o'tib, Namanganga qarab jo'nabdi. O'shal asnoda fotograflar va ham alohida chaqirilgan sinematograflar o'shal yerda hozir bo'lib, tasvirlarini olib turibdur. Ul poyezd Chust stansiyasiga rasmiy yurishda yurib borib, ondin keyin Sirdaryoga ko'p xarajatlar bilan bino qilingan yog'och ko'prikdan o'tibdir. Ul yo'llarda ko'p joylarda, xususan, ikki chuqurlik joyga, biri sakkiz sarjin, biri o'n ikki sarjin joyga ko'prik solib, bul ikki ko'prik ul yo'lni tezlik bilan bitmasligiga sabab bo'libdur.

Mazkur poyezd Chust va To'raqo'rg'on istansalariga kelganda qishloq fuqarolari taraflaridan mutasaddilar qarshi chiqib, non-tuz ushlab, Chust mutasaddilari Farg'ona oblasti janobi voyennoy gubernatorini no-

@tarixchi_kutubxonasiga

iblarindan, hukumatdorlarindan ...ham otash arobani tezlik bilan kelmog'iga matonat ko'rsatmoqlikni iltimos qilibdurlar va ham o'z taraflaridan beaqcha ul otash arobaga keraklik yerlarni bermoqlikka va'da qilibdurlar. Poyezd Namanganga kelgandan keyin, istansaga nihoyatda ko'p sartiyalar yig'ilib, atrof qishloqlardan umrida otash arobani ko'rmagan odamlar kelib, ul otash arobani bir necha marotaba ko'rib, hayron qolib, poyezd kelib yetgan vaqtda oq sallalik odamlar adadi nihoyatda ko'p, 25–30 mingga yetubdur. Namanganga yetib, duo va fotiha qila boshlaganda, ul ko'p g'ujum bo'lgan [to'plangan] sartiyalarni [mahalliy aholi] politsiyalar [politsiya mirshablari] mashaqqatlar birlan tarqatib, chekkalarga chiqaribdurlar. Poyezd to'xtagan joyda Namangan tarafidan ko'p ziynatlik darboza qilinib, ul darbozani kalom va bayroqlar bilan ziynat qilinib, «Xush keldinglar», degan so'z yozib qo'yilgan ekan.

Kelgan mehmonlarni Namanganlik mutasaddilar ko'p yaxshi qarshi olib, hozirda bitmagan vokzal yaqinida besh adad odamga dasturxon tayyor qilib, ziyofat qilib, ko'p ajoyib mushaklar ham tayyor qilingan ekan. Ikki nafar askariya muzikantlari [harbiy orkestr] nag'ma chalib turibdurlar. Ul nag'makorlarni[ng] bari Ho'qanddan poyezd birlan yo'llarda mashq qilib kelibdur. Ziyofat ta'om vaqtida o'lturgan odamlar ko'p qulluqlar aytib, ul baland darajalik Turkiston general-gubernatori otliq askarlarini generali Samsonov janoblaridan muborakbod qilib yuborgan tiligromni o'qibdurlar. Va ul temir yo'lni binosiga sa'y va taraddud qilgan odamlarning salomatliklarini va Turkiston viloyatini obodonchiligini tilabdurlar va yana ko'p adad muborakbod qilib yuborgan tiligromlar o'qilibdur.

Shul tariqa qilib, Namangan shahri ul bir necha poyezdni qarshi olmoqlikka xarajatni ayamabdurlar va soat to'rtda erta birlan Namangondin ul poyezd Ho'qandga qarab borgan mehmonlarni olib jo'nab, soat yettida Ho'qandga kelibdur.

Is'hoqxon Ibrat.
«Turkiston viloyatining gazeti»,
1912-yil, 15-iyul, 54-son.

Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar

Ushbu sana o'tgan aprel oyidan boshlab Andijonning ko'p qishloqlariga temir yo'llar g'oyat tezlik bilan ishlanib turmoqdadur. Chunonchi, birinchi Namangandan kelub, Andijonga, Andijondan Hazrat Ayyubga, Hazrat Ayyubdan cho'zilib Olmaota taraflarg'a ketadir. Ikkinchi, Andijondan bir shox chiqib Ho'qand qishloq, Mosiy Bozorqo'rg'on taraflarg'a, uchinchi, Andijondan O'sh, Jalolobod, O'zgan bilan Qitoy [Xitoy]ning Qoshg'ar hududigacha boradur. Bul yo'llar hammasi «O'rta Osiyo temir yo'li»g'a tutashib, g'oyat mukammal bo'ladur. Bul temir yo'llarning ko'p ekin joylarini bosub

@tarixiy_kutubxonasiga

o'tmog'i, masjid va xonalarni vayron qilub o'tmog'idek zararlari bo'lsa ham, foydasi yana ko'proqdur.

Yo'l bosmachilari va boshqa o'sollarning hujumidan qutilmoqg'a foydasi tegar, qishloqlar yaqinlashar, obod bo'lub ma'murlashar, arzon yerlar qiymat bo'lur. Faqat gazeta-majallalarimiz va temir yo'l bo'yidag'i baxtli qarindoshlarimiz «Sadoyi Farg'ona»ning 18-no'mirisidag'i andijonlik Ibodullohxo'ja Sulaymoniy janoblarining «Turkistondagi va bilhissa Farg'onadagi musulmon qarindoshlarimizg'a xitob» unvonli [nomli] maqolasining mazmunig'a qarab amal qilmoqlaringiz kerakdir. Temir yo'llarning bormog'i bilan tanobi 100 so'mlik yerlar albatta 1000 so'mgacha chiqar. Faqat Ibodulloh afandining aytganicha, «bebaqo minglarga qiziqmaslik kerak». Aqcha battar qadrli ketar, ammo ul yerlarni topib bo'lmas. Zamonimiz shundog' zamondurki, tirikchilik bilan raqobat qilmoqg'a, maishat zulmidan qutulmoqg'a qo'lda yer bo'lmoq kerakdur. Yer sotgan, pulga qiziqg'onlarni maishat, tirikchilik toshqini va to'lqini kelub urub, parcha-parcha qilmoqiga shubha yo'qdir. 100 so'mlik yerimiz bora-bora obod bo'lib, 5–10 ming so'mga ham chiqar, buni yaxshi o'ylamoq kerak. Yer va tuproq sotgan bola-chaqa va naslini sotgan bilan barobardur. Bir ota yerini sotdi, demoq bola-chaqa va naslini to qiyomat och va yalang'och qoldurdi, demoqdur. Vatan tuprog'i shundog' onadurki, buni xor qilduk, o'zimizning ham xor bo'lmog'imiz ko'z oldidadur. Yer sotub, xonavayron bo'lganlardan ibrat olaylik! Janob haq ikki ko'z va aql berubdir. Ko'zlarimiz ila ko'rub, aqlimiz ilan o'ylayluk! O'zimiz dunyoga yalang'och kuyuncha kelub, onamiz, vatanimiz, tuprog'imiz bizni boqar, rizq berar, katta qilar. Dunyoda yashatar ulonani sotganlar, albatta ne'matning qadrini bilmagan kufroni ne'mat qilgan bo'larlarki, ko'p yomon gunohga botarlar.

Tuproqdan yaratuldik, demak, tuproq tanimizdur, o'z tanimizni o'zimiz sotsak, beaqllik emasmu? Ajabo!!

Vatanimiz avval obod emas edi, mana temir yo'llar kelmog'i va solinmog'i bilan obod bo'lar, qishloqlarga ham madaniyat kirar.

Ey qarindoshlar! Shaharliklar bo'ldik! Bo'ldik! Ammo qishloqlardan katta iltimosimiz shuldurki, Ovro'poning mo'dasidan, shishasidan, buzuq axloqidan namuna olmasdan va bunlarg'a bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm, fan, hunar sanoatiga o'xshashlik madaniyatlaridan namuna olub, bul jihatdan taqlid qilmoqimiz lozimdur...

Ovro'poning maktab, madrasa, ilm, fan, sanoat, hunarga o'xshash madaniyatlari sizlarni obod, ma'mur, olish qilub, johillikdan, asorat qulligidan qutuldurodur. Birodarlar, ko'zlaringizni ochub, yaxshi o'ylanglar!

Mana shul Farg'ona temir yo'lida bir suyunadurg'on ish bordurki: 700 tanobcha yerga istansa, vokzal va iskalad qilmoq ishini Namangandan turub asli toshkentlik muhtaram Mullo Abdulloh afandi Hamidulloyuf[yev]

@tarixni_kutubxonasiga

olmishdur. Vokzalni tomosho qilmoq uchun borganimizda Mullo Abdulloh afandining ukasi Abdulaziz afandi ila ko'rishganimizda Abdulaziz afandi ta'suf qilub dediki: shundog' katta muassasalarning foydasini ovro'palilar ko'rib, onlarning kunlarig'a o'tayotganig'a ichimiz ochishub, Namangan istonsasini bino qilmoqg'a ham olgan edik. Endi mana Andijon katta istonsasini ham oldik, deydur.

Vagunlab tasiminat[1] kelub turmoqdadur. Tasiminatdan xishtlar [g'isht] quyub turodurlar. Birinchi boshlab istisnolarga armani va ruslar kelub o'tirmoqdadur. Bechora musulmonlar bo'lsa, yerlarini oylik qilib bermoqdadurlar. Hozirdan ijaraga bersalar, bora-bora oz pul bilan sotub ham qo'yolarlar. Vokzalga yaqin yerlarda, istansa atrofida endi g'ayri millat ko'rinmoqg'a boshladi, deydur. Mana shundog' gaplarni Abdulaziz bilan so'zlashub o'ltirdik.

Qarindoshlar, diqqat lozim! So'ng pushaymon bo'lmoqdan foydasi yo'qligi hammamizga ma'lumdir. Hech bo'lmasa, Abdulloh afandidek namuna ko'rsatg'uvchi fidokor savdogarlarimizdan ibrat olib, vatanimizning boyligini, tijoratimizning foydalarini chetlar cho'ntagiga solmasdan va bermasdan, o'z cho'ntagimizda olub yurmagimiz kerakdur. Bizga shundog' ishlarga kirishmoqg'a vaqt!...

Biz ham insonmiz. Insondek yashaylik!... Maishat to'lquni bilan urushayluk! Qarindoshlar!... Vaqt g'animatdur.

Cho'lpon.
«Sadoyi Farg'ona», 1914-yil, 6-iyun, 26-son.

Istiqbol qayg'usi

Ma'lumdirki, har millatning taraqqiysi ilm ila bo'lub, ilmi bor millatning istiqboli munavvar va o'zi osoyishda ham ajnabiylar qoshida mahobatli va hurmatlik ko'runur. Sohibi ilm va mutaraqqiy millatlarning alomatlarindan ba'zisi shulki, ibtidoiy maktablari muntazam bo'lub, o'rta va oliy har turli madrasalari bo'ladur. Bu madrasalarda o'qub chiqgon bolalari faol odam bo'lub, hol va darajalariga munosib ish-hunar – tijorat va ruhoniy o'runlarga kirishub ketarlar. Shu yo'l ila mutamaddun[2] millatlar o'z ishlarini o'zlari boshqarub, hech vajdan o'zgalarga muhtoj bo'lmay, rohatda yashaydurlar. O'z madrasalariga diniy, dunyoviy ilm va fanlarni lozimincha o'rganub chiqarlar. Oning uchun na dinlarini qo'ldan berurlar va na dunyoviy ishlarini.

Demakki, bir qavmning hayot va saodati ilm iladur. Suvsiz baliq tirik qolmagani kabi ilmsiz, ittifoqsiz millatlarning yashay olmasligi tabiiydur.

[1] *Tasiminat* – sement.
[2] *Mutamaddun* – taraqqiy topgan.

@tarixchi_kitoblarimasiga

Men bu mahalda ilm va fan qatorinda sarvat, ya'ni boylikni yozmadim, holbuki, tirikchilik shartlaridan birisi aqcha va mol edi. Chunki, mol va mulk ilmning nihoyatsiz samaralaridan bir juz'iydur. Ilmi bor odam ozgina harakat va g'ayrat qilsa, albatta, boy bo'lur. Yuqorida ilmlik millatlar yashaydur, demish edim. Muning aksincha, nodon millatlar mutlaq yashamas, tadriyy yo'q bo'lur. Alalxusus, bu zamonda, ilmi zamoniysiz millatlarning yashamayincha, tezlik ila munqariz[1] bo'lishi muqarrardur.

Burung'i zamonda temir yo'l, paroxud, telegrof, ayruplon va shunga o'xshash madaniyat asboblari yo'qligidan dunyodagi hukumatlar bir-biridan uzoq turub, yak digarining[2] quvvayi askariya[3] va moliyasini tamom bilmas edi. Shuning uchun hukumatlarning bir-biri ustuga borub, hujum qilishi nihoyatda mushkul edi. Shul vajdan avvalgi zamondagi hukumatlarning ahvoli ahyonan tabaddulot va tag'yirotg'a uchrar edi. Ammo bu zamon bo'lsa, butun boshqadur.

Ilm va fanning taraqqiysi va yordami ila yer yuzindagi muxtalif[4] millatlarning har nav' ahvoli mutamaddun ovrupalilarning ko'zi oldidadur. Bu dunyo hayot muborizasi-maydoni bo'lgonidan, bir kuchli nimarsa kuchsizini ezar, yutar. Bu qonuni tabiat har bir jonsiz va jonlik narsalar haqida umumiy va joriy bo'lib kelmakdadur. Masalan, g'arbdagi Amriqo hukumati sharqdagi Yapuniyoni bil farz kuchsiz topsa, dengiz ichidan kelub, bir oy zarifida tamom Yapuniyoni istilo va tasxir[5] etmoqchi mumkindir. Aning uchundirki, zamonamizdagi hukumatlar boshig'a tez-tez yangi hodisalar voqe' bo'lub, ushbu zamon silohi ila qurollanmagan hukumatlar o'z mamlakat va istiqlollaridin mahrum bo'lmoqdadurlar.

Misol uchun hozirgi zamonamizda kam ilm va beparvoligidan jannat kabi shaharlaridan ayrilub, yuz minglarcha askarlar va begunoh xotun, bola-chaqalarining talafig'a sabab bo'lgan Turkiya hukumati ila nodonlik va o'z ichidagi fitna va ig'tishosh sababli bir-ikki hamsoyasining tuzog'iga ilinib, muxtazorlik holatiga kelgan Fors hukumatini ko'rsaturmizki, bular har bir ko'zi ochiq jaridaxonlarga ma'lumdir...

Emdi kelayluk maqsudimizg'a, bizlarning zamonig'a muvofiq, ya'ni zamoncha ehtiyojimizga yarayturgon maktab, madrasa, dorilsano'a[6]... ila zamoniy ilm va fanlarni bilaturg'on ulamo, ag'niyo, tujjorlarimiz va hunarmandlarimiz yo'q. Toki, bizlar ham o'zgalar qoshida [muborizai hayot-maydonida] ezilmay, ilmimiz ila dinimizni, molimiz ila hayotimizni muhofaza qilib yashasak. Shunday qilmaganimiz holda, bora-bora oxir holimiz taboh[7]

[1] *Munqariz* – inqiroz.
[2] *Yak digarining* – bir-birining.
[3] *Quvvayi askariya* – harbiy quvvat.
[4] *Muxtalif* – turli.
[5] *Tasxir* – masxara.
[6] *Dorilsano'a* – korxona, sanoatxona.
[7] *Taboh* – yomon.

@tarixchi_kutubxonasiga

– bolalarimizning ishi oh va voy bo'lub, ham din va ham dunyomizni qo'ldin berub, munqariz bo'lurmiz. Ushbu vaqtdan boshlab istiqbol g'amini yeb, ta'mini istiqbolimiz yo'lida harakat qilmoq har birimizning vazifayi lozimalarimizdur.

«Oyna», 1913-yil, 2-son.

Bizning jaholat – jahli murakkab

Har millatning maktab va madrasasi o'ldig'i kabi, bizni ham maktab-madrasalarimiz, garchi benizom va beusul o'lsa ham, yo'q demak darajada oz emas. Har millat avlodini tarbiyalash va ta'limi ulumda ko'rsatgan himmat va g'ayrati kabi bizlarda ham o'z ma'sum avlodlarini jaholat va g'aflat zulmatida qolmoqig'a hech bir rizolari o'lmay, qo'llaridan kelgancha ta'lim va tarbiyati avlodda qusurlik ko'rsatmakchi zotlar mavjuddirlar. Va lekin dunyog'a nima uchun kelgonini bilmay, ilm va maorifg'a aslo rag'bat qilmay, jonidin shirin bolalarini ko'chaba-ko'cha kezdirib, bechora ma'sumning aziz umrini jaholat otashina yondirg'uvchi behamiyat va bediyonat otalar ham oramizda oz emasdur.

Ko'p dindoshlarimizni ko'rarmizki, o'z farzandlarini aslo maktabg'a bermay, orqalaridin ergashtirib, ruslar eshigida o'zlari kabi xizmatchilikka o'rgatib, dunyo va oxiratning saodati o'lg'on ilm va maorifdin mahrum qo'ymoqdin hech bir ibo qilmaslar. Ba'zi azizlarimiz bordurki, o'g'lini qo'lidin tutib maktabga olib borur. Muallimdan tolib qilurg'a: «Taqsir, shu o'g'limni go'shti sizniki, ustixoni bizniki, bir iloj qilib, tezlik ila naqd va nasiya yozmoqni o'rgatib berursiz», der.

«Eshagiga yarasha tushovi» degan o'zbek maqolicha, muallimlar ham aksarlari qonuni ta'lim-tarbiyadin butun-butun bexabar kishilar o'lub, balki o'quv va yozuvni ham lozimincha bilmasliklari vajhidan bechora ma'sumalarni iste'dodi zotiyasig'a nazzora [nazoran][1] ikki yil zarifida jami' lavozumoti diniyani bildirmoq mumkin o'lg'on holda to'rt-besh yilg'acha hijja[2] usuli birla ... Fuzuliy, Navoiy, Xo'ja Hofiz va Bedil kabi mushkul manzuma[3] kitoblarg'a umri azizini barbod etarlar.

Ey vatandoshlar! Diqqat nazari ila boqing! Bir bolani maktabg'a bermakdan maqsudi vojibot diniyamiz o'lg'on ilmi qiroat, masoili e'tiqodiya[4], farz, vojib, sunnat, mustahab[5], harom, makruh, namoz va ro'za, haj va zakotlarni ham zaruroti dunyoviyamiz o'lg'on ilmi hisob, jug'rofiya, tavorix, xususan,

[1] *Nazzora [nazoran]* – jihatidan.
[2] *Hijja* – hijjalab (harfma-harf) o'qitish.
[3] *Manzuma* – nazm.
[4] *Masoili e'tiqodiya* – e'tiqod masalalari.
[5] *Mustahab* – yaxshi sanalgan amal.

@tarixiy_kutubxonasiga

«Tarixi Islom» kabi foydalik ilmlarni bildurmoq o'lg'on holda johil domlalarning «ta'limi faloniy, qoshi qaro, qaro ko'zi, qaro yuzi, oh, so'zi shirin», deb bolalarni fasod axloqig'a birinchi sabab o'ladurg'on manzuma kitoblar o'lmish. Bu xususda otada ayb yo'q, chunki bu bechorani e'tiqodida bolani o'qutmoq yolg'iz naqd va nasiya yozdurmoqdin iboratdur.

Muallimda ham ayb yo'q, chunki bu zikr qiling'on ulumi zaruriyalarni[1] bechora muallimning o'zi bilmas, balki ba'zilarini ismini ham eshitgan emas. Bechora na qilsun? Nochor, befoyda bo'lsa ham maktablarda bolalarga o'qitgudek bulardan boshqa bir kitob topilmag'on zamonlarda o'zi o'qib, bilgan kitoblari shu kitoblar o'ldig'i chun eski o'runlarda eski tushlarin ko'rmakdadurlar.

Mani so'zimdan Fuzuliy, Navoiy, Xo'ja Hofiz, Bedillar kabi ulug' zotlarni tahqir qildi, deb gumon qilinmasun. Chunki mani g'arazim bu kitoblarni zotan befoyda demak emas, balki yosh bolalarg'a bu kitoblarning ta'limi befoyda, demakdir.

Misolan bir bolaga Fuzuliy o'rniga ilmi qiroat, Navoiy o'rniga masoili e'tiqodiya, Xo'ja Hofiz joyiga masoili amaliyot, Bedil badalig'a ilmi hisob o'qitilsa, din va dunyosi uchun qancha foydalar hosil qilib, musulmon o'lur. Bil'aks, bu kitoblarning o'zi o'qitulg'on holda, bu foydalardin mahrum qolib, balki fasod axloqqa mubtalo o'lmog'i ham ehtimoldir. Chunki, bu kitoblarni tasnif qilg'on zotlar Olloh taoliyg'a qurbat paydo qilg'on kishilar o'lg'onlari uchun aytgan so'zlarining zohiri shariatga muxolif o'lsa ham, haqiqati muvofiqdir. Chunonchi mavlono Fuzuliy derki:

Sanamlar sajdasidur bizda toat tangrichun, zohid,
Kishi ko'rsang sen, o'z diningda taklifi namoz ayla.

Yoki:

Xo'blar mehrobi abro'sina-mayl etmaz faqih,
O'lsa kofirdur, musulmonlar, ango qilmang namoz.

Mavlono Hofiz derki:

May no'shki, umri jovidoniy in ast,
Kayfiyati ro'zgori foniy in ast.
Hangomi gul-u, lola-u yoron sarmast,
Xushbosh, dameki, zindagoniy in ast.

Bu kabi so'zlarning zohiriy muxolifi kitob, sunnat bo'lsa ham, haqiqati bir boshqadir. Ammo yosh bolalar, shubha yo'qdurki, buni haqiqatda bilmaslar. Balki o'qitgan muallimlari ham bilmaslar.

[1] *Ulumi zaruriya* – zaruriy ilmlar.

@tarixiy_kutubxonaga

Nochor zohiri ila amal qilib, fasod axloqg'a mubtalo bo'lmoq xavfi bordur. Ba'zi juhalo[1] dermishki, bu tartib hazrat Imomi A'zamning tartiblari, buni buzaman degan kishining o'zi buzulur. Ajabo, bu kabi jaholat ham bo'lurmi? Bu jahli murakkab emasmu?

Chunki, bu johillar hazrat Imomi A'zamning umrlarida bu kitoblardin hech bir asar o'lmag'onini bilmaslar. Bilmaganlarini ham bilmaslar. Qachon ul janobning zamonlarida Fuzuliy yo Bedil, yo Xo'ja Hofiz, yo Navoiy bor edi? Qachon ul janob bu kitoblardin bolalarga ta'lim berdilar. Ul janob kabi zotning haqlarig'a bu kabi bo'lg'on iftiro[2], tuhmat qilg'on johilni, inshoolloh, o'zi bilur.

Ba'zi nodonlar dermishki, shu kitoblarni o'qimaguncha bolalarning savodi chiqmas. Bu ham e'tiqodi fosid[3] va da'voyi bedalildur. Chunki, bu e'tiqod durust bo'lsa edi, Turkiston viloyatidin boshqa viloyatlarda hech kimning savodi o'lmas edi. Vaholanki, boshqa viloyatlarda xat bilmaydurgon kishi yuzdan o'n bo'lsa, Turkiston viloyatida yuzdan to'qsondir. Mundin ham ma'lum o'lurki, savod chiqmaq bu kitoblarni o'qumoqqa muvaqquf emas, balki bu kitoblar g'oyat qiyinlikidin bolalarni besavod qolmog'ig'a ham sabab o'lur. Chunki, bu kitoblar o'qilodurg'on maktablarda ellik boladin o'n bola to'rt-besh yilda bazo'r ushbu kitoblarning o'zinigina xatini tanub chiqur.

Boshqa kitoblarni yana durust bilmas. Ammo, bu kitoblar o'qilmaydurg'on jadid maktablarida ikki yil ichida ellik bolani[ng]qirq to'qqizi, balki hammasi alassaviya necha xil ilmlardan imtihon berib chiqar. Boz bu kitoblarni ham bilur. Xayr, durustroq ham bilmasun? Lekin, bilmagoni birla bu bolaning na dunyosig'a va na oxiratig'a hech bir zarari yo'q. Chunki, bu kitoblarning o'zini dunyo va oxiratg'a hech bir foydasi yo'q. Balki zararining ehtimoli bolada zikr qilindi.

Xayr, kelaylik sadadi[4] kalomg'aki, o'g'lini maktabga bermakdin maqsadi naqd va nasiya yozdurmoq o'lg'on johil otaning o'g'lig'a qilg'on muallim bechoraning tarbiyati, chekkan mashaqqatini va ma'sum bechorag'a maktabda bergan kulfatini yozib bitirmak mumkin emasdir. Ko'rgusi va bilgusi kelgan kishi bizning Toshkand maktablarining biriga kirib, ikki soat istiqomat qilsun. Shuncha demak mumkindirki, muallim afandi qo'lida zo'r bir tayoq, qaysi bolaning boshi harakatdin qolsa, ushbu tayoq shu bolaning boshida o'lur. Ammo, o'qug'on-o'qumag'oni ila hech kimning ishi yo'q. Boshini qimirlatib o'ltirsa kifoya qilur. Hattoki, o'tgan yillarda bu tariqa zolim muallimlarning tayoqi ostida vafot qilmoq ham voqe' o'ldi.

[1] *Juhalo* – johil, nodon.
[2] *Iftiro* – to'qilgan gaplar.
[3] *Fosid* – buzuq.
[4] *Sadadi* – to'g'ri so'z.

@tarixchi kutubxonasiga

Bu tariqa zolim va badxulq, johil muallimlarning tarbiyasida o'sgan bolalardin nima umid qilmoq kerak? Fasodi axloqdin boshqa bir ish o'rganmas. Johil otalarni umid etduklari naqd va nasiya yozmoq ham tanho o'ndan bir, yigirmadan bir bolaga hosil o'lub, boshqalari esa «maktabda o'qumoq, igna ila choh qazimoqdan ham qiyin [mushkul] ekan», deya qochar-ketar.

Bunga sabab muallimning badxulqligi, maktabning benizomligi o'lur. Agar bizlarning maktablarimiz boshqa millatlar maktablari kabi bir nizomg'a qo'yilib, yaxshi muallimlik vazifasini lozimincha ado qilurlik kishilardin muallimlar tayin qilinsa edi, ma'sum avlodlarimizning ruhini hayotig'a, dunyo va oxiratining saodatig'a birinchi sabab o'ladurg'on ilm va maorifdin bu darajada mahrum o'lmakig'a sabab bo'lmas eduk.

Ey qardoshlar, voy millatdoshlar!!! Ko'zimiz g'aflat uyqusidin ochib, atrofimizg'a nazar solmakimiz lozimdir. Har millat o'z saodat hol va istiqbolini muhofazatig'a birinchi vosita ilm o'lmakig'a qanoat hosil qilib, ilm va maorifg'a ortiq darajada ko'shish qilgan bu zamonda bizlar bu g'aflat va jaholatimizda davom etsak, istiqbolimiz nihoyatda xavflik o'lub, hamma olamga masxara va kulgu o'lmog'imizda hech shubha yo'qdir. Balki, bu jaholat zulmatida saodati uxraviyadin ham mahrum qolmoq xavflidir. Bu jaholat natijasidurki, o'zimiz yerlik musulmonlardan o'ldig'imiz holda musofir rus va yahudiylar eshigida mardikor va xizmatchi o'lduk. Bu jaholat xohishidurki, millat foydasi uchun jonin qurbon qilmoqqa loyiq arslon kabi yigitlarimiz butun millatni yodlaridin chiqorib, iste'dod va g'ayratlarini choyxona va pivaxonalarg'a sarf etmakdadurlar.

Munavvarqori Abdurashidxonov.
«Taraqqiy», 1906-yil, 14-iyun.

O'quvchilarga yordam kerak

Hozirgi zamon ahvolig'a oshno kishilarg'a va boshig'a ish tushganlarga, barcha tojir va mansabdorlarg'a albatta ma'lumdurki, bizga muvofiqi zamona odamlar kerak. Ya'ni musulmon do'xtur, musulmon muhandis [injener, plonchi], musulmon zako'nchi, tijoratxonalarda musulmon ogent [agent], ishboshilar, podshohlik mahkamalarida musulmon sudyalari, notarius [muqovilot muharrirlari], banklarda musulmon sarkorlari ... kerakdur. Agarda bizdan mazkur tariqada odamlar yetishsa, tijorat va maishat ishlarida alarni bizg'a naf'i tegib, yana bizni huqumatg'a yaqinroq etarlar va hozirgi zamonaning ilm, hunar va madaniyatini bizlarni oramizg'a nashr etarlar. Xulosa taraqqiy va rifohimizg'a bois bo'lurlar. Biz xohlasakki, o'zimizni boshqalarning madaniy va iqtisodiy yutulishidan saqlanilsa, yuqoridagi aytilgan kishilarni hozirlab, ya'ni olimi zamoniy tayyorlamog'imiz kerakdur.

@tarixchi_kutubxonasiga

Digar tarafdan, zamonadan xabardor olimi diniy yetishturmoq uchun-da sa'y va g'ayrat etishda lozimdur. Maktab va madrasalarning usuli ta'limini isloh qilmoq kerakligi ko'zi ochiq kishilarga ma'lumdur. Ammo, islohotni kim ijro etar? Ruscha o'qimoq lozim. Kim o'qitar? Zamona ilmi diniy va zamoniy kerak. Oni o'zi bo'lurmi? Mana bu savollarg'a javob lozim, hech nimarsa kerak yo'q. Ota-bobodan qolgan nimarsadan boshqa har shayyi bid'at va zalolat deganlarni o'z holig'a qo'ymoq kerak. Chunki alar o'ylamasdan va ba'zilari muhokama va mulohazasiz so'ylaydur. Shariatg'a har bir naflik ilmni o'qumoq qarz va lozimdur. Chunonchi, hazrati payg'ambarimiz s.a.v. deydilarki, «Ilm ikkidur. Biri ilmi badan, ikkinchi ilmi din». Albatta, badan sog' bo'lmasa, din ishi mua'tal [bekor] qolur. Yana deydilarki, «Hukamolar ila aralash bo'lingiz!» Bas, bu hadislardan ma'lum bo'lurki, biz musulmonlarg'a ilmi tib va ilmi hikmat o'qumoq kerak. Ilmi hirfat[1] va sinoat ham farzdur. Kasb farzdur. Har bir farzning ilmini bilmoq yana farzdur. Va bul farzlarga hech kim munkir bo'lolmaydur. Ilmi dunyo doim sa'y va tajriba ila taraqqiy etar. Masalan, besh yuz sana muqaddamki, ilmi tib va hikmat ila hozirgi orasida nihoyat katta farq bor. Asbob-u davolar taraqqiy etgan va ammo ilmi tibni mavzuiki kasalni davolamoqdur, tag'yir topgani[2] yo'q. Avvalgi musulmonlar tibni yunoniy kitoblaridan o'qub, amalga kirguzar ekanlar. Endi ruscha va farangchadan o'qub amalga na bois bordur. Bir karra o'qub bildimi? O'ziniki bo'ldi, ketti. Zotan, ilm mushtarakdur. Bilgannikidur. «Ilm Xitoyda bo'lsa-da, talab qiling»ni ma'nosida ilmi zamonaviydur. Va illo, ilmi dinning asli Qur'on va Hadis ekan – Xitoy majusilarig'a na ish bor edi. Albatta, hazrati payg'ambarimizni murodlari ilmi zamoniy edi. Olaylik «bid'at»ni zamoni hazrati payg'ambarimizg'a, yo'q har bir nimarsa bid'atdur, yangidur. Bid'atni ulamo ikki qismga oyirgandurlar. Xalqg'a naf' kelturadurg'on nimarsani yaxshi bid'at [bid'ati hasana] derlar. Masalan, madrasa, maktab, minora, dorulojizin va shifoxonalar bino qilmoq, kitoblar yozmoq bid'ati hasanadur. Zamoni hazrati payg'ambarda madrasa, minora, bu kungi kitoblar, vaqf, ma'xazlar[3] yo'q edi. Digari yamon bid'at [bid'ati sayyi'a]ki, ding'a zarar kelur. Ba'zi ulamo derlarki, gunohi bid'at shudurki, zamoni payg'ambardagi diniy aqida va amalg'a bir nimarsa ortdurulsa: xulosa bid'atni me'yori shulki, zamoni hazratg'a bo'lmay, so'ngra paydo bo'lgan nimarsalar agarda millatg'a naf' yetkursa va asli ding'a muxolif bo'lmasa, durust va illo gunohdur. Bas, endi qaramayki, zamona ilm-u asboblaridan qaysiki bizga naf' kelturadur, albatta anga mayl etarmiz va agarda asli dinga muxolif bo'lmasa, masalan, ilmi tib dinga zarar etmaydur, albatta o'qurmiz. Ilmi hikmat, ilmi tijorat, injenerlik. Ilmi ziroat, ma'daniyat, ilmi sinoat va

[1] *Hirfat* – kasb ilmi.

[2] *Tag'yir topmoq* – o'zgarmoq.

[3] *Ma'xaz* – pul oladigan yoki daromad tushadigan joy, yordam puli, narsalar.

@tarixiykutubxonasiga

boshqalar, hokazo... Bu naf'lik ilmlarni o'qumog'i bid'at degan kishini so'zi: «Madinayi Munavvarag'a otash arobag'a o'lturub bormoq bid'at» degan kabidur. Holbuki, yuqoridagi ilmlarni ming sana muqaddamki, musulmonlar yunoniy va finikaliilardan olib tarjima va taklim etib, besh-olti yuz sana ishlab taraqqiy etdurdilar va musulmonlarni tanazzuli ila dunyaviy ilmlar farranglarg'a o'tib, bu kungi darajaga yetdi. Mavjud ishlar hech kimga maxsus emas va balki sa'y etkuvchilarni moli mushtarakidur[1]. Chunonchi, bilaturgon kishilar uchun bu dunyog'a ko'p alomatlar bor, mazmuninda bir oyati sharif Qur'onda bordur. Bas, endi o'ylamasdan naf'lik ilm-u ishni bid'at deb qochmoqg'a va bechora xaloyiqni taraqqiy va ilm yo'lidan qaytarmoqg'a na ma'no bordur? Matlabimiz[2] zamoniy ilmlarni o'quydurgonlarga yordam etmoq edi. Lekin na choraki, har bir ishni muqaddimasiz so'ylayolmaymiz. Chunki har shaydan avval oldimizg'a bid'at degan so'z kelar turar. Matlabni xulosa qilayluk. Yuqoridagi ilmlarni o'qumoq aqcha ila bo'lur. Aqchalik otalar hech qizg'onmasdan bolalarini hukumat maktablariga berib o'qitmoqlari lozim. Jam'iyati xayriyalar barpo etib, aqcha jamlab, faqir bolalarini-da jam'iyat aqchasi ila o'qitmoq kerak. Zamoniy odamlar yetushturmoq uchun O'runburg, Qozon, Qrim, Kavkaz va Istanbul maktablarig'a, madrasalarni islohi uchun Makka, Madina va Misrg'a talaba yubormoq keraqdur. Va har bir shogird uchun har sana 300 so'mdan 400 so'mgacha aqcha lozim. Bu shogirdlarning muddati tahsili 4 yildan 12 yilg'acha bo'lur. Bu kunda harakat qilinsa, to'rt-besh yildan so'ngra natijasi ma'lum bo'lur. «O'quvchilarg'a yordam jam'iyati»ni ochmoq yoshlarning himmat va hamiyatig'a mavqufdir. Hukumat ham bu ishga yaxshi ko'z ila qoraydur. Yoshlardan himmat va g'ayrat, boylardan shafqat va marhamat kerak.

Mahmudxo'ja Behbudiy,
«Oyna», 1914-yil, 31-son, 601-604-betlar.

Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yoxud taraqqiyning yo'li

Maktab va madrasa bir millatning, hatto bani odamning darajayi taraqqiy va taolosi deb bo'ladur. Faqat taraqqiy va taolo, maktab va madrasalarning ko'pligiga bo'lmayincha, balki nizom va tartiblik bo'lub, yaxshi idora etilmog'i ila bo'ladur. Dunyoda mavjud millatlar taraqqiyni ibtidoiy maktabdan boshlarlar. Haqiqatan, taraqqiy va taolo uchun birinchi yo'l va asos maktabdur. Maktab isloh qilinsa, umum ishlar isloh va tartibga kirdi, deb bo'ladur. Chunki, kamroq bo'lsa ham isloh qilingan maktabdan chiqqan

[1] *Moli mushtaraki* – sherikchilik yoki ommaviy mollar.
[2] *Matlab* – talab.

@tarixchi_kitob_xonasiga

bolalar islohparvar bo'ladurlar. Biz turkistoniylarga lozimdurki, bolalarimizning ko'z ochib ko'ra turgan 8–10 yillar umr sarf qilaturgan «doruttarbiya»lari bo'lgan maktablarning holiga nazari diqqat ila qarasak, xoh Buxoro, Samarqand, Toshkand, xullas, umum Turkiston shaharlarinda bo'lgan musulmon qarindoshlarimiz insof ila fikr qilsalar, maktablarimizni ko'p parishon va beintizom holatda ko'rarlar. Tahzib[1] va tasfiyayi axloq[2] degan narsa maktablarimizda hech yo'q. Muddati tahsil ko'p uzoq bo'lganligi uchun ko'p kishilar bolalarini 8–10 yil maktabga qo'yolmaydurlar. Chunki qudrati iste'dodlari yetmaydir. Ham maktablarimizga intizom yo'qdur. Shuning uchun maktabga yurgan bolalarimizdan 10 yo 8 nafardan 2 yo 3 nafari ahli savod bo'lub chiqadurlar.

Maktablarda zarur kitoblardan ta'lim bermaganlari va o'qugan kitobning ma'nosini bolalarga bildurmaganlari uchun bolalar o'qimoq va yozmoqdan boshqa maktabdan hech bir ma'lumot ololmaydilar. Maktab va madrasa bir millat va bir qavmning emas, butun kurrayi arzda yashayturgan insonlarning darajayi va taolosi bo'lub, maktab va madrasalari bo'lmagan yoxud bo'lub-da nizom va tartibga qo'yulmagan millatning holi parishon, moziysi barbod va istiqboli qorong'u va umidsiz bo'ladur. Bugun Buxoroda yuzlarcha madrasa va qariyb 350 qadar ibtidoiy maktablar bordur. Bulardan hech birisi tartib va intizomlik emas...

Ilmning fazilati nima ekanini aql-u zehn ila bilmoq mumkin bo'lgandek, Qur'oni karim va Hadisi sharifga ham bayon qilinub, tahsil-u ta'lim haqqinda tashviq-u targ'iblar ko'pdur. Ilm-u fan haddi zotinda sanoat jumlasidan bo'lganligi uchun boshqa san'atlar kabi madaniyat va umronga tobe'dur. Madaniyat ilgari ketgan holda ilm ham taraqqiy etib, ilgari ketadur. Nafsi ilm san'at jumlasidan bo'lgan kabi ta'lim va tarbiya ravishlari ham san'at jumlasidandur. Bano [Binoan] alayh[3] zamon va madaniyat taraqqiy etib, ehtiyoj va iztirorⁱ kabi shaylar ko'p voqe' bo'lgancha va tarbiyaning ravish va sur'atlari ham tag'yir[5] va tabdil[6] topadur. Bul tariqa tag'yir etub o'zgarganig'a aql-u farosat ahllari ham ittifoq etgandurlar. Bizlarg'a o'xshash olamg'a masxara bo'lub, o'z oralarida bul [usuli jadid] va ul [usuli qadim] deb, nizolashub turganlar. Asri saodatda ilmlar hamisha qalblarda saxlanub, umumiy ta'lim va darslar jome'larda bo'linub edi. So'ngralari maslahat iqtizosiga qarab ilmni, nashr [tarqatmoq] uchun maxsus joylar hozirlab, onlarga [maktab va madrasa] degan nomlar qo'yubdurlar. Shundan ma'lum bo'ladurki, asri

[1] *Tahzib* – tarbiya.
[2] *Tasfiyayi axloq* – xulqni soflashtirish.
[3] *(Binoan) alayh* – shunga binoan.
[4] *Iztiror* – zarur.
[5] *Tag'yir* – o'zgarmoq.
[6] *Tabdil* – almashmoq, o'zgartirish.

@tarixchi_kutubxonasiga

saodatda maktab, madrasalar yo'q ekan, so'ngra zuhud topubdur. Hozirda maktablarni idora jihatidan maktabi umumiya va maktabi xususiya deb, ikkiga oyirdilar. Ta'lim va tadris nazaridan ham ibtidoiy[1], ro'shdiy[2], e'dodiy[3] va oliy nomlariga taqsim qilinub yuritiladur. Ibtidoiy maktablar esa insonlarning eng ilgarigi va maorif xonasi bo'lub, onda: zaruriyoti diniya, odob, axloq, o'quv, yozuv, qiroat va xurufot darslari ta'lim etilub tahsil qilinur. Ibtidoiy maktablar bolalarni qanday bir yo'l va maslakga kirmoq xohlasa, ul yo'l va maslakka yoriturgan sur'atda bir quvvat paydo qilinub, chiqarga hozir etub beradur. Shuning uchun ibtidoiy maktablar ko'p oldin tutiladur. Ilm-u ma'rifatsiz hech bir millat muborizayi hayot maydonida turolmas. Ul millat xoh millati hokima va xoh millati mahkuma bo'lsun, ilm-u ma'rifatdan mahrum bo'lganligi uchun boshqa san'at va hunar sohibi bo'lgan millatlarning oyog'i ostida ezilurga majbur bo'ladur. Chunonchi, ziroat, sanoat, tijorat kabi lavozimoti insoniyatning vujudga kelmog'i maktab, madrasalarning tartiblik darslarning zamon va makonga muvofiq bo'lganligidandur.

Millati mahkum sifati ila yashoyturgon millatlar agarda o'zlarning din va milliyatlarni g'oyib etmay yoshomoqchi bo'lsa, alarg'a davlat va boylik hosil etmoq lozim bo'ladur. Boy bo'lgan millat dunyoda yashay oladur. Ul millatning diniga emas, hatto millatiga va shaxsiyatiga hech kim tega olmaydi. Masalan, yersiz, suvsiz qolgan yahudiylarning holiga qarab ibrat olsak ham bo'ladur. Alarni har bir mamlakat xalqi o'zlarining yerida turganlariga rozi bo'lub izn va javob bermaylar. Lekin, alar hamonda turarlar. Alarg'a qarasak qanday ulug' va katta shaharlarning eng yaxshi va eng tuzuk joylarig'a turarlar. Nimaga yaxshi joylarig'a turarlar? Chunki yahud millati badavlat va hunarmanddur. Hunarlik va boy bo'lmoq uchun nima lozimdur? Albatta, ilm-u ma'rifat lozimdur. Ilm-u ma'rifat uchun maktab, madrasalarning isloh qilinub, nizom va tartibka kirguzilmog'i lozimdur. Hunar va ma'rifatlik bo'lgan millatlarning xalqlari faqir va bechora bo'lib, darveshlar qiyofasiga kirub, gadoylik qilub yurmaylar. Ko'rarmizki, yerlari oz, xalq va aholisi ko'p bo'lgan Angliya va Germaniya mamlakatlari ilm-u san'atlar orqasida yer yuzining boyligini o'zlariga qoratub olibdurlar. Ammo yerlari ko'p, xalqi oz. Nima eksak, shul hosil bo'lurlik. Eron, Buxoro mamlakatlari faqir bo'lub, o'zgalarning turli mol va matolariga muhtoj bo'lub turadurlar. Buxoro va Turkiston musulmonlari uchun ziroatdan so'ngra eng ahamiyatli narsa savdo va tijoratdur. Musulmon dehqon va cho'ponlarining mehnati soyasida umum Turkistondan har-yil ikki yuz million so'mg'a qariyb narsa hosil bo'ladurki, shuning yuzdan to'qsoni yahudiy tujjorining qo'lidan

[1] *Ibtidoiy* – boshlang'ich ta'lim.
[2] *Ro'shdiy* – o'rta ta'lim.
[3] *E'dodiy* – maxsus ta'lim.

@tarixchi_kutubxonasiga

o'tadur. Faqat biz musulmonlar har ishda keyin borganimizdek, savdo va tijoratda yahudiylarning asiri bo'lduk.

Biz yerli musulmonlarga hammollik va ma'muriyatdan boshqa ortiq bir mavqe'i muhim qolmadi. Katta bino va mag'ozinlarni sohibi va xo'jasi yahudiydir. Mehnat qiluvchilar biz musulmonlardurmiz. Butun savdo va tijoratni qo'liga olgan homiysi yahudiy millatidur. Yahudiylarga o'pka qilmaymiz va adovatimiz yo'qdur. Alar o'z g'ayrat va mahoratlari ila ushbu poyaga chiqdilar. Har qancha nuqson va ayb esa yana o'zimizgadur. Savdo va tijoratda yahudiylar tutgan yo'lni tutmaduk. Yahudiylar bilgan ishni biz bilmadik. Bizlar esa aysh-u ishrat ila umr o'tkarduk. Imdod[1] va mu'ovanat[2] qiluvchilarga qo'l uzatmadik. Biz tashabbus qilsak, har ishda bizga ruslar yordam qilurlar. Zotan, ruslar ham bizning bu holimizga taassuf qiladurlar. Biz savdo va tijoratda ham quruq so'z va tayoq ila o'run tutmaymiz. Yana ilmga, maktabga muhtoj bo'lurmiz. Bizni taraqqiy va taolo qildirg'uvchi ibtidoiy maktabdur. Bizga yo'l ko'rsatmoq va bizni taraqqiy qildurmoq ulamo va ruhoniylarning vazifasi edi. Lekin bular o'z vazifalarini iyfo etmay, bizlarni jaholatda qoldurub, xarob qildilar. Xudoyi taolo jazolarini bersun, omin!

Eng katta olim, mufti a'yonimizdan: «Islomning bu holatga tushganiga sabab nima?» deb so'ra esak, «Alhamdulilloh, islomga hech nima bo'lgani yo'q», mazmunida javob oladurmiz.

Afandilar! Takror aytarmanki, kattalardan umid kesmoq kerak. Bizni va qora guruh avomni taraqqiy qildiruvchi, jahl va asoratdan qutqaruvchi maktabdur. Biz turkistoniylarning g'oyat muhim masalamiz maktab masalasidur. Maktablarimiz muayyan bir yo'lga kirsa, ya'ni isloh va tanzim topilsa, muning orqasidan boshqa milliy, diniy ishlarimiz isloh yo'lig'a kirub, millatimizning har jihatdan taraqqiy etmoqi va yuzlarimizg'a najot va rifohiyat eshigining o'zidan o'zi ochilub ketmog'i mumkindur. Yaqin fursatda «Oyna»xon qarindoshlarimizg'a: oz zamonda ko'p taraqqiy etgan millatlarning yo'llaridan birisini yozib taqdim etarman. «Insholloh taolo!»...

Niyoziy Rajabzoda.
«Oyna», 1914-yil, 38-son.

Mahalliy maktablar masalasiga doir

«Turkiston viloyatining gazeti»ning bir necha sonlarida ko'rilganiga nazaram Davlat Dumasi *[matnda – Gosudarstvennaya Duma]*da Rossiya mahkumidagi musulmonlarning ibtidoiy maktablarining tahsili va ish tartibi

[1] *Imdod* – yordam.
[2] *Mu'ovanat* – ko'mak, hamkorlik.

@tarixiy_kutubxonasiga

xususida guftigu borligi va ul xususida bir nechalar tarafidin tartibnomalar va programmalar yozilgani ma'lum bo'ladur. Ul xususinda Turkiston gazeti necha martada yozib, musulmon fuzalolaridin fahmlarin istixsor[1] va ul xususinda maktablar islohi uchun lozim bo'lgan maslahat bo'lsa, yozib bayon qilmoqlaridin tamanno [orzu] qiling'on edi. Ular to'g'risida hech bir taraf-din biror javob va biror izhori isloh yozilmay, magar birgina zot tarafidin bul xususda bir maqola yozilsa ham, uning mazmuni ul maktablar tahsili va tahsil programmasiga tegishli bo'lmay, tarixi ta'limni tuzatmoq o'rniga, bir-gina maqsadi maktabi ibtidoiylardagi muallimlar maosh vazifalarin ko'pay-tirmoq takmil[2] qilmoqdin ibrat o'ldi. Ammo, bu vahm durust va lekin, agar muallim yaxshi olim va fozil bo'lsa, uning uchun vazifaning hammadin ilgari mulohazasi lozim emas, chunki yaxshi muallim vazifa axtarmas, bal-ki vazifasi yaxshi muallimni axtarib, ammo har qaysi zamon mardumni o'z maslagiga tobe qilmog'ida har qaysi zot majbur tobi'dur. Chunki aksar ish-lar borki, hech kim ani qilmoqga talab qilmasa ham, xaloyiq qilmoqga tab'i iqtisozinga majburmiz. Zeroki, bu diyorga Rossiya kelmasdin ilgari xaloyiq ahvoli qanday va qay darajada, qay tariqada ekanligin andak mulohaza qil-gan zot albatta yaxshi bilsa kerak. Chunki ilgarigi ahvolot bilan endigi hayot o'rtasinda tafovut buldurki, albatta har kimga ma'lumdur. Tab'iy majburlik bulki, Rossiya kelmasdin ilgari safolchirog'bonga[3] zig'ir moyi solib, andak paxtani fillik qilib chirog' yoqib, uning yorug'ida tirikchil ila xursand bo'lib, umur o'tkargan zotlar endilikda o'ninchi lamfaning [lampa] yorug'i xursand qilmay, yigirmanchi va qirqinchi lamfa istaydurlar. Buni haqiqiy mulohaza qilganda ma'lum bo'ladurki, har qaysi zamonda har xil tirikchilik bo'lub, har qaysi tabiat zamonasig'a muvofiq tirikchilikni muvofiq orzu va havasni lozim tutadur. Rossiya kelmasidan ilgari bu tarafda yo'q narsalar, masalan, rezina kalish, kartoshka va boshqa narsalarkim, Rusiya bu taraflarga kel-gandan so'ng paydo bo'lgan holda, masalan, rezina kaloshni Rusiya kali-shi deb va kartoshkani Rossiya sabzisi deb o'ylardik. Ijtinob qilgan odamlar ham ko'rilgan edi. O'shal odamlar keyinroq vaqtda zamon parvarishga mu-vofiq fe'lxuy va odat qilib, rezina kaloshdan boshqa kavush kiymagani, tar-biyati badan bobida noravodek ko'rib, hech bir taomlari kartoshkadin ham holi bo'lmadi. Shunga o'xshash, zamon xohishiga muvofiq, milliy maktab-larimizda ilgarigi rasmda, ya'ni qadimda bir bola qoraxat tanimog'i uchun qadimiy maktabda o'n yil tuproqqa qorilib o'tirmog'i odamlarga ma'qul bo'lmay, suluki jadid[4] maktablarinda ijod qilib, o'n yil biladurgan ilmlarini

[1] *Istixsor* – muxtasar, qisqa.
[2] *Takmil* – mukammal, to'liq, takomillashtirish.
[3] *Safolchirog'bon* – moychirog'.
[4] *Suluki jadid* – jadid yo'li.

@tarixchi_kutubxonasiga

ikki-uch yilda bildirib, tahsili ilm va kamolot bir navsni[1] osonligi paydo bo'lganligi uchun, Turkiston viloyatining har qaysi shaharlarida suluki jadid maktablar ochilib, har qaysisiga ushbu zamon ahlining chin ko'ngildin xayrixohliklari oshkora o'lub, farzandlarin topshirmoqlari ila shogirdlar to'lmoqdadur. Vaholanki, bu xususda bir nav' qadimiy va ko'hna olimlarimiz va g'ayri ba'zi mu'tasidlar Turkiston viloyatinda avval martaba suluki jadid tartibini istalgan va ul xususda maktablar maktodilari uchun «Ustozi avval nomli alifbo» kitobcha ta'rif qilgan va uning ijrosi uchun bosh hokimlardin ijoza[t] olgan va mundoq yaxshi ishga birinchi darajada sabab bo'lgan toshkentlik Said Rasulxo'ja haqiga xele noloyiq so'zlarni gazet vositasi ila va g'ayri rasmiy suhbatlar vositasi ila intiqod etkurmoqda edilar. Endi bu zamonda shu qadar suluk qadimga tarafdorlik qilgan zotlar tamom orzulari va xayrixohliklari bilan farzandlarin usuli jadid maktablariga eltib, mening o'g'limni ham himoyayi tarbiyatingizga oling, deb qo'llarin ko'ksilariga qo'yib, iltimos qilmoqdalar. U «Ustodi avval alifbo»kim, ul har kim andin qochmoq va uning xususida noloyiq so'zlar aytdi. Keyingi zamonlarda mardum anga kam batadrij[2] odat qilib, uning nima ekanligin fahmlab, xonanda va mushtariylar ko'payib, bul usuli jadid xususida uning mufidligi va yaxshi ta'lif qilinganligi xaloyiqqa mashhur bo'lib, uning bilan bosh shogirdlarni o'qitilganda, ul kitob rasmiy sortiya tilimizda bo'lgani sababli go'daklar tez tushunib va manfaati tez zohir bo'lgan vajidin[3] mushtariylar ko'payib, ko'p sarf bo'lgani vajhidin ushbu ikkinchi hamalda ul kitob o'ninchi marotaba chopdin chiqa boshlabdurki, aksari mushtariylar qo'llarida ko'ringanicha na'ara ul kitobning o'ninchi tab'i avvalgi nashriga qaraganda xele ravnaqlik va mazin bo'lub, avvalgi chop qilinganlariga qaraganda iboratlarin fasohat va balog'ati ziyoda yaxshi va marg'ub o'lub, holo ham ul kitob o'z muallifi mazkur Said Rasulxo'ja chop qilmog'i ila uning qo'lida sotilmoqda ekan.

Bu jumla bo'lgan mazmun hammasi zamon xohishi bilan mardum kirishgan va o'z tabiatlari manobur qilgan ishdurki, andak yangi asarlardan g'ayr az foyda, zarar ko'rgan kishi bo'lmaydur va bo'lmaydi. Ammo, bizning bu tarafda bir xususda bizlarning beparvoligimiz borga o'xshaydur. Ul shul bo'lsamukim, bizlar o'z ona tilimizni fasohat[4] va balog'atining muhofaza qilmoqdin ojiz bo'lmoqqa yaxshilashibmiz, chunki bizlarning har qaysi maktablarimiz tatarlar shevasida va islohlarida tasnif qilingan kitob va risolalar bilan to'lmoqdadur. Garchandki, ahli islomlik vajhidin tafriqasi[5] lozim emasdur. Lekin, bizlarga o'z tilimizni tark qilmoq ham lozim emas. Zero-

[1] *Navs* – nav'.
[2] *Batadrij* – tartibsiz.
[3] *Vajidin* – hurmatidan.
[4] *Fasohat* – go'zallik, so'zamollik.
[5] *Tafriqa* – firqa, ajralish.

@tarixchi_kutubxonasiga

ki, bizlarning milliy tilimiz arab tili bo'lg'onligi bizlar musulmonlikni arab qabilasidin Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam arab bo'lganlari sababli so'z qilib, avvaldin oxirigacha musulmonligimiz ravnaq va ziyoli arab tili bilan bo'lmoqda. Bizlarga ham doim uning tahsili lozim bo'lib, hamma ulug' va kichik madrasalarda uning tahsiliga mashg'ulmiz. Va adabiyot kitob va risolalarimiz forsiy istilohida bo'lgani sababli ul ham bizlarga kifoya qilgudek mashg'ulimizdir. Endi bu zamonda nima sabab bo'ldiki, bizlarga tatarlarning ulug'indan bo'ldug'indan burchimiz tariqida dag'al islohlarin o'rganmoqqa amal qilib, o'z istiloh va fasohatimizni[1] tark qilmoqqa majbur bo'ldik. Bizlarni bu istilohimizda ushbu holda ham arabiy va forsiy va sartiy bo'lgan sababdin o'z tilimiz iste'molida uchun bir zabon edi.

Endi tatarlar buzuq tillarin ham qo'shib, o'z tilimizni to'rtdan bir darajaga keltirib, o'z tilimizni butun iste'moldan chiqaramiz. Biz xalqning o'z tilimizning muhofazasi lozim ekanligiga zehnlarimiz kirishgan vaqtda g'ayri millat bo'lsa ham, 1890–1899-yillar Toshkentdagi a'yoni mamlakatlar ionatlari bilan ochilmoq bo'lgan qori Abdulmannof maktabida muallim tatar bo'lmay, sartiya bo'lsa ham, andagi ibtidoyi maktab kitoblari tatar tilida bo'lgani sababli ul maktabi Turkiston general-gubernatori taroflaridan yopilgan edi. Shul vaj bilankim, har qaysi xalq o'z tilida o'qisin, o'z tilini muhofaza qilsin deb yopilgan.

«Turkiston viloyatining gazeti»,
1911-yil, 1-mart, 17-son.

Muhtaram yoshlarg'a murojaat

Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig'a tavassul[2] va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo'lgan makotibi ibtidoiyya ila intiboh[3] va islohot jarchisi bo'lgan milliy matbuot g'ayratlu yoshlarning harakoti maorifparvar onalari soyasida vujudga keldi. Shuning uchun har bir milliy havoyijimizdan bo'lgan mushkul ishlarda yolg'iz yoshlarimizni marja' va umidgoh tutib, alardan yordam so'raymiz [mollari yoki so'zlari ila millat foydasig'a yordamlari tekgan ba'zi ulamo-u ag'niyomiz ham yoshlar qatoridadurlar].

Muhtaram birodarlar! Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib taraqqiyning boshlang'ichi, madaniyat va saodatning darvozasidur. Har millat eng avval, makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko'payturmaguncha taraqqiy yo'lig'a kirub, madaniyatdan foydalanmas.

[1] *Istiloh va fasohatimiz* – tilga doir go'zal ishlatish, gapirish.
[2] *Tavassul* – bog'lanish.
[3] *Intiboh* – e'tibor.

@tarixchi_kutubxonasiga

Madaniyati hoziradan mahrum qolub, sanoye'[1] va maorif salohi ila qurollanmagan millat esa dunyoda rohat va saodat yuzini ko'rolmas. «Muborizayi hayot»[2] maydonida mutlaqo mag'lub bo'lur, oyoqlar ostida ezilur, diniy, iqtisodiy ishlarda o'zgalarning asiri bo'lub, bora-bora milliyat va diyonatini ham qo'ldan berur. Ana ushbu yo'llar ila oxiri mahv va nobud bo'lub ketar.

Binoan alayh, yer yuzidagi barcha millatlar o'z bolalarini ibtidoiy tarbiyasig'a va maktablarning har jihatdan intizom va akmolig'a ahamiyat berub, bolalarini milliy va diniy ruhda mukammal suratda yetushdurarlar. Aning uchundurki, o'zga millatlar diniy va milliy hissiyotg'a molik bo'lub, har ishda diyonat va milliyatni muqaddam tutarlar. Va luzumi kelganda bu yo'lda mol-u jonlarini fido etmoqg'a hozir turarlar. Mana, hozirgi urushlar va iqtisodiy tortishlar diyonat va milliyat hissiyoti natijasidur.

Endi, bizni Turkistonda munday hissiyotlar qayda? Modomiki, biz turkistoniylar ilm-u maorifdan haqqincha istifoda etmaymiz. Fazoyili insoniyadan sanalgan shaylar qanday hosil bo'lur? Chin insoniyat nimadan iborat ekanligini qaydan bilurmiz?

Bizlarda bir fazilat bor bo'lsa, ul ham faqat taassuboti johilonadan iboratdur. Demak, bizlar hozirgi nimkola[3] diyonatimizni yolg'uz taassub soyasida saqlab turubmiz. Lekin, ushbu tamaddun asrida ilmsiz quruq taassub ila ham yashab bo'lmas. Chunki zamonamiz shunday zo'rki, ozgina fursatda churuk taassubotimizni asosidan qo'parub tashlaydur. Shuning uchun zamonaning muhlik asbobig'a qarshi muqovamat[4] etadurgon bir narsa bor bo'lsa, ulda maorifdur.

Tahsili maorifni ibtidoiy qismi muntazam maktablar bo'lgan uchun endi biz Turkiston musulmonlarig'a ibtidoiy maktablarni ko'payturmoq lozimdur. Tabiiy, maktab muallimsiz ko'paymas. Hozirda esa Turkistonda muallim oz bo'lub, muallimlarga ehtiyojimiz shadiddur. Chunki bu kunlarda yangi maktab havaskoroni kundan kun ziyodalashmoqdadurki, muallimlar mavjud bo'lgan taqdirda har yil Turkistonda yuzlarcha maktab ochmoq mumkindur.

Endi ushbu mushkul hollarni nazari e'tiborga olub, Turkiston yoshlari muallif yetushdurmoqning chorasini topmoqlari lozimdur. Agar bukungi yoshlarimiz ushbu muhim vazifa va xizmatni ifo etmakga qasd eta boshlasalar, muallif yetushdurmoqni chorasi ham topilsa kerak. Chunonchi, Turkistonda muallim chiqormak uchun dorilmuallimin bo'lmasa ham, har shaharda usuli ta'limdan xabardor bir-ikki nafar muallim albatta bordur. Ana,

[1] *Sanoe'* – sanoat.
[2] *Muborizai hayot* – hayot bilan jang.
[3] *Nimkola* – chala, yarim.
[4] *Muhlik asbobig'a qarshi muqovat* – halokat sabablariga qarshi kuch to'plash.

@tarixchi_kutubxonasiga

muallimlikka tolib kishilarni alarning huzurig'a yuborub, 3–4 oy zarfida[1] usuli ta'limdan xabardor qildurmoq mumkindur. Agar boyafarz, ushbu xizmatni muallimlarimiz intizom[2] qilmasalar, ul holda muallimlikka havaskor yoshlarni biroz zahmatlik bo'lsa ham to'g'ridan-to'g'ri Toshkandda Munavvarqori janoblarining maktabig'a yubormoq kerakdurki, mushorun alayh[3]ning munday toliblarni ma'a al-mamnuniyat[4] qabul etmoqlarig'a amindurmiz. Ishta, muhtaram qarindoshlar, millatimizning tilagi va eng zo'r ehtiyoji ushbu shaylar ediki, nazari oliylaringiza arz-u taqdim etduk. Endi g'ayrat sizlardan, tavfiq Ollodandur.

Mahmudxo'ja Behbudiy.
«Oyna», 1914-yil, 41-son, 970-972-betlar.

Jamiyatlar qanday ochilur?

Maorif va madaniyat bog'chasining birinchi darvozasi maktabdir. Yer yuzindagi maorifli millatlarning har birlari madaniyat bog'chasina shul darvozadangina kirmishlar, ya'ni maorif va madaniyat yo'lina safar prog'romi yasalganda, birinchi moddasini shul «Maktab ochmak» masalasini qo'ymishlar. Ishlarini shul «maktab»dangina boshlaylar.

Maktab ochub, bilfe'l ish boshlagonlaridin so'ngra har tarafdin turli-turli nuqsonlar va ehtiyojlar ko'rila boshlamishdir. Maktabni ochub qo'ya qolg'on ila ish bitmasligi, balki aning farqi va davomi uchun moddiy va ma'naviy yordam va mu'ovanatlar, g'ayrat va himmatlar lozim ekonligi onglashilmishdir. Buning uchun eng yaxshi chora o'laroq «Jamiyat»ni tuzmishlar. Ya'ni, rasmiy bir qonun doirasinda xalqdan iona yig'ib, ochilmish va ochiladurg'on maktab va dorululumlarning nuqson va ehtiyojlarin yengillik ila isloh qilmoq va ado qilmoq usulini ijod etmishlar.

Bora-bora bu «Jamiyat» shul qadar taraqqiy qilmish va rahmat kasb etmishki, madaniy millatlarning butun taraqqiyoti diniya va ehtiyojiyoti milliyalari uchun eng ishonchli suyanchiq va muttakoyi ittihoz[5] o'linmish va ularda madaniyat narvonining birinchi bosqichi maktab, ikkinchisi jamiyat ekon, hozir ko'p yerlarda maktabni ikkinchilikka qoldirub, birinchi bosqichlik nomi muqaddasasini jamiyat o'zina olmishdir.

Maorif va madaniyat yo'lina yangi qadam qo'ya boshlag'on Turkiston musulmonlari ham, tabiiy, shul bosqichlarni bosmakka va shul darvozalardan kirmakka majburdurlar. Binoanalayh, hozirda bizim Turkiston ta-

[1] *Zarf* – miqdor, muddat, idish, o'lchov birligi.
[2] *Intizom* – jiddiy qabul qilish.
[3] *Mushorun alayh* – nazarda tutilgan.
[4] *Ma'a al-mamnuniyat* – mamnuniyat bilan.
[5] *Muttakoi ittihoz* – tayanch.

@tarixchi_kutubxonasiga

raqqiyparvarni ko'broq shul maktab va jamiyat atrofida ayilanmakdalar. Lekin, bu maktab jamiyatlarni ochmak uchun qanday tadbirlar lozim? Hukumatdan qaysi yo'l ila ijozat olinur? Qanday ustav va prog'ramlar ila ochmak foydali bo'lur?

Mana bu xususlarda idoradan yo'l va mashvaratlar[1] so'rab maktub yozurlar. Bunday maktublar nihoyatda ko'b bo'lg'onlig'i uchun har birina ayrim-ayrim javob yozub o'ltirmak idora uchun hele mushkullik bo'ladur.

Taraqqiyi millat va maorif uchun bundan foydali ishlarg'a tashabbus qila boshlag'on zotlarga tashakkur etmak ila barobar so'ragan savollarining javobini xususiy maktub ila bera olmag'onimiz uchun afularini rijo qilurmiz. Va jamiyat ochmak xususidagi savollarina javoban ushbu maqolani taqdim qilamiz: hozirda Toshkand, O'renburg', Qozon, Boku, Bog'chasaroy kabi musulmoni ko'b bo'lg'on shaharlarning har birida musulmon jamiyatlari bor.

Bir yerda jamiyat ochmoqchi bo'lg'on kishilarg'a avvalo shul shaharlardag'i jarida idoralarina yoxud mashhurroq kishilarg'a maktub yozub, jamiyat qonunnomasini, ya'ni ustavini so'ramak lozim. Maktub olg'on zotlar ham bunday foydali iltimosni ahamiyatsiz qoldurmasdan, ustavni topub yuboradurlar. Mana bu ustavlardan bir nechasini qo'lg'a kiritgandan so'ngra besh-olti kishi bir yerda o'turub, shul ustavlarni o'qub chiqurlar. Mashvarat qilishub, shunlardan birini aynan yoxud bir oz isloh ila qabul qilurlar. Yoxud bunlardan intixob qilub, yangi bir ustav yasarlar. Jamiyatg'a munosib bir ism topub qo'yurlar.

Ustav saylamoq yoxud intixob qilmak qaysi moddalarini nima uchun kiritilganligini ahli majlisg'a yaxshilab tushundirmak uchun majlisda zamondan va ilmi huquqdan, hech bo'lmag'onda, jamiyat ishlaridan xabardorroq bir kishining vujudi [ishtiroki] lozimdir.

Ustav yasolub, tamom bo'lg'ondan so'ngra: «Ushbu arizamiz barobarinda topshirilmish qonun doirasinda bir jamiyat ochmakka ruxsat bersongiz ekon», mazmunida bir ariza yozdirub, loaqal besh kishidan ustav ham arizani imzolatib, voyenniy gubernato'rg'a topshirilur. Ushbu ariza va ustavg'a qo'l qo'yg'an kishilar jamiyatning muassislari deb atalurlar. Hukumatning ruxsat bermog'i osonroq bo'lsun uchun ustavning ko'b kengayib ketmasligi hamda muassislarning hukumat qoshida e'tiborliroq kishilardan bo'lmoqlari yaxshiroqdur. Bunday kishilar topilmog'on taqdirda, sud hukmi ila ayblanmog'on va hukumat qoshida siyosiy jihatdan shubhali sanalmag'on har bir kishining muassislikka kirishmog'i mumkindir.

[1] *Mashvarat* – maslahat.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ariza berilg'ondan so'ngra muassislarni taftish va ispravka qilub ko'rmak uchun arizalari palisa idorasina topshirilur. Bu vaqtda, ehtimolki, ba'zi bilmag'on kishilar tarafidan qo'rqituvlar ham voqe' o'lur. Jamiyatga ijozat so'ramak muxolifi nizom bir ish o'lmay, xalq uchun ham, hukumat uchun ham foydali bir ish bo'lg'onlig'i uchun bunda qo'rqish va qo'rqutishlarg'a sabab bo'ladurg'on hech bir narsa yo'qdur. Binoanalayh, hech bir qo'rqmasdan, charchamasdan bu ishning orqasidan yurmak lozim.

Agarda biror sabab ila birinchi martabada tasdiq qilmasdan rad qilinsa, oni tuzotib, ikkinchi martaba rad qilinsa, uchinchi martaba murojaat qilmakka avvaldan jazm va qaror berub qo'ymak kerak. Agarda mas'ul muassislar orasinda bu ishning orqasindan yururg'a loyiq kishilar bo'lmasa, yonlarina bir advokat yollab, shuning vositasi ila yurutulsa, yana yengilroq bo'lur. Jamiyatg'a ruxsat berilg'ondan so'ngra, avvalo, mas'ullar yig'ilishib, o'z oralarindan bir sadrnishin[1], bir sarkotib va bir xazinachi saylarlar. Qolg'onlari idora a'zosi hisob o'linurlar. Bu kundan e'tiboran jamiyatning haqiqiy xizmati boshlanur.

Pul topmak, a'zo ko'paytirmak va qonun doirasida jamiyat vositasi-la manfaati umumiyag'a xizmat qilmak kabi ulug' himmat, g'ayrat va fidokorliklarg'a navbat kelur. Faqat ish bu darajag'a yetganda, muassis yonina bir necha o'zlari kabi fidokor millat xodimlari to'plang'on bo'lib, maqsudlarina ohista-ohista yetusha boshlaydilar. Ishda milliy bir jamiyatni vujudg'a chiqarmak uchun kerak o'lan yo'l, tartib va tadbirlar shundan iboratdur.

Ko'shesh badast-u po yo in az asar navmid nest,
In zori dom oxir mekashad naxjirro.
(Qo'l, oyoq bilan kurashtirishib, natijasidan noumid bo'lma,
Bu yolvorish oxiri o'z samarasini beradi).

«Sadoyi Turkiston», 1914-yil,14-iyun.

Musulmon maktablari ustidan nazoratning muhimligi haqida

Keyingi vaqtlarda gazetalardin ko'rinadurkim, Rusiya mamlakatining ichkari shaharlarida no'g'aylar oralarida hukumat ko'p nafar muallimlarni titkilab, aksarlarini hibs qila boshlabdurlar. Hattoki, yaqin fursatda Burchi nomlik qishloqda bir maktabxonani yopib, muallimni hibs qilibdurlar. Albatta, hukumat biron gumon qilsa, har qaysi odamni titib ko'radur. Undan yomon ish zohir bo'lsa, ul odamiylik bo'lsa kerak. Tintilgan odam hibs qilinsa, albatta besabab bo'lmasa kerak. Bul tariqa

[1] *Sadrnishin* – rais.

@tarixiykutubxonasiga

ishlarga sabab musulmon maktablarini rus inspektorlarining himoyalarida bo'lmaganligidin bo'lsa kerak. Chunki musulmon maktablarining muallimlarining aksari Nizom qoidalaridin bexabar odamlardin bo'lib, ba'zi vaqtda hukumatga bexilof to'g'ri odam bo'lsalar ham, nizom bilmaganliklaridin ba'zi hukumat nizomiga xilof kitoblarni ushlab, boshlariga balo yog'duradurlar.

Agarda maktabxona odamlari inspektorlarni himoyatida bo'lib, inspektorlar xabardor bo'lib turgan bo'lsa, albatta mazkur tariqadagi nizom bilmaydurgan muallimlarni xilofi nizom ishlaridin ogoh va xabardor qilib turodur edilar. Bilmaganlarini bildirib turib va ham ul muallimni hatto qilgan ishiga hukumat yoki boshqa jazo bermak bo'lganda, ul muallimni inspektorlar durust odam ekanligiga guvohlik berib, uni tarafdori bo'lib, qutqarib olmoqlikni taraddudida bo'lur erdi va musulmon maktablariga rus inspektorlari qarab tursalar, ul maktablar ularga panoh bo'lib, ularni boshiga tushgan qattiq tashvishlarini daf'i bo'lsa kerak. Ammo, o'z ixtiyoriga ochilib turgan musulmon maktablaridin gumondor bo'lib o'qiydurgon kitoblardin xavf qilib titib ko'rsa joizdur. Ammo muallimni hibs qilmoqlikga katta sabab bo'lsa kerakki, o'zbekda bir maqol borki, shamol bo'lmasa daraxtni[ng] bargi qimirlamas, degan.

Ajnabiy xalqlarni maktabxonalarini inspektorlar nazoratiga topshirmoq birgina Rusiya mamlakatida turk ilmiya vaziri nazoralari maktabxonalaridin xabardor bo'lib turmoqlikka tartibnoma chiqaribdur. Ul tartibnomaga muvofiq, hukumat inspektori mazkur maktabxonalarga qarab turub xabardor bo'lganligini vazirga ma'lum qilib, agarda vazir maktabni biror betartibligidin noxush bo'lsa, tartib joriy qilmoqlik potriarx vositasi bilan bajo keltirib, talab qilib, agarda tahsili ulum qilmoqlikka Turk mamlakati bilan barobar nasora maktabi bo'lsa ham nasoro[1] bolalari turk madrasalariga tahsili ulum qilmoqlikka kirsa, turk tilida imtihon bersa kerak. Shunga o'xshash necha xil tartiblar joriy ekan va shunga o'xshash boshqa mamlakatlarda hukumat o'zini ajnabiy fuqarolarini maktabxonalaridin benazorat turmaydur. Bizning Turon viloyatini musulmon maktabxonalariga hukumat vizorat[2] ta'yin qilishsa, albatta ul o'z g'ami emas, balki har xil tashvishlardin tashqari bo'lsa kerak.

Munavvarqori Abdurashidxonov.
«Turkiston viloyatining gazeti».
1911-yil, 28-aprel, 30-son.

[1] *Nasoro* – xristian diniga mansub.
[2] *Vizorat* – vazirlik.

@tarixchi_kutubxonasiga

Buxorodagi yangilik

Buxoro hukumati yanada yangidin maktabxonalarga inspektur mansabi joriy qilibdur. Buxoroda 140 adad maktab bo'lub, ul maktablarni ba'zilarida uch yoki to'rt nafar shogird bolalar bo'lub va har qaysi mahalla masjidida bir adaddin maktab bo'lgon sababdin bir necha maktabni jam' qilmoqlikka muqarrar qilibdurlar. Va ham maktablar vaqf aqchasidin bino bo'lub turub, ba'zi vaqf aqchalari kifoya qilmagon sababdin janobi oliy amiri Buxoro hazratlari oltmish tillo daromad bo'lmoydurgon vaqflikni maktabxonalarga xarajat bermaqlik farmoyish qilibdurlar va yana Buxoro sarbozlarini oralaridagi qari va ba'zi yoshlariga javob beribdurlar.

«Turkiston viloyatining gazeti»,
1911-yil, 10-aprel, 26-son.

Turkiston viloyatidagi mudarrislarning dasturilamali

Turkiston viloyatidagi madrasalarning katta mudarrislarig'a hukumat tomonidan berilgan dasturilamal:

1. Har bir madrasaning mudarrisi 2 tadan ko'p bo'lsa, shu madrasani katta mudarris boshqarib turadi.
2. Madrasaning mudarrisi bir bo'lsa, unga madrasani boshqarish huquqi beriladi.
3. Har bir madrasaning kichik mudarris, mutavalli va mullolari o'z madrasasining katta mudarrisiga itoat etishlari, nizom va farmoyishlarni ado etishlari kerak.
4. Har bir madrasaning mudarrisi madrasaning ustida turgan katta inspektorga va boshqa Rossiya mansabdorlarining nizomiga muvofiq qilgan farmoyishlariga keltirgan.
5. Madrasada paydo bo'lgan har qanday voqea va xabarlarni katta mudarris inspektorga yetkazib turishi kerak.
6. Madrasada istiqomat qilib turgan odamlardan biri halok bo'lsa, yong'in va ko'ngilsizlik, baxtsizlik bo'lsa, katta mudarris buning xabarini inspektorga va uchastkovoy pristufga, uyezd hukumatiga darrov yetkazishi kerak.
7. Har bir madrasaning katta mudarrisi har yili dekabrda mudarris, mutavalli va mullolar ro'yxati va darajasi, necha yildan beri yashaydi bu darajada, mana shular haqida ro'yxatni inspektorga ko'rsatishi kerak.
8. Katta mudarrisning o'z madrasasining vaqf mulklaridan va uning mahsulotlaridan xabari bo'lmasa, shu haqda madrasaning mutavallisidan so'rashi joizdir.

@tarixchi_kutubxonasiga

9. Har yili fevral [hut] boshida katta madrasaning vaqfida qancha mahsulot bo'ldi va shu mahsulotlardan mudarris va mutavalli va mullolar va boshqa aholi madrasa o'rtasida qancha pul taqsim qilingan va yana madrasa vaqfining kamaygani va ko'payganidan inspektorni voqif qilishi lozim.

10. Madrasa toza, ozoda bo'lishini katta mudarris idora qilib turadi.

11. Va yana mutavalli madrasaning shikast va ro'yxatini zarurat bor vaqt qilg'onini katta mudarris ehtiyot qilib tursa kerak.

12. Madrasaning vaqf saroyi va do'koni va jome va boshqa joylariga yetgan.

«Turkiston viloyatining gazeti»,
1899-yil, 16-aprel, 15-son.

Chalaqozoq madrasasida imtihon

Ushbu kuni Toshkent shahrining Sebzor dahasi Muhammad Karimboy Hoji madrasasida katta mudarris Bahodirjon maxdumning shogirdlari orasida imtihon bo'ldi. Imtihonda Beshyog'och, Shayxontohur va Sebzor dahalarining narodniy sudyalari, bir necha mudarrislar va muftiylar va gazeta muharriri Mullo Alim maxdum, chlen upravleniya Mullo Boqijonboy va Saidkarimboy Saidazimboy o'g'li, Mirza Abdulloh Muhammadboy o'g'li va Vali Hoji Mullo Abdumalik o'g'li va boshqa hurmatlik boy afandilar va otalar qatnashdilar. Talabalar o'z hamdarslari bilan jamoa-jamoa bo'lib, avval jamoa bahs harfi degan darsni o'qiydi, so'ngra ma'nosini forschadan turkiychaga tarjima qilib va yana shu jamoadan sharh mullo, shamsiya va hoshiya to mullo jalol va talxis salom darslarigacha o'z sheriklari bilan o'qib, arabiy iboralarni forsiy va turkiy tilga tarjima qildilar. Shu tariqa imtihon olingandan so'ng Mullo Mannop qori Qur'on o'qiydi. So'ngra yig'ilganlarga dasturxon qilinib, shirinliklar [qand, nisholda, murabbo va boshqa shirinliklar], osh tortiladi. Bunday imtihon avval Toshkentdagi Said Baroqxon madrasasida bo'lgan. Shundan so'ng ushbu madrasada 2 marotaba [imtihon] bo'ldi. Boshqa madrasalarda ham shu tarzda imtihonlar bo'lsa, ilmning rivoji yaxshi bo'lar edi.

«Turkiston viloyatining gazeti»,
1903-yil, 28-aprel, 6-son.

Buxorodagi islohotlarga doir

«Vaqt» gazetasig'a Buxoro shahridin yozibdurlarki, yaqin fursatda ... Buxoro shahrida madrasasi bor ajnabiy mudarrislarg'a moshiyona [maosh] beribdurlar. Ushbu vaqtg'acha mazkur mudarrislar shogirdlardin yig'ib olgon aqchag'a istiqomat qilib turur ekonlar. Janobi oli[y] alarg'a yaqinda

@tarixchi_kutubxonasiga

moshiyona ta'in qilibdur. Bul birinchi moshiyonani qozi kalon bosh bo'lub turib, qushbegi o'z qo'llari birlan berib, ko'p uzun nutq so'zlab, mu'allimlarg'a shogirdlarg'a yaxshi ta'lim berib, o'z mamlakatlarig'a ixloslik bo'lmaq xususida nasihatlar qilib, ko'p yaxshi so'zlar aytib, minba'd ham janobi oli[y]din alarni ahvollarig'a yaxshi tarahhum[1] qilmaqligi[ni] iltimos qilmaq bo'lubdurlar.

«Turkiston viloyatining gazeti»,
1911-yil, 29-may, 39-son.

Sababi tartib

Bolalarga o'quv, yozuv bildirmak uchun usuli savtiyaning osonlig'i necha yillik tajribalar ila ma'lum o'ldig'indan jumla islom viloyatlarining makotib va madrasalari bu usul ila tazyin va isloh etdiklari kabi 1319–1320 [milodiy 1902–1903]-yillarda bizning Turkiston viloyatining ham ko'p muallimlari bu usulni o'z orzu va ixtiyorlari ila qabul etib, maktablarda bu usul ila ta'lim bermakka boshlamishlar edi.

Lokin, taassufki, g'ayratlik muallimlarimizning harakatlari uzoqqa bormadi. Tezdan bu usulni tark etib, eski usullarini foydalik topib, anga ruju' etdilar. Bunga sabab na o'ldi? Jumla makotibi islomiyag'a yarag'on usuli savtiya Turkiston maktablarina yaramadimi? Xayr, afandilarim, albatta, yarar edi. Balki bu usulning vositasi ila hanuzgacha Turkiston musulmonlari heyli taraqqiy topar edilar.

Muallimlarning bu ruju'larina[2] sabab, avvalo usuli savtiyaning nadan iborat ekonin bilmaganlari, soniyan Turkiston shevayi turkiyasi ila tartib etilmish usuli jadida kitobchalarina molik o'lmag'onlari o'ldi. Modomiki, bu sabablar mavjud ekan, muallim-afandilarimiz ruju'larida haqli edilar. Chunki ul vaqtlarda Turkiston musulmonlarining gumonlaricha, usuli savtiya yolg'iz Ibrohim Haqqiyning «Aqoid» manzumasi ila «O'qu Qur'on yaxshilab» misrasini ko'p zikr etgan totorcha bir tajvid[3] manzumadan iborat o'lub, hamma maktablarda, hatto ko'chalarda turluk savtlar ila ul ikki risolani o'qita boshlamishlar edi.

Ul risolalar o'z tillarida o'lmadig'indan ma'nosini bolalar tugul, muallimlarning o'zlari ham durust bilmas edilar. Hol bo'yla o'lsa, usuli savtiyadan na foyda o'lsun, albatta, oz muddatda xalqni ham, muallimlarni ham usuli savtiyadan ko'ngillari qolib, usuli qadimiyaga qaytmaklari tabiiy, ham qaytdilar. Endi esa, alhamdulilloh, ul zamonlar o'tib, Turkiston musulmonlarini ul vaqtlarda damini ko'rsatgan usuli savtiya bu vaqtlarda boshqa a'zo-

[1] *Tarahhum* – rahm, shafqat.
[2] *Ruju'* – qaytish, qarshilik.
[3] *Tajvid* – Qur'onni o'qitish usuliga bag'ishlangan nazm usulida yozilgan kitob, risola.

@tarixchi_kutubxonasiga

larini ham ko'rsatmakka boshladi. Istanbuldan, Misrdan, Qozondan va har tarafdan muqtadir muallimlar kelib, ohista-ohista har yerdan maktab ochmakka, Turkiston muallimlarina usuli savtiya nadan iborat ekonin imtihonlar vositasi ila bildurmakka boshladilar.

Turkiston muallimlari ham usuli savtiya bolalarig'a harflarning ovozlari ila tanitmoq, o'qulg'on so'zlarni yozdirib, ma'nosini bildirmak, Bedil, Xo'ja Hofizlar kabi forsiy va mushkul kitoblarning badalig'a e'tiqod, imlo, husnixat, ilmi hol, hisob, tarixi islom, jo'g'rofiya, handasa, hay'at va soirlar kabi diniy va dunyoviy ilmlarni har kimning o'z tilida yozilmish kitoblardan o'qitib bildirmakdan iborat ekonin bilib, har birlarining ko'ngillarig'a usuli savtiyani qaytadan qabul etmak fikri tushdi. Lekin, na qilsunlar, bu etilmish ishlarning hech birina doir o'z tillarida yozilmish kitoblari yo'q. Istanbulcha, totorcha yozilg'on kitoblardan esa o'z tillarini durust bilmagan yosh bolalarga bir narsani bildirmak mumkin emas darajada mashaqqatdur.

Endi Turkiston maktablarina usuli savtiyaning umuman joriy bo'lmog'onida bir man'i bor esa, ul ham kitobsizliqdir. Chunki faqir usuli jadida tarafchisi o'ldig'indan ko'ringan muallimni usuli jadida taklif etmakda va alardan «O'z til va xatimizda kitob yo'q, totorcha kitoblarni o'zimiz bilmaymiz bilsamiz ham, bolalarg'a bildira olmaymiz» javoblari ila alzom etilmakda o'ldig'im kabi o'zim ham besh yildan beri kitobsizlik mehnatini chekmakda, bolalarga o'qitgan narsalarimni alifbog'a qadar Turkiston tili va xatig'a tarjima qilib, yozib o'tmakdaman. Modomiki, hol bo'yla ekan, Turkiston muharrirlari hanuzgacha usuli jadida kitoblarini tahrir va tarjimasini shuru' etmaganlari faqir qalam ojizonasini, garchi holig'a nomunosib o'lsa ham, oli qadar alhol usuli jadida kitobchalarini tahrir va tarjimasini mahsur va majbur etdi.

Har ishni alifbosidan, ya'ni avvalidan boshlab qilmak qonuni adabdan o'ldig'i uchun tahrir etgon kitobchalarimni boshlab alifbosini, ya'ni bu «Adibi avval»ni bostirib, hurmatlu muharrir va muallimlarimizni intizori oliyalarina taqdim etmagim ila barobar rijo qilurmizki, manim bu kitobchamni nazari diqqat ila boqub, ko'ringon nuqsonlarindan usuli savtiyag'a xilof o'lg'on yoki bolalarg'a bildurmaki mushkul o'lg'on yerlaridan faqirni ogoh qilmak ila yordam bersalar, shoyadki 2-chi tab'ikim benuqsonroq o'lurdi. Vassalom.

Munavvarqori Abdurashidxonov.
«Tujjor», 1907-yil, 8-oktabr.

@tarixchi_kutubxonasiga

Bizni hollar va ishlar

12-adad «Oyna»da Samarqandning Mirzo Ulug'bek hazratlari jome'-inda muazzin tarafidan usuli jadid maktabinda va ham ruscha o'qumoqni yamonligi haqinda jumadagi musulmonlarg'a nutq qilingani va har kim usuli jadida maktabig'a bola bersa, «o'zi kofir, xotuni taloq» degani va bir necha samarqandiyni otturub, alar kofir va o'rus, degani yozilib edi. Ushbu nutq hukumatg'a ma'lum bo'lub, hukumat tarafidan Madrasayi Tillokor va Madrasayi Mirzo Ulug'bek mudarrislari janobi mullo Imomnazar va janobi Mullo Salim va ham nutq qilgan muazzindan so'ralibdur. Janobi mudarrislar ushbu nutqdan xabarimiz yo'q debdurlar. Muazzin aytibdurki, «man usuli jadid va yo ruscha o'qumoq va yo usuli jadidchilar haqqinda hech bir nimarsa aytganim yo'q. Faqat «Anjuman Arvoh» ismindagi yangi chiqqan risolag'a e'tiqod qilmanglar, dedim», – deb boshqa aytganlariga munkir bo'lubdur. Hukumat tarafidan bildurilibdurki, ba'dinda shunday yamon harakatlar voqe' bo'lsa, sababchini besh yillik badarg'a qilinur. Kitob to'g'risinda zokun bo'yincha harakat lozim. Bechora muazzin masjidi jome'da bir necha ming kishi huzurinda aytgan so'zig'a munkir bo'lg'oni, uni qaysi darajadagi odamligini ko'rsatur. «Oyna» muhamarrini imoniga ham o'shal muazzin chang solibdur, degan so'zlar ham eshitiladur. Bul so'z sobit bo'lganda «Oyna» muharriri, albatta, unga da'vo qazf qilur. Alon muazzin so'zig'a umumiy tarafdan qarab biroz muhokama qilarmiz. Usuli jadid va ruscha o'qumoq raddig'a so'ylagani sobitdur. Biz avvalan shuni yozarmizki, na usuli jadida maktabig'a o'qugan sababli va na ruscha o'qugani vajhidan kishi kofir bo'lmaydur. Muazzin munga hech dalili shar'iy va aqliy ko'rsatolmaydur. Mundan qat'i nazar, muazzinning ustozi muhtaram Hoji Mullo To'raxo'ja mudarris janoblari usuli jadid maktabining boniysi hisoblanurlar. Usuli jadidchilarni va ruscha o'quganlarni ma'lum majlisda kufr qudug'i bo'ynig'a suragan samarqandiy muhtaram Mullo Sayyid Ahmad Vasliy shoir janoblari va Hoji Ahmad mudarris janoblari va Hoji Ahmad mudarris janoblarining ustozlari muhtaram Hoji Mullo To'raxo'ja janoblarig'a Istanbul Shayx-ul-islomi: «Turkiston va Buxoroda usuli jadid maktablarini rivoj bermoqg'a va Rusiya maktablarig'a bola bermoqg'a ulamoning sa'y-u harakati lozimdur», deb aytganlarini mazkur muhtaram Hoji Mullo Ahmad mudarris janoblari naql qilib aytdilar. Hamda Mullo Ahmad afandi aytib edilarki, Istanbul shayx ul-islomini ustodim Eshon to'ra ilan ziyorat qildim. Shayx ul-islom janoblari dedilarki, biz eshitarmizki, Buxoro va Turkiston ulamosi usuli jadidni yamon der emishlar, ajabo! Dalillari nadur, deb mulohaza qilmoqchi bo'lganda man, Mullo Hoji Ahmad, dedimki: «Afandim, bizni shayximiz [Eshon To'raxo'ja domlani murod etar] usuli jadidni mudofe'i va homiysidurlar», deb qutuldik. Ajabo, Hoji Mullo Ahmad

@tarixchi_kutubxonasiga

mudarris janoblari Istanbuldan shul qadar so'zlab, yana qanday ham nomi kiromiylari ilan bir-ikki jadidchini ma'lum maylisda alar g'oyibonasiga janobi ustodi muhtaram Hoji Mullo Abduljalil Mahmud mudarris va Hoji Mullo To'raxo'ja mudarris huzurlarinda kufrg'a bergan odamlaridanki, biri rusiy o'qigan rasmiy ma'muri hukumat, digari ruscha bilmaydurgan oddiy bir kishidur. Alar haqqinda hurmat va rioyat, balki ionatdan boshqa bir nimarsa sodir bo'lgani yo'qdur.

O'tayluk, hanuz olti oy bo'lg'ani yo'q. Usuli jadid maktabinda voliy viloyat huzurinda Samarqand qozisi va Samarqandni akbar ulamo va ... janobi qozi Mullo Muhammad Isoxo'ja mudarris va qozi Abulhay xo'ja va qozi mullo Abulqosim va qozi Mullo Baqoxo'ja janoblari usuli jadid maktabini ayni shariat va usuli qadimdan ko'ra nofe'ligini bayon qilib edilarki, «Samarqand» jaridasi yozib edi. Ajabo! Olti oy o'tmasdan qanday bo'ldiki, usuli jadid maktabi va usuli jadidchilar majlislarda, hatto jome'i sharifda takfir qilinadur? «Anjumani arvoh» risolasi haqqinda ham janobi qozi Mullo Muhammad Isoxo'jani so'zlarini hamma to'g'ri va durust, deganlari rivoyat qilinur. Hammadan ajoyibi bulki, muazzin minglar ila kishi huzurinda aytgan so'zlarig'a hukumat huzurinda hamda o'zini ustodi huzurinda munkir bo'lur. Biz bu so'zni yozmas eduk. Va, ammo, butun xalq orasinda shuhrat topgani va jome'i sharifda so'ylangani uchun va Turkistondaki yuz ming otalarga bolalari usuli jadid maktabig'a o'qiydur. Alarg'a daf'a ishtiboh qilmoq uchun va xaloyiqni har nimarsadan aziz iymonig'a chang urilgani uchun yozib, fursatimizni favt qilarmiz. Va illo, aytib turib munkir bo'lguvchi kishi so'zini bir pullik e'tibori yo'qdur. Oh, biz qanday keyin qolganmiz. Xalqi olam usuli jadid va ilmi zamonaviy ila osmonlarg'a uchar. Biz hanuz bir-birimizni takfir va ta'iyn ila vaqt o'tkararmiz.

Mahmudxo'ja Behbudiy.
«Oyna», 1914-yil, 13-son. 200-202-betlar.

Buxoroda usuli jadid

Usuli jadid masalasi Buxoroda har xil hollarga sabab bo'lubdur va har joylarda taftish bo'lib, Buxoro hukumatdorlari no'g'oy muallimlarni va sartiya muallimlarini tekshirib, qarovul topmoqda emishlar. Abdurrahmon nomli bir muallim kunduz kunlarida katta va kabir odamlarni xat yozmakg'a ta'lim bera boshlagon ekon. Qushbegi tarafidin to'rt nafar kumush kamarlik kishilar kelib man' qilibdur. Ba'zi xabarga qaragonda bu ishni totor [tatar] Qamariddin G'ani qildurgon emish. Oning ma'murlar ila munosabati bor ekan. Shundan foydalanib, usuli jadidning avom orasig'a torqotishidin xavf qilib, bu ishni qilg'on emish. Yana Piterburg'din bir taftishchi

@tarixchi_kutubxonasiga

kelib, Ko'kaltosh madrasasig'a xalqni yig'ib, bir necha savollar so'ramish. Savollarning biri usuli jadid ekon.

Taftish 27-martda Ko'kaltosh madrasasida bir majlis ajlos bo'lub, qozi kalon ishon, rais ishon, a'lam, o'n bir mufti va bir necha mudarrislar hozir bo'lub, taxminan yuz nafarga yaqin odam jam' bo'lg'on ekon. Piterburg'din kelgon mufattish[1] ruscha ham forscha so'zlashodur emish. Savollari:

1. Maktabi jadidni nima uchun man' qilosiz? Munga sabab nimadur?
2. Madrasalarda hujralarni bay'-shiro[2] qilosizlar emish, bu ish shari'atcha durustmu?
3. Ziro'atlardin podshohlikg'a olunodurgon ushr va xiroj shari'atga muvofiqmu?

Shul uch savolning javoblarig'a rivoyat topib, muhr bosib berasizlar, deb ulamo hammalari ittifoq ilan bu ishni ishoni a'lamga tobshurdilar. Ishoni a'lam o'n kun muhlat olib, javob bermakchi bo'lubdurlar. Bul xususda ulamolar orasida ko'b muxolifat bo'lubdur.

«Turkiston viloyatining gazeti»,
1910-yil, 6-may. 33-son.

Ikki emas, to'rt til lozim

Biz turkistoniylarg'a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur. Turkiy, ya'ni o'zbekini sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o'zbakiy so'ylashur. Forsiy bo'lsa, madrasa va udabo[3] tilidur. Bu kung'acha Turkistonni har tarafindagi eski va yangi maktablarinda forsiy nazm va nasr kitoblari ta'lim berilib kelgandur.

Barcha madrasalarda shar'iy va diniy kitoblar arabiy ta'lim berilsa ham, mudarrislarni[ng] taqrir-u[4] tarjimalari forschadur. Bu qoida, ya'ni dars kitobi – arabiy, muallim – turkiy, taqrir-u tarjimani forsiyligi hiyla ajibdur.

Turkistonda qadimdan beri bu uch til joriydur. Chunonchi, eski yorliqlardan ma'lum bo'lurki, Turkistonda eski amir va xonlarni[ng] amri farmoyish va muborak nomalari doimo turkiy, yana ayni zamonda dorulqazo[5] adabiyot tahrirlari forsiy yozilar ekan. Bu qoidalar zotan yaxshidur. Ammo, bora-bora, yoinki kela-kela usuli ta'lim va kitobatg'a ehmol[6] paydo bo'lub, hozir bir darajag'a kelibdurki, ahli savod yoinki ahli

[1] *Mufattish* – tekshiruvchi, taftish qiluvchi.
[2] *Bay'-shiro* – savdo-sotiq.
[3] *Udabo* – adiblar.
[4] *Taqrir* – iqror, bayon.
[5] *Dorulqazo* – mahkama, qozixona.
[6] *Ehmol* – beparvolik.

@tarixiy_kutubxonasiga

ilmni yuzdan to'qson to'qquzi bu uch tilda mukammal taqriri adabiyg'a molik yo'qdur. Ya'ni, usuli ta'lim va tadrisni isloh etmak kerak. O'tayluk, Turkistonning Samarqand va Farg'ona viloyatlarinda forscha so'ylayturgan bir necha shahar va qishloqlar bordur. Buxoro hukumatining tili forsiydur. Fors shoir-u udabosi asarlari qiyomatg'acha lazzati ketmayturgan xazinayi ma'naviydurki, mundan foydalanmoq uchun ovrupalilar milyardlar sarf etarlar.

Bizg'a saodatdurki, turkiy va forsiyni tahsilsiz bilurmiz. Har turkni forsiy va har forsni turkiy bilmog'i lozimdur. Forsiy bilgan kishi Firdavsiy, Bedil, Sa'diy, «Masnaviy»dan[1] qanday lazzat olsa, turkiy bilganlar Fuzuliy, Navoiy, Boqiy[2], Somiy[3], Abdulhaq Homid[4], Akrambek[5], Sanoiy[6], Nobiy[7], Nojiylardan[8], yana Tolsto'y, Jyul Vern va ulamoyi zamoniy asarini turkiy tarjimasidan lazzat shunday oladur.

Farang va rus donishmandlarining asarlaridan foydalanmaq turkiy yo rusiy va farangiy bilmak ila mumkin bo'lur, na uchunki, bugun usmonli, Kafkaz va Qazon turklari zamona ulamosi asarini turkiyg'a tarjima qilib, ko'paytirgandurlar, ya'ni turkiy bilgan kishi zamonni bilur. Turk tilig'a har bir yangi va naf'lik kitoblar barcha tilda tarjima bo'lgandur. Arab madaniyati yunoniy Suqrot, Buqrot, Falotunlardan foydalanganidek, zamoni hozira madaniyati Tolsto'y, Jyul Vern, Kepler, Kopernik, Nyutonlardan foydalanur. Maqsaddan uzoq tushdik.

Bizg'a lozimki, o'z naf'imiz uchun ruscha bilayluk, hukumat maktablar'nda o'quylik. Davlat mansablarig'a kirayluk. Vatanimizg'a va o'z dinimizg'a xizmat etayluk. Musulmon bo'lub turib taraqqiy qilayluk. Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto dini islom va millatg'a xizmat ilmsiz bo'lmaydur. Masalan, bugungi «podsholik duma»g'a o'z din va millatimiz naf'ig'a so'zlamoq bizlar uchun mumkin bo'lur. Ammo, anda borib so'ylaguvchi kishi bizg'a yo'q. Anda borib naf'i bir o'n sana o'qumoq kerak, zamondan, qonundan xabardor bo'lmoq kerakdur.

Xulosa, bugun bizlarg'a to'rt tilg'a tahrir va taqrir etguvchilar kerak, ya'ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy.

---

[1] «*Masnaviy*» – J. Rumiyning mashhur asari.

[2] *Mahmud Abdul Boqiy* (1526–1600) – mashhur usmonli shoirlaridan, «Sumbul qasidasi»ning muallifi.

[3] *Somiy* (1850–1904) –«Qomusul a'lom»ning muallifi.

[4] *Abdulhaq Homid* (1852–1937) – mashhur turk shoiri.

[5] *Akrambek* (Rijoizoda Akram, 1847–1914) – «g'arbchi» jadid shoiri.

[6] *Sanoiy* (Ibrohim Shinosiy bo'lsa kerak, 1826–1874) – mashhur turk masalnavis shoiri.

[7] *Nobiy* (Yusuf Nobiy, 1640–1712) – usmonli shoirlaridan.

[8] *Muallim Nojiy* (1850–1893) – «sharqchi» shoir.

@tarixchi_kutubxonasiga

Arabiy til din uchun na daraja lozim bo'lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur.

Hadisi sharifdan ma'lum bo'ladurki, janobi payg'ambar o'z sahobalaridan Zayd bin Sobit[g'a] yahudiy xatini o'qub-o'rganmoqg'a buyurgan ekanlar. Va ul janob Umar hazrat nubuvvat panohi ila yahudiy xatini o'rganib, hazrat payg'ambarg'a yahudiylardan kelaturgon xatlarni o'qub berar ekanlar [Sahihi Buxoriy, 4-juz, 156-sahifa].

Holbuki, ul Zoti bobarokot payg'ambarimiz quvvati hokima egasi edilar. Yahudiylar mahkum va tobe' edi. Alon Rusiya hokim, bizlar anga tobe' va o'z tirikligimiz uchun alar xatini bilmoq zarur va Hadisi sharif dalolatincha durustligig'a joyi inkor bo'lmasa kerakdur.

Mahmudxo'ja Behbudiy.
«Oyna», 1913-yil, 1-son. 12-14-betlar.

Har millat o'z tili ila faxr etar

...Zamonamizdagi eng muhim masalalardan biri til masalasidur. Hushyor millatlar muning ahamiyatini barcha masalalardan ortiq sanaydurlar. Chunonchi, tillarini kundan kun soflandurub, tillari ichig'a kirgan begona so'zlarni tashqari otib, isloh qilurlar. Bir darajag'a tillaridan xabardorlik qiladurlarkim, o'rni kelganda bir ajnabiy so'zi o'rnig'a ikki yo uch kalima o'z so'zlaridan qo'shib ado qiladurlar. Mana shul sababdan adabiyot va milliyatlari kundan kun taraqqiy qilib bormoqda. Darvoqe, qaysi bir millatkim, o'z tilini begona lug'atlardan ozod saqlasa va o'z millatini muhofaza qilsa, din va oyinini qo'ldan bermaydur. Ammo, biz turkistonliklar esa g'aflat va jaholatimizning ko'pligi sababli, bu muhim masaladan ham bexabarmiz. O'z tilimizda turkiycha va arabcha so'zlar bor bo'lgan suratda, yana havasaki, rus yo farangi so'zlarini o'rtag'a suqib iste'mol qilamiz. Ikki turkistonlik turk bir-birovi ila so'zlashganda havasaki rus lug'atlarini o'rtag'a kelturub suqmoqlig'i ayni hamoqat[1] bo'lsa kerak. Boshqa hushyor va tarbiyatlik millatlar bul ishni or va katta ayb sanaydurlar. Boshqa erlini nari qo'yduk, ushbu Turkistonimizda qaysi bir rus yo qaysi bir armani o'z tilini qo'yib, bir-birovi ila turkcha so'ylaydur. Ammo, bizning so'ylaganimiz vaqtida hech bir bo'lmasa, har bir kalima rus so'zi eshitilur. Masalan, «mango biroz pomagat qiling», «oni muncha ishtraf qildilar», «falon odamning do'koni pechat qilindi», «Behmadonchaning bog'iga orest soldilar», «man qarzimni sofsem tamom qildim», «bul joy ko'p chista ekan», «yuring, gulat qilamiz», «faloncha persiyonmi yoki sart?». Vaholanki, bul so'zlarning hammasi musulmoncha ado bo'lina olur.

[1] *Hamoqat* – ahmoqlik.

@tarixchi_kutubxonasiga

Masalan: Pomogat – yordam, ishtraf – jarima, pechat – muhr, orest – hibs, ovoq, sofsem – tamom, butun, chista – toza, persiyon – eroniy, sart – turkistoniy yoki o'zbek. Muni ham aytmay qo'ymaymizkim, bularni yozmoq ila maqsadimiz ruscha o'qimaslik yoki o'rganmaslik emasdur. Hoshokalloh[1], hech bir oqil va hushlik kishi ruscha o'qib so'ylashmoqlikning luzumi yo'qdur, deb aytolmas. Lekin o'z tilingni qo'yib o'z hamzabon, hamdining ila ruscha, farangcha va g'ayra so'ylashsang aybdur, ordur. Boshqa so'z ila gojliqdur, deb aytulur. Agar til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug'at va so'zlarni qo'shabersak, biroz zamonda til va milliyatimizni yo'qoturmiz. Milliyatimizni yo'qotganda diyonatimiz o'z-o'zila albatta yo'qolur. Bas, bizg'a tilimizni ajnabiy so'zlardan muhofaza qilmoqlik eng birinchi muhim bir vazifadur.

Sadriddin Ayniy.
«Oyna», 1914-yil, 35-son. 836-838-betlar.

Til va imlo masalasi

Bu kunda butun Turk qabilalarining ish qilub vujudg'a chiqarilgon, faqat har zamonda xotirg'a achinub, oning xususida qancha muzokara va mubohasalar bo'lub tursa ham, haligacha qat'iy bir natija bermagan umumiy bir masala borki, shubhasiz til va imlo masalasidir. Til va imloni mayin bir izga qo'yish, matbuot va adabiyot uchun eng muhim bo'lg'on bir masaladir. Binoanalayh, milliy matbuotg'a ega bo'lg'on har xalq boshlab o'zlarining til va imlolarig'a diqqat etadirlar. Odam bolasi so'zlashmak uchun tilga ne qadar muhtoj bo'lsa, matbuot, adabiyot ham yaxshi imlog'a shuncha muhtojdir. Tili va imlosi loyiqincha[2] isloh etilmagan millatning matbuoti, adabiyoti asrlarcha aralashib kelgan kirlar ila qoralang'on holda bo'lur. Buni ko'rib o'quvchilarning ruhlari buzilur, havas va risolalari qaytar, matbuotda bir-biriga muxolif, chuvolg'on narsalarni ko'rub, ichlari bo'sha boshlar.

Tilsizlik, imlosizlik millatga bergon ma'naviy zararlarni, bil'aks tuzatilgan til va imloning kelturgon foydalarini yoza boshlasaq, o'zi bir necha maqola bo'lishi e'tiborg'a olinub, bu to'g'rida so'zni kesamiz. Zotan, til va imlo masalasi nimadan iborat bo'lg'onin fahmlaydurg'on bir hovuch ziyolilarimizg'a bu haqiqatlar ochiq ma'lum bo'lsa kerak. Faqat masalaning bizim uchun eng muhim bo'lg'on nuqtasi til va imlo degan narsalarining o'qug'on sinfimiz orasida hanuz e'tiborg'a olinmasligi va bu to'g'rida na tillarda va na matbuotda jiddiy muhokamalarning boshlanmasidir. Til va imlo masa-

[1] *Hoshokalloh* – Alloh saqlagur.
[2] *Loyiqincha* – loyiq bo'lguncha.

@tarixchi_kutubxonasiga

lasi bizda eng mushkul va chuvalg'on bir masala bo'lg'oni uchun qancha ilgariroq boshlansa, shuncha yaxshi va foydali bo'lur edi.

Holbuki, til va imlo haqida bizda halig'acha uluv juz'iyagina[1] bo'lsun, so'z chiqarg'on kishi bo'lmadi. Yozuvchilarimiz va shoirlarimiz bu yo'lda hech bir turli tashabbus ko'rsatmadilar. Baxusus, shaharlarimizning imlolarin ko'rub, nozik hislarimiz buzilub keldi. Bu jihatdan qaraganda ham adabiyot bozorida ularning qiymatlariga halol kelar edi. Yozuvchilarimiz bo'lsa ko'proq xalq orasida ko'rilib turgan odatlarni va kelishilmagan hollarni tanqid qilub kifoyalandilar. Millatning hozirgi holiga va xalqda bo'lg'on saviya fikrlarga qaraganda, til va imlo masalalari ila jaridalar to'ldirib chiqarmakdan albatta ko'b foyda hosil bo'lmas. Ehtimol zarar bo'lsa. Faqat bu kabi adabiy masalalarni muhokamasig'a borub afkor ommaga ishtirok qilurday o'zlaridan mulohazalar taqdim etarday saviyalar avomdan kutub turmak va endi ta'sis qilunmakg'a boshlagan yangi adabiyotimizni ham hozirg'acha davom etib kelgan eski imlomiz ila qoralamak fikr ojizimizga bino hech ma'qul emasdir. Jaridalarimizni, maqolalarimizni, ya'ni asarlar ila maktab kitoblarimizni sekin-sekin isloh etub, yangi amal ila chiqarmakg'a g'ayrat etmak haligi bir hovuch muharrir, adib va muallimlarimizning vazifalaridir. Bu ishni qachon bo'lsa ham umum qilub bermas, balki shul ziyolilarimiz o'zlari qilurlar. Endi millatda ilmiy va adabiy quvvat hosil bo'lib, haqiqatda ilum va maorif davri kelg'onga beparvolik qilunmasdan, bu kundan e'tibora har xususimizni va shul jumladan, til va imlomizni tadrija isloh etmakga kirushsa, juda yaxshi bo'lur edi. Shunday bo'lsa ham bu ish juda uzun muddatga cho'zulur, bu xususda yozilg'on ko'b mulohazalar oldindagi kabi samarasiz qolurlarki, lekin keyindan albatta bir zamon kelur. Sanalarcha ekilgon donlar teshilub, ko'karib chiqar va ul vaqtdagi tilchilarimiz va imlochilarimiz tarafidan taqbiya etilub, nihoyat oz samara bermakga boshlar edilar. Yo'qsa, biz hozirda til va imlo masalasida nihoyat darajada keyinda qolg'onmiz. Hali bizda milliy matbuot va adabiyotimizning til va imlosi isloh qilunish, xalq orasig'a imlo va kitobat usullarin ko'rsatadirgon majmualar taratush va bunga o'xshash ilmiy va adabiy tadbirlar hech yo'qdir. Hatto, biz bu kunda sal yangi ruh o'ralgan usul jadida maktablarimizda o'qiydurgon va endigina qo'llarig'a qalam ushlab ona tilining xatini yozmakg'a boshlag'on ma'sum bir idoralarimizni ham imlo va til buzuqligidan saqlay olmaduk. Oq, qora, to'g'ri va xatoni hech o'ylamasdan, xususiy maqsadlarimiz yo'lida bir qadam bo'lsa ham olding'a chiqub olmak farzlari ila u tarafdan-bu tarafdan ba'zi ishlar to'pladik-da, maktab va sinf kitobi yozg'onday bo'lub, ko'tarib bozorg'a chiqarduk. Yozg'on narsalarimizning qimmat ilmiyalari, mansub bo'lg'on maktab

[1] *Uluv juz'iyn* – eng kam, juz'iy darajada.

@tarixchi_kutubxonasiga

va sinflarig'a muvofiq shogirdlarning bulardan iste'fodalari va olg'on fikrlari ularning ruhlarida qanday hislar va ta'surlar vujudg'a chiqaruv va tarbiya, maktab va matbuot dunyosida tutg'on mavqelari e'tiborg'a olinurmi? Yo esa, mutlaqo bir kitob shaklida bozorg'a chiqaradurlarigina maqsad etilub kuzatildimi? Bu savollarga javobni, qorilarim, o'zingiz berub unarsiz. Endi bu o'rinda javob beriladigan savol imlolari, tillar, ifodalari va inshola-ri va bularg'a o'xshash ibtidoiy maktab uchun eng muhim bo'lg'on asoslar, maktab kitoblarimizda diqqatg'a olinadimi masalasidir. Mana bu savolga berilgan javobdan ibtidoiy maktablarimizning til va imlo jihatdan bo'lg'on darajalari, ona tiliga qilub yotgan xizmatlari, maktab kitoblari yozuvchi muallimlarimizning kitob yozg'ondagi vazifalarin tushunib-tushunmaganliklari shoyad onglashilur. O'run tor bo'lg'oni uchun hozirgi maqolaga nihoyat beramiz.

Rauf Muzaffarzoda. «Sadoyi Turkiston», 1915-yil, 19-fevral. 60-son.

Til masalasi

Turkchaning sho'ba va shox[a]lari bo'lgan o'zbek-chig'atoy, totor, ozarbayjon, qozoq va turkman lahjalarindagi yangi matbuotning eng ahamiyatlik masalalaridan biri, albatta, sheva, lahja, imlo masalalaridur. Yuqoridagi lahjalarda so'ylayturgon turk bolalari bir-ikki ming sanadan beri Eron xalqining alarg'a va yo alarni eroniylarg'a istilo etganlari sababidan fors madaniyati va adabiyoti va lug'atlari nufuzig'a mahkum bo'lub, fors tilidan bir heyli lug'at va jumlalarni xoh-u noxoh, abadiy va doimiy suratda olganlarki, u jumla va lug'atlardan bir qismini turkiy lahjalardan chiqorib tashlamoq go'yo mumkin emasdur. Va bir qismini murodifi[1] turkchadan topilmaslik darajada g'oyib bo'lgandur. Balki... biz turkchag'a bugun iste'mol qilinaturgon ba'zi forsiy so'zlarimizni muqobil va murodofi xalq tilidan va adabiyotidan yo'qolgandur. Masalan, shanba, yakshanba, dushanba, seshanba, chahorshanba, panjshanba, odina[2] kunlarining oti kabi... Hol shunday ekan, yana yuqoridagi turkiy lahjalarning xalqi o'n ikki asrdan beri din manbaimiz va Qur'oni karim tili bo'lgan arabiyning nufuzig'a[3] uchrab, tabarrukan va majburan ko'p lug'at va jumlalarni yanada oldilar. Va ba'zi ifrotparastlar[4] tarafidan yangidan bukung'acha yana olinmoqdadur.

[1] *Murodifi* – sinonimi.
[2] *Odina* – juma kuni.
[3] *Nufuz* – daraja.
[4] *Ifrotparast* – haddan oshuvchilar.

@tarixchi_kutubxonasiga

Turklarning ba'zi toifasi forsiy va arabiyni u qadar ko'p oldilarki, tillari turkiy, forsiy va arabiydan qo'shulub, «usmonli tili» ataldi. Ushbu uch tilni adabiyot va qoidalaridan boxabar bo'lmaguncha usmonli shevasinda yozmoq mumkin emasdur. Usmonli shevasig'a yozaturgonlarda oxirgi sanalarda o'z sahvlarini bilib, forsiy va arabiysini ozroq aytib yozmoqdadurlar. Azbaski, usmonli shevasinda yozilgan asarlarning aksarini usmonli turklarning kamsavodi anglamaydur. Turk qavmining Kafkoz, Eron va Qirimdagi qismlarining tilig'a arabiy va forsiy jumlalar usmonlichadan ko'ra heyli oz bo'lub, ammo turkiy tillarning boshqa shevalaridan ko'ra usmonlichaga eng yaqinidur. Chunonchi, bukungi Kafkoz va Qirim matbuotining o'qub anglaydurgon kishi usmonlichani, albatta, o'qub fahmlaydur. Chunki, orasindagi farq juda ozdur. Xususan, oxirgi sanalarda arabiy va forsiylarini ozaytirub yozilgan usmonlicha va yoinki turkcha Qirim va Kafkoz shevasidan oz farqlikdur.

Totorcha yoinki no'g'oycha atalaturgon shevag'a kelsak, Qirim va Kafkoz shevasidan ko'ra oz arabiy va forsiylik bo'lub, bovujud shul bu kungi totor matbuotining hech bir ustuni, balki hech bir satri xati forscha va yo arabchadan qutulolmaydur. Hatto sirfi[1] totorcha yozmoq tarafdori bo'lgan matbuot va muharrirlarida arabiy va forsiysiz bir nimarsa yozolmaydurlar...

Kelayluk Turkiston va yoinki Osiyoi Vusto[2] xalqlarining til va shevalarig'a: Turkistonning o'zig'a teyishli shevasi turk tilining chig'atoy lahjasi bo'lub, Navoiy[ning] kitobi bu lahjaning go'yo muhim kitobidur. Ammo, ko'pdan beri Turkistonda madaniyat va saltanat va adabiyot tadanniy[3] yetgani uchun xalq bu lahjani buzganlar. Buzmoq nari tursun, Turkistonning har bir shaharining va hatto ba'zi bir qasaba va ko'ylarining shevasi boshqadur. Masalan: anda, munda, shundani – ul yerda, bul yerda, shul yerda; o'tda, bo'tda, sho'tda; etta, betta, shetta; o'rda, bo'rda, sho'rda; o'ra, bo'ra, sho'ra kayfiyatinda so'ylaydurgan shaharlar bo'lub, munday buzuq so'zlarni nav'i va adadi juda ko'pdur. Turkiston turkchasig'a forsiy va arabiyni qo'shulgani ham barcha yerda bir holda bo'lmay, balki mavqe'i jug'rofiyasig'a qarab hap navdur. Chunonchi, Buxoro amorati va Samarqand viloyatining turkcha tilig'a forsiy va arabiy ko'b qo'shulgandur...

Farg'onaning Ho'qand va boshqa shaharlarida ham forsiy rivojda bo'lub, ulamo va mashoyixni forsiyg'a mayli ko'pdur. Tabiiydurki, forsiy ko'b yoyilgan yerlarda arabiyni hukmi ziyodadur. Forschani hukmi Toshkand shahri va Sirdaryo muzofotig'a ozayib, forsiy bilaturgan kishi, ehtimol, mingda bir ham topilmasa. Farg'ona viloyatining Ho'qand va boshqa shaharlarinda bukun fors tilinda yerli shoirlarda mavjuddur.

[1] *Sirfi* – oddiy

[2] *Osiyoi Vusto* – O'rta Osiyo.

[3] *Tadanniy* – taraqqiy, rivojlangan.

@tarixni_kutubxonasiga

Ho'qand xoni Umarxon janoblarining «Devoni Umarxon»ig'a forsiy adabiyotlar inshod qilingonig'a qaraganda, qadimdan beri Farg'onada forsiy tilni[ng] joriyligi ma'lum bo'lur.

Turkiston sharqida forsiyning hukmi ozayib, bovujud shul ulamo orasinda oz bo'lsa-da, so'ylanur. Turkiston janubi va Turkistoni Afg'oniyga bo'lsa, turkiy va forsiy tili go'yo barobardur. Turkistonning Movarounnahr, Hazar qismig'a aksariyat ila turkman shevasi hukmfarmo bo'lsa ham, Eron va Afg'oniston va Buxoroning hamsoyaligi sababidan yana forsiyning nufuzidan qutulub bo'lmaydur. Xivag'a kelgancha, muning tili yana usmonlichag'a yaqin bo'lub, faqat arabiy va forsiy qo'shimchalari ozdur. Xulosa shulki, nafsi[1] Turkiston, Buxoro, Xiva, Turkiston Afg'oni va Koshg'ap o'lkalarindagi turkcha shevasi doxilan o'n qadar buzuq va tuzuk lahjag'a ayrilib, ammo bu lahja ila so'ylayturgonlarning har biri boshqasini so'zig'a tushunadurlar. Kitobatg'a kelsak, bukung'acha Turkiston, Buxoro va Xivada har kim o'z lahjasig'a muvofiq yozsa ham, bir-birig'a qaribdur. Chunki, kotiblarni muallimlari mavjud turkcha va forscha nazm va nasr kitoblar bo'lub, bahri Hazardan to Koshg'ar va Turkiston Afg'onigacha qadim maktablarda «Navoiy», «Fuzuliy», «Sabotul ojizin», «Hikmat», «Huvaydo» va boshqalari, forsiydan «Chahor kitob», «Xo'ja Hofiz», «Bedil», «Sa'diy» va boshqalari o'qulurki, bu kitoblar ahli savodni til birligig'a sabab bo'lur. Ammo, avomlarni so'zi taxti tahrirg'a kirmaydir.

Avvalgi maqolada turkcha tilning ahamiyatlik sho'balarini qisqalik bilan yozib edim. Endi tilni butun soddalashturub indurmoq va yoinki adabiylashturub taraqqiy qildurmoqdan betarofona yozarman.

Matbuot maydonig'a bizdan muqaddam otilgan va do'stlar ila jarida va majallalarg'a sohib bo'lgan ichkari Rusiya va Kafkoz musulmonlarini matbuot tili va ham ko'cha tilig'a diqqatlik kishig'a ma'lumdurki, matbuotlari ko'cha tilidan necha daraja oliydur. Va kundan kun yana oliylashmoqdadur. O'ram[2] tili tarafdori yoinki sodda til tarafdori bo'lgan ba'zi totor matbuoti yildan yilg'a adabiyg'a aylanmoqdadur. Masalan, «Vaqt», «Sho'ro», «Yulduz» jaridalarining avvalgilari ila hozirgisini taftish qilinsa, hozirgilarini adabiyligi zohir bo'lur. Kafkoz matbuoti avvaldan adabiy bo'lub, o'n sanalardan beri matbuot, kog'az ustindagi adabiy tilni, xalqni til va so'zig'a ta'sir etib o'tkardiki, bul o'shal viloyatlarda diqqat etganlarg'a ma'lum bo'lur. Hech bir firqa va yo lahjaning avom tili matbuotg'a kirmaydur. Kirsa-da, maktab risolalarig'a va fanniy kitoblarg'a kirmaydur. Azbaski, fanniy, adab, ta'lim, tarbiya va diniy kitoblarni sirf[3] avom tilig'a yozmoq mumkin emasdur. Hatto, bu zamonda fan va hunar taraqqiy etgani uchun va yangi chiq-

[1] *Nafsi* – o'zi, o'zida.
[2] *O'ram* – murakkab.
[3] *Sirf* – oddiy.

@tarixchi_kutubxonasiga

gon begona lug'atdagi ismlik nimarsalarg'a turkiy ism taqadurgon jamiyatlar barpo etib, turkiy tilimizg'a xizmat etaturgon kishilarni bizg'a yo'qligi uchun begona tildagi ismlar ila ko'p nimarsalarni yozmoqg'a majbur bo'larmiz. Hatto, mundan taraqqiy etgan millatlarda qutulgan yo'q. Masalan, arabiy ilm «Aljabr»ni bukun taraqqiy etgan millatlarda «Aljabr» va alarda «jo yo'qligi[dan] «Algebra» derlar.

Bu til masalasi Rusiya musulmonlari matbuotig'a bir heyli bahs bo'lub, fe'lan va amalan avom tili va yoinki sodda til tarafdorlarini mag'lubiyati ila natijalanmoqdadur. Bizning Turkiston matbuotida, tabiiy, bu masalani boshidan o'tkarur. Shuning natijasi va navbati bo'lub mo'tabar «Sadoyi Turkiston» rafiqimizda til masalasi maqolalari yozilmoqdadur. Ba'zi afandilar mehmonni «qo'noq» deyilsun deb taklif etarlar. Holbuki, qo'noq deganda, bir turk fahmlaydur. Mehmon deganda, turk fahmlagani ustida, yana bir forsiy musulmon qarindoshimizda anglaydur. «Tilimizdan forsiy va arabiyni quvayluk», bu ko'p yengil orzu, ammo, ijrosi mumkin emas orzulardandur. Masalan, muning tarafdori bo'lgan mo'tabar «Sadoyi Turkiston»ni «Turk eli dovushi» lozim bo'lur. Turkistonni «Turk eli» yoxud «Turk yeri» yozmoq kerak bo'lur.

Toshkand, Ho'qand va boshqa minglar ila jo'g'rofiyoviy ismlarni rijoli tarixiya[1] va yoinki tarixiy voqealarni mahalliy va mashhur odamlari va oy ham yili, kuni va ...larig'acha tag'yir[2] berib, turkiy ismlar toqib, alarg'a yangi lug'atlar tayyorlab, yangidan tadvin etmoq[3] lozim kelur. Va o'shal holdagina turk tilini arabiy va forsiy lug'atlardan ajratib bo'lurki, munga hamma ishni qo'yub, hamma birdan harakat etsa, ehtimolki, bir necha yuz sanalarda xayolan zo'rg'a voqe' bo'lsa. Holbuki, bul ijrosi mumkin emas, quruq xayoli fosidginadur[4].

Bir necha ming sanadan beri forsiy va arab tili va madaniyati va saltanati ta'siri ostida qolgan turkiyni yana bir necha ming sanada bularni ta'siridan chiqarmoq nari tursun, balki ma'nan va moddatan va fannan mahkum millatlarni tili bo'lgan tilimizg'a yana taraqqiy etgan millatlarni lug'atlari hujum etar.

Turkiston xalqining maktab va madrasasindagi kitoblarg'a, jarida va majallasindagi maqolalarg'a, sirfi forsiy va arabiyni qo'ymas tarafdori kishilarni o'ylovlarig'a, to'g'risi, shosharmiz. Masalan, maktab, madrasa, jarida, majalla, kitob – hammasi arabniki, ismimizni o'ndan to'qquzi arabiy. Endi, bu nihoyasiz nimarsalarni hammasig'a turkiydan ism oxtaribmi, dunyodan o'tarmiz?

[1] *Rijoli tarixiya* – tarixiy shaxslar.
[2] *Tag'yir* – o'zgartirish.
[3] *Tadvin etmoq* – yozish.
[4] *Xayoli fosid* – puch xayol.

@tarixchi_kutubxonasiga

Muhtaram A. Muzaffar afandi 63-raqam «Sadoyi Turkiston»da handasadagi arabiy istiloh va ismlarga turkiy muqobillar ko'rsatdilar. Anga qaraganda, handasani o'ziga «andoza» forsiyning muarrabi va yoinki buzulg'onidur. Anga ham turkcha va barcha ulum va funun va Qurong'a ham turkcha ism qo'ymoq lozim kelur. Holbuki, ba'zi bir nimarsani ismi, lug'atan musammasining[1] ma'nosig'a dalolat qilmay, ammo istilohan, ta'liman va tarixan va yoinki zamonan anga ism va alam ['alam][2] bo'lub qolgandur. Chunonchi, «vohid qiyosi» ma'noyi faniysini «solishtirish o'lchovi» ado etmaydur. Bo'lsa-bo'lmasa, bu bir istiloh bo'lub, «solishtirish o'lchovi», ya'ni vohid qiyosi deyilmaguncha fahmlanilmas. Avom uchun bu so'zlar yozilaturgon bo'lsa, ul ikkisinida fahmlamaydur. Agarda maktab talabalari uchun bo'lsa, Turkistonda yo'q turkiy handasa kitobimizdan muqaddam birda loyatinoho yangi istilohi turkiya lug'ati chiqormoq lozim kelur.

Fikrimcha, bu o'ylovlar fazladur[3]. To'g'ridan to'g'ri demoq kerakki, baqadri imkon arabiy oz yozulsun. Arabiy ismlik nimarsalar jamlanganda, turkcha jamlansun. Masalan, ulum, funun, ulamo va quzzot demoq yerinda fanlar, ilmlar, olimlar va qozilar yozingiz. Yoinki mo'tabar «Sadoyi Turkiston»ning 64-raqamindagi «Til masalasi»da «Kurrayi arzcha yashamakda bo'lgan har millatni o'ziga maxsus bir lisoni milliysi «vordur» jumlalarni bir oz turkcha yozmoq kerakligig'a mashvarat bermoq lozim. Ammo, bugun fanniy va ilmiy va diniy istiloh va iboratlarg'a muqobil turkchadan ism ta'yin qilmoq fikrig'a cho'mmoq o'zni charchatib va matbuotni zoye qilmoqdan boshqa nimarsa emasdur.

«Til masalasi» muharrirlaridan biri der: «Tillar zamon ila isloh bo'lur, birdan isloh etilmaslar». Sodda til nima uchun kerak? Atrofindagi qavm-u qarindoshi ilan so'ylashmoq uchun. Adabiy va ilmiy til nimag'a kerak? Mavjud ilm-u fan va tarixni bilmoq va alardan foydalanmoq uchun. Endi bizg'a lozimki, atrof, ya'ni tevaragimizni adabiylashtursak, munavvarlashtursak, ya'ni ilm-u fan ila yorutsak. Ilm-u fan bo'lsa, bizni tilga tobe' bo'lmay, balki bizni o'zig'a jabran tobe' etar. Endi bu sodda tilni bizni har qishloq va mahallada bir-biridan farqi bordur. Ammo, ilmiy va adabiy tilni har bir qishloq va ko'ydagi onalarni tilinda bo'lmoqligi va alardan boshlanmog'i mumkin emasdur. Ore, anglis va fransuz onalari va o'qug'on rus va usmonli onalarini[ng] tili matbuot va maktabdagi adabiy va ilmiy tilni ayni va xud o'zidur. Ammo, alar bir necha yuz sanadan beri, qarndan qarngacha [asrdan asrga] o'qub kelgan onalardur. Bizni mazlum

[1] *Musamma* – nomli, nomlanish.
[2] *Alam* – atoqli ism.
[3] *Fazla* – ortiqcha.

@tarixiy_kutubxonasiga

onalarimiz batnan ba'da batnin[1] o'qumay kelganlar. Endi u mazlumlarg'a handasaning turkcha istilohlarini yutdurgon ila ona tili bo'lub turub, avvalan ul onani o'zig'a anglashilmaydur. Modomiki, bizg'a ilm-u fan kerak va modom[iki], turk tilining ba'zi sho'ba va lahjalarig'a zamoniy, fanniy, diniy, tarixiy har nav' kitoblar bordur. Ani o'qub fahmlamoqig'a g'ayrat etishimiz lozimdur. Masalan, Kafkoz va Qirim lahjasini bilaturgonlar bu kungi dunyomizda mavjud aksar, balki hama ilm-u fanlarni turkcha tilda bilurlar. Dunyomizni ilm-u fanidan xabardor bo'lmoq uchun rus, nemis, fransaviy, anglis, itoliyoli, arabiy, jopuniy tillaridan birini bilmoq kerak va alarni bilmaganda Kafkoz va yo Qrim lahjayi adabiyasini bilgan kishini dunyodan xabarlik bo'lushig'a vosita bo'lur. Ammo, qadim chig'atoycha, mo'g'ulcha, o'rxo'ncha va sahroyi tillarni tirguzgon ila na foyda? Va u tillarga qay-u ilm-u fanlar bor? Hozirgi so'zimizg'a qo'shulgan forsiy va arabiy so'zlar bizni arab-u forsg'a bir daraja yaqin etar. Ilm-u fan kitoblarig'a yaqinlashmoqimizg'a vosita bo'lur. Ba'zi birodarlarimizni sof ona tili bor. Ammo, ona tilida maktab, madrasa, fanniy va ilmiy kitoblar ta'sis etolmaydurlar. Chunki so'z yetishmaydur. Agarda alar taraqqiy etsa va madaniy bo'lsa, hukman hozirgi tilni o'zgartirib bo'lur. Hamda ming yil avvalgi tilg'a qaytmoq qonuni tabiatg'a muxolifdur. Chunki moziyga ruju' mumkin yo'q. Begona tildan so'z olmoqdan qutulgan til yo'qdur. Anglischani arabchadan so'ngra eng boy til derlar. Ma'a fihi[2], o'n minglar ila begona lug'atlarni majburan olganligini yozarlar. Xulosa fikrimiz shuki, yalg'uz turkcha so'ylamak va yozmoq abadan mumkin yo'q. Baqadri imkon arabiy va forsiyni oz yozayluq. Barcha ilm-u fan istiloh va lug'atlarig'a turkchadan muqobil oxtarib vaqtni zoye etmayluk. Taraqqiy etgan turkiy shevadagi ilmni va fanniy kitoblarni anglamoqg'a sa'y va g'ayrat etayluk. Kelar zamon uchun hozirlanayluk, o'tgan zamon uchun emas. «Ona tili, ona tili», bu yaxshi orzu. Ammo, tilsiz onalar tilig'a maktabiy kitoblar yozila bersa, Turkistonda adadsiz buzuq ona tillar shevasig'a adadsiz kitoblar yozmoq lozim kelurki, Andijonda yozilgani Buxoroda, Avliyootada yozilgani Qarshida anglashilmaydur. Chunki bu onalarni tili bir-biridan farqlikdur. Taraqqiy etgan millatlar onalari o'qutar ekan, biz avval onamizni o'qutub, anga til o'rgatmoqimiz kerak. Chunki, bizni ilm va tilsizligimiz alardandur. Binobarin, baqadri imkon oz arabiy va forsiy, oddiy, turkiy lug'at ila hozirgi shevalarcha yoza bermoqdan boshqa iloj yo'qdur.

Mahmudxo'ja Behbudiy.
«Oyna», 1915-yil, 11, 12-sonlar,
274–277, 306–311-betlar.

[1] *Batnan ba'da batnin* – avloddan avlodga.
[2] *Maa fihi* – shu bilan birga.

@tarixchi_kutubxonasiga

Rus lisonining ahamiyati

Muhtaram o'quvchilarimizg'a ibrat uchun madaniyatning koni, manbai va chiqqon yeri o'lon Osiyo qit'asidagi Arabiston yarimoroli oltinchi asrda dini mubin[1] islom ila barobar madaniyat dengizlari harakat qildi va bu qit'ada yashamish arablar o'zlari borgan mamlakat va qit'alarga madaniyat savollarini ham suvub bordilar. Oradan bir necha asr o'tar-o'tmas, madaniyat to'lqunlari Osiyodan ko'chub, Ovro'pa qit'asini bosdi. Ovro'palilar hozirgi yigirmanchi asrg'acha madaniyat to'lqunlari ichra yashadilar va bu cholishqon yevropalilar madaniyat to'lqunlaridan qo'rqmadilar, qochmadilar, harakat qildilar, asbob va mashinalar hozirladilar va bu madaniyat to'lqunlari o'zlarig'a asir va izhor qilub oldilar. O'n beshinchi asrda madaniyat suvlarini surub, Amriqo qit'asig'a olib bordilar. Amriqoni yerli vahshiy xalqlari «eshiklaridan oqqon suvning qadri[ni] bilmadilar», madaniyatga kirishmadilar, qabul qilmadilar. Ota-bobolaridan qolg'on odatlarini tashlamadilar, o'zlaricha vahshatda o'rinlarini yaproqlar ila o'rtub, boshlarig'a tovus patlarini sanchub, belg'ochga daraxtlar ustidagi, kafalardagi yerto'lalarda do'mbira va chirmandalariga chalub, yoshi bir dablar madaniyat orqalaridan quvdi – qochdilar. Na yerga borsalar, madaniyat ham bordi, qochub qutulmadilar, oxirda madaniyat g'alaba qilub, inqiroz dunyosig'a kuzatib yubordi. Mana shu jumladan yarim-yorti vahshatda yashashi O'rta Osiyoga, Turkistonimizg'a Russiya hukumati ila barobar madaniyat suvlari kelib kirdi. Hozir yarim asrdagi madaniyat bizni orqamizdan quvuyur.

Biz qirdan qirg'a qochurmiz, qarshimizdan maishat mashaqqatlari chiqub hujum qilur, o'zligimizdan bilimsizlik va jaholat kelub, jonlarimizni siqur. So'nggimizdan misriflik, faqirlik va bid'atlar chiqub, yo'limizni to'sur. Dangasalik, yalqovlik, ishsizlik ustimizdan bosub bo'g'mak istarar. Ajabo! Bizlar hamon bu imkong'a [ramka] orasidan chiqub qochmak istamaymiz. Bir oz tushunmak va o'ylamak lozimki, bu ramka orasidan chiqub qochmoq va qutulmak mumkinmi? Yo'qmi? Bizim fikrimizcha, qochmakning imkoni yo'q, qutulmak va xalos bo'lmakning faqat birgina yo'li uchramasa, bordirki madaniyatni qabul qilmak va madaniyatg'a kirishmakdir. Lekin kirishganda ham madaniyatning haqiqatini bilmak va haqiqiy madaniyatg'a kirishmak lozimdir.

Ba'zi yoshlarimizga u shosh usti yaltiragan, ichi qaltiragan bo'lub, boshlarig'a Yevropa qalpog'ini kiyib, «madaniyat!», «madaniyat!» deb og'zilarini ko'purtirub, oz-moz musulmoncha, chala-yarim ruscha so'ylashub kulgi bo'lub yurmak madaniyat bo'lmay, masxarabozlikning bir sha'baidir. Agarda tabiatning jilovini nafsimiz qo'lig'a bersak, ul bezorini na birga olib bor-

[1] *Mubin* – ochiq.

@tarixchi_kutubxonasiga

masun, chiroyli uchka bil qizor ila o'ynashmakni, resturang'a borub, qimor o'ynamak va ichkulik qilub tong otquzmakni, bir oz qizishgandan so'ng odobdan tashqari madaniyatga yarashmagan so'zlarni aytishmakni, xati urushmakni, jabr va zulm qilishmakni... [yo'l qo'yish mumkin]. Lekin, madaniyat qonunida [ustavida] shunday fano[1] va buzuq ishlar bo'lmasa kerak. Madaniy bo'lmak va madaniyatga kirmak uchun bunday yomon sifatlardan saqlanmak va hazar qilmak ila barobar haqiqiy madaniyat yo'lini tutmak lozimdir. Haqiqiy madaniyat ilmiy, maishiy va axloqiy ismlar ila uch qismg'a bo'linadi. Agar millat bolalari bu xislatni mukammal sur'atda o'zlarig'a darbar olsalar[2], mana shul vaqtda biz «madaniyatni qabul qilduk, madaniyat[li] bo'lduk», deb lof ursak, maqtansak kulgi bo'lmaymiz.

Yoshlarimizdan madaniyatga loyiq ravishda o'qub, diniy va madaniy kishilar hozirlansa, tarbiya va ta'limg'a mohir ilm va ilmiya, adib va adibalarimiz yetishsa, maktab va madrasalarimiz muntazam va tartiblik bo'lsa, ziroat, sanoat va tijorat ishlarig'a mohir kishilar yetushub, zamonag'a muvofiq ravishda ish yuritilsa, tartiblik «Dor al-yetim» yetimxonalari, «Dor al-ojiziyn» kambag'alxonalar, kitobxona va qiroatxonalar ishlasa, shirkat [tvorchestvo]lar barpo qilinsa, yuqorida dedimiz kabi xalqimiz orasidan zamonag'a loyiq ilm va fununlan boxabar olimlarimiz ko'paysa, och va yalang'och kishilarimizning maishatlarini tuzatmak uchun harakat qilinsa, o'qutulsa, axloq va odob o'rgatilsa, shul vaqtda iskanja orasidan chiqub, haqiqiy madaniyat bo'stonig'a yuzlangan hamda madaniyat to'lqunlaridan qutulub, sohilg'a salomat chiqqon bo'lur eduk...

Olloyor.
«Sadoyi Turkiston», 1914-yil, 17-may. 10-son.

Qo'rqinchli natijalar

... Islom bizim nazarimizda nihoyatda qadrli va muqaddas bo'lgan bir dindir. Dini islomni musulmonlar toqatlaridan kelgan qadr ta'zim va takrim[3] qiladirlarmi, yo'qmi, bunisi holimizdan fahmlansa kerak. Faqat musulmonlarg'a o'zlarining muqaddas dinlarini nazr ilagina emas, amal ila ham bu qadar 'alo toqat[4] harakat etmak va eng birinchi vazifani doimo ado qilub turmakga vijdona majbur, dunyo ma'murdorlari[5] bir odim

[1] *Fano* – tugovchi.
[2] *Darbar olmoq* – qabul qilsa.
[3] *Ta'zim va takrim* – izzat va ikrom.
[4] *'alo toqat* – toqatga yarasha.
[5] *Ma'murdor* – amaldor.

@tarixchi_kutubxonasiga

zohira[1], ma'lum biri maslakka kirub botina[2] uning xilofinda bo'lsa, ul kishining insoniyat dunyosig'a qancha jinoyat bilishi shoyad yashirin bo'lmasa kerak.

Bu ish albatta maslaklar orasida shov-shuv qolg'on zaif tabiatli, savodsiz va idroksiz kishilardan yoxud munofiqlik kasbidan bir qadar lazzat topg'on shaxslardan sodir bo'lur. Chin va haqiqiy inson o'zining munosib bo'lindig'i maslakni keracha andin bilkulliya rozi bo'lmasa ham, hurmat qilur va hech vaqt oning fido bo'linmas. Din masalasiga kelsak ham haqiqat tamom buning aynidir. Ma'lumdirki, bir dinga iymon kelturub, oning hol fido amal qilmak ila hech kim dinli va iymonli bo'lmaydur. Bu kun iymon nihoyatda zaif, asossiz vazni bo'lgan aqida hukmini olur. Haqiqiy va qat'iy bo'lgan iymon odamga ochiq va to'g'ru birgina yo'l ko'rsaturga ortiq ikkinchi bir tarafg'a mayl etmak ehtimoli qolmagan bo'lur. Yozdig'imiz bu haqiqat, haqli hal fido ilgari qattig' sabot ko'rsatgan kishilar tarafidan ham tasdiq qilinadurgan ravshan bir so'zdir. Bas, dinli va maslakli bo'lmak ani qabul qilish ilagina sobit bo'lmaydir, balki oning doirasini yaxshi o'rganub, ondan chiqmasdan doimo amalni shung'a tatbiq bilmak ilagina bo'lishi mumkindir. Endi dini islomni qabul etgan ahli islomg'a qarasak, haqiqiy hollarning ne qadar buzulganini ko'rub, darhol vijdonlar azoblana boshlar. Ajabo! Musulmonlar nima sababli dinlarig'a buncha hurmatsizlik ko'rsatur ekanlar. Oramizda doimo yuradurgan ahkomi diniyani olsak, shubhasiz, bir necha moddadan oshmaydir. Alar ham nafl[3] va mustahab darajada bo'lgan ahkomlardan iborat bo'lub qolubdir. Farz va vujubot [vojibotning] musulmonlar tarafidan nafl barobarin ham e'tiborg'a olinmolig'ini ko'rub har vaqt yuraklar achinadur, umidlar kesiladur. Darvoqe, bizda din nomidan eng ko'b ijro qilingan hukmlar soch, mo'ylab, kiyum masalalari kabi amaliy, juda oson, din nazarida nihoyatda kichik bo'lg'on amrlardir. Namoz, ro'za, zakot kabi ulug' ma'muriyalarni musulmonlar farz deb e'tiqod etsalar ham, farzning balandligiga muvofiq e'tibor va rioya qiluvchilar yuzdan bir nechagina zot topilmog'ig'a kim shubha qilur? Ammo, shariatda bo'lgan harom va makruh hukmlarga qarasaq, holning butunlay aksini ko'rurmiz. Bunda eng ko'b yuradirganlari haromning nihoyat darajada zararli va qabih bo'lganlari ekanligi shubhasizdir. Darvoqe, bizim oramizda eng ko'b e'tibor qozong'on ishlar ichkulik, zino qilmak va qimor o'ynamak kabi ilat odatiga[4] va iqtisodiy hayotimizg'a juda zararli bo'lg'on ishlardir. Musulmonlarning shariatga ko'rsatgan bu odobsizliklari Alloh va payg'ambar tarafidan emas, hatto diyonatli

[1] *Zohira* – ko'ringan.
[2] *Botina* – ichi.
[3] *Nafl* – ixtiyoriy va qo'shimcha ibodat.
[4] *Ilat odatiga* – xalq odatlariga.

@tarixchi_kutubxonasiga

va haqiqiy bir musulmon tarafidan ham hech og'u etilmaslik bir tasvirdir [ta'surdir]. Din bu kelib, musulmon nomini toshub, butun vujudlari ila sihoqot[1] daryosig'a cho'mg'on xirssizlar qiyomatda o'zlarining jazolarini ko'rgan kabi, farz va ajib amallarini xotiralariga ham kelturmasdan, dinga jinoyat etuvchi ibodatsizlar ham tegishli jazolarni ko'rurlar. Bolalarig'a ko'rsatgan otalik va onaliklari nechuk bo'lsa, dunyoda va oxiratda shuning mevasini yeyurlar.

Butun islom dunyosining yuzlariga qora surtuvchi bu millat mikroblari dindan jabrsiz bo'lganlari kabi, o'zlarining nima qilganlaridan ham xabardor emasdirlar. Bu so'filar firqasining johilona harakatlari ilat[2] hayotiga iqtisodiy va ijtimoiy ahvolimizga shunday bir zarbadirki, buning xabarsiz va qo'rqinchli natijalarini xotirlariga kelturgan diyonat ahllariga vujdona hech yer istirohat qolmaydir[3]. Ochko'zlik, qimorbozlik va zino kasallariga mubtalo bo'lgan yarim insonlar cho'ntaklariga yig'ilishib, eng so'ngg'i tiyinlariga zahar sotub olurlar va buning ila o'zlarinigina emas, butun nasllarini zaharlarlar. Oilalarining ikki ko'zlari kutub turdiqlari taom va osh pullari zaharli bankalarga solinub, buning biror biriga yana butun nasl va oilani halok etadurgan qo'rqinchli va nafratli kasallar keltirurlar. Uch pulg'a arzimaslik nafs orzularig'a asir bo'lg'on safohat[4] askarlari endi din va millatni ajal og'ulari ila zaharlaydilar. Oy sifati firoqsiz![5] Sizda insof degan narsa bormi? Bu ishlaringizning natijalaridan xabaringiz bormi? Ramazon hurmati uchun sizga etamiz: munday buzuqliklarga kirmangiz, axloqingizni tuzatingiz, ... diningizni mahkam tutingiz, oilangizning baxt va saodatiga harakat qilingiz.

Millatimizni iqtisodiy tahlikaga tushurdingiz, muqaddas dinimizni huvorlar [xor] qildingiz, yuzingiz ila bir supurib topgan pullaringizni safohat (zino) yo'llarig'a isrof qilub, oilangizni och qoldirdingiz. Sizning bu ishlardan maqsadingiz shumidi? Agar shul bo'lsa, endi tilaganingizga erishdingiz.

Axloq muallimlarining va ruhoniylarimizning bu masalaga diqqatlarini jalb qilamiz. Endi shul yo'lda bir oz hunar va g'ayrat ko'rsatub, ramazon oyida masjidlarda aholimizning ongi va fikrlariga qarab ta'sirli va'zlar aytsalar, xalq va millatga zo'r foydali bir ish qiling'on bo'lur edilar. Din qarindoshlarimiz orasida bo'lg'on bundoq g'ayri matlub[6] hollarni ko'rub, har vaqtda va'z va nasihat qilmak va bu kabi qo'rqinchlik natijalar xususida qa-

[1] *Sihoqot* – gunoh, harom ishlar.
[2] *Ilat* – xalq.
[3] *Yer istirohat qolmaydir* – hech joyda xotirjamlik bo'lmaydi.
[4] *Safohat* – jinnilik, tentaklik, zino.
[5] *Oy sifati firoqsiz!* – Ey badsifatlar!
[6] *G'ayri matlub* – nojoiz.

@tarixchi_kutubxonasiga

noatlanadurg'on so'zlar so'ylamak din va axloq muallimlarining], minbar va mehrob[1] egalarining diniy vazifalaridir. Ramazoni sharifda bu nuqtag'a xususiy ahamiyat berish kerak edi.

Rauf Muzaffarzoda.
«Sadoyi Turkiston», 1914-yil, 22-iyul. 29-son.

«Turon» teatri ochilishida so'zlangan nutq

(1914-yil 27-fevralda Toshkandda «Kolizey» teatri binosida «Turon» truppasining rasmiy ochilishi munosabati ila so'zlangan nutq)

Jamoat!

Siz hurmatlularga tiyotr xususida bir necha so'z aytmakka jasorat qilib, qarshularingizga chiqdim. Bu xususda manim gustohona harakatimni afu etmaganingizni ojizona rijo qilurman.

Bizni Toshkand shahrida bir necha martaba milliy tiyotrlar o'ynalgan bo'lsa ham, xolis Turkiston tilida hanuz bir tiyotr o'ynalmag'onlig'i barchamizga ma'lumdir. Shul sababli ba'zi kishilarimiz tiyotrg'a, ehtimolki, o'yinbozliq yoxud masxarabozliq ko'zlari ila boqurlar. Holbuki, tiyotrning asl ma'nosi ibratxona yoki ulug'lar maktabi, degan so'zdur.

Tiyotr sahnasi har tarafi oynaband qiling'on bir uyg'a o'xshaydurki, unga har kim kirsa, o'zining husn va qabihini, ayb va nuqsonini ko'rub ibrat olur. Va bu sahnada ko'ziga yomon ko'rungan past odatlardin va buzuq axloqlardin uzr qilmoqg'a harakat qilur. Binoanalayh, tiyotrni buzuq axloq kasallarining eng yoqimli davosiga o'xshatgan kishi yolg'onchi bo'lmasa kerak, deb o'ylayman.

Tiyotr sahnasiga chiqib, yuziga un surtib, bir masxaraboz shakliga kirgon zotlar go'yoki tabibi hoziq misolindadurlar. Bunlar achchiq romanlarni shirin davolari ila xalqg'a yedirurlar va achchiq nasihatlarni chuchuk[2] so'zlari ila xalqg'a eshitdururlar. Biz shu zotlarga va tiyotrlarga qanday ko'z ila boqmog'imiz kerak?

Muni o'rganmak uchun biz o'zimizdan boshqa mutaraqqiy[3] mamlakatlarga boqaylik. Misli ustimizga hokim bo'lub turg'on ruslarga, turklarga, nemislarga, fransuzlarga, yahudiylarga va boshqalarga, ko'b uzoq ketmayluk, eng yaqin qo'shnilarimiz bo'lg'on Qofqoz musulmonlarig'a.

---

[1] *Mehrob* – masjidda imomlar xutba o'qish uchun turadigan joy.
[2] *Chuchuk* – shirin.
[3] *Mutaraqqiy* – taraqqiy topgan, rivojlangan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Bundan o'ttiz yil muqaddam Qofqoz musulmonlaridin eng avval chiqib tiyotr kitoblari yozg'an va yuziga un surtib tiyotr sahnasiga chiqg'on adibi shahid Mirza Fathali Oxundov janoblarig'a xalq qanday ko'z ila qaradi?

Marhum Oxundov xalqning nuqsonini ko'rsatg'on, millat taraqqiysig'a va mamlakat obodlig'iga xizmat qilgon, ismi har yerda haqorat ila zikr qilinurdi va o'zidan har kim nafrat qilurdi. Lekin o'ttiz yil o'tgandin so'ng marhum Oxundov janoblarining chekkan mashaqqatlari va tortgon zahmatlarini millat o'ylab, taqdir qilub, oning xotirasi va ruhining shodligi uchun ulug' bir yubiley, ya'ni duo majlisi yasadilarki, hozirg'a qadar bunday ulug' majlis musulmonlardin hech bir kishi uchun yasalg'oni yo'qdur. Marhum Oxundov tutgan yo'lning ulug' foydalari hozirda ko'rinmakda boshladi. Qofqoziyaning har bir yerida jamiyati xayriyalar ochilub, alarning tiyotru shu'balari tashkil topdi, bularning eng mashhurlari Bokuda «Najot jamiyati»durki, bu jamiyat tiyotr vositasi-la Qofqoz xalqining axloqini hiyla isloh qildi, g'aflatdin uyg'ontirdi, taraqqiy va maorifga havaslarin ortdirdi.

Hozirda tiyotr vositasi-la har yil minglarcha aqcha jam' qilur. Yuzlarcha musulmon faqir va ojizlarga yordam berur. Qo'lidan kelguncha millatining nomus va obro'sini hifz[1] qilur va shaharning atrofida bo'lg'on qishloqlarda o'ttuzg'a yaqin maktablar ochub, islom bolalarini tarbiya va ta'lim qilur. Yuzlarcha millat bolalarini tarbiya qilub, o'qitub, haqiqiy millat va vatan xodimlari etib maydong'a chiqarur. Modomiki, bizim eng yaqin qo'shnilarimiz va vatandoshlarimiz va dindoshlarimiz bo'lg'on totorlar va Qofqoz musulmonlari bu tariqa taraqqiy va tamaddunga qadam qo'ydilar. Va yolg'iz tiyotr vositasi-la o'z millat va vatanlarina buncha xizmatlar ko'rsatdilar.

Biz, turkistonliklar na uchun onlardin ibrat olmaymiz? Na uchun o'z tilimizda tiyotrlar yasab, oramizda bo'lg'on buzuq odatlarni yo'q qilmoqg'a harakat qilmaymiz? Na uchun Turkistonda birgina bo'lg'on jamiyatimizni va faqirlikdin inqirozga yuz tutgan maktab va maorifimizni obodlig'iga sa'y va ko'shish qilmaymiz? Bizim Turkiston mamlakati tufrog', suv va havo jihatidin eng boy mamlakatlardin bo'la turub, na uchun o'zumiz bundan foydalana olmaymiz?

Mana, ketba-ket etgan bunday savollarga javob bermak uchun nodonliq va olamdin xabarsizlik, demakdin boshqa chora yo'qdur. Bu nodonliq va dunyodin xabarsizlik balosidan qutulmak uchun eng avval oramizda hukm surgan buzuq odatlarning buzuqlig'ini bilmak va o'rganmak kerakdur. Bas, bizga bu bildurg'uvchi va o'rgatuvchi yolg'iz tiyotr sahnasidur. Soniyan onlarni tark qilmak keraqdurki, oni tark qildiruvchi yana jamiyat va tiyotr vositasi-la ochilgon maktab va madrasamizdur. Shul sababli himmatli yosh-

[1] *Hivz* – saqlash.

@tarixchi_kutubxonasiga

larimizdan va himmatli boylarimizdan bu tiyotrlarga faqat o'yun va masxarabozlik ko'zi-la boqmasdan, millat va axloq jihatidan eng ibratli bir manzara va ulug'lar uchun ochilg'on foydali bir maktab nazari ila boqmoqlarini ojizona arz va istirhom qilurman.

Munavvarqori Abdurashidxonov,
«Turkiston viloyatining gazeti», 1914-yil, 2-mart

Teyotr [teatr] nadur?

Teyotr nadur? Javobig'a teyotr ibratnamodur, teyotr va'zxonadur, teyotr ta'zir adabidir. Teyotr oynadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko'zliklar ko'rub, kar-quloqsizlar eshitib, asarlanur. Xulosa, teyotr va'z va tanbih etguvchi hamda zararlik odat, urf va taomilni, qabih va zararini ayonan ko'rsatguvchidur. Hech kimni rioya qilmasdan to'g'ri so'ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildurguvchidur. Ayni zamonda yana tamoshogoh va yoinki ko'ngul ochguvchi milliy va adabiy jam'iyatlarni boisidur. Taraqqiy qilgan millatlar teyotrxonalarni ulug'lar uchun maktabi adab va ibrat ataydurlar. Taraqqiy qilmoqni eng birinchi sabab va boislaridan biri teyotrlardur deyurlar. Teyotrlarning yaxshi va yamon odatlarni sarrof[1] va munaqqidi derlar. Umumiy odatlarni naf'i va zararidan paydo bo'laturgon natijalarni teyotrxonada aynan ko'rsaturlarki, har kim mundan ta'sirlanib, yamon odatlarni tark etib, yaxshilikni ziyoda ishlamoqg'a sabab bo'lur. Har zamonni bir usuli ehtisobi[2] bordur. Bu zamonda teyotrxonalar ham yamon va zararlik odatlarni ehtisob va tanqid qilib yamonligini, qabihini xaloyiqg'a ko'rsatib va'z va nasihat etguvchi bir joydur. Teyotrxona sahnalarinda qo'yulaturgon asarlar fojea, ya'ni qayg'ulik, muzhika, ya'ni kulgu, drama, ya'ni hangomalik bir voqea va hodisani tasvir etib, xaloyiqg'a ko'rsatilur. Ul voqeadagi yamonlik va yaxshilikni paydo bo'lgani va sababini har kim ko'rub, anglab, ibrat olur va yamonlikdan qochib, yaxshilikg'a harakat qilmoqg'a teyotrda ko'rsatilgon voqealar sabab bo'lur.

Hikoyat va yoinki nasihat kitoblarinda ba'zi bir hodisani bayon qilingandurki, o'qub, asablanib, lazzat olinadur. Ammo teyotrg'a maxsus bir hodisa va yo voqea va hikoyatni fe'lan qilib ko'rsatiladurki, muning ta'siri eshitkandan ziyodadur. Yana teyotrda savodsiz odam ko'zi ila ko'rub, ko'zsiz odam eshitib, kar mushohada etib, ibrat va lazzat olar. Xulosa: teyotr bir nav' maktab hukmindadur. Taraqqiy qilgan xalqlar o'rtasinda teyotr u qadar taraqqiy etkandurki, har kun bir yangi asar tasnif bo'lub, sahnada qo'yulur. Asarni yozgan muharrirg'a ming so'm va o'n ming so'mlab hadya

[1] *Sarrof* – pul dalloli.
[2] *Usuli ehtisobi* – hisob-kitob usuli.

@tarixni_kutubxonasiga

berib, asarini mushaxxislar[1] sotib olib, sahnada qo'yub foida qiladurlar. Ba'zi bir teyotr asarlari eski bo'lmay va xaloyiqni ko'nglig'a urmay, bir shaharda yigirma-o'ttiz, hatto yuzinchi daf'a qo'yulg'anlari bordir. Teyotrg'a qo'yulg'on asarni ortuqcha va yo oz yerlarini va yetishmaganlarini maishati milliyadan xorij nuqtalarini muharrirlar, jaridalar ila tanqid etadurlar. Xaloyiqg'a ma'qul bo'lub va yo bo'lmag'ani ila teyotr muharririni xursand va yo g'amlik bo'lur. Muharrirni asari yaxshi chiqsa, har kim oni tabrik etar va shuhrati ziyoda bo'lur. Va bul boshqa muharrirlarni harakatg'a kelishib, yaxshi asarlar yozilmoqlarig'a bois bo'lur. Teyotr uchun muharrirni ne qadar chuqur o'ylaguvchi zarif va nazokatligi lozim bo'lsa, mushaxxas [hodisani ko'rsatguvchi]larni ham tavono va muqallid va har nimarsani o'zidek qilib ko'rsatguchi, nuqtadon bo'lishi lozim bo'lib, bul alohida bir san'atdurki, ovrupalilar munga ham alohida maktab ijod qilgandurlar.

So'zni qisqasi, teyotr xonalari masxarabozxona bo'lmay, balki ibratxonadur. Va anda mushaxxis bo'laturgonlar «o'yunchi va masxaraboz» bo'lmay, balki mushaxxis va muallimi axloqdurlar. Taraqqiy qilgan xaloyiq orasinda mushaxxislar ham kibor va muhtaram sinflar qatorindadur. Xususan, o'z kissasi naf'ig'a mushaxxislik qilmay, balki maktab va o'z millati naf'ig'a mushaxxislik qilganlarni qadri du bolo[2] ziyodadur.

Bizni Turkiston va Buxoroda milliy teyotrdan asar yo'q edi. Muharriri ojiz «Padarkush»ni yozdiki, o'tgan fevral oyinda Samarqand, Xo'jand, Buxoro va Toshkand va Kattaqo'rg'on shaharlarinda millat naf'i uchun ko'ngullilar sahnada qo'yub, to'rt-besh ming so'mni to'rt-besh kechada jamlab, maktablar foydasig'a berdilar. Mana endi muhtaram Samarqandiy ko'ngulli mushaxxislar g'ayrat qilib, yana «Padarkush»ni Samarqandda yettinchi moyda sahnaga qo'yub, hosilini maktablarg'a sarf uchun berdilar. Muhtaram hamshaharlarimizdan rijo etarmizki, kelib ko'rgonlari gunoh bo'lgon joyini ko'rsatsalar. Inchunun, asarni tanqid etib, buzuq yerini matbuot ila bayon etsalar, toki boisi isloh bo'linsa. Ammo, bu kung'acha muhtaram ahli qalam «Padarkush»ni buzuq yerini ko'rsatmay, balki «kuldurguchi va ham yig'latguchi nosih va nofe' asardur» holinda tabrik va taqrizlar ila yozdilar-ki, biz alarg'a tashakkur aytarmiz. Asarimizni qabihini yozgon kishig'a ziyodaroq tashakkur etmoqg'a madyunmiz, chunki bois islohdur. «Mutakallimro toayb nagirand – suxanash isloh napazirad» [«So'z so'ylaguvchini ayb etmaguncha, so'zi tuzalmaydur»]. Ba'zi bir ahli vatanning teyotr asari yozmoqg'a mashg'ulliklari eshitilurki, asarlarig'a chahorchashm[3] ila muntazirmiz. Yozilgan asarlarni ko'ngulli dastalari sotib olib bostursalar, foyda ham qiladurlar. Chunki bir kishig'a ham asar yozib, ham bosturub va hamda sahnada qo'ydurmoq

[1] *Mushaxxis* – shaxsiylashtirish, xudparast, individualist.
[2] *Du bolo* – ikki barobar.
[3] *Chahorchashm* – to'rtko'zlik.

@tarixchi_kutubxonasiga

mushkuldur. Dastalar sotib ola bersalar, asarda ko'payur. Turkistonda oyinda bir asar tahrir bo'linsa-da, ko'blik qilmaydur.

Mahmudxo'ja Behbudiy.
«Oyna», 1914-yil, 29-son. 550-553-betlar.

Toshkandda musulmon jamiyati

Toshkandda bundan to'rt sana muqaddam ochilmish bir musulmon «Jamiyati xayriya» bor. Bu jamiyat boshida yoshlarning sa'y va ijtihodi[1] ila ochilgan bo'lsa ham, ba'zi sabablara mubanniy Toshkand ag'niyolarina[2] topshirilmish va shul zamong'acha yoshlardan faqat bir-ikki kishining tahrik va ishtiroki-la boylar tarafidan idora qilinmoqda edi.

Jamiyat ag'niyoi kirom qo'llarida o'z sha'nig'a munosib zo'r ishlay olmagan bo'lsa ham, moddiy jihatdan hiyli quvvatlandi. Yetti ming so'mdan ziyoda sarmoyaga molik bo'ldi. Har yili ikki-uch martaba umumiy majlis va o'n-o'n ikki martaba idora majlislari yasab, a'zolardan pul yig'di. Ariza berib, iona so'rovchi besh-o'n [nafar] faqir va ojizlara yordam berib turdi.

Ag'niyoi kirom jamiyatdan o'z yordam va ionalarin darig' tutmadilar. Buning isboti uchun Toshkand ag'niyolaridan hurmatluk Orifxo'ja eshon janoblarini o'tgan yil jamiyatga birdan ming so'm iona berganlarin va shaharning o'rtasidan bir hovlilarini «Dorul ojizin» uchun in'om qilg'anlarin zikr etmak kofi o'lsa kerak. Lekin olti-yetti milyon musulmonli Turkistor ning markazi o'lan Toshkandda ochilmish bir musulmon jamiyatining juz'iy [mayda] ishlar ilangina qanoat etub turmog'idan Toshkand yoshlari har vaqt siqiladurlar va sanaviy hisobnoma va sarfnomalarini g'azetalarda yozub, nashr etmakdan uyolurlar edi, binoanalayh, Toshkand jamiyati xalq ham hukumat nominda butunlay e'tibordan tushmish va o'lmakka mahkum, og'ir bir xastalikka duchor o'lmish kabi edi.

Jamiyatning eski obro'sin qaytarmak va uyqudan uyg'atmak uchun birdan bir chora idora ishlarini butunlay yoshlar qo'lina bermak, loaqal idora a'zolarining aksarini yoshlardan saylamak fikri takror-takror talqin o'linsa ham, bunga e'tibor etuvchi oz edi, balki «Jamiyat yoshlar qo'lina berilsa, yig'ilgan pullarni sarf qilib tamom qilurlar, o'zlari pul yig'olmay, shuning ila jamiyat bepul bo'lib yopilur», deyuchilar ko'proq topilur edi. Yoshlar esa jamiyatdan hamon umid uzmiylar, eng og'ir ishlarni ishliylar va har yili bir-ikki martaba qo'zg'atib, umumiy majlislar va saylovlar qilib va o'zlaridan ko'proq kishi o'tkarmakka muloyimona harakatlarda bo'linalar edi, lekin kelajakda ag'niyolarning iona va himmatlari jamiyat uchun birinchi da-

[1] *Ijtihod* – harakat, jahdlar.
[2] *Ag'niyolarina* – boylariga.

@tarixchi_kutubxonasiga

rajada lozim o'ldig'ini e'tiborga olib, onlarg'a qarshu jiddiy harakatlardan mumkin qadar saqlanar edilar.

Yoshlarning bu sovuqqonlik va sabrliklari bu sana yaxshi natijalar berdi. Boylarning o'zlari ittifoq qilib, o'z oralaridan faqat bir rais va mashvarat a'zosi verib, boshqa a'zolarning barchasin yoshlardan sayladilar, yoshlar har ishda boylar ila mashvarat qilib turmakni, boylar ham har vaqt qo'llaridan kelgan yordam va ionalarini darig' tutmaslikni bir-birlarina va'da qilishib, qo'lga qo'l berishib, ittifoq ila ishga tutindilar.

Bu ittifoqning natijasi o'lsa kerakki, Toshkand jamiyati bu yil butunlay boshqa tusga kirdi. Uyqudan uyg'onib, ko'zlarin uqalab, atrofga nazar sola boshladi. Qonunda zikr etilgan moddalardan birin-birin foydalanmakka shuru' qildi, boshlab bir necha yildan beri qaror berilub-da ochilmay yotgan «Dorul ojizin»ni rasman ochub, bir necha miskin va ojizlarni tarbiyaga oldi. Bir necha maktab va madrasalarga yuz so'm va ikki yuz so'mlab ionalar berdi. Bir necha beva va bechoralarga oylik ionalar bermakda va oltmish qadar faqir va qashshoq bolalarni turli maktablarda o'qitub tarbiya qilib turmakdadir.

Jamiyatning yangi a'zolari bunday sarf ilagina qanoatlanmadi, balki moliya jihatini qutlamak uchun a'zolarning yilda beradurgon olti so'm sadaqalari kifoya qilmasligini bilib, pul topmakka ham yangi yo'llar izladi, boshlab «Gramofun obshestvo»si-la so'ylashib, har bir plastinkadan o'n tiyin olmoq shart-la bir necha hofizlarni va o'z tarbiyasidagi maktab shogirdlarining tovushin sotdi, bundan faqat shu yil ichindagina loaqal ikki ming so'm kirsa kerakdur.

Uchinchi yo'lda shahar bog'ining yozlik teatrusida bir martaba ispektakl qo'yib, olti yuz so'mga yaqin foyda qildi. Buning ustiga, ushbu avgustning 8-kuni ramazon munosabati-la Shayxovanditohur bog'ida bir martaba «Tomosha kechasi» yasadi, ushbu tomosha kechasining daromad va buromadi ushbu tariqa bo'ldi:

Sotilgan biletlardan 1387 so'm 54 tiyin.
Choyxonadan doxil 59 so'm 42 tiyin.
Ja'mi daromad 1446 so'm 96 tiyin.
Masorifi bilet markasi 126 so'm 14 tiyin.
Boshqa masoriflar 233 so'm 65 tiyin.
Ja'mi masorif 359 so'm 79 tiyin.
Jamiyatga qolgan xos foyda 1087 so'm 17 tiyin.

Musulmonlar tarafindan birinchi martaba yasalgan ushbu tomosha kechasindan buncha foyda o'z-o'zidan chiqmadi, balki buning uchun Toshkand yoshlarining ko'p g'ayrat va ijtihodlari ham charchamay va hech kimning shikoyat va haqoratiga quloq solmay qilgan sa'y va harakatlari o'ldi.

Bu tomoshalar jamiyatga faqat moddiy jihatdangina foyda kelturub qolmay, balki ma'naviy jihatdan ham ko'p foydalar kelturdi. Toshkand jamiya-

@tarixchi_kutubxonasiga

tining ismini unutgan yoki hech bir jamiyat degan so'zni eshitmagan Toshkand musulmonlarining yetti yasharidan yetmish yasharigacha jamiyatning vujudidan xabardor bo'ldi, rus, yahudiy va armanilar foydalanib yurgan o'rinlardan foydalanmak musulmonlarga ham mumkin ekanligi ochiq bilindi, bu esa Toshkand musulmonlarining hiyla ruhlari ko'tarilmog'iga va jamiyatga muhabbat ila qaramoqlariga sabab o'ldi, shul sababli ushbu ishlarni boshqargan yoshlarga va bularga yordam berib turgan shahar politsiya meystrina jamiyat a'zosi chin ko'nguldan tashakkur etadur va kelajaqda yana shunday xizmatlarda bo'linib, xalq va jamiyatga foyda yetkurodurgon yosh yigitlarimizning amsollarin ko'paytirmakni janobi Haqdin istid'o qiladur.

Jamiyat raisi muovini: Munavvarqori.

Munavvarqori Abdurashidxonov.
«Samarqand» gazetasi. 1913-yil, 20–23-avgust.

G'azeta o'qimoq manfaati

Biz turkistonlilarg'a g'azeta o'qumoq u qadar rasm va taomil emas. Agar g'azeta o'qumoqning manfaatini bilsa eduk, yoki g'azeta o'quv ma'nosig'a tushunsa eduk, hatto bir nafas o'lsun, g'azeta mutolaasidin voz kechmas eduk.

G'azeta o'qumoq u qadar lazzatli shaydurki, buning lazzatini faqat qalam ila tasvir qilib bo'lmas.

Lekin g'azeta o'qub lazzat topmoq uchun tarix va jug'rofiyadan xabardor bo'lmoq kerak. Chunonchi, bu kundagi Turkiya ila Italiyo so'g'ushig'a[1] mutaalluq[2] xabarlarni o'qub anglamoq uchun bu ikki davlatning, filjumla jug'rofiyasi ila tarixini bilib, mavqe'i muhoraba[3] xaritasini ko'z oldig'a tutmoq kerak. Shunday bo'lmag'on holda g'azeta o'quvchi o'qig'an xabarlaridin istifoda eta olmaydur. Bizning xalq aksariyat ila g'azeta o'qumaylar. G'azeta o'quvchilaridin ham o'n nafaridin to'qqizi g'azetadan lozim darajada istifoda qila olmaydur. Chunki tarix va jug'rofiyadan ozg'ina o'lsun xabari yo'q. Hatto o'z baladasini[4] jug'rofiyasini ham bilmas.

Bilmoq kerakkim, g'azetalarni yaxshi va istifodalisi[5] o'ldig'i kabi istifodsiz[6]ligi ham bo'lur. Shuning uchun g'azeta o'quvchi bul xususida diqqat ila g'azeta intixob qilmog'i kerak. Bir davlat yoki millatni maorif

[1] *Sug'ushig'a* – birlashishiga, kelishishiga.
[2] *Mutaalluq* – taalluqli.
[3] *Muhoraba* – urushish, jang qilish, harbiy.
[4] *Balada* – shahar, davlat.
[5] *Istifoda* – foydali.
[6] *Istifodsiz* – foydasiz.

@tarixchi_kutubxonasiga

va sano'i[1] to'g'rusinda na darajada edikini bilmoqchi bo'lsangiz, jug'rofiya va g'azeta vositasi ila bilursiz.

Xulosa, jug'rofiya va gazeta bir oynayi jahonnamodurki, tamom harakat va ahvoli ahli ilm bularning vositasi-la bilinib turadur. Bularni va tarixni o'qugan kishi bir millatning taraqqiysi va yo inqirozi nalar ila o'lajag'ini kamokona bilur[2].

Va bundin so'ng din va millatni yashi ko'raturgan bo'lsa, taraqqiysi uchun mumkin qadar har bir choraya tashbish edar.

Bizning Turkistong'a esa hatto bir dona o'lsun, milliy g'azeta yo'qdur. Bizning hayotsizlig'imiza va ham maorifi zamon va sano'i jadidadan butun bebahra o'ldug'imiza shul bir dona milliy g'azetaya molik o'lmadig'imiz dalil bo'lsa kerak. To bir milliy g'azetaya molik bo'lg'uncha, biz ushbu «Turkiston» g'azetasig'a maqolalarimizni yuborib turarmiz.

Har kim har na desa desun, biz o'z maslakimizda xizmat edarmiz.

Maqolalarimizni g'azetag'a darj etdiki uchun sohibidin ham minnatdormiz.

Hoji Muin.
«Turkiston viloyatining gazeti», 1911-yil, 24-noyabr.

O'z bayramlarimizni ehtirom etmoq kerak

...Yer yuzidagi har millat, xususan, hissiyoti diniya va milliyasi ila mutaxassis bo'lgan mutamaddun millatlar o'zlarining muqaddas diniy va milliy bayramlarini hurmat qilub, bayram kunlarida odatiy kasb-u korlarini ta'til etarlar. Va o'z dinlarincha muqaddas sanalgan bayram kunlarini qarindosh va yor-u do'stlarining holidan xabar olmoq, xalq foydasini nazar-e'tiborga olib, majlislar yasab, milliy va diniy maslahatlar ila o'tkarurlar. Ular o'z manfaati shaxsiyalari uchun kasbi mol va tahsili sarafat[3] yo'lida naqadar ijtihod etsalar, zamone kelganda naf'i xalq va ta'mini istiqbol yo'lida g'ayrat va sarfi mol etmaqdan tortinmaylar. Hatto, vaqti kelgan vatan va millat yo'lig'a jon fido qilmoqni o'zlariga sharaf va saodat bilurlar. Xulosa, o'zga millatlar tahsili maorif va sarvatni naqadar sevsalar, din va millat bayramlarini ham shul nisbatda yaxshi ko'rub, aqcha uchun bayram va milliy ishlardan voz kechmaydilar. Endi o'zimizga kelsak, haftalik jum'a bayramimiz nari tursun, yilda bir marotabadan kelaturgon iydi ramazon va qurbon va mavlud kunlarida ham kasb-u korimizdan qo'l tortmaymiz. Ba'zan qo'l tortganda ham shunday muqaddas kunlarni qadr-u hikmatini bilmay, sa-

[1] *Sano'i* – san'at.
[2] *Kamokona bilur* – qandayligini biladi.
[3] *Sarafat* – xarajat.

@tarixchi_kutubxonasiga

movarxonalarda choyxo'rlik, bazm majlisini qurub, juvon o'ynatmoq va mayxonalarda yurub ichgulik, fahsh va fasod ila o'tkarurmiz...

...Bu nimadandur? Ahkom-u falsafiyoti diniyamizdan haqqincha xabardor bo'lmaganimizdan. Muhtaram din boshliqlarimizning o'z vazoyifi diniyalarini ehmol qilib, har ishni taqdirg'a havola qilganlaridan, to'g'risi, jaholatni hukmfarmoligidandur, desak fikrimizga asobat qilgan bo'lurmiz. Har holda biz istiqbolimizdan noumid emasmiz. Chunki, bu so'ng kunlarda bizning Turkistonda ham biroz intiboh asari ko'runa boshladi.

Oning natijasi o'laroq bir yoqdan, necha adad maktab vujudg'a keldi. Ikkinchi tarafdin, o'z shevamizda ikki-uch milliy jaridalar chig'a boshlab, baqadral hol o'z vazifalarini ado etmaqdadurlar. Agar ushbu hol ila davom qilaversak, ya'ni Turkiston yoshlari maktabi ibtidoiyaning ko'paymog'ig'a harakat qilub, jarida vositasi ila milliy, diniy ishlarimizning isloh yo'lini ko'rsataversalar, oz zamonda Turkistonimiz ham madaniyatli mamlakatlar qatoriga kirub, hayot va mamot masalasidan iborat bo'lgan huquqi madaniya va milliya kabi shaylardan xabardor bo'lub ketishimiz shubhasizdir. Yuqoridagi so'zlardan ma'lum bo'lurki, diniy va milliy bayramlarning qadrini bilmak uchun ilm keraqdur. Ilmsiz millat na din, na bayram kabi muqaddas shaylarning haqiqat va hikmatlarini tanimas ekan, bas, biz Turkiston musulmonlariga o'z dinimizni tamoman bilmoq va milliyatimizni lozimizicha muhofaza qilmoq uchun o'zga millatlar kabi tahsili ulum va funun yo'lig'a ijtihod va g'ayrat, sabot va istiqomat qilmoq lozimdur.

Har oqil o'lur garchi rizododai taqdir,
Lekin yana tadbir oromaq boshqa zakodur.
G'ayratdur edan odami har maqsada noyil,
Tanballikka mayl etmaki, anjomi fanodur.

«Oyna», 1914-yil, 35-son, 826-827-betlar.

Namanganda mahalliy amaldorlarning saylanishi haqida

Tuzemnoy gazit idorasiga bir xabar afsusi asr 1910-yilgi ahvoloti xalqiyalarimizdin nadomat qiladurgon ishlar voq'e bo'lib, xalqni harakatga soladur. Oli afsus, ahli ilm va ahli fatvoyi shariat ishlariga aloqadorlik yoki murofaa[1] odamlarga go'yo tabodul olam[2] yoki tabodul mulk[3]

[1] *Murofaa* – mahkamadagi mansabdor shaxs (qozi).
[2] *Tabodul olam* – olam o'zgarishi.
[3] *Tabodul mulk* – hukumat o'zgarishi.

@tarixchi_kutubxonasiga

bo'lgon kabi ko'rinadur, chunonchi, har yerda bo'lgan saylovlar xususidagi betartibliklar va befikrliklar millatga oshno kishilarni nihoyatda g'ussa va andishalarga soladur. Chunonchi, O'zgand qozi saylovidek Namangan aholisiga ham atroflarida ko'p bo'listlar muhofizoti qilib, o'z qozilari ilan tortishib, ellikboshi degonlar xalqlarni o'z ixtiyoriga qo'ymaganlarini, hamma yerda pristav va hokimlar bilib turib mon'e qilmaganlari fikrga soladurki, bo'lustno'ylar faqat odam hozirlab bermakka haddi bor. Bo'lak xususida daxli yo'q deb fahm qiladilar. Emdi ma'lum bo'ldiki, bo'lak xususda ham ko'p daxli bor ekan. Ikkinchi shulki, ellikboshilar saylovida xalq ellikboshini andisha va fikrlik darbon kishidan qilmaganlari o'zi inqirozga yo'l tutganlarini ko'rsatadur. Mashallo, bir odamni qozilikka sayladilar. Xoh yaxshi, xoh yomon, mayli, qozi bo'lishni polojeniyada 223-bobda zikr qilgondurki, e'tibori bor, yetti kundin ziyoda hibs bo'lmagon, 30 so'mdin ziyoda shtraf to'lamagan, yoshi yigirma beshdan past emas odam bo'lur, degan ekan. Olim yo ilmi ahmoq, yo dono kishi, yo shariat biladurgon va yoki nizom biladurgon demagani shulki, faqat inson bo'lsun. Mazkur ayblarga duchor bo'lmagon bo'lsin degoni bul viloyatlarimizga katta yo'l bo'lib, savodi bo'lmasa ham mayli, savodi bo'lsa ham mayli, polojeniyada ilm kifoya qiladurgon ham deb yozmogondur. Hibs bo'lmagon, shtraf to'lamagon, yoshi yigirma beshdan ziyoda degan so'z katta vaj bo'lib, alholda ko'rasiz kimlarni qo'llariga bul katta shariat hukmini topshiradurlar. O'n beshinchi nomerlik gazitda bir muhaqqiq Saloh imzosida yozgon maqola xo'p durust, to'g'ri maqola ekanki, basharti qozilar mulladin, ulamolardan bo'lsa qodir imtihon bo'lurlar edi. Bul insoni faqirni mansabi qoziga o'tkuzganda ajab tomoshalar chiqadur. Lekin, so'zi haq, o'zimiz aybdor, na uchunkim millatimizni qaviy bo'lmagoni.

Hech fikr andisha qiladurgon kishi yo'q, andisha qiladurgon odamni odam ham hisob qilmaydurlar. Bul ham o'zimizni befikrligimizdan bo'lur. Xo'p omi ham bo'lsun, omi ham faqat o'z ra'yi ilan ish qilishga qodir emas, shariat masalalarini mufti va ulamolar ko'rsatib, fatvo beradurlar. Anda hukm qilsa kerak. Shunchalik ekanki, falon yerda omidan qozi qilibdur, rahmat yoki la'nat deganda, o'ttiz ming ahli bo'lsa o'ttiz mingdan rahmat yoki la'nat tegadir. Shunchalik, bari xulosa va hukmlar bo'lsa, polojeniyani bobiga muvofiq, ellikboshi degan xalq xohlaganiga muvofiq, kimgaki sharr[1] ko'p tushsa, oni yozar ekan. Na qilsunlar, bul xil qilsalar polojeniyaga muvofiq bo'ladir. Polojeniyada shariat biladurgon mulladin degon emas ekan, o'zimiz xohlaganimiz nima va kim bo'lsa oni qilurlar, ularga kim va nima

[1] *Sharr* – yomonlik.

@tarixchi_kutubxonasiga

bo'lsa ham darkor emas ekan. Binobarin, o'z xalqimiz biri past, biri baland, deb beittifoq bo'lurlar.

Is'hoqxon Ibrat.
«Turkiston viloyatining gazeti»,
1910-yil, 21-mart, 22-son, 1-bet.

2-§. BUXORO AMIRLIGI MATBUOT MATERIALLARI

Imroni vatan

Bu kun g'azitamizda Termizdan idoramizga yuborilgan bir maktubni maqola[da] fatxor darj qilamiz[1]. Vatandoshlarimizning g'ayratlari ilan va faoliyatlarindan bir namuna va hasor kimga[2] dars ibrat bo'lgan bu maktubni umumning nazar diqqatlariga arz qilamiz. ....Mana bu kun Sherobod viloyatining muhtaram aholisi bo'lgan vatandoshlarim mani bu hisrat shubhadan chiqardilar. Bol famol amliyat ilan ko'rsatdilarki, fil haqiqa g'ayrning himmati tog'larni yerindan yo'q va yakson qilar ekan.

Injener Onanuf [Ananyev]ning tarh[3] va tartibi vaji ilan uch durat sanada[4] va miliunlarcha mazoraf[5] ilan bo'lajaq 30–40 chaqirimlik ariq [kanal]ni 1500 odam 50 kunda tamom qilibdurlar. Ellik kunlik himmatlari ilan faqat Sherobod emas, balki takmil[6] vatanimizga obod va umumvatandoshlarimizga bir dars ibrat bo'libdirlar. Umumdehqon qarindoshlarimiz mundan ibrat olsunlar va ... muni nazar diqqatlariga va fikr-mulohazalariga olub, dehqon qarindoshlarimizga tablig'[7] qilsunlar.

Chunki, Buxoro shahri atrofini, sahrolari va tumanlari ba'zi sanalar suvsizlikdan parishon bo'lub qoladir. Shahar aholisi har turli xastaliqlarga sabab bo'lg'uchi suvlar icharga mahkum bo'lub, naqadar jonlar, odamlar g'ayub va talaf qiladir[8].

Agar mamlakatimizda Ovrupadek har ish xususinda istatistuq[9] hisoboti bo'lsa edi, ko'rurdikki, Buxoroyi sharif aholisi xususlarining zararindan har sana qadar odam g'ayb[10] qiladir.

---

[1] *Fatxor darj qilamiz* – faxr bilan bayon qilamiz.
[2] *Hasor kimga* – har kimga.
[3] *Tarh* – qisqartirish, minus qilish.
[4] *Uch durat sanada* – uch yil oldin.
[5] *Mazoraf* – xarajat.
[6] *Takmil* – butun.
[7] *Tablig'* – targ'ibot, tushuntirish.
[8] *G'ayub va talaf qiladilar* – kasallikka chalinadilar, vafot qiladilar.
[9] *Istatistuq* – statistik.
[10] *G'ayb* – nobud.

@tarixchi_kitobxonasiga

Digar jihatdan sahrolarimizning mahsulot va mazra'atida[1] suvsizlikdan qancha zarardida bo'lub bormoqdadir. Agar Xudo berib, Zarafshon nahridan oz-moz suv kelsa, mahsulotimiz yaxshi, agar suv bo'lmasa, mamlakatimizda qahat hukmfarmo bo'lmog'i boshlaydir. Zarafshon nahrining suvi tog'larda qor, vodiylarda yax bo'lsa, hosil bo'ladir. Bo'lmasa, bir qatra suv hosil bo'lmaydir.

[Jayhun] nahri soatda miliunlarcha mashak[2] suvni bekorga [Orol] dengiziga oqizmoqdadir. Muhandislar Sherobodda ko'rsatganlaridek, Amudaryodan Buxoroga kelturajaq [kanal] uchunda miliunlarcha mataraf va sanalarcha muddat ko'rsatgan edilar. Agar bu kun sherobodliklardan ibrat olub, Amudaryo labindan bo'lgan [Farob] istansasining shimol taraflarindan Buxoroga to'g'ri bir kanal va nahr ochilurga g'ayrat qilunsa, o'z vaqtida tamom bo'lub, mufqit[3] hosil bo'lajag'i shubhasizdir. Bu kanalni qazimoq g'oyat oson va yengil bo'lajaqdir. Chunki, Amudaryo ilan Buxoro orasinda baland bo'lgan tog'lar yo'qdir. Yerlari aksari yumshoq va qumloqdir. Shul sababdan qazilmog'i uchun zahmat oz bo'lajaqdir. Yanada, Amudaryodan qazilajaq kanalning uzunlig'i nihoyat yuz chaqirim bo'lajaqdir. Sherobodda 1500 odamning 50 kun g'ayrati ilan 30–40 chaqirimlik yer qazilgan kabi, Buxoro va atrofindan ja'm qilinajaq 3000 odam ilan Amudaryodan yuz chaqirimlik [kanal]ning 87 kunda qazilub tamom bo'lmog'i lozimdir. Xususan, bizning dehqonlarimizda hashar bir odat hukmindadir. Doimo hasharga ketmoq, ariq qazimoq ilan kun o'tkaradirlar. Hukumat jalilamiz[4] jannat mirobining va yo boshqa bir faol odamning toat riyosatinda necha zotdan ibora hay'at tashkil qildirub, umumiy hashar barpo qildursa, oz fursatda mamlakatimiz obod bo'lurdi. Xususan, shu vaqtlar zimiston munosabati ilan dehqonlarimiz bekordirlar. Nuvbat va nuvbat sahrolar, tumanlaridan odam ja'm qilinsa, dehqonlarimiz uchun-da ko'b mushkul bo'lmasdi. [Kanal] qozig'uchilarga xazina jaliladan va Buxoroyi sharif aholisidan moddiy yordamlar qilinsa, ish oson bo'lurdi.

Xulosa, bir g'ayrat, bir himmat ilan muborak vatanimiz obod, ma'ruf bo'lur va kata bir asar madaniyada vujudga kelgan bo'lur. G'ayrat! Himmat! Vatandoshlar!

G'iyosaliddin (G'iyosiddin).
«Turon», 1912-yil, 4-dekabr. 38-son.

[1] *Mazra'at* – ekinzor.
[2] *Mashak* – loyqa, [sariq].
[3] *Mufqit* – maqsad, murod.
[4] *Jalila* – buyuk.

@tarixchi_kutubxonasiga

Obodi vatan

Buxoroi sharif davlatida Sherobod viloyatining fuqarolari mundag'i xoh Rusiya va xoh musulmonlarni ta'jub va hayratda qoldirdilar. Ya'ni, injinir [muhandis] Ananuf nomlik bir kishi Sherobod yerlarini obod qilaman deb taraddud qilur edi. Ya'ni, necha miliun so'm xarajat qilib, Surxon daryosidan suv chiqarmoq uchun uch va to'rt yil ariq qazitmoqchi edi. Shul jihatdan necha miliun so'm pul oxtarib, Maskuvga-da ketgan edi. Holbuki, bu Maskuvga ketgach, Sherobod viloyatining fuqarolari bir ming besh yuz mardikor ilan ellik kun muddatda mazkur Surxon daryosidan o'ttiz-qirq chaqirim yerga katta arig', nahr qazib suv chiqardilar. Daf'ada[1] benihoya bug'doy, arpa ekdilar, vaqtida ko'p paxta ham ekadirlar. ...Bemuhandis tez fursatda mundog' g'ayrat qilgan fuqarolarg'a tahsin va ofarin qilmoq har bir odamg'a lozimdir. Xudo muvofiq qilsa, keladurgan yil Sherobod viloyatida g'alla ko'p bo'lib, manfaati davlatxonai oliy uchun va mundog'i Rusiya [garnizuniyag'a] ham ko'p manfaat bo'lsa kerak, deb umid qilamiz. Ajabo, bemiliun ish bo'ldi!

Mullo Abdurashid.
«Turon», 1912-yil, 4-dekabr. 38-son.

Maktub (Rukn)

Hozirgi kunda, Buxoro mulkida foyda va manfaat beradigan, iqtisodiy va tijoriy to'kinchilik keltiradigan narsa bu – kurmak[2], ya'ni pilla savdosi bo'lib, u barchaga foyda keltiradi. Kurmak yetishtirishda birinchi navbatda uning tuxumidan ehtiyot bo'lish zarur. Kurmak tuxumini yetishtiruvchi aniq korxonadan yoki Samarqanddagi korxonalardan olib kelish zarur. Bu ikki narsa uning yaxshiligiga kafolot qiladi. Uni olib kelgandan so'ng, xonaning havoli va namsiz, hidlanmagan joyiga qo'yish kerak. Bundan ko'pchilik voqifdir. Qo'ygan joyi og'il[3] bo'lsa ham, u joy yorug', quyosh nuri tushadigan joy bo'lsa, foyda olib bo'ladi.

Ayniqsa, yelvizakli joyda pilladan zarar ko'riladi, pilla qilsa ham, bebarokot bo'ladi. Barg zada bo'lmagan, yomg'ir yoki qumda qolmagan bo'lishi kerak. Italiyaga tijorat bilan borgan do'stlardan birining aytishicha, u Italiyaga pilla yetishtirish payti borib qolgan. Italiyaning barcha oliy xonadonlari 20–30 ming frank sarflab, kurmak boqadigan uylar quradilar.... Katta chillada har bir kishi kurmakka 4–5 bor barg solishi kerak. Birodarlar bu

[1] *Daf'ada* – tezda.
[2] *Kurmak* – pilla (sheva).
[3] *Og'il* – molxona.

@tarixchi_kutubxonasiga

narsadan foydalansalar, qo'llari ancha pul ko'rib, zaruriy ehtiyojlari qoplangan bo'lur edi.

M.B.

«Buxoroyi sharif», 1912-yil, 1-aprel. 18-son.

Pilla olish

Bugungi kunda Buxoroda pillachilik tanazzulga yuz tutgan bo'lib, ayrimlar ro'znomamizga bu haqda shikoyat qilmoqdalar. Bu foydali ishni taraqqiy qildirish yo'llarini gazetamizdan so'ramoqdalar. Darhaqiqat, oxirgi paytlarda Buxoroda, yoyinki, butun Turkistonda pillachilik qadim vaqtlarga qaraganda tanazzulga yuz tutgan. Chunonchi, ma'lumki, pillachilikning asl mabdasi Xitoydir. Uzoq zamonlar pillachilik faqat xitoylarga xos bo'lgan. Undan juda katta tijoriy foyda olganlar. Butun dunyoga abrichin [abrishum][1] Xitoydan kyetgan va hamma unga muhtoj bo'lgan. Va qadimgi rumliklar ham o'zlarini shu materiallar bilan bezaganlar. Bu shoyilarni tashish va o'tkazish faqat turkistonliklarga xos edi. Ular bu tijorat mollarini Xitoydan arzon olib, g'arb viloyatlariga yetkazganlar. Ko'p vaqtlar turkistonliklar shu ish bilan, ya'ni tashish va o'tkazish bilan kifoyalanib qolganlar. Uni Turkistonda yetkazish fikri bo'lmagan. Bu tijoratni rivojlantirishdan katta manfaatlar borligini ko'rgach, uni Turkistonga olib kelish va yetishtirish fikriga kelganlar va ko'p jiddi jahdlardan so'ng pillakorlikni o'rganib, chinlilarga muhtoj bo'lmasdan, o'zlari yetishtira boshlaganlar. Hatto, bu tijoratni olib borish uchun hamsoya[2] davlatlar bilan ko'plab janglar olib borganlar va g'arbga o'zlari olib borganlar. Ko'pincha, uni o'sha vaqtlardagi rumliklar va yunonlarga sotar edilar. Chunki, o'sha vaqtlarda Yevropada shulardan boyroq mamlakatlar yo'q edi. Lekin bora-bora turk va mo'g'ul toifalari[ning] bir-birlari bilan urushlari tufayli kuchsizlanib, bo'linib, bu tijoratdan ajralib qoldilar.

Shundan so'ng, bu tijorat turkistonlilar qo'lidan ketib, rumiylar qo'liga o'tdi va ular o'z mamlakatlarida bu san'atni nihoyatda taraqqiy qildirib, butun Yevropaga yoydilar. Turkiston va Xitoy ulardan orqada qolib, foyda ko'rmadi. Hozir ham Turkiston aholisi ... ajdodlarining xatolarini tushunib, bu ishni taraqqiy qildirsa, katta foydalar olishi turgan gap. Chunki, Turkiston havosi bu ishga nihoyatda qulay. Sotib oluvchilar ham ko'p. Shuncha payt uxlaganimiz kifoya qilar, haliyam uyg'onish uchun vaqt bor. Bu dehqonchilik va paxtakorlikka nisbatan ancha oson va foydaliroqdir. Agar Buxoro hukumati va mahalliy aholi qo'lni qo'lga berib ishlasa, ko'p foydalar oladi. Biz ham o'z gazetamiz sahifalarida bu masala borasida imkoniyatimiz

[1] *Abrichin* – shoyi (ipak).

[2] *Hamsoya* – qo'shni.

@tarixchi_kutubxonasiga

darajasida tanishtirib boramiz va foydali maqolalarni mamnuniyat bilan chop etib boramiz.

M.R.

«Buxoroyi sharif», 1912-yil, 15-aprel. 30-son.

Turkistonda ipakchilik islohi

Piterburg'da 8-dekabrda [ipakchilik jamiyati]ning majlisida [Subuliuvskiy] ma'ruzoti o'qildi. Ma'ruzot [doklad] ipakchilikning hozirgi zamonda Turkistondag'i ahvolidan bahotdir. [Subuliuvskiy] yozuv xatida, Maskav jamiyati tarafindan Sirdaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlarinda ipakchilikning ahvolini bilmoq uchun yuborilgan edi. Ipakchilikning ko'p taraqqiy qilgan yeri Sharqiy Turkiston[1] va Zakavkaz [Kavkazorti] viloyatidir.

Ipakchilikning Turkistonda markazlari Xo'jand, Samarqand va Farg'ona atroflaridir. Ko'broq tog'larga yaqin qishloqlardadir. Umum Turkistonda yillik ... pilla hosiloti 200–250 ming pudga qadar taxmin qilinur. Qimmati 4–5 miliun so'mlar bo'ladir. Pillaning ko'prog'i Marsil [Marsel, Fransiya] va Milan [Italiyada], bir oz Maskavga [Moskva] yuboriladir. Qolgani Turkistonda sarf bo'ladir. Ipakchilik ishining taraqqiysinda bu so'nggi yillarda paxta mone' bo'lmoqdadir. Chunki, paxtadan foyda ko'proq chiqadir. Pilla tarbiyasini yaxshi bilmaganliqindan ba'zan zarar chekadirlar.

Turkistonda joriy pilla tarbiyasi Italiya va Yaponiya qoidalariga muvofiq emasdir. Xorijdan kelturilgan pilla qurtindan xalq ko'p zararga tushadirlar.

Chunki, bu qurtlar aksar kasal va yaramas bo'lurlar. Bu viloyatda ikki pilla qurtining korxonasi bor esa-da, noqisdirlar. Bu korxonalar xorijdan keturilgan yaramas, arzon qurtlar ilan raqobat qilmoqqa majburdirlar. Bir qism pilla urug'i Turkistonning sharq sarhadindan Qoshg'ar va Xo'tanga yuboriladir. [Ipakchilik jamiyati] qobiliyat tabiiyasini nazar diqqatga olub, aytadur, Turkistondan 4–5 miliun so'mlik pilla chiqarmoq mumkin bo'ladir.

Turkistonda pillachilikning taraqqiysi va bir qadar taxtiga olinmog'i uchun hukumat tashabbusi lozimdir. Hukumat hozirga qadar ipakchilikning taraqqiysi uchun ... 6000 so'm sarf qilur ekan. Pilla urug'i ssudasini bir qadar va doira mahdudga kirgizmoq va kasal bo'lgan urug'larni bozordan chiqarmoq uchun ish hukumatning jiddiy nazoratiga muhtojdir.... Rusiyada ipakchilik taraqqiy qilsa ham, pilla mamlakat xorijiyaga yuboriluv ekani, mamlakat xorijiyadan olmoqqa hojat qolmas edi. Jamiyat xabar olubdurki, yer ishlarining bosh idorasinda Turkistonda ipakchilikning taraqqiysi

[1] *Sharqiy Turkiston* – hozirgi Xitoyning Shingjong uyg'ur muxtor avtonom rayoni.

@tarixchi_kitobxonasiga

uchun bir muassasayi ilmiya binosiga loyiha hozir qilinmoqdadir. Hukumatning Turkistonda ipakchilikni taraqqiy qildirmoq uchun tashabbuslar, yordam qilmoqg'a [ipakchilik jamiyati] besh kishidan iborat bir hay'at tashkil qilubdir.

«Turon», 1912-yil, 19-dekabr, 44-son.

Qarshi temir yo'li

...Bu kunda Buxorodan Qarshiga to'g'ri tamdidning[1] Buxoro uchun qanday foydalari borligini arz qilamiz:

Agar Qarshi temir yo'li Kogondan tamdid qilinsa, Rusiyadan kelgan mollar to'g'ri Buxoroga kelur. Hukumat jalilamizning vadoti ko'b tazoyid qilur[2]. Zakot hosiloti tazof qilur[3]. Katta ssudalar Buxoro boylarining qo'lida bo'lur. Boshqa mamlakatning ja'mi savdogarlari Buxoroga kelurlar. Bunlardan-da, Buxoroda ko'p aqcha qolur. Qarshiga qadar temir yo'l xolis Buxoro tufroqindan o'tar. Yo'l bo'yinda bo'lgan yerlar obod bo'lur. Cho'l ishga kirur. Ziroat va fallohot[4] taraqqiy qilur. Yo'l bo'yinda bo'lgan shaharlar, tumanlar, viloyatlar ma'mur bo'lur va shaharlarda ziroat bonkalari ochilur. Faqir hindilarga yuzga qirq va ellik qarz olmoqdan xalos bo'lur. Faqat yuzga sakkiz ilan istaqroz[5] qilub, ish ko'rmoqqa odat qiladir. Kogon katta bir shahar bo'lur. Janob oliy hazrat amirning vadodlari favqulodda ko'p bo'lur. Mazkur temir yo'l bir vaqt Hisor taraflariga tamdid qilinsa[6], boshdan boshqa Buxoro mamlakat vohasining g'allasi vam uvod[7] tijoriyasi to'g'ridan to'g'ri Buxoro shahriga oqar. Yo'l bo'yindagi ma'danlar[8] chiqarilsa, ular-da to'g'ri Buxoroga kelur.

Afg'oniston mollari uchun-da Buxoro tijorat markazi bo'lur. Afg'on va Buxoro mollari olmoq uchun Rusiya va Ovrupadan kelgan savdogarlar Buxoroga kelib, ko'p aqchalar qoldirib ketarlar.

Mazkur yo'l bir vaqtlar Kofiriston[9] va Hindistonga qadar tamdid qilinursa, Hinduston mollari uchun-da Buxoro tijorat markazi bo'lur. Hindiston mollari Ovrupaga Buxoro vositasi ilan yuborilur. Xulosa, Buxoro bu yo'l vo-

---

[1] *Tamdid* – uzaytirish, yo'l yotqizmoq (cho'zilmoq).
[2] *Vadoti ko'b tazoyid qilur* – hukumat xazinasi boyiydi.
[3] *Tazof qiladi* – qo'shiladi.
[4] *Fallohot* – dehqonchilik.
[5] *Istaqroz* – kredit.
[6] *Tamdid qilinsa* – cho'zilsa.
[7] *Vam uvod* – butun, to'laligicha.
[8] *Ma'danlar* – ma'danlar, yer osti boyliklari.
[9] *Kofiriston* – Afg'onistonning shimoli-sharqida joylashgan tog'li viloyat, hozirgi Nuriston.

@tarixchi_kitobxonaga

sitasi ilan dunyoda birinchi tijorat markazi bo'lur. Shul maslahatlarni savdogarlar, boylar va hukumatdorlarimiz nazar diqqatlariga olsunlar.

Mazkur yo'l Samarqanddan ketarsa, shubhasiz, Buxoro bir shahar manzilinda bo'lib qolajaqdir. Savdo-tijorat bitar. Buxoroda bo'lgan buncha bankalar, muassasoti moliyalar barbod bo'lur, izsiz yo'qolur. Ko'p odamlar hijrat qilurga majbur bo'lur. Hovlilar, yerlar arzon bo'lur. Ko'p odamlar har tarafdan zardida bo'lur. Boylar, savdogarlar afsus qilur.

Mana shu balolardan qutilmoqning chorasi har holda Qarshiga qadar bino qilinajak temir yo'lni Kogondan tamdid qilmoqdir. Boshqa chora yo'qdir.

Kogondan Qarshiga tamdid va tuzilmog'i shirkat uchun-da, masraflikdor[1] muqa jihatindan-da yaxshidir. Katta tog'larga, vosi' nahrlar[2]ga tazdif[3] qilinmaytur. Taxt mastuy [mustaviy] bir yerdan temir fash[4] qilinadur. Bul jihatdan shirkat uchun-da onsa oti ko'p arzon va mashaqqatsiz bo'lur. Ham tez tamom bo'ladir. Ammo, Samarqanddan tamdid qilinganda yo'lda hech baland tog'larga, vasi' nahrlarga tasadduf qilinadir. Ham yo'l uzun bo'ladir. Shirkat uchun mashaqqatlik va masraflik bo'ladir...

Hukumat jalilamizdan Buxoroning hay'atiga [hayotiga] va mamotiga ta'luq qilingan bul yo'lning Kogondan Qarshiga tamdid qilinmog'i xususinda sa'y va jihotni tuqa[5] qilamiz. Hatto lozim bo'lsa, temir yo'lning Buxorodan Qarshiga qadar ishg'ol qilinaturgan ... turgan yerlarini bepul, manfaat shirkatga maqovlonoma[6] doirasinda bermog'i muvofiqdir. Chunki, Buxoroning iqtisodiy taraqqiysi temir yo'lning olaturgan yerlarindan xayrlikdir.

Buning ilan-da bo'lmayub, hamon Samarqanddan tamdid qilinar ekan, masala qaror topgan[ga] qadar Buxoro mamlakati doxilinda[7] temir yo'lning o'taturgan yerlari uchun g'oyat baland baho qo'yilganligi sherikka e'lon qilinsun. Masalan, [Jum'a] istansasindan Qarshiga qadar temir yo'l qazilaturgan yerlarning bir gaz marbahi[8] uchun shirkatdan ko'b aqchalar talab qilinsun. Shoyadki, Buxorodan tamdidiga [cho'zilishga] vosila[9] bo'lur. Faqat har tashabbus Peterburg'dan qaror loyihasi berilgunga qadar bo'lmoq lozimdir. Bir da'fa qaror berilgach, ishbonni qidirmoq mushkuldir.

---

[1] *Masrafikdor* – sarf-xarajat kamroq.
[2] *Vosi' nahr* – keng, chuqur daryo.
[3] *Tazdif* – to'qnash.
[4] *Taxti mastuy [mustaviy] bir yerdan temir fash qilinadur* – tekis yerda temir yo'l yotqiziladi.
[5] *Tuqa* – iltimos, o'tinch.
[6] *Maqovlonoma* – rasmiy.
[7] *Doxilinda* – ichida.
[8] *Marbah* – foyda, narx-navo.
[9] *Vosila bo'lur* – yetishadi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Shavkatli imperatur a'zam hazratlarining noiblari muhtaram konsul janoblaridan va hukumat jaliliyamiz[1]dan takror va oliy altakror istifom qilamiz. Mazkur Qarshi temir yo'lining tamdidini Kogondan bo'ldirmoq xususinda iltifot etsunlar. Toki Buxoro istiqboldagi iqtisodiy inqilobdan najot topsun. Buxoro savdogar va tujjorlarining-da bul xususda nazar-diqqatlarini jalb qilamiz. Buxoroning hayot va mamotiga ta'luq qilgan bu temir yo'l Buxoroi sharifning savdo va tijoratiga-da o'shandoq ta'sirlikdir. Bu kun fursatni g'animat bilib savdogarlarimiz, hukumat jaliliyamizning sadr-a'zami bo'lg'uchi janob hazrat panohki va marhamat marhamatuv imperatur a'zam hazratlarining noiblari fahamtu[2] konsul janoblariga mazkur temir yo'lning Buxorodan tamdidini so'rab murojaat qilmoqliklari hamiyati vataniyadandir.

«Turon», 1912-yil, 27-avgust. 13-son.

Mulohaza

Ayrim zohiriy mulohazalarga ko'ra, biz musulmonlar mavjud manfaatlarimizdan mahrum bo'lib o'tyapmiz. Biz o'z dunyoqarashimiz bo'yicha xatti-harakatlarimiz islomiy deb o'ylasak-da, aslida islom va insoniyatga xos emas. Xuddi shu masalalarimizdan biri savdo-sotiq va sudxo'rlik masalalarini Qur'oni karimga mos deymiz. Aytamizki, sudxo'rlik harom deb. Agar biz biror shirkat tashkil qilsak, zaif birodarlarimizni qo'llab-quvvatlab yordam bersak, ularning xizmatini qilsak deb o'ylaymiz va ulardan manfaat kutganligimiz uchun ham u sudxo'rlik hisoblanadi. Bas, biz sudxo'rlikka aralashgan bo'lamiz. Va shariatning tijorat hukmlaridan uzoqlashamiz, ya'niki, bir dindor birodarimiz 100 so'm [manat] qarzdorligini ko'rsak, uni chetga tortib, 100 so'm beramiz. Shu shart va qaror bilanki, u bechora bir yilgacha pulimizni berolmasa uch-to'rt barobar ko'pini so'raymiz. Uning mol-mulki-yu xonasi [uyi]ni yulib olamiz. Aslida, biror kishi ayta olmaydiki, bu musulmonlarning ishi deb. Dunyoda har qayerda musulmonlar bor, ular 100 ming marta muqaddas shariat amrida yuribmiz, desalar-da, ko'pchiliklari sudxo'rlik bilan shug'ullanadilar. Mening o'zim ko'rdimki va shug'ullandimki, bir kishiga boshqasi 500 so'm qarz berib, yetti yil davomida 1800 so'm qilib olgan. Hozir insof-u vijdon arboblari mulohaza qilsinlarki, bu ishlarning qaysi biri shariatning hukm va farmonlariga to'g'ri keladi? Ma'lum bo'lsinki, muqaddas shariatning talablarini joyiga qo'ymas ekanmiz, bu bizning afsus-nadomatlarimizga sabab bo'ladi. Ba'zi vaqtlar shaxs manfaatlari haqida gapiramiz. Fil jumladan, agar biz manfaat bo'lmaydigan bo'lsa, darhol boshimizga halol-u harom nomi bilan bir kuloh kiyib olamiz.

[1] *Hukumat jaliliyamiz* – buyuk hukumatimiz.
[2] *Fahamat* – ulug', hurmatli.

@tarixchi_kutubxonasiga

Agar musulmonlik da'vosini qiladigan bo'lsak, agar musulmonlikdan dunyo va oxiratdan foyda yetsin desak, muqaddas shariatda bir unvonlar qilib, o'shandan o'zimizga mezon qilib olaylik. Vaqtiki, har bir kishi o'zining foydasi uchun o'ziga foiz olar ekanmiz, undan ko'ra yaxshiroq bo'lar ediki, umumni ... fikrini olib, o'zimizga to'g'ri va shar'iy mezon qilib olsak.

...Maqolani davomini boshlashimizdan oldin jasorat ko'rsatib, uch satr gapirmoqchimiz, birinchidan, muhtaram birodar, bizning shu nomli maqolamizga o'zlarining mulohazalarini bildirganliklari uchun rahmat aytamiz. Ikkinchidan, ularning mulohazalariga o'z fikrimizni bildiramiz. U kishi deydi: 9-sondagi «Mulohaza» nomli maqola ostida ulamolar nazdidagi solih amallar, ahli sunnat va jamoat imoniga mos va ba'zi dunyoviy amallar haqida ham yozilgan. Muhtaram mudirning qarashlarida ba'zi muhim qo'shimchalar bor. Arz qilamizki, go'yoki ularning o'sha sonda arz qilingan mulohaza bo'lib qolmay, balki muxtasar qalbi iymon aqidalariga ham ancha to'g'ri keladi. Faqirning nazaricha, bildirilayotgan bu fikrlar odob yuzasidandir. Arz qilinadiki, dunyoviy ishlarni a'molimiz sifati deymiz. Maqsadimiz o'z a'molimizning zohirini namoyon qilishdir. Va zohiriy a'mollar ham eng muhim kasb va muomalalardandir. Yaxshi a'mollar ro'za, namoz va boshqalar bilan belgilanib qolmaydi. Muomalalar ham, agar shariat hukmiga mos kelsa, amali solih bo'ladi. Hozir amali solihni imon shartidan deb bilsangiz, bu bizning talabimizdan bo'ladi. Biz o'zimiz ham kasb muomalalarini qonun va shar'iy mezon, adli insof bilan bo'lishi tarafdorimiz, agar javobgarlik biror shubha bo'lsa, xatosini aytasiz. Biz ko'pchiligimiz qarz berishda insofsizlik qilamiz va bir muhtojga 10 so'm berib, 10 oydan so'ng undan 20 so'm olamiz. Biror-bir durustroq milliy shirkat bo'lsa, zaiflar va boylarning sudxo'rligi kamayib, tijoratimiz ravnaq topib, ajnabiylarga muhtoj bo'lmasdik. Chunonchi, durustroq milliy shirkat tashkil qilsak va ishimizning asosini shariat bilan mustahkamlasak, sudxo'rlikdan birdaniga forig' bo'lar edik. Masalan, birortamiz 100 ming so'm shirkatga bir sanduq [schyot]ga o'tkazsak, o'zimizni tashvishdan xoli qilar edik. Kimning mablag'ga ehtiyoji bo'lsa, borib shirkat shartnomasi asosida u puldan ishlataverar edi. Bu muqaddas shariatdagi joiz va muboh ishlarga ishlatiladi. Keyin kamroq foydasi bilan beruvchiga qaytaradi. Agar donishmand ulamolar bu tijoratning shar'iy ekanligiga biror vaj topib, qat'iy ruxsat bersalar, bizning maqsadimiz shuki, bizning millatimiz farzandlarini g'ayrat va himmat egalari og'ir hayotdan qutqargan bo'lar edilar.

Jalol.

«Buxoroyi sharif», 1912-yil, 22–23-mart. 10-11-sonlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

Tijoratimiz va maktab

Turkiston musulmonlari uchun ziroatchilikdan so'ngra eng ahamiyatli narsa savdo va tijoratdir. Musulmon dehqon va cho'ponlarning mehnati ilan umum Turkistondan har yil qariyb 200 mln. so'mlik narsa hosil bo'ladir. Shuning yuzdan to'qsoni yahud tijorining qo'lidan o'tadir.

Faqat biz musulmonlar har ishda orqada qolganimizdek, savdo va tijoratda ham yahudlarning asiri bo'ldik. Biz yerli musulmonlarga hammollik va ma'muriyatning ortiq bir mavqe muhim qolgani yo'qdir. Arabachi, yuk tashuvchi, qorovul, tuproq qazuvchi, xullasi kalom, har bir qora mehnatda yuruvchi musulmonlar, katta binolarning sohibi, mehnat qiluvchilarning amiri, mag'oza[1]larning xo'jasi yahuddir. Butun savdo va tijoratni qo'liga olgan kichkina... yahud millatidir. Yahudlardan o'pka qilmaymiz. Adovatimiz yo'qdir. O'z g'ayrat va mahoratlari ilan ushbu poyaga chiqdilar. Ofarin, nuqson va ayb esa yana o'zimizdadir, musulmonlardadir. Savdo va tijoratda yahud tutgan yo'lni biz tutmadik. Yahud bilgan ishni biz bilmadik. Ba'zilar aysh va ishratlar ilan vaqt o'tkazdik. Imdod ... qiluvchilarga qo'l uzatmadik. Agar bir tashabbus qilsak, har ishda bizning uchun ruslar yordam qilurlar. Hatto ruslar ham bizlarning bu holimizga taa'suf qiladurlar. Turkistonliklar Russiyaning sodiq tobelari va vatan o'g'ullaridirlar. Sodiq tobelarning taraqqiy va taomiysi hukumatning ahd va amalidur.

Biz savdo va tijoratda ham quruq so'z va tik ilan o'run tutmaymiz, yana ilmga, maktabga muhtoj bo'lamiz. Bizni o'rgatuvchi maktabdir. Maktabsiz botqoqqa botdik. Bizga yo'l ko'rsatmoq va bizni o'zgartmoq vazifalari bo'lganlar bizni ... xarob qiladirlar. Takror aytamizki, kattalardan umid kutmoq kerak. Bizni va ... avomni taraqqiy qildiruvchi ... asoratdan qutqaruvchi ibtidoiy maktabdir. Yordam qiluvchi esa ruslardir. Bu kun biz turkistonliklar g'oyat muhim va umumiy maslagimiz maktab masalasidur.

Vatan va hukumatning janjal va yaramas bir xantari bo'lmoqdan ko'ra kerakli bir millati bo'lmog'imiz afzalroqdir.

(Muallif: arab imlosida «Ayn» qo'yilgan)
«Turon», 1912-yil, 30-dekabr. 48-son.

Sog'liqni saqlash

Ichimlik suvlarimiz va ularning saqlanadigan makonlari pok va toza bo'lishi kerak, bugungi kunda ro'yi zamin tabiblarining aksariyati fikricha, kasalliklarning asosiy sababi yomon ichimlik suvi va ularning yomon joyda saqlanganligidadir. Suv bir joyda uzoq qolib ketsa, ifloslanadi va unda

[1] *Mag'oza* – do'kon, magazin.

@tarixchi_kutubxonasiga

tirik jonivorlar [bakteriyalar], mikroblar paydo bo'lib, kasallikni keltirib chiqaradi. Havoning iflosligi ham mikroblar borligini bildiradi. Bu mikroblar ovqatlanayotganda, suv ichayotganda, havodan qo'shilib, me'da va o'pkaga boradi va aholini kasallantiradi. Binobarin, shunday ekan, g'o'layi ohani[1] orqali har manzil makonga vodoprovod [favvora] o'tkazib, pokiza suvlarni yetkazib nazorat qilish kerak. Pokiza islom shariati bo'yicha ulamolar hovuzlar qurishga va suvdan iste'mol qilishga ruxsat berganlar. Lekin aytmaganlarki, uning suvini tozalamasdan, loyqa holda ichinglar deb. Hazrati Rasul [s.a.v.] aytadilarki, tozalik imondandir, deb. Nega biz bu aytilgan buyruqqa amal qilmaymiz? Bizning hammomlarimiz badan chirklarini va jonobatni ketkazish uchun qurilgan, xolos. Nega ularning saqlanayotgan suvlari asr olinmaydi? Bolalarning va deyarli barcha teri kasalliklarining [masalan: ko'ft, otash, zahm va boshqalar] keltirib chiqaruvchi[lari] shu suvlardir...

...Ilm yuzasidan ma'lum bo'ladiki, yomon ichimlik suvlari iflos havoli joylarda namlik paydo qiladi va unda mikroblar vujudga kelib, insonga o'tadi. Hayvonlar mikrobi ham mikroskopik [matnda zarrabin, ya'ni mayda zarralarni ko'ruvchi mikroskop ma'nosiga to'g'ri keladi] kasalliklar manbaidir. Vabo, ... sil o'ziga xos mikroblar bilan bo'ladi. Ko'z ularni ko'ra olmaydi. Faqat zarralarni kattalashtirib ko'rsatadigan mikroskop bilan ko'rish mumkin. Sog'liqni saqlash kasalliklarni davolashdan, ularning oldini olish orqali oson bo'ladi. Ko'z yaxshi ko'rgani, quloq yaxshi eshitgani, qo'l-oyoq yaxshi ishlagani bilan harakat lozim. Harakat hazm qiluvchi, qonni aylantiruvchi va tozalovchi bo'lib, uni muntazam qilib borish kerak. Bu insonni[ng] tabiiy quvvatlarini quvvatlantirib, mikrobdan saqlaydi.

Mirzo Siroj Mirzaxo'rdov hakim.
«Buxoroyi sharif», 1912-yil, 26-27-mart. 13-14-sonlar.

Tartib kerak

Hozirgacha biz jamiyat va maorif rivoji uchun maromnoma va nizomnoma tuzishni istaymiz. Shu[ning] uchun aytadilarki, avval yerni tekisla, keyin naqsh chiz, ya'ni joyni paydo qilib, so'ng qaysi naqshni xohlasang chizaver. Bizning raislarimiz jamiyat binosini qurish uchun himmat ko'rsatsalar, biz qo'limizdan kelgan barcha ishlarni qilishga tayyormiz. Jamiyat fazilati va haqiqati to'g'risida Qur'oni karimda ham aytib o'tilgan. Haqiqiy aql kishilar bilan kengashda bo'ladi. Payg'ambarimiz aytganlar: «Allohning qo'li jamoatdadir». Shundayki, bir ish uchun jamoa birlashib harakat qilin-

[1] *G'o'layi ohani* – temir quvur.

@tarixchi_kutubxonasiga

sa, albatta u ishda xato kamroq bo'ladi. Har kim o'z so'zini aytadigan bo'lsa, ittifoq bilan uning o'rtachasiga kelishiladi. Va hamma birlashib o'shaning ijrosiga kirishadi. Shu sur'atda o'sha ish osonroq va tezroq amalga oshadi. Avvalo ilm-u irfon[1] arboblari[ning] ko'zi ochiq bo'ladi. Bizning xato va qusurlarimizni ko'rib, tushuntira oladilar, qo'lni qo'lga berib, bizning taraqqiy etishimizga xizmat qila oladilar.

«Ey bizning muhtaram otalarimiz, bizning holimizga rahmingiz kelsin. Biz sizlarning avlodingizmiz, avlodning qandayligi otaning qandayligini ko'rsatadi va otaning sirlarini ochadi. Shunday bo'lsinki, biz sizning orqangizdan boraylik. Kimki bizni ko'rsa, sizlarga rahmat va istig'for aytsin».

Yana maqsadga qaytaylik. Buxoroyi sharif uchun jamiyatda lozim bo'ladigan narsa maorifni yoyishda va kamchiliklarni tuzatishda harakat qilsinlar. Hali hamki janobi oliyning bir darajada marhamatlari bilan madrasalarda islohot o'tkazilmoqda. Shunday baland himmatga yordam qilmaslik insofsizlik bo'lar edi. Agarki, qavmning ishbilarmonlari va raislari amri muborakning ijrosiga ko'shish qilmasalar, humoyun iroda amalga oshmay qoladi. Bas, muhtaram ulamolar, oriflar, oqsoqollar, puldorlar bir jamiyat tashkil qilib, maorifni yoyish uchun ko'mak qilishlari va janobi oliyning irodalariga qo'shilishi lozim.

Jalol.
«Buxoroyi sharif», 1912-yil, 19-mart. 7-son.

Bir oz faoliyat lozim

Ba'zida ko'zimizni ochib o'tgan zamonlarga nazar tashlasak, biz ilm va oliy fanlardan ilg'or millat edik va bir necha millatlarning harakatga kelishiga hissa qo'shganmiz. Bizning muallimimiz Forobiy, hakimimiz Abu Ali, ulamolarimiz Buxoriy, shuarolarimiz [shoirlarimiz] Rudakiy edilarki, har biri asr yagonasi va durdonasi edilar. Hozirgacha ular tarix sahifalarida ziynatdirlar. Birgina Ulug'begimiz uchun Peterburg ilmiy akademiyasi yodgorlik bino qilmoqchilar. Hanuzgacha vayron bo'layotgan madrasalarimizda san'at namunalari ko'rinib turibdi. Bundan besh yuz yillar ilgari qurilgan Buxoro va Samarqandning jome masjid va madrasalarida shu qadar chuqur fikrlar bildirilib, kitoblar bitilganki, bizning asrimizga qadar ularning parishon[2] varaqlaridan qancha ustodlar ilm bermoqdalar. Bas, hozirgacha bizga nima bo'libdiki va nima mone'lik qilmoqdaki, bizning ko'zlarimiz hozirgi ilm-fanni ko'rish u yoqda tursin, avvalgi ilm-fandan ham yopiq qolmoqda?

[1] *Irfon* – ma'rifat.
[2] *Parishon* – chala yetib kelgan, tarqoq.

@tarixchi_kutubxonasiga

Oddiy aytadigan bo'lsak, paxta, yog', gazlama mahsulotlarini ishlab chiqaradigan birorta korxonaga ega emasmiz. Nega birorta durust tijoratxona yoki biror shirkat idorasi mavjud emas, bizning tib ilmi, sog'liqni saqlash umuman yo'qolib, nom-u nishon qolmagan. Shundayki, birorta tib ilmidan xabardor tabib yo'q. Birorta to'g'ri tashxis qo'yish ilmidan xabardor jarrohimiz yo'q. Har attorni tabib deb, har sartaroshni jarroh deb falsafa to'qib yuribmiz, biror kishi so'ramaydiki, bu ishlarning tahsilini yo'lga qo'yish kerakmi, yo'qmi? Hech kishi bundan avval shogird chiqarsa, shukurrezi[1] qilmagan, ilmni har qaysi maktabdan kerak bo'lsa olgan. Xudo ko'rsatmasin, Buxoro minorasiga shikast yetsa, biz avvalgidek qurib bilamizmi, yo'qmi? Javob shunday bo'ladiki, biz chetdan usta keltiramiz yoki joyiga [o'z holiga] tashlab qo'yamiz.

Kamsuqum tabib M. S. Mirzoxo'rdov.
«Buxoroyi sharif», 1912-yil, 22-mart. 10-son.

Ibrat

Bu kun g'azitamizda darj qilindig'imiz[2] Misr dorulfununining dars jadvali sazovori ibrat va diqqatdir. Misrlilarning boylari himmat va arbob-olimlari tashabbus[3] qilib shundayin der. Dorulfununimizni vujudga keltirganlar hukumat bino qilmabdir. Aholi pul berubdir, javlon qilubdir – shundayin oliy bir madrasani tug'dirubdir.

Ajabo, Misrda ilm yo'q edimi? Madrasa yo'q edimi? Ilm [olim] yo'q edimi? Talaba, olim yo'q edimi? Misrlilar sanalarga ijtihod saxiy qilub, mundayin madrasa vujudga kelturmoq uchun zahmatlar va mashaqqatlar tortibdurlar. Bu qadar fidokorliklar qilubdirlar. Holbuki, Misrning faqat bir [jome' al-Azhar] madrasasi yuzlarcha mudarris va 10–15 ming qadar tolibi ilmga molik va sohibdir. Hatto, Misr eskidan yerli ilm yeridir... Xususan, ulamoyi islomiya va vatanfin islomiyaning mashhuri masqatrosi ko'p soncha Misrdadir va Misrdan chiqqanlardir. Besh misrlilarga. Nima Misrga zarur bo'ldi va kim majbur qildiki, miliunlarcha pul va sanalarcha mashaqqat tortub, mundayin madrasa bino qiladirlar. Jadvalda ko'rulgan fanlarning tahsiliga bu qadar g'ayrat qiladilar?

Albatta, misrlilarni hech kim majbur qilmagandir. Faqat zamon va yigirmanchi asr madaniyati majbur qilgan. Dunyoda yashamoq, hayot ko'rmoq, borliqni muhofaza qilmoqning fikrlari, g'ayratlari va tanoza baqo olamida raqobat qilmoqning g'amlari majbur qilgan. Chunki, bu kun dunyoda ilmsiz, ma'rifatsiz kun ko'rmoq mumkin emasdir. Ilm, ma'rifat bo'lmagan

[1] *Shukurrezi* – qo'l berish, shukronaga osh berish.
[2] *Darj qilmoq* – nashr qilish.
[3] *Tashabbus* – tashabbus.

@tarixchi_kutubxonasiga

bir millat va qavmning bir pulliq qadr va qimmati yo'qdir. Misrlilarning jadvallarida berilgan ilm va funun [qonun] dan xabarsiz qavm va millat jamiyat bashariya to'fonda qatorinda hisob qilinmaydur. Mana shul sabab-dan misrlilar o'zlarini bashariyat huzuriga isbot qilmoq uchun bu qadar g'ayrat qilibdurlar. Misrlilar bu g'ayrat fidokorliqlari ilan yangi bir ish qil-mabdurlar, balki, o'zlarining va umummusulmonlarning g'ayib qilgan va yig'latqan narsalarini topubdilar. Chunki, musulmonlar bundan 4–5 yuz yil avval shundayin ilm va fanlar tahsil qilar edilar. Va mundayin madra-salarga molik edilar. Bu kun Misrda aholining hamiyati ilan barpo bo'lgan dorulfununlardek dorulfununlar va dorululumlar islom hukumatlari tara-findan bino qilingan edi. Hatto bundan 325 sana muqaddam Misr sultoni Hakim ibn Imron tarafindan bino qilingan [Dorulhukum] dorulfununining darslari va ulamolari butun dunyoda mashhur va ma'rufdur. U dorul mu-allimda sharq va g'arbda tashingan ilm va irfon kelib, tahsil qilar edilar. Misrlilar abo va ajdodlarindin qolgan va islomning g'ayb qilgan narsalarini takror ochibdurlar. Chunki, bobo va ajdodlardek azot va sharaflik bo'lmoq uchun unlardek tahsil ilm va irfon qilmoq lozim. Ko'p fanlarda olim bo'l-moq lozimdir.

Biz shu munosabat ilan qatordan xato olub, o'zimizning muborak va aziz vatanimiz va vatandoshlarimizga murojaat qilamiz. Ajabo, bizning Buxo-romizda vaqti ilan Misrning dorulfununlaridek dorulfununlar yo'q edimi? Nechun dunyoda zo'r ilm va irfon nashr qilgan mullalar va ulamolar yo'q edimi?

Abu Ali ibn Sinolar, Hakim at-Termiziylar, Forobiylar, Javhariylar va Buxoriylar va ayg'ir [va boshqa] minglarcha olim, fuzalolarimiz yo'q edimi? Albatta, bor edilar, xudo onlarni g'ariqi rahmat qilsun. Ul muborak zotlar ediki, Buxoromizni [Buxoro] qilib ketdilar. Nima bo'ladir, kaabu gumbaz-larda ul ajdod a'zolarimizning ruhi poklari[ni] yod qilsak. Onlarning asror-larini, dorulfununlarini axiy[1] qilsak. Misrlilardan ibrat olub, bizda, shul mu-borak shahrimizda bir dorulilm ochsak, shahrimizda bo'lgan minglarcha ta-laba, olimni ilm va fununi lozima[2] va naf'a[3] ilan serob qilsak. Bizdan xudo, Muhammad, islom va ajdod rozi bo'lur edi.

«Turon», 1912-yil, 6-dekabr, 39-son .

[1] *Axiy* – aka-uka, bitim tuzmoq.
[2] *Fununi lozima* – kerakli fanlar.
[3] *Naf'a* – manfaatli ilmlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

IV BOB. XORIJIY MANBALAR

1-§. INGLIZ TILIDAGI MANBALAR

ARMINIUS VAMBERY «TRAVELS IN CENTRAL ASIA» («MARKAZIY OSIYO BO'YLAB SAYOHAT»)[1]

Vengriyalik mashhur sayyoh ***Arminiy Vamberi*** *(1832–1913) o'zining Markaziy Osiyoga 1863–1864-yillarda uyushtirgan safari asosida yaratgan asarlari bilan tarixda nom qoldirgan*[2].

Vamberi 1864-yilda o'z safar taassurotlari asosida yuqorida nomi keltirilgan asarini nashr etdi[3]. *Mazkur asarda muallifning o'z safari davomida Xiva, Buxoro hamda Qo'qon xonliklari hududida ko'rgan-kechirganlari, kuzatgan voqealari, shaxsiy taassurotlari bilan birga, bu hududlarning ma'muriy-hududiy tuzilishi, bozorlar, masjidlar, madrasalar, ma'muriyat, amaldorlar, mirshablar, qurolli kuchlar, soliqlar, qozilik faoliyati, qishloq xo'jaligi, xonlikning aholisi va uning etnik tarkibi, shaharlari haqida qiziqarli va muhim ma'lumotlar qayd etiladi.*

Quyida mazkur asardan keltirilgan parchalarga ayrim juz'iy tuzatishlar va aniqliklar kiritildi. Xususan, o'sha davrda ishlatilgan maydon, og'irlik va uzunlik o'lchov birliklari o'quvchiga qulay bo'lishi uchun hozirgi kunda iste'molda bo'lgan o'lchov birliklariga moslashtirildi, ayrim chalkashliklarga aniqliklar kiritildi.

X. Abdurasulov, V. Xolov

---

[1] Travels in Central Asia being the account of a journey from Teheran across the Turkoman desert on the eastern shore of the Caspian to Khiva, Bokhara and Samarcand performed in the year 1863 by Arminius Vambery, Member of Hungarian Academy of Pesth, by whom he was sent on this scientific mission. London. John Murray, Albemarle Street, 1864.

[2] A.Vamberi 1863-yilning mart oyi oxirlarida Tehron shahrida turk Rashid afandi ismi bilan Makkadan qaytib kelayotgan hojilar karvoniga qo'shilib, turkman dashti tarafga yo'lga otlanadi. Xiva xonligi markaziga tashrifidan so'ng u Amudaryo orqali Qo'ng'irotgacha borib, yana Xivaga qaytib keladi. Keyin esa, katta mashaqqat bilan Qizilqum orqali Buxoroga safar qiladi.

[3] Ushbu kitob deyarli barcha Yevropa tillariga tarjima qilindi. Kitobning rus tiliga biroz qisqartirilgan holdagi ilk tarjimasi 1865-yilda Peterburgda chop etilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Xiva [xonligi]

Tumanlar. Shahar asosan ikki qismga bo'linadi: a) Xivaning o'zi; b) Ichan qal'a, ya'ni devor bilan o'rab olingan va tashqi shahardan to'rt darvoza bilan ajratilgan shahriston. Ichan qal'a quyidagi mahallalardan iborat: Pahlavon, Ulliyo'g'ich, Oqmasjid, Yipakchi, Qo'shbegi. Shaharning o'zida to'qqizta darvoza mavjud. Shimolga Urganch darvozasi olib boradi, Gandumgoh [Gandimiyon], Imorat, Isamahmudota, Hazorasp darvozalari sharq tarafga qaragan; Shixlar, Pishkanik va Rafanik darvozalari janubga qaragan, Badrxon darvozasi g'arbga qaragan. Shaharda 10 ta mahalla mavjud bo'lib, ular: 1) O'r; 2) Kaftarxona; 3) Mevaston; 4) Mehtarobod; 5) Yangiqal'a; 6) katta chinorlar bilan o'rab olingan Bola hovuz; 7) Nonemas o'rama [«non yeyilmaydigan qishloq» ma'nosini anglatadi]; 8) Nurillaboy; 9) Bog'cha; 10) Rafanik[1].

Bozorlar. Xiva bozorlari Eron yoki Sharqning boshqa shaharlaridagi bozor va savdo rastalaridan farq qiladi. Kichik va ixcham 120 ta do'kon hamda karvonsaroy joylashgan baland gumbazli timdan iborat. Bozorlarda rus tijorati taklif qilgan barcha narsalarni: movut va mayda-chuyda metall buyumlar, attorlik mollari, zig'ir tolasidan to'qilgan matolar va Buxoro hamda kam miqdorda Erondan kelgan mollarni topish mumkin. Yopiq bozor atrofida non, baqqollik, ipak, sham mahsulotlari sotiladi[2].

Masjidlar. Xivada me'morchilikning qadimiy va mohirona ishlangan masjidlardan quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

1) Hazrati Pahlavon, ushbu imoratning yoshi 400 yildan ortiqroq. Uning bitta katta va ikkita kichik gumbazlari bor; unda Xivaning homiysi va avliyo deb tavof etiladigan Pahlavon Mahmudning maqbarasi joylashgan. Uning tashqi ko'rinishi oddiygina, ammo ichkari qismining koshinlari yuksak did bilan bezalgan. Afsuski, masjidning ichi qorong'i va kam yoritilganligi sababli ancha narsa ko'zga ko'rinmaydi. Masjidning ichkarisida ham, ostonasida ham Qur'onni ko'p eshitganlaridan yodlab olgan va ovoz chiqarib o'qiydigan muxlislar doim to'planib turishadi; 2) jum'a namozi va hozirgi xon uchun rasman xutba o'qiladigan Jum'a masjidi; 3) Ichan qal'adagi xon masjidi; 4) xivalik Sholikor tomonidan qurilgan masjid; 5) Otamurod qo'shbegi masjidi; 6) Qorayuz [Qorako'z] masjidi[3].

Madrasalar. Markaziy Osiyoda madrasalarning soni va ularning bezalishiga qarab aholining farovonligi va diniy bilim darajasiga baho berish mumkin. Xondan tashqari, oddiy hunarmandlar ham mablag'larining chegaralanganligiga qaramay xayriyalarga tayyor ekanligi va g'ayrat ko'r-

[1] Travels in Central Asia..., p. 330.
[2] O'sha yerda.
[3] O'sha asar, 331-332-betlar.

@tarixchi_kitobxonasiga

satayotganligi albatta yuksak maqtovlarga sazovordir. Bu masalada Markaziy Osiyoda islom tamaddunining qadimiy markazi Buxoro namuna sifatida xizmat qiladi, ammo Xivada ham nomlari quyida keltirilgan bir necha madrasalar mavjud:

1. 1851–1855-yillarda ... qurilgan Madaminxon [Muhammad Aminxon] madrasasi. Uning o'ng tarafida me'morning vafotidan keyin qurilishi tugallanmagan ikki qavatli binodan balandroq beo'xshov minora joylashgan. Ushbu madrasada 130 ta hujra bo'lib, 260 nafar talaba yashaydi; har yili ushbu madrasa 12 ming Xiva botmonida[1] bug'doy va 5 ming tilla pul daromadi oladi. O'quvchi ushbu madrasa haqida taxminiy tasavvurga ega bo'lishi uchun daromadlarning taqsimlanishi orqali bir vaqtning o'zida ishchi-xodimlar haqida ma'lumotlarni keltiramiz:

Har yili 5 nafar oxund 3000 botmon [bug'doy] va 150 tilla, 1 ta imom 2000 botmon [bug'doy] va 40 tilla, 1 ta muazzin 200 botmon [bug'doy], 2 ta xodim har biri 200 botmondan [bug'doy], sartarosh 200 botmon [bug'doy], 2 nafar mutavalli yoki nazoratchi daromadning o'ndan bir qismini oladi; qolgan qismi 3 sinfdan iborat o'quvchilarga taqsimlab beriladi: 1-sinf 60 botmon [bug'doy] va 4 tilla, 2-sinf 30 botmon [bug'doy] va 2 tilla, 3-sinf o'quvchilar 15 botmon [bug'doy] va 1 tilla oladi[2].

2. Olloqulixon madrasasi. Bu madrasada 120 ta hujra bo'lib, uning tarbiyalanuvchilarining bir yillik daromadi 50 botmon [bug'doy] va 2 tillani tashkil etadi [1 funt sterling].

3. Qutlug'murod inoq madrasasi. Madrasaning har bir hujrasi 50 botmon [bug'doy] va 3 tilla beradi.

4. Arab Muhammadxon madrasasi. Bu yerda hujralar kam, ammo ular juda yaxshi ta'minlangan.

5. Sherg'ozixon madrasasi.

Ushbu madrasalarning hovlilarida ko'p daraxtlar ekilgan bo'lib, ular bog'larga aylantirilgan va toza saqlanadi. O'quv fanlari haqida biz Markaziy Osiyoning ilmiy markazi bo'lmish Buxoro haqida gap ketganda to'xtalib o'tamiz, hozir esa mashg'ulotlar domlalarning xonalarida, o'quvchilarning qobiliyatiga asosan tuzilgan alohida guruhlarda o'tilishini aytib o'tish kifoya[3].

Mirshablar. Shaharning har bir mahallasida o'z hududi jamoat tartibiga mas'ul va kun davomida to'polon, o'g'irlik va boshqa jinoyatlar sodir etilmasligini nazorat qiluvchi mirshab bor.

Shaharni oqshom paytida qo'riqlash to'rt nafar payshob [bosh qo'riqchi] larga topshirilgan bo'lib, ular tun bo'yi Shahriston darvozasini qo'riqlab turishlari shart. Ularning har birida sakkiz nafar kichik qorovul [jami 32 ta]

[1] Xiva botmoni 20 kg.

[2] Travels in Central Asia..., p. 333.

[3] O'sha asar, 332-333-betlar.

@tarixchilar_kutubxonasiga

bo'lib, ular mirshablik vazifasini ham bajarganlar. Shahar atroflarida tungi soat birdan keyin yurganlar mirshablar tomonidan tekshirilgan. Mirshablar ayniqsa, birovning uyiga buzib kirmoqchi bo'lganlarga alohida e'tibor berganlar[1].

Xon va uning hukumati[2]

Xiva xoni ... mamlakatning egasi sifatida xuddi oiladagi ota kabidir. U ba'zida o'z vazirlariga ham quloq soladi. Ilmi va benuqson hayot tarzi bilan xalq mehrini qozongan ulamolar xonni biroz qo'rquvda ushlab turishlari va uning zo'ravonligiga to'sqinlik qilishlari mumkin. Osiyoning boshqa barcha hukumatlarida ham ahvol shunaqa, ammo bu nuqsonni hukumatning nizom va qoidalarining umuman yetishmasligi bilan izohlab bo'lmaydi. Aksincha, Sharqda tarixning barcha davrlarida zulm va zo'ravonlikka qarshi qonunlar mavjud bo'lgan.

Xiva qonunlar to'plamiga ko'ra davlatda quyidagi hukmron tabaqalar va ma'muriyat mavjud:

1) xon yoki podshoh doim g'olib qabila orasidan saylanadi. Xonning «yordamchilari»: 2) inoq [uka ma'nosini bildiradi] – ularning soni to'rtta bo'lishi mumkin: ikkitasi xonning yaqin qarindoshlaridan, qolgan ikkitasi xonning qabiladoshlaridan. Ulardan biri doim Hazoraspni boshqarib keladi; 3) naqib – diniy peshvo; u albatta sayyidlardan [payg'ambar avlodidan] bo'lishi shart bo'lib, Konstantinopoldagi oliy darajadagi diniy mansab bilan bir darajada turadi; 4) bek [boy bilan aralashtirmaslik lozim, u bilan faqat nomining ma'nosi bir xil] – jang paytida xonning o'ng tarafida turishi shart; 5) otaliq – o'ziga xos maslahatchi; albatta o'zbeklardan bo'lishi shart, ularning sonini xon tayinlaydi; 6) qo'shbegi – vazir yoki xon saroyidagi birinchi shaxs; aslida undan hukmdor tayinlaydigan amaldorlar jamoasi boshlanadi; 7) mehtar – xizmatkorlar og'asiga o'xshash lavozim, saroy va mamlakatning boshqaruviga mas'ul; 8) yasovulboshi – ularning soni ikki nafar, tansoqchilarning boshlig'i, ularning vazifasi arzgo'ylarni xonning arzxonasiga olib kirish. Devon ham shu mansabga ega, o'ziga xos davlat kotibi va shu bilan birga moliya mahkamasining boshlig'i; 9) mahramlar ham ikki nafar bo'lib, eshik og'asi [kamerger] vazifasini o'tashadi. Ular ishonchli odamlar bo'lib, xonga va hukumatga katta ta'sir o'tkaza oladilar; 10) mingboshi – 1000 otliqning boshlig'i [mening ma'lumotimga ko'ra, xon saroyining qurolli kuchlari 30 ming kishini tashkil etadi, ammo u xavf-xatar yuzaga kelganda ushbu sonni ikki baravarga ko'paytira olar ekan]; 11) yuzboshi – 100 ta otliqning boshlig'i; 12) o'nboshi – 10 ta otliqning boshlig'i.

[1] Travels in Central Asia..., P. 333-334.
[2] O'sha asar, 334-337-betlar.

@tarixiy_kutubxonasiga

Ushbu 12 toifa aslini olganda amaldorlarni tashkil etadi va sipohilar deb ataladi. Ular, o'z navbatida, quyidagilarga bo'linadilar: a) xon hech qachon lavozimidan ozod qila olmaydiganlar [2, 3, 4, 5-toifalar]; b) maosh oladigan xizmatchilar [6, 7, 8, 9-toifalar]; v) faqat urush paytida xizmat o'taydiganlar. Yuqori mansabli amaldorlarga yer-mulklar in'om etiladi, oddiy askarlar xondan ot va qurol-yarog' olishadi, soliq va bojlardan ozod etiladi.

Shu paytgacha gap dunyoviy amaldorlar haqida ketayotgan edi. Ulamolar yoki ruhoniylar – ularning oliy boshlig'i naqib bo'lib, ular quyidagi toifalarga bo'linadi: 1) qozi kalon – oliy hakam, butun xonlikda sud hukmlarini chiqaruvchi; 2) qozi o'rda – xonni barcha yurishlarda oliy hakam sifatida kuzatib yuradi; 3) a'lam – besh muftiyning boshlig'i; 4) rais – maktablarni va diniy tartiblarning bajarilishini nazorat qiladi; 5) muftiy [har bir yirik shaharda bir nafardan]; 6) oxund – boshlang'ich maktabning o'qituvchisi.

Dastlabki uch toifa oliy tabaqaga mansub bo'lib, lavozimga kirishayotganda xon ancha miqdorda pul bilan taqdirlaydi, keyingi uch toifa vaqfdan yetarli miqdorda meva va pul maosh olishadi, ammo mavjud odatga ko'ra, har yili xon ularga Qurbon hayiti va Navro'zda har xil hadyalar in'om etib turadi. Xivalik ulamolar buxorolik ulamolarchalik ilmda mashhur emaslar...

Soliqlar. Xivada soliqning ikki turi mavjud: a) bizning yer solig'imizga to'g'ri keladigan «solg'ut» solig'i: ishlov berishga yaroqli har 10 tanob yerdan xon har yili 18 tanga [10 shilling] soliq oladi. Jangchilar [navkar yoki otliqlar], ulamolar va xo'jalar yoki sayyidlar [payg'ambar avlodlari] soliq to'lamaydi; b) zakot – har bir olib kirilgan molning qiymatidan 2,5 foiz, har yili yirik shoxli moldan, tuyadan va otlardan har bir boshga 1 tangadan, qo'ylardan yarim tangadan olinadi. [Ammo bu soliqni o'n boshdan ko'p moli bor, ya'ni podasi bor odam to'laydi.]

Bundan tashqari, ro'yxatga olingan har bir do'kondan har yili 6 tanga to'lanadi.

Solg'ut har yili bevosita qo'shbegi yoki mehtar rahbarligida, bosh bekliklarni aylanib chiqish paytida undiriladi, har bir joyda solg'utni olish vazifasi shu yerning yoshullisiga topshiriladi. [Xivada tabarruk yoshdagi mo'ysafidlar yoshulli deb ataladi.]

Zakot yig'ishni ko'chmanchi qabilalarni kotib bilan birgalikda otda aylanib chiqadigan xonga yaqin mehtar nazorat qiladi; chunki qoramolni sanab chiqishning iloji yo'q, u har yili qabilalarning yoshullilari bilan suhbat va kelishuvdan so'ng har bitta qabilaga muayyan miqdorda soliq belgilaydi. Albatta, soliq yig'ishning ushbu uslubida uning kattagina qismi mehtarga nasib etadi; o'tgan yili xon qoraqalpoqlarda faqat 6 ming bosh qoramol, yovmut va chovdurlarda faqat 30 ming qo'y borligiga ishonishga

@tarixchi_kutubxonasiga

majbur bo'lgan, eshitishimcha, bu son haqiqiy miqdorning uchdan biri ekan, xolos[1].

Sudlar. Sud ishi masjidlarda va sud olib borish topshirilgan qozi va muftiylarning xususiy uylarida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, har bir kishi shahar yoki viloyat bekiga o'z arzini yetkazishi mumkin, u esa urf bo'yicha, ya'ni o'z xohishiga qarab hukm chiqaradi. Har bir bek va hatto xonning o'zi ham har kuni kamida to'rt soat davomida arz tinglashi shart va faqat kasallik uni bu majburiyatdan xalos etishi mumkin. Qabul hammaga ruxsat etilgani uchun, ko'p hollarda hukmdor mayda-chuyda oilaviy mojarolarni eshitishga va bartaraf etishga ham majbur bo'ladi[2].

Dehqonchilik mahsulotlari, hunarlar va savdo-sotiq[3]

Xiva tuprog'ining hosildorligi haqida bir necha marta eslatib o'tgan edik. Ayniqsa don ekinlari, sholi [asosan Gurlanniki], Shohobod va Yangi Urganchning a'lo ipaklari, paxta, ildizidan qizil bo'yoq olinadigan ro'yon, shirinligidan nafaqat Eronda va Turkiyada, balki Yevropada ham topilmaydigan mevalar, Hazoraspning ajoyib olmalari, Xivaning nok va anorlari, tengi yo'q va tahsinga loyiq qovunlarining dong'i [men Vengriyaga to'rt xil navini olib keldim va birinchi tajribaga qaraganda, ular Vengriyaning past-tekisliklarida hosil berishi aniq], hatto uzoq Pekingacha yetib borgan. Samoviy imperiyaning hukmdori unga Xitoy Tataristoni [Sharqiy Turkiston]dan keladigan hadyalar ichida bir necha dona Urganch qovunlaridan bo'lishini talab qilib turishni esidan chiqarmagan. Ularning narxi hatto Rossiyada ham baland va kimki bir arava qovun olib ketsa, shuncha shakar bilan qaytib keladi. Xivada ishlab chiqarilgan mollar ichida Urganch choponi mashhur, uni yo'l-yo'l ikki rangli matodan [jun yoki ipakdan, ko'pincha ikki tola ham aralashgan] bizlarning choponlarimizga o'xshatib to'qishadi. Bundan tashqari, Xivaning mis idish-tovoqlari, Hazorasp miltiqlari va Toshhovuzning qalin gazlamasi mashhur.

Xiva asosiy savdo-sotig'ini Rossiya bilan olib boradi. Bir-ikki ming tuyadan iborat karvonlar bahorda Orenburgga, kuzda esa Astraxanga borishadi; ular paxta, ipak, teri, no'g'oy va tatarlar uchun kiyim-kechak, Nijniy Novgorod yarmarkasi uchun [ular uni «makariyo» deb ataydilar] saxtiyon [safyan] olib boradi va qaytayotganida qozon va cho'yandan ishlangan har xil idish-tovoqlar, chit, batist gazlamalar, movut, shakar, temir, sifatsiz miltiq-

[1] Travels in Central Asia... P. 337-338.
[2] O'sha asar, 338-339-betlar.
[3] O'sha asar, 342-345-betlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

lar va ba'zi attorlik mollarini olib kelishadi. Baliq eksportda yirik salmoqni tashkil etadi. Orol dengizida joylashgan rus baliqchilik xo'jaliklarini uchta paroxod Oroldan Qo'ng'irotgacha bo'lgan hududda o'z himoyasiga olgan. Xivaga kelgan oxirgi diplomatik missiya bilan tuzilgan shartnomada paroxodlarning Qo'ng'irotgacha kelishi belgilab qo'yilgan.

Xiva Eron va Hirot bilan kam miqdorda savdo-sotiq olib boradi. Hirot va uning atroflarida Xivada tikilgan choponlarning bozori chaqqon, narxi esa qimmat, ammo bu yerga yaqin keladigan yo'llar turkmanlar qo'lida bo'lgani uchun choponlar Buxoro orqali olib kelinadi.

Xiva bilan Astrobod o'rtasidagi aloqalarni faqat yovmutlar olib boradi, ular har yili 100–150 tuyada taroq tayyorlash uchun yog'och va neft mahsulotlari olib kelishadi. Xivaning Buxoro bilan savdo-sotig'i esa, aksincha, ancha qizg'in. Buxoroga Xivadan kiyim-kechak va qalin gazlama olib chiqiladi, Buxorodan esa choy, ziravorlar, qog'oz va mahalliy attorlik mollari sotib olinadi.

Mamlakatning ichki savdosi uchun har bir shaharda haftasiga bir-ikki marta bozor o'tkaziladi. Hatto faqat ko'chmanchilar yashaydigan bir dona uy bo'lmagan joylarda ham bir necha paxsa loydan ishlangan kulbalar qurilgan bozor maydoni [bozorli joy] barpo etiladi, bozor bu yerlarda bayram tusini oladi. Aksar hollarda Markaziy osiyoli uyidan 10–12 mil uzoqdagi bozorga bir nechta igna va boshqa-mayda-chuyda narsa xarid qilish uchun ham o'zining eng chiroyli otiga minib, eng yaxshi miltig'ini olib, yo'lga chiqadi.

Xonlikning aholisi[1]

Xivada 1) o'zbeklar; 2) turkmanlar; 3) qoraqalpoqlar; 4) qozoqlar [ularni bizda qirg'iz deyishadi]; 5) sartlar; 6) eroniylar istiqomat qiladi.

O'zbeklar. O'zbeklar – asosan o'troq va dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi xalqning nomi. Ular Orol dengizining janubiy qismidan to Komulgacha [Xivadan 40 kunlik yo'l] bo'lgan ulkan hududda yashovchi uchta xonlik va Xitoy Tataristoni [Sharqiy Turkiston] aholisining katta qismini tashkil qiluvchi xalq hisoblanadi. O'zbeklar 32 ta asosiy urug'larga bo'linadilar. Qo'ng'irot, qipchoq, xitoy, mang'it, nukus, nayman, qulon, qiyot, os, toz, soyot, chig'atoy, uyg'ur, oqbet, do'rmon, yoshun, qonjig'ali, no'g'oy, bolg'ali, metin, jaloir, kenagas, ming va boshqalar. Bu tarzda urug'larga bo'linish qadimdan mavjud bo'lib, hatto ayrim qabilalar ushbu hududda juda keng tarqalgan va tili, urf-odatlari hamda qiyofalari farqli bo'lgan xivalik, qo'qonlik va yorkendlik o'zbeklarning nafaqat bir millatga, balki

[1] Travels in Central Asia.., p. 345–349.

@tarixchi_Avtobiyonasiga

bir qabilaga, bir urug'ga mansubligi kishi e'tiborini o'ziga jalb qiladigan holatdir.

Shuni qayd etish lozimki, Xivada juda ko'p urug'lar mavjud va xivaliklar o'zining qadimiy o'zbek millatiga mansubligi bilan juda faxrlanadi. ... O'z xulq-atvori bilan xivalik o'zbek boshqalardan ajralib turadi. U soddadil va ochiqko'ngil... Xivalik o'zbeklarda Markaziy Osiyodagi boshqa millatlarga nisbatan musiqaga va turkiy xalq she'riyatiga bo'lgan ishtiyoq juda kuchli, hatto Qo'qon, Buxoro va Qashg'ardagidan ham kuchliroq. Xivalik dutor va qo'biz chaluvchilar butun Turkiston bo'ylab mashhurdirlar.

Buyuk o'zbek shoiri Navoiy hammaga mashhur, uni har bir kishi biladi. Har o'n yilda ikkinchi va uchinchi lirik namoyondalar paydo bo'lib turadi. Xivada men ikki aka-uka bilan tanishdim. Biri Munis bo'lib, u she'r yozib turadi, ba'zilarini men keyinchalik chop etmoqchiman; ikkinchisi Mirob [Ogahiy]. Mirxondning buyuk tarixiy asarini o'g'li uchun [garchi u fors tilini tushunsa-da, mashaqqatlar bilan] o'zbek turkiy shevasiga tarjima qilayotgan edi.

Tez-tez namoyishkorona kurashlar, janglar o'tkazib turiladi, ayniqsa dabdabali sovrinli ot poygalari tez-tez bo'lib turadi. Har bir serhasham to'yda mezbon 9, 19, 29 ta sovrin tikilgan ot poygasi g'oliblariga sovrin sifatida 9, 19, 29 donadan turli chorva mollari beradi, masalan, 9 ta qo'y, 19 ta echki va hokazo. Ushbu sovrinlar salmoqli mablag'ni tashkil qiladi. Kelinning bo'lajak eri bilan ot choptirishi, ya'ni ko'kbo'ri haqida biz gapirgan edik. Qadimiy otashparastlikning bayram va o'yinlari Markaziy Osiyoning boshqa qismlarida bugungi kunda ancha unut bo'lgan bo'lsa-da, Xivada islom kirib kelganidan keyin ham saqlanib qolgan.

Turkmanlar. a) yovmutlar – janubda Qizilqum etaklarida Ko'hna Urganchdan G'azovotgacha bo'lgan joylarda istiqomat qiladigan Qorayilg'in, Ko'kcha, O'zbekyop, Badrkent va Madamin degan manzillarda yashaydilar; b) chovdurlar – Ko'hna atroflarida, chunonchi Qizil Taqir va Porsu atroflarida, ammo ko'pincha g'arbda Orol va Kaspiy dengizlari oralig'ida ko'chib yuradilar. Go'klanlar bu yerda juda kam.

Qoraqalpoqlar. Ular Amudaryoning o'ng tarafida, Gurlanni qarshisidan to deyarli Qo'ng'irotgacha bo'lgan ulkan butazorlar yaqinida yashaydilar. Ularning otlari kam, qo'ylari deyarli yo'q. Ularda 10 ta asosiy qabilani sanash mumkin: baymoqli, xandaqli, ters tamg'ali, ochamoyli, qaychili xitoy, ingakli, kenagas, to'mbo'yin, saku, o'nto'rt urug'. Ularning soni 10 ming o'tov bilan belgilanadi. Qadim zamonlardan beri ular Xivaga bo'ysunadi. Qirq yil oldin ular Oydo'st boshchiligida isyon ko'tarib, Qo'ng'irotga bostirib kiradi, ammo qo'zg'olon keyinchalik Muhammad Rahimxon tomonidan bostiriladi. Sakkiz yil oldin ular Sorliq boshchiligida yana bosh ko'tardilar, aytishlariga qaraganda, Sorliqning 20 mingta otlig'i bor ekan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ko'p talafotlar yetkazib, axiyri isyonchilar Qutlug'murodbek tomonidan tor-mor qilingan va tarqatib yuborilgan. Oxirgi marta ular uch yil oldin yana isyon ko'tardilar, ularning boshlig'i Ernazar o'ziga qal'a qurdirdi, biroq u ham mag'lub bo'ldi.

Qozoqlar [qirg'izlar]. Endi ularning soni Xivada juda kam, chunki yaqin o'tmishda ularning katta qismi Rossiya hukmronligiga o'tdi.

Qo'qon xonligi[1]

Qo'qon xonligi bir necha beklikka bo'lingan bo'lib, biz bu yerda ularni yirik shaharlar nomi bilan atadik. Xonlikning poytaxti Qo'qon shahri bo'lib, uni mahalliy aholi «Xo'qandi Latif» deb ham ataydi, u chiroyli vodiyda joylashgan bo'lib, uning aylanasi Xivadan olti marta, Buxorodan uch marta va Tehrondan to'rt marta kattadir. Xonning saroyi joylashgan janubiy qism yaqinda devor bilan o'ralgan, shimoliy qism esa umuman ochiq. Aholi va uylar soni nisbatan kam; uylar katta mevali bog'lar bilan o'rab olingan va uni aylanib chiqishga chorak soat vaqt ketadi. Me'morchilik nuqtayi nazaridan Qo'qon Buxoroning o'zidan ustunligini tan oladi. Faqat to'rt masjid va katta bozor toshdan qurilgan bo'lib, unda rus tovarlari arzon bahoda sotiladi, ammo ulardan tashqari ipak va jundan ishlangan mahalliy tovarlar ham sotiladi. Charmdan ishlangan bejirim ashyolar, egarlar, qamchilar, ot abzallari hamda poytaxta nozik did bilan ishlanadi va juda mashhur.

Qo'qondan keyin boshqa shaharlar orasida Toshkent ajralib turadi. Xonlikdagi savdo-sotiqda birinchi o'rinda turadigan Toshkent shahrida Orenburg va Qiziljar [Petropavlovsk] bilan savdo qiladigan boy savdogarlar istiqomat qiladi. Toshkent Markaziy Osiyoning eng ajoyib shaharlaridan biri hisoblanib, u Buxoro, Qo'qon va Xitoy Tataristoni [Sharqiy Turkiston] bilan tranzit savdo-sotiq olib boradi.

Toshkentdan keyin alohida e'tiborga loyiq shaharlar quyidagilar: Xo'jand – 3000 xonadonga ega, ishlab chiqarish korxonalari ko'p, ularda olacha ishlab chiqariladi, 18 ta madrasa va 36 ta masjid mavjud. Marg'ilon, Qo'qon ma'rifatning bosh shahri bo'lib, unda Maxdumi A'zam tariqatining boshlig'i Xo'ja Buzruk istiqomat qiladi.

Xonlikning ajoyib shaharlaridan yana biri Andijon. U yerda xonlikdagi eng zo'r adras ishlab chiqariladi, Namangan – uning atrofida qipchoqlar yashaydi. Yana Hazrati Xo'ja Ahmad Yassaviy qabri joylashgan Turkistonni ham aytib o'tish joiz. A. Yassaviyning kitobini haligacha ko'chmanchilar ham, Qo'qonning o'troq aholisi ham birdek sevib o'qiydilar. Hisordan keyin eng yaxshi pichoqlarni ishlab chiqaradigan Shahri Manzil va Chustning pi-

[1] Travels in Central Asia..., p. 380-387.

@tarixiy_kutubxonasiga

choqlari Turkistonda eng qimmat bahoda sotiladi. Shahrixon o'zining a'lo sifatli ipagi bilan ajralib turadi, xonlikning sharqiy chegarasida joylashgan va Taxti Sulaymon deb ataladigan O'sh shahriga har yili juda ko'p ziyoratchilar keladi[1]...

...Rossiya boshqa xorijiy mamlakatlarga nisbatan Markaziy Osiyo bilan ko'proq aloqalar o'rnatgan. Xivadan chiqqan karvonlar Astraxan va Orenburgga boradi, u yerdan ko'pgina badavlat savdogarlar Nijniy Novgorod, hatto Peterburggacha ham boradilar. Buxoro va Orenburg o'rtasida beto'xtov aloqalar mavjud, ayniqsa, yozda yanada ko'payadi. Ushbu safar odatiy hisoblanib, ellik-oltmish kundan iborat. Safar ehtiyojga qarab yoki biron-bir sabab bilan uzoqroq yoki qisqaroq bo'lishi mumkin. Agar qirg'izlar orasida g'alayonlar bo'lmasa, kichkina karvonlar ham yo'lga chiqishga jur'at qiladi. Toshkentdan karvonlar Orenburg va Qiziljarga safarga chiqadi. Ular Orenburgga ellik-oltmish kunda, Petropavlovskka yetmish kunda yetib boradi. Safar xavfli bo'lgani uchun ham karvonlar ko'pchilik bo'lib chiqadi. Namangan va Oqsuvdan Po'latga [Semipalatinsk] yo'lga chiqqan karvonlar asosan Qo'qondan safarga chiqishadi va qurollangan soqchilar nazorati ostida kuzatib boriladi va qirq kunda manzilga yetib keladi[2].

Markaziy Osiyodagi ishlab chiqarishning yirik markazlari quyidagilar: Buxoro, Qarshi, Yangi Urganch, Qo'qon va Namangan. Ushbu shaharlarda gazlamalar ishlab chiqariladi, paxta, ipak, kanop qop va charm mahsulotlari mahalliy ehtiyojlarni butunlay qondiradi. Olacha deb nomlangan mato keng tarqalgan bo'lib, erkaklar va ayollar kiyimlari uchun ishlatiladi. Xivada u paxta va ipakdan to'qilsa, Buxoro va Qo'qonda faqat paxtadan to'qiladi. U yerda maxsus tikuvchilar bo'lmaganligi uchun, ishlab chiqaruvchi ularni tayyor holatda sotadi[3].

Biz Buxoroga borganimizda, u yerning aholisi ushbu kiyimlarning bahosi qimmatligidan noligan edi. Ularning bahosi quyidagicha:

Kiyimlar	1-nav	2-nav	3-nav
Xivaniki	30 tanga	20 tanga	8 tanga
Buxoroniki	20 tanga	12 tanga	8 tanga
Qo'qonniki	12 tanga	8 tanga	8 tanga

Olachadan tashqari yana ipak matolar, asosan dag'al sifatli salla uchun jun sholro'mol, yirik gulli qalin surp ham ishlanadi, undan Turkiston va Afg'onistonda to'shakka yopiladigan choyshab sifatida foydalaniladi[4].

[1] Travels in Central Asia..., .p. 385-386.
[2] O'sha asar, 407-408-betlar.
[3] O'sha asar, 422-bet.
[4] O'sha asar, 423-bet.

@tarixchi_kutubxonasiga

Buxoro xonligi[1]

Xonlik sharqda Qo'qon xonligi va Badaxshon tog'lari bilan, janubda Amudaryo, Kerki va Chorjo'y bilan, g'arbda va shimolda esa bepoyon cho'l bilan chegaralanadi. Demarkatsiya chizig'i aniq emasligi tufayli, aholi sonini to'liq hisoblashning imkoni yo'q. Yuzaki qaraganda shuni taxmin qilish mumkinki, aholi soni 2,5 million kishi bo'lib, o'troq va ko'chmanchi qatlamdan tashkil topgan. Millat tamoyili bo'yicha hisoblansa, aholi o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, arablar, marvliklar, eronliklar, hindlar va yahudiylardan iborat.

Boshqaruvi

Buxoro boshqaruv tizimida arab va forslarga xos jihatlar juda kam saqlab qolingan. Boshqaruvda turk-mo'g'ul jihatlarining ustunligi har jabhada aks etadi. Davlat tepasidagi amir, ta'bir joiz bo'lsa, ham general, ham hukmdor, ham din peshvosidir.

Harbiy va fuqarolik mansablari darajalarga quyidagicha bo'linadi: a) katta sipohi; b) o'rta sipohi; v) oshoqi [kichik] sipohiylar. Quyidagi jadval amirdan boshlab eng so'nggi pog'onagacha bo'lgan turli mansablar haqida qisqacha tushuncha beradi:

Katta sipohiylar	Otaliq Devonbegi [kotib] Parvonachi [saroyda *kapalak* deb ham ataladi. Chunki amir uni turli topshiriqlar bilan turli hududlarga jo'natishi mumkin]
O'rta sipohiylar	To'qsoba yoki To'xsabihi Inoq Miroxo'r
Oshoqi sipohiylar	Chorog'asi yoki Chehra og'asi Mirzaboshi Yasovulbegi yoki Qorovulbegi Yuzboshi Panjboshi [Ellikboshi] O'nboshi

Bundan tashqari, amirning shaxsan izmida bo'lgan saroydagi ofitserlar haqida ham ta'kidlash joizdir. Ularning tepasida qo'shbegi yoki vazir, mehtar, dasturxonchi va zakotchi turadi. Zakotchi shu bilan birgalikda moliya vaziri vazifasini ham bajaradi va amirning ichki xarajatlarini boshqarib boradi. Keyin mahramlar keladi, ularning soni vaziyatga qarab o'zgarib turadi. Ular turli topshiriqlar bilan turli viloyatlarga jo'natiladi. Vilo-

[1] Travels in Central Asia..., .p. 366-367.

@tarixchi_kutubxonasiga

yat hokimining qaroridan har qanday norozilik amirga bildirilganda unga mahram tayinlanadi, mahram prokuror sifatida hokim bilan uning viloyatiga boradi, holatni o'rganib, so'nggi qarorni qabul qilish uchun uni amirga yetkazadi. Shuningdek, eshik og'asi, bakovul, jamoat sayillarida amir o'rnida salom-alik oladigan salom og'asi ham bor. Hozirgi dabdaba-yu sayillarni yoqtirmaydigan amir davrida bu barcha mansablar va amallar nomigagina mavjud[1].

Armiya

Xonlikning doimiy armiyasi 40 000 otliqdan iborat bo'lib, kezi kelganda 60 000 otliqqacha yetishi mumkin. Bu sonning katta qismini Buxoro va Qarshi ta'minlaydi. Ayniqsa, buxoroliklar o'zlarining dovyurakligi bilan dong taratgan. Bu son buxoroliklarning o'zlari tomonidan keltirilgan bo'lib, bo'rttirilgan bo'lishi ham mumkin[2].

Politsiya [mirshablar]

Buxoroda politsiya boshqaruvi Osiyoning boshqa shaharlariga qaraganda ancha kuchli faoliyat yuritadi. Kunduz kunlari raisning o'zi bozorlar va jamoat joylarini aylanib chiqadi yoki o'zining ko'p sonli mansabdorlari yoxud ayg'oqchilarini jo'natadi. Quyosh botgandan ikki soat o'tgandan keyin hech kim ko'chaga chiqishga jur'at qila olmagan. Qo'shni qo'shninikiga chiqa olmagan, bemor tibbiy yordam yetmasligidan vafot etgan, chunki amir mirshablarga taqiqlangan soatlarda ko'chada uchraganlarning barchasini, hattoki uning o'zini ham hibsga olishni buyurgan[3].

Bozorlar

Buxorodagi bozorlar Eronning yirik shaharlaridagi bozorlardan farq qiladi. Ularning juda kami qubbali yoki toshdan qurilgan, faqat eng kattalarining tomi yoki shox-shabba, yoki qamish bilan yopilib, xodaga tortilgan. Har bir bozorning o'z oqsoqoli bo'lib, u amir tomonidan tartib-intizom va to'lovlar borasida mas'ul qilib qo'yilgan. Bozorlardan tashqari, shaharda ulgurji mollarni va sayyohlarni qabul qilish uchun o'ttizga yaqin kichik karvonsaroylar mavjud[4].

[1] Travels in Central Asia..., p. 373-375.
[2] O'sha asar, 375-376-betlar.
[3] O'sha asar, 366-bet.
[4] O'sha asar,. 365-366-betlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

EUGINE SCHUYLER «TURKISTAN: NOTES OF A JOURNEY IN RUSSIAN TURKISTAN, KHOKAND, BUKHARA AND KULDJA» («ROSSIYA TASARRUFIDAGI TURKISTON, QO'QON, BUXORO VA G'ULJAGA SAYOHAT QAYDLARI»)[1]

***Yujin Skayler** – Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi mustamlaka hududlariga rasmiy ruxsat olib tashrif buyurgan xorijliklarning dastlabki vakillaridan biridir. U o'z hamrohi – «Nyu-York Gerald» gazetasi jurnalisti Yanuariy Mak-Gaxan bilan birgalikda Perovskiy qal'asigacha kelgan, so'ngra Yu. Skayler Toshkent, Samarqand, Buxoro va Qo'qonga, Mak-Gaxan esa Xivaga yo'l olgan edi.*

Yu. Skaylerning 8 oy davom etgan ushbu sayohati to'liq aks ettirilgan asar yo'l xotiralari tarzida yozilgan bo'lib, tarixiy-geografik xususiyatga ega. Quyida AQSH lik diplomat va tadqiqotchi Yu. Skaylerning 1873-yilda O'rta Osiyoga sayohati tafsilotlari aks etgan «Rossiya tasarrufidagi Turkiston, Qo'qon, Buxoro va G'uljaga sayohat qaydlari» (Nyu-York, 1885. II jild) asarining Qo'qon xonligiga oid qismi ilk bor o'zbek tiliga tarjimasi qisqartirilgan holda berilmoqda.

t.f.n., dots. Z.A. Saidboboyev

Toshkent

Oyning yorug' shu'lasi tushib turgan ayvonda o'tirib, Toshkentda o'tkazayotgan birinchi kecham... O'rta Osiyoga kelganimga bazo'r ishonar, go'yoki Markaziy Nyu-Yorkning sokin va kichkina shaharchalaridan biridaman, deb o'ylardim. Ikki qatorli daraxtlar soya bergan keng chang ko'chalar; har yonda suvning jildiragan tovushi; old qismida daraxt va qoziqdevorlari[2] bilan ko'chadan biroz uzoqdagi kichkina oq uylar; chim va gullarga to'la, o'rtasida kichik cherkovi bor kattagina maydon – bularning bari uyg'unlashib, menga tanish taassurotni eslatar edi.

...Ko'cha chetlariga tez va qalin o'sadigan terak va tollar ekilgan; yerga qadalgan qalamcha tez orada ajoyib daraxtga aylanib, fusunkor darajada bog'lar paydo bo'ladi. Men laboratoriya bog'ida danagidan unib, uch yilda hosil bergan shaftoli daraxtini uchratdim.

Toshkentda 600 ta xonadon bo'lib, (men shaharning ruslar yashaydigan qismini nazarda tutmoqdaman) 6000 kishilik garnizonni hisoblamaganda, aholisi 3000 kishi. Har yerda qad ko'tarayotgan yangi uylar va ko'chalar

[1] Schuyler E. Turkistan: Notes of a Journey in Russian Turkistan, Khokand, Bukhara and Kuldja. – New York, 1885. Vol. II. (Skayler Yu. Rossiya tasarrufidagi Turkiston, Qo'qon, Buxoro va G'uljaga sayohat qaydlari. – Nyu-York, 1885. II jild) // Ingliz tilidan qisqartirilgan tarjima va izohlar t.f.n., dots. Z.A. Saidboboyevniki.

[2] *Qoziqdevor* – zich qoqilgan, yuqori qismi uchli qoziqlardan iborat yog'och devor.

@tarixchi_kutubxonasiga

hisobiga shaharning mavjud to'qqiz yil[1] ichida o'sishi haqiqatan ham tahsinga loyiq. Hozirgacha bularning barisini sarhisob qilsak, aslida shaharning doimiy aholisi, savdo-sotig'i ko'p bo'lmay, fabrikalar mavjud emas, tijoratchilarni hisobga olmaganda o'zining rasmiy xizmat burchini ado etayotganlar bo'lmasa chetdan hech kim kelib yashamaydi[2]. Toshkentga hech kim qolib ketish uchun kelmaydi. Bu Amerikaning o'xshash shaharlaridan uning farq qilishini bildirib, ko'plab chiroyli uylar, mavridi kelganda aytish o'rinliki, hukumat tomonidan berilgan pul hisobiga, bir paytlar uning ozrog'i to'langan.

Uylar asosan quyoshda quritilgan loy g'ishtlardan qurilgan va suvoqlanib, och tusda bo'yalgan, odatda bir qavatli. Yog'och tanqisligi va temirning qimmatligi tufayli uylarning tomlari o'ziga xos; cherdak to'sini [stropil] kichik tol shoxlari bilan mahkam yopilib, ustidan qamish to'shalib, loy va chim yotqiziladi. Tomni batamom suv o'tkazmaydigan holga keltirish uchun har yili yangidan loy bilan suvaladi. Yoz oylarida, yomg'ir yog'magan mahallar odatda tomlar yovvoyi lola, kovul va boshqa har xil gullar bilan qoplanib, juda go'zal va ajoyib tus oladi. Kuzning yomg'irli kunlarida esa juda ehtiyot bo'lish lozim. Chunki tomdagi loy qatlamining ko'pligidan tomni ko'tarib turuvchi yog'ochlar qulashi yoki loyning yetarlicha surilmagani oqibatida esa kuchli jala tomda kattagina tuynuk hosil qilishi mumkin.

...Odatda, Rossiya shaharlari uchun hukumat idoralarining ko'plab binolari mavjud bo'lganidek, bu yerda ham ko'plab jamoat binolari mavjud. Yana kichikroq cherkov va unga qo'shimcha yirik toshli ibodatxona qurish ishlari ham boshlangan. Ruslar kam bo'lgan va missionerlik taqiqlangan bu hududda pulni bekorga sarflashdek ko'rinadi. Endigina ta'mirdan chiqqan cherkov hozirgi ehtiyoj uchun juda katta, kam sonli ruslarning cherkovga kelishi va mas'uliyatsizligi taqvodor musulmonlarni hayratda qoldirmoqda. Ularning diniy e'tiqodlariga xuruj qilishmaganligi bois mahalliy aholi cherkovlarga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lib, uni *butxona* – [Budda] sanamining uyi deb atashadi. Mazkur bosh cherkov zilzilalarni hisobga olib qurilgan xavfli tajribaga o'xshaydi. Zilzilalar bu yerda tez-tez bo'lmasa-da, bir necha yil burun ulardan kuchlisi kuzatilgan.

...Shaharning shundoqqina tashqarisidagi sharqiy tomonida, bozordan uzoq bo'lmagan yerda Mingo'rik [mingta o'rik daraxti], avvallari sayr va tomoshaga mo'ljallangan joy bor. Nomidan ko'rinib turibdiki, o'rik daraxtiga boy katta mevali bog' bo'lib, ularning ko'pchiligi baland va yoshi katta, atrofi baland paxsa devor bilan o'ralgan. Men tashrif buyurgan kunim

[1] Bu yerda shaharning 1865-yilgi istilodan keyingi yangi qismi nazarda tutilmoqda.

[2] Yuqorida qayd etilgan aholi sonidan kelib chiqib, Yu. Skayler rusiyzabon aholi asosan rasmiylar, harbiylar, xizmat safari yuzasidan kelganlar va ularning oilalaridan iborat ekanligiga e'tibor qaratgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

u yerda lotereya o'yini munosabati bilan o'tkazilayotgan tomoshaning ustidan chiqib qoldim. Yashil chim va keng yo'laklar bekorchi va sayrga chiqqanlar bilan to'la edi. Vaqtinchalik oshxonalar ham bo'lib, turli chodir va do'konlarda toshkentlik xonimlar 2000 tasining ichidan bitta rasm chiqishi ehtimoli bor va donasi 20 kopeek bo'lgan kichik lotereya biletlarini tarqatishardi.

...Toshkentning rus qismidagi bosh ko'cha bo'ylab shimolga yurilsa, eski shaharga kelib qolganingizni sezmaysiz. To'rtburchak, suvoqlangan binolar tugab, pastak paxsa devorlar va kichik mahalliy do'konlar boshlangach, qariyb hamma bu yerlar o'zining qiyofasini o'zgartirganini his etishi mumkin. O'rta Osiyoning hech bir shahri o'zining rang-barangligini asl Toshkentchalik namoyish eta olmaydi. Kamdan kam to'g'ri tushgan yallo ko'chalardan o'tib, biz tepaliklardan pastlikka, u-bu tomonni aylanib, ba'zan baland devorlar o'rtasidan, ba'zan tepalikdagi masjidning yog'ochli ayvoni yonidan quyiga, so'ngra qandaydir jarlikning chetidan, endi esa shiddatli anhor ustidagi pastakkina yog'och ko'prikdan o'tamiz.

Har yerda bog'lardagi daraxtlar devorlarga engashib turar, biz ko'chani tark etib, yo'l bo'ylab chekkada eski yog'och tegirmon g'ildiragining aylanishiga mahliyo bo'lib, o'zimizni mamlakatning qariyb bir chekkasidadek his qildik. Osiyo tegirmonlari – ajoyib. Suv qo'pol g'ildirak o'qini aylantirar, o'qiga mustahkamlangan yirik yog'och tishlarda, agar ularni shunday atash mumkin bo'lsa, katta to'sinlar bo'lib, g'ildirak ana shu to'sinlardan sirpanib, tishlarni birma-bir aylantirar, bolg'a boshiga o'xshab yasalgan bir tomoni esa pastdagi havozaga gumburlab tushib, u yerda bug'doyni yanchib, tayyor un qilardi.

...Shaharning ana shunday alohida ajralib turadigan dahalarida yoshi keksa sartlar osoyishta hayotguzaronlik qilishib, shaharning rus qismiga borishni hatto xayollariga keltirishmaydi. Aytishlaricha, bu yerda ularning ko'pi hatto «dahriylar»dan birortasini ham ko'rmagan ekan. Bir necha qadimiy binolar qad ko'targan bo'lib, ko'plab masjidlar kichik va xarob holga kelgan. Diqqatga sazovor yagona Xoja Ahror eski masjidi, vayron bo'lgan koshinlari va g'ishtli minoralari, ayvonlari zamonaviy Beklarbegi[1] madrasasi bozor yuqorisidan salobatli joylashgan. Joylardagi, asosan, tepaliklardagi bosh ko'chalar ot-ulovga qulay bo'lsin uchun yirik toshlar bilan qoplangan, ammo yurishga ancha to'sqinlik qiladi. Qish va kuzning yog'in mahali bu toshlar yo'lovchilarning qatnovi uchun foydali bo'lishi tabiiy, ammo yoz paytida ular chuqurroq qorishib, bo'g'iq chang ko'tariladi.

[1] *Beklarbegi madrasasi* – Toshkentning Eski jo'va maydonida mavjud bo'lgan madrasa. 1838 – 1840-yillarda Toshkent hokimi Lashkar beklarbegi tomonidan qurilgan. XX asrning 30-yillarida bolsheviklar dinga qarshi kurash shiori ostida uni buzib tashlashgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Aytishlaricha, Toshkent devorlari o'n olti mil uzunlikda bo'lib, burun o'n ikkita darvozasi bo'lgan. Shaharning rus qismini bog'lovchi uchta darvoza keyinroq buzib tashlangan. Devor ba'zi joylari o'n ikki-o'n besh fut balandlikda bo'lib, mustahkam guvaladan qurilib, so'ngra suvoqlangan, dandana [tishli] va to'plar uchun mo'ljallangan shinak qismlardan iborat, tepa qismiga qaraganda osti qalinroq.

Devorning ichkarisida tepaga tomon [taxminan yarim yo'lda] joylarda torgina yo'lak va qurol-yarog' uchun maydoncha bo'lib, bu yerda askarlar turishi va to'plarni joylashtirish mumkin. Ensizgina ko'cha devorni uy-joylardan ajratib turadi. Devorlardan tashqarida – shahar [olti mil] bo'ylab bog'lar bir necha milga cho'zilgan. Bu bog'larda quyuq daraxtlar ekilgan bo'lib, shaharni butunlay qoplagan, rus istilosi pallasi katta ziyon ko'rgan bo'lsa-da, hozir ham juda chiroyli. Bir tarafdan yarmarka, parad hamda harbiylarning mashq o'tkazishlari uchun kesib tashlangan bo'lsa, yoqish uchun o'tin maqsadida ham ko'plab daraxtlar yo'q qilib yuborilgan. Hozirda ko'mir juda qimmat, olis Xo'janddan keltiriladi. Arzon va xush yoqadigani – mevali bog'larni qisqartirish hamda shaftoli, o'rik va gilos daraxtlarini yoqish bo'lib qoldi-ki, yaqinda ularni yetkazib berish tanqis bo'lishi aniq. Asrlar osha O'rta Osiyodagi ko'plab o'rmonlar va ihota o'rmonlari yo'q qilingan. Rus mustamlakachilari o'zlarining yurtlaridagidek o'rmonlarga yov sifatida qarashdi. G'ayriodatiy holda yog'ochlardan foydalanishdi. Hozirda qariyb hammasi yo'q qilinib, rahm-shafqat qilinmayapti.

...Bu yerdagi tog'lar Chotqol deb ataladi, Toshkentdan taxminan o'ttiz mil uzoqlikda, Chotqolning yuqori qismidagi vodiyda go'zal manzarali ko'rinish kasb etgan ajoyib qishloqlar joylashgan bo'lib, u yerda asosan tojiklar istiqomat qiladi. Shuningdek, daryo tubidagi ulkan toshlarga mahkamlab qo'yilgan jo'ngina ko'priklari bor maftunkor kichik shaharcha Xo'jakent joylashgan. Toshkentning gullab-yashnashi suv ta'minotiga bog'liq. Toshkent Turkistonning eng suvga mo'l joyi hamdir. Barcha obihayot qo'shni tog'lardan quyiga oquvchi Chirchiq daryosidan, shahardan qariyb o'n olti milcha yuqorida – Niyozbekda daryoni tark etuvchi Bo'zsuv kanali orqali olinadi. Ushbu kanal to'rtga bo'linib, ular ham o'z tarmoqlari bilan shaharning istalgan qismiga suv yetkazadi. Shaharning rus qismi ehtiyoji uchun yangi kanal qurishga qaror qilinib, bu ish mahoratli sanalgan mahalliy aholidan sug'orish san'atini o'rganmagan rus muhandisiga yuklatildi.

Ancha pul sovurib ulkan damba ko'tarishib, zovur ham qazishdi. Afsus-ki, undan bir tomchi ham suv oqmadi va shu tariqa ishdan voz kechishdi.

Shahar to'rtta dahaga bo'lingan: Shayxontohur – shaharning shimoli-sharqiy qismida; Beshyog'och – janubiy tomonida, undan keyin shaharning rus qismi boshlanadi. Ko'kcha – g'arbiy; Sebzor esa – shimoli-g'arbiy qismida joylashgan. Eskidan bu dahalar alohida mahallalardan iborat bo'lib,

@tarixchi_kutubxonasiga

ba'zan bir-birlari bilan kurashlar olib borgan hamda savdo-sotiqning o'sishi bilan asta-sekin ulkan bir shaharga birlashgan. Mazkur dahalarning har birining o'z oqsoqoli[1] yoxud yoshi ulug'i – mirshabboshisi bo'lib, butun bir shahar Rossiya hukumati komendanti yoxud hokimiga bo'ysunadi.

Toshkentning istalgan qismida tunning istalgan soatida piyoda yoki otda, kichkina bo'lsa-da xavf-u xatarga duch kelmasdan, bemalol yurish mumkin. Hatto sizga shilqimlik yoki haqorat qiluvchi odamni uchratmaysiz.

Shaharning soliqlar hisobiga to'lanayotgan xarajatlari jadal o'smoqda. Soliqlar bu yerda to'rt xil: yer, tosh-tarozi, *zemskiy* va jamoat solig'i. **Yer solig'i** eski xiroj[2] va tanob[3] o'rnini bosuvchi, shahar tevaragidagi ko'plab bog'lar va bug'doy dalalaridan undirilib, qariyb 22000 rublni tashkil etib, hukumatga ketadi.

Tosh-tarozi solig'i bozorlardagi tartib-qoidani nomigagina saqlash uchun bo'lib, miqdori 7000 rublga yaqinni tashkil qiladi. **Zemskiy solig'i** yo'llar, ko'priklar va hokazolarni ta'mirlash uchun har bir xonadon va ulovdan 75 kopeyek undirilib, qariyb 11000 rubl keltiradi. Xonadonlar soni 14222 tani, o'tovlar esa 300 tani tashkil etadi. **Jamoat solig'i** shahar xarajatlari uchun mo'ljallangan bo'lib, summaning choragi shaharning har bir dahasidan undirilib, mahalliy rasmiylarga sarflanadi hamda aholidan yig'ib olinadi.

Bu soliq 1874-yilda 86000 rubldan oshib ketib, boshqa soliqlarni hisoblaganda har bir boshga [kishiga] 3,04 rubldan soliq tushadi. 1868-yilda 16000 rublgina bo'lgan bu soliq yil sayin oshmoqda. Soliqlar undirilganda hech qanday tilxat berilmaganidan aldov va tamagirlik eshiklari keng ochib qo'yilgan.

Toshkent aholisining sonini mutlaqo to'g'ri aniqlash mushkul, sinchiklab va aniq hisob olib borilmagan. Masjidlarning soni 300 ta; odatdagi hisob-kitobga ko'ra, har bir masjidga o'ttizdan ellikka qadar xonadon to'g'ri keladi. Har bir xonadonda besh nafar kishi istiqomat qilsa, aholi 60000 kishini tashkil etadi. Bu hisob menga juda kam tuyuldi. Toshkentda besh kishidan ko'p bo'lmagan xonadonlar soni juda kam va shaharni yaxshi biladigan

[1] *Oqsoqol* – XX asr boshlariga qadar O'rta Osiyo hududida bir necha mahalla yoki qishloqqa boshliq, mutasaddi bo'lgan mahalliy amaldor.

[2] *Xiroj* – Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyoda davlat tomonidan undirilgan yer solig'i. Xiroj arablar tomonidan joriy qilingan. Xiva va Qo'qon xonliklarida hamda Buxoro amirligida xiroj yig'ish uchun har bir viloyatga sarkor, devonbegi va kotib saylangan. Qo'qon xonligida soliq Buxoro va Xivaga qaraganda ko'proq bo'lgan. Asosiysi, dehqonchilik mahsulotlaridan olinadigan xiroj bo'lgan.

[3] *Tanob* – O'rta Osiyo xonliklarida ekin maydonini o'lchash uchun ishlatiladigan yuza birligi. 1 tanob 3600 kv.m.ga teng. Bir tanob yerdan olingan soliqqa nisbatan ham tanob so'zi ishlatilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

kishilar uning aholisi taxminan 120000 kishidan iborat deydi. Bu to'g'riroq ko'rinadi. Soliq majburiyatlariga tortilgan aholi 41799 ta yoki har bir uyda uch kishidan kam bo'lmagan. Soliqlarga doir rasmiy hisobotlarda faqat shu raqam beriladi.

Toshkent aholisining asosiy qismini o'zbeklar, shu bilan birga tojiklar, ma'lum miqdorda tatar, qirg'iz [qozoq], hind va boshqalar tashkil etadi.

HENRY LANSDELL «RUSSIAN CENTRAL ASIA INCLUDING KULDJA, BOKHARA, KHIVA AND MERV» («ROSSIYAGA BO'YSUNDIRILGAN HAMDA G'ULJA, BUXORO, XIVA VA MARVNI O'Z ICHIGA OLGAN MARKAZIY OSİYO»)[1]

***Henri Lansdell** – britaniyalik missioner va sayyoh, Qirollik Fanlar akademiyasi va Qirollik geografiya jamiyati a'zosi. Henri Lansdell o'zining Turkiston general-gubernatorligi va Buxoro amirligiga uyushtirgan sayohati davomida shahar va qishloqlar aholisining etnik tarkibi, kasb-kori, yirik shaharlardagi mahalliy yahudiylarning ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli, turma va zindonlarda saqlanayotgan mahbuslar hayotiga oid ma'lumotlar to'plagan.*

Henri Lansdell o'z safari taassurotlari asosida 1885-yilda chop etilgan 2 jildli asarida mintaqadagi turli sohalarga oid muhim statistik ma'lumotlarni keltirgan. Muallif, shuningdek, o'z asarida bir qator rus va xorijiy sayyohlar, amaldorlarning tadqiqotlari hamda memuarlaridan ham o'rinli foydalangan.

Quyida mazkur asardan keltirilgan parchalar ilk bor ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan holda chop etilmoqda. Nashrga tayyorlash jarayonida o'sha davrga oid ayrim uzunlik, og'irlik va maydon o'lchov birliklariga bugungi kunda iste'molda bo'lgan o'lchov tizimidagi birliklardan kelib chiqqan holda ba'zi aniqliklar kiritildi.

X. Abdurasulov, V. Xolov

Toshkent[2]

Toshkentning Osiyo [ya'ni, mahalliy aholi yashovchi] qismining 4 dahasi ta'rifi

Nomi ikkita so'zdan kelib chiqqan Toshkent [tosh va kent] shahri ikki qismdan iborat shahar bo'lib, uning ikki qismi bir-biridan shunaqa katta farq qiladiki, biror sayyoh shaharning bir qismini ko'zdan kechirib chiqqun-

[1] Russian Central Asia including Kuldja, Bokhara, Khiva and Merv by Henry Lansdell, D.D., M.R.A.S., F.R.G.S. with frontispiece, maps, and illustrations, in two volumes. London. Sampson Low, Martson, Searle and Rivington. 188, Fleet Street. 1885

[2] Russian Central Asia...Vol. I. P. 438-441.

@tarixni_kutubxonasiga

cha juda ham ko'p yo'l bosib chiqadi va yo'lida bitta ham rusni yoki shaharning boshqa qismida bitta ham mahalliy kishini uchratmaydi.

Shaharning Yevropa qismi [ya'ni, ruslar yashaydigan yangi qismi] yaqinda barpo qilingan, uning eski qismi ming yil oldin, 738-yilda arablar bostirib kelganda ham mavjud edi. Shaharning Osiyo qismi ma'muriy jihatdan 4 qismga yoki yurtga bo'lingan. Ular oldin mingboshi tomonidan boshqarilgan va Shayxontohur, Sebzor, Ko'kcha, Beshyog'och deb nomlanadi.

Ularning birinchisi, ya'ni Shayxontohur shaharning shimoli-sharqiy qismini o'z ichiga oladi, tekislikda joylashgan, chuqur jar uni ikkiga ajratib turadi va u orqali Anhor, tezoqar kanali oqib o'tadi. Shayxontohur 48 ta mahalladan iborat bo'lib, ulardan bir nechtasi shahar atrofida joylashgan va keyinchalik tobora kengayib borayotgan shaharga qo'shilgan. Ushbu shahar atrofidagi mavzelarning ba'zilari shunchalik kattaki, ushbu mahallaning barcha aholisi oilaviy to'y-hasham va bayramlarga taklif qilinganda, ularni sanayotganda ba'zan ajratib qo'yishgan.

Shayxontohur aholisi L. Kostenkoning ma'lumotiga qaraganda, 3030 xonadonda istiqomat qiladigan 10194 kishidan iborat bo'lib, bu yerda 3 ta madrasa, 60 ta masjid, 230 nafar o'quvchiga ega 10 ta maktab mavjud bo'lgan. Shaharning ushbu qismi aholisining asosiy mashg'ulotlari cho'yan eritish, sarrojlik, juvozchilik va to'qimachilik bo'lib, hunarlarning umumiy soni 507 taga yetadi. Shaharning ushbu qismida uy-joy va binolardan tashqari bog'lar uchun ajratilgan qismi juda kichik bo'lgan – 300 akrdan iborat. Bundan tashqari 860 akr yer yaylovlar va 900 akr yer sholi ekish uchun ajratilgan.

Sebzor shaharning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, 38 mahalladan iborat. U to'rt qismdan iborat bo'lib, ulardan birining nomi Ibrohim Ota deb nomlanadi va «yo'ng'ichqa» yoki beda yetishtirish bilan mashhur. Kaykovus nomli [Toshkentning sobiq hukmdorlaridan birining sharafiga nomlangan] bosh kanalning sohillarida joylashgan qismidagi 2230 xonadonda 18650 kishi istiqomat qiladi, shu yerda Sebzorning barcha tegirmonlari joylashgan. Shaharning ushbu qismi aholisining asosiy mashg'uloti etikdo'zlik bo'lib, Turkistonning boshqa shaharlariga ham eksport qilinadi. To'qimachilik va gazlamalarni bo'yash o'z ahamiyatiga ko'ra ikkinchi o'rinda turadigan kasb hisoblanadi. Mahalliy aholi ushbu ikki hunardan juda qadimdan beri foydalanib kelmoqda va ular orasidan yetishib chiqqan boy sinf ulgurji savdo bilan shug'ullanadi. Bu yerda uchta madrasa mavjud bo'lib, ulardan Beklarbegi madrasasi juda mashhur, unda 260 nafar talaba tahsil oladi va Sebzorning ziyolilar qismini tashkil etadi.

Ko'kcha dahasi shaharning g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, 31 mahalla, 2511 xonadon va 22088 jondan iborat. Ko'kcha tepaliklar bilan qoplangan joyda joylashgan va chuqur jarlari ko'p. Shaharning bu qismi aho-

@tarixchi_kutubxonasiga

lisi asosan charmga ishlov berish bilan band. 1871-yilgi statistikaga ko'ra 695 ta hunarmand kosibdan 341 nafari charmga birlamchi ishlov berish bilan shug'ullansa, 218 nafari charmdan poyabzal tayyorlagan. Bundan tashqari, bu yerda g'isht pishirish uchun 6 dona pech, 7 dona kulolchilik ustaxonasi, 22 tegirmon va 22 juvozxona, shuningdek, 2 ta madrasa, 34 ta maktab, 51 ta masjid va 18 ta maqbara bo'lib, oxirgisida Bag'doddan bu yerga yuborilgan va 400 yil oldin shu yerga dafn qilingan Shayx Zayniddin boboni aytib o'tish loyiq.

Shaharning to'rtinchi qismi Beshyog'och dahasi bo'lib, uning janubiy qismini egallaydi. Daha 32 mahalla, 1400 xonadon va 12450 jondan iborat bo'lib, ularning ko'pchiligida obod bog'lar va dalalar mavjud. Shuning uchun ham shaharning bu qismida aholi kamroq yashaydi, dehqonlar o'z dalalariga yaqinroq bo'lish va ularda ishlov berish uchun ko'chib borgan. Shu tarzda bundan 180 yil oldin shaharliklar ko'chib ketishi natijasida Zangiota qishlog'iga asos solindi. Bu qishloqqa maqbarasi shu yerda joylashgan va judayam katta hurmatga ega Zangiota nomi berilgan va har yili mevalar hosil berganda Turkistonning barcha shaharlaridan ziyoratchilar keladi. Beshyog'ochliklarning asosiy mashg'uloti g'isht quyish bo'lib, chamasi shundan 3 ta madrasa, 16 ta xususiy maktab va 68 ta masjid barpo qilingan.

Shaharning Osiyo qismi aholisi asosan kasb-koriga qarab bo'linadi. Imoratlarning soni 17500 ta. 1868-yilgi aholini ro'yxatga olish bo'yicha aholining soni 76000 nafar kishi edi. Bino va imoratlar quyidagilardan iborat: xususiy uy-joylar – 13260 ta, shundan 322 tasi – bo'sh, 23 ta karvonsaroy [519 ta do'kon], 8 ta madrasa, 8 ta hammom, 255 ta masjid, 116 ta tegirmon, 42 ta boshqa tegirmonlar, katta bozorda 2324 ta do'kon, ichi bo'sh bozorda 307 ta do'kon, 594 ta do'koncha, 96 ta bo'sh yoyma bor.

Shaharning yangi qismi eski qismidan Bo'zsuv bilan ajratilgan. Unga 1865-yilda asos solinganiga qaramasdan juda rivojlangan.

...Shaharning ruslar yashaydigan qismida bir necha do'kon bor, ularda Yevropacha tovarlarni ikki barobar qimmat pulga sotib olish mumkin bo'lsa-da, masofani va ushbu jihoz va mollarni olib kelish bilan bog'liq qiyinchiliklarni hisobga olganda, ularning qiymati uncha baland deb bo'lmaydi.

Shaharning bu qismi o'zining shahardan 1,5 km uzoqlikda joylashgan observatoriyasi, Markaziy Osiyo muzeyi va men shaxsan tashrif buyurgan teatri bilan mashhur. Bundan tashqari, zobitlar teatri va klubi bor. 1875-yilda shaharning rus qismi aholisi, askarlardan tashqari, 2982 nafar erkak va 1870 nafar ayoldan va diniy nuqtayi nazardan pravoslav, musulmon, yahudiy, katolik va lyuteranlardan iborat edi. 100 ta kasbga bo'lingan jami 4852 nafar ish bilan band aholidan 532 nafar ayol doimiy ish bilan ta'minlangan; 1691 nafar kishida aniq kasb yo'q. Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, aho-

@tarixchi_kanalimizasiga

lining aksar qismi navqiron yoshda bo'lib, ularning yoshi 20 va 40 oralarida bo'lgan[1].

...Harbiy kasalxona shahardan tashqarida, Salor kanali bo'yida, uzunasiga 850 yard va eng keng joyida eniga 550 yard maydonda joylashgan. ...ushbu muassasa ikkinchi toifali rus harbiy kasalxonasi hisoblanib, 15 ta zobit, 380 ta askar va 20 ta ayolga mo'ljallangan. U 300 ta doimiy va 100 ta qo'shimcha o'ringa ega[2]. Qishki binolar pishiq g'ishtdan qurilgan, tomi tunukadan, har bir binoda hammom va hojatxona mavjud. Bir binoda jarrohlik bo'limi bor. Jami olti xonaning hajmi 3877 kub futni tashkil qiladi.

Toshkentda keng tarqalgan kasalliklar bezgak va ichburug'dir. Bu kasalliklarni keltirib chiqaradigan sabab ob-havo bilan bog'liq bo'lib, u bezgakni keltirib chiqaradi, bu esa, o'z navbatida, ichak shilliq pardalarining yallig'lanishiga olib keladi. Undan keyin esa mahalliy aholi «Pashsha chaqdi» deb ataydigan terining o'ziga xos kasalligi bo'lib, ruschasiga «volchanka» deyiladi. Uning kelib chiqish sababi haligacha noma'lum. Uchinchi kasallik esa, oftalmiya bo'lib, u chang va quyoshning ko'zni qamashtiradigan ta'siri ostida yuzaga keladi. Uch kunlik bezgak ham keng tarqalgan[3].

... Toshkentga chetdan mol olib kirish va chetga mol olib chiqish masalasi

1876-yilda shaharga Rossiya, Buxoro, Semipalatinsk, Turkiston va Yettisuvning boshqa joylaridan 23669 ta tuyada, 804 ta aravada va 1355 ta otda mol olib kelingani tufayli noto'g'ri fikr paydo bo'lishi mumkin. Buning aksi o'laroq, 2325 ta tuyada chetga mol olib ketildi, shundan yarmisi Rossiyaga, chorak qismdan Qo'qonga va Toshkentning Osiyo qismiga yetib boradi. Poytaxtda bahorgi va kuzgi yarmarkalar o'tkaziladi[4].

Farg'ona viloyati[5]

...Mamlakatning boshqa viloyatlaridagi kabi Farg'ona shaharlarining joylashuvi ularning yaqinida daryolarning mavjudligi bilan belgilanadi. Yuqori Norinning sohillarida bir necha kazak aholi yashaydigan qishloqlar qurilgan. Ammo ushbu daryoning Qoradaryo bilan qo'shilgan joyida

[1] Diniy nuqtayi nazardan aholining tarkibi 3473 pravoslav, 938 musulmon, 159 yahudiy va hokazolardan iborat.

[2] Qishki binolarda quyidagi kasalliklar uchun bo'limlar mavjud: tanosil, diareya, teri, bezgak, hibsdagilar, zobitlar va ayollar bo'limlari.

[3] Russian Central Asia... Vol. I. P. 449.

[4] O'sha asar, 452-bet.

[5] O'sha asar, 490–502-betlar.

@tarixiy_kutubxonasiga

Namangan shahri barpo etilgan bo'lib, unda paxta yetishtiruvchilar istiqomat qilishadi. Shaharda 1000 ta do'kon bor. Har yili shaharda 300 ming qo'y sotiladi. Bu yerlik aholi sollar yasab, uning ustiga meva-cheva, teri, kigiz ortib, Sirdaryoning quyi oqimi bo'ylab oqizadi. Shimoli-g'arbda Koson shahri joylashgan bo'lib, u Farg'onada qadimiyligi bilan mashhur. M. Ujfalvining fikricha, shaharning tojik aholisi juda chiroyli hisoblanadi.

Sirdaryoning shimolida joylashgan yana bitta shahar Chust, unda ham xuddi Hisordagi kabi mashhur pichoqlar yasaydilar. Qoradaryoning suvlari ko'pgina shaharlardan oqib o'tib, eng birinchisi O'zgan bo'lib, u Tyanshan tog'larining bir darasining etagida 3200 fut balandlikda joylashgan. Shahar avliyo sanalmish Xo'ja Yusufning maqbarasi yonida bo'lganligi sababli mashhurdir. O'zgandan janubroqda 2000 fut balandlikda Terak dovonini xitoyliklardan saqlab turadigan G'ulja shahri joylashgan.

Sharqiy Farg'onaning bosh shahri Andijon hisoblanib, uni Qoradaryo suvlari sug'orib turadi. Shaharning shimoli-sharqiy qismida tez-tez ziyoratchilar kelib turadigan suvlari issiq, karbonat angidrid va oltingugurtga boy Jalolobod-Ayyub joylashgan.

Marg'ilon Shohimardon daryosi bo'yida joylashgan va qulay ob-havo sharoiti sababli ruslar tomonidan viloyatning ma'muriy markazi sifatida tanlab olingan. Aholi soniga qarab Qo'qonda 60000, Namanganda 50000, Marg'ilonda 40000, O'sh va Andijonda 20000 jon va jami viloyatda 729690 nafar aholi istiqomat qiladi. Ma'muriy jihatdan viloyat 7 uyezdga bo'lingan bo'lib, eng yirigi Andijon va eng ahamiyatlisi esa Marg'ilon uyezdlaridir.

Xo'janddan Qo'qongacha[1]

...Biz sinagogadan chiqib bozorga bordik, ammo bozor kuni emasligi tufayli uni barcha rang-baranglikda ko'ra olmadim. Odatda bozorlar haftada ikki kun – payshanba va yakshanba kunlari uyushtiriladi. Y. Skayler va M. Ujfalvining fikriga ko'ra, mahalliy bozor Markaziy Osiyodagi eng yaxshi bozor hisoblanadi. Ko'chalar quyoshdan himoya qilish maqsadida qator-qator baland peshtoqli tomlar bilan yopilgan. Bu yerda Markaziy Osiyoning barcha mollarini topish mumkin: Buxorodan ipak va duxoba; Marg'ilondan gazlama va pishiq jun gazlama; Qarshi va Qo'qondan mashhur san'at ustalarining mis buyumlari; Buxorodan charm sandiqlar; g'arbiy Xitoydan dungan telpaklari; rang-barang do'ppilar; atlas va ipakdan turli xil rangdagi choponlar; Samarqanddan pichoqlar, zargarlik mollari, nefrit va oniksdan ishlangan buyumlar olib kelib, sotiladi.

[1] Russian Central Asia... Vol. I. p. 511-532.

@tarixchi_kitobxonasiga

Qo'qonlik zargarlar soxta toshlar bilan bezalgan bir necha isirg'alar tayyorlashadi. Kumushdan ishlangan xuddi o'rta asrlardagi kabi ochiq katta bilaguzuklar, ularning oltin manjetasi va kumush qatlamlari Samarqand zargarlik buyumlari bilan raqobatlashadi. Ular o'ziga xos shaklga ega bo'lib, ba'zilari haqiqiy toshlardan yasalgan. Bu buyumlar zargarlikning Markaziy Osiyoda qadimdan rivojlanib kelganidan dalolat beradi. Qadimiy zargarlik buyumlari bu yerda juda qadrlanadi.

Meni jez [mis va qo'rg'oshin qorishmasi]dan yasalgan va Qo'qonni mashhur qilgan ko'zalar lol qoldirdi. Ular nafis ishlangan bo'lib, did bilan bezalgan va ba'zi eski ko'zalar sir bilan qoplangan. Men shunday chiroyli ko'zalardan birini Britaniya muzeyi uchun sotib oldim. Ancha did bilan yasalgan ikkinchi ko'zani menga Xivada hadya qilishdi. Men yana shunday nafis ishlangan choynak ham, mahalliy uzuk va isirg'alar, to'qa, bilaguzuk va tumorlardan namunalar sotib oldim. Qo'qonga yaqin tog'lardan sotuvga olib kelinadigan turli xil mo'ynalarni ko'rsatish mumkin, ular: suvsar mo'ynasi – 2 pensdan[1], qora qo'y qo'zisi terisi – 40 pensgacha, yo'lbars terisi – 50 pensgacha narxda baholanadi.

...Yakshanba kuni tushda Markaziy Osiyoda yashovchi yahudiylarni ko'rishga otlandim. London shahrining lord-meri va ezilgan rossiyalik yahudiylarga yordam ko'rsatish qo'mitasi raisi Janob baronet Uittaker Ellis menga iltifot ko'rsatib, qo'limga maktub bergan edi. Ushbu maktubda meni kasalxonalar, turmalarga insonparvarlik maqsadida tashrif buyurish uchun sayohatga chiqqanligim, menga safarda uchragan va yordam berishi mumkin bo'lgan har bir kishidan iltifot va e'tibor ko'rsatishlari so'ralgan edi.

Ushbu maktub men uchun Londonning vakolatli bosh ravvini doktor Herman Adler tomonidan iltifot bilan qadimgi yahudiy tiliga va mening iltimosimga binoan qo'shimcha ravishda rus, arab, fors va o'zbek tillariga tarjima qilindi. Bizni Toshkentning rus qismiga olib kelishganida mening safar maqsadimni tushuntirish maqsadida ularga ushbu maktubni ko'rsatdim va ulardan qadimgi qo'lyozmalar haqida so'radim. Ammo, ularda yahudiylarga oid hech qanday qadimgi narsalar yo'q edi. Sinagogada mavjud narsalar esa deyarli yangi ekan. Men oldin hech qachon bunday ozoda va yorug' sinagogaga kirmagan edim. Devorlari yaqinda ohak bilan oqlangan va mahalliy bezaklar bilan bezatilgan edi.

[1] *Pens* – Buyuk Britaniyaning pul birligi. 12 pens 1 shillingga, 20 shilling 1 funt-sterlingga teng bo'lgan. O'sha davrda 1 rus qog'oz rubli [100 kopeyka] 2 shillingga teng bo'lgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Zarafshon uyezdi[1]

...1880-yilda chop qilingan «Turkiston kalendari»ga muvofiq uyezdning tog'li volostlarining aholisi 25565 erkak va 18167 ayoldan iborat bo'lib, bulardan 672 tasi rus askarlari sanaladi...

...1876-yilda chop qilingan «Turkestanskiy yejegodnik» nashrida 1872-yilda uyezdning uchta volostida, ya'ni Samarqand, Panjikent va Kattaqo'rg'onda taxminan 215 ming odam [119 ming erkak va 96 ming ayol] yashayotganligi haqidagi ma'lumotni yig'ib oldim[2].

Ular etnik jihatdan quyidagilarga bo'linadi: 582 nafar qirg'iz, 67862 nafar tojik, 140154 nafar o'zbek, 2211 nafar eroniy, 214 nafar hindi, 1974 nafar yahudiy. Ijtimoiy tarkibi esa quyidagicha: 7690 nafar mulla, 9593 nafar savdogar, 28865 nafar hunarmand va kosib, 95429 nafar dehqon va qishloq mehnatkashlari, 73986 nafar qora ishchi.

Uyezdda 5000 xonadon mavjud, bundan yo'l-yo'lakay kelgan 180 nafar oilalar mustasno. 30 ta maktab, 2001 ta masjid, 990 ta tegirmon, 500 ta qoliplaydigan tegirmon yoki press, 32 ta bozor mavjud. Uyezddagi uy va boshqa hayvonlar soni quyidagicha: 1600 ta tuya, 46000 ta ot va eshak, 61000 ta yirik shoxli qoramol, 136000 ta qo'y. Hosilning asosiy turlari: sholi, bug'doy, arpa va beda. Mahalliy millatlarga oid shaharliklardan tashqari, 1873-yilda uyezd shaharlarida ruslar: Samarqandda 5069 nafar, Kattaqo'rg'onda 1121 nafar, Panjikentda 28 nafar, Kammenniy Most fortida 227 nafarni tashkil qiladi. Jami 6451 nafar ruslardan 5600 nafari askar, 231 nafari oddiy fuqaro, 329 nafari ayol va 287 nafari boladan iborat. Bundan tashqari, uyezdda har birida o'rtacha ming kishilik 8 ta qishloq mavjud. Payshanbada 4380 va Urgutda 10200 nafar fuqaro istiqomat qiladi.

... Sherdor va Tillakori madrasalariga vaqf qilingan yerlarning miqdori 25 ta bo'lib, umumiy maydoni 12500 akrni tashkil etadi. Har yili 1000 funt-sterling foyda keltiradigan 8 ta do'kon ham bor. Samarqanddagi masjid va madrasalarning soni 58 ta, ularning mulki – yer maydonlari, do'konlar, karvonsaroy, bitta bozor, tegirmon va hokazolar har yili 2000 funt-sterling daromad keltiradi.

...1876-yilda chop qilingan «Turkestanskiy yejegodnik» ma'lumotiga binoan butun uyezdda 3 ta rus maktabi mavjud edi [uchinchisi Kattaqo'rg'onda joylashgan], ularda 6 nafar o'qituvchi ishlagan, 64 nafar o'g'il bola va 23 nafar qizlar tahsil olgan. 1876-yilda uyezdda mahalliy ta'lim 968 ta boshlang'ich maktablarda va 31 ta madrasada olib borilgan. Maktablarda 999 nafar o'qituvchi dars beradi, qishda o'quvchilarning soni 8642 tani, yozda esa

[1] Russian Central Asia..., Vol. I. P. 533–545.

[2] O'sha asar, 544-bet.

@tarixchi_kutubxonasiga

2266 tani tashkil qilgan. Ushbu ta'lim muassasalari bilan bog'liq sarf-xarajatlar ularga ajratilgan vaqf mablag'lari hisobidan yoki jamoalar va ayrim hollarda o'qituvchilar tomonidan ta'minlangan. Ularning yillik daromadi 391 funt va kamida 32 tonna dondan iborat bo'lgan, ammo ota-onalar bolalari uchun oziq-ovqat va kiyim-kechak ko'rinishida hadyalar jo'natib turganligi bois umumiy daromadni aniqlashning imkoni yo'q[1].

...Samarqanddagi uylarning soni 4411 ta, shundan 200 tasi ruslarga tegishli. Aholisi 36000 nafarni tashkil qiladi, shulardan 5400 nafari yevropaliklar va 30600 nafari mahalliy aholidir. Ishlab chiqarish korxonalari va inshootlari asosan shaharning Osiyo [«Eski shahar»] qismida joylashgan bo'lib, zavodlar, to'qimachilik ustaxonalari, ustaxonalar va boshqalardan iborat. Ularning ko'rinishi Toshkentni eslatadi. Hunarmandlar to'qimachilik, temirchilik, misgarlik, terini oshlash, duradgorlik, tokarlik, poyabzal tikish, egar-jabduq, shuningdek, bo'yash, kulolchilik va tikuvchilik bilan shug'ullanishadi.

Biz Zarafshon uyezdini Buxorodan ajratib turadigan, Hisor tog' tizmalarining davomi bo'lgan Kitob tog'larining cho'qqisiga chiqdik. Eni 30 qadamga yaqin bo'lgan tosh platformadan orqadagi quruq va suvsiz cho'lga nazar soldik, bizning oldimizdagi manzara ancha yoqimli ko'rinardi. Bu Qashqadaryo vohasi bo'lib, ikkala qirg'og'ida egizak shaharlar – Kitob va Shahrisabz joylashgan. Daraxtlar va bog'larning serobligidan Shahrisabz, ya'ni «Yashil shahar» deb nomlangan[2].

Amir Kitobda 12 ta zambarak, Buxoroda esa undan ham ko'proq zambarak saqlar edi. Uning armiyasida 14 ming nafar jangchi bo'lib, undan 6000 nafari otliq askarlardir[3]. Saroydagi boshqa a'yonning ma'lumotiga ko'ra, 20 ta batalyonning har biri 1000 kishilik bo'lib, otliqlar ham shuncha bo'lsa borki, ammo kam emas. Qo'shbegi esa menga 15000 dan 5000 nafari otliq askar ekanligini aytdi. Ularning barchasi ixtiyoriy ravishda 18 yoshdan to umrining oxirigacha xizmat qiladi, ularga yaxshi haq to'lanadi. Qishloq joylarida 17 shilling va 6 pens, poytaxtda esa 20 shilling to'lanadi. Boshqa ma'lumotga binoan, har oyda 10 shilling to'lanadi, ular yollangan ko'ngillilar qo'shini bo'lib, Buxoroda muntazam armiya mavjud emas. Ular o'z uylarida yashashadi, harbiy chaqiruv vaqtidagina kelishadi. Harbiy xizmatdan ketishni xohlashsa, qurollari va kiyimlarini topshirib, o'z kasblari bilan shug'ullanadilar.

Biz serhosil vohaga, o'zining tamakisi bilan mashhur bo'lgan Qarshiga, anorlari bilan mashhur bo'lgan Shahrisabzga, uzumi bilan mashhur bo'lgan Kitobga tashrif buyurdik. 7-oktabrda Qarshida bo'ldik. 1832-yilda Alek-

[1] Russian Central Asia..., Vol. I. P. 600.
[2] O'sha yerda, 9-bet.
[3] Russian Central Asia..., Vol. II, P. 21.

@tarixchiknubuxoyasiga

sandr Byorns shaharga tashrif buyurgan va uni tashlandiq binolardan iborat tartibsiz shahar deb ta'riflagan. Uzunligi 1 milga [1 mil 1609 metrga teng] cho'zilgan ajoyib bozori, 10 ming aholisi bor. 1863-yilda Vamberi shaharda 25 ming odam yashashini taxmin qilgan hamda shahar devori bo'lmaganligini ta'kidlagan. Xanikov shaharda umumiy markazga ega bo'lgan uchta devor mavjudligini eslatib o'tgan va men ulardan birining yuqorisidan aylanib o'tish uchun ko'p vaqt sarfladim. Xanikov devorning diametri 2 kilometr, aylanasi 6 kilometr ekanligini, qal'ada 4 ta madrasa, bosh jome' masjidi va hammom mavjudligini qayd etgan. Qarshi xonlikda ikkinchi shahar hisoblangan...

Bizga aytishlaricha, bek bizni kechqurun tarixiy xotirani eslatuvchi Oqsaroyda kutib oladi. Biz Buxorodan qumlar bilan ajralib turadigan yerlardan, Samarqanddan tog'li dovonlar bilan ajralib turadigan joylardan o'tdik. Shahrisabz avvalroq ma'lum qilingan mustaqil hukumatni shakllantirish uchun arziydigan joy ekan[1]. Menga aytishlaricha, Shahrisabzda 90 ta masjid va 3 ta madrasa bo'lgan... Men saroy masjidini suratga tushirdim, lekin u hashamatli bino emas edi.

Doktor Skayler Shahrisabzda 20000 va Kitobda esa 15000 odam yashashini aytgan...

...Janob Galkin 1865-yilda beklik aholisi 70 mingdan iboratligini taxmin qilgan. Hozirgi hukumat esa, aholini 50 mingga yaqin, deb hisoblaydi. Bular asosan o'zlarining jasurligi bilan faxrlanadigan «kenegas» o'zbeklaridir. O'sha muallif Shahrisabzdagi 4 ta qal'a va 20 ta qishloq nomini keltiradi. Kitob tepaliklarda joylashgan bo'lib, 1910 fut balandlikda, Shahrisabz esa past va serbotqoq yerda joylashgan[2].

Ertalab hammomga bordik. Yo'limiz jun sotishga mo'ljallangan, 600 yard uzunlikdagi shaharning bozor qismidan o'tgan edi. Bundan tashqari, go'sht, mevalar, sut va tamaki sotiladigan do'konlar ham bor edi. Ushbu joy o'zining suti va pichoq ishlab chiqarishi bilan mashhur ekan. Ayniqsa, qaynoq suvga botiriladigan va «Objo'shi Qarshi» deb nomlanadigan uzumi judayam mashhurdir[3].

Ostonaqulbiyning so'ziga qaraganda, Qarshi bekligi Chimdan 40 mil sharqqa, Buxoro tarafga qarab cho'zilgan. Qarshi bekligi Qarshi, Xozar, Shirabul, Sadabad va Chiroqchi tumanlaridan iborat. Bu yerlardan olinadigan umumiy daromad, Byornsning fikriga ko'ra, 32 ming tilloni tashkil qiladi[4].

[1] Russian Central Asia..., Vol. II. P. 32.
[2] O'sha yerda, 39-bet.
[3] O'sha yerda, 45-bet.
[4] Russian Central Asia..., Vol. II, P. 46.

@tarixchi_kutubxonasiga

G'ildirakli texnika [poyezd] yuradigan yo'llar Qorako'ldan poytaxt orqali Kattaqo'rg'on va Samarqandgacha, shuningdek, Samarqanddan aylanib, Jom orqali yoki Buxorodan Qarshigacha olib boradi[1].

Koson – ulkan savdo manzili bo'lib, vohaning g'arbiy chekkasida joylashgan. Qarshidan Buxorogacha bekatlar nomlari va masofasi [mil hisobida] quyidagicha: Koson – 16, Xo'ja Muborak – 20, Bakir – 18, Qorovulbozor – 13, Buxoro – 27[2].

Buxoro devorining aylanasi 7 mil 980 yard, balandligi 24 fut va asosining qalinligi 10 futdan iborat. Mahalliy aholi shahar aholisini 2 million kishiga yetadi, deb hisoblaydi. Volf fikriga ko'ra, shahar aholisi 180 ming kishidan, Xanikovning hisobiga binoan 70–80 ming kishidan iboratdir. Men oxirgisini haqiqatga yaqin, deb bilaman. Xanikov shahar maydonini 1860 akr yoki 3 kv. mil deb hisoblagan[3].

Qo'shbegi huzuridan qaytgandan so'ng, biz bir necha bor bozorda bo'ldik. M. Petrovskiyning ma'lumotiga ko'ra, mahalliy bozor Toshkentnikidan 5 barovar kengroq va uning savdo aylanmasi 4 million funt-sterling atrofidadir. Savdo shartnomasi va savdo-sotiq ishlari boshqa oddiy rastalarni hisoblamaganda, 24 ta karvonsaroyda va 6 ta timda amalga oshiriladi. Boshqa Osiyo shaharlarining bozorlari kabi turli tovarlar bir-biridan alohida holda sotiladi. Xanikov quyidagi doimiy bozorlar: etik va teri mahsulotlari bozori, non bozori, baliq, shag'am, un, arpa, jo'xori bozorlari, o'tin, tuz, ko'mir, xomsurp, mis va metall buyumlar bozorlari, shuningdek, ko'nchilik mahsulotlari, poyabzal, kepak, quruq mevalar, dori-darmon, qovun, anor va nok, tuxum, sut mahsulotlari bozorlari, ot anjomlari, pichoq, yog', arqon bozorlari faoliyat olib borganligini eslatib o'tgan[4].

...Shimoliy va markaziy qismlarida, xususan, Turkiston general-gubernatorligi hududlarida 36 turdagi kunduzi harakatlanadigan qushlar bo'lib, jumladan, Himolay Lemmergeyeri, besh turdagi tasqaralar hamda burgutlarning taxminan o'nta turlari, skopa, jo'rchilar, qora va brahmaniy kalxatlari, qirg'iylar va qarchig'aylar, sapsanlar, lochinlar, torg'oqlar, jig'altoylar, miqqiylar, kichik miqqiylar, oyoqlari apelsin rangli jig'altoylar, to'rt xil bo'ktargi qushlari makon qilgan. Mahalliy aholi bu qushlardan ba'zilarini kichik qushlar bilan birga yirik yovvoyi hayvonlarni ham ovlash uchun parvarishlaydi. ...Londondagi Qirollik Zoologiya jamiyati kotibi doktor Skater bilan suhbatlashganimda, kotib Baron Benoi Mechlin yaqinda Markaziy Osiyodan qaytganini va o'zi bilan birga o'rgatilgan qushlardan birini olib kelganligini aytdi.

[1] Russian Central Asia..., Vol. II. P. 54.
[2] O'sha yerda, 56-bet.
[3] O'sha yerda, 124-bet.
[4] O'sha yerda, 133-bet.

@tarixchi_kutubxonasiga

Tunda harakatlanadigan qushlar orasidan birgina boyo'g'lining 9 turini aniqlagan. Qarg'alar sinfiga mansub taxminan 13 turdagi, jumladan, kornoul turi [Buyuk Britaniyaning janubi-g'arbidagi hududda uchragan qush] va Alp chaykalarining borligi meni hayratlantirdi. Shuningdek, quzg'unlar, jigarrang bo'yinli quzg'unlar, o'laksaxo'rlar, popukli qarg'alar, zog'chalar, hakkalarning baqtriya va oq qanotli turlari, yong'oqchaqarlar, xo'jasavdogarlar [saksovul soykasi], qizg'ish, oddiy va binafsharang chug'urchuqlar bor.

Chumchuqsimonlar oilasiga mansub qushlarning kamida 40 turi bo'lib, Turkiston shimoli-g'arbiy tuzli tekisligida topilgan yangi turdagi chumchuq [*Passer Ammodendri*] Severtsov tomonidan nomlangan. Shuningdek, oppoq qanotli boltatumshuq, yashil qush [*Carduelis chloris*], vyurok, zyablik, qor vyuroklari, amerika vyuroklari; ikki turdagi urug'xo'r qushlar [*Linaria cannabina*], tog' chumchug'ining ummu [*Linaria flavirostris*] va sayroqi [*Acanthis flammea*] toifasi, Himolay va Yevropa satangi, qizil vyurok [*Carpodacus puniceus*], sharq yoki Yevroosiyo vyurogi va boltatumshuqning sakkiz turi, dehqonchumchuq, bog' chumchuqlari [*Emberiza hortulana*] va yana chumchuqning 11 turi bo'lib, ulardan ikkitasini mamlakat bo'ylab va hattoki tog'lardagi qor qatlamlari chizig'igacha bo'lgan balandlikda ko'rish mumkin. Sariq va oq qanotlilari baland joylarda uchramagan[1].

...Sirdaryo viloyati haqida so'z borganda, uni 4 qismga – cho'llar, yaylovlar, vohalar va tog'larga bo'lish mumkin. Bulardan eng kattasi cho'l hududi bo'lib, u Qizilqum, Qoraqum kabi cho'llarning bir qismini o'z ichiga oladi va umumiy maydonning yarmidan ko'pini egallaydi. Shuningdek, viloyat hududining taxminan 40 %i yaylov yerlari bo'lsa, boryo'g'i 0,8 %i ziroatchilik uchun foydalaniladigan yerlardir[2]. Amudaryo viloyatining maydonini esa Kostenko tadqiqotlariga tayanib, shartli ravishda 3 qismga – cho'llar, yaylovlar va ekiladigan yerlarga ajratish mumkin. Bunda foydalanilmaydigan yerlar maydoni taxminan 84%ni tashkil etsa, faqatgina 0,53 % yer maydonidan dehqonchilik maqsadlarida foydalaniladi[3].

Qizilqum cho'li unumsiz va ko'chuvchi qumlardan tashkil topmay, u barxanlar bilan qoplangan. Uning ildizi poyasidan yer ostiga 12–15 santimetr o'sadi. Bu o'simlik qo'ylar uchun juda yaxshi ozuqa bo'lib, katta tuyoqli hayvonlar uchun kamlik qiladi. Qizilqum cho'lining yana bir alohida xususiyati shuki, unda yulg'unlar keng maydonlarda o'sadi, ammo Amudaryo

[1] Russian Central Asia... Vol. II, P. 415–417.
[2] O'sha asar, 384-bet.
[3] O'sha asar, 426-bet.

@tarixchi_kutubxonasiga

deltasi atrofi esa qamishlar bilan qoplangan. Uning g'arbiy qismi toshli tepaliklardan tashkil topgan va sharqiy qismiga qaraganda ko'proq qum bilan qoplangan.

...Oroldan 80 kilometr janubi-sharqda bo'yi taxminan 130, eni 32 kilometr bo'lgan yaydoq dasht bo'lib, bu qadimda suv yo'li bo'lgan, deya taxmin qilish mumkin. Janub tomonda daryoning boshqa bir qurigan irmog'i bo'lib, uning kengligi 40 km, bo'yi esa 18 km. ni tashkil etadi. Suvi qurigan hududlardagi tuzlar sharq tomonga harakatlanib, atrofni qoplagani va hattoki qisman daryoning quyilish havzasigacha yetib borganligi ko'rinib turadi. Uning qolgan qismi botqoqlik hamda ekiladigan yerlardir.

Amudaryo deltasi o'rtasida balandligi taxminan 100 metr bo'lgan Kichkinatog' deb nomlangan balandlik mavjud bo'lib, uning yuqori tomoni sarg'ish-kulrang tuproq, quyi qismi esa yashil-kulrang tuproq bilan qoplangan.

Orolning uzunligi taxminan 418 km.ni, eni esa 210–290 km.gacha bo'lib, u dengiz sathidan 15 m, Kaspiydan esa deyarli 40 metr balandlikda joylashgan.

Orolga shamollar shimoliy-sharqdan esadi, ular to'satdan ko'tarilib, kuchli to'lqinlarni keltirib chiqaradi va qayiqlarning harakatlanishiga ham imkon qolmaydi. Bu yerda doimiy sokin yoki kuchli shamollar esib, ular tez-tez bo'ronlarni keltirib chiqaradi. Orolning janubiy qismi qishda muzlamaydi va u yerda qishda ham son-sanoqsiz qushlar yashaydi. Boshqa tomonlarida qirg'oq atrofida suv muzlaydi va tuyani ham ko'tara oladi. Orol bilan bog'liq yana bir qiziqarli jihat shundaki, uning suvi kamayib, sathi qisqarib bormoqda. Mahalliy aholi esa buni quyidagicha izohlaydi: «...ko'lning tubida yirik suv yo'li bo'lib, shu yer osti kanallari orqali suv Oroldan Kaspiyga o'tadi». Ammo Mayevning ko'rsatishicha, tabiat qonunlariga ko'ra daryolardan quyilgan va bug'langan suv miqdori teng. Bu fikr eng ishonchli va asosli fikrdir. Agar Amudaryo o'zanini o'zgartirib, Kaspiyga quyilganida, Orol suvining qurishi nisbatan tezlashgan bo'lar edi. Orolga har yili taxminan 332 milliard kub metr suv quyiladi. Agar suv quyilishi to'xtasa, bir yilda uning 1/20 qismi yo'qoladi, 12 yil ichida esa uning suvi yarmidan kamayadi, 80 yil ichida faqat ba'zi havzalardagina suv qoladi.

...Orolning ichida bir necha kichik orollar mavjud. Shulardan biri Ko'korol..., yana bir orol Borsa-kelmasdir. Uchinchi orol To'qmoq ota bo'lib, shu yerda dafn qilingan avliyo sharafiga nisbat beriladi. Boshqa bir orol imperator Nikolay oroli bo'lib, uning maydoni 344,4 kv.km ga teng bo'lgan. Bu orol g'ayritabiiy ravishda saksovul va yulg'un bilan qalin qoplangan bo'lib, u yerda juda ko'p kiyik va jayronlar yashaydilar. Shuningdek, u yerda tip-

@tarixchi_kutubxonasiga

ratikan, quruqlik toshbaqalari, ilonlarni va tulki izlarini ham uchratish mumkin...[1]

GEORGE NATHANIEL CURZON

«RUSSIA IN CENTRAL ASIA IN 1889 AND THE ANGLO-RUSSIAN QUESTION» («ROSSIYA MARKAZIY OSIYODA. ANGLIYA – ROSSIYA MASALASI»)

Jorj Nataniel Kerzon (1859–1950) Angliya siyosiy arboblaridan biri bo'lib, o'z hayoti davomida Angliyaning Hindistondagi Vitse-qiroli, general-gubernatori (1899–1905), tashqi ishlar davlat kotibi (1919–1924), Lordlar palatasi raisi (1924–1925) kabi lavozimlarda ishlagan. 1888–1889-yillarda Rossiya va Markaziy Osiyoga, keyinchalik Eronga, Hindixitoy va Koreyaga, Afg'oniston va Pomirga safar qilgan. Amudaryoni tadqiq etish bo'yicha faoliyati uchun Qirollik geografiya jamiyatining «Royal Geographical Society» oltin medali bilan taqdirlangan.

J.N. Kerzonning Markaziy Osiyoga sayohatlari asosida tayyorlangan «Russia in Central Asia in 1889 and the Anglo-Russian question (Rossiya Markaziy Osiyoda. Angliya – Rossiya masalasi)» asarida mintaqaning XIX asrdagi tarixi haqida muhim ma'lumotlar qayd etilgan. Bu asar 1889-yilda Londonda nashr qilingan. Unda o'sha davrdagi Rossiya – Angliya munosabatlari va ikkala davlatning Markaziy Osiyodan ko'zlagan manfaatlari kabi masalalar o'z aksini topgan. Shuningdek, muallif mazkur asarda Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro hamda Xiva xonliklaridagi ijtimoiy ahvolga oid statistik ma'lumotlarni o'sha davr adabiyotlari va matbuot materiallari bilan qiyoslab, tahlil qilishga harakat qilgan.

V. Xolov

Resurslar, manufaktura va savdo[2]

...Turkistondagi 152 500 000 akr[3] yerdan 70 000 000 akri dasht, tog'li va qumli yerlari mol boqish [chorvachilik] uchun ham, ekin ekish [dehqonchilik] uchun ham yaroqsizdir. 75 000 000 akr maydon yaylovdan iborat bo'lsa, qolgan 7 500 000 akrdan 5 000 000 akri ekiladigan yer, 2 500 000 akri esa lalmi yerlardir. Asosan donli ekinlardan bug'doy, guruch, jo'xori, arpa, tariq yetishtiriladi. To'qimachilik uchun yetishtiriladigan mahsulotlardan paxta birinchi o'rinda, zig'ir hamda kanop ikkinchi va uchinchi o'rinlarda turadi. Tomorqalarda asosan qovun va kartoshka yetishtiriladi. Ekiladigan yerlar-

[1] *Henry Lansdell.* Russian Central Asia..., Vol. II. P. 426-430.

[2] *George Nathaniel Curzon.* Russia in Central Asia in 1889 and the Anglo-Russian question. P. 254–257.

[3] *1 akr* – 0,4 gektar (4047 kv.m)ga teng.

@tarixchi_kutubxonasiga

dan olinadigan asosiy mahsulotlar ming pudda quyidagicha ifodalanadi: bug'doy 17 000; guruch 10 000; jo'xori 8 800; tariq 5 400; arpa 3 100; boshqa donli ekinlar 3 600; jami 47 000 pud. Amudaryo va Sirdaryo viloyati ko'chmanchilari yiliga 3 000 000 pud makkajo'xori yetishtiradi. Zarafshon, Qurama va Xo'jand tumanlarida yetishtirilgan paxta 400 000 pud, Farg'onada esa 150 000 pudni tashkil etadi. 1 500 akrdan ko'proq yerga amerika paxta navi ekilgan.

Tog'li tumanlarda ziroatchilik keng tarqalgan bo'lib, 250 000 akr hududni egallaydi va asosan uzum, olma, nok, gilos, olxo'ri, tut yetishtiriladi. Turkistonning quritilgan mevalari uzoq Sibir o'lkalariga va Rossiyaning janubiy qismlariga jo'natiladi. Ipakchilik ham sanoat tarmog'ining eng muhim sohalaridan biri bo'lib, yillik mahsulot ko'lami quyidagicha: Farg'onada 15 000 pud; Zarafshonda 10 000 pud; Xo'jandda 3 000 pud; Chimkent va Turkistonda 2 000 pud; Buxoroda 60 000; Xivada 3 000; Koshg'arda 10 000; Markaziy Osiyoning umumiy ipagi miqdori 103 000 pud bo'lib, bir pud ipak 125 rubl turadi va yillik daromad taxminan 13 000 000 rubl [1 300 000 funt]ga yetadi.

Turkistondagi chorva mahsulotlari soni quyidagicha: qo'y va echkilar 4 810 000 ta; otlar 645 000 ta; tuyalar 382 200 ta; shoxdor chorvalar 525 000 ta; jami 6 362 000 ta. Sirdaryoning quyi oqimi va Orolbo'yidagi baliqchilik yiliga 10 000 funt, teri va jun savdosi esa 55 000 funt[1] daromad keltiradi. Turkistonda mineral boyliklardan foydalanish hali unchalik rivojlanmagan, faqatgina yiliga taxminan 750 000 pud ko'mir qazib olinadigan Xo'jand atrofi bundan mustasnodir.

Markaziy Osiyoga maxsus ilmiy topshiriq bilan jo'natilgan rus muhandisining yaqinda bergan ma'lumotiga ko'ra, Samarqand yaqinida joylashgan Panjikentdagi neft konlarida kamida 9 000 000 pud eng toza neft bor. Mahalliy ishlab chiqarishda zavodlar va sexlar soni juda ko'payganligi quyidagi raqamlarda namoyon bo'ladi: Sirdaryo viloyatida 720 ta sex va 3 000 ta hunarmandlik ustaxonasi, yillik ishlab chiqarishi 140 000 funt; Farg'onada 4 320 ta sex va 2 000 ta ustaxona, yillik ishlab chiqarishi 80 000 funt; Zarafshonda 520 ta sex va 1 000 ta ustaxona, yillik ishlab chiqarishi 60 000 funt; Amudaryoda 2 ta sex va 50 ta ustaxona, yillik ishlab chiqarishi 5 000 funt; jami 1 662 ta sex va 6 050 ta ustaxona bo'lib, yillik ishlab chiqarishi 285 000 funtga baholanadi. Eng muhim manufakturalar ruslarga tegishli bo'lib, ular 40 tani tashkil etadi va eng yiriklari yiliga 50 000 funt daromad beradigan 12 ta brendi spirti zavodlarini o'z ichiga olib, 5 ta sigaret [tamaki], 4 ta teriga ishlov berish, ikkita paxta tozalash, bitta yog'-moy va bitta shisha zavodlaridir.

Ko'p sonli mahalliy kichik manufaktura ustaxonalari orasida ipak yigirish va to'qish eng asosiylari sanaladi. Farg'onadagi kichik sexlar 100 000

[1] O'sha davrda 1 funt 10 rublga teng bo'lgan.

@tarixchilarkutubxonasiga

funt qiymatidan ortiq ipak va 30 000 funt qiymatidagi paxta mahsulotlarini ishlab chiqaradilar. Shaxsiy turarjoylardan taxminan uyda yigirilgan 400 000 yard[1] paxta bilan armiya ta'minlanadi. Shuningdek, o'lkada gilam va jun matolarni ishlab chiqarish ham yetarli darajada rivojlangan. Turkiston savdo aylanmasini aniq raqamlarda ko'rsatishning imkoni yo'q. Uchta asosiy yirik shaharlar Toshkent, Qo'qon va Samarqandning yillik savdo hajmi 1 000 000 funtga baholanadi, ammo bu hisob-kitob asl yakuniy miqdordan ancha farq qiladi. Quyida 1881-yil ma'lumotlari asosida Turkistondan olib ketilgan va bu yerga olib kelingan savdo mollarining qiymati keltiriladi:

Turkistondan eksport qilingan mahsulotlar qiymati	
Nijniy Novgorodga	500 000 funt
Irbitga	50 000 funt
Krestovskiyga	50 000 funt
Dashtga	100 000 funt
Orenburg va Orskka	130 000 funt
Troitskka	100 000 funt
Petropavlovskka	50 000 funt
Semipalatinsk va Yettisuvga	100 000 funt
Jami:	1 080 000 funt.
Turkistonga kirib kelgan tovarlar qiymati	
Orenburg va Orskdan	500 000 funt
Troitskdan	200 000 funt
Petropavlovskdan	150 000 funt
Semipalatinsk va Yettisuvdan	100 000 funt
Dashtdan	200 000 funt
Jami:	1 250 000 funt.

Turkistondan Buxoro va Xiva xonliklariga va Xitoy tarkibidagi Koshg'arga qilingan eksport hajmi 1884-yilda 600 000 funtni tashkil etadi va import savdosi 550 000 funtga baholanadi. 1866–1885-yillar oralig'ida Turkistonda savdo ikki barobarga o'sdi. Rossiyadan Turkistonga eksport qilinadigan tovarlar orasida eng asosiylarini jun va paxta gazlamalari, teri mahsulotlari, dastgohlar va kiyimga zeb beruvchi mahsulotlar tashkil etadi. Turkiston bunga o'zining chorvasi va Hindistondan keltiriladigan 100 000 funt qiymatidagi choyi bilan javob qaytaradi.

[1] *1 yard* – 91, 44 sm. ga teng.

@tarixchi kutubxonasiga

...Afg'oniston bilan savdo ko'rsatkichlari[1]

Buxoro va Afg'oniston o'rtasidagi savdo karvonlarda amalga oshirilib, savdo faoliyatini asosan buxorolik savdogarlar nazorat qiladi. Ammo rossiyalik bir savdogarning Chorviloyatda savdo qilayotganligi va Rossiya shakarini muvaffaqiyatli sotayotganligi xabar qilindi. Karvonlar asosan afg'on bozorlaridan Maymana, Andxo'y, Shibirg'on, Aqcha va Saripulda to'xtaydi. Afg'onistondan asosiy import qilinadigan mahsulotlar – Hindiston tranzitining eng sara mahsulotlaridan ko'k choy, nil bo'yog'i, dori-darmonlar, ingliz harir ipak matosi, shuningdek, Kobul orqali olib keltiriladigan jun, qo'y, qo'zichoq va tulki terisi, urug'lar va pistadan iborat. Rossiyadan Afg'onistonga eksport qilinadigan asosiy mahsulotlarni bosma nashrlar, shakar, qadoqlangan mahsulotlar, ho'l mevalar, shirinliklar, chemodanlar, dastgohlar, temir, mis va gugurt tashkil etadi. 1889-yili Rossiya Moliya vazirligi jurnali 1888-yil mobaynida rus-afg'on savdosi haqida quyidagi ma'lumotlarni chop etdi. Ushbu savdo Is'hoqxon[2] qo'zg'oloni tufayli juda katta ziyon ko'rgan.

Afg'onistondan Buxoroga jo'natilgan mahsulotlar [funtda]
(1888-yil, qo'zg'olondan oldin)

Iyun	215 690
Iyul	80 270
Avgust	55 414
Sentabr	38 611
Oktabr – Noyabr	55 364
Dekabr	5 417

Rus mahsulotlarining Buxoro orqali Afg'onistonga eksport qilinishi [funtda]
(1888-yil, qo'zg'olondan oldin)

Iyun	123 581
Iyul	54 558
Avgust	53 241
Sentabr	33 669
Oktabr – Noyabr	55 364
Dekabr	5 417

[1] *George Nathaniel Curzon.* «Russia in Central Asia in 1889 and the Anglo-Russian question». P. 282-283.

[2] *Sardor Muhammad Is'hoqxon* – o'sha davrdagi Afg'oniston amiri Abdurahmonxonning amakivachchasi bo'lib, Balxda unga qarshi qo'zg'olonga rahbarlik qilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Yuqoridagi raqamlar Rossiyaning Afg'oniston bilan mol ayirboshlashining yuqori darajasini ko'rsatib, bunda tinchlik davrida erishilgan va urushga tayyorlanishda ko'tarilgan to'liq dislokatsiyani namoyon etadi...

...Zarafshonning umumiy uzunligi taxminan 420 kilometr bo'lib, uning asosiy qismi Turkiston, qolgan qismi esa Buxoro amirligi hududidan oqib o'tadi. Daryoning suv havzasi taxminan 14 875 kvadrat milni tashkil etib, shundan 7 285 kvadrat mil maydon tekislik bo'lsa, 7 090 kvadrat mili tog'li hududlarga to'g'ri keladi. Bu yerdan daryo suvi minerallar bilan boyib, pastga oqadi. Samarqand yuqorisida daryo ikkiga – Oqdaryo va Qoradaryoga ajralib, shahardan taxminan 13 mil quyida birlashadi. Daryo suvining asosiy qismidan Samarqand hududida foydalanilib, qolgani Buxoroga yetib boradi. Buxoro yaqinida daryo ikkiga bo'linib, bu Duoba [Ikki suv] deyiladi. Bunda daryo suvining katta qismi Shohrud kanaliga yo'naltiriladi va qolgan suv 62 mil masofada daryoning kichik irmog'i – Qorako'l daryosi orqali Qorako'l shahrigacha oqib boradi. Shaharga ikki mil qolganda u yana ikkiga bo'linib, uning irmoqlaridan biri Qorako'l, ikkinchisi Tagiqir deyilgan. Amudaryoga 20 mil qolganda daryo deyarli qurisa-da, uning loyqa suvi Dengiz, Sung'ur va Karanga ko'llariga quyiladi.

Zarafshon daryosi suvi miqdori o'zgaruvchan bo'lib, qishda suv sathi boshqa fasllarga qaraganda ancha kam bo'lgani va iyulda eng yuqori bo'lgani, o'rtadagi farq 20 barobargacha ekanligi qayd etiladi. Dekabr, yanvar va fevral oylarida soniyasiga 1000–1300 kub fut suv oqsa, iyun, iyul va avgust oylarida, qorning erishi natijasida soniyaga 19 000–22 000 kub futgacha suv oqadi. Bundan yiliga o'rtacha sekundiga 8 764 kub fut suv oqqani ma'lum bo'ladi. Bu suv miqdori taxminan 287 kvadrat mil maydonni sug'orishda ishlatiladi. Shundan 115 kvadrat mili Samarqand viloyatiga, 172 kvadrat mil maydoni Buxoro xonligi hududiga to'g'ri keladi[1].

WILLIAM ELEROY CURTIS «TURKESTAN "THE HEART OF ASIA"» («TURKISTON – OSIYO YURAGI»)[2]

Villiam Eleroy Kyortis *(1850–1911) – AQSHlik jurnalist, sayyoh hamda tadqiqotchi. Chikagoning «The Inter-Ocean» (1873–1886), «The Record Herald» (1887–1911) gazetalarida sayyoh-muxbir sifatida faoliyat yuritgan. «The Record Herald» (1887–1911) gazetasida Lotin-Amerika bo'limi boshlig'i sifatida faoliyat olib borgan. Dastlab Xitoy, Germaniya, Italiya, Rossiya, Ispaniya, Lotin Ameri-*

[1] *George Nathaniel Curzon.* «Russia in Central Asia in 1889 and the Anglo-Russian question», P. 205 – 206.

[2] *William Eleroy Curtis.* «Turkestan "The Heart of Asia"» // Hodder and Stoughton, New York. 1911.

@tarixchi_kutubxonasiga

kasi mamlakatlariga oid maqolalarni muntazam chop ettiradi. U hayoti davomida olib borgan izlanishlari asosida 30 ta kitob va qo'llanmalarni, jumladan: «One Irish Summer», «Around the Black Sea», «Modern India», «The Turk and His Lost Provinces», «To-Day in Syria and Palestine», «Turkestan "The Heart of Asia"» asarlarini nashrga tayyorladi. Bular orasida, ayniqsa, «Turkestan "The Heart of Asia"» asari uning olib borgan ilmiy hamda dala tadqiqotlari asosida tayyorlangan. Muallif 1910-yilda mintaqaga Kaspiyorti temir yo'li orqali tashrif buyuradi va 1911-yilda yuqorida nomi keltirilgan asari chop etiladi. Asarda mintaqa tarixi, geografiyasi, temir yo'li, tarixiy shaharlari, jumladan Marv, Xiva, Buxoro, Samarqand, Toshkent kabi shaharlar, aholining etnik tarkibi, tarixiy obidalari, Temuriylar davri tarixi, paxta sanoati, rus ma'muriyatining o'lkada olib borgan siyosatiga oid masalalar yoritilgan.

V. Xolov

...Xiva – taraqqiy topgan, qishloq xo'jaligi gurkiragan shahar. 800 000 aholisi bor mamlakatning poytaxti. Vashingtondagi Karnige instituti hisobidan arxeologik tadqiqot olib borgan Garvard professori R. Pumpelli bu zaminda donli ekinlarni ekish miloddan 8000 yil avval, shuningdek, sigir, qo'y kabi hayvonlarni xonakilashtirish hamda ot va tuyalarni boqish miloddan 8–7 ming-yil oldin keng tarqala boshlanganligini qayd etgan. Professor R. Pumpelli bu hududda ziroatchilikning chorvachilikdan bir necha asr oldin vujudga kelganligini ishonch bilan ta'kidlagan. Dunyoning bu qismi tub aholisi muqim o'rnashib, ziroatchilikni chorvachilikdan oldin va chorvalari uchun yangi yaylovlarni izlashga sabab bo'lgan o'zlarining istagisiz boshlangan ko'chmanchilik an'analaridan oldin yerga ishlov berishni boshlagan.

Bu yerda juda qadimdan yovvoyi paxta o'sgan. Ammo, ko'p asrlar davomida unga ishlov berilmagan. Amerika paxtasini ekish rus istilosidan keyin kirib keldi. Hozirda Xivada bir nechta amerika paxtasini yigiruvchi va presslovchi fabrikalar hamda ikkita paxtaning chigitidan moy oluvchi zavod bor. Fabrikalarning jihozlari Kaspiy va Qora dengizdan Marvga va undan tuyalarda ortib Xivaga olib kelingan[1].

Agar siz xaritadan Xivaga qarasangiz, uning Amudaryoning g'arbiy qirg'og'ida, janubda Eron, shimolda Orol va g'arbda Kaspiy bilan deyarli bir xil masofada joylashganini, Amudaryo tomondan boshqa barcha tomonlarining cho'l bilan o'ralganligini ko'rasiz. U har doim ham muhim shaharlardan biri bo'lib, unda katta miqdorda qoramol, ot, tuya, qo'y, echki hamda ulardan olingan mahsulotlar savdosi amalga oshirilgan. Jun savdosi paxtadan keyin ikkinchi o'rinda turadi va ilgari jun eng ko'p sotilgan mahsulot bo'lgan.

[1] *William Eleroy Curtis.* «Turkestan "The Heart of Asia"» // Hodder and Stoughton, New York. 1911. P. 80.

@tarixchi_kutubxonasiga

Xiva juda qadimgi – tarixda ma'lum bo'lgandan-da qadimgiroqdir va shahar bir paytlar o'zining ta'lim muassasalari va dindorlari ilmi bilan mashhur bo'lgan. Istanbulda, Avliyo Sofiya masjidi kutubxonasida uning kutubxonasi mas'uli bo'lgan mulla menga bir kitobni ko'rsatib, uning turkiy tilda yozilganligini, u yozilgan til esa arab va o'lik sanskrit tillaridan ham qadimgi til, ya'ni hozirgi turkiy tilning asosini tashkil qilgan til ekanligini aytdi. Shuningdek, Istanbulda mazkur kitobni o'qiy oladigan mutaxassisning yo'qligini, u kitobni o'qiy oladigan kishilarning faqat Xivada bo'lishini aytib, u yerda dunyoning eng bilimli kishilari yashashini bildirdi. Hozirgi kunda Xiva bu holatni to'liq aks ettirmasa-da, u bir paytlar Osiyoning din va ilm-fan markazi bo'lib, xonlik poytaxti sifatida puldorlar, mashhurlar va umidli kishilarni o'ziga chorlagan[1].

Ruslar dastlab XVII asr boshida xivaliklar bilan aloqaga kirishganlar. 1620-yilda bir guruh kazak qaroqchilari xivalik savdogarlar karvoniga hujum qilib, ulardan shaharning boy ekanligini bilib olgan va cho'lni kesib o'tib, shaharga hujum qilgan. Shahar bosib olingan va talanib, vayron qilingan. Kazaklar o'ljani mingta aravaga ortib, ming nafar ayolni o'zlari bilan olib ketgan. Ammo, ko'p o'tmay ular o'z qilmishlari uchun tovon to'laydi. Kazaklarning muvaffaqiyati ularning o'zidan ketishiga va bir guruh qozoqlar ularni sahroga quvib yuborishiga va bu kazaklarning suvsizlikdan halok bo'lishlariga sabab bo'ladi. Ularning quvilish xotirasi Xiva tarixi sahifalarida yorqin qolgan voqealardan biridir.

Don kazaklariga o'z do'stlari qismati haqidagi xabar ancha vaqt o'tib yetib keldi. Bu xabar yetib kelgach, ular xivaliklarni jazolash uchun 2000 kishilik jangchilardan tarkib topgan navbatdagi ekspeditsiyani jo'natadi, ammo ularning katta qismi cho'lda halok bo'ladi. Uchinchi ekspeditsiyaning taqdiri bundan-da ayanchli bo'lib, ochlik va chanqoqdan omon qolganlari xivaliklar tomonidan qo'lga olinib, qulga aylantirilgan. Ulardan ba'zilari qochishga va Rossiyaga yetib olishga muvaffaq bo'lgan va ular Rossiya imperatori Pyotr I ga Xiva haqidagi ma'lumotlarni bergan.

Shundan ko'p o'tmay, tashabbuskor hukmdor Sibir gubernatoridan Amudaryo vodiysi bo'ylab oltin topilishi haqida xabar oladi. Keyin mamlakatni o'rganish maqsadida ikkita ekspeditsiya jo'natilib, ulardan biri Sibirdan, ikkinchisi esa Kavkazdan yo'lga chiqadi. Ulardan birinchisi Sirdaryo vodiysigacha bo'lgan hududga yetib boradi. Ikkinchisi esa, kazaklarni qo'lga olishda foydalanilgan tuzoqqa tushadi.

...Turkiston dunyoning eng qadimgi inson yashagan hududlaridan biri sanaladi. Bunga kitoblar, qoyalarga o'yib yozilgan nomalar, yer ostida qolib ketgan madaniy ashyolar bu yerdagi insonlarning 10 ming yildan ziyod

[1] *William Eleroy Curtis.* «Turkestan "The Heart of Asia"». P. 81.

@tarixchi_kutubxonasiga

vaqt davomida ziroatchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib kelganliklarini ko'rsatadi. O'rta Osiyo cho'llari va vohalari fiziografiyasini hamda tuproq qatlamlari tagida qolib ketgan inson va hayvon qoldiqlarini o'rganish maqsadida Vashingtondagi Karnige instituti 1904-yilda Turkistonga ekspeditsiya jo'natdi. Bunda qadimgi sivilizatsiya odamlari, ularning kelib chiqishi, rivojlanishi, muhiti va ularning boshqa irqlar rivojlanishiga ta'sirini o'rganish maqsad qilingan edi. Bu ekspeditsiya Garvard universiteti doktori Rafael Pampelli, arxeolog, doktor Hyubert Shmidt, yordamchi va tarjimon Elsvors Hantington hamda fiziograf va tadqiqotchilar Langdon Voner, Heldegard Bruks xonim, R. Vels Pampellilardan tashkil topgan. Bu guruh Turkiston cho'llari va vohalarida 1904-yil davomida tadqiqot olib borib, juda ko'lamli tadqiqot hisobotlarini tayyorladi. Uning natijalari Karnige instituti tomonidan yirik ikki jildda nashr qilindi[1].

Tadqiqotning yakuniy xulosasida professor Pampelli quyidagilarni qayd etadi: «Tadqiqotni boshlashning sabablaridan biri: G'arbda bir guruh bo'lib, u haligacha O'rta Osiyoni Uzoq Sharq va G'arb buyuk sivilizatsiyalarining asosi sifatida ishonadi, ikkinchisi: shunday taxmin borki, unga ko'ra bu hududda qadimda keng O'rta yer dengizining Osiyo qismi qisqarishiga olib kelgan keskin iqlimiy o'zgarishlar bo'lib, Qora dengiz, Orol va Kaspiylar uning asosiy qoldiqlari sifatida baholangan[2].

Menga uzoq vaqt shunday tuyuldiki, O'rta Osiyo arxeologiyasini o'rganish buyuk sivilizatsiyalar geneologiyasida muhim voqelikni, davrlar mobaynidagi fizik o'zgarishlar izlarini o'rganishdagi parallel tadqiqotlar ijtimoiy evolutsiyalarning bosqichlari va atrof-muhitdagi o'zgarishlarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, inson va tashqi ta'sir omillarini mutanosiblashtirish mumkin bo'ladi va bu yaqinda amalga oshirilgan geologiyaning vaqt mezonlariga hissa bo'lib xizmat qiladi[3].

Biz dastlabki tarixiy qaydlarimizda mamlakat hududida insonlar yashagan ko'plab shaharlarni aniqladik va ular ko'chmanchilar yashagan cho'llar bilan o'ralgan. Ular qaysi toifa yoki irqqa tegishli bo'lgan? Ular bu o'lkaga qachon kirib kelgan? Ularning sivilizatsiyalari nima edi va ularning boshqa sivilizatsiyalar hamda zamonaviy dunyoga qanday aloqasi bor? Bular bizning tadqiqot uchun savollarimiz bo'lib, ularga arxeologiya, etnologiya, til, hozirgi an'analar va san'atdagi ularning elementlarini fanda qiyosiy metodlar va qazishmalar natijalari asosida o'rganib, keng yoki qisqa javob berish mumkin. Bu savollarning ba'zilariga qadimgi dunyo insonlari tabaqalanishiga chuqur kirib borib, javob olinadi[4].

---

[1] *William Eleroy Curtis.* Turkestan "The Heart of Asia"» // Hodder and Stoughton, New York. 1911. P. 88-89.

[2] O'sha yerda, 89-bet.

[3] O'sha yerda, 89-90-betlar.

[4] O'sha yerda, 90-bet.

@tarixni_kutubxonasiga

Qadimgi Marv shahri xarobalarining maydoni taxminan 30 mil kvadrat [90 kv. km.] bo'lgani va turli davrlarda bir necha shaharlardan tashkil topganligi aytiladi. Poykand shahri esa suv taqchilligi natijasida tark etilgan va keyinchalik harakatdagi cho'l qumlari bilan ko'milgan shaharlarni aks ettiradi. Poykand eramizning ilk asrlarida Xitoy, g'arb va janub o'rtasida yirik boylik va savdo markazi bo'lgan. Marv xarobalaridan tashqari, Samarqanddagi xarobalar eng keng tarqalganlari hisoblanadi. O'tgan davr mobaynida uning boylik va savdo markaziga aylanishida uning joylashuvi muhim ahamiyat kasb etganlik ehtimoli yuqoridir. Shahar Zarafshon daryosining eng unumdor vohasida joylashishi bilan birga, Xitoy va Sharqiy Turkistonni Afg'oniston, Hindiston va Eron bilan bog'lovchi juda qulay karvon yo'llari ustida joylashgan[1].

O'tgan 2000 yil davomida Samarqand bir necha marta talandi, vayron qilindi va qayta qurildi. Marv kabi, Samarqandda qayta qurishlar oldingilari yonidan qurib borilgan. Makedoniyalik Aleksandr tomonidan qurdirilgan Maroqand binolari eng qadimgi qatlam ekanligini ko'rsatadi. U keng hududni egallagan musulmon qabristonlari, arablar istilosini aks ettiruvchi alomatlar hamda kulolchilik va g'ishtlar bo'laklari bilan qoplangan. Shaharning oldingi devorlari uning sathidan 20–30 fut [7–10 metr] balandlikda namoyon bo'ladi. Amir Temur tomonidan qurdirilgan va nihoyatda ko'rkam qilib bezalgan masjidlar, garchi hozirda xaroba holga tushgan bo'lsa-da, nafaqat kattaligidan, balki bezaklaridagi go'zallikdan dunyo mo'jizalaridan sanaladi. Afrosiyobdan ko'rinib turgan bu xarobalar ko'kka bo'y cho'zib, vohaning yam-yashil manzarasidan yuqorida ko'rinib turadi. Bu Chingizxon shaharni vayron qilib, uning aholisini qilichdan o'tkazgandan keyin Amir Temur va uning avlodlari ikki asr davomida Turkistonda qilgan ishlarining nishonasidir[2].

Arxeologik tadqiqotlarga ko'ra sharqiy, g'arbiy va janubiy xalqlarni bog'lagan bu hudud uzoq vaqt davomida ishlab chiqarish va savdo markazi bo'lgan; uning to'plagan boyliklari tajovuzkor armiyalar o'ljasiga aylanishiga sabab bo'ldi. Uzoq vaqtlardan buyon Turonliklar va Oriylar o'rtasida aloqalar va raqobat mavjud. Ammo uning ham fizik, ham arxeologik masalalari yirik hududda insoniyat va uning sivilizatsiyasi taraqqiyoti hamda bu taraqqiyotga olib borgan muhitlar tadqiqoti zamirida yotgan katta muammolarning bir qismi sanaladi[3].

Turli uzoq o'lkalarda va tog' yonbag'irlarida yashagan aholining turli tillarni, san'at va urf-odatlarni saqlab qolganligi juda uzoq vaqtdan buyon ayri

[1] *William Eleroy Curtis.* «Turkestan "The Heart of Asia"» // Hodder and Stoughton, New York. 1911. P. 90–91.

[2] O'sha yerda, 91-bet.

[3] O'sha yerda, 91-92-betlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

holda, xilma-xillikda taraqqiy etganligini ko'rsatadi. G'orlarda saqlanib qolgan ashyolar, qoyatoshlardagi yozuvlar, qabrtoshlar, tosh maqbaralar, tillar, urf-odatlar, dinlar, dizaynlar hamda antropologik materiallar saqlanib qolgan.

Men bizning poyezdimiz O'rta Osiyo temir yo'lining Kogon shahridagi bekatiga to'xtaganida shunday charog'on manzarani ko'rdimki, bundan ortig'ini insoniyat qo'li bilan barpo qilingan boshqa joyda hech qachon ko'rmaganman. Bu mashhur Buxoro shahri bekati bo'lib, bu shahar 600 yillarcha ilgari ilm-fan, boylik va kuch-qudrat shahri sanalgan, ammo bugungi kunda shahar o'zida va uning atrofida ishlab chiqarilgan go'zal gilamlari bilan mashhurdir. Ushbu manzaraning ortida arabeska bilan bezatilgan bino bo'lib, bu arxitektura maktabining yorqin namunalaridan biridir. Unda ochiq va to'q kulrangdagi muqobil qatlamlar, burchaklardagi belveder[1], karnizlar va hattoki toshlardagi belgilar ham ko'rinib turibdi. Kaspiydan Xitoy chegaralarigacha cho'zilgan O'rta Osiyo temir yo'li vokzallari hayratlanarli dizaynga ega bo'lgan, qattiq toshdan qurilgan binolardir. Arxitektorlar har bir shahar joylashgan hududga alohida yondashib, qanday bino qurish kerakligini o'rgangan va ulardan hech biri Kogon vokzalichalik ko'rkam emas»[2].

OLE OLUFSEN «THE EMIR OF BOKHARA AND HIS COUNTRY» («BUXORO AMIRI VA UNING MAMLAKATI»)[3]

Ole Olufsen (1865–1929) – daniyalik harbiy mulozim va tadqiqotchi, Daniya qirolligi Geografiya jamiyatining kotibi lavozimida ham ishlagan. 1890-yillarda O'rta Osiyoga uyushtirilgan ekspeditsiyalar tarkibida mintaqaga bir necha marta safar qilgan va to'plagan materiallari asosida ko'plab ishlarini chop ettirgan. Jumladan, uning «The Emir of Bokhara and his Country» (1911), «The second Danish Pamir-Expedition: old and new architecture in Khiva, Bokhara and Turkestan» (Copenhagen, 1904), «A Vocabulary of the Dialect of Bokhara», «A Vocabulary of the Dialect of Bokhara» va boshqa asarlari mintaqa tarixini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, «Buxoro amiri va uning mamlakati» [«The Emir of Bokhara and his country]» asarida mintaqa tarixi, iqlimi, flora va faunasi, tabobati, aholisi, diniy hayot, qurilish ishlari va mahsulotlari, kommunikatsiya va transport tizimi, kiyim-kechaklar, qishloq xo'jaligi va boshqa masalalarga oid ma'lumotlar aks etgan. Asar muallifning 1896–1899-yillar oralig'idagi izlanishlari asosida nashrga tayyorlangan.

V. Xolov

[1] *Belveder* – balandlikdagi shiypon.

[2] *William Eleroy Curtis.* «Turkestan "The Heart of Asia"»// Hodder and Storghton, New York. 1911. P. 99.

[3] *Ole Olufsen.* The Emir of Bokhara and his country. Copenhagen, 1911.

@tarixchi_kitoblarga

Buxoro nabototi[1]

...Tog'li hududlarda, 3000 metr balandlikda qora archa, qayin va yovvoyi gullar o'sadi, hatto ba'zi joylarda ularning 3950 metr balandlikda o'sganligi ham kuzatiladi. Hisor tog'larida ham archalar taxminan 3000 metr balandlikda, Qizilsuv [Surxob] vodiysida 3400 metr balandlikda o'sadi. Oloy tog'larida 2600–2700 metr balandlikda chakanda va tollar uchraydi. Bu esa, shunday balandliklarda yashashga moslashgan arxarlar va tog' echkilari uchun ozuqa bo'lib xizmat qiladi.

...Mintaqada ignabargli o'simliklar umuman uchramaydi. Kichik o'rmonlar bo'lib, ularda tol, terak, tog'terak, shumtol, qayin, chinor, yovvoyi tut, o'rik, nok, olma, yong'oq va xandon pista kabi kichik daraxtlar o'sadi. Ulardan pastda atirgullar, qora uzumzorlar, Bektoshi uzumlari, malina, krijovnik ... o'sadi. Bular orasida tol va terakzorlar bo'lgan.

...Tog'larning etagida, ayniqsa, Bobotog'ning shimoliy etaklarida va Sherobod atrofidagi Boysun tog' tizmalarida pista o'sadi. Zarang va butalar ham tog'lar orasida hayot baxsh etib turadi. Qo'rg'ontepa atroflarida esa tolzorlar, terakzorlar, Amudaryo bo'yidagi dashtlarda jiyda va saksovullar o'sadi. Oloy tog' tizmalarida ham archa va yulg'un, har xil tol, terak, zirk, olxo'ri va ilonpechak o'sadi.

Hisor tog'larida archalar qalin o'sganligi uchun, ularda bir qarashda archadan boshqa hech narsa ko'rinmaydi. Ba'zi tog'larning yonbag'irlarida o'simliklar qalin o'sadi va ularning bo'yi 1–1,5 metrgacha yetib, to'qay va chakalakzorlarni hosil qiladi.

Darhaqiqat, Buxoroning iqlimi daraxtlarning o'sishi uchun juda noqulay. Issiq va quruq havo natijasida yoz oylarida tekisliklar va tog'li hududlardagi hamma namlik yo'qolib, barcha o'simliklar quriy boshlaydi. Shuning uchun tog'larning janubiy tomoni yozda juda sarg'ayib, shimoliy tomonda yashillikni ko'rish mumkin. Quyoshning janubdan tushishi natijasida u tomondagi o'simliklar sarg'ayib, qovjirab qolgan bo'lsa, shimoliy qismlarda quyosh nurining tushmasligi natijasida namlik saqlangan va daraxtlar hamda o'simliklar yashil tusini yo'qotmagan. Shuningdek, daryo bo'ylari, vodiylar va sun'iy sug'orishga asoslangan yerlarda ham yashillikni ko'rish mumkin. Barcha tog'li hududlar, tekisliklarda terak va tol daraxtlari o'sadi, lekin bu daraxtlar ekin yerlarida o'smaydi.

...Bundan tashqari, mintaqada yaxshi soya beradigan qayrag'och daraxti o'sadi va uni hatto muqaddas daraxt deb hisoblashlari ham qayd etilgan. Mintaqaga kirib kelgan ruslar akatsiya daraxtini olib kelganlar va uni o'zlari qurgan posyolka hamda shaharlarda o'tqazganlar. Masalan, 1896-yilda 3000 kishi yashaydigan yangi Buxoro [Kogon] temir yo'l stansiyasi joylashgan hudud shu turdagi daraxtlar bilan ko'kalamzorlashtirilgan.

[1] *Ole Olufsen.* The Emir of Bokhara and his country. 1911. P. 269–271.

@tarixchi_kutubxonasiga

Unumdor yerlarga bo'lgan ehtiyojning oshishi, yerlarning o'zlashtirilishi, ularda o'rik va boshqa mevali daraxtlarning ko'paytirilishi natijasida tabiiy o'rmonlar maydoni qisqarib ketdi. O'rmonlarga landshaft naqshi sifatida ehtiyoj unchalik sezilmaydi, chunki har bir vohada mevali daraxtlar kichik bir o'rmonni tashkil etadi. Aholi mevali daraxtlar va gullarni juda yaxshi ko'rganligi ham mevali daraxtlarning ko'p bo'lishiga va bog'dorchilikning rivojlanishiga sabab bo'lgan. Dashtli hududlarning o'zlashtirilgan qismlarida va tog' atroflarida yurgan kishi mevali daraxtzorlarning bir-biriga tutashib ketganligini kuzatishi mumkin. Ular issiqda yo'lovchilarning quyosh tig'idan saqlanishi uchun ham xizmat qiladi, o'tkinchilar tol, terak, qayin va mevali daraxtlar soyasida hordiq chiqaradilar. Kunni issiq sahroda o'tkazgan odam tunda bu daraxtzorlarda o'zgacha huzur va halovatni his qiladi.

Buxoro hayvonoti[1]

...Garchi mintaqaning sezilarli qismi tog'lardan tashkil topgan, o'rmonlari oz miqdorda bo'lib, juda katta qismi o'zlashtirilmagan cho'l va dashtlardan iborat bo'lsa-da, uning faunasi juda boy va juda ko'p mahalliy turlar hamda boshqa joylardan kelib qolgan jonzotlardan tashkil topgan. Cho'llarda suv yetishmovchiligi mavjud bo'lib, yoz jaziramasi sababli ko'plab hayvonlar bu yerda yashay olmasa-da, tabiiy sharoitlarga moslashgan va yuqori yozgi haroratga chiday oladiganlari ham bor. Cho'l va dashtlarda o'suvchi buta va o'simliklar yozda suvsizlikdan sarg'ish tusga kirib, bu yerdagi sut emizuvchilarni va boshqa turlarning issiqdan himoyalanishi uchun xizmat qilish bilan birga, hayvonlarni ham qisman ko'rinmas turga o'zgartiradi. Ayniqsa, junlari sariq tusdagi sut emizuvchi hayvonlarni quruq havoning salbiy ta'siridan himoyalash bilan birga, ularning tezda ko'zga tashlanishining oldini ham oladi. Shuning uchun cho'llardagi jonzotlarni doim ham payqashning imkoni bo'lmagan. Chunonchi, sarg'ish yoki kulrang rangdagi ilonlar va kaltakesaklar ko'p bo'lsa-da, ular deyarli o'tkinchilar ko'ziga tashlanmaydi. Shuningdek, toshlardan tashkil topgan va o'rmon qismlari bo'lmagan tog'lar bir ko'rinishidan hayvonlar yashamaydigan joydek taassurot uyg'otsa-da, ularda ba'zi turdagi ko'p sonli yirik hayvonlar yashaydi. Baland tog' mintaqalarining juda tik jarliklari va toshlari hayvonlarga boshpana bo'lib, baland va tik qiyaliklar bunday sharoitga moslashgan jonzotlarning yirtqichlar ta'qibidan tez qochishiga yordam beradi. Amudaryo va boshqa daryolarning chakalakzorlari, past bo'yli butazorlari ko'p hayvonlarning yashashlari uchun qulay tabiiy sharoitni yaratib bergan.

[1] *Ole Olufsen.* The Emir of Bokhara and his country. P. 272–280.

@tarixchi kutubxonasiga

Venetsiyalik mashhur sayyoh Marko Polo asarida ham Pomir qo'ylarining yovvoyi zoti – arxarlar haqida keltirilgan. Bu turdagi jonzotlar nafaqat Pomir etagidagi cho'l va dashtlarda, balki shimoli-g'arbiy Pomir atroflarida ham yashaydi. Bu g'aroyib jonzotlarning yirik to'dalarini Qizil-artdan Yashilko'lga ketayotganini ko'rdim. Bu jonzotlar asosan dengiz sathidan 4300 metr yuqorida yashashga moslashgan bo'lib, faqat qalin qor yoqqandagina pastga tushishadi. Ularning yaylovlari odatda 4300–5500 metr balandlikda joylashgan. Arxarlarni ovlash ham juda murakkab bo'lib, ovchidan kuchli sabr-toqatni talab qiladi.

Men yurtimga, Kopengagendagi Zoologiya muzeyiga olib borgan turlar kamida 800–900 metr uzoqlikdan otilgan. Qirg'izlar yirik va o'ziga xos shoxli arxarlarni qo'chqor deb ham ataydilar. Arxarlar Pomirdan tashqari Zarafshon tog'larida ham yashaganligi qayd etiladi. Arxarlar juda harakatchan hayvon sifatida ta'riflangan: ularning kattaligini yevropalik tadqiqotchilar Norvegiya ponilariga taqqoslab, shoxlarining qo'chqornikiday yirik va burama ekanligini yozishadi. Uning terisi esa, qo'ynikidan ko'ra qo'chqornikiga o'xshashi qayd etilgan. Arxarning juni juda qalin bo'lib, terisi mo'ynali kiyimlar uchun ko'p ishlatiladi. Men tog'da 40 darajadagi sovuqda ham bir necha hafta davomida arxar terisiga o'ranib, juda issiq, xuddi Yevropada to'shakda uxlaganday uxladim. Arxarning soqoli bo'lib, ularning juni to'q qoradan tanasi bo'ylab rangpar bo'lib boradi. Uning shoxlari taxminan 45 kilogramm, o'zining vazni esa taxminan 270 kilogramm keladi. Shoxlarining umumiy uzunligi 1,66 metrgacha yetib, ikki uchi orasidagi masofa 1,40 metrgacha bo'ladi.

O'rta Osiyo tog'lari va ularning yonbag'irlarida yashagan hayvonlar turlaridan yana biri tog' echkisi bo'lib, bu turdagi hayvonlar Pomirda, xususan, G'arbiy Pomirdan shimolga qarab Oloy tizmalarigacha va Sharqiy Buxoro tog'larida uchraydi. Ba'zilar uni kiyik deb ham ataydilar... Daniya tadqiqotchilarining ikkinchi Pomir ekspeditsiyasi a'zolari tog'da ulardan bir necha yiriklarini otganlar. Ularning rangi odatda arxarlardan yorqinroq bo'lsa-da, uzoq masofadan ularni bir-biridan ajratish qiyinchilik tug'diradi. Bu ikki turdagi yirik hayvonlarning bir to'dada yoki yaylovda birga yashashi hech kuzatilmagan.

Buxoroning tog'li hududlarida kiyik bolalari ko'pincha tutqunlikda saqlangan. Asosan beklarning uylarida tutqunlikdagi kiyikchalarni ko'rish mumkin. Shunday bo'lsa-da, bu jonzotlarni katta qilish imkonsiz bo'lib, ular o'rgatilgan itga o'xshab qolgan, ammo yoshligidayoq o'lib ketgan. Buning sababi sifatida ularning faqat tog'larda – kislorod kam bo'lgan balandlikda yashay olishi ko'rsatiladi.

O'rta Osiyo hududida boshqa yirik hayvonlardan tashqari antilopalar, kiyiklar va yovvoyi eshaklar qayd etilgan bo'lib, ular mahalliy aholi tomo-

@tarixchi_kutubxonasiga

nidan yirik kulrang itlar yordamida ovlangan. Antilopalarning Pomirda yashashi haqida ham yozib qoldirilgan.

...Yirtqich ov qiluvchi hayvonlardan biri sifatida shoh yo'lbars qayd etiladi. Ular Amudaryo bo'ylab Sharqiy Buxoro tog'laridan to Orol ko'ligacha bo'lgan janubiy o'lkalarda to'qayzor va chakalakzorlarda yashaydilar. 1898-yilda Buxoro vohasida yurgan bu turdagi bir juftlik bilan rus askarlari to'qnash kelganlar. Ikkala yo'lbarsning halokatiga olib kelgan bu to'qnashuv natijasida bir rus askari o'lgan va bir nechtasi jiddiy jarohat olgan. Shundan keyin Amudaryo deltasi atroflarida yiliga bir necha yo'lbarslar o'ldirilgan. Natijada, bu turdagi hayvonlar soni keskin kamayib ketdi.

Tog'li hududlarda ayiqlarni tez-tez uchratish mumkin. Shuning uchun bu o'lkalarda mahalliy aholi tunda ko'chaga chiqishga qo'rqadi. Ayiqlarning ikki turi tarqalgan bo'lib, birinchisi yirik sariq ayiqlardir. Ular Yevropada «ursus izabellinus» deyilgan. Bu Himolay faunasi toifasiga to'g'ri keladi. Ikkinchi toifasi kichikroq bo'lib, ularning rangi kulrangga monand jigarrang, siyrak, ammo uzun junli bo'lgan. Ular Yevropada «ursus leukoniks» deyiladi. Ular asosan qalin chakalakzorlarda va daraxtzorlarda, shuningdek, daryolarning yuqori qismi va ko'llarda yashaydi. Ayiqlar mahalliy aholining suruvlariga tez-tez hujum qilib turadi. Qorategin begi bilan bo'lgan suhbat chog'ida u menga ayiqlarning xonaki hayvonlar podasiga hujum qilib, katta talafot keltirganligini so'zlab berdi.

Tog'li hududlarda keng tarqalgan yana bir yirtqich jonzot qoplonlar (leopardlar) sanaladi. Uni Yevropada «Feliz irbis» deb yuritishadi. Uni Oloy va Pomir tog'larida ham uchratish mumkin. Juni qalin va oq rangda bo'lib, unda qora dog'lar mavjud, tanasi uzun, dumi esa tanasidan ham uzun, tana tuzilishi bo'rinikiga o'xshab ketadi. Ular soni ko'p bo'lib, chorva hayvonlariga tez-tez hujum qilib turadilar. Qishda bo'rilar va qoplonlar ov qilish uchun tog'dan pastga tushib, uy hayvonlarini ovlaydilar. Masalan, 1898-yilga oid ma'lumotlarda bir bo'ri va bir qoplonning molxonada o'ldirilganligi haqida ma'lumot keltirilgan. Ularning birini ho'kiz, ikkinchisini odamlar o'ldirganlar. Tadqiqotchilar o'z kuzatuvlaridan kelib chiqib, leopardlarning archazor va tolzorlarda vaqt o'tkazishni yoqtirishini ta'kidlaydilar.

Tog'li tumanlarda yiliga bir necha leopardlar o'ldirilib, ularning jun bilan qalin qoplangan chiroyli mo'ynasi shaharlarga sotish uchun olib chiqilgan.

Ko'p sonli kalta dumli kulrang sariq dasht bo'rilari tog'larda hamda past-balandliklarda yashaydi. Pomirda ular asosan arxarlarni ta'qib qilishadi, ammo qishda inson uchun ham xavfli bo'lishi mumkin. Bo'rilarning terisi, ayniqsa, ko'rpa-to'shak uchun juda mosdir.

@tarixchi_kutubxonasiga

Mahalliy aholi odatda loydan qilinib, gilam to'shalgan polda uxlaydi. Ularning fikricha, bo'rining terisi ustida uxlash Sharqda keng tarqalgan revmatizmdan saqlaydi. Bo'rining terisi bir necha rubl turgan bo'lsa, leopardning yaxshi terisi 6–8 rubl turadi. Chiyabo'rilar ko'proq Sharqiy Buxorodan Amudaryo oqimi bo'ylab yoyilgan to'qaylar va chakalakzorlarda yashaydi. Ularning soni juda ko'p bo'lib, ularni deyarli hamma joyda uchratish mumkin.

Tog' hududlarida tulkilarning ikkita turi, xususan, dasht tulkilari «Canis vulpes» va «Canis melanotis» hamda juda noyob bo'lgan «Canis alpinus» uchraydi. Dastlabki ikkita turdagi tulkilar qirg'iz, tojik va o'zbeklar tomonidan xo'rak joylashtirilgan oddiy tuzoqlar orqali juda ko'p ovlanadi. Tulkilarning terisi odatda mahalliy aholi tomonidan sovg'a sifatida ishlatiladi. Yozda amaldorlar shakar barglarini sovg'a qilsa, tulkining terisi qishda asosiy sovg'a hisoblanadi. Mahalliy aholi tulkilarni ovlash bo'yicha juda katta tajribaga ega bo'lib, ularni ovlash erkaklarga zavq beradi. Barcha tulkilarning jussasi nisbatan kichikdir. Ularning rangi shimolda uchraydigan qizil tulkilarga emas, balki bo'rilarning rangiga o'xshaydi. Ularning dumi qalin va paxmoq bo'lib, juni juda nafis va yuqori baholanadi. Bir tulki terisi bozorlarda 50–70 kopeyk oralig'ida sotiladi.

Shuningdek, tog'li hududlarda bo'rsiqlar va silovsinlar ham keng tarqalgan. Bundan tashqari, tog'li hududlarda yashaydigan yana bir keng tarqalgan tur o'lchami tulkinikidek bo'lgan sug'urlar bo'lib, ularni deyarli barcha joyda uchratish mumkin. Yoz faslida Oloy va Pomir atroflarida ularni minglab sanash mumkin, chunki bu vaqtlarda inlaridan tashqariga chiqadilar. Ular yerlarni kavlab tashlaydilar. Juda qo'rqoq bo'lib, inlaridan faqat oziqlanish uchun, uzoq bo'lmagan masofaga chiqadilar. Bu paytda ularning qo'riqchilari atrofni sinchkovlik bilan kuzatib, xavf sezganda o'ziga xos ovoz chiqaradi va hamma sug'urlar ularga javob qaytarib, zudlik bilan inlariga kirib ketishadi. Ularning mo'ynasi qalin, rangi kirlangan sariq va o'zidan juda yoqimsiz hid taratadi.

Tog' suvsari, latcha, yovvoyi mushuklar va qunduzlar ham juda keng tarqalgan. Sichqonlarni hamma yerda, hatto 4500 metr balandlikda ham uchratish mumkin. Shuningdek, cho'llarda qo'shoyoqlar ham keng tarqalgan. Kalamushlar ham keng tarqalgan bo'lib, ularni 3900 metr balandlikda ko'rishgani haqida yozib qoldirilgan. Quyonlar hamma yerda – cho'llarda, dashtlarda va tog'larda uchraydi. Tog' qoyalarida ularni son-sanoqsiz miqdorda uchratish mumkin. Bu jonzotlar odamlardan unchalik hadiksiramaydi, ularni qo'l bilan ham tutish mumkin. Ammo, ularni uzoq vaqt qo'lda ushlab turishning imkoni yo'q. Sababi, ular qutulish uchun keskin harakatlanib, qo'llarni tirnab tashlaydi. Buxoroliklar uning go'shtini iste'mol qilmaydi. Yana bir tur hayvon yovvoyi to'ng'iz

@tarixchi_kutubxonasiga

bo'lib, u daryolar bo'yida yashaydi. Ammo, u mahalliy aholi tomonidan ovlanmaydi...

...Yovvoyi qushlar juda keng tarqalgan. Men ulardan eng ko'zga ko'ringanlarini keltirib o'taman. Pomir va Qorategin hududlarida katta jigarrang burgutlar juda ko'p uchraydi. Shuningdek, bu tog'larda qirol burgutlari [yoki qironqora] yashaydi. Bundan tashqari, ba'zida tasqaralar ham uchrab turadi. Mamlakat bo'ylab sayohatim davomida men ulardan bir nechtasini ko'rdim. Tog'da oq boshli ikkita qora tasqarani ko'rdim. Ammo Buxoro atroflarida yuqorida aytilgan turlarni uchratmadim. Ko'p sonli katta va kichik turdagi lochinlar ham keng tarqalgan qushlardan sanaladi. Ulardan ovda keng foydalanilgan. Qora va qizil tumshuqli qora qarg'alar gala bo'lib, tog'lar va tekisliklarda yashaydi, ular ko'pincha katta terak va tollarda in quradi. Ularning ovozi baland bo'lib, ba'zan suhbatdoshlar bir-birini eshitishining imkoni bo'lmaydi.

...Qushlarning yana bir guruhi noodatiy ko'k qarg'alarning bir turi bo'lib, ular chiroyli, ko'k va qizil rangdadir. Ular mintaqa bo'ylab keng tarqalgan, ko'rinishidan juda chiroyli bo'lsa-da, ovozi juda shovqinli va yoqimsiz. Qushlarning keng tarqalgan turlaridan yana biri zag'izg'onlar bo'lib, ularni hamma yerda uchratish mumkin. Zag'izg'onlar mevalarga hujum qiladi. Kuz mavsumlarida dashtlarda yirik va yoqimli tuvaloq galalarini uchratish mumkin. Shuningdek, Amudaryo sohillarida tustovuqlar uchraydi. Daryolardagi orolchalarni g'oz va o'rdaklar makon tutgan. Bahor va kuzda vodiylarda suruv boqib yurgan cho'ponlar va chiroyli chug'urchuqlarni ko'rish mumkin, yozda esa Amudaryo atroflarida turli rangdagi uzun tumshuqli yaltiroq qarqunoqlar uchraydi.

Bahorda dashtlarda va daryolarda, yozda esa tog'larda va qishloqlar atrofidagi sug'orish kanallari atrofida oyoqlari qizil va uzun bo'lgan zuyok, loyxo'rak, o'txo'rni doimiy mehmon deyish mumkin. Bundan tashqari, Amudaryo atroflarida sariq qarqarani ham ko'rish mumkin, laylaklar mahalliy aholi tomonidan muqaddas qush sifatida qadrlangan. Mahalliy aholi ularni laklak deydi. Bulbullarni Xiva va Buxoro hududlarida tez-tez uchratish mumkin. Turkiston hududlarida ularning soni juda ko'p bo'lib, hattoki bulbullarning xonishi tunda odamlarga uyqu bermagan.

@tarixchi_kutubxonasiga

2-§. FRANSUZ TILIDAGI MANBALAR

MOSER HENRI «L'IRRIGATION EN ASIE CENTRALE: ÉTUDE GÉOGRAPHIE ET ÉCONOMIQUE». («MARKAZIY OSIYODA SUG'ORISH TIZIMI: GEOGRAFIK VA IQTISODIY TADQIQOTLAR»)[1]

Henri Mozer [Henri Moser, 1844 – 1923] – shveysariyalik mashhur sayyoh. Markaziy Osiyo mintaqasiga to'rt marotaba [1868–1869,1870, 1883–1884, 1889–1890-yillarda] sayohat uyushtirgan. Henri Mozerning 1890-yildagi tadqiqotlari natijasida yozilgan mazkur asarda[1] Markaziy Osiyoning tabiati, tuprog'ining o'ziga xos xususiyatlari, vegetatsiya tizimi, iqlimi, shamolning tezligi masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, qadimda So'g'diyona, Marg'iyona, Baqtriya va Marvda mavjud bo'lgan sug'orish tizimi, Amudaryoning qadimgi kanallari, Sirdaryo yaqinida oqib o'tgan ariqlar o'rganilgan. Lalmi va obi kabi Markaziy Osiyo sug'orish tizimining yo'nalishlari sharhlanib, uni boshqarish va tashkillashtirish amaliyoti, Zarafshon vodiysidagi, Buxoro amirligidagi sug'orish tizimlari hamda hal etilishi va kelajakda amal qilinishi kerak bo'lgan dolzarb muammolarga e'tibor qaratiladi.

Mazkur asarda muallif eksport qilinadigan asosiy mahsulotlar (paxta, jun gazlama, ipak, paxta yog'i) ro'yxatini ham ilova qilib, unda ularni yetishtirish tartibi, hosildorlik samarasi qayd etiladi. Quyida asardan qisqacha tarjimalar keltirildi.

t.f.n. D. Rasulova

Paxtachilik[2]

Markaziy Osiyoda paxtachilik juda qadimiy tarixga ega bo'lib, yunonlar makedoniyalik Aleksandr zamonidan boshlab Baqtriyada paxta yetishtirilishi qayd etilgan. Hindiston esa paxtaning vatani bo'lsa kerak. Markaziy Osiyoda yetishtiriladigan paxta navi «Gossypium herbaceum» turiga mansub bo'lib, «G'o'za» deb nomlanadi. Bu yerda oq ingichka tolali va «Malla g'o'za» deb nomlanadigan sariq tolali navlarni uchratish mumkin. Hech qaysi sanoat o'simligi Turkistonda Amerika navli paxta singari tez va keng tarqalmadi. U xonliklardan eksport qilinadigan mahsulotlar ichida yetakchilik qiladi.

Hozirgi kunda mahalliy g'o'za navi Amerikaning *«Upland»* navli paxtaga o'z o'rnini bo'shatib bermoqda. Mahalliy bozorlarda Amerika navli paxtaning bir pudi [16 kg] g'o'zadan ko'ra 3 rubl qimmat sotilmoqda.

---

[1] *Moser H.* L'Irrigation en Asie Centrale: étude géographie et économique. – Paris: Societe d'edition scientifique, 1894. – 379 p.

[2] O'sha asar. 319–346-betlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

Markaziy Osiyoda g'o'za urug'ini yerga qadab, hosilni terib olgunga qadar 4 oy vaqt kerak bo'ladi. 13–14 darajadagi mo'tadil haroratdan boshlab, tajribaga ko'ra 100 kun issiq va quruq yoz havosi ham talab qilinadi. Gullash urug' ekilgandan so'ng 70–80 kundan keyin boshlanadi.

...Uchinchi sug'orish bu hukumat ixtiyoridagi masala bo'lib, bunda yerning quruq yoki namlik holati inobatga olinadi. Namlik miqdori yetarli bo'lsa, yer sug'orilmaydi. Har bir keyingi sug'orish jarayonida oldingidan ko'ra kamroq suv miqdorini ishlatish paxtachilikning asosiy tamoyili hisoblanadi. Chunki, keragidan ortiq suv berish paxtaga ziyon keltiradi.

Agar barglari sarg'ayadigan darajada kuchli ehtiyoj sezilmasa, gullagan paytida mahalliy aholi paxtani sug'ormaydi. Chunki, gullagan paytida paxtani sug'orish hosildorlikning pasayishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu paytdagi sug'orish hosilning ko'payishiga emas, aksincha poyada yangi barglarning o'sib chiqishiga olib keladi. Amaliyotdan ma'lumki, «yangi vegetatsiya» jarayonlari hosilning kamayishiga sabab bo'ladi[1].

...So'nggi yillarda Markaziy Osiyoda paxtachilik juda keng tus oldi. Ko'rib turibmizki, 1870-yildan to 1882-yilgacha Rossiyaga eksport miqdori ikki barobar oshdi. Bugungi kunda Rossiyaning ¾ qism yigirilgan paxta tolasi Markaziy Osiyo hududlariga to'g'ri kelmoqda. Kaspiyorti temir yo'lining ochilishi bilan paxtani olib ketish hajmi yiliga ikki hissa oshmoqda[2].

Amerikaning «*Upland*» navli paxtasi Markaziy Osiyo hududida har desyatina yerdan 25–30 pud hosil bersa, Amerikaning o'zida bu ko'rsatkich 30–40 pudni tashkil etadi. Bunday kamchiliklarga qaramasdan paxtadan yaxshi daromad olinadi. Chunki, Markaziy Osiyoda ishchi kuchi arzon bo'lib, qishloq joylarida doimiy bir narx bilan belgilanmagan. Yarim kun uchun 1 tangani tashkil etadi [yoki 60 dan 90 santimgacha][3].

Amerika navli paxta narxi bo'yicha mahalliy g'o'zadan 3 rubl qimmat tursa-da, mahalliy fermerlar[4] uni ekishni hozirgacha rad etib turibdi. Sababi, ushbu navli paxta juda katta e'tiborni va mehnatni talab etishi bilan birga, urug'i ham qimmat hisoblanadi. Amerika qishloq xo'jaligi texnikasi, ayniqsa pluglar va mashinalar barcha joyda keng tarqalmaguncha ushbu navli paxta ekish va yetishtirish ham keng tus ololmaydi.

---

[1] Moser H. L'Irrigation en Asie Centrale: étude géographie et économique. – Paris: Societe d'edition scientifique, 1894. – P. 325.

[2] O'sha asar. – P. 328.

[3] O'sha asar. – P. 332.

[4] «*Fermer*» so'zi o'sha davr iqtisodiy hayotida muomalaga kiritilmagan bo'lsa ham, asarda shartli ravishda muallif yer egasiga shunday deb murojaat etgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Chorjuy – juda ham oq rangli, ingichka va uzun tolali paxta navi bo'lib, uning yigirilishi oson, qiymati esa 50 kg uchun 75–80 frank. 1889-yili mening rahbarligimda Amudaryo hududidagi fermada – general Mixail Annenkovga qarashli dalada mening shaxsiy tajribam asosida «Chorjuy» navli paxta yetishtirildi[1]. Xususan, chigit qadashdan boshlab, paxtani chopish va hosilni yig'ib olishgacha bo'lgan jarayonlarda ishni boshqarib turdim.

«Fièvre du coton» – «Paxta talvasasi» so'nggi yillarda kuchayib, ayniqsa yevropalik emigrantlar orasida keng tarqaldi. Harbiylar, mansabdorlar va savdogarlar qizg'in o'yin sifatida unga berilib ketmoqda[2].

Markaziy Osiyoda yashash uchun kerak bo'ladigan shaxsiy xususiyatlar – mustahkam sog'lik, intellektual hayotdan ixtiyoriy ravishda voz kechish, o'lka iqtisodiy jihatdan nihoyatda foydali bo'lganligi bois hamma narsaga e'tiborli bo'lishni talab etadi.

Shunday muhim masalalardan biri sifatida sug'orish tizimi xususida Rossiyaliklar tomonidan qilingan barcha ishlarda jiddiy kamchilik va nuqsonlar ko'p. Chunki, ularning birortasini rejalashtirish va bajarishda rus muhandislari oldindan maxsus tayyorgarlik ko'rmagan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, faqat sartlarning fermer yoki mahoratli mirob sifatidagi yordami bilan kelajakda ijobiy yoki foydali natijalarga erishish mumkin[3].

...Olib borgan tadqiqotlarimdan kelib chiqib aytish mumkinki, Turkistondan Yevropaga eksport qilinishi mumkin bo'lgan asosiy mahsulotlar yaxshi foyda beradi. Men ular ichida muhimligi bo'yicha birinchi o'rinlarda jun, pilla, yong'oq, paxta yog'i va uzumdan tayyorlangan vino mahsulotlarini qo'ygan bo'lar edim[4].

...Turkistonda jun yetishtirish paxtadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Qiymati bo'yicha Avstriya jun tolasidan keyingi o'rinni egallasa-da, kelajakda mutaxassislarning e'tiboriga sazovor bo'lishi aniq.

Markaziy Osiyoda jun tolasi yetishtirishning asosiy manbasi hisoblangan qo'ychilik yaxshi rivojlangan bo'lib, maxsus amaliy bilimlar zaxirasiga asoslanadi. Shuni aytish joizki, mintaqada yaylovzorlardan foydalanganlik uchun pul to'lanmaydi. Ko'chmanchi cho'ponlar, xivaliklar, buxoroliklar

[1] «Ferma» iborasi ham muayyan hududiy birlikka ega bo'lgan yer maydoni va uning mas'ul egasi mavjudligidan dalolat bergan yer uchastkasiga ishora sifatida muallif tomonidan tilga olingan.

[2] *Moser H.* L'Irrigation en Asie Centrale: étude géographie et économique. – Paris: Societe d'edition scientifique, 1894. – P. 341.

[3] O'sha asar. – P. 345.

[4] O'sha asar. – P. 328.

@tarixchi_kutubxonasiga

va qirg'izlar faslga qarab o'z suruvi bilan bir yanchilgan yaylovni tark etib, boshqa yangisini topishga oshiqadilar.

...Kazalinsk va Xiva tuya yungini sotish va sotib olish uchun asosiy mahalliy bozorlar sanaladi. Bu xomashyo sifatida Moskvaga ham jo'natiladi. Markaziy Osiyodagi so'nggi sayohatim davomida shunga amin bo'ldimki, xorijliklarning aksariyati mahalliy bozorda oldin xaridori bo'lmagan qo'y terisi va yungini sotish, sotib olish bilan shug'ullanishmoqda[1].

Bulung'ur loyihasi[2]

Bulung'ur Samarqandda paydo bo'lgan eng katta ariqlardan biridir. U Samarqandning shimoliy hududini suv bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Ushbu ariq xususida mening taklif etayotgan loyiham shundan iboratki, 5000 desyatinadan iborat yerni samarali sug'orish ishlarini tashkil etish lozim. Bu yerlar hosildor bo'lib [birinchi klass yerlari – H.M.], qachonlardir kultivatsiya qilingan. Samarqanddan 30 verst uzoqlikda joylashgan ushbu hudud baland tog'lar va yaylovlar orqali shimoliy shamollardan to'sib, himoya qilinadi. Bu yerlarni sotib olish Buxoro oltin tangalari qiymatining yuqoriligini inobatga olgan holda, uning hukumatiga hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi.

Loyihani amalga oshirishda toshlardan iborat damba qurish, kanalning suv sathini yoki shlyuzlar tizimi darajasini ko'tarishdan iborat. Afsuski, buning uchun rus muhandislarining gidrotexnik tajriba va bilimlari yetishmaydi.

5000 desyatina yer o'ziga yarasha miqdordagi suvni talab qilib, uni faqat Zarafshon daryosidan yoki Buxoro oazisidan olishi mumkin. Ammo, ushbu konsessiya amalga oshmaydi. Lekin ayrim tog' irmoqlari suvlaridan unumli foydalanish muammolarni kamaytirishga yordam beradi. Garchi to'xtab-to'xtab davom etsa-da, yomg'ir fasllaridan va suvlaridan samarali foydalanish zarur. Buning uchun sun'iy yaratilgan suv omborlari va shlyuzlarni yomg'ir suvlari bilan to'ldirish va kerakli paytda sug'orish uchun foydalanish talab etiladi.

Bulung'ur loyihasi jiddiy masala bo'lib, mening nazarimda qobiliyatli va tajribali gidrotexnik-muhandis rahbarligida bajarilishi lozim. Chunki asosiy masala hisoblangan paxtachilik so'nggi yillarda Samarqandda yaxshi ko'rsatkichlar bermayapti. Sababi, Samarqandda nafaqat paxta navi past darajada, balki iqlimiy sharoit ham ta'sir ko'rsatmoqda. Haqiqatan, Samarqand 2154 fut balandlikda joylashgan bo'lib, Toshkentdan deyarli 1000 fut yuqori-

[1] *Moser H.* L'Irrigation en Asie Centrale: étude géographie et économique. – Paris: Societe d'edition scientifique, 1894. – P. 350.

[2] O'sha asar. – P. 358–360.

@tarixchi_kutubxonasiga

da o'rin olgan. O'z navbatida kuzgi sovuq havo va bahorgi yomg'irlar paxta hosildorligiga ziyon yetkazib, ayrim holatlarda ko'chatlarning tamomila qirilib ketishiga olib kelgan[1].

JOSEPH-ANTOINE CASTAGNÉ «NOTES DES VOYAGE EN ASIE CENTRALE» («MARKAZIY OSIYODAGI SAYOHAT XOTIRALARI»)[2]

J. Kastanye (1875–1958) boshqa sayohatchilardan farqli ravishda qariyb 10 yil (1902–1921) o'lkada yashab, deyarli barcha joylarida bo'lgan. Kollejni tugatgandan so'ng avval Pyatigorskka, 1902-yildan boshlab esa Orenburg shahriga borib, fransuz tilidan dars bera boshlagan. Bo'sh paytlarida qozoqlar hayoti, cho'l joylarini hamda qabrtoshlardagi yozuvlarni o'rganib, ma'lumotlar to'plagan.

1905-yilda Toshkentda bo'lgan J. Kastanyening safar xotiralari Normandiya geografiya jamiyati byulletenida «Markaziy Osiyodagi sayohat xotiralari» nomli mavzuda chop etilgan.

Unda Toshkentning aholisi, yashash turmush tarzi, bozorlari, madrasalari, shuningdek, aholining ijtimoiy-madaniy hayoti batafsil yoritilgan. Muallif mahalliy aholi mentalitetini yaxshi tushunganligi sababli ham boshqa fransuzzabon tadqiqotchilardan farqli ravishda aholining moddiy va ma'naviy hayotini oson va tushunarli holatda tavsiflab bergan.

Toshkent

«Men Turkiston poytaxti deb tan olingan Toshkent shahriga uchinchi marotaba tashrif buyurdim va manzara mening oldingi sayohatlarimdan sezilarli darajada o'zgarmagan. O'sha uzun tor va chang ko'chalar, shaharning ko'plab tor ko'chalari ichidan o'tib boradigan ariqlar. Ekinlarga qo'l bilan ishlov beradigan mahalliy aholisi ham o'zgarmagan.

Toshkent – ma'muriy va harbiy shahar bo'lib, ikkita tamomila bir-biridan farq qiladigan qismlardan iborat. Birinchisi – yashil o'simliklarga burkangan, atrofi bog'lar va parklar bilan o'ralgan uylar, shuningdek, yangicha turdagi do'konlarga ega bo'lgan zamonaviy rus shahri. Ikkinchisi – labirintga o'xshash ko'chalar va bozorlarga ega bo'lgan eski shahar. Uning aholisi

[1] *Moser H.* L'Irrigation en Asie Centrale: étude géographie et économique. – Paris: Societe d'edition scientifique, 1894. – P. 359.

[2] *Castagné J.* Notes des voyage en Asie Centrale. – Rouen: Imprimerie E. Cagniard, 1908. – 17 p.

@tarixiy_kutubxonasiga

M. Chernyayev bosqinidan so'ng atigi 2 000 kishiga ko'paygan bo'lsa, yangi shaharning doimiy yashaydigan aholisi 20 000 kishini tashkil etadi[1].

...Tez orada men mahalliy aholining urf-odatlari va an'analari bilan yaqindan tanishish hamda dunyodagi turlicha qadriyatlar haqida ma'lumot to'plash uchun bu ikki shahar o'rtasida qatnaydigan tramvayga minib, Eski shaharga yo'l oldim.

Buning uchun mening oldingi tashriflarimga hamrohlik qilgan Abdurahmon ismli mahalliy fuqaro bilan uchrashishim kerak edi. Bir necha ko'chalarni kesib o'tganimdan keyin choyxonaga duch keldim.

Bu choyxona juda antiqa muassasa hisoblanib, yagona katta xonadan iborat jamoat joyidir. Ushbu jamoat joyidan har qanday muhim axborotni olish mumkin. Men ham Abdurahmon ismli hamrohimni hozircha topa olmasligimni aynan shu choyxonaga kirib bildim.

Uning to'ri xuddi sirkdagi kabi baland qilib ko'tarilgan, o'nlab ustunlar bilan qurilgan. Bu yerda tez-tez kuzatiladigan yer qimirlashlari uylarning buzilishiga olib keladi va shuning uchun mahalliy qurilish mustahkam, qulay va kamxarj usulda quriladi. Jihozlanishi esa undan-da jo'nroq: bir necha gilam va xontaxta. Uning atrofida esa rang-barang gullik ko'rpachalar to'shalgan. Mahalliy aholi bu yerda cho'kkalab o'tirib, kichkina chashka [piyola]larda choy ichishni xush ko'radi[2].

...Toshkent bo'ylab sayohat qilar ekanman, mahalliy aholining bag'rikengligi, mehmondo'stligi va insoniy fazilatlari e'tiborimni jalb etdi. Shuningdek, ko'chada baland ovozda kuylab yurgan darvishlar ham e'tiborimni tortib, ularning takroriy aytadigan zikrlarini qayd etdim.

Sershovqin va gavjum bozorda ko'plab choyxona va oshxona [restoran]lar joylashgan. Bunday oshxonalar usti yopiq ayvonlarda joylashgan bo'lib, u yerda yog' va qo'y go'shtining hidi ufurib turadi.

Bozorning kun davomidagi savdo-sotiq faoliyatini ta'riflar ekanman, uning jonli hayoti, olomonning ko'pligini, baqir-chaqirlardagi tortishuvlarni Parijdagi Monmartr bilan qiyoslash mumkin. Mollar maxsus ko'chalarga bo'lib joylashtirilgan. Mana matolar ko'chasi, unda mahalliy shohona ipak matolar va rangli duxobalar joylashtirilgan. Ayrim xalat [chopon]larning narxi aqlga sig'maydigan darajada qimmat. Bundan tashqari, bozorda poyabzal, atir-upa, taqinchoqlar, sarrojlar [egar-jabduq], temirchilar rastalari alohida-alohida joylashtirilgan[3].

...Xoja Ahror madrasasi Turkistonda mashhur bo'lgan shaxs nomiga qo'yilgan. Toshkentda tez-tez bo'lib turadigan yer qimirlashi masjidga jid-

[1] *Castagné J.* Notes des voyage en Asie Centrale. – Rouen: Imprimerie E. Cagniard, 1908. – P. 3.

[2] O'sha asar. – P. 4.

[3] O'sha asar. – P. 5–7.

@tarixiy_kutubxonasiga

diy zarar yetkazgan bo'lib, rus hukumatining e'tibori bilan u ta'mirlangan, ammo dastlabki qismlari to'liq tiklangan emas.

To'rtburchak hovliga ega bo'lgan masjidda madrasa ham joylashgan bo'lib, u Toshkentdagi eng ko'zga ko'ringan mashhur madrasalardan biridir.

O'quv xonalari shinam bo'lsa-da, oynalari yo'q. Yerda cho'kkalab o'tirgan talabalarning oldida oq salla o'ragan o'qituvchi ham bor. U ovozini pastlatib-balandlatib ma'ruza o'qiyotgan edi. Madrasada tahsil olayotgan talabalarning yoshi katta. Mahalliy aholi bilan bir qatorda afg'on, hind va xitoyliklar [Turkestan chinois] ham bor.

...Toshkent muzeyi boy etnografik va arxeologik kolleksiyalarga ega. Butun Turkiston tarixi bekorga vaqt sarflab izlanadigan Yevropa muzeylarida emas, shu yerdagi bir necha bo'limlarda aks ettirilgan»[1].

Shundan so'ng sayyoh muzey zallarini birma-bir sharhlab, unda yig'ilgan ekspozitsiyalarga ta'rif berib o'tadi.

3-§. NEMIS TILIDAGI MANBALAR

HANS-HERMANN GRAF VON SCHWEINITZ «ORIENTALISCHE WANDERUNGEN IN TURKESTAN UND IM NORDOESTLICHEN PERSIEN» («SHARQ SAYOHATLARI: TURKISTON VA SHIMOLI-SHARQIY ERON»)[2]

Nemis olimi, graf, infanteriya generali ***Xans-Hermann graf fon Shvaynits*** *(1851–1929) 1869-yili Drezdenda gimnaziyani tugatib, harbiy faoliyatini boshlaydi. 1870-yilning avgustida Fransiya-Prussiya urushida batayon ad'yutanti sifatida ishtirok etadi. 1870-yil 1-sentabrida Sedan jangida yengil yaralangan Shvaynits 1870-yil dekabr oyi boshidagi qisqa asirlikdan so'ng Parij qamalida ishtirok etadi. General unvonida 1910-yili iste'foga chiqqan bo'lsa-da, Birinchi jahon urushi boshlangach (1914-y.), armiyaga chaqiriladi. Urush tugagach, Germaniyadagi noyabr inqilobidan sal oldin nafaqaga chiqqan va umrining oxirigacha Drezden shahrida istiqomat qilgan. XX asr boshlarida rafiqasi hamrohligida Markaziy Osiyoga ikki marta sayohat qiladi va sayohati taassurotlarini alohida kitob qilib nashr ettirgan. Quyida olimning 1909-yildagi ikkinchi sayohati natijasida nashr etilgan asaridan ma'lumotlar keltirilgan.*

M. Yakubova

[1] *Castagné J.* Notes des voyage en asie Centrale. – Rouen, Imprimerie E. Cagniard. 1908. – 7 p.

[2] *Hans-Hermann graf von Schweinitz.* «Orientalische wanderungen in Turkestan und im nordoestlichen Persien». Berlin, 1910.

@tarixchi_kutubxonasiga

...Orolga quyilishidan 150 km masofada Amudaryo Xiva xonligi hududini sug'organ. Amudaryo suvi Nil daryosi suvi kabi loyqa va unumdor bo'lib, hosildorlikni oshiradi. Xuddi Nil kabi Amudaryo ham sersuv bo'lib, bahorda daryoning ayrim joylari kengligi 5 km.ni tashkil qiladi[1].

....Oksdan sharqda ko'chmanchi turkman qabilalari yashasa, uning g'arbida o'troq, dehqonchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanadigan aholi istiqomat qiladi. Ularning qonida eronliklar, makedonliklar, yunonlar, arablar, turklar va mo'g'ullar kabi xalqlarning qoni mavjud[2].

Ruslar Oks g'arbidagi o'troq aholini umumiy nom bilan *sart* deb atay-dilar. Lekin Xiva va Buxoroda bu nom tarqalmagan. U yerdagi aholi tojik va o'zbek deb bo'linadi. Sartlarning boshlaridagi salla ularga doim o'limni eslatib turadi. ... Buxoroning Qorako'l qishlog'i qorako'lchilik markazi hisoblangan. Bu yerda yetishtirilgan qorako'l terisi Yevropada juda yuqori baholanadi[3]...

Ruslarning Turkistonda barpo etgan dastlabki shahri Toshkentdir. Qayrag'och va teraklardan iborat xiyobon shaharga katta va qadimiy bog' ko'rinishini beradi. Barcha rus shaharlaridagi kabi vokzal shahar tashqarisida joylashgan. Toshkent ko'chalari qisman doirasimon, qisman radial qilib qurilgan. Toshkent harbiy va ma'muriy shahar bo'lib, bu yerda butun hokimiyat va ta'lim tizimi mujassamlashgan. Shaharda oliy, fuqarolik va harbiy maktablar, kadetlar uyi, qishloq xo'jalik tajriba stansiyasi, kutubxonalar, muzeylar va bir qator boshqa institutlar, kichik va katta do'konlar mavjud bo'lib, savdo-sotiq rivojlangan. Toshkent atrofida butun dunyoga ma'lum-u mashhur bo'lgan darmana [*sitvar*] o'simligi keng tarqalgan. Yevropa mamlakatlarida ushbu o'simlikka talab katta bo'lganligi bois, uning eksporti keng yo'lga qo'yilgan. Shu sababli Toshkent atrofida asosan darmana o'simligi ekilgan. Hali temir yo'llar bo'lmagan davrda [Turkiston temir yo'llari XIX asrning 80-yillarida qurilgan], bu o'simlik tuya karvonlarida oylab yurilib, sahrolar orqali Rossiyaga yetkazilgan. Yevropada darmanadan «*santonin*» moddasi olingan.

«*Santonin*» – mashhur dori hisoblanib, gijja va parazitlarga qarshi kurashishda samarali vositadir. U gijjani yo'q qiluvchi boshqa dorilar ishlab chiqilgandan keyin muomaladan chiqarildi. U juda noyob hisoblanib, dunyoning boshqa mamlakatlarida deyarli uchramaydi. U 1830-yilda Kaler va Alms tomonidan kashf etilgan. Darmana urug'ining xom gullarida ushbu moddaning 2–3%i mavjud. Ilmiy nomi – «*Artemisia maritima*». Ushbu o'simlik juda katta miqdorda Yevropaga, xususan Germaniyaga olib ketilgan va u yerdagi farmatsevtika fabrikalarida o'simlik gullariga ishlov berilib, turli

[1] *Hans-Hermann graf von Schweinitz*, ... – S. 58.
[2] O'sha asar. – S. 62.
[3] O'sha asar. – S. 65.

@tarixchi_kutubxonasiga

kimyoviy kislotalar yordamida santonin ajratib olingan. Santoninning o'zi gijja va turli qurtlar uchun zaharli bo'lmasa-da, inson organizmining osh-qozon-ichak yo'lida zaharli qismlarga parchalanib, parazitlarni o'ldiradi yoxud ularni karaxt holatga keltiradi. [Uning miqdori oshirib yuborilganda rang ajrata olmaslik kasali kelib chiqadi yoki barcha yorqin rangli narsalar sariq rangda ko'rinadi.]

O'simlik urug'ida atigi 2 % dorivor modda mavjud bo'lsa-da, bu ayrim Yevropalik tadbirkorlarning Turkistonga kelib, ishni shu yerning o'zida tashkil etishiga sabab bo'lgan. Nemis farmatsevtlari Toshkentda darmana urug'ini shu joyning o'zida to'plab, santonin dorisini tayyorlovchi fabrikalar barpo etganlar. Yevropaga esa tayyor dori jo'natilgan[1]...

...Yangi shahardan yarim soat uzoqlikda eski shahar boshlangan. Ikki shaharni bir-biri bilan Belgiya jamiyati tomonidan qurilgan tramvay bog'lab turadi. 200 000 aholisi bo'lgan shaharda turli millat vakillari tinch-totuv yashaydilar[2].

Turkiston shaharlari qariyb bir xil tarixga ega. Shahar markazida bozor joylashgan bo'lib, undagi hayot faqatgina tijoriy maqsadlarga yo'naltirilmagan. Uning atrofida tor ko'chalar qad rostlagan. Ko'chalarning derazasiz devorlari alohida hovlilarni tashqi dunyodan ajratib turadi. Bularning bari umumiy qal'a devori bilan o'ralgan. Shahar devoriga atrofi alohida devorlar bilan qurshab olingan katta-katta bog'lar tutashib ketgan. Ko'p hollarda shahar ichkarisida hukmdorning mustahkam qal'a-qo'rg'oni joylashgan.

Turkistondagi barcha devor va binolar, qal'a devorlari loydan barpo etilgan. Turkistonning iqlimiga juda mos kelgan ushbu tuproq quruq havoda toshday qotib, juda mustahkam materialga aylanadi. Tosh devorlardan farqli o'laroq, ushbu tuproqdan yasalgan devorlarni o'q bilan teshib, tosh devorlardek parchalashning imkoni yo'q. Rus okkupatsiyasidan keyin qal'a va qo'rg'onlar vayron etildi, shahar devorlarining bir qismi surib tashlandi, boshqa qismi esa ta'mirlanmaganligi bois o'zi buzilib ketdi. Sartlar shahri Toshkent ham xuddi shunday loyiha bo'yicha qurilgan. Qo'rg'on va shahar devori buzib yuborilgan.

Ramazon oyida quyosh botgach, Toshkentda musulmonlar faollashadilar, butun shahar tuni bilan gavjum bo'ladi. Tunda shahar hayoti asosan bozorlarda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, taom bozori juda gavjum. Tushdan keyin bu yerda iftorlik uchun taom tayyorlash bilan band bo'lgan tamaddixonalar tuni bilan shaharliklar va mehmonlarga xizmat ko'rsatadi. Bu bozorlar juda mahobatli katta yarmarkaga o'xshaydi. Toshkent bozorining

[1] *Hans-Hermann graf von Schweinitz,...* – S. 66.
[2] O'sha asar. – S. 67.

@tarixchi_kitoblar_olamiga

ko'chalari minglab chiroqlar bilan yoritib qo'yilgan. Bozorda choyxonalar juda ko'p bo'lib, unda musulmonlar bilan bir tovoqdan taomlanadigan yevropaliklarni ham uchratish mumkin. Mashhad bilan solishtirganda, ushbu holat bo'yicha Toshkent va Mashhad orasida yer bilan osmoncha farq mavjud[1]. Musulmonlar va nasroniylar o'rtasidagi munosabatlar juda iliq. Aholining ko'p bo'lishiga qaramasdan, biron joyda janjal yoki shovqin-suron eshitilmaydi. Faqat shodiyona, quvonchli hayot kuzatiladi. Bozorda bitta-ikkita mahalliy mirshablardan tashqari, hukumatning biror vakili uchramaydi. Odamlarga qarab eski shaharda anchadan beri vabo kasalligi tarqalganligi sezilmaydi. Imperiya hukumati vakillarining aralashuvidan qo'rqib, uylariga bostirib kirishlaridan xavfsiragan mahalliy aholi har bir o'lim holatini maxfiy tutadi. Mahalliy aholi vabodan vafot etganlarni ommaviy ravishda o'z tomorqalarida yashirincha ko'mib yuborgan. Toshkent va butun Turkistonning baxtiga vaboni kesadigan qishga yaqin qoldi[2]...

Farg'ona dalalarida paxta, sholi va donli ekinlar yetishtiriladi. Vodiyni ko'p sonli kanallar kesib o'tgan. Qo'qondagi Xudoyorxon saroyi [1863–1870-yillarda qurilgan] rus askarlari kazarmasi vazifasini o'taydi, taxtiravon turgan zalda esa harbiy kapella faoliyat yurgizadi. Qo'qon ruslarning eng muhim savdo-tijorat shahri bo'lib, bu yer asosan paxta savdosining markazidir[3]. Bu yerda turli paxta firmalari faoliyat yurgizib, ular orasida nemis firmalari alohida rol o'ynaydi. Shaharda paxta birjasi ochilgan.

Marg'ilon shahriga 1907-yilda Skobelev nomi berilgan. Shaharning eski qismigina Marg'ilon nomi bilan atalishda davom etadi.

Andijon Kaspiyorti «Transkaspiy» temir yo'lining oxirgi bekati hisoblanadi. U Xitoy chegarasiga yaqin joylashgan. Turkiston shaharlari orasida eng ko'p zilzila bo'ladigan hudud sanaladi. 1902-yili 12 kun davomida ro'y bergan tinimsiz yer silkinishi oqibatida shaharning rus qismi [cherkov va pivoxonadan tashqari] va eski shahar qismi to'liq vayronaga aylandi[4]. Ushbu dahshatli zilziladan so'ng yer osti harbiy kazarmalarini qurish boshlandi. Bunday kazarmalarning faqat tom qismi yer ustida ko'rinib turar edi. Ular juda mustahkam qilib qurilgan[5].

...Rafiqam Farg'onada Oloy tog'larida tutilgan qushlar kolleksiyasini tuzib, keyinchalik Berlin Qirollik muzeyiga topshirgan[6]. Bozorda narx-navo quyidagicha: kichkina qo'y – 7–7,50 rubl; katta qo'y – 15–16 rubl; echki – 6 r.;

[1] *Hans-Hermann graf von Schweinitz,...* – S. 69.
[2] O'sha asar. – S. 69.
[3] O'sha asar. – S. 70.
[4] O'sha asar. – S. 71.
[5] O'sha asar. – S. 72.
[6] O'sha asar. – S. 85.

@tarixchi_kutubxonasiga

sigir – 40 r.; oddiy ot – 35–40 r.; yaxshi ot – 80–90 r.; aravaga qo'shiladigan ot – 200 r.; poyga oti – 300–400 r.; 1 pud yaxshi arpa – 0,85 r[1].

Farg'onada, ayniqsa Qo'qonda tijorat yurituvchi nemislar juda ko'p. Ular bir necha o'n yillardan beri bu yerda va butun Turkistonda ish yuritib keladilar[2]. Lekin so'nggi o'n yilliklarda o'lkaga kelib faoliyat yurgizayotgan nemislar soni avvalgi yillarga qaraganda ancha pasaygan. Buning sababi nimada?

Gap shundaki, mustamlakachilikning dastlabki davrida imperiya hukumati o'lkani o'zlashtirishda katta qiyinchiliklarga duch kelgan, bu yerga kelib ishlashga tayyor ruslarni yetarlicha miqdorda topish nihoyatda mushkul ish edi. Shuning uchun har qanday kasbdagi nemislar: olimlar, savdogarlar, texniklar, hunarmandlar so'zsiz ravishda Turkistonga qabul qilingan, hukumat idoralariga ham ko'plab nemislar ishga olingan. Yuzlab nemislarning Turkistonda amalga oshirgan ishlarini birorta rus inkor etolmaydi. Vaqt o'tishi bilan Turkistondagi mustamlakachilik tizimi mustahkamlanib, bu yerda ishlashning foydalari, manfaatli tomonlari yuzaga chiqa boshlagach, o'lkaga keluvchi ruslar soni ham asta-sekin ko'paydi. Podsho hukumati ham mustamlakasini o'z fuqarolarining kuchi bilan bemalol eplashiga ko'zi yetgach, nemis fuqarolariga avvalgiday [ya'ni, mustamlakachilikning dastlabki paytidagidek] ehtiyoj sezmay qo'ydi. Oqibatda nemislarning Turkistonga keladigan oqimi rus hukumati tomonidan cheklab qo'yildi[3]. 1885-yilgi qonunchilikka asosan xorijiy fuqarolarning Turkistondagi imkoniyatlari qisqartirilgan. Turkistonga kelib ishlamoqchi bo'lgan nemislar shuni bilishi kerakki, bu yerda nemislar ko'chmas mulk, yer sotib olish huquqiga ega emaslar. Shuning uchun Turkistondagi nemislar o'z mulklarini boshqa birovning nomiga rasmiylashtirganlar. Oqibatda yirik muhim firmalar egalari [o'z mulklarini qo'llarida saqlab qolish maqsadida] rus fuqaroligini qabul qilishga majbur bo'lganlar[4]. Bundan tashqari, shunday yirik nemis korxonalar xodimlarining rus fuqarolari bilan almashtirilishi ham juda faol olib borilganki, bu yerga kelmoqchi bo'lgan nemislarning ushbu korxonalardan ish topishi amrimahol edi. Rus fuqaroligini qabul qilgan nemislar butunlay ruslashib ketganlar[5].

Samarqand. Registon maydoni ko'plab do'konlar va kabobxonalar bilan to'lgan. Bu yerda nasroniylar va musulmonlar yonma-yon o'tiradilar. O'zaro nafrat va fanatizm yo'q. Samarqandga butun Rossiyadan savdogar-

[1] *Hans-Hermann graf von Schweinitz,* ... – S. 84.
[2] O'sha asar. – S. 88
[3] O'sha asar. – S. 88–89.
[4] O'sha asar. – S. 90.
[5] O'sha asar. – S. 90.

@tarixchi_kutubxonasiga

lar kelib, mayiz xarid qiladilar. Bibixonim masjidi yonida mayiz bozori bor. U yerda mayizlar katta-katta uyumlar qilib qo'yilgan. Har bir savdogarning mahalliy fuqarolardan o'z agenti bor. Shu tijorat agentlari vositasida rus savdogarlari Samarqand bozorlaridan mahsulot sotib oladilar. Mayizlarni xaltalarga solgach, bir kishi uning ustiga chiqib mayizlarni oyog'i bilan presslaydi. Samarqandning mayizlari juda shirin. Bir botmon-mayiz 21–25,5 rubl turadi. Meva bozori juda katta. Rus tovarlari, asosan Moskva matolari yirik Yevropa firmalari tomonidan Samarqandga yuboriladi. Savdo-sotiq rivojlangan.

...Buxoro

Buxoro XIII asrda qurilgan, uzunligi 12 km bo'lgan qal'a devori bilan o'ralgan. 8 metr balandlikdagi qal'a devori ortida qabristonlar va manzilgohlar joylashgan. O'tmishda 100 yillar oldin devor tashqarisida boy zodagonlarning dam olish maskanlari bo'lib, boy buxoroliklarning villa va saroylari qad rostlagan. Endilikda esa oddiy aholining savdo do'konlari joylashgan[1]. Shahar devorlarining 11 darvozasi quyosh botgandan so'ng yopiladi va tong otishi bilan shaharning ichkarisini tashqari bilan bog'lash uchun yana ochiladi. Tor ko'chalardan tashqari, katta, keng ko'chalar ham Buxoro bozorlariga olib boradi. Bunday ko'chalar katta gumbazsimon binolarni bir-biriga bog'lagan. Ular ham Buxoro bozorining bir qismi hisoblanib, Chorsu deb ataladi. Ushbu binolar Buxoroning gullab-yashnagan davridan nishonadir.

Butun Sharqdagi kabi, Buxoroda ham bozorlar ixtisoslashtirilgan. Dastavval Moskva matolari, ya'ni Yevropa gazlamalari bilan savdo qiladigan rastalardan o'tiladi. Undan keyin o'zining nafisligi, ranglarining jilosi bilan mashhur bo'lgan Buxoro gazlamalari rastalari, dori-darmonlar sotiladigan yo'laklarda qoplab shifobaxsh dorivorlar sotiladi. Undan bir oz o'tgach, yong'oq va-mayiz bozori boshlanadi. Buxoro mayiz bozori Samarqand mayiz bozoridan kichikroq. Buxoroliklar uchun shirinlik bozori nihoyatda katta ahamiyatga ega. Aholi juda ko'p miqdorda shirinlik iste'mol qiladi. Undan keyin shayboniy hukmdor Abdulazizxon tomonidan bunyod etilgan Sarg'iriyoni chorsu binosi qad rostlagan. Bu chorsu binosida do'ppifurushlarning savdo rastalari joylashgan[2]. Unga tutash bozorlar – kitob bozori, egar-jabduq bozori, ko'rpa-to'shak bozori, temirchilar bozori hamda tillo va zeb-ziynat bozoridir. Pul almashtiruvchi sarroflar bozori, shoyi ipak bozori, bo'z bozori bo'lib, undan keyingi bozorda qizil katta-katta atirgullar naqshi

[1] *Hans-Hermann graf von Schweinitz,...* – S.112–113.
[2] O'sha asar. – S. 117.

@tarixchi_kitoblar_qonasiga

solib to'qilgan gazlamalar Yevropaliklar tomonidan xursandchilik bilan xarid qilinadi. Aslida ular eski sallalarning matolaridan tayyorlanadi. Ayollar choponlari bozorida kiyilgan choponlar sotiladi. Chunki yangilari haramlarga tikib beriladi. Undan keyin qurol-aslaha, kitob va tikuvchilar rastalari joylashgan. Shoyi to'quvchilar ipak, yarim ipak, olovli sariq, qizil va moviy rangli baxmal bilan savdo qiladilar. Undan keyin salla bozori, etik bozori bo'lib, o'troq aholi orasida bozori chaqqon bo'lgan tuya junidan to'qilgan buyumlar bozori, guruch bozori, tunukasozlik joylashgan. Erkaklar chopo-ni sotiladigan bozor juda mashhur bo'lib, bu yerdan oddiy choponlardan tortib eng qimmatbaholarigacha topish mumkin. Undan so'ng mis, gilam, qorako'l terisi bozorlari joylashgan. Shaharning alohida joylarida yog'och-ko'mir, o't-xashak, don bozori, tuz bozori mavjud. Taom bozori, novvoy-lar-u mevafurushlar ham bor. Taom bozorida asosan kabob tayyorlanadi. Samarqand kaboblari qo'y go'shti bo'laklaridan iborat bo'lsa, Buxoroniki uchta yong'oqday keladigan go'sht bo'laklari yog' bo'lakchalari bilan birga sixga aralash tizib pishiriladi. Kabobni faqat o'ziga to'qlar oladilar. Oddiy insonlar non bilan bir pulga olingan qovunni tanovul qiladilar. Bozorlarda Buxoro kumush tangalari va pul muomalada yuritiladi. Keyinchalik 4 pulga teng mis tangalar ham ishlatilgan. Tillo tanga va qog'oz pullar muomalada bo'lmagan[1]. 1 tanga 15–20 kopeykaga tenglashtirilgan. 1 tanga 3,15 gramm sof kumushdan tarkib topgan. 100 nemis markasi 1 kg tangaga almashti-riladi. 100 pul chaqalar 270 grammni tashkil etadi. 1 kg pul-chaqalar 1,87 nemis markasiga teng. Agarda bir buxorolik o'zi bilan 100 markalik tanga va 2 markalik pul olmoqchi bo'lsa, u holda bu mablag'ning og'irligi 2 kg.ni tashkil qiladi. Har tongda 11 darvozadan shaharga karvonlar va ko'plab savdogarlar o'z mollari bilan kirib keladilar va bozorlarga yo'l oladilar. Ma-halliy aholi ham bozorga kelib, o'z tirikchiligini yuritadi va yangiliklardan xabardor bo'ladi. Fors, afg'on, hind, yahudiy, qirg'iz, turkman va buxoroli-klar bir-biri bilan aralashib ketgan gavjum, sershovqin holatni tashkil etadi. Buxoroliklarni och va to'q rangdagi choponlari-yu, oq sallasidan tanib olsa bo'ladi, tashqaridan kelganlar ko'pincha to'q rangdagi choponlari va ara-lash, turli yorqin ranglardagi sallalari bilan ajralib turadilar[2]. Buxoro yahu-diylari boshqa buxoroliklardan asosan kiyinishi bilan ajralib turadi. Ularga salla o'rash man etilgan bo'lib, atrofi mo'yna bilan qoplangan telpak kiyi-shadi. Kiygan choponlari yorqin va och ranglarda bo'lishi man etilgan, ular to'q rangda bo'lishi lozim. Ularga belbog' taqish mumkin emas. Ular chilvir ip bilan bellarini o'raydi. Forslar qorako'l terisidan bosh kiyim kiysa, afg'on-larning sallalari juda uzun bo'lib, uchlari osilib turadi. Hindlar juda g'alati kiyinishadi. Ular pul almashtirish kabi moliyaviy ishlar bilan shug'ullanadi.

[1] *Hans-Hermann graf von Schweinitz, ...* – S. 117.
[2] O'sha asar. – S. 118.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ularning ust kiyimi ham, bosh kiyimi ham qora rangda. Peshonalarida kastasini ifodalovchi qizil rangli belgisi mavjud. Hamma yerda bu g'alati hindlarni ko'rish mumkin. Ular o'z pullarini kichkina qutichalarda saqlashadi, juda yuqori foiz olishadi. Qog'oz cheklar o'rniga eski usulda belgi qo'yilgan yog'och taxtachalardan foydalanishadi. Bozordagi odamlar ovoziga yana yuk tashuvchi eshak, ot, tuya va aravalarning shovqini qo'shilib, begona odamga Buxoro bozori nihoyasiz labirintdek tuyuladi[1]. Shu sababdan ayrim sayohatchilar xato tasavvurga ega bo'lib qoladilar. Masalan, bir yevropalik sayohatchining yozishicha, Buxoro bozori Konstantinopol bozoridan katta emish, aholisining soni esa yarim millionni tashkil qilar emish. Bunday noto'g'ri tasavvurlar shaharda ko'proq vaqt yashagandan keyin o'z-o'zidan yo'qoladi.

Shahar darvozasining ichkari qismida keng maydonlar, dalalar, ekin maydonlari, qabristonlar joylashgan. Shahar maydoni machit, madrasa va hovuzlar bilan qoplangan. Hovuzlar soni 80 ta. Buxoro aholisining soni ko'pi bilan 80–100 ming atrofidadir[2]. Kech tushishi bilan bozor ko'chalari tinchiydi. Shahar darvozalari, karvonsaroylar mahkam yopiladi. Biron kishi kechikib qolsa, karvonsaroy devorining yuqori qismidagi bir teshik orqali kiritilgan. Buxoro madrasalarining soni 100 dan ortiq. Butun Turkistonda tarqalgan vabo Buxoroda kuzatilmadi. Buning sababi, Buxoro havosining quruqligida bo'lsa kerak[3]...

[1] *Hans-Hermann graf von Schweinitz*, – S. 120.
[2] O'sha asar, – S. 121.
[3] O'sha asar, – S. 139.

@tarixchi_kutubxonasiga

V BOB. MEMUAR ASARLAR

MUSO TURKISTONIY

«ULUG' TURKISTON FOJIASI»

Muhammad Muso Turkistoniyning «Ulug' Turkiston fojiasi» asari uning o'z ko'zi bilan ko'rgan, boshidan kechirgan va ko'rgan-bilgan voqea taassurotlari asosida yozilgan.

Muso Turkistoniy 1904-yili Andijonda diniy ulamo oilasida tavallud topgan. O'lkadagi bolsheviklar maslagini qabul qila olmay, ularning din ahliga qilgan tazyiqlaridan qochib, o'z vatanini tark etgan va muhojirlikka yuz tutgan. 1920–1930-yillarda Afg'onistonda, Makka va Madinada, Koshg'arda yashab, faoliyat yuritdi. 1937-yildan Makka va Madinada muqim yashab qolgan.

Muso Turkistoniyning «Ulug' Turkiston fojiasi» asari ikki jilddan iborat bo'lib, birinchi qismi vatanimiz Turkiston tarixiga, ikkinchi qismi esa, Sharqiy Turkiston tarixiga bag'ishlangan. Arab alifbosida bosilgan mazkur asarning birinchi jildi o'zbek tilida Madinada chop qilingan bo'lib, unda o'lkada mustamlakachilik siyosatining asoratlari yoritilgan. Quyida ana shu asarning elektron nusxasi asosida tayyorlangan parcha keltirilmoqda.

t.f.d., prof. D.H. Ziyoyeva

Istilo davri

Ruslar turli yo'llar bilan vatanga [Turkistonga] istilo etdi. Ohista-ohista tilga istilo, so'ngra dinga hujum qilishga boshladilar. Avvallarda yangi ko'za suvi toza degondek, har bir to'g'rida xalqg'a kengchilik ko'rsatildi. Chunonchi, tijorat sarbast, yo'llar tuzatildi, temir yo'li va boshqa yo'llar tuzatildi, xalqni Moskov tijorati ila mashg'ul qildi. Bir tarafdan paxtachilik ishig'a rivoj berdi. Paxta yaksiyunchiligi [yakkahokimligi] taraqqiy qildi. Xulosa, ruslar o'zig'a tinch, dasti daroz kishilarni qo'lg'a olub, alarning vositalari-la dehqonlardan loyiqi-la foydalanish, ishchini ishxonalarga bog'lash, xalqni hukumatga bog'lash siyosatlarini tutdilar. Bu ishlarni ko'proq bank va shirkatlar orqali amalga oshirdi.

Banklar riboga pul berdi, protsent usulig'a bog'ladi.

Oq vekselga imzo qilish rivoj bo'ldi. Xususan, paxta ekkan dehqonlar qarzga botdi. Paxta uchun qilg'on mehnat, mashaqqatlarig'a loyiq rohat

@tarixchi_kutubxonasiga

ko'rmadilar. Shirkatlar va banklarning qurg'on nizomlari natija e'tibor ila ruslarni, Moskovni foydasig'a bo'ldi. Ruslarni «Turkistonga biz madaniyat keltirdik, Turkistonni obod qildik», degon iddaolari bo'sh so'zdan iborat bo'lub qoldi. Paxtaga pul beradurg'on doiralarni mashhurlaridan biri paxta zovudlaridur.

Zohirda to'g'riga o'xshab ko'rinadi. Shirkatlar ochiq, tijorat bardavom, bonkalar xalqga qarzga, bunakg'a pul berdi. Ammo yuzga muncha, deb oladurg'on ribosi [sudxo'rlig'i] bor. Bu nizomlar aksariyatning zararig'a chiqdi. Xalq faqirlashdi, sindi-sindi ko'paydi. Xulosa, hamma ish bonkaning va shirkatlarning foydasig'a hal bo'ldi. Masalan:

Bir kishining bankdan 1000 [ming] so'm qarzi bor. Vaqtida to'layolmadi. Haftalik, oylik o'sgan sudi [ribo]si bilan u qarz uch ming [3000] so'm bo'lg'onlig'i, u bechora qarzdor vafot qilub, vorislari to'layolmay, nihoyat hovli-joylari, bog'lari, bo'stonlari sotiladur, puli bonkaga to'lanadur. Bu ishlarning ayb bo'lmay, elda-yurtda odatlanib, qonunlashib qolg'oni ma'lumdur. Yer va suvlarni, g'ayri manqul [ko'chmas mulk] narsalarni g'osban [barini] sotib, bonkaning, ...rusning haqlarini topshirish uchun Rusiyaning qonuni ijobiy maxsus bir idora bordur. Ismi «Tanfiz idorasi», deb tarjima qilinsa, fano o'lmaz «sudebniy ispolnitel» degon rahmsiz bir doiradur.

Maqomga munosib paxtadan alamzada bo'lg'on qarzdor bo'lub, to'layolmay, bechora dehqonlar zamindorlar haqida so'zlag'on ash'oridan namunalar:

Paxtani ko'b ekishib, chiqdi alarning paxtasi,
Gar egar soldirmasa, boshida veksil nuqtasi.
Paxtaga pul chiqsa, mardum och bo'ridek chopar,
Berishin fikr aylamay Pishpek, To'qmoqg'a qochar.

Bu mavzu ila aloqador bo'lg'on do'xtur Tohir Shokiralibekni 1934-yilda Berlinda bosilg'on «Turkiston paxta xo'jalig'i» ismdagi kitobining 122-sahifasini aynan ko'chirib, muhtaram o'quvchilar diqqatig'a taqdimni foydalik ko'ruldi:

Shu nuqtada yosh bola ekon. Farg'onali bir paxtachi dehqondan o'z qarzi ustida eshitdiklarimni naql etmasdan kecholmayman. Marg'ilonning Yakkatut degon qishlog'idan bo'lg'on bu kishi bir kun bizga kelub, otam bilan so'zlashib o'turor edi. Man-da u yerda bir ish bilan mashg'ul edim. Musohaba u kishining o'z ishlariga keldi. Hech ukmodig'indin [o'nglanmaganidan] shikoyat etdi. Sababini so'raganda, bir paxtachining ismini so'ylab, «Mana bu kishidan bir necha yil avval bu qadar pul qarz olg'on erdim. U zamondan beri bergon pullarimni hisoblasam, qarzimni ikki mislidan ortiq pul to'laganman. Faqat xo'jayinning daftarig'a qarasangiz, qarzim eskisidan yuz so'm qadar ortmishdur. Endi biz qandoq qilib ukg'ormiz [o'nglanamiz]», – dedi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Va yana ayni yerda yozodur: Turkiston dehqonlarining davlat bonkasidan va boshqa bonkalardan bo'lg'on qarzi 1912-yilda 156 712 000 so'm oltun bo'lib, mazkurdan Farg'ona dehqonlarini hissasig'a tushkoni 51 %, ya'ni 80 797 000 so'm oltundur.

Turkiston paxtasi uchun Moskovdan pul kelodur. To'g'ridur. Ammo ruslar paxta uchun kelg'on pullarni turlik-turlik yo'llar bilan qaytarib Moskovga olub ketadur. Masalan, o't aroba, otash aroba, shayton aroba, ot arobasi [poytun, dilijon va boshqa o'yun yo'llari] ila. Ot o'yuni, kartina [sinema], elektr asboblari, telefon, choy, shakar, gazlama, idish-tovoqlar, imorat asboblari, ziroat zaruratlari, sanoat mashinalari, maorif ehtiyojlari va shularga o'xshash zaruriy ashyolarni Rusiyadan kelturub, Turkistonga yog'dirib, ham paxtani pulini so'rub oladur, ham millatdagi mavjud boylig'ni shimirib oladurg'on bo'ldi. Bular yetmas emish-da, ichkilik, qimor, fahsh, sudxo'rlik yo'llari bilan xalqni bisotida bor narsalarini shilib oladurg'on bo'ldi.

Insonlarni hayotida ehtiyoji tushadurg'on zaruriy asbob va ashyo va ziynat narsalarini boshqa davlatlardan keltirishni man' qildi. Qo'shni davlatlardan: Eron, Afg'oniston, Hindistondan, Chin [Xitoy]dan keltirishga to'squnlik berdi. Faqat hamma narsani ruslar Rusiyadan keltirib, paxta va boshqa ma'dan pullarini o'zi qaytarub olub, iste'morda hech qusur qilmas bo'ldi. Buning ustig'a Turkistonda kamyob bir nav mevalar, gullarni Rusiyadan kelturub, bizlarga sotub, qo'limizda va sanduqlarimizdagi naqdinalarimizni supurub oladurg'on bo'ldi. Yana Turkiston kiroy [kray – o'lka]ga madaniyat keltirdik, taraqqiysig'a sabab bo'ldik, deb qilg'on iddaolari oshuqcha bo'ldi.

Ruslarning muloyim siyosatlaridan bir namuna: ruslar xalqimizni siyosat ila dog'lab turor ekon, yana bir tarafda voliylar, hokimlar xalqni jalb qilmoq qasdi-la yumshoq siyosatni qo'ldan bermas erdilar. Masalan, Toshkanddagi general-gubernator oq podshohning Turkistondagi hashamat va saltanatini tamsil etarkan, alardan ba'zilari, Chernyayev, sarig' soqol Ivanov, Kurapatkinga o'xshag'onlari muloyim siyosatlari bilan xalqni yog'lab, o'zlarig'a rom qilodurg'on yo'llarga bosh urar erdilar. Chunonchi, obro'lik, sharaflik yurtning kattalarini ziyofatlarig'a kelib, urf-odatimizcha ko'rpa-to'shakda o'lturub, suhbat qilar, yemak, ichmakda yerli usulig'a tobe bo'lub, betakalluf hiylik ila aholini ovlar edilar.

...Ruslar Turkistonga kelub, yaxshi tomir otib, o'rinlashgandin keyin qilg'on tashviqotlari Turkistonning qora chirog'lari, jin chirog'lari o'rnida fonarlar keltirdik, mum sham'larini badalida elektiriklar keltirdik, bo'z xom o'rnig'a chitlar, batislar, chakmanliklar yerig'a movut-yung gazlamalar keltirdik, charx, chig'iriq, javozlar o'rnig'a moshinalar keldi, tegirmongacha moshinalashdi, to'quma fabrikalar, turli moshinalar ila xalq rafoh

@tarixchi_kutubxonasiga

va saodatga erishdi, deb parupog'onda [propaganda – tashviqot] qilodurg'on bo'ldilar.

Durust, ruslar qo'li-la turlik zovudlar quruldi esa, har xil shirkatlar, chunonchi, Kuznitso'f [Kuznetsov], Praxrof [Proxorov], Gumbur [Gubner] kabi shirkatlar qurulsa, temir yo'llar uzoq masofalarga qadar tamdid etdi esa, bunda so'z yo'q. Bularning vujudi Turkistonning boylig'ini so'rush uchun, ma'danlarini osonlik bilan Moskovga jo'natish uchun bir vasiladur. Lazumanda rus askarlarini mishtoblik Turkistonni bir boshdin yana bir boshig'a yetkuzush uchun faqat, faqat ruslarni istirotijiy [strategik] manfaati uchun bo'lg'on plon [reja]dur.

Qurulg'on shirkatlar qo'liladurki, Turkistonning paxtasi, ipaklari, oltun konlari, ma'danlari, petrul-uroniyumlari tamomila ruslarning tegirmonig'a oqtorildi [ag'darildi].

...Ko'chirma siyosati

Ruslar Turkistong'a yerlashg'onlaridan keyin tutgon siyosatlari ijobiyo Ukroyinodan qofila-qofila rus dehqonlari, mujiklarni, xohol [xoxol]larni keltirishg'a boshladi. Mujiklarning iflosliklari ila, ko'tak arobalari, uzun-uzun o'roqlari boshda o'laroq, poda-poda to'ng'uzlari Turkistonlilarga juda ham og'ir keldi.

Mujiklar Farg'onaning eng suvlik, unum yerlariga joylashdilar. Andijon muzofotiga tobe Jalolobodning ust taraflari, O'zgand tobelari, Qurshob, Kampirobod atroflariga yerlashdilar. Daxi Iskobilo'f [Sim – Skobelev] atrofida rus mujiklari o'rinlashdilar. Xususan, Qozog'istonning unumlik joylarig'a ruslar milyunlab o'rinlashdirildi.

Bular yetmas emish-da, boshqa tarafdan ma'qul yo'llar bilan dindoshimiz, irqdoshimiz no'g'oy, tatarlarni turli bahonalar ila Turkistonga yog'dirdi. Bularning aksariyasi o'qug'on kishidurlar. Alar ishxonalarga, yozuvxonalarga, idoralarga, paxta zovudlariga ba'zilari kotib va ba'zilari tilmoch, muallim, tarozubon va turlik-turlik vazifa ila o'rinlashdilar.

Bularning ta'rifi muxtasar etilg'onda o'qutub, odatlandirib yetishdirilg'on musta'mara hayotig'a, siyosatig'a rozi qilub tarbiyalangon qo'lbola qulbachchalaridur [ma'murlardur]. Bulardan boshqa tatarlardan keltirg'on askarlarning Turkistonda uylanib, joylanib yerlik, suvlik bo'lishlarig'a, yerliklar ila bir tigizda bo'lishlarig'a Moskovning musoadasi bo'ldi.

Shul usul ilaki, Turkiston general-gubernatori Moskovdin chiqorilg'on qonun [zakun]ga rioyat qilmaslik haqqining hoizidur. Bu kishi yarim poshshodur. Turkistonga farmonfarmodur. Shuning uchun Moskovga borg'on dod-faryod shikoyatlari eshitilmaydur...

@tarixchi_kutubxonasiga

Maorif

Turkistonliklar maorifga muhtoj, maorifga tashna, asriy ulum va fanunlarni o'z tillarida o'rgonishni haqli o'laroq istaydur. Lekin rus istibdodi bunga yo'l bermaydur.

Ruslar esa har qanday ilmni ruscha o'laroq, rus lisonida o'rgatishni va ruschaga hasr qilish bilan maorif ishlarini itloqila shu ravishda yurutodur.

Ruslarning qoidalari:

1. Ibtidoiy maktab ruschadur. O'quvchilar ruscha o'qiydur [русско-туземные школы].

2. O'rta maktab ruschadur [высшее-начальное училище].

Bu maktabning talabalari 400 ga bolig' talabasidan 2 musulmon tolib bor edi. Biri Andijondin, yana biri O'shdin. Bu marhaladan keyin o'quvchining miqdoroti faqat inspektor va direktorning ixtiyoridadur.

O'quvchi ma'lumotini ortdirish uchun gimnaziyaga yoxud Toshkanddagi seminariyaga, Peterburg'dagi akademiyaga joylanishi missionerlarning qo'lidadur.

Ilm tahsili uchun xorijga chiqishga izn yo'q. Diniy bo'lsun, fanniy bo'lsun, har qanday ilm o'quvchilar Rusiyani doxilida ilm o'quydur. Buni Maskov va Peterburg' ta'yin etodur. Ammo no'g'oylardan Misrda, Hijozda tahsil ko'rg'on olimlar chiqdi esa-da, juda ham nodirdur. Bormoq hisoblari kifoyat qilodurg'on darajadadur. Bizni Turkistondan xorijiy tahsil ko'rgon faloniy deb zikr qilishga hech raqam yo'qdur.

Tilga istilo

1. Musulmonlar o'lturg'on shaharlarda qancha daha bo'lsa, har dahada bir rus maktabi bo'lodur. Nafaqasi davlatga oiddur.

2. Ruscha maktab ochilmog'on joylarda musulmonlarning masjid solish, madrasa qilishlari mamnu'dir.

3. Musulmon mudarrislarning, muallimlar va imomlarning va boshqa diniy xizmatchilarning ruschani yaxshi bilishlari shartdur.

4. Aholi tarafindan ochilgon diniy maktablarni nafaqasi xalqga oiddur. Ruscha ta'lim ko'rmagon bolalar bundoq islomiy maktablarda o'qush haqqidan mahrumdurlar.

5. Yerlilar tarafidan ruscha maktab ochilgon taqdirda muallimning maoshi davlatga oid bo'lub, boshqa nafaqalari, masraflari boniylarning gardanig'adur.

Yuqoridagi shartlarni tahaqquq etub-etmasligi tug'rolik missionerlarning faoliyati sobitdur. Missionerlar, maorif nazorati, po'lis [politsiya] ido-

@tarixchi_kutubxonasiga

rasi, hammalari bir kishidur. Garchi idoralari boshqa, ismlari boshqadur, ammo onan vazifalari birdur, missionerlarga xizmatdir.

Zikr qiling'on turlik shartlar ila ochilgon maktablarni davomlik suratda kontrol qilish [surushtirish] o'zi missioner vazifasi, inspekto'r bo'lg'onlarning haqqidur.

Taftishning kayfiyati: Zikri kechgon ruscha maktablarda faqat ruscha o'qulurmu yoxud boshqa ilm ham o'qulurmu? Muallimlar musulmon ruhoniylaridinmu, rus ruhoniylaridinmu? Maktablar har dahadamu, ba'zi dahadamu? Ochilgon maktabdagi bolalar o'qushga majburmular, ixtiyorlikmular? Talabalarning raviyyasi ruslarning maorif nizomig'a muvofiqmu, yo'qmu? Darsni o'qulushi maorifning loyihasig'a mutobiqmu? Va shunga o'xshash bahslar, savollar davomlik suratda bo'lib turodur.

Haj yo'li to'suldi

Musulmonlarga farz bo'lg'on haj ibodatini ado qilishdan 1903-yilda Rusiya imperato'rlig'i bir farmon ila man' qildi. Buning sabablari ko'bdur. Masalan, hajga borg'on turkistonli u safar munosabati-la chet davlatlarni ham ko'rodur. Sayohatdan foydalanodur. Ko'zi ochilodur. Musulmon davlatlarni, xususan, Turkiya saltanatini, islomning shavkatini, islomning quvvatini ko'rodur. Ko'zi ochiq ziyolilar bo'lsa, istibdodga qarshi chiqishni o'rganadur. Ma'lumotlari ziyodalanib, zehnlari ochiladur. O'ruk o'rukni ko'rub, olayadur, degandek, hajga borg'on turkistonliklar mustaqil har davlatlarni ko'rib, havaslanadur. Xulosa, muborak safar – haj safarini natijasi o'laroq, turkistonliklar o'z huquqlarini, istiqlollarini talab qiladurlar. Isyon chiqaradurlar, deb man' qildi. Andijondagi Dukchi Eshon hodisasi ruslarning shundoq andishaga tushuradurg'on bir namunadur...

Matbuot

Ruslarni buyruqlaricha, musulmonlarning matbuotdan istifodasi mahdud edi. Ozodliq, istiqlol, hurriyat, hokimiyat mavzularida xalqga talqin qilinadurg'on kitoblar, risolalar, maqolalarni nashri mamnu' edi.

Xalqning fikrini ochadurg'on va'z, irshodlar, musulmonlarni tanvir etadurg'on nutqlar qat'iyan mamnun edi.

Xulosasi, bu haqdagi ta'limot va talqinotlarni hammasi inspektorlarning izni ila missionerlarning chig'irig'idan o'tkazilar edi.

Missionerlarcha, vatan turkistonliklarning vatani. Lekin vatanga egalig'ini so'ylagonni jazosi o'lum yoxud Sibiriyodur. Chunki vatan Turkis-

@tarixni_kutubxonasiga

ton ruslarning amrida, yarim podshoning farmonida, sultai komilasidadur.

Turkiy qomusil a'lom Rusiyadagi musulmonlarni yozuvchi otalari, bobolari, desak mubolag'a bo'lmasa kerak. Qrimlik Ismoil mirzo G'aspiralining qalami-la bir ensiklapediya kitobi yozildi. Ismi ham turkiy «Qomusul-a'lom» qo'yuldi. Shundoq muhim va mufid bir asar maydonga chiqib, matbaaga hozirlandi. 1-juz'i tamom bo'ldi, deb «Tarjimon» g'azitasining 123-sonida ... nashr qilindi, mujdalandi. Musulmonlarga bahrul-ulum ayni zamonda qirg'iz dala g'azitasida ham shul mazmunda e'lon chiqdi. So'ngra kitobni ismini «Bahrul-ulum» deb ot qo'yuldi. Tab' qilishga ruxsat so'rab, bu kitobni Peterburg'ga senzurga yo'llandi.

Ilmiy va odobiy bu asarni tab'iga izn berilishi uchun musulmonlarni dili to'q edi. Zero, bundoq bir kitobni o'tgan zamonlarda misli chiqmag'on edi. Shuning uchun bu kitobni yuzaga chiqishi musulmonlarni adabiyotiga yangi bir xizmat, yangi bir ijod bo'lar edi. Siyosat bilan hech aloqasi yo'q edi.

Hamisha tetik dovranib, ruslarni mashhur mustashriqlaridan Ilminskiyni qo'lig'a mazkur ikki g'azita keltirildi. G'azitani o'qub ko'rg'on Ilminskiy «Bahrul-ulum» ismlik kitobni ismini eshitar-eshitmas, aqli boshidan uchdi. O'qub ko'rdi. U daqiqada qo'lig'a qalam oldi. Peterburg'dagi bosh vazir raisul-vuzaro Po'bedanso'f [Pobedanossev]ga ruslarga yetadurg'on ma'naviy zararlari bayon qilingan mufassal sur'atli maktub yozib, jo'natdi. Mazmuni: «Bu kitob bosilib tarqalsa, istiqbolda musulmonlarni orasida bundoq ilmiy asarlarni bo'lishi, o'z oralarida nashri ruslarni katta zararlarga uchratadur. Ruslar siyosatda yutqazgon bo'ladur. Bu esa muhaqqaqdur. G'aflat etmasdan, kitobni bosmasdan, munosib bir tadbir joriy qilinsin», deb maktubni muhrladi.

Mustashriq [bosh vazir] Po'bedanso'f [Pobedanossev] bu xatni o'qub, darhol «kitob musodara qilinsin, tab'iga ruxsat berilmasin», deb farmon chiqardi.

«Xazinatul-axbor»: kitobni tab' qilishga ruxsat berilmag'oni bir dard, kitobni musodara qiling'oni ikki dard o'laroq, musulmonlar uchun dard ustig'a dard bo'ldi. Katta ta'sir qoldirdi. Ishni ich-yuzi ham anglashildi. Shunday bo'lsa ham g'ayratlik musulmonlar qarab turmadilar. To'rt musulmon munavvarlari boshini bir joyga to'pladilar. Kitobni asl nusxasidan yana bir nusxa ko'chirdilar. Bunga «Xazinutul-axbor», deb boshqacha yangi bir ot qo'ydilar.

Bu kitobni Tiflis [Kafkaz] maorif anjumanga jo'natib berdilar. O'tgan voqeani bayoni-la emdi bu kitobni tab' qilish, nashr qilishni, bu haqda qo'llaridan kelgon fidokorlig'ni darig' tutmasliklarini rajo qildilar. Biiznilloh komyob bo'lajaqlarig'a xayrli duoda bo'ldilar.

@tarixiy_kutubxonasiga

Tiflisdagi Qafqosiya maorif anjumanning sa'yi va iqdomi-la ustod Safar Ali Valibeko'f ismidan «Xazinatul-axbor» kitobi bosildi, nashr qilindi.

Bu kitobdan bir nusxasini ko'rgon ruslar joni chiqg'udek g'azablandilar. Xiyla shov-shuv bo'ldi. Ilm kishilarini mudofaasi-la matbaa qopatilmadi. Tekshirish davom etdi. Ammo kitobda ilmdan, adabdan, lug'atdan boshqa mavzu yo'g'lig'i uchun kimsa mas'uliyatga tortilmadi.

Shaharlar

...Turkiston o'lkasini hamma shaharlari ikki taqsim qiling'ondur. Yangi shahar, eski shahardur. Eski shaharda musulmonlar o'lturodur. Yangi shaharda o'ruslar o'lturodurlar. Yangi shaharning imtiyozi bordur. Ko'chalari ozoda, baldatiyya, yaxshi qoraydur. Eski shaharni budjasini olub, yangi shaharga xarjlaydur. Yangi shaharni hamma jodalariga tosh yotqizilg'on, loy yo'q, toza va muntazamdur. Ko'chalari rejalik, to'ppa-to'g'ridur.

Ammo eski shaharning bir-ikki buyuk jodalaridan boshqasida tosh o'tqizilmag'on, tufroq, loy va balchiq, suv oralashdur. Qish fasllarida ta'rif qilib tugatib bo'lmaydur, qoramaydur. Shundoq bo'lsa ham baladiyya idorasi [kommunal bo'lim] boqmaydur, g'am yemaydur. Baladiyyaning qoshi, ko'zi yangi shahar, ko'z nuri yangi shahar, oy tug'sa yangi shaharga, kun tug'sa yangi shaharga tug'sun deydur. Yangi shaharning imtiyozlaridan biri fasod axloq uchun omoda qilingon fasodxonalar, fohishaxonalar, qimorxonalar, sinemalar va boshqalar mavjuddur. Xususan, ichkilik sotiladurg'on do'konlar, oshxonalar bordur. Zikr qilingon joylarni mushtariylari eski shahardan ham chiqadurlar, deb yozilsa, qalam mas'ul bo'ladurmu? Ammo u rasvoxonalar eski shaharda yo'qdur.

Yangi shaharning ko'chalarining ismlari hammasi rus missionerlarini, rus qo'mondonlarini, rus fotehlarini ismlari ila ismlang'ondur. Masalan: Abramovskiy jodasi, Kuropatkin ko'chasi, Jukovskiy ko'chasi.... va hokazo. Katta mag'ozalar: Varshavskiy, Bogolyubov... va hokazo.

...Turkistonni g'arbiy Xazar dengizidan kelgon temir yo'l manzillari, stansiyalarini, shaharlarini to shimolg'acha, bu tarafi sharq aqsog'acha ismlarini boshqa qildilar. Har bir manzilni ismini bir generalni ismi bilan ismlantirdilar. Bu xususda temir yo'lning yo'lchilarini duchor bo'lg'on mushkilotlarini yozgon bilan tugamaydur. Yo'lchilar chipta olish uchun yangi ismlangan shahar ismini aytolmaydur. Besharig'ga chipta desa, o'rus uqmaydur. Yoxud qulog'iga paxta tiqilg'ondur. Mushkilot ustig'a mushkilot, arz-dod, faryodlarni Maskov, oq podsho eshitmaydur. Berilg'on arizalari-la yarim podsho degon Toshkanddagi general-gubernatorga havola bo'ladur. Andijondan jo'nab, ismlari o'zgartilg'on istasyunlardan bizni bilganlarimiz, chunonchi:

@tarixchi_kutubxonasiga

Qubo – Fedchenko
Marg'ilon – Gorchakov
Sim – Skobelev
Oltiarig' – Vannovsk
Bag'dod – Shirovo
Besharig' – Posetovka
Konibodom – Melnikov
Ashqobod – Poltaratsk
Qahqaha – Ginsburg
Qizilsuv – Krasnovodsk
Yettisuv – Semirechye
Qarorchiqavm – Verevkin
Bekobod – Xilkov
Xavos – Chernyayev
Xavosning ikkinchi ismi – Ursatyevskiy, Lomakin, Milyutin
Buxoro – Kogon
Mirzacho'l – Golodnaya step
Qovunchi – Kaufman
Oqmasjid – Perovsk
Qoziali – Gezelimisk [Kazalinsk].

Chor [oq] o'ruslarni farmonlaridan yana biri Toshkandda chiqadurg'on «Turkestanskiye vedomosti» gazetasida 167-sonida rasmiy farmon ... nashr etildi. Bu tarixdan e'tiboran yerli aholiga temir yo'l arobalarida safar qilish mamnu'dur, deb. Va yana rus zobitlariga va ma'murlariga ko'rulg'on yerda holan yerlilar ta'ziman salom berodur, deb qat'i suratda amr nashr qilindi.

FOZILBEK OTABEK O'G'LI. «DUKCHI ESHON VOQEASI»[1]

Fozilbek Otabek o'g'li 1898-yilda Andijonda mustamlaka tuzumga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni va uning bostirilishi jarayonlariga jonli guvoh bo'lib, bu mash'um voqealar haqida keyinchalik o'z xotiralari asosida ilk memuar tadqiqot yaratgan mahalliy mualliflardan biridir. Arab alifbosida yaratilgan va o'quvchilar qo'liga yetib bormay, jamg'armalarda sarg'ayib qolib ketgan mazkur asar mustaqillikning qo'lga kiritilishi bilan S. Ahmad, U. Dolimov va Sh. Rizayevlar tomonidan kirill alifbosiga o'girildi. Quyida ana shu asardan parchalar berilmoqda.

t.f.d., prof. D.H. Ziyoyeva

Qatliom

Andijondan Marg'ilonga xabar borgan on Farg'onaning harbiy boshlig'i Chaykovskiy 250 nafar askar bilan kelib, yangi shahardan boshlab ko'ringan musulmonlarni otmoqqa amr qildi. O'shal kuni necha ming musulmonlarni

[1] *Fozilbek Otabek o'g'li.* Dukchi eshon voqeasi. – T.: Cho'lpon, 1992-y.

@tarixchi_kutubxonasiga

begunoh otib, qonini to'kdi. Xususan, beixtiyor va bu voqealardan bexabar ishlamoqqa chiqqan dehqonlarni va mehnatkash kambag'allarni behad-behisob otib yubordi. Necha ming bola yetim va yuzlarcha xotinlar beva qoldi. Shundan keyin Andijon ichidagi mingboshilarni chaqirib, tezlik bilan eshonni quvib chiqib, tutib kelmoqqa buyurdi. Amalparast mingboshilar har qaysisi necha-necha ko'ppaklarini yoniga olib, har tarafga eshonni izlab ketdilar.

Oq do'ppi ila salla falokati

O'sha vaqtda kimligidan qat'i nazar, oq do'ppi kiygan bo'lsa, istibdod soldatlari «Seniki eshon» deb tutib, urardilar. Yoki salla kiygan kishi uchrasa, uni albatta Dukchi eshonning muridi gumon qilib, tutib, so'roqsiz qamar edi. Shuning uchun shahar mehnatkashlari va rasmiy fuqarolari salla bilan bozorga chiqolmay qoldi. Oq do'ppi degan narsaning urug'i ham qolmadi. Kimda bo'lsa, kuydirib yo'qotdi...

Mingboshilarni eshonni tutmoqqa yuborib, hokimlar qancha askarlarni Mingtepaga, eshonning hovlisiga jo'natdilar. Yo'lda borguncha kim uchrasa, otib o'ldirib, eshonning hovlisiga yetib, daf'atan atrofni o'rab, tintuv qila boshladilar. Eshonning qochgan xabarini eshitib, xonaqohida hech kim qolmadi, hatto bola-chaqalari ham boshqa joyga qochg'on ekanlar, hech kim topilmadi. Lekin xonaqohida hech narsa qo'ymay tamom olib va pechat qilib, jo'nar vaqt Mingtepada uch soat otish qildilar. Bu uch soat ichida soldatlar hovlidan hovliga yurib, kim ko'rinsa, otib o'ldirdilar. Muddat bitganda, eshonga qarashli nimaiki bo'lsa olib, shaharga keldilar. Ashyo jumlasida bir xos sandiqda ko'p xatlar bor ekan, buni ham olib kelib, tarjima qilib ko'rsalar, tamomisi har kimdan borgan duoyi salomlar ekan. Bu duoyi salomlar kimdan bo'lsa, darhol shu odamlarni tutmoqqa amr qilindi. Shuning uchun Andijon shahridan ko'p fuqarolar qamaldilar. To'rt-besh kun ichida atrof qamoqlardan va orqa tog'lardan benihoyat kishilarni tutib kelib, qamatildi. Qamoqxona to'lib, boshqa joylar ham yangidan hibsxonalar qilindi.

Bungacha Turkistondagi bor soldatlarni yig'ib keldilar. Har kun eski shahar ko'chalarida to'p-to'p askarlar yurar va ko'rgan kishini urib, chopib ketar edilar. Bozordagi katta do'konlarning ko'pini sindirib, talab olardilar.

Buning ustiga, Farg'ona gubernatori: «Agar eshon tezda tutilmasa, Andijonni uyezdi bilan birga tamom otish [qatliom] qilaman!» deb buyruq chiqardi va: «Agar shahar va qishloq otilmasin, deyilsalar, eshonning so'filari bilan ko'plashib tutib berilsun!» – degan buyrug'i shahar va qishloq ko'chalarining devorlariga yopishtirib qo'yildi. Bu hodisadan to'qqiz kun o'tib edi, «Eshon qo'lga tushdi», degan xabar eshitilib qoldi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Asir bo'lg'on va qamalg'on bechoralar

«Eshonga qarashli» deb kimni tutib borsalar, beso'roq qamatilar edi. Xususan, tog'lardan Elatiya kattalarini ushlab kelib, harbiy boshlig'i har kun besh-oltitasini turmadan olib chiqib, o'rtaga yotqizib kaltaklaydilar. Uzun qamchi sopiday tut-qayrag'och shoxlari bilan bandilarni olib chiqib, soldatlar o'rtasida yalang'och qilib, do'ng yotqizib, to'rt soldat bosib turadilar. To'rti o'shal kaltaklar bilan orqasiga uradilar. Agar kaltak sinib ketsa, boshqasini olib uradilar. Qirq-ellik marta urgancha «dod» deb turadilar, bundan so'ng ovozi chiqmay, behush bo'lg'ondan keyin, ikkinchisini yotqizadir, boshqalari qarab turadirlar. Shu xilda hammasini urib bo'lib, o'lgani bo'lsa, boshqa qo'yub, tirik bo'lsa, zo'r bilan yurg'izib, turmaga olib kiradilar.

Bir kuni siyosat yuzasidan hamma shahar xalqini mingboshilar vositasi bilan, asirlarni kaltaklaganni ko'rsun deb, haydab chiqildi. Man ham odamlar bilan chiqqan edim. To'g'ri turmaning oldiga olib borib, xalqni qator qildi. Keyin turmadan besh kishini olib chiqib, ularning atrofiga odamlarni aylantirib qo'ydi. Bu bechora bandilarni o'rtaga olib kelib, bir qancha dashnom bilan to'n-ko'ylagini yirtib, tortib yechdi. Ikkitasini miltiq qo'ndog'i bilan urib, yotqizib, qo'l-oyog'ini soldatlar bosib turdi. Buning ustiga mo'ysafid xoin gubernator Chaykovskiy keldi. Bandilarga qarab: «Sizlar podshohi a'zam kattaligini bilmas edingizlarmi? Podshohning o'tli hukmida bo'lg'on askarlariga shunday muomala qilmoqni kim o'rgatdi?» – deb siyosat qildi va soldatlarga: «Ur!» deb buyurdi.

Soldatlar to'plab qo'yg'on uzun kaltaklardan olib, birdan savalab urgali boshlog'onda, bechoralar: «Dod!» deb olamni buzdilar. Biri: «Eshon bilan birga bo'lmasam-da, tavba qildim!» deb qichqirdi.

Urulganlarning orqalari yorilib, go'shtlari uzilib tushdi. Hushidan ketgan vaqtda: «Bas, turg'az!» deb edi, soldatlar «Tur», deb boshiga tepganda, biri turmoqqa qodir bo'lolmadi. Ikkinchisi «Yo, pirim», deb turmoqqa harakat qilib edi, gubernator «Nima deydi», deb, tarjimondan so'radi, tarjimon: «Eshondan yordam tilaydir», deganda, g'azabi kelib: «Yotqizib, yana ur!» deb buyurdi. Yanadan urmoqqa boshladi, orqasidan go'shtlari uzulib tushdi. Ikkinchi turmoqqa qudrati yetmagach, soldatlar sudrab chiqib ketgan hamon o'ldi...

Buni ko'rib, bechoralar bizga qarab yig'lab turar edilar, shu holda ediki, ikkisining hushlari ketib yiqilishdi. Bularni soldatlar sudrab kirib, o'rniga boshqa ikkisini olib chiqdilar. Hosili – xalq qoshida olti kishini urub, ba'zisini o'ldirib, ba'zisini behud qilib, keyin xalqqa birmuncha siyosat qilib: «Podshohi a'zamga osiy bo'lg'onlarning jazosi shu bo'ladir!» deb javob berdi va «Osiylardan 12 kishi osiladir. Hamma xalq chiqib tomosha qilsun!» dedi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Xalq birdan turub eski shahar tomon jo'nadi. Yo'lga chiqqanlariga pushaymon bo'lub, hech kimda so'zlamoqqa majol yo'q edi.

Dor tagida

1898-inchi milodiy, 15-inchi javzo ediki, Eshon isyonini bahona qilib, shahar va uyezd [shimoldan Yettisuv, g'arbidan Yoziyobon, janubdan Vodil, sharqdan Qashqar dovoni o'rtasi]dan ikki ming kishi qamatilg'on edi. Bular ichida aksariyat qirg'izlar bo'lib, o'zbek, qozoq, qipchoq, qoraqalpoq, tojik, uyg'ur va boshqalardan ham «isyonchi»lar deb ushlanganlar ko'p edilar. Bulardan anchaginasi yuqorida aytilgancha kaltaklanib, urulib o'ldirildilar va bir qanchasini osib o'ldirish uchun 8 ta dor qurdilar. Bu dorlar 8–9 gaz yerdan baland bo'lib, tepasiga g'altak o'rnashtirilg'on va o'shandan qora arg'amchi o'tkazilib qo'yilg'on edi.

Bir kuni eski shahardan: «Tamom fuqaro yangi shaharga chiqsun, eshonning so'filaridan 8 kishi osiladir», deb, hammani majburiy haydab chiqdilar. Muddaolari fuqaroga siyosat ko'rsatmak, ularning yuraklarida qo'rqinch qoldirmoq va istibdod saltanati taxtida uzun zamonlar betashvish barqaror qolmoq edi. Bu safar «tomosha»ga majburiy chiqqanlardan biri hikoya qiladirkim: «Bizlarni bozordan va mahallalardan katta oqsoqol farmoyishi bilan mirshablar haydab, taxminan 500 kishini yangi shahar kreposti [qo'rg'on] tagiga olib borib edi: qarasak, adir tarafga 8 ta dor qilib, arg'amchilarni tortib, tayyor qilib qo'yg'on ekan. Bu holda turmaga 50 ga yaqin soldatlar o'lan [ashula] aytib kirib, 5 ta musulmonni haydab chiqdi. Bechoralarning rang-ro'yiga aslo qarab bo'lmaydir...

Biz fuqarolarni tikilgan dorlar atrofiga aylantirib qo'yub, avval besh kishini nihoyat g'azab bilan o'rtaga olib chiqib, dorning tagiga olib keldilar. Bularning holini aslo bayon qilib bo'lmaydir. Bechoralarning ixtiyori o'zida emas, so'zlamoqqa majollari ham yo'q edi. Qamalganlariga ancha kun bo'lg'on bo'lsa, ovqat yemaganlari ham ma'lum edi. Darhol 5 ta xom surupdan qilingan xalta olib keldilar. Bir mutakabbir «to'ra» qo'lig'a yarim taxta qog'ozni olib, nihoyat qovog'ini solib o'qidi. Tarjimon shu tariqa tarjima qildiki: «Sizlarning podshohi a'zam, impiratur muazzam askari borasi qilg'on hamla, hujumlaringiz va bu isyonga sabab bo'lgan Muhammad Ali Eshonning impiratur a'zamning ulug' siyosatidan qo'rqmay qilg'on fe'liga sherik bo'lib, yordamda bo'lg'onlaringiz sabab bo'ldi. Sizlarning beshovlaringizni harbiy sud osib o'ldirmoqqa hukm qildi. Alhol, sizlarga shu hukm joriy qilinadir», degan hamon soldatlar birdan qilichlarini sug'urib, peshonalariga tutib, yarim soatga yaqin nog'oralarni chalib turdilar.

Haligi xaltalarni kiydirib, dorning tagiga qo'yilg'on kursi ustiga yetaklab kelib chiqardilar. Bo'yinlariga dor arg'amchisini solib, oyoq ostidagi kursini

@tarixiykutubxonasiga

tepib yubordilar. Har beshi ham osilib qolib, taxminan ikki minut aylanib, harakat qila turib, keyin qimirlamay qolishdi. Andak turg'ondan keyin bir do'xtur kelib, osilib turg'on bechoralarning qorniga quloq solib, keyin bir nima deb qo'ydi.

Soldatlar kelib, arg'amchini bo'shatib, o'liklarni dorning yoniga kavlab qo'yilgan chuqurga tepib tushurib, ustiga kurak bilan tuproq tortib qo'ydi. Bularni ko'mub xotirjam bo'lg'ondan keyin, gubernator fuqarolarga qarab, oq podshohni birmuncha maqtab, «impiratur a'zam kazo va kazo!..» deb, oxiri: «Bu ko'rilgan siyosatni ko'rmaganlarga bayon qilinglar, har kim isyon qilsa, mundan battar bo'ladilar!» – deb xalqqa javob berdi.

Istarshiy oqsoqol

...Eshonni tutib kelgandan keyin hukumatdorlar Andijon shahar va uyezdining fuqarosidan nihoyat xavfsiragan edilar va: «Eshon bilan hamma fuqaroning maslahati bir, albatta, bular bir kun eshonning orqasidan hujum qilsalar kerak», deb eshonni necha qavat zanjirlar bilan bog'lag'on edilar.

Shuning uchun eski shaharni muhofazat qilib turish ixtiyorini katta oqsoqolga berib, shunday ta'kid qildiki: «Eski shaharni ehtiyot bilan saqlab turasan! Eshong'a bordi-keldi qilg'on odamlar bo'lsa, hammasini surishtirib tutub berasan! Umumiy fuqarolarni qaysi xil siyosat bilan bo'lsa bo'lsun, Rusiya podshohiga tobe' va mute' qilasan! Rusiya amaldorlari eski shaharga tushsalar, hamma fuqarog'a o'rnidan turib, engashib salom qilmoqqa o'rgatasan! Do'kondor va rastadagilar bo'lsa, hammasi bo'lsun, hokim, pristav, hosili, qaysi amaldor bo'lsa bo'lsun, eski shaharg'a tushsa, hammalari do'konlarining oldiga tushib qator bo'lub, engashib salom qilib tursinlar! Mullalar va mudarrislar bo'lsa, shogirdlarga Dukchi eshondan shikoyat qilib, uni yomonlab tursunlar! Va maktabdorlar bo'lsa, mayda bolalarga: «Eshon osiy bo'ldi, bog'iy bo'ldi», degan gaplarg'a o'rgatsunlar! A'lam, muftilar bo'lsa, «Dukchi eshonni osiy, bog'iy bo'lg'oni uchun tezda o'lim jazosig'a mustahiq bo'lmog'i shariatda ham durust», deb fatvo bersunlar! Adib va shoirlar Dukchi eshonning tamom qilg'on yomonlig'i va hiylalarini she'r [bayt] qilib, gazitga yuborsunlar! Agar har kim bu xususda qilg'on siyosat jabrindan arz qilsa, biz u arizachini o'ziga jazo beramiz!» – deb, qo'liga prikaz va mandat qilib berildi va har kungi voqealarni erta bilan bildirib turasan, deyildi.

1898-inchi milodiyda, hanuz Dukchi eshon qamoqda turg'onda, «unga qarashli yordamchilar» deb, o'zbek, qirg'iz, qipchoq, qoraqalpoq, qashqarlardan har kun nechtasini tutib kelib, osib, qanchasini kaltaklab, o'ldirib turadir. O'lg'onlar o'rniga atrofdan odamlarni tutib kelib turadir.

@tarixchi_kutubxonasiga

Shahar nihoyatda besaranjom bo'lib, xavfda bo'lg'on vaqtida yangi tayin bo'lg'on katta oqsoqol Qodirqul [shahar mingboshisi] ko'cha-ko'chaga mirshablar qo'yub, mahallalarga odamlar yuborib, har masjidda, imom boshliq tamom qavm va ahli mahallalarni oldirib borib, «Beda bozori» degan yalang va keng joyga necha ming kishini saf-saf qilib qo'yub, hokimdan eshitgan gaplarini fuqaroga aytib, so'zining oxirida: «Agar ko'cha-ko'yda hokim, pristuf yoki to'ralar sizlarga ro'baro kelsa, darhol ruku' qilib, salom qilasizlar! Va rastalardan o'tub qolsa, hammalaringiz do'kondan barobar tushub, mana shu turg'onlaringizdek, qator bo'lub, rastadan o'tub ketguncha engashib, salom qilib turasizlar! Chunonchi, man salomni sizlarga o'rgatmak uchun chaqirdim. Mana, men hozir «Tashla!» deyman. Barobar, namozda engashgandek, tashlaysiz», – deb bir chetga borib, «Tashla!» deya shovqin soladilar. Bechora xalq barobar hayit namozida yoki juma namozida ruku' qilg'ondek, engashadir. U chetga borib, «Tur!» deganda hamma barobar turadir. Yana «Tashla!» degan hamon barobar engashadir. Agarda biron kishi balandroq tursa yoki past bo'lub ketsa, yugurib kelib, bu odamni do'pposlab, urub-tepib, so'kib, «Barobar turg'il», deb tanbeh qiladir. Yana, «Tashla!» deydir, xalq engashadir.

Alhosil, bechora fuqaroni 20 marotaba «Tashla!» deb ruku' qildirib, keyin: «Hamma vaqt shunday barobar engashib turasizlar!» – deb javob beradir. Ertasi yana boshqa mahalla odamlarini imomlari bilan chaqirib, shu ta'limni qiladir. O'rtada necha marotaba xalqni urub, yuzlariga nopok og'zidan tupurar edi.

O'lum jazosi

...Soat sakkiz bo'lg'onda, hammani qator-qator qilib, maktab bolalarini oldiga solib, yangi shaharda taxminan 8000 kishi bo'lsa, 2000 mayda maktab bolalarini olib chiqib, Tuproqqo'rg'on oldida, adirning tagiga, qon isi keladirg'on, tikib, sozlab qo'yilg'on dorlarning atrofiga odamlarni aylantirib qo'ydi. Hokim chiqib, fuqaroning ko'pligini ko'rib, oqsoqolga «Rahmat» deb, yosh bolalarni ham dorning bir tarafiga qator qilib qo'ymoqqa buyurdi.

Bir tarafdan joy bo'shatib turg'on holda bir kishi: «Yosh bolalar qo'rqarmi ekan? Odamlar orasig'a qo'ysak, qalay bo'lar ekan?» – deb mingboshig'a aytgan edi. U borib hokimga aytgan ekan: «Qo'rqqani yaxshiroq. Esidan chiqmaydir. Dorg'a yaqin qo'yulsun», deb buyurubdur. Mingboshi kelib, dorning qibla tarafidan odamlarni haydab yuborib, hamma maktab bolalarini qator qilib qo'ydi.

Bir vaqt soat o'nga yaqin ediki, bir to'p zanjir bilan qo'l-oyog'i bog'langan olti kishini o'rtaga olib, o'lan aytishib keldi va dor tagiga keltirib, qator-qator qildi. Bularning oldig'a to'rt tabl [nog'ora] osg'an soldatlarni qo'y-

@tarixchi_kutubxonasiga

di. Ularning ichida eshonni ikki soldat yetaklab, yig'inning atrofini aylantirib, «Eshon shu odammi?» – deb so'rab yurdi. Hech kim: «Shu kishi Eshon emas» yoki «Eshon» deb aytmadi. Aytsa, «Sen ham borgan ekansan yoki bilar ekansan», deb meni ham ushlab qoladilar», – deb har kim vahimada edi...

Shu vaqt ediki, yig'in tashqarisida voy-voylab, dod-faryod bo'lib ketdi. Qarasak, osiladirg'on odamlarning bola-chaqalari, xotin-qiz, ushoq bolalari ekan. Xotinlar «Tul bo'ldik!» deb, bolalar bo'lsa, «Yetim bo'ldik!» deb faryod qilar edilar. Bu holni ko'rgan xalqning ko'ngli yana buzilib, xoinlardan qo'rqub, o'zlarini yig'idan to'xtatar edilar...

Bir qancha xotinlar va bolalar qaqshab, shovqin solib yig'laganlarida, nog'oralari bilan turgan soldatlar birdan nog'ora chalib yubordilar. Bu holni ko'rgan mazlumlar dard-u huzun bilan yig'lay boshladilar. Hammaning ko'zi yosh bilan to'ldi. Tashqarida turgan gubernator dod-faryod qilguvchilarni qamab qo'ymoqqa buyurdi. Darhol besh-o'n soldat chiqib, bularni urib turib, turmaga olib kirdilar. Va eshonning avlodiga qo'shib qo'ydilar [Eshonning avlodi tamom ushlanib, asir qilinib, qamalgan edi]. Bularning qamalg'anini ko'rgandan keyin hech kim yig'i chiqarmay turdi.

Bu holda bir mutakabbir to'ra dor tagiga kelib, cho'ntagidan bir taxta qog'oz olib, baland ovoz bilan o'qidi. Tarjimon shunday tarjima qildi.

O'lum farmoni

«...Mingtepa qishlog'ida turg'uvchi Muhammad Ali eshon o'ziga qarashli bir qancha odam bilan podshoh hazratlariga osiy bo'lib, tig' ko'tarib, Andijon kazarmasiga hujum qilib, 23 ta qahramon askarni shahid qildi. Binobarin, bu isyonchi eshonni o'ziga qarashli odamlari va muridlari bilan hukumatdorlar tomonidan ushlanib, harbiy sud orqali haqiqat qiling'anida ayblarini iqror qilib, o'z bo'yinlarig'a oldilar. Binobarin, harbiy sud eshonni va uning muridlari bo'lg'an ushbu besh kishini osib o'ldirmakka hukm qildi. Hozirda bu o'lim jazosi boshqalarg'a ibrat bo'lsun uchun ijro qilinur»...

Kafan kiydirish

Eshonni dorning tagiga olib kelib, oyog'idagi temir kishanni ochamiz, deb urindilar, iloji bo'lmadi, shekilli, bolg'a bilan urib, sindirdilar va boshqa rafiqlarining kishanlari ham urib sindirildi. Kishanlarni chetga tashlab, bir shakar qopchani ochib, ichidagi xom surpdan qilingan 6 ta xaltani olib tashladi. Uyezd hokimi shu holda katta oqsoqolni chaqirib: «Bir a'lam toping, bularga iymon o'qutsun!» —degach, Faxriddin qozini chaqirib, dor tagiga olib bordi.

@tarixchi_kitoblar

Qozi birinchi eshonga, ikkinchi Chibil bo'lusga va boshqalariga bir-bir iymon o'qutdi. Hushidan ketgan ikkitasi ham sag'al hushiga kelib qolgan edi, bularga ham iymon o'qutdi. Bular o'qushga qodir bo'ldilarmi, yo'qmi, ma'lum bo'lmadi. Hosili, qozi tez-tez bir narsalarni aytib, dor tagidan qochmoq fikrida edi. Bu vaqtda Chibil bo'lus o'zini rostlab, dadillik va baland ovoz bilan: «O', musulmonlar! Guvoh bo'lunglar, man nohaq ketayotipman. Manga bu hokimlar zulm qilar...» – deb so'zlab turib edi, hokim kelib, «Bas, bas!» dedi. Unga quloq solmay yana so'zlab turib edi, ikki soldat kelib, miltiqning qo'ndog'i bilan 4–5 urdi, shundan keyin indamay qoldi.

Bu holda biri kelib dorning arg'amchilarini tushurib, sirtmoqlarini ochib, tuzatib qo'ydi. Keyin ikki soldat yerda turgan xaltalarni yerdan barobar ko'tarib olib kelib, qator turgan bandi asirlar boshiga kiyim-boshlari ustidan kiydirib qo'ydi. Bechoralarning oq xaltalar ichida nima holga tushgani bizga ma'lum emas, yolg'iz oyoqlarigina ko'runur edi.

Daf'atan ikki soldat eshonni dor tagiga yetib kelgan mahal boshqa sheriklarini ham yetaklab ketib turgan holda, ikkisi yana behush bo'lib, yiqildi. Bularni sudrab, dor tagiga keltirib, uning ostiga qo'yilgan ikki pog'onalik kursiga «Chiq, chiq», deb eshonni chiqardi.

Shu holda kafan ichida bir o'zi qadam qo'yib chiqdi va baland ovoz bilan: «Ey musulmonlar, birodarlar, guvoh bo'linglar, men nohaq tuhmat bilan ketib turubman. Bola-chaqalarim mayda-chuyda, ko'p edi. Bu hokim va to'ralar yaxshi adolat qilmadi. To'g'ri haqiqat qilmadi. Duo qilinglar, shu zolimlarni...» degan vaqtda bir to'raning ishorati bilan birdan sirtmoqlarni solib, kursilarni tepib yubordilar...

... Buni ko'rub turgan yosh bolalarning ko'plari qo'rqib: «Dod, ota, ona!» deb yig'lab yubordilar. 4–5 tasining hushi ketib qoldi va yiqildi. Bolalar turgan taraf to'polon bo'lib ketdi. Aksar bolalar qochib, chiqib ketdilar. Odamlar bo'lsa: «Qo'rqdi, qo'rqdi! Bolalarni orqaga olinglar, yuziga suv sepinglar!» deb, to'polon qilib yubordilar. Hushidan ketgan bolalarni darhol tashqariga chiqarib, odamlar boshlarini uqalab, mashaqqat bilan hushiga keltirdilar.

...Dorni tikar vaqtida dorlarning tagiga odam bo'yidan pastroq chuqurlar qazilib, ustiga bo'yra yopib qo'yilgan ekan. Bir to'p soldatlar kelib, qo'llaridagi shoflari bilan arg'amchilarni kesib yubordilar. Hammalari yerga cho'zulub tushdilar. Keyin bir arava ohak keltirib, olti kishini ikki chuqurga tashlab, ustidan ohak tashladilar. Har tarafdan tuproqlarni tortib, biror gaz tuproq tushgandan keyin yana ohak solib, hosili tuproqni ohak bilan aralash qilib, qattiq tepib, ko'mdilar.

Janoza kabi rasm ul tarafda tursun, ko'mishda musulmon kishi ham ishtirok qilgani yo'q; yozib bo'lmaydirg'on xorlik va mazlumiyat bilan ko'mil-

@tarixchi_kutubxonasiga

dilar. Ko'milgandan keyin tepasiga hamma vaqt navbatchi soldatlar qo'yulib, qarab turar edilar va eshonning va boshqa rafiqlarning avlodlari va qavm-qarindoshlari kelib, jasadlarini olib ketish ehtimolidan saqlar edilar.

Osilganlarni ko'rgan bolalar uylarida necha kun betob bo'lub, kechalari cho'chub uyg'onib, uyqularida shovqun solib turub ketib, necha kunlargacha ota-onalari uxlamay, bolalaridan qo'rqub, asrab chiqar edilar. Bu qo'rquv natijasida bir necha bolalar halok bo'ldilar...

Xalqning ovoralig'i

Farg'ona harbiy gubernatori eshonni osib, hanuz mazlumlar jasadi osilib turg'an vaqtda «O'lganning ustiga ko'mgan» degandek qilib, umumiy majburiy chiqqan fuqarolarni yig'ib, qattiq siyosat bilan qo'rqutub: «Hali Andijon xalqining gunohi ko'b, bugun Andijon tuprog'ini osmong'a sovuraman, xalqini tamoman ixroj qilib, o'rnig'a ichkari Rusiyadagi bevatan krestyanlarni olib kelib o'rnashtiraman va mol-mulklarini musodara qilish bilan jazo beraman!» degan turli siyosatlar qilib, javob bergandan keyin, hammaga qattiq vahima tushdi. Shahar xalqi ko'pincha hovlilarida chuqurlar kavlab mol-amvollari va yaxshi ko'rgan narsalarini ko'mib, og'ir asboblarini chuqur hovuzlariga tashlab, qimmatbaho gilam va kigizlari bo'lsa, uzoq qishloqlarga yuborib, necha kunlar sargardon bo'lub, uylarida yotar uchun ko'rpa-kigiz qoldirmay, mayda va ma'sum bolalari bilan qoq yerda yotib, ko'b ovoraliq tortdilar.

...Shunday vahimali va xavfli kunlarda: «Andijonning eski shahari otilishdan qolibdir, ammo eshonning yurti va qishlog'i bo'lg'an Mingtepani tekis qilmoqqa ko'b soldatlar necha adad to'plar bilan kelgan emishlar», degan duv-duv gap chiqib qoldi.

Mingtepani to'pg'a tutush

Darhaqiqat, bu xabar sahih va rost xabar ekan, ertasiga Mingtepa fuqarolaridan ba'zilari shaharga qochib ketdilar. Bulardan xabar so'ralsa, javobiga aytadirlarki: «Kecha vaqti bor edi. Ba'zilar endi turgan edilar va ba'zilar o'rinlaridan turmag'an edilar, qishloqning janub tarafidan birdan to'p [zambarak] va miltiq otilib qoldi, to'polon bo'lub, ust-bosh ololg'ani olib, ba'zilari mayda bolalarini ko'tarib har kim har tarafga qarab turib ketdi», deb, «Bizda nima ayb, axir, bizdan kelib gap so'rasa kerak», deb beparvo turgan Mingtepa qishloq fuqarolari ustiga kechalab borib, janub tomondan sahar vaqtida to'pga tutub qolibdilar. Aksar xotinlar beshikdagi bolalarini zo'rg'a eshib olib qochibdirlar. Ba'zilari shunga ham qodir bo'lolmay, jonlarini olib qochganlar.

@tarixchi_kurbonmaniga

...Mingtepa borgan soldatlar uch kun muttasil ko'zlariga ko'ringan xalqni, hatto «mashq» deb tovuq va itlargacha otib yuborgan edi. Uch kundan so'ng Mingtepa qishlog'ining ichida hech kim qolmag'ondan keyin soldatlar kirib, talon-toroj qilib, tamom ko'rpa-to'shaklarni olib chiqib, kigiz va gilamlarni Mingtepaning katta Iydgoh masjidiga yig'ib, hattokosa va taboqlarini shu masjidga to'pladi va kim bo'lsa bo'lsun, atrofdagi qishloqlardan mingboshilarg'a qilg'an buyrug'i bilan mardikor chaqirdi. Atrof qishloqlardan har qaysi mingboshi qo'l ostidan 2000 dan mardikor yozib, oldirib keldi.

Mingboshilar 2000 dan mardikorlarni o'zlarini olib bordilar. Mingtepa qishlog'ining tamom imoratlarini ochdilar. ... Hosili 15 kun odamlarni shu holda majburiy ishlatib, tamom qishloqning balandligini pastga olib, tekis, barobar, musattah qilib qo'ydi. Eshon hovlisini bo'lsa, 15-nchi kun Andijon hokimi va gubernaturi va ko'b to'ralar borib, bir qancha zemlyamer [tanobchi]lar va muhandislar vositalari bilan tamom maxfiy ishlarini va gaplarini ochib, plan qilib, suratlarini olib, kamokan devorlar orasidan qo'yilgan quvur, trubalarning planini qilib, fuqarolarga ko'rsatish uchun bostirib chiqarib sottirdi.

Mingtepaga mustamlakachilarni o'rnashtirish

Mingtepa qishloq xalqiga tekislatib, tamom musattah qilg'andan keyin, uyezd hokimi to'rt-besh yer o'lchaydirg'an to'ralar bilan chiqib, 8 kunda tamom Mingtepani mujiklarga chek qilib o'lchadi. O'rtasidan to'g'ri ko'chalar chiqarib, ko'chaning ikki tomonidan xona-joylik imorat tarhini qilib chizib, to'rt yuz ellik xonalik bir posyolkani tayyorlab qo'ydi.

Eshon xonaqohining o'rnini tekislab, cherkov qilishga qaror qilindi. Bu ish esa musulmonlarni xafa qilmoqqa bo'lgan bir xusumat edi, bo'lmasa butxona qilarlik baland va soz joylar ham ko'p edi. Keyin oradan bir oy o'tganda, ichkari Rusiyadan nihoyat ko'b mujiklar kelib qoldi. Bularning har qaysilariga qarz va yordam puli topib berib, shu Mingtepada tayyor va plan qilib qo'yg'on joylarga xona, joy berib, o'rnashtirdilar. Lekin bularning tamom imoratlari bitguncha musulmon dehqonlarini navbat bilan mardikorlikka olib kelib ishlatib turdilar...

...Eshon hujum qilg'an kuni ertasidan tortib bir yilgacha tamom bularning zulmi tobora avj olib, ko'p kishilarni xonumonidan ajratdilar.

Bir kishini eshonga qarashli, deb qamab qo'ysalar, yuqorig'a ropurti chiqqanda, eshon hodisasi zulmga katta bahona bo'lg'ani uchun, tergovchilar ko'ziga zo'r ish va katta jinoyat egasi bo'lub ko'runub, ko'p yillar Sibirga haydalar edi. Bechorani ajratib olmoq payiga tushgan qavm-qarindoshlari

@tarixchi_kutubxonasiga

tamom bor-yo'g'ini sarf qilib, hatto yer va mulklarini sotib, tergovchilarga pora, deb bersalar ham, natijada yana o'zlarini osish yoki Sibirga yuborishga qaror bo'lar edi...

Hakandning vayron qilinishi

Uyezd mahkamasida xizmat qiluvchi mirzo bir kun: «Ushbu kun Mingtepani xarob qilib bo'lgan soldatlardan shaharga qaytishda Yikchi eshonning yuradurg'on yo'llarini ikki tomondan 15 gazdan buzib borsaq, ham ko'chalar katta bo'lib qolar edi, ham ushbu ko'cha yurgan odamlarning xotiralariga podshohi a'zamning isyonchilar haqida qiladirg'on tanbehi tushub, siyosatimiz yangilanib turar edi», deb ijozat so'ragan xat keldi. Kattalar uning maslahatiga kirishdilar. «Agar ertagacha shu gap ma'qul bo'lib chiqsa, shahar ichidan ham ko'p hovli va joylar buzulub ketadir», degan xavfli xabarni olib keldi.

Bu yomon gap quloqdan quloqqa eshitilib, shahar ichida eshon yurgan ko'chalar chetida bo'lgan odamlarga ma'lum bo'lub, nihoyat besaranjomliqqa tushdilar...

1898-nchi yili 25-saratonda bir to'p zemlemer [yer o'lchovchi]lar Hakandga chiqib, yangi shaharga zich [qo'shilgan] yaqin joylarni Avg'on bog'dan boshlab o'tab, bayroq tutib keldilar. Bu bayroqlar Hakand fuqarolarining eng obod imorat va hovlilari va bog'lariga to'g'ri kelgan edi. Aylanasi taxminan 5 chaqirim joygacha vayron qilish alomati bo'lgan bayroq qurilgan edi.

Vayron qilishga ma'mur bo'lgan to'ralar taxminan 25 kun Hakand qishlog'ida yurib, Dukchi eshonning yurgan yo'lini o'rtaga olib, yangi shaharning kun ko'rush tarafini tamoman buzish uchun o'lchab, alomatlar qo'ydilar. Bu alomatlar qo'yilub, vayron qilinmog'i sobit bo'lg'onidan keyin bechora vatan egalarikim, taxminan 500 uyliq xona va bog'lar edi, bularning hammalari to'planib, turli-tuman arizalar bilan Toshkentgacha murojaat qilib, siyosat eshitish va g'amginlikdan boshqa hech narsa ko'rmadilar.

Bir kun bularni gubernator chaqirib: «Sizlar hech joyga ovora bo'lib arz qilmanglar; arizalaringiz qabulga kirmaydur, xudoga shukr qilinglarkim, podshoh imperator muazzam sizlarning joylaringizni musodara qilish bilangina ko'ndi. Hammalaringizni qatliom qilib, bola-chaqalaringiz bilan yer yuzidan quvib yuborish ehtimoli bor edi. Ammo oq podshoh sizlarga inoyat va marhamat qildi. Endi sizlar 15 kun muddat ichida bayroq tikilgan joylardagi imorat va bog'laringiz bo'lsa, ochib, bo'shatib qo'yinglar! Bo'lmasa, 15 kundan so'ng soldatlar orqali to'pga tutib, tekis qilamiz. U holda imorat va asbob-ro'zg'orlaringizdan mahrum qolarsizlar. Ham o'zlaringizni pod-

@tarixchi_Jamshidxonasiga

shohi a'zam farmoniga qarshilik qilg'anlar qatorida ko'rib, jazog'a mustahiq qilinadir, chiqinglar!» – deb haydab chiqardi.

Shundan keyin bir qanchalari pul to'plab, Toshkentga arz qilmoq uchun bir necha odamlarni yuborg'an edilar. Lekin bular qaytib kelgunlarlicha u yerdagi hokimlar qolganlarini chaqirib: «Nima uchun shu vaqtgacha ochmaysizlar», deb, necha xil dashnomlar bilan siyosatlar qilib turg'an edilar. Qaytib kelib, bosh gubernatordan qattiq siyosatlar va dashnomlar eshitganliklari va arzlarining tinglanmaganini bildirdilar. Keyin Andijon uyezd hokimi bularni, 15 kishini qamab qo'ydi. Bahonasi: «Sizlar Toshkentga borib arz qilibsizlar, go'yoki bizlarning hukmimizga norozilik izhor qilibsizlar!» – demak edi. Ko'pchilik borib, bularni qamoqdan qutqarmoqchi bo'lganda, bir hafta muddat ichida ish boshlamoqqa tilxat berib, yig'lab-yig'lab qaytdilar.

Bu kunlarda ham atrof tog'lar va qishloqlardan ba'zi mingboshilarg'a yoki aminlarga bir zamonda yomon so'z aytilgan bo'lsa yoki adovati bo'lsa, u odamni olib kelib, avval bir narsa chiqsa — xo'b, chiqmasa, darhol «Eshonning muridi yoki muxlisi edi», deb ropurt berib, falokatga duchor qilar edilar. Ma'mur bo'lg'on to'ralar o'z askarlari bilan chodirlarini tikib, xalq ko'zida har kun mashq qilib turdilar.

Bir kun tamom fuqaroni chaqirib, gubernator tomonidan berilgan farmon qog'ozini ushlab turub xalqqa shunday amr va farmoyish qildi: «Agar sizlar ushbu kundan boshlab bayroq tikilgan joylardag'i imorat va bog'laringizni buzib, bir hafta ichida saranjom qilib, yalang qilmasangizlar, biz o'zimiz buzamiz. U vaqtda sizlar hech narsangizga molik bo'la olmaysizlar, har narsaki qo'limizga kirsa, o'lgan soldatlarning foydasig'a olinadir. Ertadan ish boshlasangizlar xo'b, to sizlar tamom ochib olib, yalang qilib bizg'a topshirg'anlaringizgacha o'zimiz ustida turamiz. Shunga ko'nmasangizlar o'zlaringizga ham Dukchi eshonga berilgan jazo beriladir. «Shunga nima deysizlar?» deganda, xalq zamonning qo'rqinchli vaqtidan xavflanib: «Taqsir to'ralar! Bizga bu yil fursat bersangizlar, mevalarimiz va uzumlarimizni yig'ishtirib, sotib olsak. Qo'limizga pul tushib, keyin bir joyg'a borib vatan qilib o'ltirsak, alhol, buzub ol, deysiz, qanday qilib shu meva qilib turgan daraxtlarni kesamiz?» — deb arz qildilar.

Zolimlar berahmlikni intihosiga yetkazib: «Bog', imorat oq podshohning qo'l ostida yo'qdir. Uning hukmini bajo keltirishdan boshqa chora yo'q. Ertaga buzasizmi yoki buzmaysizmi? Shuni aytasiz, agar buzmas ekansizlar, bu kun biz to'p quvvati ila vayron qilib, yer bilan barobar qilamiz. O'zingizni imperatur a'zamga qarshi bo'lg'an va hukumatga qarshilik qilganlar qatorida hisob qilamiz. Gap shul, hayda, jo'na!» – deb quvib yubordi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Mazlumlar yig'lab-yig'lab tarqalgandan keyin, ot-arava taraddud qilib, ertasi asbob va ro'zg'orlarini bo'shatdilar. Qishloqning chetidagi hovlilarga tashimoqqa boshladilar. G'oyat shoshilinch sur'atda ro'zg'orlarini tashib, keyin qon yig'lab, imoratlarni ochib tashladilar, bu yig'lab yurgan mazlumlar ustiga to'ralar va soldatlar kelib: «Sanmi, eshon!» deb masxara qilar edilar. Bir dehqonning ko'p yig'laganini bir soldat ko'rub: «Nima uchun yig'laysan?» – deb savol qiladi. U javobig'a: «Hokim gubernatorlarning berahmlig'ig'a, bizdek kambag'al fuqarolarni bexonumon qilg'anig'a va bola-chaqalarimiz bilan ko'chada qolg'animizg'a yig'layman», deganda: «Sen hokim gubernatorni zolim deding», – deb o'n yillik Sibirga hukm qilib, bola-chaqalariga ko'rsatmay, jo'natib yuborilg'ondir.

Mana bu zulm xabarini boshqalar eshitib, har qancha yig'lasalar ham, birorta soldat yo to'rani ko'rsalar, darhol o'zlarini to'xtatib, yig'lamas bo'lar edilar. Hatto xotin-qizlar va bola-chaqalar vaqt tang, fursat oz qolg'oni uchun barobar kecha-kunduz ishlab, qo'llariga bir hafta ichida kirgan narsani g'animat bilib qoldi.

O'likfurushlar

...Dukchi eshonning tog' va toshdag'i, shahar va qishloqlarda oshkor zulm va qahrlarig'a chidamay, jonidan to'yib qilgan hujumi zo'r bahona bo'lub, fuqaroni ikki tarafdan muddalarining boricha va qo'llaridan kelganicha ezib, yomonliqlarini qildilar. Soldatlarini ko'cha va sahroda yotqizib qo'yib, yuqorida ko'rsatilgandek, 15 kungacha qimirlagan jonni qo'ymay otib turdi. Beixtiyor ishlashga va mardikorchilikka, ayniqsa, qurt tutgan va vaqti bo'lgani uchun barg kesishga borg'an mehnatchi bechoralarni tutdek to'kib, o'liklarini it, qush yeb ketdi. Hatto qatig' va sut sotmoqqa ketib turg'an ma'sum bolalar berahmlik bilan otib o'ldirildi.

Ma'sum bolalarning ota-onalari o'zlari ko'chaga chiqa olmay yoki bolalarining o'ligi ustiga borolmay, kechalari soldatlarni ohista chaqirib, bolalarining o'ligini topib berish uchun base' qilib, ko'b miqdorda pul berib, topib oldirar edilar. «Pora berilsa, o'liklarni soldatlar ohista topib berar ekan», deb ko'b kishilar bu yo'l bilan borib, soldatlardan o'liklarini sotib olar edilar. Bora-bora bu ish to'ralarga ham ma'lum bo'lub, bular ham musulmonlar bilan kechalari so'zlashib, o'likfurushlik qilishga kirishdilar.

Biz fuqaroning begunoh o'lganlarimiz yetmay, o'z o'lik jasadlarimizni o'liklariga it, qush tegib, qaysisi qo'lsiz, qaysisi oyoqsiz va qaysi birisining yuz-ko'zi yirtiq holda sotib oling'an. Bundan boshqa qalam bilan takror qilib bo'lmaslik darajadagi haqoratlar tiriklarimizgagina bo'lmay, o'lgan ona, inilarimizga ham tekkan edi. Mana bu kabi haqoratni moddiy

@tarixchi_kutubxonasiga

ziyonimiz va chor hukumatining Turkiston dehqonlariga qilgan moddiy va ma'naviy adovati va zolimligi, deb nom bersak, yolg'on yozmag'on bo'lamiz.

Vayrona va «Marhamat»

Shaqovatpanoh to'ralar, falokatmaob hokimlar Andijon shahrining bog' va bo'stoni bo'lg'an Hakand qishlog'ini «Dukchi eshonning yurg'an yo'li», deb bahona qilib, yuqorida yozilg'ondek, vatan egalarini miltiqlari bilan otib o'ldirib, qancha bolalarni yetim, qancha xotinlarni tul qilib, obod bog' va bo'stonliq navnihol daraxtlarni ildizi bilan o'z egalariga kestirib, ishkom [valish]larni buzdirib, hatto tep-tekis qildirdilar. Hakandning tekislangan joyini bir qancha soldat va to'ralar chiqib aylanib ko'rdiki, 25 kun ilgarigi bog' va bo'stonlardan aslo nishona qolmagan...

Askarlar Mingtepani xalqi bilan to'pga tutib, qari va ojiz kishilar va yosh bolalari to'pning o'qi bilan parchalanib ketdilar. Tamom imoratlarini vayron qilib tashlab bo'lg'andan keyin, to'pga tutmoqqa borgan soldatlarning boshlig'i 25 kundan so'ng Andijon shahriga kelib, gubernatorning qilg'an zulmi va sitamining otini podshohi a'zamg'a tig' ko'targuvchilarga tanbih qo'yib, ropurt topshirdi. Bu topshirg'an ropurti eski daftarlar saqlanadurg'an arxivlarda bo'lsa kerak. Dukchi eshon qishlog'i bo'lgan Mingtepani go'ristong'a aylantirg'andan keyin yarim podshoh ichki Rusiyaga borib, to'rt yuz uylik mujik talab qildi va mujiklarg'a Mingtepa qishlog'ini marhamat qildik, deb qishloq otini «Marhamat» qo'ydi. Saratov va Samara taraflardagi rang-ro'yiga qarab bo'lmaydurg'onlardan Andijong'a to'rt yuz uylik yetib keldilar. Bularning hammasini xotin, bola-chaqalari bilan Mingtepaga olib borib joylashtirdi.

Bu yangi kelgan «mehmon»larning atrof qishloqlardagi musulmon dehqonlariga qilgan zulmlari aslo aytilib bitirilmaydirg'an va bepoyondir. Bu kelganlar andak kunda boy bo'lub, qishloq fuqarosining ko'pini o'zlariga xizmatkor qilgan edilar.

@tarixchi_kutubxonasiga

VI BOB. RUS TILIDAGI MANBALAR

1-§. ARXIV HUJJATLARI

O'rta Osiyoning Rossiya bilan savdo aloqalariga oid hujjatlar

O'rta Osiyo va Rossiya savdo aloqalari yuz yillar davomida rivojlanib borgan. Savdo aloqalariga doir ma'lumotlar mahalliy manbalarda deyarli uchramaydi. Rossiyaning Omsk davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlarda Buxoro va Toshkent savdogarlarining Sibir bilan olib borgan savdo aloqalariga doir qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Ushbu hujjatlarda O'zbekiston va Rossiya o'rtasida olib borilgan savdo aloqalari bilan birga tashqi aloqalarning yo'lga qo'yilishi masalalariga doir muhim ma'lumotlar mavjud. Omsk davlat arxividagi bu hujjatlar tarix fanlari doktori, professor H. Ziyoyev tomonidan aniqlangan va o'rganilib, nashr qilingan. Quyida ushbu hujjatlarning o'zbek tilidagi tarjimasi keltirilgan.

Sh.H. Davurova

Tijorat xatlaridan ko'chirmalar[1]

...Ular meni rad etishdi va yo'l ochmadilar, men o'zim oldingiday o'yladimki, Buxoroliklarning g'arazli xatti-harakatlari bo'lsa-da, imkoniyat bor – Sizlarga nima haqida ekanligini tushuntirib o'tganimdek, o'tgan yili Buxoroga tovar yuborishni to'xtatdilar, Xiva bilan ochiqdan ochiq aloqalar buzilgan, Qo'qon va Toshkentda esa bizga iltifot ko'rsatadilar va hurmat qiladilar. Ammo ingliz tovarlari forslar bilan Mashhad va Qobul orqali katta miqdorda butun Osiyo kichik shaharlariga olib chiqib ketilgan, ularga tovarlar emas, balki rus oltini kerak edi. Ular bir qo'li bilan ularni bizdan olishadi, boshqasi bilan ingliz tovarlari uchun berishar edi.

Shu ishonarli dalillar asosida bizning Petropavlovsklik prikazchiklardan uch dona xatni jo'natayapman. Sizga ma'lum bo'lsinki, oliyjanoblik yuzasidan xafagarchilik bo'lmasligi uchun xatda ko'rsatilganidek, osiyoliklar o'zlarining viloyatlarida bizni uyaltirmasliklari uchun o'zlarida

[1] Sankt-Peterburgdagi Rossiya Markaziy tarixiy arxivi. 560-jamg'arma, 4-ro'yxat, 1326-yig'ma jild, 2-3-varaqlar. *Qarang:* Ziyoyev H. «O'zbekistonning Sibir orqali Rossiya bilan aloqalariga doir arxiv hujjatlari to'plami (XVI–XX asr boshlari)». – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2013. – 480–481-betlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

nima bo'lmasa shuni olsinlar, mayli, ular oltinni, temirni, misni, cho'yanni, charmni olib ketsinlar.

Men sizga yozgan edim, bizdan o'tgan yili boj uchun 1 kishidan 7 tanga, o'zlarining savdogarlaridan 1 kishidan 40 tangadan, boshqa din vakillari bo'lgan yahudiylar, hindlar, forslardan 1 kishidan 20 tangadan, ruslardan esa 1 kishidan 10 tangadan olishgan. Buxorolik prikazchikning yozishiga ko'ra, ular bizni himoya qilmasliklarini bilganlar, shuning uchun bizning harakatlarimizni to'xtatish va xarajatlarimizni kamaytirish uchun oldin ham 1 kishidan 7 tangadan olishgan. Bu qanday holatki, ularning savdogarlari o'z foydasiga ko'ra haq, biz ularning qay biriga chidashimiz kerak. Bizda buxoroliklar ruslar bilan teng boj to'lashi, biroq o'zlarida esa, ruslardan 4 barobar qimmat olishgan.

Ollohga shukur, 50 pudgacha ipak xomashyosi va yigirilgan paxta ipi hamda marena [qizil] bo'yog'i ortilgan bizning xonimlarning 500 ta tuyalari karvoni Buxorodan muvaffaqiyatli chiqib ketdi. Buxoroda 1 pudlik ipak xomashyosi qog'oz pul shaklida 300 rubl atrofida sotib olingan.

Biz Mang'ishloq va Orenburgga Xivadan 750 ta, Toshkent va Qo'qondan 300 ta tuyalarni, oxirgi viloyatdan esa kam miqdorda tulki terilarini, asosiy tovar sifatida marena [qizil] bo'yoqlarini, hammasi bo'lib 2500 pudlik tovarlar va 1550 ta tuyalarni olib chiqib ketdik.

Bizning kompaniyamizning yollanib ishlovchi xizmatchilari faqat Qo'qon va Toshkentda qoldi, ularga bojxona bozorini ko'zdan kechirish uchun Samarqanddan o'tish buyurildi. Afsuski, bu muhim ishlarni katta ko'lamda amalga oshirish uchun imkoniyat yo'q. Agar Xudoning xohishi bilan hamma to'siqlar olib tashlansa, Xiva tinchlantirilsa va buxoroliklar Rossiya misolida ikki tomonlama haq-huquqlari bo'yicha soliqni to'lashga majbur etsalar, Xiva bilan bog'liq bo'lgan nizo tufayli tushkunlikka tushmayman.

Endi men Osiyo Departamentiga Buxorodagi jabr-zulmga va noqonuniy bojning ko'tarilib ketishi haqida iltimosnoma yozyapman. Buxoroda yollanma xizmatchilardan tortib olingan 127 ta buxoro tangalari Xiva xoniga jo'natish uchun Sirdaryodan o'tkazilgan. Ammo biz Xiva bilan shartnoma bo'yicha o'tadigan tovarlar uchun Buxoroning o'zida haq to'lashimiz shart emas edi. Bu aslida majburan va noqonuniy hisoblangan. Mana bizni Buxoroda qanday siquvga olganlar.

...Men o'zim sizga savdo ishlari haqida shuni ma'lum qilamanki, bizda hammasi tinch. Toshkentliklar shu kunlarda asosan pul uchun ko'plab tovarlarni, ayniqsa katta miqdordagi bulg'ori charm va temir metallarini jo'natdilar. Hamma oltinlarni ham olib ketishdi. Bu yerda o'z pullari bilan qolgan Toshkentlik savdogarlarning ayrimlari Omsk shahriga rus oltini uchun jo'natildilar. U yerda savdogarlar o'z tovarlarini rus oltiniga ayir-

@tarixchi_kutubxonasiga

boshlaganlar. Shuningdek, savdogarlar Krestdagi yarmarkadan ham rus oltinini bu yerga olib keladilar. Rus oltinini sotib olish uchun hamma naqd pulga ega bo'lishi kerak edi.

Bu yerdagi bozorda 9 kun davomida naqd pulga har xil tovarlarni sotdim. Ayniqsa, mendan chit matolari savdosi bilan shug'ullanadigan savdogarlar Buxoroda yashil ro'mollarga talab qay darajada ekanligini so'radilar. Lekin bu yerda yashil ro'mollarni hech kim xarid qilmaydi. Shuningdek, astarlik gazlama va paxtadan to'qilgan bo'z matolari ham arzon baholarda sotilgan. Bu savdo mollari narxlarining tushib ketishiga asosiy sabab, oltin bahosining ko'tarilganligi bo'lgan. Shu boisdan, yildan yilga biz savdogarlarning ishlari ham orqaga ketyapti. Buxorodan gulli rangli chitlar ortilgan 30 ta tuyadan iborat bo'lgan katta bo'lmagan karvon yetib keldi. Qolganlari esa, mayda-chuyda narsalar.

...Ma'lum qilamanki, bugungi kunda Toshkentliklar katta miqdordagi tovarlarni Toshkentga savdo karvonlari orqali yuborish uchun har bir tuyaga 20 rubl 20 tiyindan transport haqi to'laganlar. Osiyoliklar temir metalli va bo'lg'ori charmlarini va oltinni ko'proq, yengil tovarlarni kamroq sotib olganlar. Shuningdek, ular bu yerdan oltin olib ketish uchun alohida ham kelishib, o'z tovarlarini rus oltiniga ayirboshlash uchun har bir tovar donasiga 50 tiyindan haq to'laganlar. Hattoki, Ivan Postniy yarmarkasiga ham oltin sotib olish uchun savdogarlar yuborilgan va bizdagi boshqa savdo-sotiq ishlari ancha pasayib ketdi.

MOLIYA VAZIRI JANOBLARIGA[1]

1865-y. 14-dekabr № 1082

Janobi oliylari, menga Imperator Janobi Oliylarining bizning O'rta Osiyodagi savdo-sotiq ishlarimizni rivojlantirish bilan bog'liq chora-tadbirlar va bu savdoda xorijliklarning ishtiroki yuzasidan o'zimning xulosamni berishga ruxsat bergaysiz.

Osiyoda savdo-sotiqni jonlantirish uchun ikkinchi va uchinchi gildiya darajasidagi Sibirlik savdogarlar hamda ikkinchi va uchinchi turdagi guvohnomalar bo'yicha savdo qilayotgan dehqonlarga birinchi gildiya savdogarlari kabi Osiyo hududlariga tovarlarni olib borish va olib kelish, hech qanaqangi guvohnomalarsiz Qirg'iz cho'lida ulgurji va chakana savdo-sotiqni yo'lga qo'yish huquqi berilgan edi. Buxoroga jo'natiladigan tovarlar esa boj to'lovidan ozod qilingan edi. Shuningdek, choydan tashqari G'arbiy

[1] Omsk shahri Davlat arxivi. 3-jamg'arma, 6495-yig'ma jild, 8-10-varaqlar. *Qarang: Ziyoyev H.* «O'zbekistonning Sibir orqali Rossiya bilan aloqalariga doir arxiv hujjatlari to'plami (XVI–XX asr boshlari)». – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2013. – 482–483-betlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

Xitoyga jo'natiladigan va u yerdan olib kelinadigan tovarlar uchun ham boj olinmagan.

Bojxona boshqarmasining katta miqdorda tovar olib kelish va olib chiqish bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy qiziqishlar hamda mahalliy boshliqlar tomonidan Osiyoda savdo-sotiqni rivojlantirish ko'magiga qaramasdan, G'arbiy Xitoy bilan boshlangan manfaatli savdo Chuguchakdagi idoramiz yonib ketganidan keyin to'xtab qoldi. Savdogarlarimiz tomonidan u yerga olib borilgan tovarlarning katta qismi yonib ketgan va yo'qolgan. Bu tovarlar uchun savdogarlar pullarini to'liq olmaganlar. Buning ustiga-ustak Xitoydagi to's-to'polondan so'ng, ularning raqiblari Chuguchak va G'ulja bosib olingandan keyin, butunlay to'xtab qoldi. O'rta Osiyo xonliklari bilan savdolarimiz rivojlanmay qoldi. Chunki rus savdogarlari na Buxoroga, na Qo'qonga borishi cheklangan edi. Ular faqat Buxoro va Toshkent komissionerlari orqali savdoni amalga oshirganliklari sababli ular o'lkadagi talablar haqida hech qanday ma'lumotga ega emasdilar.

Buxoro bilan to'g'ridan to'g'ri savdo hozircha avvalgi holatida qolmoqda va Siz Janob Oliylarining menga jo'natgan Harbiy Vazirligining maktubida keltirilgan bizning savdogarlarimizni Buxoroga kiritilishini talab qilish bemavridligi to'g'ri, chunki u yerdagi hozirgi hukumat davrida ularning shaxsiy xavfsizligi va ular tomonidan keltirilgan tovar mollarining xavfsizligini hech narsa kafolatlamaydi. Joriy yilda harbiylarimiz tomonidan Toshkent bosib olingandan so'ng, Qo'qon bilan savdoda yaxshi tomonga sezilarli o'zgarishlar bo'lishi kerak.

Ma'lumki, Toshkentni bizning harbiylarimiz bosib olgandan so'ng Qo'qon, Buxoro va Xitoy Tatariyasi [Sharqiy Turkiston] bilan muhim tranzit savdosi amalga oshirilmoqda. Rus savdogarlari Toshkent viloyatida chegirmali sotuvdan tashqari, bu shaharlarga xavfsiz borishi va u yerga tovarlarimizni olib kirishi hamda ularni qo'shni Osiyo davlatlariga tranzit yo'llari orqali o'tkazishlari ham mumkin.

Mening fikrimcha, bu hududda savdoni ta'minlash va uning tez rivojlanishi uchun Toshkent agar bizning hukumatimizdan mustaqil bo'lib qolsa, u yerda idora ochish va rus savdogarlarining Osiyo savdosida ega bo'lgan imtiyozlarini saqlab qolish, ya'ni ikkinchi gildiya darajali guvohnomasiga ega bo'lgan savdogarlarga berilgan xorijiy ulgurji savdoni olib borish, Buxoroga keltirayotgan tovarlar kabi Toshkentga olib borilayotgan barcha tovarlarni boj to'lovlaridan ozod etish, Toshkentdan olib ketilayotgan barcha Osiyo mahsulotlarini olib chiqishga kam miqdorda boj to'lovlarini belgilash bilan osonlashtiradi. Bu savdoda bizning savdogarlarni ishtirok etishga jalb etish uchun ularni alohida e'lon orqali taklif etish, ularga o'lka uchun qanaqangi sifatdagi qanday tovar kerakligini va qanday narxlarda sotilishini tushuntirish kerak bo'ladi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Yevropaliklarning O'rta Osiyoning savdo-sotig'ida ishtirok etishiga kelsak, men Siz Janob Oliylarining fikriga to'liq qo'shilaman, vaholanki, ularga savdo uchun ruxsat berish bizning manfaatlarimiz uchun noqulay va balki zarar bo'lishi ham mumkin. Ammo hamma uchun umumiy taqiq bizning savdo qonunchiligimizga muvofiq kelmaydi. Umuman olganda, hozirgi kunga qadar yevropaliklardan kimdir ushbu savdoda ishtirok etgani to'g'risida ma'lumotlar yo'q, ammo xohlovchilar uchragan taqdirda, Sizning ruxsatingiz bilan ularni Toshkentga kirib borishida qo'riqlashdan bosh tortish kabi ma'muriy choralarni qo'llash orqali to'xtatib turish va oldini olish mumkin. Shunda kimdir ushbu yangi va xavfsiz yo'lga o'z tovar mollari bilan borishga jur'at qilishi dargumon.

Ushbu ma'lumotlarni Siz Janob Oliylariga yetkazishni sharaf deb bilaman, ushbu yilning 8-noyabr kuni, № 75.

ICHKI SAVDO[1]

– Toshkent: 1) Petropavlovsk, 2) Troitsk, 3) Semipalatinsk, 4) Chuguchaq, 5) G'ulja, 6) Namangan, 7) Qo'qon bilan, 8) Buxoro, 9) Xo'jand va O'ratepa, va nihoyat, Qo'qon xonligining boshqa shahar va qishloqlari bilan ham savdo qiladi. Toshkent savdo faoliyatining dovrug'i shu darajada keng tarqalganki, bu yerga hatto ingliz mollari bilan hind savdogarlari keladilar.

– Toshkent shahrining sakson ming aholisi bilan bu shaharning asosiy bozoriga Buxoro va Qo'qon xonliklaridagi barcha ishlab chiqarish manbalari va faoliyatlari oqib kelishi hayotiy va g'ayritabiiy harakatlarni anglatar edi. Toshkent bozori tashqi ko'rinishidan bu mamlakatning barcha shaharlarining umumiy bozorlari ko'rinishini ifodalaydi, faqatgina bu yerda endi hamma narsa katta hajmda taqdim etiladi. Toshkent bozori uzunligi 400 va kengligi 100 sanga teng bo'lgan ulgurji omborxonalar uchun 16 ta karvonsaroylar va 2400 do'konlarni o'z ichiga olgan.

Butun Toshkentda 2 ta bozor va shaharning boshqa qismlarida 4 548 ta do'konlar mavjud. Bozor, har qaysi o'zlari tanlagan oqsoqollar tomonidan boshqariladigan qatorlarga bo'lingan. Oqsoqolning vazifasi o'z qatorida mirshablik ishlarini amalga oshirishdan iborat bo'lgan. Agar har xil qatorlar savdogarlari janjallashib qolsa, unda ish rais tomonidan yengillashtirilgan, oddiy tartibda hal qilingan.

– Do'kon uchun yiliga 2 dan 5 chervongacha [tilla tangada] ijara haqi to'langan. Do'konlar daromadlarning katta qismidan quruvchilarga, odat-

[1] *Ziyoyev H.* «O'zbekistonning Sibir orqali Rossiya bilan aloqalariga doir arxiv hujjatlari to'plami (XVI–XX asr boshlari)». – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2013. – B.484–488; *Qarang:* Тетеревникова А.Н. Очерк внутренней торговли Киргизской степи. – СПб., 1867.

@tarixchi_kutubxonasiga

dagidek, vaqf qilingan, ya'ni turli diniy muassasalarga berilgan. Oqsoqollar bozorlarni tozalash, zarurat bo'lganda ishlatiladigan xarajatlarni to'ldirish uchun har bir do'konlardan 2 qo'qoniy yig'ib olingan [39-bet].

– Bundan tashqari, har bir oqsoqol, o'z navbatida, tungi kuzatuvchilarni ishga yollaydi, buning uchun har bir do'kon unga yana oyiga 10 tiyindan to'laydi. Soqchilarning vazifalariga ko'chalar tozaligini ta'minlash va ba'zan ularga suv sepish ham kiradi. Bozor ustidan umumiy nazoratni olib borish rais [shahar politsmeysteri] zimmasida yotadi. Bozordagi har bir qator ma'lum turdagi narsalarni sotishga ixtisoslashtirilgandir. Bu yerda siz barcha hunarmandchilik mahsulotlari, tikuvlik qatorlari, qandolat, sartaroshxona, mevalar, kumushlar, duradgorlar, yog'ochsozlar va boshqa savdo qatorlarini topishingiz mumkin.

Bozor aylanmasini baholash faqat so'rab bilish, surishtirish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Buning uchun allaqachon bir necha marta oqsoqollar to'plangan, biroq Toshkentda tarqalgan turli xil mish-mishlar, masalan, gildiya bojlarining joriy etilishi va boshqalar bunga xalaqit bergan. Bundan tashqari, mahalliy ma'muriyat bu so'rab-surishtirishlarga salbiy munosabatda edi. Natijada oqsoqollar qatordagi do'konlarning sonini va ular aylanma summasini kamaytirishga harakat qildilar. Shuningdek, bir nechta qatorlarga tegishli bo'lgan ayrim aniq ma'lumotlarni olishdan bosh tortishimizga to'g'ri kelgan.

Ma'lumotlarni to'plashga muvaffaq bo'lgan qatorlar soni 26 ta bo'lib, ular quyidagilar:

1) Baqqollik bozorida [mevalar qatori]: mayiz, kishmish, yong'oqlar, pistalar, anorlar, qovunlar, olmalar va boshqalar sotilgan. Baqqollik bosh bozorida 200 ta do'konlar bo'lib, do'konda bir-yilda 50 dan 1000 tillogacha savdo qilingan. 2) Qozoq puruya bozori [qirg'iz qo'llari qatori]: 100 dan ortiq do'konlar qatorida Toshkent fabrikasining alocha matolari, yo'l-yo'l satinlar, bo'z matosi, oddiy bo'z matosi, qirg'iz mo'ynali paltolari, kamarlari, ro'mollari sotilgan; do'konning o'rtacha savdosi 200–300 tillogacha bo'lgan. 3) Non bozori [non qatori]: Saratsin tarig'i, qovurilgan tariq, sabzi va piyoz do'koni 30 ta; ular 10 dan 100 tillogacha savdo qilishgan. 4) Arpa bozori [arpa qatori]; tariq, arpa, guruch chorisi, no'xat sotiladigan 20 ta do'koni bo'lib, 50 dan 300 tillogacha savdo qilingan. 5) Ko'n bozori [charm mahsulotlari]: kamarlar, tagcharmlar, ot, qo'zichoq, tuya va qoramol terilari 60 ta do'konlarda sotilib, ularda 150 tillogacha savdo qilingan. 6) Un bozori [un qatorida]: un va bug'doy mahsulotlari 20 ta do'konlarda sotilib, ularda o'rtacha 700 dan 1000 tillogacha savdo qilingan. 7) Kigiz bozori [kigizlar qatori]: kigiz, arqonlar, o'rilgan qamchin, qoplar, egar-jabduqlar, xurjunlar, kamarlar 30 ta do'kon bo'lib, do'konning o'rtacha savdosi 100 tilloni tashkil etgan. 8) Qo'y bozori [chorva mollari qatori]: har

@tarixiy kutubxonasiga

bir bozorda sotuvchi o'rtacha [40-bet] 50 dan 60 kishigacha bo'lgan: bozorda 1000 boshga yaqin qo'ylar sotilgan. Bozor har haftada bo'ladigan katta bozorlarda bir yilda 52000 boshgacha qo'ylar sotilgan. Bundan tashqari, har yakshanba kunlari qal'aning yonidagi maxsus do'konlar atrofida ham bozor bo'lib, bu do'konlar bir hafta davomida bo'shab qolgan. Yakshanba bozorida asosan chorva mollari sotilgan, garchi deyarli barcha savdogarlar o'z mahsulotlarining bir qismini asosiy bozordan ushbu qal'a yonidagi bozorga ko'chirganlar. Bu bozorda har bir yakshanba kuni taxminan 1000 bosh chorva mollari sotilgan bo'lsa, bu yerda ham yiliga 52 ming boshga yaqin sotilgani ma'lum bo'ladi. Toshkentda har yili 100 ming bosh qoramollar iste'mol qilingan.

9) Boshqa bir qo'y bozori [go'sht rastalari qatori]: bu bozorda go'sht va yog' sotiladigan 60 tagacha do'konlar bo'lib, bu do'konlarning o'rtacha savdosi yiliga 700 dan 1000 tillogacha bo'lgan. 10) Non bozori [novvoyxonalar qatori]: bu bozorda 30 tadan 40 tagacha do'konlar bo'lib, ularning o'rtacha savdosi 300 tillo bo'lgan. 11) Xom surp bozori [surp qatori]: etiklar, kaloshlar, yostiq uchun jildlar sotiladigan 100 tacha do'konlar bo'lib, o'rtacha 500 tillo savdo bo'lgan. 12) Yog'och bozori [taxta-yog'ochlar qatori]: yog'och chiroqlari, tayyor eshiklar va umuman, qurilish uchun barcha materiallar sotiladigan 27 ta do'kon bo'lib, do'konlarning o'rtacha savdosi 100 tillo bo'lgan. 13) Ko'rpa-gilam bozori [gilamlar qatori]: ko'rpa va gilamlar sotiladigan 10 ta do'kon bo'lib, o'rtacha savdo 60 tillodan ortiq bo'lgan. 14) Temir bozori [temir va temirchilik uskunalari qatori]: ot uchun taqalar, halqalar, mixlar, o'roqlar, arralar va h.k. sotiladigan 60 ta do'kon bo'lib, ularning savdosining o'rtacha miqdori 100 tillogacha bo'lgan. 15) Mis bozori [misgarlar qatori]: mis qozonlar, kostryulkalar, qoshiqlar, yuvish vositalari, choynaklar, qumg'onlar, tog'oralar va boshqalar sotiladigan 32 ta savdo do'konlari bo'lib, ularda 90 tillogacha savdo bo'lgan.

16) Shag'am bozori [sham rastasi qatori]: sham va sovun sotiladigan 20 dona do'kon bo'lib, o'rtacha sotuv 100 tillodan ortiq bo'lgan. 17) Choy-furushlar bozori [choy rastasi qatori]: choy va shakar mahsulotlari sotiladigan 150 ta do'kon bo'lib, har birining o'rtacha daromadi 200 tillo bo'lgan. Eng yaxshi do'konlar 500 tilla va undan ko'p savdo qilgan. 18) Chit bozor [qizil qator]: tik, satin, muslin matolari, movut, doka ro'mollar, ro'mollar sotiladigan taxminan 100 ta do'kon bo'lgan, o'rtacha savdosi – 2000 tillodan, eng yuqori miqdori – 4000 tillodan, kamrog'i – 1000 tillodan savdo qilishgan. 19) Bazzozlik bozori: [41-bet] beqasam matosi, shoyi matolari, astarlik matolar, ayollar uchun soch turmaklar va boshqalar sotiladigan 60 ta do'konlar o'rtacha savdosi – 500 tillodan, eng yuqori – 1000 tillogacha, eng pasti 100 tillogacha.

@tarixchi_kitob_xonasiga

20) Pichoq bozori [pichoqlar qatori]: pichoqlar, qilichlar, qaychilar, ustaralar, po'lat, temir, qozonlar sotiladigan 20 ta do'kon; do'konda o'rtacha 50 tillodan, eng yuqori ko'rsatkichi esa 1000 tillogacha. 21) Paxta bozori [paxta qatori]: tozalangan va tozalanmagan paxta sotiladigan 20 ta do'kon, do'konlarning eng past sotuvi – 20 tilla, o'rtacha sotuvi – 50 tillogacha, eng yuqorisi – 100 tillo. 22) Tamaki bozori [tamaki qatori]: chekish naychalari, chilimlar, hidlash va chekish tamakisi, tamakidonlar sotiladigan 20 ta do'kon bo'lib, o'rtacha sotuvi 500 tilla, eng yuqori darajasi 1000 tillo va eng pasti 200 tilla. 23) Tamaki bozori [idishlar qatori]: 10 ta do'kondan o'rtacha savdo taxminan 40 [chervon] bo'lgan. 24) Zargarlik bozori [kumush va zargarlik buyumlari qatori]: 20 ta do'kon, har biridan 40 dan 50 tillogacha daromad qilgan. 25) Igna bozori: 30 ta do'kon bo'lib, do'konning o'rtacha aylanmasi 50 dan 100 tillogacha bo'lgan. 26) Teri bozori: yumshoq charm mahsulotlari sotiladigan 50 ta do'koni bo'lib, yiliga 300 tillagacha charm mahsulotlari sotilgan.

Toshkent bozori do'konlari bilan bir qatorda, Toshkentning boshqa savdo markazlaridan olib kelingan tovarlar uchun karvonsaroylar ham mavjud bo'lgan. Binolarning ichki qismida odatdagi do'konlar va savdogarlarni qabul qilish uchun xonalar mavjud. Bundan tashqari, ushbu karvonsaroylarda omborxonalar, yopiq saroylar [hamma uchun umumiy], tovarlar uchun ombor, otlar va tuyalar uchun otxonalar tashkil etilgan[1]. Karvonsaroylarda savdo asosan ulgurji narxlarda bo'ladi. Har bir karvonsaroylar 12–35 tadan do'konlardan iborat. Do'konni ijaraga olish uchun bo'lgan narxi yiliga 3 tilladan 5 tillagacha bo'lsa-da, ular faqat ijarachilarning karvonsaroyda turgan vaqtiga pul to'lashgan. Do'konlarning ijara narxi kelayotgan savdogarlarning soniga qarab o'zgarib turgan. Karvonsaroylarning barchasi boy savdogarlar tomonidan qurilgan va ularning nomlari bilan atalgan. Ko'pincha, ular quruvchilar tomonidan vaqf qilinadilar, bu holatda masjidlar ularga egalik qiladi va daromadlar xususiy shaxslarga beriladi. Daromadning faqat bir qismi masjidga beriladigan karvonsaroylar bilan masjidning daromadlarini [42-bet] aniq nazorat qilish uchun doimo maxsus nazoratchilar bo'lgan.

Masjid oqsoqollari boshqargan karvonsaroylardan tushgan daromadlar masjidlar uchun sarflangan va bu mablag'larni oqsoqollar o'z kuzatuvlari asosida harakat qilib, butunlay ijara uchun berib qo'yganlar. Ular ijaradan olingan pullarni qabul qiladilar va sarflaydilar.

Ushbu pul mablag'larining 1/10 qismi masjid madrasasining mutavallisiga [boshlig'iga], 1/4 yoki 1/5 qismi mudarrisga, ya'ni o'qituvchila-

[1] Har doim bir kunga ot va tuyadan 5 tiyindan olingan, uzaytirilgan vaqt uchun 40 tiyindan to'langan.

@tarixiykutubxonasiga

riga berilgan. Qolgan ulush esa talabalar o'rtasida taqsimlangan. Umuman olganda, ijarachilar tomonidan sotilgan tovarlarga to'langan 100 so'mlik pulning 50 tiyinini karvonsaroylar egalari olishgan. [Vaqf qilingan karvonsaroylardan tushgan mablag'lar ijarachilarning daromadiga qo'shilgan.]

Toshkent karvonsaroylarining ro'yxati:

Saidazim: daromadlarining 1/10 qismini vaqf qilgan. U yerda troitsklik, petropavlovsklik, irbitlik va hind savdogarlari to'xtab o'tganlar.

Nurmuhammad Qo'shbegining hamma daromadlari vaqf qilingan. U yerda troitsklik, petropavlovsklik va umuman, G'uljada savdo-sotiq qiladiganlarning hammasi to'xtab o'tganlar.

[4] va [5] Bu uchta karvonsaroylarning umumiy nomi *Beklarbegi saroyi* nomi bilan ataladi. Ularning daromadlari ham vaqf qilingan. Ularning birida barcha karvonsaroylar bojlari hamma tovarlar uchun yig'ib olingan. Toshkentda amalda mavjud bo'lgan boj yig'ishni boshqarish uchun tayinlangan maxsus zobit bilan karvonsaroy bojini yig'ish amalga oshirilgan. U yerda troitsklik va xo'jandlik, so'ngra Marg'ilon va Hindistondan tovarlar bilan keladigan savdogarlar joylashganlar.

Isobek: uning daromadlari ham vaqfga berilgan. U yerga toshkentlik va samarqandlik savdogarlar o'zlarining ulgurji tovarlarini joylashtirgan.

Mahramboshi: vaqfga tegishli. U yerda asosan Namangandan kelgan savdogarlar to'xtaganlar.

Shohbek: uning yarim daromadi vaqf qilingan. U yerda Toshkentdan va Qo'qondan kelgan savdogarlarning tovarlari joylashtirilgan.

Dasturxonchi: saroy vaqf qilingan. Unga toshkentlik va qo'qonliklar o'z tovarlarini joylashtirganlar.

Abdurasul saroyi ham vaqf qilingan. Bu yerda toshkentlik, samarqandlik va buxorolik ulgurji savdogarlarning tovarlari joylashtirilgan [43-bet].

Mulla Omonboy – rais: buxorolik va toshkentlik savdogarlar bilan shug'ullangan.

Yusufxon: bu karvonsaroy endi qurilayapti.

Namangan karvonsaroyi. Bu saroyda faqat namanganlik savdogarlar joylashganlar.

Mayiz saroyi. Bu karvonsaroyda chetdan keladiganlar uchun yotadigan joy yo'q. Karvonsaroy faqat ulgurji savdosi amalga oshiriladigan quruq mevalarni saqlash uchun mo'ljallangan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Shirinxo'ja – rais: bu yerda asosan hindistonliklar to'xtab o'tganlar va ko'proq paxta va marena [qizil] bo'yoqlari joylashtirilgan.

Mulla Abdulmutallib. Bu karvonsaroy bozordan uzoqda bo'lib, unga savdogarlar kiritilmagan va unda faqat qirg'izlar to'xtab o'tganlar.

Bundan tashqari, bu yerda tovarsiz keladigan savdogarlar to'xtab o'tadigan bir nechta saroylar bo'lgan. Bu saroyda ko'proq Rossiyaga olib boriladigan yuklarni o'tkazib qo'yuvchi va yuk tashuvchilar [yollanma ishchilar] yashaganlar. Ular o'zlarining tuyalarini cho'llarda boqqanlar.

Xonliklardan Rossiya kutubxonalariga olib ketilgan noyob durdonalar

O'rta Osiyoga Rossiya imperiyasining tajovuzi jarayonida va undan keyingi yillarda mamlakatda asrlar davomida yaratilgan juda ko'p moddiy va yozma manbalar talon-toroj qilindi. Saroylar, kutubxonalarda saqlanib kelgan madaniy durdonalar – o'nlab sharq qo'lyozmalari to'planib, Sankt-Peterburg kutubxonalariga tashib ketildi.

Bu masalaga hukumat darajasida muhim vazifa sifatida qaralib, shaxsan general-gubernator fon Kaufman hamda harbiy yurishlarga boshchilik qilgan boshqa generallar nazoratida amalga oshirildi.

Xivaga yurishi paytida K.P.Kaufmanga hamrohlik qilgan sharqshunos A.L. Kun Sharq qo'lyozmalari va hujjatlaridan iborat nihoyatda noyob kolleksiyada 140 jilddan iborat tarixiy asarlar, huquqshunoslik va ilohiyot masalalari bo'yicha 50 jild asar, 18 nusxa Qur'oni karim va 50 ta darslik (jami 300 ta); Qo'qon xonligiga qarshi yurishlar davomida esa tarix, tibbiyot, huquq va ilohiyotga doir 130 ta qo'lyozma asarlarini to'plab, Rossiyaning Imperator kutubxonasiga topshiradi.

Quyida Rossiya imperiyasi qo'shinlarining Xiva va Qo'qon xonliklarida qo'lga kiritilib, muzeylarga olib ketilgan noyob qo'lyozmalar, madaniy yodgorliklar ro'yxati hamda bu haqdagi yozishmalar aks etgan arxiv hujjatlaridan parchalar keltiriladi.

t.f.d. M.S. Isakova,
N. Mirzayev

@tarixchi_kutubxonasiga

Xiva xonligidan to'plangan yozma va moddiy madaniyat namunalari[1] haqida A. Kun hisoboti

«Turkestanskiye vedomosti»da e'lon qilinishi 16.X.1873 /Kaufmani/

Xiva ekspeditsiyasi mobaynida quyidagi materiallar to'plangan:

Xon saroyini musodara qilish jarayonida 300 ga yaqin sharq tillaridagi qo'lyozmalar to'plangan; ulardan 129 nomdagi 140 jildda tarixiy asarlar.

20 ta sharq shoirlarining 30 jildlik asarlari.

Diniy-huquqiy mazmundagi 40 ta asar 50 jildda.

Bulardan tashqari 18 ta Qur'on va 50 ta darslik yig'ilgan.

To'plangan qo'lyozmalar kolleksiyasining aksar qismi asosan xonlarning hozirgi sulolasi [Qo'ng'irotlar] vakillari davrida fors tilidan Xiva shevasiga tarjima qilingan asarlar bilan ajralib turadi. Ushbu tarjimalarning qiymati shundaki, ularning orasida fors tilidan tarjima qilingan asarlarning asl nusxalari mavjud. Kolleksiya tarkibida Mirxondning fors va Xiva tilidagi «Eron tarixi» asari hamda har ikki tilda «Muhammad (s.a.v.)ning buyuk ishlari», «Siyori Sharif» asarlari mavjud. Tarixiy asarlardan tarjima qilinganlaridan tashqari, kolleksiya tarkibida Yunus Mirobning «Xiva xonlari tarixi» asari ham bor. Ushbu qo'lyozma alohida e'tiborga shunisi bilan loyiqki, u hozirgi sulolaning asoschisi Eltuzar zamonidan boshlab rasmiy saroy solnomachilari tomonidan yozib kelingan. Unda ruslar kirib kelgunga qadar xonlikda sodir bo'lgan asosiy voqealar yozib qoldirilgan. ...Yunus Mirobning ushbu asari Xiva xonlari haqida bir necha tarixiy savollarga javob olishda ko'mak beradi. Yunus Mirobning asarini uning avlodlari davom ettirganlar va hozir ham davom ettirishmoqda.

Tarjima qilinganlardan va biz tomondan ko'rsatib o'tilgan tarixiy asarlardan tashqari, qo'lyozmalar kolleksiyasida Xiva shevasida yozilgan bir asl [original] qissa va romanlar ham bor.

Xon saroyini musodara qilish vaqtida men qo'lyozmalar bilan birga hujjatlarni ham yig'ib oldim. Ularni ikki guruhga ajratish mumkin: birinchisi, xonlikning pul tushumlari, kirim, sarf va xarajatlariga oid hujjatlar hamda vaqf va mulk hujjatlari, ikkinchisi esa xatlar, arznomalar va diplomatik yozishmalardan iborat.

Birinchi guruhda pul solig'i [salgut], Matmurod devonbegining zakot kitoblari va xon xarajatlari haqidagi hisobotlari. Ikkinchi guruhga Buxoro, Qozon, Konstantinopol va boshqa joylarda savdo ishlari bilan istiqomat qi-

[1] O'zR MDA, I-1-jamg'arma, 20-ro'yxat, 6785-yig'ma jild, 7-11-(orqa tomon) varaqlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

luvchi xivaliklar tomonidan xonga yozilgan maktublar va arznomalar; yerga oid da'volarni hal qilish, biror yerni olish bo'yicha arzlar va h.k.

Diplomatik hujjatlar orasida «Ost-Indiya» general-gubernatori Norsbrukning maktubi, Turkiya sultonining maktub va farmonlari, rus elchisi Danilevskiy va Xiva xoni o'rtasida tuzilgan Trakt [kelishuv] va Turkiston general-gubernatorining Xiva xoniga yozgan bir necha maktublari aniqlandi.

...Ko'rsatib o'tilgan kolleksiyadan tashqari fan uchun quyidagi olib chiqib ketilgan narsalar ham katta ahamiyatga ega:

1) Xiva xonlari uchun pul zarb qilishga xizmat qilgan 4 pudga yaqin [200 dona] qoliplar. Ushbu qoliplar shu vaqtgacha numizmatikada noma'lum bo'lgan va O'rta Osiyoga xos bir necha yangi tanga turlarini ochib beradi.

2) 25 donadan iborat Xiva xonlarining muhrlari bog'lami. Shulardan 5 donasi kumushdan, qolganlari esa oltindan ishlangan.

3) Xiva xonlarining taxti.

Tashqi ko'rinishidan u rus boyarlarining kursisiga o'xshaydi. U kumush bilan qoplangan. Kursi suyanchig'ining tepasida qaysi yilda va qaysi xon davrida ushbu taxt qurilganligi o'yib yozilgan.

4) Jo'ji davriga oid [172 dona] tangalar va Qo'ng'irot sulolasiga mansub Xiva xonlari Olloqulixon, Muhammad Rahimxon va Said Muhammadxon davrlariga oid har birisi uch nusxadan tangalar.

5) Xon saroyidan etnografik buyumlar: a) to'y marosimlarda ishlatiladigan pardalarning ikki turi, b) Xiva xonining kenja o'g'liga tegishli bolalar kiyim-kechagi, v) ikki nusxada kumushdan ishlangan ayollar taqinchoqlari, ya'ni: sirg'alar, bilaguzuklar, tillaqosh va hokazo, g) xivalik erkak va ayollarning kiyim-kechaklari.

Sanab o'tilgan va ilmiy ahamiyatga ega hujjat va buyumlardan tashqari, men Xiva vohasiga oid etnografik, filologik, statistik va tarixiy ma'lumotlar ham to'pladim.

Ushbu to'plangan narsalarga yana sapyor kapitani D.M. Rezvin tomonidan menga topshirilgan Ko'hna Urganchdan olib chiqilgan koshinlar va Buxoro orqali Toshkentgacha amalga oshirilgan ekspeditsiya davomida yig'ilgan uy-ro'zg'or anjomlari, kiyimlar, qal'a va vayronalarning namunalari, ularning chizma, rasmlarini ham kiritish mumkin. Ushbu rasmlarga tavsif tuzish ko'zda tutilgan.

A. Kun

@tarixchi_kutubxonasiga

Qo'qon xonligidagi mahalliy qo'lyozma manbalarini to'plashga oid yozishma va ko'rsatmalar[1]

5-fevral 1876-yil Peterburgdan

TELEGRAMMA
Toshkent

General G. Kolpakovskiyga

Birinchi imkoniyatdanoq Qo'qon, Marg'ilon va Andijondan sharq qo'lyozma asarlar va turkiy tilda daftar deb nomlangan yozuvlarni talab qilib oling.

Kaufman

General Skobelevga Marg'ilon va Andijonda qo'lyozmalarni yig'ish to'g'risida telegramma yuboring.

Janobi oliylari N. Golovochevga

O'lkaning Bosh Boshlig'ining xohishlariga ko'ra men Qo'qondan fiqh, huquqshunoslik, tibbiyot, geografiya, tilshunoslik va tarixga oid sharq tilidagi asarlarni yig'ib oldim. Ularni alohida ilova qilingan ro'yxat bo'yicha Sizga, Toshkentdagi Ommaviy kutubxonaga topshirish uchun yubormoqdaman. Ularni o'ralgan holda ochmasdan Toshkentga yuborishingizni va mening navbatdagi ko'rsatmamni olmaguncha kutubxonachi V. Chuykoga ularni quruq xonada saqlashni tayinlashi yuzasidan topshiriq berishingizni so'rayman...

1876-yil 1-mart

General Kolpakovskiy

Turkiston general-gubernatori devonxonasiga
Kutubxonachi V. Chuykodan
Bildirishnoma

Turkiston general-gubernatori vazifasini bajaruvchi janobi oliylarining buyrug'iga asosan devonxonaga sharq tillaridagi kitoblar ro'yxati va aloqa xatini yubormoqdaman. Qayd etilgan kitoblar joylashishi kerak bo'lgan uch tugunni muhrladim va 6-mart kuni kutubxonaga qabul qilib, kutubxonaning qayd daftariga kiritib qo'ydim.

1876-yil 10-mart

V.Chuyko

[1] O'zR MDA, I-1-jamg'arma, 16-ro'yxat, 2334-yig'ma jild, 1-19-varaqlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

General Kolpakovskiy tomonidan Qo'qon xonligidan yig'ib olingan kitoblar ro'yxati[1]

T/r	Kitob nomi	O'zbekcha nomlanishi (tarjimasi)	Fani
1	Fusul al-a'roz sharh hudud al-armroz	(«Kasalliklar hududi sharhi, kasallik belgilari fasli»)	Tib (tibbiyot)
2	Sharhi qonunchai Mavlono Hoziq	(«Qonuncha»ga Mavlono Hoziqning sharhi)	Tib (tibbiyot)
3	Tuhfat al-mo'minin	(«Mo'minlarga tuhfa»)	Tib (tibbiyot)
4	Sharhi Oqsaroy	(«Sharhi Oqsaroy»)	Tib
5	Daftari shashum zaxirai murakkabot	(«Murakkab jismlar zaxirasi», 6-daftar)	Tib
6	Durrat al-farid	(«Yagona dur»)	Qur'on qoidalari
7	Tuhfayi Honiy	(«Honiy tuhfasi»)	Tarix
8	Sijovandiy	(«Sijovandiy tilovi»)	Qur'on qoidalari
9	Kitob Tuhfayi Honiy	(«Honiy tuhfasi» kitobi)	Tib
10	Shohnomai Firdavsiy	(«Firdavsiy Shohnomasi»)	Fors-tojik adabiyoti
11	Nafahot al-uns	(«Nafahot al-uns»)	Tazkira /tarix
12	Sijovandiy	(«Sijovandiy»)	Qur'on qoidalari
13	Mavlaviy Hasan	(«Mavlaviy Hasan»)	Nahv – arab tili qoidalari
14	Labib bar Mullo Abdulg'afur	(«Labib» kitobiga Mullo Abdulg'afurning sharhi)	Sarf – arab tili morfologiyasi
15	Mullo Jalol	(«Mullo Jalol» kitobi)	Arab tili
16	Kofiya	(«Kofiya»)	Nahv – arab tili qoidalari
17	Sharhi Shofiya	(«Shofiya»ga sharh)	Sarf – arab tili morfologiyasi
18	Tahzib	(«Tahzib» kitobi)	Mantiq ilmi, arab tili
19	Ta'rixi Jahonnamoyi	(«Jahonnamo tarixi»)	Tarix
20	Ta'rixcha	(«Tarixcha»)	Tarix
21	Bahrul xavos	(«Xoslarning dengizi»)	Lug'at
22	Ravzat as-safo	(«Musaffo bog'»)	Tarix
23	Ta'rixi Hulaguxon	(«Hulaguxon tarixi»)	Tarix
24	Ta'rixi Jahongiriy	(«Jahongir tarixi»)	Tarix
25	Ta'rixi Temurxoniy	(«Temurxon tarixi»)	Tarix
26	Fathul Boriy	(«Kushoyish Allohdan»)	Hadis ilmi
27	Tarhibi Targ'ib	(«Tarhibi Targ'ib»)	Hadis ilmi

[1] O'zR MDA, I-1-jamg'arma, 16-ro'yxat, 2334-yig'ma jild, 6-11-varaqlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

28	Daloil al-xayrot	(«Yaxshiliklarga dalolatlar»)	Salavotlar
29	Mavohibi laduniy	(«Alloh bergan ilmlar»)	Hadis ilmi
30	Tafsiri Abu Mansur Moturidiy	(«Abu Mansur Moturidiy tafsiri»)	Tafsir
31	Chor jildi Tafsir al-bayon	(«Tafsirul bayon»ning 4-jildi)	Tafsir
32	Haqoyiqi salim	(«To'g'ri haqiqatlar»)	Tafsir
33	Matin	(«Matin»)	Sarf-nahv – arab tili
34	Hoshiya	(«Hoshiya»)	Mantiq ilmi – arab tili
35	Mullo Abdulhakim bar Hoshiya	(«Hoshiya»ga Mullo Abdulhakimning sharhi)	Mantiq ilmi – arab tili
36	Mirzojon bar Hikmat	(«Hikmat»ga Mirzojonning sharhi)	Hikmat ilmi
37	Tavzih bar Talvih	(«Talvih»ga sharh)	Usulul fiqh ilmi – shar'iy hukm olish usuli
38	Muxtasari Viqoya	(«Viqoya» kitobining muxtasari)	Fiqh ilmi
39	Mavlaviy Abdulhaq	(«Mavlaviy Abdulhaq kitobi»)	Hadis ilmi
40	Kalomulloh	(«Allohning kalomi»)	Qur'oni karim, tafsir
41	Chalabiy bar Talvih	(«Talvih»ga Chalabiyning sharhi)	Usulul fiqh ilmi – shar'iy hukm olish usuli
42	Fatvoi Feruzshohiy	(«Feruzshoh fatvosi»)	Fiqh kitobi
43	Tafsiri Mavlono Isomiddin	(«Mavlono Isomiddin tafsiri»)	Tafsir ilmi
44	Kitob Sharhi Mujallo	(«Mujalloga sharh» kitobi)	Hadis ilmi
45	Daftari sonii Nihoya	(«Nihoya» kitobining 2-daftari)	Fiqh kitobi
46	Majma' al-bahrayn	(«Ikki dengiz jamlanishi»)	Fiqh kitobi
47	Aynul hadis	(«Ayni hadis»)	Hadis ilmi
48	Fatovo	(«Fatvolar»)	Fiqh ilmi
49	Sharhi Majma' al-bahrayn	(«Majma' al-bahrayn» sharhi»)	Fiqh kitobi
50	G'unyat at-tolibin	(«Talabalarga kifoya»)	Fiqh kitobi
51	Matin	(«Matin»)	Nahv-sarf – arab tili
52	Mavlaviy Sharif bar Sharhi Mullo	(«Mullo sharhi»ga Mavlaviy Sharifning sharhi)	Nahv – Arab tili qoidalari
53	Mavlaviy Hasan	(«Mavlaviy Hasan» kitobi)	Hadis ilmi
54	Kanz al-daqoiq	(«Kanzul daqoiq – Nozik ilmlar xazinasi»)	Fiqh ilmi
55	Tanbeh al-anom	(«Odamlarga tanbeh»)	Salavot
56	Kitob al-Ayn	(«Ayn kitobi»)	Hadis ilmi

@tarixchi_kutubxonasiga

57	Taysir at-tahrir	(«Tahrirni yengil qilish»)	Usulul fiqh ilmi – shar'iy hukm olish usuli
58	Labib bar Talvih	(«Labib» kitobiga sharh)	Usulul fiqh ilmi – shar'iy hukm olish usuli
59	Tavzih	(«Oydinlashtirish»)	Usulul fiqh ilmi – shar'iy hukm olish usuli
60	Se mujalladi Nihoya	(«Nihoya» kitobining 3-jildi)	Fiqh ilmi
61	Mizon al-usul	(«Usul mezoni»)	Usulul fiqh ilmi – shar'iy hukm olish usuli
62	Sharhi Qozi Izud	(«Qozi Izudning sharhi»)	Usulul fiqh ilmi – shar'iy hukm olish usuli
63	Sharhi Shamoil	(«Shamoil sharhi»)	Tarix (siyrat) Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning shakl-shamoyillari sharhi
64	Hidoya, daftari avval	(«Hidoya»ning 1-daftari)	Fiqh ilmi
65	Mavlaviy Qosim bar Aqoid	(«Aqoid»ga Mavlaviy Qosimning)	Aqida ilmi
66	Qaro Kamol	(«Qori Kamol» kitobi)	Kalom ilmi, mantiq
67	Mullo Ahmad bar Aqoid	(«Aqoid»ga Mullo Ahmadning sharhi)	Aqida ilmi
68	Mullo Abdulg'afur bar Sharhi Mullo	(«Sharhi Mullo»ga Mullo Abdulg'afurning sharhi)	Arab tili
69	Tafsiri Qozi Bayzoviy jildi avval	(«Qozi Bayzoviy tafsiri», 1-jild)	Tafsir
70	Odob al-hisob	(«Bichish odobi haqida kitob»)	Hadis sharhi
71	Aqoid	«Aqoid»	aqida ilmi
72	Ashboh	(«O'xshash masalalar»)	Fiqh kitobi
73	Oxund Shayx	(«Shayx oxund» kitobi)	Mantiq ilmi
74	Tag'rib	(«Targ'ib masalasi»)	Mantiq ilmi
75	Hikmat al-Ayn	(«Alloh hikmatlari»)	Hikmat, aqida ilmi
76	Mirzojon bar Hikmat	(«Hikmat kitobi»ga Mirzojonning sharhi)	Hikmat, aqida ilmi
77	Mullo Faxriddin	(«Mullo Faxriddin»)	Fiqh ilmi
78	Inoya	(«Inoya» kitobi)	Fiqh ilmi
79	Shamuni	(«Shamuni» kitobi)	Fiqh masalasi
80	Mavlono Toj bar Sharhi Viqoya	(«Sharhi Viqoya»ga Mavlono Tojning sharhi)	Fiqh ilmi
81	Chalabiy bar Sharhi Viqoya	(«Sharhi Viqoya»ga Chalabiyning sharhi)	Fiqh ilmi
82	Sahihi Muslim	(«Muslimning Sahih kitobi»)	Hadis ilmi
83	Mavlaviy Isomiddin	(«Mavlaviy Isomiddin»)	Mantiq ilmi
84	Nihoya bar Hidoya	(«Hidoyaga Nihoya sharh»)	Fiqh ilmi

@tarixchi_kutubxonasiga

85	Mustaxlis	(«Soflashtirish»)	Mantiq ilmi
86	Tatimma	(«Tugal kitob»)	Mantiq ilmi
87	Sahihi Buxoriy, jildi avval	(«Sahihi Buxoriy», 1-jild)	Hadis ilmi
88	Sahihi Buxoriy, jildi so-nii	(«Sahihi Buxoriy», 2-jild)	Hadis ilmi
89	Mullo Abdulhakim bar Hoshiya	(«Hoshiya»ga Mullo Abdulhakimning sharhi)	Mantiq ilmi
90	Hoshiya	(«Hoshiya»)	Mantiq ilmi
91	Sharhi Mullo	(«Mullo Sharhi»)	Nahv, arab tili
92	Tafsir	(«Tafsir»)	Tafsir ilmi
93	Mullo Jalol	(«Mullo Jalol»)	Mantiq ilmi
94	Sharhi Viqoya	(«Viqoya»ga sharh)	Fiqh kitobi
95	G'oyat al-tahqiq	(«Yakuniy tahqiq»)	Usulul fiqh ilmi – shar'iy hukm olish usuli
96	Mullo Ahmad bar Hoshiya	(«Hoshiya»ga Mullo Ahmad sharhi)	Mantiq ilmi
97	Dar ad-durur	(«Durlar haqida yozuv»)	Tarix
98	Mullo Shamsiddin Muhammad	(«Mullo Shamsiddin Muhammad»)	Fiqh kitobi
99	Mavlaviy Isomiddin bar Sharhi Mullo	(«Sharhi Mullo»ga Isomiddin Mavlaviy sharhi)	Nahv, arab tili
100	Mir Sayyid Sharif bar Miftoh	(«Miftoh»ga Mir Sayyid Sharifning sharhi)	Bayon ilmi, arab tili
101	Daftari avvali Nihoya	(«Nihoya»ning 1-daftari)	Fiqh kitobi
102	Labibi Mullo Abdulg'afur	(«Mullo Abdulg'afurning «Labib» kitobi»)	Nahv, arab tili
103	Sharhi Talxis	(«Talxis»ga sharh)	Bayon ilmi, arab tili
104	Tafsiri Durari Mansur	(«Durlar haqida» Mansurning tafsiri)	Tafsir
105	Sharhi Shofiya	(«Shofiya»ga sharh)	Sarf, arab tili
106	Mutavval	(«Batafsil – mutavval»)	Bayon ilmi, arab tili
107	Labibi bar Mullo Abdulg'afur	(«Labib» kitobiga Mullo Abdulg'afurning sharhi)	Nahv, arab tili
108	Kalanbuyi Mullo Jalol	(Mullo Jalolning «Kalanbuy» kitobi)	Mantiq ilmi
109	Mullo Abdulhakim bar Aqoid	(«Aqoid»ga Mullo Abdulhakim sharhi»)	Aqida ilmi
110	Mavlaviy Fayzi bar Mullo Jalol	(«Mullo Jalol» kitobiga Mavlaviy Fayzi sharhi»)	Mantiq ilmi
111	Sharhi Tahoviy	(«Tahoviy»ga sharh)	Fiqh kitobi
112	Atval bar Sharhi Talxis	(«Sharhi Talxis»ga batafsil sharh»)	Nahv, arab tili
113	Mullo Abdurrahmon	(«Mullo Abdurrahmon»)	Nahv, arab tili

@tarixchi_kutubxonasiga

114	Tafsiri Kabir	(«Roziyning «Tafsiri Kabir»i)	Tafsir ilmi
115	Mavlaviy Sharifayn	«Mavlaviy Sharifayn»	Mantiq ilmi, kalom
116	Muhaqqiq Davoniy	«Muhaqqiq Davoniy»	Mantiq ilmi
117	Mug'niy al-labib	(«Labib kitobiga kifoya qiluvchi»)	Bayon, arab tili
118	Mir Sayyid Sharif bar Mutavval	(«Mutavval»ga Mir Sayyid Sharif sharhi»)	Mantiq ilmi
119	Mullo Abdulhakim bar Mutavval	(«Mutavval»ga Mullo Abdulhakim sharhi»)	Mantiq ilmi

RASMIY YOZISHMALAR

3-may 1876-yil Peterburgdan TELEGRAMMA

Toshkent *General G. Kolpakovskiyga*

Transport kontorasiga A.Kunning nomiga Qo'qon xonligida yig'ilgan barcha sharq qo'lyozmalarini yuborish to'g'risida farmoyish berishingizni so'rayman.

General-gubernator vazifasini bajaruvchi *K.P. Kaufman*
6-may 1876-yil № 2728

Turkiston o'lkasi bilim yurtlari
Bosh inspektori A. Kunga

Qo'qon xonligi bosib olingandan so'ng, men Qo'qondan ro'yxatda nomlari keltirilgan fiqh, huquqshunoslik, tibbiyot, geografiya, tilshunoslik va tarixga oid sharq tilidagi asarlarni yig'ib oldim. Ular janobi oliylarining xohishlariga binoan aka-uka Kamenskiylarning transport kontorasi orqali Sizga topshirish uchun Sankt-Peterburgga yuborildi...

Ushbu kitob va qo'lyozmalarni olganingizdan so'ng, general-gubernator devonxonasiga xabar berishingizni so'rayman.

General-leytenant *G. Kolpakovskiy*

XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

Turkiston o'lkasi bilim yurtlari
Bosh inspektori
№ 643
1876-yil 23-noyabr

General-gubernator devonxonasiga

Devonxonaning 15-noyabrdagi № 7350-raqamli xatiga javoban shuni ma'lum qilamanki, Qo'qon xonligiga yurish vaqtida yig'ib olingan va menga Sankt-Peterburgga yuborilgan sharq tillaridagi qo'lyozmalar o'lkaning

@tarixiy_kutubxonasiga

Bosh boshlig'ining buyrug'iga asosan imperator Ommaviy kutubxonasiga topshirildi. Bu haqda o'lkaga qaytib kelgandan so'ng shaxsan o'zim janobi oliylariga ma'lumot beraman.

Turkiston o'lkasi bilim yurtlari
Bosh inspektori *A. Kun*

1876-yil 4-dekabrda qabul qilib olindi.
Devonxona kotibi vazifasini bajaruvchi.

Turkistonda Rossiya imperiyasining ko'chirish siyosatiga oid manbalar

Rossiya imperiyasining Turkiston general-gubernatorligida mustamlakachilik tizimini mustahkamlash tadbirlari orasida ko'chirish siyosati muhim o'rin tutadi. Ko'chirish siyosati qator iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy maqsadlarni ko'zlagan bo'lib, u imperiyaning markaziy hududlarida olib borilayotgan agrar siyosat bilan bog'liq edi. Imperiya hukumati o'lkani zabt etar ekan, bu yerga Rossiyaning markaziy guberniyalaridan rus dehqonlarini ko'chirib kelib, ularni yer-suv bilan ta'minlash orqali mamlakatdagi yer tanqisligining oldini olish, shu bilan birga, o'lkada o'ziga ishonchli ijtimoiy tayanch barpo qilishga harakat qildi. 1867-yildan Turkistonning tub viloyatlarida ko'chirish siyosati amalga oshirila boshlandi. Quyida ko'chirish siyosatiga oid manbalardan namunalar keltirilgan.

t.f.n. A.Z. Tog'ayeva

Qishloq xo'jaligi va Davlat mulki vazirligining O'rmon xo'jaligi departamenti

Petrogradga, 1901-y. 21-may.
Qishloq xo'jaligi va davlat mulki vaziri Yermolov

Turkiston o'lkasida rus mustamlakachiligi ishlarining hozirgi holati umuman talabga javob bera olmaydi. Bizning chekka hududlarimizdagi rus aholining tarkibi rus hukmronligiga ulkan tayanch yaratadi... Turkiston o'lkasining uchta tub viloyatlarida, shaharlarni ham qo'shib hisoblaganda, rus aholisining soni endigina 70 000 kishiga yetdi. Xususan, qishloqlarda mustamlakachilik holati quyidagicha: Sirdaryo viloyatida 55 ta manzilgoh, Samarqand va Farg'ona viloyatlarining har birida 10 tadan manzilgoh... Mahalliy aholi vakillarining soniga nisbatan rus aholisining bu darajada kamligi yanada ajablanarli, chunki Sirdaryo viloyatida ruslar 31,2 %ni, Samarqand viloyatida 11 %, Farg'ona viloyatida esa atigi 0,5 %ni tashkil etadi. Buning asosiy sababi, ko'chirish siyosatining to'liq amalga

@tarixchi_kutubxonasiga

oshirilmayotganligidadir. Dehqonchilik ishlarini rivojlantirish maqsadida ko'chirib keltirilganlar uchun ajratiladigan yerlarni kengaytirish va umuman, yer ishlarini tartibga solish tadbirlari amalga oshirilishi zarur.

Maxfiy maslahatchi Nikitin taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, ko'chirish masalasining hal etilishi asosan tog' etaklarida joylashgan, ko'chmanchi aholi foydalanayotgan davlat yerlari bilan bog'liqdir. O'troq mahalliy aholi tomonidan ishlov berilayotgan vodiylardagi sug'oriladigan yerlar esa mahalliy qonunlar, shuningdek, Turkiston o'lkasi o'troq aholisining yer tuzilishi tartibi to'g'risidagi 1900-yilning 1-iyunida qabul qilingan 10-qonun asosida ularning yerga bo'lgan to'la huquqini ta'minlaydi va bunday yerlar rus mustamlakachiligi uchun asos bo'la olmaydi.

Birinchi kategoriyadagi yerlar davlat mulki hisoblanib, o'troq aholi tomonidan ishlov berilib sug'orilayotgan yerlardan farq qiladi. Bunday yerlarning katta qismi adirlarda joylashganligi tufayli sun'iy sug'orilmasa ham, tabiiy yog'inlar yordamida, yil oralab bo'lsa-da, yetarlicha donli ekinlar hosilini beradi. Bu kabi sun'iy sug'orish tizimi qo'llanilmay turib hosil beradigan yerlar «lalmi» deb ataladi. Lalmi yerlarning bir qismiga ko'chmanchi aholi tomonidan ishlov beriladi, hatto ba'zi bir holatlarda bu yerlarda sun'iy sug'orish qo'llaniladi. Biroq, bunday yerlarning aksariyat qismi ko'chmanchi aholining chorvasini boqish uchun yaylovlar sifatida xizmat qiladi yoki umuman ulardan foydalanilmaydi. Bundan tashqari, lalmi yerlarning bir qancha qismida sun'iy sug'orish tizimi mavjud.

Lalmi yerlar, shubhasiz, rus ko'chmanchilariga chek yer ajratish uchun yaroqli bo'lsa-da, ularning barqaror mo'l-ko'lchilikka erishishini to'liq ta'minlay olmaydi. Bunday hududlardagi yog'ingarchiliklar madaniy o'simliklarni yetishtirish uchun yetarli bo'lsa-da, ammo ularning turli yillarda taqsimlanishi doimiy emas, bu esa ba'zi yillarda lalmi ekinlarning barbod bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun mahalliy aholi hech qachon o'zining xo'jaligini yolg'iz lalmi ekinlar yetishtirish bilan cheklab qolmaydi, balki unga qo'shimcha ish sifatida qaraydi: o'troq aholi sug'oriladigan yerga, ko'chmanchi aholi esa chorvachilikka va qisman sug'oriladigan ekinlarga e'tibor qaratadi.

Shu boisdan, rus ko'chmanchilarining to'la farovonlikka erishishi uchun ularga lalmi yerlardan tashqari, ehtiyojlarini to'la qondira oladigan manba sifatida hosildor yerlarning yarmini ham ajratib berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi paytda Turkiston o'lkasida sug'oriladigan yerlarning umumiy hajmi 2 million desyatinadan oshadi va uning deyarli barchasi o'troq aholining mulki hisoblanadi, shuning uchun ularni ruslar manzilgohlari uchun yer manbai bo'ladi, deb hisoblash mumkin emas. Shularni hisobga olgan

@tarixchi_kutubxonasiga

holda sug'oriladigan yerlarning umumiy maydonini kengaytirish maqsadga muvofiq, buning uchun esa minglab desyatina yerlar mavjud.

Agar mahalliy aholining ko'rib o'tilgan sug'orish tizimini o'zgartirish ishlari davlat g'aznasi mablag'i hisobidan amalga oshirilsa, mahalliy aholining yeriga daxl qilmay turib, rus mustamlakachiligi uchun minglab desyatina sug'oriladigan yerlarga ega bo'lish mumkin. Chunki, mahalliy odatlarga ko'ra, yerning egasi uni sug'oradigan kishidir.

Shuning uchun Turkiston o'lkasining tabiiy-tarixiy va xo'jalik-statistik jihatlarining tadqiq etilishi rus mustamlakachiligiga xizmat qiladigan lalmi yerlarning hajmi va joylashgan hududini aniqlashda yordam beradi. Gidrotexnik izlanishlar esa irrigatsiya ishlarini rejalashtirishga imkoniyat yaratadi va rus ko'chmanchilariga lalmi yerlardan tashqari, sun'iy sug'oriladigan yerlarni ajratish imkonini beradi. Har ikkala turdagi izlanishlarning natijasi esa Turkistondagi foydalanilishi mumkin bo'lgan barcha bo'sh yerlarning rus aholisi tomonidan egallanishiga imkon beradi, bu bilan ularning doimiy barqaror holati ta'minlanadi.

Turkiston singari tabiiy sharoiti qulay o'lkaga aholining ko'chib kelishi Rossiyaning Yevropa qismidagi ko'plab aholining Osiyo hududlariga bo'lgan intilishini qoniqtiradi, vaholanki, so'nggi paytlarda bu qiziqish tobora ortib bormoqda... Yuqorida ko'rsatilganlarga muvofiq Qishloq xo'jalik va davlat mulki vaziri Turkiston o'lkasi va Yettisuv viloyatida mustamlakachilikni to'g'ri va keng miqyosda olib borish uchun zarur bo'lgan tayyorlov ishlarini unga tegishli vazirliklarga topshirish lozim, deb hisoblashini bildiradi...[1].

Imzo: Qishloq xo'jalik va davlat mulki vaziri
Aleksey Yermolov. 1901-yil,-may.

Farg'ona viloyati Harbiy gubernatori
Viloyat Boshqaruvi

1904-y. «23»-avgust
Yangi Marg'ilon sh.
Turkiston General-gubernatori v.b.

RAPORT

Yaqin vaqt oralig'ida Farg'ona viloyatida Tomsk guberniyasi, Biysk uyezdining Kuyachinsk volostidan 10 ga yaqin ko'chmanchi [rus] oilalari paydo bo'ldi. Biysk – Farg'ona oralig'idagi masofani uch oyda bosib o'tgan ko'chmanchilar tergov topshirishlariga to'g'ri keldi. Shaxsan surishtiruv-

[1] O'zR MDA. I-1-jamg'arma, 17-ro'yxat, 125-yig'ma jild, 23-27-varaqlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

larimdan ma'lum bo'lishicha, ular «bilimdon»larning ko'chib kelganlarga Turkistonda davlat yerlari ajratilayotganligi haqidagi gaplariga ishonib, Aleksandrovsk qishlog'idagi o'z xo'jaliklarini tashlab, qorli Kugart dovoni orqali Yettisuvdan Farg'onaga yo'l olganlar. Ular bu yerlarda ishlarni o'nglanishiga shu qadar ishongan edilarki, yer ajratish to'g'risida menga qilgan murojaatlariga rad javobini olgach, tushkunlikka tushdilar va Biysk uyezdini tashlab ketganlaridan afsuslandilar. Ular barcha uchun Turkistonda yer ajratilayotganligi haqidagi qandaydir «buyruq»ni aybladilar va biror yaxshi natijaga erishish umidi bilan yonlarida saqlanayotgan, «Russkoye chteniye» gazetasining 1903-yilning 1-oktabrida nashr qilingan 79-sonini havola etdilar. Unda, hech qanday izohlarsiz, qishloq aholisi va «meshchan»larning Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlaridagi davlat yerlariga ixtiyoriy ko'chishi to'g'risidagi nizom chop etilgan edi. Turkistonda ayni paytda bo'sh yerlarning umuman mavjud emasligi haqida hech qanday izoh berilmagan ushbu maqola o'lkadagi bo'sh yerlarni tezroq egallash kerakligini targ'ib qilib, odamlarni chalg'itgan. Ko'chib kelganlarning so'zlariga qaraganda, nizomni noto'g'ri talqin etilishining oqibati – o'nlab oilalarning fojeasi, ularning orqasidan ko'pchilik biyskliklar Turkistonga ketishni niyat qilganlar.

Bu holat haqida Tomsk gubernatoriga ma'lum qilib, Biysk uyezdining mahalliy ma'muriyatiga aholiga viloyatda bo'sh yerlarning yo'qligi haqida tushuntirish ishlari olib borilishini va janobi oliylaridan bunday ko'chishlarning oldini olish maqsadida matbuot orqali ogohlantirish chorasi ko'rilishini iltimos qilaman...[1].

Imzo: Harbiy Gubernator, General-mayor,
Gubernator yordamchisi, Maslahatchi, ish bajaruvchi.

Taftishchi K.K. Palenning Turkiston o'lkasidagi ko'chirish siyosatiga oid mulohazalari[2]

1886-yilda «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida»gi Nizom qabul qilingandan so'ng, mazkur nizomning 280–284-moddalariga asoslanib, ko'chib kelgan rusiyzabon aholi bo'sh yerlarga joylashtirildi. Yuqorida qayd etilgan moddalarga asosan, Turkiston harbiy okrugining zaxira yoki iste'foga chiqqan quyi lavozimdagi xizmatchilari o'lkada joylashishni so'rashlari mumkin edi. Ushbu shaxslarga quyidagi imtiyozlar berilgan: 1) ularga davlatning bo'sh yerlaridan 10 desyatinadan ko'p bo'lmagan yer-

[1] O'zR MDA. I-1-jamg'arma, 17-ro'yxat, 294-yig'ma jild, 10-varaq va o.

[2] Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению сенатором, гофмейстером, графом К.К. Паленом. Переселенческое дело. СПб, 1910.

@tarixchi_kutubxonasiga

lar ajratib berilgan; 2) birinchi 10 yillikda ular davlat yer solig'ini to'lashdan ozod etilganlar. Bundan tashqari, bir vaqtning o'zida ularga 100 rubldan ko'p bo'lmagan miqdorda yordam puli berilgan. Uning birinchi yarmi joylashish jarayonida, ikkinchi yarmi esa yer maydoniga ega bo'lgandan so'ng berilgan. Xarajatlarning hammasi davlat g'aznasi hisobidan qoplangan. Yordam puli olish va davlat solig'ini to'lash huquqi shahar hududlarida joylashgan harbiylarga ham berilgan. 10 yildan oldin o'lkadan ko'chib ketgan xizmatchilarning yerlari g'azna hisobiga o'tkazilib, Davlat mulki vazirligi tasarrufiga berilgan. Quyi lavozimdagi harbiylarni joylashtirish va yashash sharoitini yaratib berish mas'uliyati general-gubernatorga yuklatilgan.

Yuqorida bayon etilgan qonunchilikda vaqtinchalik shartlar sifatida ko'chish uchun quyidagi qoidalar belgilangan edi:

– Turkistonga ko'chib kelishga faqatgina xristian diniga mansub bo'lgan, qishloq aholisiga mansub rus fuqarosiga ruxsat berilgan;

– general-gubernator ruxsati bilan ko'chib kelganlarga mahalliy sharoitdan kelib chiqib, bo'sh turgan davlat yerlaridan har bir odamga 10 desyatinadan ko'p bo'lmagan miqdorda yer ajratib berilgan;

– ko'chirishga doir hujjatlar davlat yig'imidan ozod qilingan, ko'chib kelganlarning o'zlari esa birinchi 5 yil davomida davlat yer solig'ini to'lashdan ozod etilganlar, keyingi besh yillik davrida esa belgilangan soliqning yarmini to'laganlar.

Turkistonda birinchi posyolka tashkil etilgandan keyingi 15 yil ichida ko'chib kelib joylashish hajmi uncha katta bo'lmagan.

...1891-yilga qadar Sirdaryo viloyati hududida 20 ta rus qishloqlari tashkil etilgan edi. Bulardan tashqari, Perovsk uyezdida hozirda Samarqand viloyati tarkibiga kirgan uncha katta bo'lmagan 3 ta qishloq bo'lgan. Joylashtirilgan oilalar soni 1890-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 1300 tani tashkil etgan.

...Umuman olganda, 1890-yilga qadar ko'chish harakatlari 1891 va 1892-yillarga nisbatan unchalik katta bo'lmagan. O'sha davrda Rossiyaning Yevropa qismini qamrab olgan hosilsizlik sababli dehqonlar ommaviy ravishda yangi yerlarni qidirib topishga harakat qilganlar. Ungacha Sirdaryo viloyatida mavjud 20 ta qishloqqa qo'shimcha yana 17 ta yangi qishloqlar tashkil etilgan. 1892-yilda Sirdaryo viloyatiga ko'chib kelib joylashgan oilalar soni 2560 tani tashkil etgan.

Ko'chib kelish oqimining oshib borishi o'lpon to'lashni joriy etish zaruriyatini keltirib chiqardi. Sirdaryo viloyati ma'muriyati ko'chib kelganlarga Yettisuvdagi ko'chib kelganlar kabi o'lpon joriy etishni nazarda tutdi. Unga asosan, ko'chib kelganlardan pul yoki mahsulot ko'rinishida 30 tiyinlik obrok to'lovi olish rejalashtirildi. Shu bilan birga, dehqonlarga 5 yil davomida, harbiylarga 10 yil davomida soliq imtiyozi saqlanib qoldi. Biroq, ge-

@tarixchi_kutubxonasiga

neral-gubernator huzuridagi kengash viloyat boshqarmasi qarori bilan rozi bo'lmasdan, bir uy [kibitka]dan 4 rubldan to'lov yig'ib olish qarorini qabul qildi. General-gubernator uyezd boshliqlariga ko'chib kelganlarning iqtisodiy ahvoli to'g'risida ma'lumot yig'ib kelishni buyurdi. Og'ir iqtisodiy ahvol tufayli soliq masalasi kechiktirildi...

A.V. Krivoshein. Turkiston o'lkasi boshqaruvi va ko'chirish siyosati to'g'risida[1]

1912-yilda Turkiston o'lkasiga Rossiya Yer va ziroatchilik bosh boshqaruvchisi Aleksandr Vasilyevich Krivoshein tashrif buyurib, o'lkadagi umumiy holat haqidagi o'z mulohazalarini bayon etgan. Quyida A. Krivosheinning o'lka boshqaruvi haqidagi fikrlari aks etgan bo'lib, muallif ko'chirish siyosatining mohiyati haqida ham to'xtalib o'tgan.

Boshqaruv masalalari

...O'lkani iqtisodiy rivojlantirish choralari, uning sug'orilishi, aholining ko'chirilishi, temir yo'llar, kredit, qishloq xo'jaligi va ziroatchilikka yangi mablag'larning sarf etilishi – o'lka boshqaruvining boshqa barcha tashqi masalalariga nisbatan g'oyat muhimdir.

Turkistonda ichki tizimni tashkil etish davri hanuzgacha o'z nihoyasiga yetmagan. Bu davr boshqaruv shakllarining u yoki bu darajada qayta qurilishini emas, balki kuchli, mablag' va g'ayrat bilan qurollangan hokimiyatni talab etadi. Faqat shunday hokimiyatgina biz istagan «yangi Turkiston»ni kashf eta oladi.

Shu ma'noda, Turkistonda harbiy boshqaruvni fuqarolik boshqaruvi bilan almashtirish yoki graf Palenning o'lkada zemstvo tizimini joriy qilish borasidagi takliflari uzoq kelajakda amalga oshadigan va nisbatan ikkinchi darajali bo'lib tuyuladi. Har ikkala taklif ham Turkistonda yetarli darajada rus aholisi mavjud bo'lgan taqdirdagina foydali, yaxshi va ezgu ishdir.

Holbuki, tub Turkiston hamon to'laligicha mahalliy dengizdir. Rus manzilgohlari, eski mahalliy shaharlardagi yangi rus «shahar»lari – hozircha bu dengizdagi kichik orolchalardir, xolos. Ular faqatgina tayanch, xudoga shukrki, keyinchalik bu yerda ruslarning o'rnashib qolishlari uchun mustahkam nuqtalardir. So'nggi ma'lumotlarga qaraganda, qishloq joylarida ruslar soni quyidagicha: Kaspiyorti viloyatida 4 775 kishi, Samarqand viloyatida 4 804 kishi, Farg'ona viloyatida 8 782 kishi, birgina Sirdaryo vilo-

[1] *Кривошеин А.В.* Записка главноуправляющего землеустройством и земледелием о поездке в Туркестанский край в 1912 году. – Полтава: Электрическая типо-литография И.Л. Фришберга, 1912. – С. 187.

@tarixchi_kutubxonasiga

yatida 40 234 kishi. Bu foizlar bilan hisoblaganda, viloyatlarda 1,3 foizdan 6 foizgacha bo'lgan miqdorni tashkil etadi.

Bunday vaziyatda o'lkani «umumiy holat»ga o'tkazish ancha murakkab masaladir. Turkistonda mahalliy aholi asosiy ko'pchilikni tashkil etganini yaqqol ko'rib, beixtiyor bu yer hali rus harbiy lagerlari uchun ekanligini, bu – Rossiyaning O'rta Osiyoga shavkatli yurishlari bosqichi ekanligini; tinchlangan mahalliy olomonga rus harbiy hukumati tushunarliroq va ta'sirchanroq ekanligini his qilasan. Middendorfning obrazli ta'rifi bilan aytganda, har bir mustamlakada «epoletlardagi gubernatorlar» o'z o'rnini «frakdagi gubernatorlar»ga bo'shatib berishi kerak bo'lsa, bu almashuv faqat o'z vaqtidagina amalga oshirilishi lozim.

Harbiy boshqaruv shu paytga qadar Turkiston xo'jaligining ravnaqiga xalaqit bermagan, bundan keyin ham xalaqit bermaydi. Mahalliy boshqaruvning asosiy ish kuchi bo'lgan uyezd boshliqlarining tarkibi yaxshi, o'lka ma'muriyati ham, umuman olganda, o'zining bevosita vazifalarini muvaffaqiyatli bajarmoqda. Faqat uni hanuzgacha viloyat boshqaruvi, harbiy gubernator yordamchisi, viloyat «irrigator»lari zimmasida bo'lgan sug'orish va davlat yerlarini boshqarish majburiyatidan ozod qilish zarur. Bu vazifalar – qishloq xo'jaligini rivojlantirish, Turkiston xalq xo'jaligiga xizmat qilish, uni ruslashtirish masalalari qishloq xo'jalik muassasalari tomonidan amalga oshirilishi kerak. Umumiy harbiy boshqaruv doirasida bunga bemalol erishish mumkin.

O'lkada zemstvo hozirchalik aniq voqelik qiyofasini berish qiyin bo'lgan mavhum bir g'oya. O'lkada rus aholisi kam sonli bo'lgan, ba'zi bir istisnolarni hisobga olmaganda, barcha qimmatli yerlar mahalliy aholi qo'lida to'plangan bir sharoitda uyezd zemstvosini kiritish uni butunlay sartlashtirish yoki qirg'izlashtirish muqarrar deganidir. Boshida faqat guberniya zemstvosini kiritib, shaharlarning rus aholisi bilangina cheklanish [menga bunday takliflarni mahalliy aholidan eshitishga to'g'ri kelgan] bu – qurilishni tomdan boshlash va zemstvoni mehnati va vaqti hozirdanoq band bo'lgan rus amaldorlari bilan to'ldirish demakdir.

Mustahkam va yashovchan zemstvo o'lkani ruslashtirishdan keyingina paydo bo'lishi mumkin. Zemstvo rus Turkistonini qurish maqsadida emas, balki uni qurib bo'linganidan keyin kerak bo'ladi...

Xiva xonligida savdo aloqalari[1]

Rossiya imperiyasi 1873-yilda Xiva xonligini bosib olgandan keyin mamlakatning metropoliya bilan savdo aloqalari kengayib, faollashib bordi. Asosan mamla-

[1] Sankt-Peterburg Markaziy davlat tarixiy arxivi, 183-jamg'arma, 1-ro'yxat, 12-yig'ma jild, 1-7-varaqlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

kat xomashyo resurslarini o'zlashtirib, rus sanoat mahsulotlarini Xiva bozorlarida realizatsiya qilishga yo'naltirilgan ushbu savdo aloqalarining ko'lami va predmeti haqida Rossiya arxivlarida qimmatli ma'lumotlar saqlanib qolgan. Xususan, Sankt-Peterburg Markaziy davlat arxivining 183-jamg'armasida saqlanayotgan quyidagi hujjatlar 1881–1882 va 1908-yillarga oid bo'lib, shu davrdagi Rossiya – Xiva savdo aloqalari haqida qiziqarli ma'lumotlar beriladi. Ilgari ilmiy iste'molga kiritilmagan ushbu ma'lumotlar ilk bor o'zbek tilida chop etilmoqda.

X. Abdurasulov

ICHKI SAVDO
(1881–1882-yillar)

...Agar muntazam ravishda u yoki bu narsani sotish bilan shug'ullanadigan har bir odam savdogar deb atalsa, u holda xonlikning deyarli barcha erkak aholisini savdogar deyish mumkin bo'ladi. Ma'muriyatga aloqasi bo'lmagan, davlat xizmatchisi hisoblanmagan shahar aholisi albatta hunarmandchilikning biror turi bilan shug'ullanib, bozor kunlari o'zlari ishlab chiqargan yoki qishloqliklardan xarid qilingan mahsulotlarni sotadilar.

Xonlikda chetdan mol keltirish va chetga mol chiqarish bilan alohida uyushmalar, kasbi savdogar bo'lgan odamlar shug'ullanadi. Bu yopiq uyushma emas, unga o'z sarmoyasi va kreditga ega bo'lgan har bir kishi a'zo bo'lishi mumkin. Ular orasida ma'muriyat vakili va ruhoniy [ulamo] ni ham uchratish mumkin. Kasodga uchragan savdogar esa mahalliy mahsulotlarni qayta sotadigan olibsotarga aylanadi, dehqonchilik qiladi yoxud kimgadir ishchi bo'lib yollanadi.

Aholi punktlarida bozor kunlari do'konlar turli mahsulotlar bilan to'la bo'lib, ularning deyarli beshdan bir qismida chiroyi bilan o'ziga jalb qiladigan mahsulotlar – chit, ro'mol, movut parchalari va Buxoro mahsulotlari, ya'ni doka, do'ppi, olacha, adras, mustahkam yigirilgan ip va boshqa tovarlar sotiladi. Ularni ulgurji savdogarlardan nasiyaga olib, har bozor oxirida bo'lib-bo'lib qarzni qaytarish majburiyatini olgan savdogarlar sotadi.

Bozorlar har bir shaharda har xil kunlari o'tkazilishi sababli, savdogarlar bozor tugashi bilan mahsulotlarini yig'ib, agar boshqa bozor yaqin bo'lsa, kechqurun yoki uzoq bo'lsa, ertasi kuni ertalab savdo-sotiq bo'ladigan joyga olib boradilar. Demak, bir turdagi mol muayyan savdogar tomonidan hafta davomida ikki va uch shaharda alohida bozor kunlari sotiladi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Xonlikning yirik savdogarlari va ularning yillik savdo aylanmasi:

Yirik savdogarlar	Yillik savdo aylanmasi (rubl)
Xivada:	
Xudoybergan	270 000
Polvon Devon	90 000
Madraimov	54 000
Jami:	514 000
Urganchda:	
Uvays Bobo Baqqol	200 000
Xo'jash Chitkar	200 000
Polvon Sovutchi	150 000
Bobo Ulomon	100 000
Muhammad Sharip Pesha	70 000
Bobojon Gulak	70 000
Gushan Qora	50 000
Saidqul Panal	30 000
Boy Otajonboy	20 000
Hoji Muhammad	20 000
Buxoroliklar:	
Boqiboy	40 000
Norboy	40 000
Sapoqul	40 000
Mirzo Hisomiddin	60 000
18 ta mayda firmalar	100 000
Jami:	1 190 000
Xonqada:	
Gavdon Razzoqberdi	100 000
Tillo Janak	10 000–15 000
Madirboy	10 000–15 000
Olloberganboy	10 000–15 000
Fozilboy	10 000–15 000
Olimboy	10 000–15 000
Avazniyozboy	10 000–15 000
Olti nafarning jami puli:	200 000
Jami:	300 000
Hazoraspda:	
Vaisboy	18 000

@tarixchi_kutubxonasiga

Saidxon	30 000
Jami:	48 000
Toshhovuzda:	
Bolli	14 400
Quramboy	7 200
Jami:	21 600
Ilyolida:	
Xo'jaboy	18000
Gurlanda:	
Uvaysboy	36 000

Xulosa qilib aytganda, xonlikning savdo aylanmasi 2,5 million, hatto 3 million rublni tashkil etadi, deb taxmin qilish mumkin.

TASHQI SAVDO

...Savdogarlar na xonlikka va na xonlikdan tashqariga pul olib chiqmaydi, balki u yoki bu tarafga faqat tovar tashiydilar. Rossiyadan birinchi karvon may oyida chiqib [Moskvada zarur narsalar sotib olinadi], xonlikka iyul oyining oxirida yetib keladi. Nijniy Novgoroddan esa, avgustda yo'lga tushgan karvon noyabrda o'z manziliga yetib keladi.

Rossiyadan kelayotgan mahsulotlar ikki yo'nalish orqali: Orenburgdan Kazalinskka va Shoh Abbos Vali orqali Amudaryoni kechib o'tadi, yoki Orenburgdan Emba qal'asi yonidan Ustyurt orqali Qo'ng'irotga va u yerdan qayiqlarda Urganchga yetib keladi. Mahsulotlarning juda oz qismigina Volga va Kaspiy orqali Krasnovodskka, undan esa tuyalarga ortilgan holda xonlikka kirib keladi.

Qaysi yo'l bilan kirib kelishidan qat'i nazar, tovarlar Xiva yoki Urganch karvonsaroylariga yetkazilishi shart. Bu yerda tovarlar uning egasi yoki ishonchli vakili huzurida, zakot yig'uvchi hamda mahsulotning bozor bahosini aniqlab beruvchi dallol [makler] tomonidan ochiladi. Xonlikka kirib kelayotgan barcha mahsulotlar shu tarzda tekshirib chiqilib, ularning miqdori va qiymati qog'ozga yoziladi. Keyin bozor bahosidan kelib chiqqan holda, xivalik savdogarlarga tegishli ushbu mahsulotlarning 1/40 qismi ushlab qolinadi [ya'ni, har bir rubldan 2,5 kopeyek ushlanadi]. Rus fuqarolarining mahsulotlari faqat ro'yxatga olinadi, ammo ulardan boj undirilmaydi.

Mahsulotdan zakot boji olingach yoki ushbu bojni muayyan muddatda to'lash haqida qarz majburiyati olingach, ular o'z egasining ixtiyoriga o'tadi.

...1882-yilning 1-martida Qo'ng'irotdan Orenburgga paxta olib chiqishda quyidagi karvonboshilar tomonidan 7700 tuya yollandi:

@tarixchi_kutubxonasiga

Savdogarlar	1882-yil 1-martda jo'natilgan tuyalar soni
Adamov	600
Ibragimov	700
Salimjonov	500
Mustafo	300
Jami:	**2 100**
Uvays Baqqol	400
Xo'jash Chitkar	300
Bobo Ulomon	150
Masharip Pesha	100
Bog'arjonboy	200
Jami:	**1 150**
Boqiboy	120
Norboy	80
Saidqul	150
Avazyan	50
Jami:	**Hozirlangani 400 tuya, jo'natilgani 500 tuya savdo mahsuloti**
Urganchdan	300
Qurbonboy Dav	100
Xonqalik Gavdon	800
Boshqalar	200
Gurlanlik savdogarlar	500
Toshhovuzlik savdogarlar	200
Jami:	**2 100**
Xivadan:	
Xudoyberganov	700
Madrimov	300
Polvon Devon	300
Boshqalar	200
Jami:	**1 500**
Qirqyop yonidagi **Qoramozidan:**	150
Jami:	**2100**
Hazoraspdan:	
Saidmurod	60
Vaisboy	40
Jami:	**100**

1884-yilda esa Qo'ng'irotdan yuqorida nomlari ko'rsatib o'tilgan savdogarlarga tegishli jami 9650 tuyada tovar chiqib ketgan.

Xonlikdan Rossiyaga paxtadan tashqari yarim ishlov berilgan qoramol terisi, qo'zi terisi, choponlar, po'stin va kam miqdorda o'rik olib chiqiladi.

@tarixchi_kutubxonasiga

1881-yilda savdogarlarning tovar jo'natishi quyidagicha bo'lgan:

Savdogarlar	Mahsulot olib ketilgan tuyalar soni:
Umar Qo'shaloq	150
Xo'jash Chitkar	100
Xudoyberganov	250
Urganchlik mayda savdogarlar	200
Urganchdagi rossiyalik tatarlar	200
Amudaryo bo'limining Qo'ng'irot va Xo'jayli firmalari, rossiyalik tatarlar va mahalliy savdogarlar	200
Jami: 23 000 pud	**1 100 ta tuya**

Xonlikka olib kiriladigan mahsulotlar qiymati 2,5 million rubl atrofida bo'lsa, xonlikdan esa 3,5 million rubl qiymatiga teng mahsulotlar chetga jo'natiladi[1].

Shunday qilib, xonlik boshqa mamlakatlarga anchagina xomashyo chiqaradi, qayta ishlangan holda foydalaniladigan buyumlar [yarim tayyor, tayyor va uskunalar]ni chet mamlakatlardan olib keladi.

1908-yilga kelib Xiva xonligi sarhadlaridan taxminan quyidagi miqdorda turli xil mahsulotlar chetga olib chiqiladi:

T/r	Tovarlar	Miqdori (pud)
1.	Tozalangan paxta	700 000
2.	Echki terisi	1 500
3.	Sigir terisi	25 000
4.	Ishlanmagan qo'y terisi	4 000
5.	Qo'y ichak-chavog'i	1 200
6.	Mesh (ishlangan qo'y terisi)	4 500
7.	Jun	10 000
8.	Beda urug'i	180 000
9.	Baliq	33 000
10.	Qorako'l	800
11.	Chopon va kigiz	25 000
12.	Sholi (guruch)	60 000
13.	Gilam va paloslar	4 700
14.	Sigir yog'i	20 000
15.	Rang va ro'yon	500
	Jami:	**1 070 200**

Paxta va boshqa xomashyo asosan Moskva va Nijniy Novgorod yarmarkalariga, jun esa, uni qayta ishlaydigan fabrikalari mavjud bo'lgan o'rta

[1] Sankt-Peterburg Davlat tarix arxivi, 1396-jamg'arma, 1-ro'yxat, 33-yig'ma jild.

@tarixchi_kutubxonasiga

Volgabo'yi shaharlariga jo'natiladi. Baliqni esa, Orenburg savdogarlari sotib oladi. Ichak-chavoq va beda chet elga [Gamburgga], gilamlar Turkiyaga yuboriladi...

1908-yilda Xiva o'lkasiga chetdan olib kirilgan yuklarning miqdori va turi taxminan quyidagicha bo'lgan:

T/r	Mahsulot turi	Miqdori (pud hisobida)
Moskva va Nijniy Novgoroddan keltirilgan tovarlar		
1.	Manufaktura	145 000
2.	Attorlik mahsulotlari	20 000
3.	Baqqollik mahsulotlari	105 000
4.	Dori-darmonlar	1 000
5.	Sandiqlar	10 000
6.	Qozon va qumg'onlar	16 500
7.	Yigirilgan ip	29 000
8.	Qandolat va obaki	21 500
9.	Sham	1 500
10.	Temir	15 000
11.	Idish-tovoqlar	10 000
12.	Aroq va ichimliklar	8 500
13.	Temir buyumlar	95 000
14.	Mis va mis buyumlar	20 000
Boshqa hududlardan keltirilgan tovarlar		
15.	Chorjo'ydan – yog'och-taxta	100 000
16.	Vladikavkazdan – un	15 000
17.	Chorjo'ydan – kerosin	150 000
18.	Ashxobod va Buxorodan – ko'k choy	60 000
19.	Kiyevdan – qand	120 000
20.	Chorjo'ydan – gugurt	10 000
21.	Orenburgdan – bulg'ori charm	20 000
22.	Saqich, sham	10 000
23.	Boshqa shaharlardan – kvars, bo'yoq	8 000

Buxoro amirligi va Afg'oniston savdo aloqalarining arxiv ma'lumotlariga asoslangan tahlili

Buxoro amirligi XIX asrning 90-yillari oxirigacha Afg'oniston bilan faol savdo aloqalari olib borgan. O'zR MDA jamg'armalarida saqlanayotgan hujjatlarda XIX asrning 80–90-yillarida amirlikning Afg'oniston bilan savdo aloqalari, savdo yo'lla-

@tarixchi_kutubxonasiga

ri, savdo munosabatlaridagi asosiy shaharlar, tovar ayirboshlashdagi asosiy mahsulotlar ko'rsatib o'tilgan. Quyida ushbu hujjatlardan parcha keltirilgan.

t.f.n. T. Safarov

...Mozori sharif, Shibirg'on, Chorviloyat, Axcha, Andxo'y, Saripul, Maymana kabi shaharlarning Afg'onistonning tashqi savdosida o'ziga xos o'rni va roli bor edi. Mozori sharifdan asosan ko'k choy, pista, bodom, teri, jun keltirilgan bo'lsa, Chorviloyatga shakar-qand, temir, cho'yan qozonlar, mis, gugurt, sandiq, chinni idishlar chiqarilgan. Rossiyaning bunday tovarlari Buxoroga keltirilgan va bu yerdan qo'shni Chorviloyatga sotish uchun reeksport [qayta eksport] qilib jo'natilgan[1].

Kobul, Hirot, Mashhad orqali bir qator ingliz-hind tovarlari kashmir [ro'mol], hind parchasi [kimxob], ingliz ip-gazlama matolari, Mo'ltondan ko'knori, nafis va mayin ip-gazlamalar, ipak gazlamalar Buxoro bozorlariga keltirilgan. Karvon yo'lining xatarliligi bois Buxoro va Qunduz o'rtasidagi savdo keng miqyosda olib borilmagan. Buxorodan Qunduzga yuft [bulg'ori charm], movut, cho'yan, po'lat buyumlar [Rossiyadan keltirilgan] olib borilgan. Qunduzdan Buxoroga ip-gazlamalar va paxtadan tayyorlangan dag'al matolar keltirilgan. Buxoro va Badaxshon o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalari asosan lojuvard bilan cheklangan[2].

Buxoro bilan Afg'oniston savdo-sotig'ida asosiy rol o'ynaydigan o'tish punktlari [kechuvlar] quyidagicha: Saripul yo'lida Kelifdan o'tilib, Andxo'yga tovarlar Kerki orqali keltirilgan. Shuningdek, Shibirg'on, Kobul, Axchadan tovarlar keltirishda ham Kelif kechuvidan o'tilgan, Maymanadan keltirilgan tovarlar Kerkidagi kechuv orqali olib o'tilgan[3].

Saripuldan Buxoroga jun, tulki terisi, qora rangli teri, pista [tozalangan], bodom; Shibirg'ondan jun, qora va sur rangli teri, tulki terisi, qora-mayiz, kunjut, zig'ir, gilam, ko'k mayiz keltirilgan. Andxo'ydan jun, qo'y terisi, qora va sur rangli teri, tulki terisi, qorako'l terisi, anor po'chog'i [bo'yoq uchun], sariq mayiz, qop-qanor, gilam, ko'k mayiz; Kobuldan ko'k choy, indigo, hind shol ro'moli, hind parchasi, ingliz kiseyi [doka], qorako'l terisi keltirilgan[4].

Buxoro – Afg'oniston savdosida mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlar asosiy o'rinni egallagan. Bular, eng avvalo, pilla xomashyosi, echki juni, bo'z, pichoq-qaychi kabi maishiy turmush uchun kerak bo'ladigan buyumlar edi. Rossiya tovarlaridan Afg'onistonga mis, cho'yan

[1] O'zR MDA, I-1-jamg'arma, 1-ro'yxat, 47-yig'ma jild, 20-varaq.
[2] O'sha yerda, 21-varaq.
[3] O'zR MDA, I-1-jamg'arma, 34-ro'yxat, 696-yig'ma jild, 47, 48, 49-varaqlar.
[4] O'sha yerda, 47, 48, 49-varaqlar.

@tarixchi_kitoblar_olami

qozonlar, sandiq, nina, pichoq, ustaralar, zar ip, zar kalava, qizil bo'yoq, zardan tikilgan jiyak, ipakdan to'qilgan yengil matolar, movut sotish uchun chiqarilgan. Rus charm terisi Kobulda unchalik xaridorgir bo'lmagan, chunki bu yerning o'zida mahalliy sayg'och terisidan to'qilgan poyabzalning bozori chaqqon edi. Afg'onistonga rus shakari jo'natilmagan, chunki Kobulni inglizlar shakar bilan [Peshavor orqali] ta'minlab turgan[1].

1889-yilning ikkinchi yarmida Buxoro amirligiga Afg'onistonning Saripul, Maymana, Andxo'y, Shibirg'on, Axcha shaharlaridan tovarlar asosan Kelif bojxonasi orqali keltirilib, ularning asosini jun, tulki terisi, qorako'l [oq, qora, qizil] terisi, qo'y terisi, qora olxo'ri, anor po'chog'i [rang uchun], mayiz, pista, bodom, kunjut, zig'ir, xurmo, ko'knor, qoplar va gilam tashkil etgan. Hindistondan Buxoroga asosan choy, chit gazlamasi, andar sarisi, hind parchasi, indigo kabi mahsulotlar olib kelib sotilgan[2]. Har yili taxminan Hindiston va Kobuldan 1475080 rubl, Axchadan 220352 rubl, Shibirg'ondan 234320 rubl, Andxo'ydan 62360 rubl miqdorida tovar keltirilar edi. Yuqorida sanalgan tovarlar orasida ingliz-hind tovarlarining salmog'i katta bo'lib, qolgan mahsulotlar esa Afg'onistonning Chorviloyatidan keltirilgan. Afg'oniston bozorlariga kiritilgan Buxoro mollarining qiymati 133475 rublni, mollarining qiymati esa 1084914 rublni tashkil etgan[3]. Ayrim rus tovarlari, masalan, shakar Buxoro amirligining vositachiligi bilan emas, balki Kerki orqali Afg'onistonga kiritilgan.

1888–1889-yillarda Buxoro amirligi hududi orqali Afg'oniston va Rossiya o'rtasida hamda Afg'oniston davlati va Buxoro amirligi o'rtasidagi savdo-sotiq munosabatlari natijalarining ko'rsatishicha, Rossiya tovarlari Afg'onistonda ingliz-hind hamda boshqa Yevropa tovarlari bilan bemalol raqobatlasha olgan. Afg'onistondan Buxoroga keltirilgan tovarlar tahlilining ko'rsatishicha, hind import mahsulotlari [choy, indigo, yupqa material] uchun Afg'oniston tranzit hudud bo'lib xizmat qilgan, ayni paytda Chorviloyatdan Buxoroga jun, qorako'l, rang-bo'yoqlar ham jo'natilgan. Afg'onistondan Buxoro bozorlariga Rossiya sanoati uchun zarur mahsulotlar ham chiqarilgan. Garchand to'xtovsiz xavf-xatar, o'zaro savdoni cheklashga qaratilgan xatti-harakatlar bo'lib tursa-da, bu yo'nalishda rus va mahalliy [Buxoro] tovarlar bilan savdo-sotiq to'xtovsiz davom etib turgan. 1892-yilda va 1894-yilning boshlarida Afg'oniston-Buxoro chegarasidan o'tkazilgan tovarlarning katta qismini ingliz-hind tovarlari tashkil etgan. Shu jumladan, afg'on tovarlari, xususan, qorako'l terisining hajmi

[1] O'zR MDA, I-1-jamg'arma, 34-ro'yxat, 696-yig'ma jild, 32 -varaq.
[2] O'sha yerda, 33-varaq.
[3] O'sha yerda, 34-varaq.

@tarix_ch_kutubxonasiga

ham keskin ko'paygan. Faqatgina 1893-yilning iyun oyida Afg'oniston amiri Abdurrahmon Buxoroga 165 toydan iborat bo'lgan uch partiyada qorako'l terisini jo'natgan[1]...

Rossiya Davlat Dumasi yig'ilishi stenogrammasi[2]

(To'rtinchi chaqiriq, 5-sessiya, 16-majlis)

Turkistonda 1916-yil 25-iyunda mahalliy aholini frontga safarbar etish ishlari haqidagi Rossiya imperatori e'lon qilgan farmonga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni butun o'lkani qamrab olgan edi. Bu qo'zg'olon o'lka ma'muriyati tomonidan shafqatsizlik bilan bostirilib, qo'zg'olonchilar yoppasiga qiyg'in va qirg'inga uchradilar.

Turkiston ziyolilarining taniqli vakillaridan Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Mustafo Cho'qayevlar 1916-yil iyulda Peterburgga kelib, Davlat Dumasiga o'lkada sodir bo'layotgan voqealar yuzasidan arz qiladilar. Safarbarlik haqidagi farmonning adolatsizligini ta'kidlab, bunday holatga chek qo'yishni, ahvolni o'rganish uchun Turkistonga komissiya yuborishni talab qiladilar.

Ularning talablari bilan Rossiya Davlat Dumasidan Turkistondagi ahvol bilan bevosita tanishish uchun mehnatkashlar fraksiyasining vakili A. Kerenskiy va musulmonlar fraksiyasi vakili Qutlug' Muhammad Botirgareyev-Tevkelevlardan iborat komissiya tuzilib, o'lkaga jo'natiladi.

Deputatlar 15-avgustda Toshkentga tashrif buyuradilar va 10 kun davomida Jizzax, Qo'qon, Andijon, Samarqand kabi shaharlarda bo'lib, Mustafo Cho'qayev tarjimonligida mahalliy aholi bilan yuzma-yuz [ma'murlar va mirshablar ishtirokisiz] suhbatlashadilar.

Xalq sodir bo'lgan voqealarning sabablari, tafsilot va oqibatlari haqida ro'y-rost ko'rsatma beradi. Natijada deputatlar yuz bergan voqealar xususida eng ishonchli manba – qo'zg'olon ko'targan xalq bergan ma'lumotlar asosida haqqoniy tasavvurga ega bo'ladilar. Turkiston vakillari – ziyolilar talabiga ko'ra 1916-yil voqealari Rossiya Davlat Dumasi muhokamasiga kiritilib, o'sha yili 13- va 15-dekabrda tor doirada, yopiq kengashda muhokama etiladi.

Muhokamada Turkiston vakillari ishtirok etmaganlar, chunki ular Duma Musulmonlar fraksiyasiga a'zolikdan mahrum edilar. Kengashda Turkistondagi ahvol haqida o'lkada bo'lib qaytgan deputat A. Kerenskiy va Musulmonlar fraksiyasi vakili Mansurovlar axborot beradilar.

Quyida mazkur majlis stenogrammasidan parcha keltiriladi.

t.f.d., J. Ismoilova,
t.f.d., prof. D.H. Ziyoyeva

[1] O'zR MDA, 1-1-jamg'arma, 34-ro'yxat, 696-yig'ma jild, 146-varaq.

[2] O'zR MDA, 1-1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 1100-yig'ma jild, 265-375-varaqlardan tegishli parchalar tarjima qilindi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Rais: Davlat Dumasining majlisini ochiq deb e'lon qilaman. Turkiston va Dasht [Stepnoy] general-gubernatorliklarining ayrim joylarida yuz bergan hodisalar yuzasidan 133-modda tartibida Vazirlar Kengashi Raisi, Harbiy, Ichki ishlar va Adliya vazirlariga murojaat haqidagi arizani ko'rib chiqishga kirishamiz. Bir-biriga o'xshash bir nechta talab tushgan. Davlat Dumasi ularni jamlab, birgalikda ko'rib chiqishni taklif qiladi.

Ovozlar:

– Ma'qul! ...

Rais: So'z Davlat Dumasi a'zosi Kerenskiyga.

Kerenskiy:

– Janoblar, muhtaram Davlat Dumasi a'zolari! Bugun biz ko'rib chiqishimiz lozim bo'lgan hodisalar bundan ancha vaqt oldin yuz bergan, lekin ularning oqibatlari haqida shu paytgacha gapirilayapti va nafaqat Turkiston yoki Dasht viloyatlari hayotida, balki butun Rossiya hayotida bu haqda hali ko'p gapiriladi. Bugun sizning oldingizda, janoblar, men mavjud hujjatlarga asoslanib, Turkiston va Dasht viloyatlarida yuz bergan voqealarni xolisona bayon qilib bermoqchiman... Ushbu masalada, uzoq bir chekka viloyatlar masalasida ... yerli aholiga oid davlat siyosati masalasida bizning o'zaro murakkab kelishmovchiliklarimizni «arzimas» deb ko'rsatib, xaspo'shlash mumkinmikan? Ushbu kelishmovchiliklar Rossiya siyosiy hayotidagi ko'plab yoki deyarli barcha masalalarda bizni ajratib turadi. Bu voqealar, janoblar, iqtisodiy vayronagarchiliklarga olib kelish bilan birga, Rossiyaning katta-katta viloyatlaridagi tinch hayot oqimini alg'ov-dalg'ov qilib yubordi, ruslar tomonidan ham, mahalliy aholi tomonidan ham qurbonlar bo'ldi. Bir necha ming rus aholisi, bir necha o'n minglab mahalliy aholi halok bo'ldi.

Ushbu mudhish fojia sabablarini tahlil qilish, hodisa aybdorlarini aniqlash, Turkistondagi ahvolni shu darajaga yetkazgan sabablarning ildizini topish va kelajakda bunga yo'l qo'ymaslik lozim. Men o'z oldimga shunday masalani qo'ydim.

Janoblar, 1916-yil 25-iyunda chiqib, 6-iyulda chop etilgan Oliy farmon bilan mudofaa inshootlarini qurish, armiya harakatlanayotgan joylarda harbiy istehkomlar barpo etish ishlariga Imperiyadagi g'ayritabaa [Turkiston mahalliy aholisi nazarda tutilgan – *tarj.*] aholiga mansub 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklar majburan jalb qilingan edi. Janoblar, mazkur Oliy farmon qanday qilib chiqdi? Chiqmasligi kerak edi-ku! Ushbu Oliy farmon Rossiya Imperiyasining asosiy qonuniga zid-ku!..

Ushbu farmon rekvizitsiya to'g'risidagi qonunga, uning 87-moddasiga asoslanib berilgan... Biroq u mutlaqo noto'g'ri ishlab chiqilgan! Rekvizitsiya to'g'risidagi qonunning 137, 138, 139 va keyingi moddalarini hamda 1914-yilgi Harbiy mahkama buyruqlarini olib qarasangiz, ularda, ya'ni

@tarixchi_kitoblarasiga

rekvizitsiya to'g'risidagi qoidalarda 1916-yil 25-iyunda chiqarilgan farmondagi chalkashliklar nazarda tutilmaganini ko'rasiz.

Rekvizitsiya to'g'risidagi qoidalar qo'shin qo'mondonlari va armiyaning mahalliy boshliqlariga ... mahalliy aholini, aynan mahalliy aholini majburiy ravishda ishga jalb qilish huquqini beradi. Biz frontda va frontga yaqin joylarda xandaqlar qazish va boshqa mudofaa istehkomlari qurish uchun rekvizitsiya tartibida barcha mahalliy aholining ishga jalb etilgan holatlarni yaxshi bilamiz. Ammo mazkur holatda g'ayritabaalar armiya qo'mondonligi yoki hatto harbiy vazir qo'l ostida ishga jalb etilishi mumkin bo'lgan aholi sifatida emas, balki Rossiya imperiyasidagi yerli aholi vakili sifatida majburiy ishga jalb etilgan.

Shunday bo'lgach, yerli aholini aybdor deb topib, majburiy mehnatga jalb qilish 71-modda talablari bo'yicha amalga oshirilishi kerak edi.

Farmon o'z mazmuniga ko'ra hukumatning qonunchilik va buyruqlari to'plamida e'lon qilinmasligi hamda Asosiy qonunni buzuvchi ushbu qonunning e'lon qilinishini to'xtatib turish lozim edi.

Bundan tashqari, janoblar, Asosiy qonunning 93-moddasida joylarda yangi qonunlar yoki oliy hokimiyat farmonlari qay tartibda amalga kiritilishi aniq ko'rsatib qo'yilgan. Unda aytilishicha, hukumat tomonidan qonuniylashtirilgan u yoki bu farmoyish hukumatning rasmiy farmoyishlari to'plamida chop etilib, tegishli joyga yetib borganidan keyingina amalga kiritiladi. Agar bu qonun chiqarilgan zahoti amalga kiritilishi lozim bo'lsa, bu haqda mazkur qonunning o'zidayoq qayd etilishi shart.

...1914-yil 19-avgustda chiqarilgan farmoyishning 5-bandida esa shunday deyiladi: mazkur farmon telegraf orqali qabul qilingan zahoti uning ijrosiga kirishilsin. Vaholanki, 25-iyundagi Oliy farmonda bunday band yo'q; demak, 53-moddada ko'zda tutilgan holatdan kelib chiqib, mahalliy hokimiyatning ushbu farmon ijrosiga kirishishga haqqi yo'q edi.

Vazirlar Kengashi Raisi ham, Ichki ishlar vaziri ham iyun oyining oxirida, ya'ni, hukumatning rasmiy farmoyishlari to'plami chop etilmasdan turib, mazkur to'plamda 6-iyulda e'lon qilinishi mo'ljallangan farmonning ijrosini mahalliy hokimiyatlardan telegraf orqali talab qilishga ham haqli emas edilar...

Va nihoyat, janoblar, mahalliy hokimiyatlardan mazkur farmonning ijrosini talab qilar ekan, Ichki ishlar vaziri ham, Vazirlar Kengashi Raisi ham Oliy farmonning aniq ijrosini nazorat qilishni o'ziga ep ko'rmagan.

Oliy farmonning ikkinchi bandida qayd etilishicha: «Majburiy mehnatga jalb qilinishi lozim bo'lgan yerli aholining yoshini aniqlash, ularni ishga jalb qilishning mufassal qoidalarini Harbiy Kengashning 1914-yil 3-avgust-

@tarixchi_kutubxonasiga

da tasdiqlangan tartibiga muvofiqlashtirish Harbiy va Ichki ishlar vazirlari tasdig'iga taqdim etiladi».

Oliy farmonni zudlik bilan ijro etish haqida telegraf orqali buyruq berib, Ichki ishlar vaziri va Vazirlar Kengashi Raisi, shuningdek, Harbiy vazir ham Oliy farmonning 2-bandini bajarmagan. Haligacha Ichki ishlar vaziri va Harbiy vazirning roziligi bilan o'rnatilgan mufassal qoidalar mavjud emas. Haligacha Oliy farmonning 2-bandida belgilangan tartibda necha yoshli yerli aholi vakillari majburiy mehnatga jalb etilishi mumkinligi aniq ko'rsatilmagan. Shunday qilib, janoblar, 25-iyundagi birgina Oliy farmonni e'lon qilish va hayotga tatbiq etishda Rossiya imperiyasining asosiy va asosiy bo'lmagan qonunlaridan nimani buzish mumkin bo'lsa, bari buzilgan. Bu fakt, bu hodisa juda antiqa! Chunki bu yerda vazirlarning asosiy qonunlarga hurmatsizligi, mamlakat manfaatlari va ehtiyojlari bilan hisoblashmasliklari yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ular o'zlarini Rossiya imperiyasidagi mutlaq hukmdor deb biladilar. Go'yoki Rossiyada ularning irodasini cheklaydigan hech bir kuch yo'q. Ular uchun hatto oliy hokimiyat farmonlarining bajarilishi ham go'yo majburiy emas.

Shunday ulkan ahamiyatga molik tadbirni amalga oshira turib, jon ham koyitmadilar. Hatto mahalliy hokimiyatdan: «Sizlar nima deb o'ylaysizlar, ushbu farmonni bajarib bo'ladimi o'zi? Mumkin bo'lsa, uni qachon va qay tartibda amalga oshirish kerak? Kimlarni majburiy mehnatga jalb qilsa bo'ladi? Bu ishimiz xunuk oqibatlarni keltirib chiqarmasligi uchun qanday mahalliy sharoitlarni hisobga olishimiz kerak?» – deb so'rab ham o'tirishmadi...

Telegramma quyidagi mazmunda edi: «25-iyundagi Oliy farmon zudlik bilan ijro etilib, 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan mahalliy aholi farmonda ko'rsatilgan majburiy ishlarga jalb qilinsin».

Davlat Dumasi a'zolari! Sizlar qaysi partiyaga mansubligingiz, qiziqishingiz va dunyoqarashingizdan qat'i nazar, shu yerda o'tirgan barcha janoblar, sizlardan so'ramoqchiman: agar Tambov yoki Moskva guberniyalarida ayni dehqonchilik mavsumida, dalada ish qizg'in ketayotgan paytda mehnatga yaroqli erkak aholini tezlik bilan noma'lum bir joyga olib ketish haqida tuturuqsiz, ahmoqona buyruq chiqsa, bu buyruq bajarilarmidi? Agar u hayotga tatbiq etila boshlasa, o'sha Tambov guberniyasida qanday oqibatlarni keltirib chiqarar edi? Men shunga aminmanki, janoblar, bu oqibatlar nafaqat Turkiston yoki Dasht viloyatlaridagi kabi, balki undan ham keng miqyosda va xunukroq bo'lar edi...

Turkistonga jo'natilgan telegrammada shunday deyiladi: «... Ushbu tadbirni amalga oshirish mahalliy boshqarmaga topshirilsin». Holbuki, Turkistonda bunday boshqarma mavjud emas edi. ...Men hamma mahalliy ma'muriyatlardan, «hamma» deganda ko'pchilikni nazarda tutayap-

@tarixchi_kitobxonasiga

man, ma'muriyatning barcha tabaqa vakillaridan so'rab chiqdim, barcha mahalliy aholi... hamda o'sha voqealardan jabr ko'rganlar bilan gaplashib chiqdim. Ularning barchasi bir ovozdan e'tirof etishicha, Oliy farmon e'lon qilingunga qadar Turkistonda bo'lajak to's-to'polondan zarracha hamasar yo'q edi...

Bundan tashqari, janoblar, butun urush davomida mahalliy aholidan to'xtovsiz ravishda rekvizitsiya [mol-mulkni uning qiymatini to'lash shart bilan majburiy ravishda davlat ixtiyoriga olish — *tarj.*] yig'imlari, otlar, aravalar, asbob-uskunalar olib turilgan. Aholi shilinaverilgan, shilinaverilgan. Bu yerda shunisi qiziqki, janoblar, har safar ularning puli, mol-mulkini olishganda «yana ko'proq beringlar, urush davrida sizdan boshqa hech narsa talab qilinmaydi [ya'ni, siz urushga olinmaysiz]», deb uqdirishgan. Mana, mening oldimda mahalliy ma'mur tomonidan imzolangan, qishloq xo'jaligida ishlovchi urushga ketgan rus dehqonlari oilalariga yordam tariqasida 100 000 rubl mablag' yig'ilganligi haqida tuzilgan hisobotlardan biri. ...Ular [mahalliy aholi – *tarj.*] bu yo'lda ko'p narsani yetkazib berdilar va urushga ketganlarga ham yordam berib turdilar.

...29-iyun kuni farmon berildi, 7-iyulda esa dastlabki tartibsizliklar ro'y beradi. Ularni keltirib chiqargan sabab nimada? Men sizga qat'iy va mutlaqo aniq javobni aytaman: Turkistonda yuz bergan voqealarning hammasiga sababchi qonun va huquqning eng oddiy talablarini buzgan, noqonuniy tartibsizliklarga yo'l qo'ygan, noqonuniy buyruqni chiqarib, uni hayotga tatbiq qilgan markaziy hukumatdir. Bularning barchasiga aybdor ular, negaki, ular bu gullayotgan o'lkani xonavayron qildilar, mahalliy aholini ochlikka giriftor qildilar. Bunga ular aybdor, janoblar, negaki ular barcha urush frontlariga yana yangi, Turkiston frontini qo'shdilar...

Axir mahalliy turmush sharoiti, aholining iqtisodiy ahvolini hisobga olmay, muhokama qilinmay, hech qanday tayyorgarliksiz amalga oshirilgan bu farmon butun hayotni chilparchin qildi! Bu farmon amaliyotga joriy qilishga mutlaqo yaroqsiz edi!

Farmonni amalga oshirishda tanlash imkoniyati bor bo'lsa-da, eng noqulay davr tanlandi. Bu vaqtda Turkistonda qishloq xo'jaligi mavsumi avjida edi, mahalliy sharoitga ko'ra, bu mavsum oktabr oxirida tugaydi, bu paytda 19 dan 43 yoshgacha bo'lgan kishilar dalalarda, bog'larda ish bilan band edilar.

Bu paytda musulmonlarning eng ulug' bayramlari — ramazon ro'zasi boshlangan edi. Musulmon aholisi quyosh chiqqandan to botgunicha [bilasiz, yozda kun qanday uzun bo'ladi] hech narsa ichmaydi ham, yemaydi ham. Faqat tunda ovqatlanib, ibodat bilan band bo'ladilar. Bu davrda barcha musulmonlar o'zlarining diniy odatlariga ko'ra butun tun bo'yi uxlamay, diniy marosimlarini ado etib chiqadilar.

@tarixchi_kutubxonasiga

Janoblar, Turkistonda xotin-qizlar ahvoli ham mutlaqo o'zgacha. Turkistonda qishloq xo'jaligida band erkaklarning front ortiga ketishi oilani batamom boquvchisiz qoldiradi. Negaki, mahalliy, ya'ni musulmon ayollari tashqi dunyodan batamom uzilgan bo'lib, ko'chaga yuzlari mutlaqo berkitilgan holda, maxsus pardali kiyimda [paranji-chachvon *tarj.*] chiqadilar hamda ularga har qanday begona erkaklar bilan suhbatlashish man qilingan. Agar katta yoshli erkaklar ketsa, hosilni yig'ishtirib olish, uni bozorga chiqarish, paxtani ijaradorga yetkazib berish ham to'xtaydi.

Janoblar, ushbu farmonning qabul qilinishi mahalliy aholi uchun nihoyatda og'riqli bo'lishiga olib kelgan boshqa sabablarni aytib o'tirmayman. ...Shu tariqa iyun oyining boshidayoq barcha gubernator, pristav, uyezd boshliqlari va boshqa-boshqalarga xandaqlar qazishga olib ketish uchun zudlik bilan erkak aholining ro'yxatini tuzish haqida farmon berildi.

Va shunda janoblar, barcha erkaklarni urush ketayotgan joyga, harakatdagi armiyaga jo'natilayotganligi haqida mish-mish tarqaldi va bunga mahalliy hukumat tomonidan izoh berilmaganligi bois, farmonni aholi mutlaqo teskari tushundi...

Ya'ni, janoblar, «mahalliy aholi frontning oldingi chiziqlariga, rus soldatlari oldida xandaq qazish uchun jo'natiladi, qurolsiz mahalliy aholi ikki tomondan, ya'ni nemislar va ruslar otayotgan o'qlar orasida qoladi, ular nafaqat chuqur qazishga, balki askarlikka ham jalb qilinadi», deb tushundilar. Men buni o'zimda bor hujjat bilan tasdiqlayman...

Ma'muriyat ushbu buyruqni olgach, o'zi uchun yangi, mislsiz oltin favvora ochilganidek, bu xuddi ertaklardagidek cheksiz boylik orttirishning yangi manbai, aholini talash, ezish manbai ekanligini darhol anglab yetdi. Farmondan oldi-sotdi tarzida, zudlik bilan boylik orttirish uchun foydalanildi... Janoblar, men alohida hollarga to'xtalib, alohida shaxslar aybini sanab o'tirmayman.

Biroq bu ishlarda faqat mahalliy ma'murlarni ayblayotgan hukumatga o'zimni keskin noroziligimni bildiraman. Bu mutlaqo noto'g'ri. Mahalliy ma'murlar – ellikboshi, qishloq oqsoqoli rus ma'murlarining josuslari, xolos, rus ma'muriyati aholini shular orqali talagan, ezgan... Janoblar, nahotki siz rus ma'muriyatini bilmasangiz?! Nahotki amaldor kiyimidagi Ivanov yoki Petrovga biror-bir kishining, masalan Mahmudning yoshini o'z farosati bilan aniqlash imkoni tug'ilganda, ularni qanday ish tutishini tasavvur eta olmasangiz? Turkistonda oilaviy ro'yxat yo'qligi, harbiy majburiyat yo'lga qo'yilmagani tufayli kishilar yoshi haqida aniq ma'lumot yo'q.

Buni ularning tashqi ko'rinishidan aniqlash lozim bo'lgan. Ana endi ma'murlarning kimning yoshi qancha ekanligini qanday aniqlashini tasav-

@tarixiy_kutubxonasiga

vur eta olasizmi? Ular odamlarning yoshini cho'ntaklariga solingan pulga qarab aniqlashgan. Men o'z ko'zim bilan ko'rgan 60 yoshli qariya ro'yxatga 30 yosh deb yozilgan, chunki 300 so'm pora to'lashga qurbi yetmagan. 25–30 yosh yigitcha esa boyvachchaligi tufayli 50 yosh deb qayd etilgan...

Siz quvilgan, haydalgan, tahqirlangan aholining ahvolini hamda yerlari tortib olinib, ocharchilik, yo'qchilikka giriftor etilgan ayollar ahvolini bir tasavvur etib ko'ring. G'alayonlarni dastlab ana shu ayollar boshlagan...

Aholining bor-yo'g'ini shilib olib bo'lgach, tamagirlikning ikkinchi bosqichi, ya'ni ular hokimiyatga qarshilik ko'rsatgani uchun o'lim jazosi bilan qo'rqitilib, yana pul talab etila boshlandi.

Jazodan qutulish uchun berilishi kerak bo'lgan pulning aniq miqdori ham belgilangan bo'lib, buni faqat mahalliy aholi emas, u yerdagi ruslar ham tasdiqlaydi... Namangan, Qo'qon va boshqa mayda shaharlarda yuzlab, ba'zan minglab begunoh kishilar yoshi va jinsidan qat'i nazar, tutib keltirilgan, qo'llari bog'langan holda saqlangan va faqat pul to'laganlargina ozod etilgan.

Jizzaxda g'alayonlar ro'y berganda bu yerga piyoda artilleriya, kavaleriyadan iborat jazo otryadlari yuborildi va ularga yo'lda uchragan mahalliy aholini yoshi va jinsidan qat'i nazar, qirib tashlash buyurildi... Go'daklar, qariyalar o'ldirildi, Jizzax g'alayonlari 13-iyulda sodir bo'lgan edi, 3-avgustda, ya'ni oradan deyarli bir oy o'tgach, quyidagi buyruq chiqarildi: «Jizzax shahrining barcha mahalliy aholisi 3 kun ichida aybdorlarni tutib bermasa, shahardan quvib chiqarilsin!». 7-avgust kuni buyruq bajarildi.

Tongda asosan ayollar, bolalar, qariyalardan iborat omma to'p o'qlari ostida uy-joyidan chiqarilib, cho'llarga haydaldi, shahar esa butunlay yakson etildi. Men Jizzaxda avval bo'lganman, uning vayronalarini ham borib ko'rdim... Men, janoblar, ikki frontda – harbiy front va Kavkaz frontlarida bo'lganman, lekin bunaqasini ko'rmaganman... Biroq, bu bilan cheklanib qolinmadi. Shahar va uning atrofi davlat ixtiyoriga musodara etildi

Ja'farov: Yerli aholini front ortiga jalb qilish haqidagi farmon chiqishi bilan, shu zahotiyoq Imperiyaning turli chekkalaridan Ichki ishlar vaziri va Harbiy vazirlik idoralariga safarbarlik muddatini orqaga surish va ayrim hollarda imtiyozlar berish zarurligi to'g'risida ko'rsatmalar va iltimoslar kelib tusha boshladi. Biz musulmonlar guruhiga ham bunday materiallar ko'p miqdorda kelib tushdi.

Hammaga yaxshi ma'lumki, farmon yozgi yig'im-terim qizigan paytda chiqdi. Viloyatlardagi yerli aholi o'z yerlarida va rus aholisi yerlarida qishloq xo'jalik ishlari bilan band edi. Ko'p joylardagi yerli aholi bu ishlarni rus xalqiga achinib, haq olmasdan bajarar edilar.

@tarixchi_kutubxonasiga

Farmon nihoyatda noqulay paytda yuzaga keldi va Davlat Dumasi a'zolariga bir qancha choralar ko'rishga to'g'ri keldi. Biz shu vaqtda Harbiy vazirlikka, Ichki ishlar vazirligiga murojaat qildik va «g'ayritabaa»larni chuqur kavlash ishlariga chaqiruvning nuqsonlarini ko'rsatdik.

Biz zudlik bilan yerli aholini bu ishlarga chaqirishning mukammal sharoitlarini ishlab chiqishni taklif qildik. Biroq bizning ovozimiz hech kim quloq solmaydigan gapga aylanib qoldi.

Vaholanki, Turkiston o'lkasida bo'lishi mumkin bo'lgan g'alayonlar haqida Duma a'zolari Rjevskiy, Nekrasov va boshqalar tomonidan Oliy bosh qo'mondon Shtabi boshlig'i va Harbiy vazir nomiga yozilgan telegrammalarda ogohlantirilgan edi.

Men shuni qayd etmoqchimanki, qirg'iz, sart, turkmanlarga kelganda qonun hamisha e'tiborga olinmay qoladi. Hamma narsaga hokimiyat kuchi bilan erishiladi, buning uchun ma'murlar, mirshablardan iborat katta kuch mavjud...

Joylarda bu tadbirlarning amalga oshirilish tavsifiga o'tamiz...

«Ilgari, — deb yozadi Farg'ona viloyati Andijon shahridan 50 yoshli Xo'jayev deputatlar Tevkelev va Kerenskiyga, — bizning bolalarni askarlikka olmaydilar, shuning uchun sizlar otlaringiz va barcha mumkin bo'lgan narsalardan boshliqlar sizlarga murojaat qilganda berishingiz lozim, dedilar. Biz imkoniyatimiz boricha pul va buyumlar berdik; urushga ketgan dehqon yerlarini ishlov berishga odam yuborib, ishlov berdik...»

Ma'muriyat doimo mahalliy aholining urushda qatnashishdan ozod ekanligini ta'kidlar edi. Mahalliy aholi urush ehtiyojlariga ko'ngilli ravishda iona berish haqidagi da'vatni ham qo'llab-quvvatladi. Mahalliy aholining harbiy majburiyatdan ozod qilinganligi 1915-yil 19-aprel qonunida ham tasdiqlandi.

Unga asosan aholining natural harbiy majburiyatdan ozod qilingan qismiga davlat majburiyati og'irligini tenglashtirish va taqsimlash maqsadida oddiy soliqlarga qo'shimcha harbiy yig'imlar to'lash majburiyati yuklandi.

Mahalliy aholi undan nima talab qilinayotganligini mutlaqo tushunmas, kutilmaganda yuklangan yangi majburiyatning na maqsadini, na mohiyatini anglamas edi.

Andijon shahri aholisiga uyezd boshlig'i... 9-iyunda ertalab Jome' masjidiga yig'ilish haqida e'lon qildi. Xalq ko'p yig'ilmadi, chunki u vaqtda musulmonlarning ro'za kunlari edi. Polkovnik ... bozordan hamma xalqni chaqirishni buyurdi. Katta olomon yig'ildi.

19 yoshdan 31 yoshgacha bo'lgan shaxslarning ro'yxatini tuzish talabnomasi ularni dovdiratib qo'ydi. «Bizni aldadilar, podshohning qog'ozini ko'rsatinglar. Biz ro'za tugagach, odam yig'ishni so'raymiz», degan xitob-

@tarixiy_kutubxonasiga

lar bo'ldi. Polkovnik ... hech qanday so'z aytmay, masjiddan chiqib ketdi va bir qancha vaqtdan keyin kazaklar vzvodi bilan kirib keldi. Odamlar to'dasi tinchgina tarqaldi.

Bozorda uyezd boshlig'iga ro'para kelgan 150–200 kishi chamasidagi olomon bilan muloqot otishmaga aylanib ketdi. Tinch kayfiyatdagi qurolsiz mahalliy aholi har yoqqa qochib ketdi. Bir necha kishi o'ldirildi, ko'pchilik yaralangan.

Toshkentda mahalliy aholini front orqasi ishlariga jalb qilish to'g'risidagi Oliy farmon 7-iyulda... o'nboshi va imomlar orqali e'lon qilinib, hech qanday izoh berilmadi. 10-iyul kuni ellikboshilar va imomlar, Toshkentning mahalliy aholisi politsmeyster boshqarmasiga taklif qilindi.

Bunday xabarni eshitgan mahalliy ayollar to'dasi va bir necha ming kishilik aholi aniq ma'lumot olish va chaqiriqni orqaga surish maqsadida boshqarmaga yo'l oladilar.

Politsiyachilar boshqarmasi darvozasi oldida ularni hovliga qo'ymadilar. Olomon borgan sari ko'payayotganini ko'rib, politsiyachilar boshqarmaga kirib, u yerdan politsiya boshlig'i vazifasini bajaruvchi Masolovni boshlab chiqdilar va maydon bo'ylab sartlarni [mahalliy aholini – *tarj.*] va ularning orasidagi sart ayollarini ham haqoratli so'zlar bilan so'kib, zudlik bilan tarqalishni buyurdilar, olomonga qarata o'q otila boshlandi.

G'azablangan bir ayol politsiya boshlig'iga murojaat qilib: «Hega begunoh yosh odamlarni o'ldirasiz? Yaxshisi meni o'ldiringlar!» – deya ko'ksini tutdi. U esa o'sha zahoti o'q uzib, ayolni o'ldirdi. Undan so'ng yana bir necha o'q otildi, natijada o'ntadan ko'p kishi o'ldirildi, yaradorlar ham ko'p edi.

Qo'qon uyezdi Konchirabon qishlog'ida qishloq oqsoqoli ro'yxat tuzishda tamagirlik qilayotganlikda shubha qilinadi, shu bois mahalliy aholi tuzilgan ro'yxatni o'qib berishni talab qiladi. Qishloq boshqaruvchisi bu haqda uyezd boshlig'i, katta maslahatchi Lyadinskiyga ma'lum qiladi. U esa qurollangan askar yuborishga buyruq beradi.

Qishloq boshqaruvchisi hovlisida turgan mahalliy aholining barchasi darhol bog'lanib, aravaga solinadi va butun shahar ko'chalari bo'ylab sazoyi qilinadi, ayovsiz kaltaklanadi. Buni ko'rgan mahalliy aholi har yoqqa qochib ketdi, jabrlanganlar ko'p bo'ldi, hamma do'konlar yopildi, kazaklar chaqirildi.

O'zining o'rniga boshqa odamni yuborish harakati aholining mulkdor va kambag'al tabaqalari orasida talay anglashilmovchiliklarni keltirib chiqardi. Kambag'allar hayoti garovga qo'yilayotgan bir paytda boylar pul bilan qutulib qola boshladilar.

@tarixchi_kutubxonasiga

...Jizzax qo'zg'oloni haqidagi xabar Toshkentga yetib borishi bilan polkovnik Ivanov boshchiligidagi jazolash ekspeditsiyasi qurollantirildi, polkovnik Ivanov o'rniga polkovnik Krasnoyarsev tayinlandi.

Polkovnik Krasnoyarsev Jizzaxga kelib, aholidan shahar va qishloq chekkalaridan, bog'lardan isyonchilarni tutib berishni talab qiladi. Uch kun muddat ichida Jizzax aholisiga maydonga chiqishga buyruq berilib, saflangan askarlar oldida o'tgan voqeaning aybdorlarini ko'rsatishni talab qiladilar.

«Aybdorlar» qamoqqa olib ketiladi, aholiga esa shaharni tashlab ketish taklif qilinadi.

20 000 aholi yashagan Jizzax vayronalari yuz bergan hodisalarni so'zsiz ifodalaydi. Biron-bir butun bino qolmagan... Shahar yer bilan yakson qilingan. Shaharni to'pdan o'qqa tutishdan avval talaganlar.

Jazo otryadlari Jizzax uyezdining ancha ichkarisiga kirib, mahalliy kiyimdagi har bir kishidan surishtirmay, o'ch olganlar. Qo'shni shaharga yashiringanlar 2–3 hafta davomida ochiq joyda yurolmay, yashirinib yotganlar, ularni quyondek ovlaganlar, jazo otryadlari ko'ziga ko'ringanlar so'zsiz o'ldirilgan.

Tog'larda o'z boshpanalarini tashlab ketgan aholining ko'pchiligi ochlikdan azoblanib, halok bo'ldilar. Chekka qishloq aholisi o'zlari ko'rgan qotillik manzarasini qo'rquv bilan so'zlab berdilar.

Jazolash ekspeditsiyasi hech kimni ayamadi. Ayollar va bolalar daryolarga va xandaqlarga bekindilar, o't va daraxt barglari bilan o'zlarini pana qildilar.

...Samarqandda bir mavzedagi 100 hovlidan 90 ta ishchi talab qilinadi. Vaholanki, 19 dan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklar 30 nafar edi. Bunday vaziyatda uy egalarining ro'yxatiga bolasiz ayollar va bevalar ham kirib qoldi. Mahalliy ma'muriyat batartib hamma uylarni ro'yxatga kiritib, ishchi berishni talab qildi.

Sotib olish huquqi, ya'ni o'zaro kelishuvga binoan o'z o'rniga boshqa shaxsni yollash ham ko'p tartibsizliklarni keltirib chiqardi. Ishchilarni ochiq-oydin sotish natijasida baholar oshib bordi.

Ilgari kimningdir o'rniga 75–100 so'mga kelgan bo'lsalar, endi 200–300 so'm talab qila boshladilar. Ishchilar yetishmasligidan ularni hatto pulga ham sotib olishning iloji bo'lmadi. Mulki faqatgina hovlidan iborat bolasiz bevalar majburiyatni bajarish uchun hovlilarini sotishga majbur bo'ldilar. Toshkentda, Samarqandda va Andijonda yuztuban yiqilgan ayollarni ko'rish mumkin edi. Ular ko'zlarida mung bilan yalinib, oq podshoga o'zlarining og'ir ahvolini yetkazmoqchi bo'lardilar.

Mardikorlikka hatto falaj bo'lib qolgan bemorlar ham yozib olingan, ular faqatgina pul to'lab ro'yxatdan o'chishi mumkin bo'lgan. Mardikorlik cheki tushmagan hovlilar mardikor bergan oilalar uchun pul to'lagan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Masalan, Skobelev uyezdidagi Marhamat qishlog'i hovli egalari ishchi bera olmaganlari uchun 90 ta ishchi uchun pul berishlari kerak edi. Bu 90 ishchining har biriga 100 so'mdan berilishi kerak edi. Nayman qishlog'ida ham shunday bo'ldi.

Shunday qilib, Kuley volostining Kulike qishlog'idan 12 000 so'm, o'sha volostning Asaf qishlog'idan 74 000 so'm yig'ildi. Bu pulni yig'ish uchun aholi o'zida bor narsani garovga qo'yishgacha majbur bo'ldi, bu esa ularning xo'jaliklarini xonavayron qildi.

Shunday qilib, ishchilar yig'ish tartibi to'g'risidagi mukammal qoidalarning yo'qligi natijasida aholiga bir yo'la ikki majburiyat – ishchi berish va pul to'lash yuklatildi.

Pulga odam yollash chorasi boylar bilan kambag'allarning munosabatini keskinlashtirib, o'zaro nizolarga sabab bo'lgan.

Aholining ilk g'alayonlari bo'lib o'tishi bilanoq, Turkiston ma'muriyati mahalliy aholining temir yo'l bo'ylab maxsus ruxsatsiz yurishi taqiqlangani haqida farmoyish berdi. Mahalliy aholi shaxsiy, oilaviy yoki savdo ishlari bilan temir yo'l bo'ylab bir necha chaqirim yurishga ham maxsus ruxsatnoma olishi lozim edi. Bunday tadbir har qanday kishini g'azablantirishi turgan gap edi. Bu qanday hokimiyatki, har bir mahalliy kishini jinoyatchilikda gumon qilsa?! Sanoati jadal rivojlanayotgan, aholisi ko'p sonli o'lka yaxlit qamoqxonaga aylansa?!

Lekin bu ham kamlik qilib, o'lka mahkamalari vakillari hamda barcha darajadagi harbiylar va amaldorlarni xalq tik turib, ta'zim bilan qarshi olishi kerakligi to'g'risida buyruq chiqarildi. Bu buyruqning ma'nosini bir o'ylab ko'ring. Bizning rus sharoitida inson qadr-qimmati shu qadar kamsitildi, tub joyli kishilarning shaxsiyati politsiya hukmronligining o'zboshimchaligi va zo'ravonligidan himoya qilinmadi.

Bu buyruq bilan rus hokimiyatining obro'sini ko'tarishni o'yladilar. Lekin bu obpo'ni loyga botirib, rus to'rasining nomini jabr-zulm qiluvchi va qul qiluvchiga aylantirdilar. Rus byurokratiyasi bu o'lkaga shunday xizmat ko'rsatdi!

Men ko'rsatilgan farmoyish ta'sirida, agar Turkistonning yangi general-gubernatori Kuropatkin uni bekor qilmasa, o'lka hayotida qanday oqibatlar sodir bo'lishi ustida batafsil to'xtalib o'tirmayman.

Shuni aytamanki, majburiy salomlashish to'g'risidagi buyruq qabul qilindi, Turkistonning bir qancha shahar va qishloqlarida mahalliy xalq ustidan zo'ravonlik va ularning tahqirlanishi aholini g'azablantiruvchi sahnalarga bahona bo'lib xizmat qildi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Bu buyruq hamma amaldorlar qo'lidagi dahshatli qurol bo'lib, ularga mahalliy aholini jazoga tortish va kaltaklash uchun imkoniyat va huquq berdi. Bunday jazolarni bekor qilish uchun aybdorning ijtimoiy ahvoliga qarab, ma'lum miqdorda pul talab qilingan. Hatto keksa chollar ham amaldorlarni ko'rgan zahoti tezda otdan tushib, qo'llarini ko'kragiga qovushtirib, ta'zim bilan salom berishlari lozim edi.

Bunday tahqirlarni ko'tarolmagan ziyoli mahalliy aholi xo'rlanishni istamay, ko'chaga chiqmay, kun bo'yi uyda o'tirishga majbur bo'ldilar. Orqadan kelayotgan politsmeysterni sezmay qolib, yo'ldan burilib ketgan, otdan tushmagan va ta'zim qilmaganlar, xaridorga mol ko'rsatish bilan band bo'lgani uchun ko'chaning narigi tomonidan o'tgan amaldorni ko'rmay qolganlar ham kaltaklanadi.

Kuropatkin [o'lka general-gubernatori] qo'zg'olonda jabrlangan ruslar uchun qasos olib, ularning qoni to'kilgan yerlarni davlat ixtiyoriga musodara qildi. O'sha yerlarda istiqomat qiluvchi mahalliy aholi vakillariga o'z ekinlarini yig'ishtirib olish va yangi mulk olish, olib ketib bo'lmaydigan daraxtlarni qoldirish uchun ruxsat berildi.

Albatta, jazo ekspeditsiyasi dahshatlariga duchor etilgan baxtsiz aholining olib ketadigan hech narsasi yo'q edi – ayanchli kulbalar, ekinlar, talon-toroj qilingan va vayron bo'lgan mol-mulk. Ular o'zlarining yerga nisbatan oxirgi huquqidan ham mahrum etildilar. Katta urush [Birinchi jahon urushi – *tarj.*] ketayotgan bir paytda o'lka ma'muriyatining fuqarolarni mulkidan mahrum qilish bilan shug'ullanishi juda ajablanarli!

...Mardikorlikka ishga olinganlarga esa qattiq turma rejimi o'rnatilgan. Ular qarindoshlari bilan uchrashtirilmagan. Oziq-ovqat uzatish uchun darvoza oldida soldatga pul berish kerak. Arzimas gunoh uchun kaltaklanadi... Ishchilar doimiy sur'atda soqchilar nazoratida bo'ladilar. Ularning hayot sharoitlari chidab bo'lmas darajada og'ir: zax yerlarda, suvda turib ishlaydilar. Baraklar ham zax. Ishchilar revmatizm kabi kasalliklar bilan og'ir xastalangan. Ularga tibbiy yordam ko'rsatilmagan. Charchash yoki betoblikdan hasrat qilganlar kaltaklangan. Eng og'ir jazo – kartsyerga qamash darajasigacha borilgan...

@tarixchi kutubxonasiga

2-§. TARIXIY ADABIYOTLAR

Turkistonning mustamlaka davr tarixini o'rganishda o'sha davrda yaratilgan tarixiy adabiyotlar ham muhim manba hisoblanadi. Zero, ularning ko'pchiligi o'lkaning salohiyati, iqtisodiy ahvoli, qishloq xo'jaligi va savdo aloqalari tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar bo'lib, strategik maqsadlarda yaratilgan va rasmiy xizmat doirasi uchun kam nusxada chop etilgan. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi, Turkistonda savdo va sanoat taraqqiyoti masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar tarixiy ma'lumotlar va statistik faktlarga boyligi bilan muhim tarixiy manba sifatida qiziqish uyg'otadi.

Д.Н. Логофет. «Бухарское ханство и его современное состояние» («Buxoro xonligi va uning zamonaviy holati»)[1]

Rus amaldori, general ***Dmitriy Nikolayevich Logofet*** *XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligiga bir necha bor tashrif buyurgan, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid bir nechta yirik asarlar yaratgan. D.N. Logofet Buxoro amirligini Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shib yuborish g'oyasining ashaddiy tarafdorlaridan bo'lib, o'z tadqiqotlarini strategik maqsadlarda yozgan mualliflardan biri edi. Shu bois u o'z asarlarida amirlikdagi ma'muriy boshqaruv tizimi, uning chegaralari, tabiati, iqlimi, mamlakatning ichki va tashqi savdo aloqalari, tabiiy boyliklari, ishlab chiqarish va iqtisodiy salohiyati haqida ma'lumotlar to'plagan va o'z asarlarida batafsil yoritishga harakat qilgan. Ammo, uning asarlaridagi ba'zi ma'lumotlarni, xususan, amir faoliyati va xalqning ahvoli bilan bog'liq masalalarni, vaziyatni Buxorodagi Rus siyosiy agenti va boshqalar nihoyatda bo'rttirib ko'rsatganligi bois tanqid ostiga olganlar. Shunga qaramay, uning asarlari tarixiy faktlarga boyligi bilan muhim tarixiy manba hisoblanadi.*

Quyida D. Logofetning Buxoro amirligiga bag'ishlangan asarlaridan parchalar keltiriladi.

t.f.n. I.SH. Azizov, V. Xolov

...Buxoroning ma'muriy tuzilishi. Buxoro xonligida boshqaruv tizimi moliyaviy, ma'muriy, sud va diniy idoralarga bo'linadi.

Markaziy muassasalarning barchasida boshqaruv hokimiyati bosh ma'muriy shaxs – Qushbegiga qaraydi. Ichki ishlar, amirning yo'qligida barcha boshqaruv uning vazifasiga kiradi va mahalliy beklar to'g'ridan

[1] *Логофет Д.Н.* Страна бесправия: Бухарское ханство и его современное состояние. СПб., 1909.

@tarixchi_kutubxonasiga

to'g'ri unga bo'ysunadi. Undan tashqari, ikkinchi Qo'shbegi bo'lib, u tashqi ishlar bilan shug'ullanadi va Sankt-Peterburgga elchi sifatida ham yuboriladi.

Xonlikning ma'lum bir hududini boshqargan amaldor bek deb atalib, ruslarning gubernator lavozimiga to'g'ri keladi. Xonlik 25 beklikka bo'linib, har bir beklikning aholisi 50 mingdan 300 minggacha bo'lib, turlicha hududiy maydonga ega. Aholi soniga qarab, har bir beklik 3 tadan 24 tagacha amlokdorlikka bo'lingan. Amlokdorlikni amlokdor boshqaradi, u ruslarning uyezd boshlig'i lavozimiga to'g'ri keladi.

Har bir aholi punktini oqsoqol, bir necha aholi punktini mingboshi, ko'chmanchi aholida har bir qabilani elbegi [qabila boshlig'i] boshqaradi.

Diniy boshqaruvning asosiy boshlig'i kalon deb nomlanib, uning zimmasiga din ishlari nazorati, barcha oliy toifadagi va boshlang'ich madrasalar nazorati kiradi. Har bir beklikda rais lavozimi bo'lib, amlokdorlik tarkibida bo'ladi. Lekin u amlokdor va bekdan mustaqil ravishda beklikdagi bosh raisga bo'ysunadi, bosh rais esa, o'z o'rnida kalonga [qozikalon – tarj.] bo'ysunadi.

Moliyaviy soha boshlig'i bosh zakotchi bo'lib, unga amlokdorlikdagi va beklikdagi barcha zakotchilar bo'ysunadi. Zakotchilar muqim yig'in bo'lgan zakotni yig'ish bilan shug'ullanadi; ular o'z ishlarini beklardan mustaqil va ularga bo'ysunmagan holatda bajarganlar.

Hujjatlarni huquqiy jihatdan tasdiqlash [notarial xizmatlar – tarj.], sud va din ishlarini qo'shbegi lavozimi bilan barobar bo'lgan yuqorida ta'kidlangan kalon lavozimiga ega bo'lgan amaldor boshqargan. Beklik va amlokdorlikdagi qozilar kalonga bo'ysunib, beklarga bo'ysunmagan holda ishlagan. O'z o'rnida qozi, rais va zakotchilarning vazifasiga o'z tumanlaridagi hosil haqida ma'lumot va soliq yig'ish vazifasi kirgan. O'z o'rnida amlokdorlar va beklar qozi, rais va zakotchi bilan aloqador ishlarda ularni xabardor qilib turadi. Qonun buzilmasligi nuqtayi nazaridan shu tariqa bir-birlarini nazorat qiladi. Buxoro hukumatining fikriga ko'ra, bir-birini nazorat qilishning ushbu usuli qonunni buzish holatlariga yo'l qo'ymaydi.

Harbiy boshqaruv muhim amaldor – to'pchiboshi [artilleriya boshlig'i] lavozimi zimmasida bo'lgan. Batalyon boshliqlari bekliklarda tashkil qilingan bo'lib, to'pchiboshi ularni moddiy jihatdan ta'minlaydi.

Har bir vakil o'z boshlig'i oldida hisobot berib, hech qanday taftish usuli yo'lga qo'yilmagan. Oqsoqol, mingboshi va elbegi aholi tomonidan saylanib, huquqbuzarlik va shikoyat bo'lmagan vaziyatlarda o'z vazifasidan ozod qilinmaydi.

Har bir amlokdorlik va beklikda politsiya vazifasini bajaruvchi amaldorga qarashli navkarlar [politsiya] ish olib boradi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Rais, zakotchi, bek, qozi va amlokdorlar amirdan hech qanday maosh olmaydi. Kichik amaldorlar amir va beklardan maosh olgan. Har bir beklikda jinoyatchilar uchun kichik bir qamoqxona bor. Butun amirlikda harbiylardan tashqari kichik amaldorlarning soni taxminan 50 mingga yetadi.

Aholisi. 3 millionni tashkil etuvchi Buxoro xonligining aholisi etnografik jihatdan quyidagi qavmlarga bo'linadi: 1) o'zbeklar – amirning ushbu qavmning mang'it urug'idan kelib chiqqanligi sababli, aholining imtiyozga ega qismi hisoblanadi. Ular butun mamlakat bo'ylab keng tarqalib, [davlatning yuqori] mansablarini egallaganlar; 2) qirg'izlar chorvachilik bilan shug'ullanadilar. Ular Hisor tog' tizmalarida, shuningdek, Qizil va Toir-Su daryolari oqimlari bo'ylab, Ko'lob, Baljuvon hamda Qorategin bekliklarining tog'li vodiylarida yashaydilar; 3) turkmanlar Amudaryo va Panj daryolari qirg'oqlari bo'ylab yashaydilar; 4) tojiklar Sharqiy Buxoro tog'lari maydonlarining katta qismida istiqomat qiladi; 5) Buxoro yahudiylari asosan Buxoro, Shahrisabz va Qarshida yashaydilar; 6) hindlar mamlakatning deyarli barcha shaharlarida uchraydi; 7) xazarlar Baljuvon hamda Qo'rg'ontepa bekliklarida yashaydilar; 8) afg'onlar Amudaryo va Panjobda istiqomat qiladilar...

Mamlakat jami aholisining taqsimlanishi ko'rib chiqiladigan bo'lsa, Zarafshon daryosi, Qashqadaryo, Amudaryo, shuningdek, Surxon, Kofirnihon hamda Qizilsuv vohalari aholi eng zich joylashgan hududlar hisoblanadi. Aholi soni bo'yicha esa, eng ko'p aholisi bor shaharlar Buxorodan keyin Qarshi, Shahrisabz, Hisor, G'uzor, Baljuvon, Chorjo'y, Kerki, Ko'lob shaharlari hisoblanadi. Ushbu shaharlar bilan nomlangan bekliklar katta daryolar yaqinida joylashgani bois, aholisi zich va ko'p.

«Бухарское ханство под русским протекторатом» («Buxoro xonligi rus protektorati ostida»)[1]

Buxoro amirligida ishlab chiqarish, konchilik va savdo

...Xonlikda quyidagi ishlab chiqarish sohalari keng tarqalgan:

1) Gilamdo'zlik. Qo'y va tuya junlarining katta qismi gilam, palos, namat va qoplar tayyorlash hamda yashash joylari – o'tov va yurta qurish uchun ishlatilgan. Gilamdo'zlik bilan asosan turkmanlar shug'ullangan bo'lib, ular andoza va rangni Erondan olganlar. Gilamlarning asosiy qismini Kerki va Kelif bekliklaridagi mahalliy turkmanlar tayyorlaganlar. Gilamlar o'simlik ranglari bilan bo'yalgan, ammo keyinchalik arzon bo'yoq-

[1] *Логофет Д.Н.* Бухарское ханство под русским протекторатом. СПб., 1914.

@tarixchi_kutubxonasiga

lar aholi orasida tarqalib, gilamlarning sifati va chidamliligiga salbiy ta'sir etdi.

Xorijda gilamlarga talab oshganligi sababli, narxlar 1 kv. arshinga[1] 4 rubldan 8 rublgacha ko'tarildi. Gilam to'qish bilan asosan ayollar shug'ullangan. Gilamdan tashqari palos, shol, xurjunlar tayyorlangan. Shahrisabz va Qarshi bekliklarining bir qator arab qishloqlarida paloslarda arabcha surat va naqshlar aks ettirilgan bo'lsa, Nurota, Qorako'l, Hisor, Konibodom, Qo'rg'ontepa bekliklarida qirg'iz aholisi kigiz, qalin paloslar, qoplar, arqonlar va boshqalar tayyorlagan. Bu barcha mollar mahalliy bozorlarga chiqarilgan va Buxoroga keltirilgan. Gilamlarning bir qismi Buxorodan Rossiyaga va boshqa xorij mamlakatlariga, kigizlar esa, rus va Sibir guberniyalariga olib borilgan. Xorijga olib chiqilgan gilamlarning yillik qiymati 100 000 rublga yetadi.

2) Gazlama ishlab chiqarish. Gazlama-matolar aholining talabidan kelib chiqib, uy sharoitida, past sifatda tayyorlangan. Ularning turlari:

1. Olacha – turli ranglar bilan bo'yalgan mato bo'lib, asosan xalat tikishda ishlatilgan.
2. Surp – oq mato.
3. Xos doka – ro'molning past sorti.
4. Bo'z – dag'al oq mato.
5. Misti va chapanash – yaktak va chopon tikiladigan mato.

3) Ipak va yarim ipak mato ishlab chiqarish. Ipakchilik bilan xonlikning Buxoro, Karmana, Shahrisabz, Chiroqchi, Konibodom va Hisor bekliklari aholisi ko'proq shug'ullanadi va ipak tolasidan quyidagi matolar to'qiladi:

1. Bayroq olacha – yarmi mahalliy, yarmi rus yigirilgan ipidan qilinadigan mato.
2. Duxoba olacha – rus yigiriladigan ipidan qilingan mato.
3. Adras – kuchli kraxmallangan yarim ipak mato.
4. Shoyi – yumshoq sof ipakdan mato.
5. Chesuncha – pilladan yigiriladigan, Xitoy shoyisidan ham yaxshi mato.
6. Olacha – yarim ipak mato.

Xonlik yiliga 2 million pud pilla yetishtirib, 100 000 pud ipak oladi va buning deyarli yarmisi butun O'rta Osiyoga tarqaladi.

4) Ko'nchilik. Sanoatning bu turi xonlikning deyarli barcha bekliklarida tarqalgan bo'lib, ot terisi yaxshi oshlanib, qizilga bo'yaladi va qurol-aslaha, egar-jabduq yasashda ishlatiladi. Mol terisi oyoq kiyimi tayyorlashda ishlatiladi, ammo sifati yuqori emas. Qo'y va echki terilari

[1] *1 arshin* – 0,71 metrga teng.

@tarixchi_kutubxonasiga

yarim xomashyo sifatida Rossiyaga olib ketiladi va yillik narxi taxminan 300 000 rublni tashkil etadi.

5) Temirchilik. Taglik, mix, bolta, omochlar uchun tish, ketmon va boshqa asboblarni tayyorlash xonlikning shahar, qishloq, usta-temirchilarining asosiy mahsuloti bo'lib, Hisor, Qal'ai Xum va Qal'ai Garmda pichoqlar, xanjar qinlari tayyorlangan va butun xonlikda sotilgan.

6) Yog'och o'ymakorligi juda keng tarqalgan bo'lib, masjid va uy eshiklari, ustun, stol va panjaralarni bezashda foydalanilgan.

Asosan yong'oq daraxti tanasidan foydalanilgan, ammo boshqa qattiq va yumshoq daraxtlar ham ishlatilgan. Bu soha yildan yilga pasayib, ustalar soni kamaymoqda. Ular asosan shaharlarda uchraydi.

7) Kulolchilik unchalik rivojlanmagan. Yaxshi tayyorlangan idishlar asosan Buxoroda sotiladi.

8) Zardo'zlik. Bu soha asosan Buxoro, Qarshi va Shahrisabz bekliklarida keng tarqalgan. Do'ppi, belbog', ot yopinchiqlari tikilib, teriga, matoga zar uriladi. Bu ish bilan asosan ayollar shug'ullanib, savdoga olibsotarlar orqali chiqariladi. Ammo keyingi paytlarda rus mollari mahalliy mollarni bozordan siqib chiqara boshladi.

9) Etikdo'zlik. Xonlikning barcha shaharlarida rivojlangan bo'lib, kosiblar oyoq kiyimlarning uchini turkman uslubida ko'tarib, poshnasini baland qilib tayyorlaganlar. Etiklar sariq teridan tayyorlangan. Shuningdek, poshnasiz etiklar va kavushlar keng tarqalgan. Bozorga rus etiklarining kirib kelishi mahalliy mahsulotni siqib chiqara boshladi.

10) Zargarlik. Zargarlik xonlikning barcha yirik shaharlarida keng tarqalgan, asosan kamarlar yirik oltin va kumush nishonlari bilan bezatiladi. Ayollar uchun esa bezak ashyolari – bilaguzuk, halqa, uzuk va boshqalar tayyorlangan.

11) Kumush va misgarlik. Buxoro va Qarshida misdan qumg'on, tog'ora, patnis, chilim, siyohdon va boshqa buyumlar tayyorlanib, qadimgi naqshlar bilan bezatilgan. Keyingi yillarda misning narxi oshganligi sababli, ustalar soni ham qisqara boshladi. Asosan yoshi katta ustalar amir va boylarning talabi bilan buyum tayyorlaydi.

12) Un ishlab chiqarish. Unning sifatini oshirish uchun, asosan shahar atrofi aholisini un tegirmoni va sholi tegirmoni qurishga majbur qiladilar.

13) Yog'-moy ishlab chiqarish. Xonlikning sharqiy qismida o'simliklar urug'laridan yog' olinadi. Bunda juvozlardan va juvozni aylantirishda asosan otlar mehnatidan foydalaniladi. Yiliga bir ot bilan juvoz orqali 200–250 pud moy olish mumkin. Ammo moyning bir qismi kunjarasida qolib ketadi. Juvozlar deyarli har bir katta qishloqda bor.

@tarixiy_kutubxonasiga

14) Sovun va sham ishlab chiqarish. Bu soha uncha rivojlanmagan. Sovun asosan hayvonlar yog'ini qovurish orqali olingan bo'lib, deyarli har bir qishloqda bo'lgan. Ammo juda oz miqdorda chiqariladi. Sham ishlab chiqarish so'nggi yillarda kerosinning keng tarqalishi natijasida biroz pasaygan. Buxoro bozorlarida qimmatroq bo'lib, narxi bir funtga 10–12 kopeyek baholanadi.

15) Vinochilik zavodlari. Spirtli ichimliklar iste'mol qilish va ishlab chiqarish yahudiylarga diniy tomondan ruxsat berilgan bo'lsa-da, xonlikda ularga amir tomonidan ruxsat berilishi kerak bo'lgan va shu bilan birga, musulmonlarga sotish qat'iyan man qilingan. Berilgan ruxsatnoma natijasida Buxoro, Dushanbe, Qarshi, Hisor bekliklarida vino ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Spirtli ichimliklar tayyorlashda kishmish va boshqa mevalardan foydalaniladi.

Shuningdek, xonlikda xomashyoni yarimtayyor holatga keltirish ham yo'lga qo'yila boshlandi:

1) Paxta tozalash zavodlari. Zavodlar Yangi Buxoro [Kogon], Chorjo'y, Kerki, Karmana, Termiz va bir qator temir yo'l bekatlari yaqinida qurilgan. 1911-yilga kelib, ularning soni 15 tani tashkil etdi. Tozalangan paxta Rossiyaga jo'natiladi. Buxoro hukumatiga temir yo'ldan 2 verstdan uzoq joyda zavod qurish man etilganligi bu sohaning keng rivojlanishiga to'sqinlik qildi.

Buning natijasida Buxoro aholisi uy sharoitida qo'l uskunalarida paxtani tozalashda davom etyapti va bu paxta narxining oshishiga sabab bo'lmoqda. Buxoro paxtasi Moskva va Lodzdagi fabrikalarga jo'natiladi va u yerda gazlama holiga keltiriladi. So'ngra Buxoro bozorlariga keltirilib, sotiladi. 1908-yilda Buxoro va Chorjo'y temir yo'l stansiyalaridan 1 200 000 pud paxta har pudiga 8,50 rubldan jami 10 000 000 rublga baholanib, olib ketilgan.

2) Gugurt ishlab chiqarish. Xonlik hududida yagona kichik gugurt ishlab chiqaruvchi fabrika Yangi Buxoro shahrida bo'lsa-da, chiqarilgan mahsulot boshqa rus shaharlarida chiqarilgan mahsulotlar bilan erkin raqobatlasha oladi.

3) Sun'iy mineral suv va sharbat ishlab chiqarish. Issiq iqlimning talablaridan kelib chiqib, Chorjo'y, Kerki, Yangi Buxoro, Termiz shaharlarida kichik zavodlar bor. Sifati past bo'lsa-da, narxi arzonligi bilan bu mahsulotlar juda xaridorgir.

4) Yog' zavodi. Kerkida jihozlangan zavod kuniga 5 000 pud yog' ishlab chiqaradi.

5) Un zavodlari. Xonlik hududida 2 ta un zavodi bor.

6) Tamaki ishlab chiqarish. Biri Chorjo'yda, yana biri Yangi Buxoroda bo'lgan zavodlar kichik hajmda tamaki ishlab chiqaradi.

@tarixchi_kitoblarxonasiga

7) Vinochilik. Qorako'l bekatida Fransuz jamiyatining uzum vinosi zavodi joylashgan.

Saxiy tabiat tomonidan ato etilgan boyliklarning ko'pligiga qaramasdan, nafaqat yer osti boyliklari, balki yer usti boyliklariga ham deyarli qo'l tegmagan:

1) Oltin – Darvoza tog'lari atroflaridan, Panj daryosining oqimidan va Sharqiy Buxoroning Yax-Suv, Vaxsh va boshqa kichik daryolari bo'ylaridan qumi bilan olinadi.

2) Mis – Darvoza tog'laridan, Buyuk Pyotr va Hisor tog' tizmalaridan qazib olinadi.

3) Temir – Buyuk Pyotr, Hisor va Darvoza-Mozor tog' tizmalaridan qazib olinadi.

4) Qimmatbaho toshlar – Darvoza tog'laridan olinadi.

5) Marmar – Darvoza va Hisor tog'lari atrofidan olinadi.

6) Neft va ozokerit [tog' mumi] – Hisor atrofidan, Qo'rg'ontepa bekligi Saroy qishlog'i atrofidan, Qora Tov tog'laridan, Sherobod shahri atrofidan, Oq Jumalon tog'idan, Shakarlik Ostona va boshqa joylarda mavjud.

7) Oltingugurt – Qugintong Tau tog'ida, Kelif yaqinidagi Jaloltepada, Sherobod atrofida va Qizil O'rdada mavjud.

8) Tuzlar – Qorako'l bekligining tuzli ko'llaridan, Ko'lob bekligidagi Chubek yaqinidagi Xo'ja Mo'min tuzli tog'idan, shu beklikning Anjeroy qishlog'idan va Hisor tizmasidan olinadi.

9) Toshko'mir – Boysun, Hisor va Qo'rg'ontepa bekliklaridan olinadi.

10) Qo'rg'oshin – Quytandan olinadi.

11) Oxra – Qoratog' tog'idan, Qo'rg'ontepa bekligidan va Hisor tizmasidan olinadi.

Ammo yuqorida ko'rsatilgan mineral boyliklar va ular joylashgan hududlar bu haqida to'liq ma'lumot bermaydi, ular ba'zi bir shaxslar tomonidan ochilgan, xolos. Xonlikda mutaxassislar tomonidan maxsus geologik tadqiqotlar olib borilmagan. Ba'zi geologlar, jumladan, Kraft, Levat, Mixaylov, Juravsko-Pokorskiy o'z izlanishlari orqali maxsus topshiriq bilan Safetdaryoning oltinga boy qumlarini topish maqsadida faqatgina Darvoza, Yax-Suv daryosi bo'ylariga safar uyushtirganlar.

Ishlab chiqarishda sarmoyaning takomillashgan jihozlari, zamonaviy konstruksiyadagi yoritish pechlarining yo'qligi bois, buxoroliklar hozirda oltin, temir, oltingugurt va tuzni juda kam miqdorda oladilar:

1) Oltin konlari – Buxoro xonligi tog' tizmalarida bor.

2) Oltingugurt – Kelif va Sherobod bekliklari qatlamlaridan tub joy aholi tomonidan qazib olinadi va tozalanmasdan sotuvga chiqariladi. Qazib olingan oltingugurt miqdori katta emas.

3) Temir – qurollar, qishloq xo'jaligi jihozlari yasashda va boshqa maqsadlarda ishlatiladi. Darvoza, Qorategin, Hisor bekliklaridan qazib olinib,

@tarixchi_kutubxonasiga

eski pechlarda eritiladi. Temir ishlab chiqarish yiliga 3–4 ming puddan oshmagan va cho'yan ham shu miqdorda olinadi.

4) Tuz – Qorako'l va Nurota bekliklaridagi sho'r ko'llardan qazib olinadi. Tuz qalin qatlamni tashkil etadi.

Savdo. 1903-yilga oid ma'lumotlarga ko'ra, tovarlar Buxoro va Chorjo'y bekatlarida qabul qilinadi va mazkur bekatlardan jo'natiladi. Xonlikka 2 500 000 pud mahsulot olib kelinib, xonlikdan Rossiyaga 1 700 000 pud xomashyo va tovarlar olib ketilgan.

Rossiyaga olib ketilgan tovarlar:

Tovarlar	Miqdori (pud)	Narxi (rubl)
Paxta	1 200 000	10 000 000
Qorako'l teri	1 000 000	6 000 000
Jun	150 000	1 000 000
Ipak	300 000	800 000
Oshlangan qo'y terisi	80 000	640 000
Xomashyo	85 000	250 000
Qoplar (qo'y terisidan)	15 000	200 000
Kishmish	50 000	100 000
Quritilgan meva	80 000	200 000
Yigirilgan ip		250 000
Gilamlar		100 000
Yog'		500 000
Jami:	2 950 000	20 040 000

Rossiyadan xonlikka keltirilgan tovarlar:

Tovarlar	Miqdori (pud)	Narxi (rubl)
Manufaktura mollari	200 000	8 000 000
Shakar	150 000	900 000
Ip-gazlamalar	25 000	500 000
Kerosin	300 000	300 000
Bo'yoqlar, pardoz anjomlari va sovun	20 000	300 000
Attorlik mollari	100 000	1 000 000
Temir buyumlar	250 000	1 000 000
Pichoqchilik mollari	10 000	200 000
Fayans idish-tovoqlar	100 000	1 000 000
Rus charmi	10 000	200 000
Qog'oz, o'quv qurollari	20 000	320 000
Mis, jez, rux	100 000	150 000
Stearin shamlari	5 000	50 000
Turli xil mollar	300 000	3 000 000
Jami:	2 000 000	17 000 000

@tarixchi_kutubxonasiga

Yillik savdo aylanmasi 40 000 000 rublni tashkil etgan. Bulardan tashqari, 1 000 000 rubl qiymatida choy ham keltirilgan.

Buxoro xonligidan chetga olib chiqilgan tovarlarning qiymati:

T/r	Mamlakatlar	Qiymati (rubl da)
1.	Rossiya	20 000 000
2.	Afg'oniston	2 500 000
3.	Eron	200 000
4.	Hindiston	500 000
5.	Jami:	23 200 000

Buxoro xonligiga chetdan olib kelingan tovarlar qiymati:

T/r	Mamlakatlar	Qiymati (rubl da)
1.	Rossiya	17 000 000
2.	Xitoy	2 000 000
3.	Eron	200 000
4.	Afg'oniston	3 500 000
5.	Hindiston	800 000
6.	Jami:	23 500 000

Raqamlarda savdo aylanmasi 46 700 000 rubl qiymatida ko'rsatilsa-da, aslida bu ko'rsatkich 50 000 000 rubldan oshgan.

Rus firmalarining Buxoro, Chorjo'y, Termiz, Kogonda o'z shaxobchalari va omborlarini ochishlari savdo faoliyatini sezilarli darajada oshirdi. Savdodagi katta daromadni ko'rib, amir o'zi ishongan kishilar orqali xonlikdagi savdoda qatnashib, qorako'l, qo'zichoq terisi, choy va manufaktura savdosini olib bordi.

Buxoro xonligida kredit tizimining va naqd pulning yo'qligi mahalliy savdogarlarni og'ir ahvolga tushirdi. Bundan foydalanib, amir o'z sarroflari orqali juda katta foizda pul bera boshlagan va buni yildan yilga kengaytirib borgan. Bu amirga katta daromad bersa-da, savdoning rivojlanishiga u qadar yaxshi ta'sir qilmadi. Shu bois, Buxoroda aksionerlik bankini ochish borasida takliflar tusha boshladi. Bu masalada orenburglik savdogarlar 1882-yilda amirga murojaat qiladilar. Amir bunga xayrixohlik bildirib, agar Buxoroda bank ochilsa, 70 mln. berishni va'da qiladi. Ammo bu ish uzoq cho'zilib ketadi va faqatgina 1894-yilga kelib, Yangi Buxoro [Kogon] da birinchi Rossiya Davlat banki bo'limi, 1902-yilda esa, mamlakat poytaxti Buxoro shahrida Rus–Xitoy banki va Xalqaro bank bo'limlari ochiladi.

@tarixchi_kutubxonasiga

В.Н. Оглоблин. «Промышленность и торговля Туркестана» («Turkiston sanoati va savdosi»)[1]

V.N. Ogloblinning ushbu tadqiqotida rus sarmoyadorlarining va hukumatining Turkistonda sanoat, ishlab chiqarish hamda o'lkaning iqtisodiy salohiyati va tabiiy ne'matlaridan katta daromad olish maqsadida yuritgan qizg'in savdo faoliyati haqida qiziqarli ma'lumotlar keltiriladi. Tadqiqot yakunida V.N. Ogloblin bu sohalardan metropoliya manfaatlari uchun kelajakda qanday daromad olish mumkin va qanday o'zgarishlarni amalga oshirish lozimligi haqida o'z tavsiyalarini beradi, bu esa, asarning strategik maqsadlarda yaratilganligini yana bir bor namoyon etadi. Quyida shu asardan ayrim parchalar ilk bor o'zbek tilida chop etilmoqda.

t.f.d., prof. S.B. Shodmonova

Turkistonga 1900-yilda qilgan ilk sayohatimdan keyin, 1913-yilning bahorida yana o'lkaga kelishga musharraf bo'ldim. Bu esa, so'nggi 10–11 yil davomida Turkistonda savdo va sanoat qanday rivojlanganligini aniqlash imkonini berdi.

Rus jamiyati O'rta Osiyo hududini bosib olishda o'lkaning boy tabiatidan foydalanishga juda katta umid qilgan edi. Shu tariqa o'tgan yillarning qiyosiy tahlili katta qiziqish uyg'otadi.

Paxtachilik. Paxtachilik Turkistonda ishlab chiqarishning asosini tashkil etadi va kelajakda rus to'qimachilik sanoatini O'rta Osiyo paxtasi bilan to'liq ta'minlash imkonini beradi...

1887–1912-yillarda Turkistonda paxta ekin maydonlari va olinadigan hosil unumdorligining o'sishi quyidagi jadvalda namoyon bo'ladi:

Yillar	Yer maydoni (desyatina hisobida)	Olingan paxta (pud hisobida)
1887	61 000	10 000
1893	136 000	
1895		3 273 300
1899	30 000	5 757 900
1903		7 000 000
1907		8 227 000
1908		7 380 000
1909		10 870 000
1910	380 000	13 588 000
1911	425 200	12 997 000
1912	430 000	14 000 000

[1] *Оглобин В.Н.* Промышленность и торговля Туркестана. – М., 1914. 19-46-betlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ko'rinib turibdiki, Rossiyaning Turkistonda o'tgan yarim asr hukmronligi mobaynida paxta ekin maydonlari 7 barobarga, paxta hosili esa, 1400 martaga ko'paydi va bu paxtachilik sohasidagi o'sishni yaqqol namoyon etadi...

AQSHda esa paxtachilik maydoni so'nggi 15 yilda 1,5 barobarga, paxta hosili esa 2 barobarga o'sdi.

Berilayotgan ma'lumotlarning qiyosiy tahlili Turkistonda paxtachilik va hosildorlikning salmoqli o'sganligini namoyon qiladi.

Turkistonda paxtachilik va uning hosildorligining o'sish sur'atlari AQSH bilan solishtirganda quyidagicha bo'lgan:

Yillar	Ekiladigan paxta maydoni (desyatina hisobida)		Paxta hosili (pud hisobida)		Paxta hosili (1 desyatinadan pud hisobida)	
	Turkiston	AQSH	Turkiston	AQSH	Turkiston	AQSH
1899	300 000	12 138 000	5 757 930	141 540 000	19,0	11,6
1911	425 000	18 340 000	12 997 000	247 500 000	30,5	13,4
1899–1911	41,6 %	51,0 %	125,3 %	74,8 %	60,5 %	15,5%

Demak, paxta ekin maydonlari AQSHda nisbatan ancha kattaligiga qaramay, 1899-yildan 1911-yilgacha paxta miqdori, ekin maydonlari hamda paxta hosili [bir desyatinadan] unumdorligi borasida Turkiston AQSHga nisbatan ancha o'zib ketdi.

...Turkistonning yer maydoni 130 million desyatinani tashkil qilib, u davlat mulki deb e'lon qilingan. Shundan 5,33 million desyatinasi aholining tomorqa yerlariga to'g'ri keladi. 1910-yilga oid statistik ma'lumotlarga ko'ra Turkistonda sug'oriladigan yerlar 2,25 million desyatinani tashkil etgan.

...Turkistonning qulay iqlim sharoiti va unumdor yerlarida g'alla, arpa va kartoshkaga nisbatan ko'proq paxta, uzum va sholi yetishtirishda foydalaniladi. Shu sababli, Turkistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari keskin qimmatlashadi...

Chorvachilik. Turkistonda chorvachilik qishloq xo'jaligining eng foydali sohalaridan biri hisoblanadi.

Turkistonda qo'ychilik yildan yilga o'sib bormoqda, ayniqsa, qorako'lchilikka e'tibor kuchaymoqda. Ashxoboddagi tajriba maydonida qo'y naslini yaxshilash ustida ish olib borilib, zotdor qo'ylar Turkistonning uzoq-yaqin qismlariga tarqatilayapti... Qorako'lchilik Turkistonda, ayniqsa, Buxoro xonligining Hisor o'lkasida keng tarqaldi. Birgina G'uzor shahrining o'zida har yili 4–7 mln. rubl qiymatidagi 1–1,5 mln. qorako'l terisi olinmoqda.

@tarixchi_kutubxonasiga

Temir yo'l qurilishi bilan Turkistondan qorako'l olib ketish kuchaydi. Dastlabki yillarda qorako'lning narxi baland bo'lmay, mahsulot tez sotildi va butun dunyoga tanildi. Qorako'lga talabning o'sib borishi bilan chorvadorlar qorako'l terisi beradigan qo'ylarni ham ko'paytirdilar. Shu tariqa, Buxoroda yiliga 2–3 mln. qorako'l terisi yetishtiriladigan bo'ldi. Buxoroning 50–55 mln. rublga teng savdo aylanmasidan qorako'l savdosi 17–18 mln. rublni tashkil qildi.

Hisor qorako'li nafaqat Buxoro, balki Nijegorod va Moskva bozorlarining ham faxriga aylandi. U o'zining alohida sifatlari bilan dunyoga mashhurdir. Rossiyaning janubiy guberniyalari, shuningdek, G'arbiy Yevropaning ko'pchilik tadbirkorlari Buxorodan qorako'l qo'ylarini olib ketib, o'z yerlarida qorako'lchilikni rivojlantirishga qilgan harakatlari zoye ketdi, chunki qorako'l qo'ylari Yevropada qisqa vaqt ichida o'zgarib ketdi. Qorako'l qo'ylari faqat Turkiston, ayniqsa, Buxoro yaylovlarida va bu yer iqlimi sharoitida o'z naslini saqlab qoladi...

Umuman olganda, Turkistonda paxtachilik va bog'dorchilikning juda foydali bo'lganligi bois, kelajakda o'lkada chorvachilikni rivojlantirishga kuch sarflash zarur emas [Yettisuv viloyati bundan mustasno], boz ustiga mavjud yaylovlar paxta, uzum, tamaki yetishtirish va bog'larga berilib, qisqarib bormoqda. Kelajakda Turkistonga go'shtni Sibir, Yettisuv viloyati, Mo'g'uliston va Rossiyaning Yevropa qismidan muzlatkichli vagonlarda olib kelish mumkin.

Yog' ishlab chiqarish. 1900-yilda Namangan uyezdining Chust tumanida K.M. Solovyov tomonidan kichik yog' ishlab chiqarish zavodi ochilgan. 1904-yildan boshlab Farg'ona viloyatida qator yog' ishlab chiqarish zavodlari qurila boshladi. 1910-yilda esa, AQSHdan keltirilgan, so'nggi talablarga javob bera oladigan yog' ishlab chiqarish texnikasi bilan jihozlangan Vadyayev zavodi vujudga keldi. Ushbu zavod 250 ish kunida 12 mln. pud chigitdan 1800 ming pud paxta yog'i ishlab chiqaradi, shu bilan bir qatorda 4 mln. pud kunjara, 6 mln. pud sheluxa va 150 ming pud linter paxta oladi.

Turkistonda ishlab chiqarilgan paxta yog'ining faqat 25 foizi ichki ehtiyoj uchun ishlatiladi, katta qismi Rossiyaning Yevropa qismiga chiqariladi.

Qo'qon birja qo'mitasining xabariga ko'ra, Turkistondan paxta yog'i olib chiqish quyidagicha o'sib borgan:

Yillar	Miqdori (pud hisobida)
1905	387 958
1906	556 878
1907	525 685
1908	569 733

@tarixchi_kutubxonasiga

1909	1 102 876
1910	1 575 980
1911	1 772 186

Paxta tozalash zavodlari. 1893-yilda Turkistonda 100 ga yaqin paxta tozalash zavodlari bo'lsa, endilikda 120 taga yetdi. Ammo, amalda paxta tozalash zavodlarining soni ko'rsatilgan miqdordan ko'p.

1 mln. rubl aksionerlik mablag'iga ega bo'lgan Eron va O'rta Osiyodagi savdo va sanoat shirkati, 450 ming rubl mablag'ga ega bo'lgan O'rta Osiyo savdo-sanoat shirkati, 1,5 mln. rubl mablag'ga ega bo'lgan K.M. Solovyov Turkiston savdo-sanoat shirkati, 1 mln. rubl mablag'ga ega bo'lgan Turkiston qishloq xo'jaligi va sanoat shirkati va 1,5 mln. rublga ega bo'lgan «Paxta» aksiyadorlik jamiyati, 600 ming rubl mablag'ga ega paxta tozalash Turkiston savdo-sanoat shirkati va boshqa ko'pgina kichik zavodlar mavjudligi paxta tozalash zavodlarining qanchalik kuchli rivojlanganini ko'rsatadi...

Manufaktura mahsulotlari va paxta yog'i savdosi. Turkistonga xorijdan paxta mahsulotlari olib kirish juda kichik foizni tashkil etadi[1]: 1898-yili chetdan 800 000 pud paxta olib kirilgan. Paxta mahsulotlaridan faqat 130 funt sterling [1897-yil] qiymatida ingliz dokasi [kiseya] olib kelingan. Turkistonda ingliz paxta mahsulotlarining o'rnini Rossiyada ishlab chiqarilgan mahsulotlar egallagan, bunga sabab, ularning nafisligi, gullarining xilma-xilligi va eng asosiysi, hukumatning soliq siyosatidagi homiyligidir. Turkiston bozorlarida chitlarga bo'lgan ehtiyoj kamayib bordi, ularning o'rnini Rossiyaning Yevropa qismida xaridorgir bo'lgan chitlar egalladi. Ammo Rossiyaning Yevropa qismidagi fabrikalarda ishlab chiqarilgan qimmat chitlar Qashg'arda, Afg'onistonda va qisman Eronda sotilayotgan ingliz chitlari bilan raqobatlasha olmayapti...

Turkistonda paxta hosili yaxshi bo'lmagan yillarda o'lka aholisi paxtadan yaxshi daromad olmasdan, bug'doy va yem-xashakni qimmatga sotib olishga majbur bo'lmoqda. Ular asosan Rossiyaning Yevropa qismidan olinmoqda va bunday holat Turkistondan katta mablag'ning chiqib ketishiga sabab bo'lmoqda. Ammo, bunday holatni Turkistonda paxta hosili yaxshi bo'lgan va Rossiyaning Yevropa qismida bug'doy yaxshi bo'lmagan vaqtlarda ham kuzatish mumkin.

Masalan, 1911–1912-yillarda paxta hosili yaxshi bo'lishiga qaramasdan, uning narxi past bo'lgan va Rossiyaning Yevropa qismida bug'doy hosili yaxshi bo'lmaganligi tufayli uning narxi ko'tarilib ketgan hamda mahalliy

[1] Turkistonga qo'shni mamlakatlardan Rossiyaga jo'natish uchun ma'lum miqdorda paxta olib kelingan.

@tarixchi_kutubxonasiga

aylanma mablag'dan Turkistonga olib kelingan 15 mln. pud g'alla uchun Rossiyaning Yevropa qismiga 30 mln. rublgacha to'langan.

Turkistonda paxta savdosi bilan quyidagi bank va firmalar – Moskva hisob banki, Sibir, Azov, Donsk, Volga, Kamsk, Rus-Osiyo, Savdo, Rus tashqi savdo, Kraft; shirkatlar – Moskva-Eron, Buxoro, Kaspiyorti sanoat, Katta Yaroslavl manufakturasi, Katta Moskva manufakturasi, Andreyev, Moskva va Lodz rayonlari vakillari, Paxta savdo-sanoat jamiyati, Lev Skvirskiy, Flaksman, Shlozber, Yusuf Davidov, Kiorkovlar, Potelyaxov, Vadyayevlar, Ustinov, Muravyev va boshqalar shug'ullanadilar.

1887–1912-yillarda paxta hosili va undan olingan daromad quyidagi tartibda o'sib borgan:

Yillar	Olingan paxta (taxminiy hisobda) (pud)	Bir yilda olinadigan daromad (rubl)
1887	10 000	128 500
1895	3 200	40 mln.
1903	7 000	90 mln.
1909	10 800	1 285 mln.
1910	13 500	173 mln.
1911	12 900	166 mln.
1912	14 000	180 mln.

Paxtadan tashqari, Turkistonda yetishtirilgan boshqa mahsulotlar ham katta pul aylanmasini tashkil qiladi. Masalan, 1901–1910-yillarda Turkistondan paxta yog'i olib chiqish quyidagi ma'lumotlarda ko'rinadi:

Yillar	Chetga olib chiqilgan paxta yog'i hajmi (pud)
1901	30 800
1902	66 300
1903	73 800
1904	167 700
1905	417 400
1906	586 900
1908	595 900
1909	1 102 900
1910	1 576 000

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinadiki, Turkistondan Rossiyaning Yevropa qismiga va G'arbiy Yevropaga paxta yog'i olib chiqish ko'payib bordi va o'n yil ichida 30,8 ming puddan 1,5 mln. pudga ko'paydi. Turkistondan G'arbiy Yevropaga paxta yog'i Odessa, Batumi, Libava, Riga orqali olib chiqilgan. Xorijda bu yog' zaytun yog'iga aralashtirish uchun ishlatilgan, shuningdek, Marselda sovun ishlab chiqarishda keng qo'llanilgan.

@tarixchi_kitoblar_olami

Yevropaga mevalar, darmana va boshqa mahsulotlarning jo'natilishi. Boshqa joylarni hisobga olmaganda, faqat Kushka atrofidan har yili 25 vagon xandon pista, faqatgina Farg'ona viloyatidan 1 mln. rubl qiymatida yong'oq olib ketilgan. Oxirgi yillargacha Turkistondan Rossiyaning Yevropa qismiga mevalar asosan quritilgan, qisman yangi uzilgan holda olib ketilar edi. Masalan, Toshkentga yaqin temir yo'l bekatidan faqatgina Angliyaga 1 mln. pud olma olib chiqilmoqda... Uzum Turkistondan London va Shveysariyaga jo'natilmoqda.

Turkiston Rossiyaning Yevropa qismiga, Germaniyaga va umuman, xorijga darmana [santonin – shifobaxsh giyoh] urug'i va darmananing o'zini sotadigan yagona o'lka hisoblanadi...

А.П. Демидов. «Экономический очерк хлопководства, хлопкоторговли и хлопковой промышленности Туркестана» («Turkistonda paxtachilik, paxta savdosi va sanoati haqida iqtisodiy ocherk»)[1]

Turkistonda mustamlakachilik davrda olib borilgan paxtachilikni rivojlantirish siyosati o'lkada qimmatli va sifatli paxta xomashyosini arzon ishchi kuchi bilan sifatli yetishtirib, arzon narxlarda sotib olish va tashib ketish maqsadlariga qaratilgan edi. Bunday siyosat paxtani og'ir mehnat bilan yetishtirgan paxtakor dehqonni asoratga solib, uning daromadini ko'paytirish o'rniga, bo'yniga qarzdorlik sirtmog'ini ilib qo'ydi. Rus iqtisodchi-tadqiqotchisi A.P. Demidovning Turkistonda paxtachilik va paxta savdosi masalalari o'z aksini topgan tadqiqotida bu masala atroflicha yoritilgan bo'lib, quyida shu asarning paxta yetishtiruvchilarning ahvoli haqidagi matnidan parcha keltiriladi.

J.A. Peremkulov

...XX asr boshlarida paxtakorlarning bo'ynidagi qarz pullari juda ko'payib ketgan... Ma'lumotlarga ko'ra, paxtakorlarning davlat va xususiy banklardan qarzining 51 foizi Farg'ona viloyatiga to'g'ri kelgan.

Qarzning nihoyatda og'ir ustama to'lovlaridan toliqqan, bir necha marotaba aldangan va hisobidan adashtirilgan dehqon juda achinarli hayot kechirardi. Qarzning hisob-kitobi vaqtida dehqon uni bir necha marotaba uzganligi yoki to'lay olmasligiga qaramay, baribir qattiq qiynoq ostiga olingan. Qarzlarni undirish faqat mol-mulk bilan chegaralanmagan. Ba'zi vaqtlarda Yevropada allaqachonlar qolib ketgan usullar qo'llanilgan. Ayrim firmalar o'zboshimchalik bilan chorva mollarini tortib olib, o'z odamlari orqali

[1] *Демидов А.П.* Экономический очерк хлопководства, хлопкоторговли и хлопковой промышленности Туркестана. – М., 1922.

@tarixchi_kutubxonasiga

ularni bozorda sottirganlar va pulini kassaga o'tkazganlar. Ba'zi olg'ir savdogarlar quloq eshitmagan zo'ravonliklarni qilib, qarzdorlarni o'z omborlariga qamaganlar va ularning qarindoshlari tomonidan sotib olinishi yoki qarzni to'lashini kutganlar. Qarzdorlarni kaltaklash yoki jazolash har yilgi paxta mavsumining takrorlanib turadigan voqeasi hisoblangan. Ba'zi vaqtlarda olg'ir savdogarlar hatto qarzdorlarning xotinini sotishgacha borganlar. Pirovardida umidlari puchga chiqqan qarzdorlarning ishi advokatlar qo'liga o'tgan. Advokatning butun yurish-turishi, xarajatlari firmalarda saqlanayotgan dehqonning qarzdorlik hujjati [vasiqa]ga yozib berilgan.

Qo'qon davlat banki boshqaruvchisi Karpinskiyning ma'ruzasida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 1912-yil 1-noyabrgacha aholi o'lkadagi kredit tashkilotlaridan, xususan, davlat bankidan 2 753 000 rubl, xususiy banklardan 129 182 000 rubl qarz bo'lgan. O'lkadagi qarzdorlikning 1 foizi Farg'ona viloyatiga to'g'ri kelgan, bu 80 797 000 rubl qiymatga teng edi.

M.I. Sosnovskiyning syezdda qilgan ma'ruzasida paxta firmalarining har yili aholiga beriladigan ssudalari miqdori 35 000 000 rublni tashkil etganligi qayd qilingan. Farg'ona viloyati aholisi qarzdorligining o'sib borishini quyidagi raqamlardan bilish mumkin. 1909-yil 1-noyabrga oid ma'lumotlarga ko'ra viloyat aholisi Farg'onada faoliyat yuritgan 10 ta bankdan 16 000 000 rubl qarzdor bo'lsa, 1911-yilda bu 30 000 000 rublni tashkil etgan.

Mol-mulkidan mahrum etilgan o'n minglarcha paxtakorlarning ancha qismi qishloqlarda yirik yer egalarining yerlarida chorikorlik qilishga majbur bo'lganlar. Chorikor yirik yer egalarining yerini ijaraga olib, hosilning yarmi yoki bundan ortiqroq qismini unga berishni o'z zimmasiga olardi. Ekin maydoni 2 gektardan kam emas edi. Bunday katta yerda ishlashga chorikorning qudrati yetmagan. U paxtani oila a'zolari bilan birgalikda yetishtirgan. Agar oila a'zolaridan birortasi betob bo'lib qolsa, chorikorning ahvoli g'oyatda og'irlashib, mo'ljallangan hosilni yetishtirishning iloji bo'lmagan.

Chorikorlarning yetishtirilgan hosildan olinadigan ulushi bir xilda bo'lmagan. U yirik yer egalaridan yer bilan bir qatorda ish hayvoni, urug'lik, dehqonchilik qurollari va yana qarzga pul olgan bo'lsa, u vaqtda hosilning ⅗ qismi yer egasiga tekkan. Buning ustiga chorikor qarz pulini va dehqonchilik qurollarini yer egasiga qaytarishi shart edi. Umuman, chorikor yer egasidan yerdan tashqari qo'shimcha nimalar olgan bo'lsa, shunga muvofiq uning hosildan oladigan ulushining miqdori belgilangan. Masalan, 1914-yilda Farg'ona viloyatida ijaraga berilgan 1 118 877 gektar yerning 39,1 foizida hosilning yarmi, 14 foizida hosilning ⅗ qismi va 39,6 foizida hosilning ⅗ qismini chorikorga berish belgilangan edi. Biroq amal-

@tarixiy_kutubxonasiga

da chorikor ko'rsatilgan shartlarni bajarishga kuchi yetmagan. Chunki 1914-yilga tegishli ma'lumotlarga ko'ra chorikorning bir gektar yerda paxta yetishtirish uchun sarflanadigan xarajati va mashaqqatli mehnati pul hisobida 207,3 rublni tashkil etib, shundan 194 rubl 86 kopeyek ijara haqiga, qarzning ustama to'loviga va soliqlarga ketgan. Natijada, chorikorning bir kunlik daromadi 9 kopeyekdan oshmagan. Bu daromad bir gektar yerdan 9 sentner paxta hosilini yetishtirgan taqdirdagina olingan. Vaholanki, paxta hosili ko'pincha ko'rsatilgan miqdordan past bo'lardi.

Oqibatda chorikorlar qarzdorlikka tobora chuqurroq botib, ularning xo'jaligi nihoyatda qashshoqlashgan. Buni o'z ko'zi bilan ko'rgan zamondoshlardan birining tasvirlashicha, «dehqonning uyi va xo'jaligi shu darajada achinarliki, unga o'xshaganini boshqa joyda ko'rganligimni aytolmayman. Uydagi bor narsa yerda yoki devor tokchalarida onda-sonda turgan 2–3 ta temir asboblar va 2–3 ta sopol idishlardan iborat, xolos. Uyning burchagida xunuk, yirtiq va yag'iri chiqqan bir nechta yostiq va ko'rpalar pala-partish to'planib yotibdi. Dehqonlar yag'ir ko'ylak ustidan yirtiq to'n kiyganlar. Xotin va bolalar ham yirtiq kiyimlarda yurgan. Ular mashaqqatli mehnatdan keyin kuch to'plash uchun ozgina qovurilib, suvda pishirilgan atala yoki jo'xori, bug'doy yoki arpani qatiqqa aralashtirib yeydi. Ularda hamma vaqt bir xil ovqat va mashaqqatli mehnat».

Chorikorlar bilan bir qatorda yersiz va kam yerli mardikorlarning ahvoli ham juda achinarli hisoblangan. Mardikorlar yer egalarining yerlarida kunbay hisobida ishlagan. Ularning mehnatidan yerni chopish va boshqa og'ir ishlarda keng qo'llanilgan. Mardikorlar o'lkaning shahar va qishloqlarida ish qidirib yurganlar. Ularning bir kunlik ish haqi 50 kopeyekdan oshmagan. Bu hisobga uning ovqatlanish xarajatlari ham kirgan.

Mardikorlarning ish kuni erta tongdan – soat oltidan to qorong'ugacha davom etib, yirik yer egalarining qattiq nazorati ostida mehnat qilganlar. Xullas, chorikorlar, mardikorlar va uy-joysiz tentirab yurgan qashshoqlar qishloqlarda og'ir hayot girdobida hayot kechirganlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

3-§. DAVRIY NASHR VA TO'PLAMLARDAGI MATERIALLAR

И.И. Краузе. «Заметки о медицинских и некоторых промышленных растениях в Средней Азии» («O'rta Osiyodagi dorivor va ba'zi sanoat o'simliklari haqida qaydnomalar»)[1]

Iyeronim Ivanovich Krauze (1845–1909) – yirik jamoat arbobi, tibbiyot xodimi, botanik, tabiiy resurslar va tibbiy an'analar bo'yicha tadqiqotchi bo'lib, 1870-yilda Turkiston hududiga mamlakat sanoati hamda Namangan yaqinida topilgan «Moylisoy» neftli yerlarni o'rganish uchun jo'natilgan. Bu yerda u dorixona xodimi bo'lib ishlash bilan bir paytda, Turkiston florasi, ayniqsa dorivor o'simliklar, ularning tibbiyotda qo'llanilishini chuqur tadqiq etadi. Xalq tabobati bilan zamonaviy tibbiyotni qiyoslab o'rganadi. I.Krauze shahar hududida ilk botanika bog'ini barpo etadi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sanitariya me'yorlariga javob berishini tekshiruvchi birinchi Toshkent kimyo laboratoriyasiga asos soladi. Quyida uning Turkistondagi dorivor o'simliklar va ularning tibbiyotda qo'llanilishiga oid maqolasidan parcha havola etiladi.

N. Shirinova

...Turkiston o'lkasi ruslar tomonidan bosib olingandan so'ng, bu o'lka sekin-asta «noaniq hudud» mavqeini yo'qota boshladi. O'lka geografiyasi va tarixiga oid ma'lumotlar boyib bordi. Lekin tibbiy kuzatuvlar, shu jumladan, mahalliy dorivor o'simliklarni o'rganish bo'yicha bu o'lka deyarli o'rganilmagan deyish mumkin. Aytib o'tishimiz joizki, hozirgacha, mahalliy aholi kasalliklarining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ham, odamlarning aytishiga ko'ra Toshkent va Zarafshon tumanlarida mavjud bo'lgan mineral va shifobaxsh buloqlarning tarkibi va ularning joylashgan o'rni haqida ham bironta chop etilgan ishlar mavjud emas.

Aynan dorivor o'simlik dunyosiga to'xtaladigan bo'lsak, men shu sohada faoliyat yuritgan avvalgi tadqiqotchilarning ishlarini qisman to'ldiraman, shundan keyin esa, shaxsan o'zim to'plagan ma'lumotlarga o'taman.

O'lka florasining dorivor o'simliklarga nechog'liq boyligini P.P. Semenov, A.A. Leman va F.R. Osten-Sakenlarning o'lka florasi bo'yicha tuzgan ro'yxatlarida ko'rishimiz mumkin.

1857-yilda Fanlar Akademiyasi O'rta Osiyoga kovraksimon o'simliklarni o'rganish uchun doktor Borshov boshchiligida maxsus ekspeditsiya yubordi, ekspeditsiya natijasida doktor Borshovning ushbu o'simliklarning rasmlari keltirilgan va ularga batafsil ta'riflar yozilgan ishlari nashrdan chiqdi.

[1] *Краузе И.* Заметки о медицинских и некоторых промышленных растениях в Средней Азии. // Туркестанский сборник. Том 57. – 1873. – С. 262–272.

@tarixchi_kutubxonasiga

Farmatsevtika magistri Palm ham «Sankt-Peterburg farmatsevtlar axborotnomalari»da chop etgan maqolalari orqali ommani Turkiston o'lkasidagi ba'zi bir dorivor o'simliklar bilan tanishtirgan.

Tabiatshunoslik havaskorlari jamiyatining ilmiy ekspeditsiyasi bizga ba'zi bir muhim ma'lumotlar va ko'rsatkichlarni beradi. A.P. Fedchenko o'zining Zarafshon vohasiga qilgan safarida Urgut tog'lari va «Golodnaya step» atrofida, Zarafshon daryosining yuqori qismlarida o'suvchi kovraksimonlar [ferula] o'simligi turlarini uchratgan. Uning aytishiga ko'ra, mahalliy aholi bu o'simlikni yaralarni davolashda keng qo'llagan.

Yana uning 1869-yilgacha to'plagan gerbariylari orasida arpabodiyonning nodir namunalarini ham uchratishimiz mumkin. Ta'kidlab o'tish joizki, Turkiston o'lkasida o'sadigan arpabodiyon boshqa mamlakatlar, jumladan shimoli-sharqiy Afrikaga qaraganda o'zidagi santonin [qadimda gijjalarga qarshi vosita sifatida keng qo'llanilgan] moddasining boyligi bilan eng yaxshi nav, deya tan olinadi. Shuningdek, u Samarqand hududida noyob gulli shumtol daraxtini ham uchratadi. Bu daraxt Italiya hududida yovvoyi tarzda o'sadi, shumtol tibbiyotda keng qo'llanilgan va undan quritib olinadigan manna mahsuloti jahon bozorida yuqori narxga ega bo'lgan. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, janubiy Yevropadan olib kelinuvchi bir qancha qimmatli va dorivor o'simliklarni ushbu o'lka iqlim sharoitiga ham moslashtirish mumkin.

Endi esa, O'rta Osiyo florasidagi o'zimning shaxsiy kuzatuvlarimga o'taman. Quyida botanik kuzatuvlarimning barchasini keltirmasdan, uchratgan turli xil o'simliklarimdan faqatgina dorivorlarini keltirib o'taman.

O'zimning qisqa muddatli izlanishlarim natijasida, shuningdek yuqorida keltirib o'tilgan o'lka florasiga oid ma'lumotlarga asoslangan holda, men quyidagi xulosaga kelamanki, Turkiston o'lkasi juda boy dorivor o'simliklar manbaiga ega. Hosili mo'l bo'lgan ba'zi bir o'simlik turlarini nafaqat Sibirga, balki Yevropa Rossiyasiga ham olib chiqish imkoni mavjud. Qo'l ostimizda shunday katta boylik bo'la turib, biz haligacha dorivor o'simliklarni va ulardan tayyorlangan mahsulotlarni Rossiyadan olamiz, hatto ba'zilari Yevropadan keltiriladi.

Quyidagi dorivor o'simliklarni olib ketish mumkin:

Pista. Qo'qon tog'lari yerlarida yovvoyi tarzda o'sadi, bu daraxtdan mashhur pista deb nomlanuvchi mahsulot olinadi. Afrika va grek orollarida o'suvchi pistaning boshqacharoq navidan, 1 funti 3 rubl va undan arzon turuvchi mastika deb nomlangan yelim olinadi. Bu yelimdan tibbiyotda qo'llaniladi. Men bu yerlarda shunday pistazorlarni ko'rdimki, ulardan bemalol sifati bo'yicha Shimoliy Afrikanikidan hech ham qolishmaydigan bir necha ming pud shira yig'ib olsa bo'ladi, lekin hamma gap shirani yig'ib olish usulidadir.

@tarixchilarkutubxonasiga

Afsuski, qirg'izlar shirani ajratib olishni bilishmaydi, shuningdek, uning foydali jihatlari to'g'risida ham xabardor emaslar. Lekin bu shiraga chetdan talab bildirilib, uni ajratib olish yo'llari ko'rsatib berilsa, yaqin vaqtlar ichida bir necha o'n ming pud shirani olib ketish imkoni tug'ilar edi.

Aslida shirani ajratib olish usuli juda oddiy: Shimoliy Afrikada buning uchun iyul o'rtalarida daraxt tanasining ildizidan to shoxlarini uchigacha bir qancha yengil, tik chiziqlar tilib chiqishadi. Ana shu chiziqlardan tiniq, xushbo'y yelimsifat sharbat oqib chiqadi. Bu sharbat tez orada quriydi va uning ko'rinishi shar shaklidagi donga o'xshab qoladi. Shundan so'ng 15–20 kun davomida bu shirani yig'ib olishadi. Bizda bu shira terimini avgustning 1-sanasidan boshlagan ma'qulroq. Bu yerda kesiklarsiz ham daraxtning shoxlaridan, mastikaning eng yaxshi turini beruvchi, uncha ko'p bo'lmagan yelim tabiiy ravishda ajralib chiqadi.

Anjir. O'simlikning buta ko'rinishi ko'pincha Namangan shahri aholisi bog'larida va ba'zi bir qishloqlarda uchraydi. Lekin anjir daraxtini u yerda yovvoyi tarzda o'sgan deya olmaymiz. Uning yangi uzilgan mevasi shirinlik sifatida iste'mol qilinadi. Daraxt iyulning boshida meva tugadi. Uning quritilgan mevasi mahalliy tabiblar tomonidan dori sifatida beriladi.

Umuman olganda, mevalarni quritish ham mahalliy aholi tomonidan samarali yo'lga qo'yilmagan, vino uchun uzum qoqilarini tayyorlash ham mamlakat uchun katta foyda olib kelgan bo'lar edi.

Kanakunjut. Men bu foydali o'simlikni Toshkentning ba'zi bir bog'larida bezak sifatida ekilganini ko'rdim. U umuman iste'mol qilinmas edi. Kanakunjut aslida bir yillik o'simlik, ammo uning urug'i shunday yaxshi yetiladiki, uni bemalol butun bir katta dalaga eksa bo'ladi. So'ng undan hozirgi kunda Rossiyaga Italiyadan keltiriluvchi kanakunjut yog'ini olsa bo'ladi. U sifati bo'yicha ham Italiya kanakunjut yog'ining o'rnini bosa oladi va katta miqdordagi chetga olib chiqiluvchi mahsulot sifatida xizmat qiladi.

Anor. Namangan bog'larida o'stiriladi. Bu o'simlik juda ham foydali bo'lib, solityor[1] gijjasiga qarshi vosita sifatida qo'llaniladi.

Lavanda. Qo'qondagi kichik Mayli daryosi bo'ylarida va shu kabi turli joylarda o'sadi. Dorivor lavanda o'zining barglari bilan ajralib turadi.

Gullarini iste'mol qilishdan tashqari, bu yerda lavanda yog'ini ham tayyorlasa bo'ladi. Uning hosilidan olingan yog'ni hozirgi kunda Fransiyadan olib kelinayotgan lavanda yog'i o'rniga olib ketilsa bo'ladi. Lavandadan olinuvchi efir yog'i ham atirlar, sovunlar tarkibida keng qo'llaniladi.

[1] *Solityor* – tasmasimon gijja.

@tarixchi_kitobxonasiga

Yong'oq. Asosan tog' yonbag'irlarida yovvoyi tarzda o'sadi, shuningdek, chiroyli va foydali daraxt sifatida ko'p miqdorda bog'larda yetishtiriladi. Tibbiyotda bu o'simlik keng qo'llaniladi, bargidan shirincha [bolalar kasalligi] va sariq kasalliklariga qarshi vosita sifatida foydalaniladi. Yong'oqning o'zidan esa yog' olinib, u tibbiyotda keng qo'llanilgan. Faqat bu yog'ni olishda yangi yong'oqlardan foydalanish zarur, aks holda yong'oq yog'i tezda achchiq ta'mga kirib, foydalanish uchun yaroqsiz holga keladi.

Bodom o'simligi ham tog'li hududlarda yovvoyi tarzda o'sadi va mahalliy aholi tomonidan bog'larda yetishtiriladi. Bodom tibbiyotda muhim o'ringa ega. Barchaga ma'lumki, bodom sut tayyorlashda xizmat qiladi, shuningdek, undan ajoyib yog' olinadi, siqib olingan qoldig'idan bodom kukuni tayyorlanadi. Kundalik turmushda esa bodomdan konfetlar va turli shirinliklar tayyorlanadi.

Ko'knori mahalliy aholining bog'larida o'stiriladi, lekin undan afyun olinmaydi. Sartlar Qobulistonda tayyorlangani kabi bu yerda qoradori tayyorlashmaydi, aksincha, bu yerga ham qoradori Qobulistondan keltiriladi.

Bu yerlardagi bozorlarda sotiluvchi Qobuliston qoradorisi 3 draxm[1] og'irlikdagi, ola-bula sariq rangdagi, yoriqlari yaltiroq, to'g'ri tayoqcha shakliga ega. Unda kraxmal aralashmasi bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Bu yerlarda o'sadigan mahalliy ko'knori sotuvda yo'q. Undan faqatgina shifokorlar dori tayyorlashdagi ehtiyojlari uchun ishlatadilar. Men bu yerning ko'knorisini ko'ra olmadim, shuning uchun u haqda hech qanday ma'lumot ayta olmayman. Yaqin kunlarda men harbiy tibbiyot inspektori N.M. Sergeyevdan shunday ma'lumot oldimki, bu yerda sotiluvchi Qobul ko'knorisi 1866-yilda tadqiq qilib bo'lingan... Shunga asosan, mahalliy ko'knori olishni ko'paytirishni ham yo'lga qo'yish zarur. Mening fikrimcha, bu mahsulotni yetishtiradigan va uni mukammal tarzda qayta ishlab Rossiyaga jo'natadigan katta bir kontora qurish foydali bo'lar edi.

Bu yerlardan katta miqdordagi ko'knori olish mumkinligiga aminman. Agar sartlar buning nechog'lik katta foyda keltirishini bilishganda edi, yetishtiriluvchi ko'knor miqdorini ko'paytirgan bo'lar edilar.

Oyboltirg'on, oqsasir. Dang'ara tog'lari yonbag'irlarida o'sadi va o'lat kasalligiga qarshi foydalaniladi.

Shuvoq. Tog'larda tez-tez uchrab turadi, dori sifatida keng qo'llaniladi. Erman arog'i tayyorlashda ham ishlatiladi.

Erman. Ko'pincha bog'larda, Sivoz va Uchqo'rg'on qishloqlaridagi devorlar atrofida o'sadi...

[1] *Draxm* – farmatsevtikada qo'llaniladigan og'irlik o'lchov birligi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Zig'ir. Qo'qon hududidagi lalmi yerlarda o'stiriladi. Lekin mahalliy aholi uning faqat urug'inigina oladi. Men ularga bu o'simlikdan tola olish mumkinligini va uning olinish jarayonini batafsil so'zlab berdim. Ammo ular menga: «Alloh bizga ishlovlarga muhtoj bo'lmagan tayyor paxta tolasini yuborib qo'ygan», – deb javob qilishdi.

Mingdevona. Qadimdan bu o'simlikdan isitma tushiruvchi vosita sifatida va jigar og'rig'ida foydalanilgan.

Behi. Bog'larda ko'p miqdorda yetishtirilgan. Tibbiyotda uning faqat urug'i ishlatilgan.

Nasha. Ko'pincha mast qiluvchi vosita sifatida ekilgan. Tibbiyotda uning urug'idan hamda undan olinadigan yog'dan foydalanilgan.

Sholi. Mahalliy aholi tomonidan lalmi yerlarda yetishtiriladi. Aholining sevimli taomi hisoblanadi. Guruch kraxmal va upa tayyorlashda xizmat qiladi.

G'o'za. Dalalarda mahalliy aholi tomonidan yetishtiriladi va mamlakat savdosida birinchi o'rinda turadi. Tibbiyotda undan tayyorlanadigan ipdan yaralarni bog'lovchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Qand lavlagi. Mahalliy aholi tomonidan ko'p miqdorda yetishtiriladi. Bu mahsulot tibbiyotda to'g'ridan to'g'ri qo'llanilmasa-da, aytib o'tishim joizki, undan olinadigan shakar mahsuloti ko'pgina dorilarni tayyorlashda keng qo'llaniladi.

Uzum turlarining xilma-xilligi bilan bu mamlakatning boyligi sanaladi. Ushbu uzumlardan tayyorlangan vinolar talabga to'liq javob bera oladi va u tibbiyotda ham qo'llaniladi. Vinodan tashqari, uzum sharbatidan eng yaxshi uksus turi olinadi.

Xulosa qismida, vino tayyorlovchi shaxslarga murojaat qilib, hanuzgacha chiqindi sifatida tashlab yuborilayotgan uzum danaklariga e'tibor berishlarini so'ramoqchiman. Axir ulardan oziqlantiruvchi ichimlik tayyorlasa bo'ladi. Ushbu danaklarni yig'ish unchalik katta kuch talab etmaydi. Uzum sharbatining birinchi achishidayoq danaklar sharbat yuzasiga chiqib qoladi va ularni suzgich yordamida bemalol yig'ib olsa bo'ladi. Shundan so'ng, terilgan danaklar quritiladi va oz-ozdan xushbo'y moddalardan qo'shgan holda, kofeni qovurgan kabi qovuriladi.

Bugungi kunda uzum danaklaridan tayyorlangan bu ichimlik Reyn atrofida sevib iste'mol qilinadi va u nemis shifokorlari tomonidan yaxshi ozuqaviy vosita sifatida ma'qullangan. Shifokorlarning fikrlariga ko'ra bu ichimlik kofe va shokolad o'rtasidagi o'rinda turadi. Shunday yirik hajmdagi uzum danaklarini tashlab yuborgandan ko'ra, nima uchun undan foydali ichimlik tayyorlab ko'rilmaydi? Balki kofe va shokolad havaskorlari ichida bu ichimlik ta'mi bo'yicha ularning o'rnini qaysidir darajada bosa olar va shu bilan birga ortiqcha xarajatlardan xalos qilar.

@tarixchi_kutubxonasiga

N.B. «Кокандское ханство по новейшим известиям» («Qo'qon xonligiga oid yangi xabarlar»)[1]

Noma'lum muallif (qisqacha N.V. deb berilgan) tomonidan e'lon qilingan «Qo'qon xonligiga oid yangi xabarlar» nomli maqolada Qo'qon xonligi shaharlari – Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, O'sh, Isfara, Konibodom, O'zgan, Sox, Laylak, Koson va Mahram qal'asi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Maqolada xonlik shaharlarining geografik joylashuvi, bozorlari, tashqi va ichki savdosi bo'yicha ham ma'lumotlar uchraydi. Ayniqsa, Qo'qon shahrining ichki va tashqi savdo-sotiq holati va savdo yo'llari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu maqolaning ayrim qismlari ilk bor o'zbek tiliga tarjima qilinib, quyida matndan parcha berilgan.

X. Mamadaliyev

...Xonlikdagi *shaharlar*, yuqorida ta'kidlanganidek, o'z atrofida aksariyat o'troq aholini o'zida qamrab olgan; shulardan poytaxt hamda aholi va savdo aylanmasi bo'yicha eng muhim shahar — Qo'qon hisoblanadi. «Ko'rkam» Qo'qon, rasmiy ifodalanishiga ko'ra Latifi Qo'qon haqida biz 1867–1868-yillarda Xonlik poytaxtiga o'z savdo missiyasi bilan tashrif buyurgan ayrim mansabdor shaxslarning maktublarida qayd etilgan bir qator aniq ma'lumotlarni keltirishimiz mumkin.

Bir ko'rishda ushbu muhim bo'lgan shahar, ya'ni Qo'qon shahri daryoning o'zida emas, balki undan 20 chaqirim uzoqlikda [eng qisqa yo'nalishi bo'yicha] joylashganligi hammani hayratda qoldirishi mumkin. Buni daryoning qirg'oqlarini tashkil etuvchi qumli tuproq bilan izohlasa bo'ladi. Bundan tashqari, Osiyodagi shahar va qishloqlar ko'pincha dehqonchilik ahamiyatiga ega, bog'larsiz shaharlar esa osiyoliklar uchun begonadir. Shuningdek, O'rta Osiyodagi daryolar Yevropadagidek muhim ahamiyatga ega emas; xususan, Sirdaryoda Osiyo kemachiligi rivojlanmagan; hattoki baliqchilik ham yo'q.

...Qo'qon juda tekis joyda qurilgan bo'lib, bunga birinchi ko'rishda uning ko'rinishi va maydoniga qarab ishonish qiyin; biroq uning diametri taxminan 5 verstga ega bo'lgan, deyarli doirasimon shaklga ega ekanligini faqatgina gumon qilish mumkin [72-bet]. Shahar atrofi devor bilan o'ralgan bo'lib, undan 12 chaqirim uzoqlikda, ba'zida undan ham uzoq joylarda ariq bilan kesilgan hamda daraxtlar, aksariyat tollar ekilgan maydonlarga bo'lingan qishloq, bog' va dalalar joylashgan.

Aholi soni, qo'qonliklarning ma'lumotlariga ko'ra, ayni damda bu yerga Toshkent, Xo'jand va biz bosib olgan boshqa shaharlardan qochib

[1] *N.B.* Кокандское ханство по новейшим известиям // Военный сборник. 1869. –№7. –С. 65–110.

@tarixchi_kitoblar_olamiga

kelgan ko'p sonli aholi evaziga ko'paygan. Mazkur shahar aholisining soni taxminan 20 000–30 000 atrofida bo'lgan; shuningdek, mahalliy aholining ko'rsatmalariga ko'ra ushbu shaharda 20 000 uy va 80 000 aholi yashaydi. Bunday tafovut shundan hosil bo'ladiki, osiyoliklar u yoki bu shaharda qancha aholi yashaydi, degan savolga har doim shaharlar va ularning huzurida bo'lgan qishloqlarning raqamini beradi. Turli shaharlarda aholi sonini aniqlashda biz yo'l qo'yayotgan xatoliklarning yuzaga kelishi aynan shu bilan izohlanadi.

...Mazkur shahar rus millatlariga mansub aholi yashaydigan barcha Osiyo shaharlaridan ko'ra ancha yaxshi, hattoki ozodaligi bilan ajralib turadi: toza va keng ko'chalar, ko'pincha, ko'chaning o'rtasi bo'ylab va uning ikkita tomonidan bir nechta qator daraxt ekilgan yo'lakcha, go'yo [bulvar]xiyobon joylashgan. Uylar juda mukammal qurilgan: aksariyat binolar pishiq g'ishtdan qurilgan [73-bet]. Ammo shahar, ko'ndalang o'lchamda sarjinga teng bo'lgan o'lchamga yetadigan hamda imorat va masjidlar orasida har taraflama yoyilgan asrga teng daraxtlar, qayrag'ochlar bilan ayniqsa jozibalidir.

...Qo'qon bozori hajmi, tozaligi va tashkil etilishi bo'yicha Toshkent bozoridan ancha ustun turadi; u havoni bemalol o'tkazadigan baland yog'ochli tom bilan yopilgan, bu esa yoqimsiz hid va zaharli bug'ning tarqalishiga to'sqinlik qiladi. Qo'qon bozori hozirgi xon tomonidan qurilgan bo'lib, u shoxobchalarni qarzga berish evaziga katta daromad olgan. Qo'qonda barcha shoxobchalarning soni 420 tagacha yetadi.

Shahar 12 qismga bo'lingan, ya'ni shahar devorlarida joylashgan darvozalar soni bo'yicha bo'linadi; har bir qismida 50 tadan masjidlar mavjud – bu ko'rsatkich, shubhasiz, oshirilgan holda berilgan. Bundan tashqari, Qo'qonda 15 ta yirik va bir nechta karvonsaroylar mavjud.

...**Andijon** — juda chiroyli joyda, Sirdaryodan 3 chaqirim uzoqlikda qurilgan xonlikning sobiq poytaxti; [75-bet] unda 20 000 aholi va garnizonda 1 000 nafar aholi istiqomat qiladi. Ayni damda mazkur shahar eng muhim ahamiyatga ega, ya'ni sodir bo'lishi ehtimoli ko'proq bo'lgan Qashg'ar bilan urush boshlaganda asqotishi mumkin; gap-so'zlarga qaraganda, uning garnizoni va omborlari sezilarli darajada ko'paygan. Andijondan uzoq bo'lmagan joyda katta bo'lmagan Shahrixon shahri joylashgan bo'lib, undagi aholi soni 1 000 nafarga teng.

Marg'ilon — xomashyo va mato ko'rinishida ipak ishlab chiqarish bo'yicha bosh markaz; u juda keng bog'larga ega bo'lib, unda aholi soni 12 000 nafarga teng.

Namangan — xonlikning eng yaxshi shaharlaridan biri, unda 15 000 aholi istiqomat qiladi. U Norindan chiqadigan ariqda va Norin irmog'i – Podshootada joylashgan; xaritada ko'rsatilgan Namangan daryosi esa

@tarixiy_kutubxonasiga

aslida yo'q. Atrofdagi maydon jozibadorligi bilan ajralib turadi, aholi zich joylashgan, yer esa yaxshi haydalgan; bu yerda qishloq va bog'lar ko'p. Gap-so'zlarga qaraganda, chekka joylarda oltin qazib olinadi. Shahar savdo va sanoat bilan birga, harbiy ahamiyatga ham ega, chunki bu hudud miltiq va qilichi bilan yaxshi tanilgan. Mazkur shahar faqatgina savdo bilan shug'ullanayotganligi va shu bois Rossiya bilan bog'langanligi uchun Namangan bizning Osiyodagi erishilgan muvaffaqiyatlarimizga boshqa shaharlardan farqli o'laroq g'araz ko'zi bilan qaramayotgandek go'yo.

O'sh – tog'lar bag'rida joylashgan katta bo'lmagan shaharcha bo'lib, u qadimiy qal'a va ikkita madrasaga ega; aholi ikkita tog' daryosidan tushadigan suvdan foydalanadi: ularning biri Oltin-Qaziq deb nomlanib, oltin borligini ko'rsatayotgandek go'yo.

Tuz – katta shahar, taxminan Xo'jandga teng; alohida bek tomonidan boshqariladi.

Isfara – katta bo'lmagan shaharcha bo'lib, Isfara daryosi atrofidagi boy va aholi joylashgan hudud hisoblanadi.

Ismoni – Qo'qon xonligining janubiy qismida chegaradosh toshli jo'yak bilan kesishadigan Oqsuvda joylashgan. Bu yerda Zarafshon vodiysiga ketadigan dovonlar mavjud, yozda ulardan tuyalar o'tadi.

Konibodom – Qo'qondan Xo'jandga boradigan yo'lda joylashgan shahar; unda 4 000–5 000 aholi yashaydi; bu yerda mevali bog'lar ko'p va aholi ipakchilik bilan shug'ullanadi.

Mahram – qal'a bo'lib, qo'qonliklar bunga alohida ahamiyat beradi; u daryo bo'yida joylashgan bo'lib, bittasi Xo'jandga qaratilgan ochiq, ikkinchisi qishloq va bog'larga tutashgan devorlar bilan o'ralgan uzunchoq to'rtburchakni o'zida namoyon etadi; mazkur qal'ani qurishda qo'qonliklar, ehtimol, bizning harbiy san'atdan olingan bilimlarimizdan foydalangan. Keng qal'alar bizga uzoq payt davomida qarshilik ko'rsata olmaydi va ulkan garnizonni talab etadi. [76-bet] Hajm jihatdan katta bo'lmagan **Niyozbek** shahri hammadan ko'ra ko'proq qarshilik ko'rsatgan, ular Mahramning kichik hududini egallagan: uzun yuz tarafi 100–150 sarjin uzunligiga ega; kalta yuz tomoni esa 2 barobar kichik; yuz tomonlarning burchaklari va o'rtalarida minoralar mavjud; devorning qalinligi va balandligi 5 sarjinga teng, ular tishsiz, ehtimol, bu ularni miltiq bilan otib, vayron qilganda eskaladaga olib kelmasligi uchun o'ylangan; o'r 10 arsh. dan kam bo'lgan chuqurlikka ega.

Yuqorida nomi keltirilgan shaharlardan tashqari, faqatgina nomi bilan mashhur bo'lgan ayrim shaharlar: **O'zgan, Sox, Laylak va Kosonni** keltirish mumkin. Umuman olganda, ular katta emas, ehtimol ular unchalik diqqatga sazovor emas.

@tarixchi_kitoblar_qidiruv_guruhiga

...Xonlikning sanoat va savdo hayotini ushlab turuvchi eng muhim yo'llari bizning yerlarimiz, Buxoro va Afg'onistonni Sharqiy Turkmaniston va Qashg'ar bilan birlashtiradi. Bunday yo'llar ikkita: Samarqanddan Jizzaxga Xo'jand, Qo'qonga qarab va Qashqarga Terek-dovon darasi hamda daryoning o'ng qirg'og'i Toshkentdan Namangangacha. Ushbu yo'llardan tashqari, Toshkent va Qo'qon o'rtasida yana uchta to'g'ridan to'g'ri tarmoq mavjud.

...Karvonlar Qo'qondan Buxorogacha taxminan 23 kun yuradi, yo'l juda qulay va butun yo'l bo'ylab aholi yashash joylari mavjud. Qo'qondan Qashg'arga bo'lgan karvon yo'li Marg'ilon, O'sh, Andijon shaharlaridan, so'ng mashhur Terekt o'tish joyidan o'tib, Sharqiy Turkiston hududiga kelib tushadi. Mazkur yo'nalishda doimo jonli savdo faoliyati orqali eng qadimgi davrlarda Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasida munosabatlar shakllangan. Terekt yo'li butun uzunligi bo'ylab yem-xashak, yoqilg'i va suv bilan ta'minlangan. Qashg'ardan Qo'qongacha bo'lgan masofa 450–500 chaqirimga teng yoki 12–20 kun yurilar edi. Yengil, otga o'tirgan holda Qo'qondan Qashg'arga yettinchi kunda yetish mumkin. Tog'da yurish qiyinligi bois og'ir buyumlarni tashish faqatgina otlarda amalga oshiriladi; har biriga og'irligi 8 pudga teng yuk yuklaniladi. [78-bet]

...Qo'qon xonligining savdo ahamiyati qulay geografik holatiga ko'ra muhim ahamiyat kasb etishi mumkin edi. Rossiya va O'rta Osiyo xonliklarini Xitoy bilan bog'lovchi savdo yo'llari chorrahasida joylashgan Qo'qon vaqt o'tishi bilan Markaziy Osiyoning barcha tranzit savdosini o'z qo'lida qamrab olishi mumkin. Qo'qon orqali bevosita xonlikka va undan uzog'iga – sharqqa boradigan rus tovarlari o'tadi. Qashg'ar orqali rus tovarlari Xo'tan, Turfan, Oqsu va boshqa shaharlarga yuborilishi mumkin edi. Ayni damda qo'qonliklar Qashg'arga temir, po'lat va movut, oltin va terini yuboradi. Ushbu barcha bozorlar vaqt o'tishi bilan rivojlanishi va hozirgi talabdan ancha yuqori bo'lgan talabni qondirishi mumkin edi, bunga Qo'qon xonligi dalil sifatida xizmat qiladi, chunki unda olib kirish miqdori oxirgi besh yil ichida 20 martaga oshdi.

Keyinchalik Qo'qonning savdo ahamiyati, ehtimol yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi, ammo hozirgi paytda Qo'qon savdosi aholining ehtiyojlari cheklanganligi hamda uning ichki doimiy tartibsizliklari hamda Xitoy chegarasida bojxonada o'g'riliklar tufayli foydali holatga umuman mos kelmaydi va juda past darajadagi savdo bozorini tashkil etadi. Xonlikning xorij savdosi avvalambor O'rta Osiyo, G'arbiy Xitoy va Rossiyadan keladigan eng muhim savdo yo'llarida joylashgan Toshkent shahrida mujassam etgan, shu bois Qo'qon u bilan savdo borasida raqobat qila olmas edi. Avvalambor, Toshkent u yerdan Sibir yo'l tarmog'i: Petropavlovsk, Semipalatinsk, qisman Troitskka tovarlarni yuboradigan stansiya sifatida xizmat qilgan;

@tarixchi_kutubxonasiga

endilikda esa savdo bevosita Toshkent hamda Qo'qon va uning shaharlari o'rtasida amalga oshirilmoqda.

Xonlikdan olib chiqilayotgan tovarlar xilma-xil. Bunga quyidagilarni kiritish mumkin: paxtadan tayyorlangan qog'oz, eshilgan ipdan tayyorlangan qog'oz, qog'oz matolari [bo'z va h.k.], faqat qirg'izlar uchun mo'ljallangan yarmi pak va jun matolari; quruq meva, yumshoq eski-tuskilar, ro'yan, guruch, xom teri va boshqalar. 1850-yildan 1860-yilgacha Qo'qondan Rossiyaga yuqorida nomi keltirilgan tovarlarni yillik olib chiqish hajmi 154 000 r.gacha borgan.

1862-yildan 1866-yilgacha bo'lgan besh yillikda olib chiqish hajmi quyidagi progressiyada o'sgan:

1862-yilda	585 188		1862-yilda	134 846	r.
– 1863	420 429		– 1863	61 571	–
– 1864	352 332		– 1864	74 250	–
– 1865	617 446		– 1865	523 547	–
– 1866	795 500		– 1866	3 187 124	–

Rossiyadan temir, mis, cho'yan, turli metalldan tayyorlangan buyumlar, oltin tangalar, oltindan tayyorlangan turli buyum, ipak va junli matolar, movut, ishlangan teri, sandiq, choy, shakar va boshqalar *olib kirilgan*. 1850-yildan 1860-yilgacha o'n yillik davr ichida har yillik olib kirishning o'rtacha qiymati 83 000 r.ga teng edi, ammo 1862-yildan 1866-yilgacha bo'lgan davrda esa olib kirish quyidagi hajmlarda amalga oshirilgan: Toshkent va Qo'qonga olib kelingan, ya'ni 2 391 614 r.ni tashkil etgan. Oxirgi holat Turkiston viloyatiga Toshkent, Xo'jand va boshqa shaharlarning qo'shilishi bilan izohlanadi.

Yuqorida keltirilgan jadvallarda Qo'qondan Toshkentga olib kirish va olib chiqish hajmlari ko'rsatilgan; Qo'qonga keladigan bo'lsak, hozirgi chegarasi nuqtayi nazardan uning savdosi taxminiy tasvirini quyidagi ma'lumotlar orqali tuzish mumkin. Qo'qonga keladigan har bir karvon zakot-saroy [bojxona]dan o'tgan va Saroymanga ijara sifatida 3 000 qo'qon [600 r.] haq to'lagan holda, ulardan har bir tuya uchun bir qo'qon [ikki griven] olingan. Ushbu ijara haqi shuni ko'rsatadiki, Qo'qonga tovarlarni olib kirish hajmi katta emas, aks holda hukumat ijarachilardan ko'proq haq olgan bo'lar edi. G. Xrennikovning fikricha, Qo'qonga Hindiston, Buxoro tovarlari ortilgan tuyalar soni 2 000 tacha bo'lgan; rus tovarlari bilan xuddi shu hajmda va Qashg'ar tovarlari bilan 1 000 tagacha yetgan; jami 5 000 tacha tuyalar bo'lgan. Mazkur raqamni, ehtimol, haqiqiy ko'rsatkichdan past deb hisoblash mumkin, boshqa ma'lumotlarga ko'ra xonlikka birgina temir 1200 ta tuyalarda olib kelinadi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Qo'qon va Qashg'ar o'rtasidagi savdo aylanmasi haqida quyidagi ma'lumotlar orqali tasavvur qilish mumkin: Qo'qonda faqatgina Qashg'arga tovarlarni yuborish bilan shug'ullanadigan va 1 500 tagacha otga ega bo'lgan izvoshlar mavjud. Agar Qashg'arda xuddi shu miqdorda ot mavjudligi hamda har bir ot, Qo'qon savdogarlarining fikricha, teskari yakunni uch marta amalga oshirsa, har bir otning yuki 8 pudga teng bo'lishi, uning qiymati esa, taxminan 50 chervonetsga teng deb faraz qilsak, Qashg'ar bilan butun savdo aylanmasining taxminiy miqdorini bir millionga teng, deb xulosa qilishimiz mumkin.

Eng asosiy buyumlarning olib chiqilishi, ayniqsa bevosita Qo'qondan buyumlarning olib chiqish hajmini quyida keltirilgan jadvaldagi raqamlar bilan taxmin qilish mumkin:

Har yili olib chiqiladi:	
707 tuyaga ortgan paxta	– 425 000
10 000 pud ipak	– 260 000
3 000 tuya ortgan «matolar»	– 600 000
Mevalar	– 35 000

Shunday qilib, Qo'qonning olib chiqish hajmi taxminan 1 500 000, savdo aylanmasining umumiy hajmi esa 5 000 000 ga teng. Shundan qariyb 3 500 000 olib kirish, taxminan 1 500 000 olib chiqish ulushiga to'g'ri keladi... [84-bet]

Л.Ф. Костенко. «Город Хива в 1873 году» («Xiva shahri 1873-yilda»)[1]

Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga yurishlarida ishtirok etgan rus harbiy mulozimi va sharqshunosi **Lev Kostenko** *tomonidan e'lon qilingan «Xiva shahri haqida»gi maqolada Xiva xonligining iqtisodiy tarixi, xususan, xonlikning Xiva shahri misolidagi savdo-sotiq holati va bozorlari xususida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, xaridorgir bo'lgan mahalliy va xorijiy tovarlar, bog'dorchilik mahsulotlari va pul birligi to'g'risidagi fikrlari qayd qilingan. Maqolaning ayrim qismlari ilk bor o'zbek tiliga tarjima qilinib, quyida yuqoy matndan parcha berilgan.*

t.f.d., prof. D.H. Ziyoyeva

...Xivadagi mustahkam binolar qatoriga karvonsaroyni ham kiritish mumkin. Ushbu bino 1823-yilda Muhammad Rahimxon tomonidan O'rta

[1] *Костенко Л.Ф.* Город Хива в 1873 году // Военный сборник. Т. 72. – 1873. –С. 235. Mazkur maqola «Turkestanskiy sbornik» tarkibiga ham kiritilgan bo'lib, matn tarjimasini tayyorlashda ushbu manbaga asoslanilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Osiyodagi shu xildagi binolarga o'xshab to'rtburchak shaklda, ya'ni kazarma shaklida qurilgan bo'lib, o'rtasida tosh yotqizilgan hovlisi ham bor. Bino tomonlarining uzunligi 50 dan 60 gacha qadamni tashkil etadi. Do'konlar ichki tarafidan ikki qavat qilib, gumbazsimon shiplari bor; ularga faqat eshik orqali yorug'lik tushadi...ushbu do'konlarda chet davlatlar bilan savdo qiladigan boyroq Xivalik savdogarlarning mollari saqlanadi.

Karvonsaroyning yonida tim joylashgan bo'lib, u toshdan qurilgan, gumbazsimon darvozali ancha katta binodir... gumbazlarning tepasida yorug'lik uchun olti burchakli va dumaloq tuynuklar mavjud. Binoning asosiy va gumbazli devorlarida o'yiqlar bo'lib, ularda yog'och shkafdan bo'lgan tokchalar yoki kichkina do'konchalar o'rnatilgan bo'lib, uyum qilib qo'yilgan mollar orasida savdogarni uchratish mumkin. Timdan arkning g'arbiy darvozasigacha kichkina bozor joylashgan bo'lib, undagi do'konchalar O'rta Osiyodagi boshqa do'konlar kabi oddiy ko'rinishda qurilgan. Bu yerda sotiladigan buyumlar timga qaraganda arzonroq [242-bet].

...Xivada ishlab chiqarish va savdo ancha kam. Xonlikning savdo-sotig'i asosan Xivadan shimoli-sharqda o'ttiz chaqirimda joylashgan Yangi Urganch shahrida mujassamlashgan. U yerda xonlikning Rossiya, Fors [Eron] va Buxoro bilan savdo qiladigan eng boy savdogarlari istiqomat qiladi. Xonlikning poytaxtida esa na katta kapitallar va na katta savdo mavjud. Shahardagi do'konlar soni uch yuztaga yetadi, ammo ulardagi mollarning miqdori juda kam; shu bilan birga, ularning aksar qismida faqat bozor kunlari – dushanba va payshanba kunlari savdo olib boriladi; boshqa kunlarda savdo juda kam miqdorda qilinadi.

Bozor va do'konlarda quyidagi savdo buyumlari uchraydi: meva, bug'doy, sholi, jo'xori, beda, non, kichik kallali besh funtli rus oq qandi, Buxoro va Rossiyadan olib kelinadigan ko'k choy, paxta va ipakdan ishlangan chet el, rus va Buxoro matolari, ko'rpa [247-bet], etik buyumlari, deyarli faqat Rossiyadan olib kelinadigan; metall va metall buyumlar, samovarlar, choynak va piyolalar. Ushbu buyumlar ro'yxatidan savdo-sotiqning ko'p uchraydiganlari bir qarashda rus jihozlari ekanligi ma'lum bo'ladi.

Ingliz buyumlaridan bu yerda faqat ikki narsa uchraydi: arzon chit va «Glazgo» tamg'asi tushirilgan doka. Mayda gullarga ega ushbu doka ayollar liboslari uchun foydalaniladi. Miqdori bo'yicha rus buyumlaridan Topchevskiy, Biryukov, Borisov va boshqa fabrikalarning, ya'ni eng oddiy va arzon chitlari ko'pchilikni tashkil etadi. Bu yerda ularning bahosi bir arshinga o'n beshdan yigirma besh kopeyekgacha bahoni tashkil etadi.

Xivada ishlab chiqilgan narsalar va mahsulotlardan e'tiborga loyig'i: Rossiyaga chiqariladigan ko'zga ko'rinarli sohalarini tashkil etadiganlardan

@tarixchi_kutubxonasiga

biri bu meva. Mevalar ichida eng ahamiyatlilari beqiyos sifati bilan mashhur bo'lgan qovundir. U juda ko'p miqdorda ekiladi va yoz oylarida aholi uchun ozuqaning deyarli yagona vositasi hisoblanadi.

Xivada qovun iyunning ikkinchi yarmida yetila boshlaydi. Ularning turli navlari bor; ularning o'rtacha qiymati besh kopeyek.

Xiva o'riklarining Toshkentnikidan farqi, uning po'sti danagidan osonlikcha ajramaydi. Bu yerda o'rik iyunning birinchi yarmida, shaftoli iyul oyining boshlarida yetiladi; xuddi shu paytda olma va uzum yetila boshlaydi. Tarvuz, anor va anjir keyinroq yetiladi.

Xiva bodringlari o'ziga xos bo'lib, ular tashqi va ichki tuzilishi bilan qovunni eslatadi.

Xiva hunarmandchilik mahsulotlaridan atlas va baxmalni ko'rsatib o'tish mumkin. Gulining ola-bulaligiga qarab oxirgisi rus ip baxmaliga o'xshaydi.

Xivaning ipak matolari Buxoronikidan ancha past, ammo paxtadan ishlangan matolari ularnikidan qolishmaydi.

Xiva bozorlarida savdo uch toifaga bo'linadi. Birinchi toifaga dushanba va payshanba kunlari bozordagi savdolashish kiradi, bunda poytaxt bozoriga shahar atrofidan ko'plab odamlar birinchi ehtiyoj buyumlarini sotib olishga yig'ilishadi. Bozor maydoni Hazorasp darvozasidan dor joylashgan qabristongacha bo'lgan joyni egallaydi. Bu yerda eng arzon va shu bilan birga [248-bet] eng muhim narsalarni ko'rasiz: sabzavot, guruch, bug'doy, jo'xori, beda, sartlarning kamtarona oshxonasini tashkil etuvchi turli xil yeguliklar, qo'y va mol go'shti, kiyim-kechak buyumlari va nihoyat, chorva. Savdolashish qo'ldan, aravadan va bostirmacha tagidan olib boriladi va muayyan savdogar mollarining miqdori rublda o'lchanadi. Savdoning ikkinchi turini yopiq do'konlar va timlardagi bozor tashkil etadi, bunda yuqorida nomlari ko'rsatilgan buyumlardan tashqari rus va umuman, xorijda ishlab chiqarilgan mollarni uchratish mumkin. Xuddi shu yerda nozik didli ehtiyojlarni qondirish mumkin va do'konchalardagi mollarning qiymati o'nlab rubl bilan o'lchanadi.

Shunchaki yuzaki qarash Xiva bozorining oddiy va kichkinaligini ko'rsatadi va shuning uchun savdo-sanoat nuqtayi nazaridan Xiva Rossiya uchun ulkan yutuq hisoblanmaydi [249-bet].

Xivada uzunlik o'lchovi sifatida rus *arshin*i va *gaz* ishlatiladi. Ko'pincha do'konlarda temir arshin o'rniga temir yarim arshin ishlatiladiki, arshindan ikki barobar kichkina o'lchov zarurligini taqozo etadi, bu ham Xiva savdo-sotig'i katta emasligini ko'rsatadi.

Og'irlikni o'lchashda mahalliy va rus tarozi toshlari ishlatiladi. Rus tarozi toshlari orasida *lot, zolotnik* va hokazolarga ajratilgan kichik toshlar ham qo'llaniladi. Ko'pincha *funt* toshlari [qadoq] o'rniga o'lchangan toshlar qo'llaniladi.

@tarixchi_kutubxonasiga

O'lchov birliklari va tarozi toshlari to'g'riligini diniy va mirshab vazifalarini o'zida mujassamlashtirgan shaxs – rais nazorat qiladi, u kun davomida vaqti-vaqti bilan qo'lida darra bilan bozor aylanib, tarozi va boshqa o'lchovlardan urib qolish holatlarini ko'rib chiqadi. Bundan tashqari, u savdolashayotganlar tamaki chekmasliklari [yoki nosvoy?] va namoz vaqtlarida uxlab qolmasliklarini kuzatib yuradi. Aybdorlarni o'zining yordamchilari bo'lmish mirshablar bilan shu yerning o'zidayoq jazolaydi.

Rossiyaning ta'sirini xivalikning do'konida tez-tez ko'zga chalinadigan va undan mohirona foydalaniladigan cho'tdan ham sezish mumkin.

Agar bularga yana ko'pchilik xivaliklarni rus tilini bilishini qo'shsak, unda Xiva tamoman buyuk Rossiya imperiyasining chekka hududini eslatgan bo'lardi.

Xivada pul birligi ruslar tomonidan qiymati yigirma kopeyekka tenglashtirilgan kumush tanga hisoblanadi. To'qqiz tanga bir tilloga teng bo'lib, u 1 rubl 80 kopeyek kumush hisobida yoki qog'oz pulda 2 rublga teng. Bundan tashqari, Xivada juft tillo ham ishlatiladi, u 18 tangaga yoki 3 rubl 80 kopeyekka teng.

Pul yoki chaqa mayda pul birligi hisoblanadi, bir tangada ularning miqdori oltmishga teng bo'lib, bir pul yoki chaqa bizning kumush kopeyekimizning uchdan biriga teng.

Xivaliklar bizning qog'oz pulimizga tez o'rganishdi va xonlikni bosib olganimizning dastlabki kunlaridanoq uni qabul qila boshlashdi.

Л.Ф. Костенко. «Город Бухара в 1870 году» («Buxoro shahri 1870-yilda»)[1]

Rus harbiy arbobi, Rossiya imperiyasi armiyasi bosh shtabi general-mayori ***Lev Feofilovich Kostenko*** *1841-yil 19-fevralda tug'ilgan. 1870-yili diplomatik aloqalar o'rnatish maqsadida Buxoro xonligiga jo'natiladi. Turkiston o'lkasini o'rganish mobaynida Oloy tog'larida o'tkazilgan ekspeditsiyalarda qatnashadi. U sayohatchilar ichida birinchilardan bo'lib Pomir tog'larida bo'ladi va bu yerlarni tavsiflaydi. Unga tegishli bir qancha harbiy sharqshunoslik va harbiy tarixga oid qimmatli ma'lumotlar bor. Uning Buxoroga 1870-yilgi sayohati haqidagi bir qancha maqolalari «Harbiy to'plam»da chop etilgan. Jumladan, «Harbiy to'plam»ning 12-sonidagi maqolasida Buxoroning tashqi ko'rinishi, hududi, binolari, aholisi, iqlimi, savdo aloqalari, harbiy holati haqida ma'lumotlar yoritiladi. Quyida ushbu asardan parcha birinchi marta o'zbek tilida berilmoqda.*

N. Shirinova

[1] *Костенко Л.Ф.* Город Бухара в 1870 году // Военный сборник. Т.12. –1870.

@tarixchi_kutubxonasiga

Buxoro shahri taxminan aylanasiga 10 chaqirim, uzunasiga esa 2 ¾ chaqirim uzunlikdagi hududga ega. Shaharni balandligi taxminan uch yarim sajen[1] bo'lgan loyli devor o'rab turadi. Devor odatdagidek tishli minoralardan iborat. Ammo devor oldida, uning katta qismida esplanadalar[2] yo'q, umuman olganda, devor Yevropa harbiylari hujumidan jiddiy himoya qila olmaydi. Devorning o'n bitta darvozasi mavjud.

Buxoro shahri butun O'rta Osiyoning poytaxti va Islom markazi hisoblansa-da, na jilvasi, na tozaligi bilan boshqa shaharlardan ajralib turmaydi. Bu shahar ham boshqa O'rta Osiyo shaharlari kabi chang va tartibsizdir. Ko'chalariga boshqa shaharlardagidek yirik toshlar yotqizilgan, ular tor, qiyshiq hamda tartibsiz joylashgan kulrang, ko'rimsiz saklyalardan[3] iborat.

Buxoroda uy-joylar qurilishining boshqa O'rta Osiyo shaharlaridan birmuncha farqi shundaki, bu shahar ko'pgina ikki qavatli xonadonlarga ega. Ammo bu uylar juda zich joylashgan, shaharda esa boshqa O'rta Osiyo shaharlari – Toshkent, Xo'jand, Qo'qon va Samarqandda uchrovchi yagona, ko'zni quvontiruvchi va maftun qiluvchi joy hisoblangan bog'lar juda kam.

Tarqalgan ma'lumotlarga ko'ra Buxoroda 15 mingta uy borligi aniqlandi. Har bir uyda 5 tadan jon boshi deb taxmin qilsak, Buxoroning aholisi 75 ming jon deb ayta olamiz. Shu tarzda Buxoro aholisi Toshkent shahri bilan teng bo'ladi, lekin shahar unga qaraganda ancha torroq.

Buxoro tashqi qiyofasining o'ziga xosligi shundaki, shahar ichida juda ko'p qabristonlar joylashgan. Qabristonlar va aholi yashaydigan uylar aralashib ketgan...

Buxoro muqaddas shahar hisoblangani uchun bu yerdagi tuproq ham muqaddas hisoblanadi, shuning uchun ko'pgina musulmonlar ushbu muqaddas yerga ko'milishni orzu qiladilar. Ammo shaharda joy kam, marhumlar soni esa doimo oshib boradi, shuning uchun buxoroliklarning jasadini avvalgi eski qabrlarning ustiga pog'ona qilib qo'yishga majbur bo'lishadi.

Buxoroning ikkinchi o'ziga xos jihati, masjidlarning ko'pligidadir. Ularning soni, buxoroliklarning ta'kidlashlaricha, bir yildagi kunlar soniga teng. Masjidlar ko'pincha madrasalar ichida qurilgan. Madrasalar soni 140 tacha. Masjidlar xuddi madrasalar kabi o'ziga katta e'tiborni tortmaydi. Ularning ichida eng yaxshilari albatta qadimda barpo etilganlaridir, ammo bu yerdagi qadimiy yodgorliklar Samarqanddagilar bilan tenglasha olmaydi. Buxoro masjid va madrasalari og'ir, kazarma ko'rinishiga ega, ammo ular shunday mahobati bilan ham atrofdagilarni hayratda qoldira olmaydi.

---

[1] *Sajen* — qadimiy rus o'lchov birligi. 1 sajen = 7 ingliz futi = 84 dyuym = 2,1336 metr.

[2] *Esplanada* – qal'a bilan shahar o'rtasidagi yalanglik.

[3] *Saklya* – Kavkazda tog'liklar uyi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Eng yaxshi masjidlar har juma amir tashrif buyuruvchi «Kalon» va unga qarama-qarshi joylashgan «Mir Arab» masjidlari hisoblanadi...

Ba'zi bir masjid va madrasalarga laylak inlari bilan toj kiydirilgan. Bu «in egalari» o'z meroslarini uzluksiz tarzda avloddan avlodga o'tkazib kelishmoqda.

Madrasalar nafaqat Osiyoning turli nuqtalari [Eron, Afg'oniston, Hindiston]dan, balki Rossiya shaharlaridan ham oqib keluvchi o'quvchilar bilan to'la. O'quvchilar Qur'on o'qish va uni sharhlashdagi barcha islomiy ilmlarni o'ziga singdirib, mulla bo'lib qaytishadi. Shu tarzda Buxoro shahri musulmon olamida katoliklar dunyosidagi Rim rolini ijro etadi.

Aytib o'tganimizdek, Buxoroda diniy kishilar guruhi ko'pchilikni tashkil etsa, savdo bilan shug'ullanuvchi shaxslar ulardan ham ortadi. Buxoro xalqi savdo-sotiq bo'yicha ham ustunlikka ega. Karvon yo'llarining markazida joylashib, Sharq va G'arb, ya'ni Osiyo va Yevropani bog'lab turuvchi Buxoro qadimdan o'ziga manfaatli ombor yaratib olgan. Shu jihatdan savdogarlar mullalarga qaraganda uzoqroq joylarga kirib borishadi...

Shuningdek, Buxoro o'zining bozorlari bilan shuhrat qozongan. Bozordagi imoratlar hamda joylar toshlardan qurilgan. Shunga qaramay, undagi rastalar juda ixcham bo'lib, ko'proq toshli qopchalarni eslatadi. Haqiqiy Yevropa rastalariga umuman o'xshamaydi. Bunday rastalardagi mahsulotlar sonining kamligi Buxoro savdogarchiligi to'g'risidagi qarashlarni anglashni qiyinlashtiradi; ammo bunga qarab butun savdo sohasi haqida xulosa chiqarish xato bo'ladi: rasta oldida bitta chakana savdo qiluvchi shaxs o'tiradi. U shaxs mollari karvonsaroy deb nomlangan omborxonalarda saqlanuvchi yirik savdogarlardan mahsulotlarni olib, kredit shaklida savdo qiladi.

Buxoroda 50 dan ortiq karvonsaroylar bor, deb ta'kidlanadi. Ular o'zining qurilishidagi mustahkamligi va ko'rkamligi bilan boshqa O'rta Osiyo shaharlaridan ajralib turadi. Har bir millat o'zining karvonsaroylariga ega. Masalan, Rossiyadan kelgan rus savdogarlari o'zlarining mahsulotlarini 1 500 tuyani sig'dira oladigan Olim saroyga, rus tatarlari esa 2 000 ta tuyaga mo'ljallangan Nog'ay saroyga, afg'onlar esa o'zlari uchun mo'ljallangan yana boshqa saroyga joylashtirishadi.

Bu saroylarda ulgurji savdo ham amalga oshiriladi va shu yerning o'zida o'zaro savdo bojlari, ya'ni musulmon va ruslardan 2,5 foiz qiymatidagi va musulmon bo'lmaganlardan 5 foiz zakot olinadi.

Buxorodagi jamoat binolariga barcha musulmon shaharlarida zaruriyat hisoblangan hammomlarni misol qilsak bo'ladi. Buxoroda hammomlar soni 20 tani tashkil etadi. Aholi tong otishdan oldin musulmonlarni ertalabki tahoratni bajarish uchun hammomga chaqiruvchi nayning uzun va mung-

@tarixchi_kitobxonasiga

li ovozidan uyg'onishadi. Kechki payt xuddi shunday ovoz bilan ayollar chaqiriladi.

Jamoat hovuzlari Buxoroning g'ururidir. Ularning soni 80 taga yetadi. Hovuzlar o'zining katta hajmi va yaxshi jihozlangani bilan boshqa O'rta Osiyo shaharlaridagi hovuzlardan ajralib turadi. Ular, ko'p hollarda toshlar bilan yaxshi o'ralgan va ularning atrofida daraxtlar soya solib turgan.

Ularning ichida eng yaxshisi «Devonbegi» [Labi hovuz devonbegi] hovuzidir. Hovuz atrofida, daraxtlar soyasida samovarlari doimo qaynab turadigan choyxonalar bo'lib, ular juda ko'p kishilarni o'ziga qabul qiladi. Choyxonadan tashqari, shu yerning o'zida shiyponli bo'yralar joylashgan. Ularda mevalar, non va boshqa Osiyo oshxonasining turli xil oziq-ovqat mahsulotlari sotiladi. Bu yerda odamlar oqimi ertalabdan kechgacha to'xtamaydi. Bu yer Buxoroning eng gavjum va ko'rkam joyi hisoblanadi.

Hovuzlarga suv Zarafshon boshlanishidan keluvchi bosh kanal bo'lmish «Shahrud» orqali to'ldiriladi. Shahrud Buxoroga sharq tarafdan kirib, g'arb tarafdan chiqib ketadi. Doimo balchiqli sho'r suv tubidan oqib o'tib turgani uchun Shahrud suvi xiralashadi. So'ng hovuzga tushgan paytida, faqat ikki haftadan so'nggina tinadi. Bu vaqtning ichida suv shunday ifloslanadi va buziladiki, ulardan foydalangan aholi turli kasalliklar bilan xastalanadi.

...Rus fabrika egalari Buxoro uchun mo'ljallangan tovarlarni osiyoliklar didi va ehtiyojini hisobga olgan holda, o'zgacha tarzda tayyorlashga harakat qilishadi. Masalan, shakar mahsulotini oladigan bo'lsak, u osiyoliklarni sovg'a qilish ehtiyojlarini inobatga olib, qayta ishlanmagan holda mayda bo'laklarga bo'linib, besh funtdan qadoqlanib jo'natiladi; chitlar imkon darajasida guldor va yorqin naqshli qilib ishlanadi; sandiqlar albatta bo'yoq bilan bo'yalib, usti tunuka bilan qoplanadi va ovozli qulflar o'rnatiladi. Shuningdek, Buxoro savdogarlari Rossiyadan mahsulotlarning ko'p qismini ayirboshlash yo'li bilan olib kelishadi. Buxoroliklar quyi shahar ko'rgazmasiga o'zlarining xomashyolarini, paxta, ipak, ro'yon, darmana urug'i, rovoch va boshqa mahsulotlarni olib kelishgan. Bu yerda ular bu narsalarni rus mahsulotlariga almashtirganlar va uylariga olib borib, uni pulga almashtirganlar. Osiyo savdogarlari ruslar kabi katta foyda izlamaydilar: ular faqatgina zarur narsalarnigina olishadi, chunki ular hashamatli hayot haqida tasavvurga ham ega emas edilar.

Buxoroda ingliz tovarlari ruslarnikiga qaraganda kamroq. Aslida Hindiston aholisi musulmonlari uchun mo'ljallangan bu tovarlar shaharga Qobul orqali kirib keladi. Buxoroga olib kelinuvchi ingliz mahsulotlariga quyidagilar kiradi:

1. Doka – o'zining sifati va arzonligi bilan ruslarnikidan afzal turadi.

@tarixchi_kutubxonasiga

2. Choyning turli navlari – ular Hindistonning shimoliy viloyatlaridan keltiriladi.

3. Kolenkor [qalin surp] – bu surp Rossiyanikidan ancha arzon bo'lishiga qaramay, sifati ancha yaxshi.

4. Bo'rtma – gul shaklidagi mayda g'ubbali gazlama turi. Ammo bu mato osiyoliklarni didiga to'g'ri kelmagan, shuning uchun bozorda qiyin sotilgan.

5. Alvon – ruslarning qizil matosiga o'xshash gazlama.

6. Parcha – bayram liboslari, sallalar, belbog', bir so'z bilan aytganda, eng nozik liboslar uchun ishlatiladigan mato. Bu mato ruslarniki bilan tenglashadi va bu yerda *Mo'ltoniy* deb nomlanadi. Chunki Hindiston va Afg'oniston uchun Mo'ltonda ishlab chiqariladi.

...Ekin mahsulotlari ichida paxta Buxoroning boyligi va g'ururi hisoblanadi. Buxoro paxtasi so'zsiz Xiva va Toshkent paxtasidan yaxshidir. Shuningdek, tolasining nozikligi va oppoqligi bilan Xiva paxtasidan afzal ko'riladi. Buxoroda yetishtirilayotgan paxtaning soni yildan yilga ortib bormoqda, bu esa uning Rossiyaga eksporti bilan izohlanadi.

Buxoroning yana bir boyligi bu – ipakdir. Bu mahsulot hali paxtachalik keng taraqqiy etmagan bo'lsa-da, lekin yaqin orada uni yorqin kelajak kutmoqda...

С. Абдулгаффаров. «Краткий очерк внутреннего состояния Кокандского ханства перед завоеванием его Россией» («Rossiya istilosi arafasida Qo'qon xonligining ichki ahvoli haqida qisqacha ocherk»)

Sattorxon Abdulg'afforov 1843-yilda Chimkent shahrida yirik mudarris oilasida tug'ilgan. Toshkentdagi «Shukurxon» madrasasida tahsil olgan. Chimkent, Qo'qon shaharlarida muftiy, qozi bo'lib faoliyat yuritgan. Shuningdek, rus tilini mukammal o'rgangan. O'qituvchilar seminariyasida arab, fors tillaridan dars bergan. «Turkiston viloyatining gazeti»da tarjimon bo'lib ishlagan. O'z faoliyati davomida ma'rifatparvarlik g'oyalarini keng targ'ib qilib, bilimsizlik, diniy mutaassiblikka qarshi chiqib, shariatda ko'rsatilmagan, bid'at va xurofotlar, ayniqsa tariqatchilar faoliyatini tanqid qilgan. Uning «Rossiya istilosiga qadar Qo'qon xonligining ichki ahvoli haqida qisqacha ocherk» nomli risolasi matbuotning bir necha sonlarida chop etilgan bo'lib, quyida ushbu risoladan qisqa parchalar keltiriladi.

N.Q. Rahimjonova.

@tarixchi_kutubxonasiga

III. Xalq ta'limi[1]

Mahalliy aholi boshlang'ich ta'limni maktabxonada, oliy ta'limni esa madrasada olgan. Maktabxonalar barcha aholi yashash joylarida bo'lgan. Qishloq va shaharlarda, ko'pincha masjid qoshida hujra deb nomlangan joylarda maktablar tashkil qilingan. Madrasalar esa shaharlarda bo'lgan. Maktab ta'limi davlat tomonidan nazoratga olinmagan. Hukumat bunga aralashmagan. O'qituvchilar jamoat va o'z o'quvchilari nazoratida bo'lganlar. Agar o'qituvchi yaxshi ta'lim bera olmasa, uning o'quvchilari ham, shunga yarasha xizmat haqi ham kam bo'lgan, chunki o'qituvchilar o'z o'quvchilarining ota-onalaridan haq olganlar. Undan tashqari, mudarrislar madrasalarda talabalar ko'p bo'lsa, vaqfdan ham daromad olar edilar. Vaqfli madrasalarda mudarrislar xon yoki bek tomonidan tayinlangan. Masalan, madrasaga xon tomonidan mudarris tayinlanganligi haqidagi quyidagi yorliqda:

«Ma'lum bo'lsinkim, aziz sayyidlardan, poytaxt Qo'qonning muhim qozilaridan hurmatli olim-u ulamo Mulla Muhammad Sodiqni Muhammad Alixon madrasasiga mudarris etib tayinlansin. Madrasa talabalari ilm olish maqsadida unga mudarris deb murojaat qilsinlar.

1259-h. y [1843]. Xudoyorxon muhri.
[Muhrga «An-najatu fis-siqi»
(«Najot to'g'rilikdadir») deb yozilgan]».

Har bir olim, ulamo xon yoki bekdan tashqari, vaqf daromadlaridan foydalanmagan holda, o'z uyida yoki madrasa hujrasida, masjid qoshida darsxona ochishi mumkin edi. O'qish yoshi chegaralanmagan, ammo shariatga ko'ra 7 yoshdan bolalarni maktabga berish belgilangan edi.

Hukumat yaxshi bilim beradigan o'qituvchi, mudarrislarni rag'batlantirgan. Bir vaqtning o'zida ularni o'z vazifalaridan tashqari qozi, rais, muftiy lavozimlarida ishlashga taklif qilgan. Maktabxonalarda turkiycha, forscha, arabcha o'qish va yozish o'rgatilgan. Ammo shu tilning grammatikasi o'qitilmagan. Ba'zilar maktab ta'limi bilan chegaralangan, ba'zilar ta'limni davom ettirib, madrasada o'qiganlar. Madrasa ta'limi qat'iy belgilanmagan. Iqtidorga qarab o'qishni tez o'zlashtirgan. Madrasalarda arab, fors tillaridan tashqari mantiq, shariat, islom huquqshunosligi, ilohiyotdan ta'lim berilgan. Katta auditoriyaga ega mudarrislar kun bo'yi 8 soatgacha dars o'tganlar. Hatto, ba'zan ularning kundalik ibodatni bajarishga vaqtlari bo'lmagan. Madrasada o'quv kunlari haftasiga 4 kun bo'lgan. Mudarrislar

[1] *Абдулгаффаров С.* Краткий очерк внутреннего состояния Кокандского ханства перед завоеванием его Россией // Туркестанские ведомости, № 36. – 1892 г.

@tarixchi_kutubxonasiga

4 kun madrasada istiqomat qilganlar. Qolgan kunlari esa o'z uylarida bo'lganlar. Mudarris darsda talabalar orasidan ular o'zlari tanlagan «qori»ga tanlangan adabiyotdan matn bergan, u esa talabalarga o'qib bergan. Talabalar o'z xohishlari bilan darsda faol ishtirok etganlar. Ya'ni, ulardan mudarris o'tgan dars haqida yoki uyga vazifani so'rab o'tirmagan. Bitta dars davomiyligi bir soatdan ikki soatgacha cho'zilgan. Yuqori bosqich talabalarigina ilohiyotdan darslar olganlar. Odatda, darslar yangi kelgan talabalarga turkiy tilda, katta kurs talabalariga fors tilida olib borilgan. Darslar bir-biriga bog'langan holda tanaffussiz, guruhlarga bo'linib o'tilgan. Yangi talabalar darsni tugatib, xonani tark etgach, yuqori bosqich talabalariga dars o'tilgan. Talabalar bir-birlarini nazorat qilib kuzatganlar. Undan tashqari, xon yoki bek tunda madrasalarga kelib, talabalarning holatini ko'rib, nazorat qilgan. Madrasani bitirgan talabaga hech qanday rasmiy guvohnoma yoki hujjat berilmagan.

Madrasani bitirgan talaba xon yoki bekka ish so'rab murojaat qilgan va xon yoki bek uning arizasi asosida ulamolar ishtirokida ilmiy munozara uyushtirib, imtihon qilgan.

Qozi, muftiy, a'lam, rais va qisman imomlar oliy ma'lumotli bo'lishi majburiy hisoblangan. Qolgan kasb egalari uchun maktab, madrasada o'qish talab etilmagan.

Umumiy kutubxonalar bo'lmagan. Kitoblar xonadonlarda jamlanib, xususiy kutubxonalargina mavjud bo'lgan. Hamma kitoblar qo'lyozma bo'lib, faqatgina Qur'onning Qozon toshbosma nusxalari bo'lgan. O'lkada tipografiya bo'lmagan. Xonlikning so'nggi davrida Hindiston va Konstantinopoldan toshbosma kitoblar olib kelingan. Qo'lyozma va toshbosma kitoblar nodir va qimmatbaho hisoblangan. Masalan, arab tiliga oid grammatika kitobi 6 rubl bo'lgan. Barcha darsliklar arab tilida, asarlarning ko'p qismi fors tilida, mahalliy turkiy tildagi adabiyotlar esa kam bo'lgan. Mahalliy ziyoli, olim-u ulamolarning bir-birlariga yozishmalari ham, barcha hujjatlar ham fors tilida yozilgan, mustasno holatlar kamdan kam uchragan. Mahalliy turkiy tilning o'z grammatikasi bo'lmagan, fors tili ham grammatikasiz o'rgatilgan. Ammo, shunga qaramasdan, Buxoro ilm berish bo'yicha yetakchilik qilgan. Mahalliy Qo'qon qog'ozlaridan foydalanilgan. Hindistondan keltirilgan maxsus qamishlardan qalam tayyorlangan. Ba'zi mahalliy olim va ulamolar Arabiston va Konstantinopolga ko'chib o'tib, u yerlarda mudarrislik qilganlar. Xususan, turkistonlik Yo'ldoshxo'ja Madinada arab tilidan dars bergan. Bir buxorolik qozining o'g'li Konstantinopolda kitoblar senzurasida mas'ul shaxs bo'lib faoliyat yuritgan. Mahalliy olimlar arab adabiy tilini arablarning o'zlaridan ham yaxshi bilgan. Arab tilidagi yuridik to'plamlar, asarlar, qo'llanmalar mahalliy olimlar

@tarixchi_kutubxonasiga

tomonidan yozilgan. Masalan: «Hidoya ulum-Fiqhiya» asari marg'ilonlik tomonidan yozilib, butun musulmon olamiga tarqalgan. Bu kitob ingliz tiliga Gamilton tomonidan tarjima qilingan. Hozirgi vaqtda Sirdaryo harbiy gubernatori general Grodekov tomonidan rus tiliga tarjima qilinmoqda.

Xonlikda to'liq so'z erkinligi mavjud bo'lib, dinga qarshi bo'lmagan barcha mavzuda ijod qilish mumkin. San'at, musiqa, qo'shiqchilik, rassomchilik kabi fanlar madrasalarda o'qitilmagan, ular hatto taqiqlangan. Chunki ular taraqqiyotning eng past darajasi hisoblangan.

Xudoyorxon davrida ziyoli olim-u ulamolarning mashhurlari quyidagilar: To'ra Domulla shayx-ul islom, Muhammad Sodiq qozikalon va Domulla Qosimcha.

IV. *Sud*[1]

Shariat sudlarida qozi, muftiy, a'lamlar faoliyat yuritgan. Ular faoliyatini nazorat qiluvchi oliy instansiya xonning o'zi bo'lib, shariatga ko'ra «adolat peshvosi» hisoblanar edi. Agarda qozi ustidan shikoyat bo'lsa, hukmdorga murojaat qilgan. Da'vogar haq bo'lsa, xon qoziga tanbeh bergan yoki qattiqroq jazolagan. Masalan, Mirmansur qozining adolatsiz hukmi uchun Xudoyorxon uning soqolini yulishga amr bergan va shu holatda xalq orasida namoyish qilingan. Natijada xalq uning adolatsiz faoliyati uchun «soqoli yulingan qozi» deb nomlagan. Qozi, a'lam, muftiylar xon tarafidan tayinlangan va ularga maxsus yorliqlar taqdim etilgan. Quyida yorliqlardan birini havola etamiz:

«Ma'lum qilamizkim, Chust viloyatining olim-u ulamolari katta-kichik ahliga, Chustga qozikalon qilib Domulla Muhammad Sodiq tayinlangan edi. Bir sababga ko'ra uni almashtiramiz, xususan, uning o'rniga Domulla Mirxo'jani tayinlaymiz. Shuning uchun barcha ulamo-yu olimlar va raiyat uni hurmat qilishi va tayinlangan qozilar shariat chegaralaridan chiqmasligi buyuriladi.

1259-h. y. Xudoyorxon muhri.
(Muhrga «An-najatu fis-sitqi» [«Najot to'g'rilikdadir»] deb yozilgan).

Xonlar davrida shariat bo'yicha muftiy lavozimiga oliy ma'lumotli shaxslar tayinlangan. Katta shaharlarga muftiylar ko'proq, kichik shaharga esa kamroq tayinlangan. Muftiyning majburiyati da'vogarning arzini, iltimosini

[1] *Абдулгафаров С.* Краткий очерк внутреннего состояния Кокандского ханства перед завоеванием его Россией // Туркестанские ведомости. № 61. – 1892 г.

@tarixchi_kutubxonasiga

yozib olish, uning da'vosi shariat bo'yicha qoniqtiriladimi yoki yo'q, ko'rib chiqish, yozib olingan da'volarga o'z muhrini bosishdan iborat. Muftiydan tashqari hech kim da'vogardan da'voni yozib olishga haqqi yo'q. Biror-bir ish ko'rib chiqilayotgan ko'pchilik hollarda muftiy qozi yonida shahrda istiqomat qilgan. Da'vogar arzlarini qozi bilan birgalikda ko'rib, javob topib, shubhali holatlarni, muammolarni muhokama qilganlar. Qozi muftiyning fikrini eshitgandan so'ng o'z qarorini chiqargan. Qozi sud vaqtida 2 ta da'vogardan bittasini himoya qilishdan qo'rqqan, chunki xon yoki hukmdor uni jazolashi mumkin edi.

Bu davrda «Hidoya», «Qozixona», «Xulosa», «Radul-Muxtor», «Taxtaviy», «Jamiur-Ramuz», «Olamgiriya» va boshqa ko'plab islom huquqshunosligiga oid adabiyotlardan foydalanilgan.

Hijriy 1281 [1864/1865]-yilda Toshkent qozikaloni etib tayinlangan Hakimxo'ja Eshon eng mashhur qozilardan biri bo'lib, hozirgi kunda, afsuski, u kabi adolatparvar, shariatni yaxshi biluvchi qozilar yo'q.

O'lim jazosi faqatgina shaxsan xonning buyrug'i asosida, Toshkentda esa hokim tomonidan amalga oshirilgan.

Qozilarning adolatli qaror chiqaruvchi faoliyatini nazorat qilish xon yoki bekning asosiy vazifalaridan biri hisoblangan. Ular faoliyatini nazorat qilish juda ham sodda va oddiy bo'lib, 4 sharoitda amalga oshirilgan:

1) o'sha davrning sodda odatlari;

2) poytaxt va katta shaharlardagi qozilik sudlarining markazlashuvi;

3) qozilar faoliyatida yasovullarning ishtirok etishi [xon, bek tayinlagan shaxs];

4) o'ta muhim bo'lgan da'vo ishlarida xon yoki bekning shaxsan ishtiroki.

A.Л. Кун. «Культурный оазис Кокандского ханства» («Xiva xonligining madaniy vohasi»)

Turkiston general-gubernatori K. Kaufman boshchiligida Xiva xonligini zabt etish jarayonida rus qo'shini tarkibida ishtirok etgan sharqshunos olim ***Aleksandr Kun*** *Xiva xonligi shaharlari tarixi va ularning o'sha davrdagi holati haqida to'plagan ma'lumotlarini «Turkestanskiye vedomosti» gazetasining 1874-yilgi qator sonlari sahifalarida e'lon qilgan. U mazkur ma'lumotlarni to'plashda shaxsan o'zi ishtirok etgani holda xonlik yirik shaharlariga sayohat qiladi. Sayohati davomida har bir shaharning bunyod etilish tarixi, qal'a devori bilan o'ralganlik darajasi, bozorlari va do'konlari soni, masjid, maktab va madrasa kabi diniy va madaniy muassasalari hamda aholisining etnik tarkibi haqidagi ma'lumotlarni qayd etadi. Quyida*

@tarixchi_kutubxonasiga

Aleksandr Kun tomonidan ushbu gazetada chop etilgan rus tilidagi matnlarning o'zbek tilidagi tarjimasi ilk bora havola qilinyapti.

t.f.n. Q.K. Yaqubov

Hazorasp shahri[1]. Xiva xonligida eng mustahkam qal'alar quyidagilardir: sharqda Hazorasp, janubda Xiva, g'arbda Toshhovuz, shimolda Xonqa. Bundan tashqari, Hazorasp Xiva vohasining eng qadimiy shaharlaridan hisoblanadi. Eramizning X asr arab geograflari «eng mustahkam qal'a» deb gapirishgan. Bir necha asrdan keyin u xarobaga aylangach, uning o'rnida Muhammad Niyoz Inoq tomonidan yangi qal'a barpo etilgan; hozir ushbu qal'aning yoshi 100 yil atrofida, deb hisoblanadi. Muhammad Aminxon davrida Ibrohim Devonbegi uning atrofini devor bilan o'rab oldi; shunday qilib, ko'hna qal'a shahriston vazifasini o'taydi va uni yangi qo'rg'on deb atashadi. Yangi qal'aning janubiy qismi shahristonga tegib turadi. Qal'aning bu qismida bozor joylashgan bo'lib, u qal'a darvozasidan oldinga chiqib turadi. Shahristonda hali ham Hazoraspning hokimi Inoqning arki joylashgan. Saroy koshinlar bilan [asosiy mehmonxona] bezalgan. U bundan 48 yil oldin Rahmonqulixonning buyrug'iga binoan qurilgan. Ushbu imoratning qurilishiga ustalar Buxorodan olib kelingan. Hazorasp shahri va qal'asi Amudaryodan chiqadigan Juvorxos kanalida joylashgan. Hazorasp okrugi 15 manzilgohdan iborat. Har manzilgohning o'z mirobi[2] bor. Shaharda 8 masjid, shuncha madrasa va 400 ga yaqin do'kon mavjud. Shahar aholisi sart, eroniy va o'zbeklardan tashkil topgan. Hazorasp, Pitnak va Sho'raxon shaharlari yon-atrofidagi qishloqlari bilan hokimiyat tepasiga kelgan hozirgi Qo'ng'irotlar sulolasi vakillari tomonidan inoqlar boshqaruviga topshirilgan bo'lib, inoqlar «solg'it» solig'idan tashqari, viloyatning barcha daromadlaridan foydalanishadi.

G'azovotdan Toshhovuzgacha[3]. Ertasi kuni kechga yaqin biz Toshhovuzga yetib keldik. Toshhovuz Shohobod kanalining o'ng qirg'og'ida joylashgan. Shahar hokim joylashgan shahriston va devor bilan o'rab olingan shahardan iborat.

Shahar tashqarisida imoratlar yo'q. Ustyurtdan kelayotgan ruslarning xabari yetib kelgach, [o'tgan yili bahorda] shaharning hozirgi hokimi Yaqubbek tomonidan Toshhovuzning devorlari qayta qurilib, mus-

[1] *Кун А.Л.* Город Хазорасп. Культурный оазис Хивинского ханства // Туркестанские ведомости. № 2. – 1874.

[2] Qal'a tashqarisining janubi-sharqiy va g'arbiy tomonlari shahar bozori bilan tutashib ketgan.

[3] *Кун А.Л.* От Газавата до Ташауза. Культурный оазис Хивинского ханства // Туркестанские ведомости. № 3. – 1874.

@tarixchi_kutubxonasiga

tahkamlandi. Shaharliklarning aytishiga ko'ra, shahar Olloqulixon tomonidan qurilgan. Yangi qurilgan qal'aga Toshhovuz nomi berilishining sababi, oldingi davrda yangi qurilgan qal'a o'rnida tosh bilan o'rab olingan hovuz bo'lgan. Ushbu joyda qal'a qurgan Olloqulixon shaharni va yon-atroflariga qisman xurosonlik eroniylarni, qisman xivalik tojiklarni ko'chirib olib borgan. Toshhovuz xuddi Hazorasp kabi Xivaning eng mustahkam qal'alaridan hisoblanadi. Toshhovuz arkidagi Olloqulixon saroyi xaroba holatida; uning bir qismini hozirgi xon tomonidan tashrif buyurishi uchun qayta ta'mirlangan, ammo uni yaxshi bezalgan deb bo'lmaydi. Shaharning uchta darvozasi bor: janubiy, sharqiy va saroyniki, 300 ga yaqin do'kon va ustaxona, bir karvonsaroy, 6 masjid, yana shuncha maktab va bir madrasa bor. Aholining aksar qismi eroniylardan iborat, keyin o'n to'rt urug' nomli o'zbeklar. Shahar va okrugning asosiy savdosi g'alladir. Shaharga tegib turgan qishloq uylarida asosan eroniylar istiqomat qilishadi. Toshhovuzda 400 ga yaqin uy mavjud. Har chorshanba va shanba kunlari bozor bo'ladi.

Toshhovuzdan Ilyoligacha[1]. Ilyoli qal'achasi ancha vayronaga aylangan. Qal'a devorlari ichida biz ancha xarobalarni ko'rdik. Ilyoli G'azovot singari mudofaa vazifasini o'taydi. Qal'a bundan sakkiz yil oldin hozirgi hokim Abdulla mahram tomonidan qayta qurilgan. Qal'aning o'rtasida Muhammad Rahimqulixon tomonidan qurilgan sobiq shahristonning xarobalari joylashgan. Ushbu xarobalar oralig'ida 100 ta do'konga ega bozor joylashgan. Ilyolida savdo-sotiq haftada ikki marta: dushanba va payshanba kunlari o'tkaziladi. Savdoning asosini yon-atrofda yashovchi turkmanlar olib keladigan g'alla tashkil etadi. Hozirda shaharda 160 uy mavjud. Ilyolining aholisi aralash – o'zbek, sart, eroniy va yovmut turkmanlarining chandir urug'idan iborat. Shahar nomi shu yerda dafn qilingan va turkmanlar Jingaldi deb atashadigan avliyo Hazrat Biloliy nomidan olingandir.

Ilyolidan Ko'hna Urganchgacha. Ko'hna Urganch hozirda kichkina qishloqcha bo'lib, Eski shaharning shimoli-sharqiy qismida Amudaryoning eski o'zanining o'ng tarafida joylashgan. Unda 350 uy, bozorcha, 100 ga yaqin do'koncha, oltita masjid va ikki maktab bor. Boshqa Osiyo shaharlari kabi u ham devor bilan o'rab olingan va uchta darvozasi bor. Hozirgi Ko'hna Urganchga deyarli yaqinda, o'n olti yil oldin odamlar ko'chib keltirilgan.

Ko'hna Urganchdan Xo'jayligacha[2]. Xo'jayli shahri So'yanli kanalining Amudaryoga quyiladigan qismida joylashgan. Daryodan ikki verst uzoq.

[1] *Кун А.Л.* От Ташауза до Ильялы. Культурный оазис Хивинского ханства // Туркестанские ведомости. № 6. – 1874.

[2] *Кун А.Л.* От Ходжейли до Кунграда. Культурный оазис Хивинского ханства.// Туркестанские ведомости. № 6. – 1874.

@tarixchi_kutubxonasiga

Shahar bog'lar bilan o'rab olingan va qal'a devorlarga ega emas. So'yanli kanali shaharni ikki qismga ajratib turadi. Shahardagi uylarning hashamatliligi aholining boyligidan dalolat berib turadi, do'konlari ko'p, yopiq bozori bor. Xo'jayli nomining ma'nosi «xo'jalar eli»ni bildiradi. Haqiqatan ham shahar xo'jalar, ya'ni Said Ota avlodlari tomonidan egallab olingan. O'zlarining ushbu ajdodlari orqali xo'jayliliklar Turkiston [shahri] xo'jalari bilan qarindoshdirlar.

Shaharda 300 ga yaqin do'kon va ustaxonalar, besh masjid, shuncha maktab, bir dona madrasa va bir dona savdogarlar uchun karvonsaroy mavjud. Xo'jaylining Amudaryoda joylashganligi uni baliqchilik sanoatini rivojlantirdi. Baliq ovlashning ibtidoiy uslublariga qaramasdan, har yili Xo'jayli Qo'ng'irot va atrofdagi joylardan Buxoro xonligiga 50 dan 200 gacha quritilgan baliq, asosan sazan va laqqa baliq jo'natadi.

Xo'jaylidan Qo'ng'irotgacha. Qo'ng'irot Xiva vohasining ko'hna shaharlaridan biri. Tub aholi vakillariga ko'ra, bundan ikki yuz yil oldin qo'ng'irotlarning yo'lboshchisi [qoraqalpoqlarning bir urug'i]Muhammad Nazarbiy boshqa qoraqalpoq urug'larini o'ziga bo'ysundirib, avliyo Said Ota maqbarasi yonida kichkina qal'a qurgan va shu yerda uning qarindoshlari o'troqlashgan. Muhammad Nazarbiyning o'g'li Xo'jamurodbiy o'zining amakisidan keyin qo'ng'irotlarning xoni etib tayinlangandan keyin qal'ani hozirgi joyiga, ya'ni Amudaryoning o'ng qirg'og'iga ko'chirgan. Qo'ng'irot bozorida baliq, guruch va arpa mo'l. Bozorda 1–2 pud og'irlikdagi bakra balig'i 20–40 kumush kopeyekka sotiladi. Oxirgi hodisalargacha [1873-yilgi bosqin bo'lsa kerak] Qo'ng'irotda 300 ga yaqin uy, 120 tacha do'kon va ustaxona, ikki masjid va shuncha maktab mavjud edi. Shahar aholisi asosan qoraqalpoq, qirg'iz [qozoq]lardan iborat, o'zbeklar kamchilikni tashkil etadi.

Qo'ng'irotdan Chimboygacha[1]. Chimboy Xo'jaylidan keyin ko'chmanchilar – Amudaryoning o'ng qirg'og'i va deltasi qirg'iz va qoraqalpoqlari uchun ikkinchi markaziy bozor hisoblangan. Aholisi kam bo'lsa ham, 300 ga yaqin uy mavjud, savdo yaxshi yuritiladi. Shaharda doimiy savdogarlarning 150 ta do'koni va bir nechta ustaxonasi bor, bozor kunlari 400 ga yaqin odam keladi. Shaharni Kegli kanali yorib o'tadi. Bozor kunlari, ya'ni chorshanba va dushanba kunlari savdo qayiqlarda ham olib boriladi, unda Xo'jayli, Urganch va boshqa joylardan paxta, baliq va qizil mol (?) sotiladi. Chimboyda uchta masjid va bitta maktab bor. Chimboyda asosan qizil baliq, jo'xori va don sotiladi.

[1] *Кун А.Л.* От Кунграда до Чимбая. Культурный оазис Хивинского ханства // Туркестанские ведомости. № 9. – 1874.

@tarixchikutubxonasiga

Chimboydan Rahmonberdibiy bozorgacha[1]. Nukus Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan kichkina qal'a hisoblanadi. Oldingi paytda ham Nukus o'ng qirg'oqda bo'lgan, ammo oqimdan 20 verst pastroqda joylashgan. Eski qal'achani suv yuvib ketgan deyishadi. Madaminxonning [Muhammad Aminxon] buyrug'iga binoan aholiga yangi joy ajratilgan. Hozirda qal'adan bir parcha devor saqlanib qolgan. Nukusda nukus urug'idan bo'lgan o'zbeklar 200 uyda istiqomat qilishadi. Aholi baliqchilik va don ekish bilan shug'ullanadi.

Qipchoq shaharchasi daryo ichiga kirib ketgan tilda joylashgan. Shaharning qipchoq urug'idan bo'lgan o'zbeklari chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanishadi. Ularning yerlari daryoning ikki qirg'og'i bo'ylab cho'zilib ketgan, hovli-joylarining deyarli hammasi chap qirg'oqda joylashgan. Shahar ikkita istehkomdan iborat: Muhammad Rahimxon davrida qurilgan eski qal'a va uning yonida yovmutlardan himoya qilish uchun qurilgan yangi qal'a mavjud. Yangi qal'ada hech kim yashamaydi, aksariyat aholi eski qal'ada istiqomat qiladi. Shaharda 10 do'kon va ustaxona, 120 uy-joy, 1 masjid va 1 maktab bor. Shanba va juma bozor kunlari hisoblanadi.

Rahmonberdibiy bozordan Gurlangacha[2]. Gurlan ikki kanalda joylashgan: Gurlanyop yoki To'rt To'qson yopi va Yangiyop. Gurlan juda katta savdo-sotiq shahri. Shahar keng va bog'lari ko'p. Oldinlari bu yerda qal'a devorlari bo'lgan, hozirgi kunda u yoki bu joylarda devor qoldiqlari saqlanib qolgan. Shaharning shimoliy qismida yarim xarobaga aylangan qal'a darvozasi saqlanib qolgan. Gurlan qal'asi ellik yil oldin Qutlumurodbek davrida Mahmudbek tomonidan qurilgan; aholi bu yerda uch yuz yildan beri yashab keladi. Aytishlaricha, gurlanliklar Amudaryoning bu qirg'oqlariga Sirdaryo etaklaridan, aniqrog'i Turkistondan ko'chib kelishgan; ushbu birinchi ko'chib kelganlar to'rt to'qson urug'idan bo'lgan o'zbeklar ekan, keyingilari – uyg'urlar, ulardan keyingilari – jaloirlar va to'rtinchilari nukuslar bo'lgan. Shunday qilib, ko'chib kelganlar uch yuz oltmish xonadonni tashkil etgan. Hozirgi kunda Gurlan va uning yon-atrofida uch yarim minggacha xonadon istiqomat qiladi. Sobiq qal'a devorlari ichida 300 ga yaqin uy, 200 do'kon va ustaxona, 6 masjid va 2 maktab bor. Gurlanga 10 kent [qishloq] bo'ysunadi, ular yuqorida aytilgan urug'larga teng taqsimlanadi. O'z navbatida, ushbu kentlar 60 masjidga bo'linadi. Xiva vohasidagi qishloqlar [qishloq va ovullar] biz ularni Turkistonda tasvirlaganimizdan boshqacha. Bu yer-

[1] *Кун А.Л.* От Чимбая до Рахманберди-бия. Культурный оазис Хивинского ханства // Туркестанские ведомости. №11. – 1874.

[2] *Кун А.Л.* От Рахманберди-бий базара до Гурлена. Культурный оазис Хивинского ханства // Туркестанские ведомости. № 12. – 1874.

@tarixchi_kutubxonasiga

da aholini odatga ko'ra ma'muriy jihatdan masjidlarga bo'lish odat bo'lgan. Masjiddan 2–8 verst uzoqda yashaydigan aholi bir qavm, bir qishloqni tashkil etadi; ammo Gurlanda va boshqa okruglarda masjidlarga bo'lishdan tashqari, urug'larga bo'lish ham bor, bular kent deb nomlanadi. Shunga ko'ra 60 Gurlan masjidi 10 kentni tashkil etadi; 3 naymanlar, 2 uyg'urlar, 2 jaloirlar va 3 nukuslar. Okrugning barcha aholisi o'troq va ishlab chiqaruvchi. Shahar va uning atroflarida dalalar va bog'lar ko'p, tut daraxtlari va sholi, paxta va don ekinlari mo'l. Mamlakatning asosiy sanoati ipakchilik; bu yerda esa to'n va ko'rpa bozorlarda nafaqat ichki bozor uchun, balki katta miqdorda har yili Rossiyaga olib chiqib ketiladi. Bundan tashqari, ishlab chiqarishning bo'yoqchilik turi ham muhim o'rin egallaydi. Shahar aholisi qal'a devorlariga e'tibor bermasdan, yoyiq holda joylashgan.

Gurlandan Shovotgacha[1]. Xorazm tarixida Amudaryoning o'ng qirg'og'ida deb ko'rsatilgan Kat uzoq vaqtgacha – XV asrgacha Xiva xonligining poytaxti bo'lib xizmat qilgan. Agar sharq tarixchilariga ishonadigan bo'lsak, ushbu shahar juda katta bo'lib, madrasa, masjid, saroy va hammomlari bilan dong taratgan. Zamonaviy Kat Elbarsxon davrida qurilgan qal'achadan iborat bo'lib, unda 50 ta xonadon yashaydi. Qal'aning shimoliy darvozasidan tashqarida 30 tacha do'konga ega bozor joylashgan. Bu yerda seshanba va shanba kunlari bozor o'tkaziladi. Shahar aholisining aksarini o'zbek va sartlar tashkil etadi. Qal'a ichidagi imoratlarning ko'pchiligi bo'm-bo'sh, chunki ularning egalari shahar tashqarisiga – o'z qo'rg'onchalariga ko'chib chiqib ketishgan.

Shovotda ham xuddi Katdagi kabi o'z egalari tomonidan buzilmagan bo'lsa-da, tashlab ketilgan uylar ko'p. Bizga aytishlaricha, xonlikning chegaradosh hududlaridagi qal'alarda, masalan Shovot va Katda, faqat turkmanlar hujum qiladigan paytda odamlar yashaydi, boshqa paytlarda aholi o'zlarining ekinzorlariga yaqin bo'lgan qo'rg'onchalarda yashashar ekan. Ularning ko'pchiligi yil davomida qo'rg'onchalarda yashasa, ba'zilari qish paytida qal'aga qaytib kelishar ekan. Shuning uchun ham turkmanlar bilan doimiy adovat sababli xivalik o'zbeklar ikki uy qurishga majbur ekanlar. Aytishlaricha, Shovot aholisi o'z uylarini buzib, uning jihozlarini o'z qo'rg'onchalariga tashib o'tishgan. Qal'aning janubiy tomonida do'konchalar va yaqinda ko'chib kelgan odamlarning uylari bor. Qal'ada 100 ga yaqin uy, 4 masjid, 1 madrasa mavjud. Qal'a tashqarisida 30 uy, 19 do'kon va ustaxonalar bor. Bu yerda seshanba va juma kunlari bozor o'tkaziladi. Shovotning asosiy mollari bug'doy va jo'xori. Shovot aholisi o'zbek, sart va arablardan iborat.

[1] *Кун А.Л.* От Гурлена до Шавата. Культурный оазис Хивинского ханства // Туркестанские ведомости. № 12. – 1874.

@tarixchi_kutubxonasiga

Gurlandan Urganchgacha[1]. Urganch yosh shahar; u qadimgi Ko'hna Urganch va Jurjoniyaning ajralib chiqqan bo'laklaridan yuzaga kelgan. Aytishlaricha, qalmiqlar Jurjoniyani talagandan keyin shahar huvillab qolgan. Qalmiqlar qaytib kelib obod qilingan shaharni egallab olishidan qo'rqqan shaharliklar hozirgi poytaxtga yaqin va shuning uchun ham xavfsiz bo'lgan joyga ko'chib kelishgan. Daryoga yaqin bu yangi shahar o'z mavqeidan foydalanib yildan yilga emas, kundan kunga boyib ketdi. Mana, 200 yildan beri unda savdo-sotiq yaxshi rivojlandi. Urganch Xiva xonligining tashqi mamlakatlarga mol sotish va tashqaridan mol olib kelishning yirik markaziga aylandi. Urganchlik savdogarlarni nafaqat Buxoro va Turkistonda, balki Orenburg, Nijniy Novgorod va Moskvada ham uchratish mumkin. Shaharning keng savdo-sotig'ini eng yaxshi dalili shundaki, xivalik o'z davlatidan tashqarida qaysi bozorga bormasin, uni urganchlik deb tanishadi, hatto u boshqa shahardan bo'lsa ham. Shaharning bozoriga qarab quyidagini ta'kidlash mumkin bo'lmasa-da, Urganch xonlikning ulgurji savdosining omborbop manzili hisoblanadi. Urganch bozori faqat ichki mahsulotlarni sotish va sotib olish uchun mo'ljallangan. Tashqi savdo bo'yicha eng katta bitimlar mashhur savdogarlarning uyida amalga oshiriladi.

Urganch shahrida 300 ga yaqin do'kon mavjud. Bozor qal'adan tashqarida, janubiy qismda joylashgan. Bundan tashqari, deyarli har bir uyda ustaxona yoki korxonani uchratish mumkin. Bozorga keladiganlarning ko'pchiligi shahardan tashqarida, qo'rg'onchalarda yashaydilar. Masjid qavmlarga ega Urganch xonlikning eng sara joylaridan biridir. Uning dalalarida paxta, sholi, bug'doy, ro'yan mo'l. Bog'laridan ko'p miqdorda ipak olinadi. Urganch okrugi aholisi o'zbek va sartlardan bo'lgan 160 masjid qavmdan iborat bo'lib, sartlar ko'pchilikni tashkil etadi. Urganchlik kapitalistlar xonlikning barcha sanoatini nazorat qilgan holda Rossiya bilan, asosan Orenburg bilan katta miqdorda savdo-sotiq olib boradilar. Paxta, choponlar, qisman ipak va quritilgan mevalar tashqariga olib chiqiladigan asosiy mol turlari hisoblanadi. Urganch Amudaryodan besh verst uzoqlikda joylashgan.

Urganchdan Xonqagacha[2]. Shoh Abbos Vali qadimgi Kat qal'asining xarobalarida yuzaga kelgan kichkina qal'a. U eski Kat qal'asi shahristonining chorak qismini egallaydi. Shahristonning yon-atroflari bu yerda oldin mavjud bo'lgan qadimgi shaharni eslatib turadi. Xarobalar noma'lum binoga tegishli va chala vayrona holatdagi minora, avliyo Shoh

[1] *Кун А.Л.* От Гурлена до Ургенджа. Культурный оазис Хивинского ханства.// Туркенстанские ведомости. № 14. – 1874.

[2] *Кун А.Л.* От Гурлена до Ургенджа. Культурный оазис Хивинского ханства.// Туркенстанские ведомости. № 14. – 1874.

@tarixchi_kutubxonasiga

Abbos Valining maqbarasi, Gechirimsiz Ota mozori va Eski qal'a devoridan iborat. Barcha imoratlar pishiq g'ishtdan ishlangan bo'lib, ba'zi joylarda, faqat Shoh Abbos Valining maqbarasida va qabrtoshda saqlanib qolgan. Shoh Abbos Vali islomning ilk davrida Xorazmga Qur'on ta'limotini yoygan musulmon dini targ'ibotchisi bo'lgan. U Katda dafn qilingan. Hozirgi shaharda 200 uy, 15 do'koncha, 2 masjid va shuncha maktab mavjud. Yakshanba va payshanba kunlari bu yerda bozor uyushtiriladi. Bu yerga bozor kunlari yaqin atrofdagi shaharlardan: Xonqa, Urganch, Sho'raxon va Rahmonberdibiy bozoridan savdogarlar keladi. Bozor faoliyati mahalliy iste'molchilarning ehtiyojini qondirish bilan chegaralanadi. Ushbu manzilning xonlik uchun ahamiyati u orqali Rossiyadan Urganch va Xivaga karvonlarning o'tishidir, shuning uchun ham bu yerda o'z karvonlarini kutib olishga chiqqan nomlari aytib o'tilgan shaharlarning savdogarlarini uchratish mumkin. Shuni aytish joizki, Xiva vohasi qulay bo'lgani uchun uni bir-ikki oy ichida kezib chiqish mumkin. Shoh Abbos Valida ham xuddi Rahmonberdibiy bozori va Sho'raxon kabi xon tomonidan tayinlanadigan hokimi yo'q. Ushbu manzillar hokim yordamchilari noiblar yoki qozilar tomonidan boshqariladi. Aytishlariga qaraganda, shahar atrofidagi barcha yerlar, asosan mulk yerlari xonga hech narsa to'lamaydi, buning sababi, ushbu yerlar xonning qarindoshlari tomonidan boshqariladi. Ularning bu yerlarda o'z boshqaruvchilari, ya'ni devonbegilari bor. Ular bug'doy yig'im-terimida kelib turishadi. Shunisi ajablanarliki, Xiva xonligida nafaqat yirik mulkdorlar, balki ularning boshqaruvchilari ham o'z mulk yerlarida emas, Xivada yashaydi.

N. Остроумов. «Колебания во взглядах на образование туземцев в Туркестанском крае» («Turkiston o'lkasida mahalliy aholi ta'lim tizimi haqidagi turfa qarashlar»)[1]

Sharqshunos olim, tarixchi va etnograf ***Nikolay Petrovich Ostroumov*** *(1846–1930) 1877-yilda Toshkent shahrida Turkiston o'lkasi mahalliy bilim yurtlari inspektori lavoziniga tayinlangan. 1879-yilda Turkiston O'qituvchilar seminariyasi direktori, 1883-yildan Toshkent erkaklar gimnaziyasi direktori lavozimlarida, 1883-yildan 1917-yilgacha «Turkiston viloyatining gazeti»da bosh muharrir vazifasida ishladi. Uning «Kaufman to'plami»da nashr qilingan ushbu maqolasida*

[1] *Остроумов Н.* Колебания во взглядах на образование туземцев в Туркестанском крае. (Хронологическая справка.) // Кауфманский сборник, изданный в память 25 лет, истекших со дня смерти покорителя и устроителя Туркестанского края генерал-адъютанта К.П. фон Кауфмана. – Москва, 1910. – С.139–160.

@tarixchi_kutubxonasiga

Turkiston o'lkasida rus-tuzem maktablarining tashkil qilinishi, bundan ko'zlangan maqsad va vazifalar, mahalliy aholining ta'lim tizimi hamda islom diniga nisbatan qarashlari yoritilgan. Quyida ushbu maqoladan parcha berilmoqda.

t.f.d., prof. D.H. Ziyoyeva

...General-adyutant K. P. fon Kaufmanning Turkiston o'lkasi bo'yicha muhim rejalari qatoriga mahalliy aholi orasida rus ma'rifatini targ'ib qilish masalasi ham kirgan. Mazkur masalaga general-adyutant nihoyatda katta e'tibor va ehtiyotkorlik bilan qaragan. Mahalliy maktablar [maktab va madrasalar]ning hozirgi holati va ularning aholiga bo'lgan ta'siri haqida to'la tasavvurga ega bo'lmagan marhum [harbiy sarkarda] mazkur masala bo'yicha to'la ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslarning yetishmovchiligi natijasida ushbu masalani hal etishda dastlab bunday maktablarni chetlatish ishlarini boshlagan. Uning fikricha, «eskilik sarqitlarini o'zida saqlab kelgan bunday maktablarning umuman kelajagi yo'q va rivojlanishdan orqada qolganligi uchun tanazzulga yuz tutadi». Marhum sarkarda musulmonlikning ichki kuchiga ishonmagan, o'sha davrda Turkiya haqidagi o'zining tasavvurlariga tayanib, musulmonchilikka nisbatan «kasal, [139-bet] o'zining salohiyatini yo'qotayotgan, taraqqiyoti nihoyaga yetayotgan musulmon madaniyati» sifatida qaragan. Faqatgina Yevropa ma'rifatiga katta ahamiyat bergan va unga qattiq ishongan, imperiyaning shimoli-g'arbidagi xizmati davomida polyak targ'ibotini chetlatish maqsadida rus ma'rifatini keng targ'ib qilish yo'lidagi tajribaga ega bo'lgan haqiqiy rus ma'muri sifatida u Turkiston o'lkasida rus maktablari orqali aholini ruslashtirish tadbirlarini boshlab yubordi.

...1884-yilning 19-dekabrida Toshkentda Turkiston o'lkasi mahalliy aholisi bolalari uchun dastlabki rus-tuzem maktabi ochildi.

...Bundan so'ng, tez orada musulmon maktablari ustidan nazorat inspektori lavozimi ta'sis etildi, biroq yana to'xtatildi. Rus-tuzem maktablariga bo'lgan ishonch sekin-asta oshib bordi, ammo ushbu maktablarning rivojlanish darajasi juda past edi. Aynan shuning uchun yangi general-gubernator 1891-yilda o'lka viloyatlari gubernatorlariga rus-tuzem maktablarining hozirgi holati bilan kifoyalanish mumkin emas va bularni bunday holatda qoldirish xato ekanligini ta'kidladi. Shahar va hatto qishloqlarda aholi soni bir qancha mingdan iboratligidan kelib chiqib taqqoslaganda maktablardagi o'quvchilarning soni kam bo'lgan. Rus maktablarga o'quvchilarning qatnashi nihoyatda tartibsiz edi, ko'p o'quvchilar ta'lim olishni nihoyasiga yetkazmay o'qishni to'xtatib qo'ygan. Bunday ta'lim olishning natijasi nihoyatda samarasiz bo'lib, ularga ajratilayotgan xarajatni oqlamas edi [1 yilda 23 000 rubl]. Ushbu xarajatlar davlat xazi-

@tarixchi kutubxonasiga

nasi va mahalliy aholidan yig'ilayotgan tushumlar hisobidan maktablar uchun ajratilar edi.

K.P. fon Kaufmanning davomchilari bo'lgan general Rozenbax va baron Vrevskiyning Turkiston o'lkasining mahalliy aholi vakillarini ruslashtirish va mintaqaning metropoliya bilan birlashtirish yo'lidagi sa'y-harakatlari o'zini oqlamadi. 1892-yilda Toshkent shahrida mahalliy aholi vakillari orasida yirik mojaro bo'lib o'tdi, 1898-yilda esa Farg'ona viloyatini butun o'lka osoyishtaligiga tahdid solgan yirik qo'zg'olon egalladi... Ayni shu paytda ilk bora rus ma'murlari tomonidan umid bilan aytgan «o'zini yemirib kelayotgan» mahalliy maktablar hamda «musulmon madaniyatining kelajagi yo'q», deb qabul qilgan madaniyat esga tushdi. O'lkadagi musulmon maktablarga bundan keyin qanday munosabat o'rnatish kerakligini aniqlash maqsadida maxsus komissiya tuzildi. Mahalliy viloyatlar [Sirdaryo, Samarqand va Farg'ona]dan uchta harbiy gubernatorlar taklif etildi va musulmon maktablarining ichki hayotiga aralashmaslik siyosatini o'rnatish hamda qonunning eski moddalariga asoslanishga qaror qilindi. Ko'p sonli bunday maktablar ustidan nazorat o'rnatish va ularga nisbatan qoidalar ishlab chiqarish foydasiz deb hisoblandi.

...Rus-tuzem maktablarida rus tilini o'qitish usullarini takomillashtirishgan hamda ular uchun maxsus darsliklar yaratgan Sirdaryo viloyati mahalliy bilim yurtlarining yangi nazoratchisi [va keyinchalik direktori] S.M. Gramenitskiy musulmon maktablari ustidan nazorat o'rnatilishiga qarshi chiqdi. Mutaxassisligi matematik bo'lgan, rus millatiga mansub S.M. Gramenitskiyning fikricha, rus-tuzem maktablarida mahalliy aholi vakillari farzandlariga rus tilini o'qitish [146-bet] ular uchun dolzarb ahamiyatga ega. Ammo uning «rus-tuzem maktablariga nisbatan 30 marta ko'p bo'lgan musulmon maktablari ustidan nazorat o'rnatilishining samarasi yo'q», degan fikrini xato desa bo'ladi.

...General N.N. Tevyashev davrida ham musulmon maktablariga e'tibor berilmadi, faqatgina qirg'iz ovul maktablarining keng yoyilish choralari ko'rildi. Shuning bilan birga, [147-bet] 1905-yilda kengash a'zosi A.S. Budilovich rahbarligida sharq g'ayritabaalari[1]ning ta'limot masalalari bo'yicha Xalq ta'limi vazirligida maxsus komissiya yig'ildi. Ushbu komissiya turli qabila va turli dindagi g'ayritabaa farzandlarining boshlang'ich ta'limoti uchun umumiy qoidalarni ishlab chiqqan. Biroq mazkur komissiyaning qoidalari g'ayritabaa musulmonlar noroziligi tufayli amalga oshirilmadi va 1907-yilda vazirlikda yig'ilgan boshqa komissiya tomonidan qayta

[1] Ushbu matnda Ostroumov boshqa millat vakillariga nisbatan ushbu kamsituvchi so'zni ishlatgan, ayni damda mahalliy aholi vakillari ko'zda tutilgan.

@tarixiy_kutubxonasiga

ko'rib chiqildi. Komissiyaning maxsus qoidalari Turkiston o'lkasining mahalliy maktablariga nisbatan qo'llanilmadi va mahalliy aholi vakillarining farzandlari ta'limi masalasi, mahalliy maktablar ustidan nazorat o'rnatish haqidagi choralar esa avvalgi holidek qoldi. Biroq mahalliy aholining turmush tarzi to'xtab qolmadi, balki tashqaridan bo'lgan turli ta'sirlar ostida rivojlana bordi. O'tgan asrning 70-yillarida boshlangan va rus ma'muriyatining e'tiboridan chetda qolgan Rossiya tatarlari mahalliy maktablarni zabt etish va ularni o'zining yo'nalishlariga qaratish harakatlari davom etib keldi. Siyosiy erkinlik g'oyasi ta'siri ostida ilg'or tatarlar gazetalar, darsliklar, broshyuralar nashr qildilar, turli xil ma'rifiy va xayriya jamoalarni tashkil qildilar va nihoyat, hukumatning ruxsatisiz Rossiyaning turli joylarida va Turkiston o'lkasida «yangi usul maktablari» deb nomlangan maktablar ochdilar [148-bet]. Ushbu maktablar na Rossiyaning ichida va na Turkiston o'lkasida o'quv boshqaruvi tomonidan nazorat qilinmadi. Tashqi tomondan ma'rifiy ko'rinishga ega bo'lgan bunday harakat siyosiy islomiy xarakterga ega bo'la boshladi. O'sha davrda Toshkentda boshlangan ushbu harakatga endigina e'tibor qaratilgan edi va harbiy okrugning shtabida 1908-yilda o'lkaning eski musulmon maktablarining masalasi maxsus komissiya majlislarida muhokama qilinayotgan va o'quv idoralarining vakillari qarashlarida turli qarama-qarshiliklar yuzaga kelayotgan edi. So'ng general-gubernatorning taklifiga binoan o'quv yurtlarining boshqaruvida maktab va madrasalar ustidan nazorat qilish uchun yangi qoidalar ishlab chiqilgan va vazirlikka yuborilgan edi.

1909-yilda o'lkaga general-gubernator bo'lib general A.V. Samsonov keldi va u mahalliy aholi vakillarining ta'lim tizimiga jiddiy yondashdi. Mazkur masalani shaxsan muhokama qiladi va o'sha yilning 8-avgustidan amalga kirgan o'quv ishlari bo'yicha buyruqda, Farg'ona viloyatining rus-tuzem maktablari faoliyatidagi ayrim kamchiliklar bo'yicha shunday yozadi: «Rus va rus-tuzem o'quv yurtlari yangi zabt etilgan Turkiston o'lkasida rus madaniyati va rus ma'rifatining targ'ibotchisi sifatida va mahalliy aholi vakillarini rus xalqi va rus davlati bilan bog'lab turadigan manba bo'lishi lozim. Shuning uchun ushbu maktablarga rahbarlik qilayotgan muallimlar hukumat tomonidan ularga yuklatilgan ta'lim-tarbiya ishlariga jiddiy mas'uliyat bilan yondashib, bu ishlarni davlat uchun bu masalaning muhimligini his etgan holda yuqori darajada amalga oshirishlari shart. Maktab dasturlarini bajarishda maktab muallimlari faqatgina o'quvchilarning bilim salohiyatini oshiribgina qolmay, ular o'zlarining ma'naviy xususiyatlarini ham rivojlantirishlari zarur. [149-bet] Ular o'z axloqi bilan nafaqat bolalarga, balki joylardagi aholi vakillariga ham namuna bo'lishlari kerak. Rus ta'limining deyarli yagona vakillari sifatida rus va rus-tuzem maktablarining muallimlari o'zlarining darslarida

@tarixchi_kutubxonasiga

Rossiyaning ulkan va buyuk davlat ekanligini, madaniyati past, lekin kelajagi porloq Turkiston o'lkasini o'z homiyligiga olganligi va o'lkada o'rnatilgan osoyishtalik va moddiy barqarorlikdan keng foydalanib kelayotganligini mahalliy aholi vakillari farzandlarining ongi va qalbiga singdirishlari g'oyat muhim»...

Turkiston o'lkasida xalq ta'limi masalasining muhimligidan kelib chiqqan holda, o'lkaning yangi bosh boshqaruvchisi o'quv yurtlarining nazoratchilari oldiga o'lkaning quyi maktablari ustidan nazoratni kuchaytirish, maktab ishlarida mavjud bo'lgan kamchiliklarni tuzatish hamda o'qituvchilardan o'z vazifalariga faqatgina rasmiy jihatdan emas, ularga yuklatilgan ma'naviy burchiga qaraganday qarashlarini talab qilish vazifalarini qo'ygan.

Bundan so'ng chaqirilgan komissiya mahalliy aholi ta'limi masalasini yanada keng tarzda muhokama qildi. Unda mahalliy bilim yurtlarining direktori o'z e'tiborini rus-tuzem maktablarini saqlab qolishga qaratib, 1910-yilda [150-bet] mahalliy aholi vakillari ishtirokidagi kichik komissiya tomonidan bajarilishi boshlangan, mahalliy sinflar dasturlarini kengaytirish haqidagi takliflarni bayon etdi. Maktab va madrasalar ustidan nazorat o'rnatish masalasini mazkur komissiya ko'rib chiqmadi, ammo ushbu dolzarb masalani hal etmaslik yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi, chunki musulmonlarning hayoti bir joyda turmaydi, u oldinga qarab harakatlanmoqda. Ushbu harakatning qaysi yo'nalishda ketayotganligi rus hukumatini befarq qoldirmasligi kerak. Men, o'z navbatida, shuni aytishim kerakki, o'z holiga tashlab qo'yilgan musulmon maktablari rivojlanmoqda va kengaymoqda, ularni rag'batlantirayotgan islom dini esa borgan sayin kuchaymoqda, bu hol xristian dini vakillarining islom diniga o'tib ketayotganliklarida yaqqol ko'rinib turibdi. «Kaspiy» gazetasida yaqin kunlarda nemis jurnalidan olingan musulmon Vazirbekning qo'shimchalari chop etilgan. Ular quyidagicha ifodalanadi: «Agar islom dini xalifalar zamonida tashqaridan bosib kirgach, gullab-yashnashga erishgan bo'lsa, uning bugungi kundagi yutuqlari intellektual salohiyatning oshishi va ma'naviy evolutsiya natijasidir». Islom dinining yoyilishi nemis jurnali «Ueber Land und Meer»-ning 47-sonidagi maqolada o'z ifodasini topgan. Biz bu maqolani janob Vazirbek qo'shimchalari orqali ko'rib chiqdik.

«Germaniyada islom dinining rahnamosi nemis fuqarosi Muhammad-Odil-Shmitsa-de-Mulendir. U Sharqda injener sifatida uzoq yillar davomida xizmat qilgan, musulmon ayoliga uylangan va islom dinini qabul qilgan. Islom dinini himoya qilib, u «Islom», «Haramda» va «Istambul» asarlarini yozgan. «Istambul»ni iymon shahri deb, islom dini o'z g'oyalari bilan gunohlarga to'la «xristian olami»ga nisbatan xristian g'oyalariga yaqin turishini ta'kidlaydi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Muhammad de-Mulendan keyin islom dinining Myunxendagi keng targ'ibotchilaridan Yelena Folau va uning turmush o'rtog'i Umar Rashid-Bek hisoblanadi.

Yaqin kunlarda Fransiyada islom dinini qabul qilgan Aziz de-Roshelrun xonimning faol ishtirokida «Musulmon birodarligi» deb nomlangan jamoa tashkil topdi [151-bet].

Uning tahriri ostida fransuz tilida «Sharq sharhi» jurnali nashr etildi. Jurnalning asosiy maqsadi fransuzlarni islom dini bilan tanishtirish va musulmon madaniyatini targ'ib qilishda yordam berishdir.

Islom dini ingliz-sakson olamida ham katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda. U yerda 10 yil ichida Britaniya orollari va ingliz mustamlakalarida juda ko'p musulmon jamiyatlari vujudga keldi. Ular tomondan London, Liverpul va boshqa shaharlarda ko'rkam masjidlar, musulmon diniy muassasalari, bolalar tarbiya uylari qurildi; davriy nashrlar, gazetalar va jurnallar nashr etilmoqda, yangi maktablar ochilmoqda, «Madina», «Islom birodarligi», «Yarim oy birodarligi» va «Islom jamiyati» kabi turli jamiyatlar tashkil qilinmoqda. «Islom jamiyati» ingliz musulmonlari uchun markaziy uyushma bo'lib, uning asosiy maqsadi – musulmonlarning diniy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishda yordam berish hamda islom dinini jamiyatda noto'g'ri talqiniga qarshi kurashdan iborat...

...Islom dinini qabul qilgan ingliz jamiyatining yuqori tabaqalariga mansub bo'lgan shaxslardan lord Stenli of-Alderley, yuqori palata deputati Parkinson, advokat Le-Mezore, A. Brauning, Kalita Shendrek va M. Leonlarni aytish mumkin.

Islom dinini keng targ'ib qilayotgan ingliz ayollaridan – kompozitor Delbast, rassom [152-bet] Shlornetlarni misol qilish mumkin. Ularning orasida o'zining yoshi ulg'aygan qizlari va o'g'illari bilan islom dinini qabul qilgan Kvalleam xonim alohida e'tiborga loyiq. Uning o'g'illaridan biri Liverpul turk konsuli Ahmed Kvalleam-bekdir. Ushbu shaxsning sa'y-harakatlari bilan «The Crescend», «The Islam World» jurnallari nashr etilmoqda. U mazkur mavzuga doir «Islom lavhalari», «Islom imoni», «Aqidaparastlar va aqidaparastlik» kabi asarlarni yozdi.

Amerikada ham islom dinining taraqqiyoti olg'a surmoqda. Amerika musulmonlarining rahnamosi bo'lgan shayxulislom Aleksandr Ruffel-Vebb o'zining hayotini, bor kuchini va sarmoyasini Amerikada islom dinini targ'ib qilishga bag'ishlagan. U ushbu mavzuda ma'ruzalar o'qiydi, kitoblar nashr qiladi, amerikaliklarni islom bilan tanishtiradi, shu maqsadda ommaga keng tarqalgan «The Muslim World» jurnalini nashr qilgan.

Musulmonlarning soni kun sayin ortib bormoqda va Nyu-Yorkda yangi masjid qurilmoqda.

@tarixchi_kutubxonasiga

Oxirgi vaqtlarda Avstraliyada ham islom diniga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda.

Xristian mamlakatlarida islom dinining ma'naviy ta'siri yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdi.

Oxirgi besh yil orasida bizning pravoslav zaminimizda ham o'zining ulkan ichki kuchini namoyon etdi: avval xristian dinini qabul qilgan o'n minglab g'ayritabaalar yana qayta islom diniga o'tib ketdi; ko'p g'ayritabaa-butparastlar ham yana islom diniga qaytdi, va nihoyat, eng achinarlisi – ayrim rus millatiga mansub shaxslar ham islom dinini qabul qilgan. Bunga asos qilib Turkiston o'lkasidagi bir qancha misollarni keltirish mumkin. Yolg'on bashorat qilishdan qo'rqaman, biroq G'arbiy Yevropada va Amerikada modaga aylangan xristian diniga mansub bo'lgan erkak va ayollarning islom diniga o'tib ketishi misollari rus janoblarini ham o'ziga tortish ehtimoli mavjud, chunki yaqin kunlarda Peterburgda bahaybat va ko'rkam tatar masjidi qurib bitkazildi [153-bet].

...Oxirgi 25–30 yil orasida musulmon olamida uyg'onish jarayoni kuzatildi. Bu holatning o'lchamlari haqida yanglishish mumkin, lekin dalillarni tan olmaslikka iloj yo'q. Musulmon noshirlaridan biri Ahmedbek Og'ayevning aytishicha: «Musulmon olami islohotlar yo'lida turibdi... Bunday haqiqatni tan olmagan va unga ishonmagan odamning ko'zlari ko'rdir. Barcha joylarda yangi va yangi ilg'or g'oyalar vujudga kelmoqda, yangi partiya va jamiyatlar faoliyat olib bormoqda. Nima uchun bu holat o'zgarmayapti? Xitoydan Marokashgacha, Qohiradan Ufagacha islom dini hali-hanuz harakatdadir. Savodsizlik davri yuksak ma'rifat va ma'naviyat, erkinlik va adolat zamonasiga aylanmoqda. Butun dunyo musulmonlari bu vaqtdan foydalanishi kerak: chunki ularning dinini taqdiri hal bo'ladi – yo qayta uyg'onadi yoki umuman barbod bo'ladi».

Yana boshqa musulmon muxbiri, islom g'oyalarining ilg'or targ'ibotchisi bo'lgan Ismoil Gaspirinskiy o'zining [Uyg'onish] tashkilotida butun [154-bet] musulmon olamiga shunday savol bilan murojaat qiladi: «Musulmon olami, sen tirikmisan? Sen qanday yashamoqdasan? Sen uyg'onishni va taraqqiy etishni istaysanmi? Shubhasiz, sen buni istaysan. Sen ulkan taraqqiyot, hayot va uzoq yashashga harakat qilmoqdamisan? Ha, sen bularning hammasiga intilmoqdasan, chunki insoniyat va islom sendan bularni talab qilmoqda. Butun dunyo musulmonlarining ijtimoiy va diniy burchlaridan kelib chiqib, ulardan bor imkoniyatlarini ishga solib, kongress [Qohiradagi butun dunyo musulmonlari kongressi] yig'ilishiga yordam berishini so'ramoqda. Savob va istiqbol havoriylari, javob beringlar!»

Rossiyada mazkur harakat 30 million aholini o'ziga jalb qildi: uni Kavkaz, Qrim va boshqa rayonlarda, masalan, Volga–Kama rayonlarida va sha-

@tarixchi_kitobxonasiga

harlarda [masalan, Odessada] ashaddiy darajada avj olayotganligi kuzatilmoqda.

...Hozirgi vaqtda Turkiya o'zining konstitutsiyasini ishlab chiqdi, bu an'anani Eron ham davom ettirdi, [157-bet] gap-so'zlarga qaraganda, bu jarayon Buxoro va Afg'onistonga ham o'z ta'sirini ko'rsatayotganligini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Hindistondagi ichki vaziyat ham ingliz hukumatini xavotirga solmoqda. Turkiston o'lkasi ham bunga o'xshash harakatlardan holi, deb ayta olmaymiz. Bu mening shaxsiy fikrim.

Biz kirib kelayotgan ushbu tahdidga, aynan tahdidga qarshi kurashish uchun yetarli salohiyatga egamizmi?

Bizga bu masalada biz hukmronlik qilayotgan Turkiya, Eron, Buxoro, Xiva, Afg'oniston, Qashqar va Hindiston bilan chegaradosh bo'lgan o'lkadagi maktablar va aynan maktablar yordam bera olishi mumkin.

O'lkaning yangi boshqaruvchisi o'zidan ilgarigi davlat arboblarini o'ziga namuna qilib, boshlang'ich ta'limga katta e'tibor bermoqda. Turkistonning keyingi madaniy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi va o'lkani zabt etish yo'lida katta qurbonliklar keltirgan Rossiyaning qudratini yanada oshirish uchun u o'z oldiga bu vazifani bajarishni maqsad qilib oldi. Biroq, ko'p sonli eski maktablar va madrasalarga befarq qarab, faqatgina rus-tuzem maktablargagina tayanib qolish maqsadga muvofiqmi?

Bu savolga boshqa javob yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. 1909-yil 1-yanvarda Turkiston o'lkasining barcha viloyatlarida o'quvchilarining umumiy soni uch mingta bo'lgan rus-tuzem maktablarning soni yuzta ham bo'lmagan. O'quvchilarining umumiy soni 70 mingtaga yetgan eski maktablarning soni esa [158-bet] 5543 ta bo'lgan. Bundan tashqari, madrasalarning soni 311 ta, ularda 9 mingta yoshi katta, ba'zan esa yoshi ulug' kishilar o'qiydi. Mening taxminim bo'yicha, o'lkadagi eski maktablarning umumiy soni 6 mingni tashkil qiladi, ulardagi o'quvchilarning soni esa 80 mingtadan iborat. Bu son yaqinda ochilgan va ro'yxatdan o'tmagan «yangi usul» maktablarning va odatda, ro'yxatga olinmaydigan qiz bolalar maktablari sonining hisobiga yanada kattaroq bo'lishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, eski musulmon maktablar o'quvchilarining umumiy soni 100 mingga yaqin bo'lsa, rus-tuzem maktablaridagi o'quvchilar soni atigi 3 mingta o'g'il boladan iborat. Endi tasavvur qilinglar, eski maktablarda yoshlari katta, olim va martabali muallimlar dars berayotgan bo'lsa, ularning mahalliy aholiga bo'lgan ma'naviy ta'siri qanday bo'ladi-yu, rus-tuzem maktablarida dars berayotgan, asosan yosh va ko'proq rus millatiga mansub o'spirin yigitlarning [bu hol o'lkadagi rus amaldorlariga ham tegishli] mahalliy aholiga ta'siri qanday bo'lishi mumkin?

@tarixchi_kutubxonasiga

Mening so'nggi so'zlarim achchiq bo'lsa, vatandoshlarimdan ming bor uzr so'rayman, biroq biz – g'ayritabaa va g'ayridin o'lkasiga tayyor bo'lmagan, o'zining amaldorlik tor vazifasidan tashqari chetga chiqa olmaydigan, Turkistondagi xizmatga faqatgina o'zining mansabini oshirish uchun qarayotgan yomon hukmdormiz...

...Shunday qilib, yuqoridagi masalaga yana qaytib aytamanki, eski [159-bet] musulmon maktablari va madrasalarni nazoratsiz qoldirib bo'lmaydi. Ularning faoliyatiga nisbatan loqaydlikni yo'qotish kerak. Ular haqidagi o'zini yemirib borayotgan [soha] kabi xato qarashlardan voz kechish kerak. Biz qirg'izlar, o'zbeklar va tatarlarning birlashuvini to'xtata olmadik, bundan keyin o'zbeklarning yuqoridagi harakatini to'xtata olmasligimiz mumkin. Agar biz musulmon maktablaridan voz kechmasak, o'zbeklar tatarlar ta'siriga tushib qolishi hech gap emas. Bu yerda gap marhum general K.P. fon Kaufman yaxshi bilgan eski tatar millati haqida emas, balki butun dunyo musulmonlarini birlashtirishni maqsad qilib olgan yosh taraqqiyparvar tatarlar haqida ketayapti. Birinchi general-gubernator bu haqida o'ylamasligi ham mumkin edi, biroq «turkiy birlashuv va taraqqiyot»ning zamondoshlari sifatida bunga ko'z yummasligimiz va bunday xavfli harakatga nisbatan tegishli choralarni amalga oshirishimiz darkor; aks holda biz quruq so'zlarni gapirayotgan bir vaqtda, tatarlar hamma ishni bizni o'rnimizga bajarib bo'ladi va bu holni to'g'rilashni sira iloji bo'lmay qoladi [160-bet].

N. Ostroumov,
Toshkent, 25-fevral, 1910-y.

@tarixchi_kutubxonasiga

4-§. ILMIY ADABIYOTLAR

Л.С. Берг. «Аральское море» («Orol dengizi»)[1]

Lev Semyonovich Berg (1876–1950) – zoologiya hamda geografiya bo'yicha 1899–1902-yillarda Orol dengizi va Sirdaryoning baliq sanoati nazoratchisi lavozimida ishlagan. U Orol dengiziga bir necha marotaba ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirgan. Orol ekspeditsiyasi ilmiy natijalari Rossiya imperatorligi Geografiya jamiyati Turkiston bo'limi xabarlarida, «Orol dengizi» nomli monografiyada o'z aksini topgan. Quyida ushbu monografiyadan parchalar keltirilmoqda.

t.f.d., prof. D.H. Ziyoyeva

...Rossiya imperiyasi Geografiya jamiyatining Turkiston bo'limi 1900-yilning boshlarida «Turkistondagi ko'llarni o'rganishni boshlash to'g'risida» qaror qabul qildi. Unga ko'ra, birinchi navbatda, Orol dengizini 1900–1902-yillar davomida, ya'ni 3 yil tadqiq qilish belgilangan edi.

1900-yilda Orol dengizini o'rganish uchun uzunligi 16 arsh keladigan yelkanli baliqchi qayiqdan foydalanilgan. Safarga lot[2], «Negretti and Zambra» termometrlari, suv ko'tarilishini o'lchaydigan termometrlar, «Kushler-Steger'a» areometr[3]lar komplekti, Forel [gulmohi] ranglari shkalasi, suvning shaffofligini aniqlash uchun oq disk, draga[4], plankton[5] setkasi, aylanma psixrometr[6], anemometr[7], geologiya, zoologiya va botanikaga oid kolleksiyalar yig'ish va suratga olish uchun asboblar va boshqa kerakli jihozlar olingan... [107-bet]

1900-yilda olib borilgan ishlar natijasida Sirdaryo deltasi rejasi, 37 ta gidrologik stansiya, dengizning chuqur joylari tavsifi, solishtirma og'irligi, suvning rangi, tiniqligi, suvda yashaydigan hayvonlar va o'simliklar, meteorologik kuzatishlar, qirg'oqning geologiya, zoologiya va botanikaga oid

[1] *Л. Берг.* Аральское море. Опыт. Физико-географическая монография (С 2 картами, 6 таблицами и 78 рисунками). СПб.: М.М.Стасюлевич, 1908.

[2] Dengiz chuqurligini o'lchaydigan asbob.

[3] Suyuqlikning zichligini, solishtirma og'irligini o'lchaydigan asbob.

[4] Suv ostidan oltin, kumush kabi metallarga boy jinslarni oladigan, shuningdek, suv ostini kovlaydigan mashina; tekshirish uchun suv osti o'simlik va jonivorlarini olib chiqadigan asbob.

[5] Dengiz va daryolarda yashaydigan, suv oqimi bilan harakat qiluvchi hayvonlar va o'simliklardan iborat organizmlar dunyosi.

[6] Havo namligini o'lchaydigan asbob.

[7] Havo va gaz oqimi tezligini o'lchaydigan asbob.

@tarixiy_kutubxonasiga

kolleksiyalari hamda daryoda suvning ko'payishi bo'yicha yangi ma'lumotlar aniqlandi...[107–108-betlar].

1901-yilda muallif [L. Berg] Turkiston dehqonchilik va davlat mulki boshqarmasiga tegishli, uzunligi 40 fut bo'lgan «Orion» yelkanli yaxtasida 24-iyul kuni Sirdaryo quyilishidan yo'lga chiqib, ertasiga Qorato'pga yetib kelgan. 27-iyulda Uzunqirda bo'lib, bu yerdan daryoning tabiiy chegara yo'nalishlari belgilab olingan. 30-iyulda dengizning shimoli-g'arbiy chekkasi Qoratomoqdan suvning past-balandligi o'lchanib, Orol dengizining sathi 1874-yilga nisbatan 1,21 metrga oshganligi aniqlangan. Qoratomoqdan Qumsoat qirg'og'i va Chernishev bo'g'ozi bo'ylab, 3-avgustda Uzunqirga qaytib kelingan. Yo'l-yo'lakay Qumsoat qirg'og'ining ochiq [yer yuziga chiqib qolgan] boy tabiati o'rganilgan.

Keyingi ilmiy safar 25-avgustda Sirdaryoning quyilish joyidan boshlangan. 26-avgustda Nikolay I ko'li [shimoliy buxta], 1-sentabrda Belinsgauzen ko'li, 2-sentabrda Lazerev ko'li, 5-sentabrda Toldiq ko'rfazining sharqiy qirg'oqlari, 7-sentabrda bu yerdan janubiy qo'ltiqdagi Nikolay ko'liga, 12-sentabrda janubiy ko'rfazdagi Uyali ko'li, 13-sentabrda Tyulkeli, 15-sentabrda Kaskakulan ko'li, 16-sentabrda Ko'korolning shimoli-sharqiy chegaralari, shu kunning o'zida Jideli qo'ltig'i, 18-sentabrda esa Perovskiy qo'ltig'ining shimoliy qirg'oqlari o'rganilib, suvning qurishini o'ziga xos alohida belgilari tadqiq etilgan [108-bet]. 1901-yil 28-sentabr kuni Sirdaryo quyilishida suvning ko'payishi ishga yakun yasagan. Joriy ilmiy safar natijalariga ko'ra, 17 ta gidrogeografik stansiyalar o'rganilgan, meteorologik kuzatuvlar, geologiya, zoologiya va botanikaga oid to'plamlar yaratilgan.

1902-yil 6-maydan «Orion» yaxtasi Orol dengizini o'rganish maqsadida Sirdaryo quyilishidan yo'lga tushgan.

1902-yilgi ilmiy safar natijasida 11 ta gidrologik stansiyalar va boshqa tarmoqlar bo'yicha materiallar yig'ilgan...[109-bet].

1905-yilda Rossiya imperiyasi Geografiya jamiyatining Turkiston bo'limi tashabbusi bilan Toshkent Orol dengizi temir yo'llari stansiyasi [sobiq Oltiquduq pochta stansiyasi] tarkibida meteorologiya stansiyasi ochilgan. Bu yerda muntazam ravishda doimo dengiz sathini kuzatib borish uchun limnigraf o'rnatilgan.

1906-yilda Berg yana Orol dengizining shimoliy qirg'oqlarini borib ko'rgan. Yo'lda u geologiya va zoologiyaga oid kolleksiyalar to'plagan.

To'plangan materiallarni tahlil etishda muallif [L. Berg]dan tashqari A.D. Arxangelskiy, A.A. Birulya, Bogomolets', K.K. Gilzen', V.S. Yelpatyevskiy, S.A. Zernov, N. Kiaer, A.A. Kaminskiy, N.Ya. Kuznetsov, D.I. Litvinov, V.I. Meysner, R.K. Minkevich, A.A. Ostroumov, I.V. Palibin, M.D. Ruzskiy,

@tarixni_kutubxonasiga

Ya.F. Samoylov, tog' muhandisi Stepanov, S.S. Chetverikovlar ham ishtirok etganlar.

...1899–1902-yillar men yig'ib jamlagan materiallar [kolleksiyalar] Moskva universitetining Zoologiya va geologiya muzeylarida mavjud: botanikaga oidlari Fanlar akademiyasi Botanika muzeyida, 1906-yilgi kolleksiyalar Fanlar akademiyasida...

1899-yilda kapitan K. Girshfeld Amudaryoning o'zanlarini o'rganib, statistik ma'lumotlar to'plagan va 1902-yilda [chop ettirgan] nashrdan chiqqan. Uning Galkin tomonidan qayta ishlangan kitobida daryo [delta] o'zanida paydo bo'lgan o'zgarishlar va dengizga kelib qo'shilishi haqidagi ma'lumotlar berib o'tilgan [110-bet].

Orolning o'lchamlari

...A.A. Tillo va Yu.M. Shokalskiylarning 100-masshtab [o'lcham]li xaritasida Orol dengizining maydoni orollari bilan o'rtacha 67820 kv.km.ni tashkil etgan...[118-bet].

...Olib borilgan ilmiy ekspeditsiya natijalariga ko'ra, Orol dengizining-maydoni orollari bilan 64490 kv. km, orollarsiz 63270 kv. km.ni tashkil etgan...

...Shunday qilib, kattaligi jihatidan Kaspiy dengizi [436340 kv.km] va Shimoliy Amerikadagi Yuqori ko'l [80 800 kv. km]dan keyin uchinchi, Yevroosiyo qit'asida Kaspiy dengizidan keyin ikkinchi o'rinda edi. Orol dengizining maydoni Ladoga ko'lidan 4 marta [15492 kv. km, orollari bilan 17632 kv. km] va Jeneva ko'lidan 110 marta [582 kv.km] katta bo'lgan.

Orol dengizi shimoli-sharqdan janubi-g'arbga cho'zilgan bo'lib, dengizning eng uzun qismi Kichik Sarichag'anoq ko'rfazidan to Oqsoatgacha [dengizning janubi-g'arbiy burchagi] 428 km [401 ver.], meridianga ko'ra Qoratepa etagidan Amudaryo quyilishiga qadar 282 kv. km; keng joyi Qo'tanbuloq bulog'idan [45° sh.k.] sharqiy qirg'oqlarigacha [Uchutko'l qo'ltig'i] 284 km [267 ver.] bo'lgan...

Dengizning eng chuqur qismi 68 metr...[119-bet].

Qo'llaniladigan batimetrik xaritaga ko'ra, prizma usuli bilan hisoblanganda, havzasining maydoni 1028 kub km.ga teng va o'rtacha chuqurligi 16,2 metr. Kesilgan konusning usuli bo'yicha hisoblanganda dengizning hajmi 997,7 kub km bo'lib, o'rtacha chuqurligi 15,8 metr[3]. Dengizning o'rtacha chuqurligi umumiy chuqurlikning 22% ni tashkil etadi, bu ko'rsatkich Jeneva ko'lida 50%, Bodenskiy ko'lida esa 36%dir. Orol dengizi-

@tarixiy_kutubxonasiga

ning maydoniga nisbatan hajmi juda kichik ko'rsatkichga ega. Taqqoslash uchun, Ladoga ko'lining hajmi 882 kub km atrofida ekanligini qayd etish lozim [o'rtacha chuqurligi 49 metr]. Jeneva ko'lining hajmi 90 kub km [o'rtacha chuqurligi 154 metr] [119-bet].

Dengizning shimoliy qirg'oqlari 4 ta yarim orollar: Kulandi, Karatyup, Chubar, Ko'kterak va 5 ta eng katta qo'ltiqlar: Chernishev, Tshebas, Paskevich, Perovskiy va Katta Sarichag'anoqqa ajratilgan. Dengizning shimoli-sharqiy qismida alohida orolcha – Ko'korol bo'lib, u Kichik dengiz [qirg'izlarda Kichkina dengiz] nomi bilan ham yuritilgan. Bu orollar va Sirdaryoning quyilish qismi Kichik dengizni Katta dengiz [Ulug' dengiz]dan ajratib turadi. Biz Kulandi yarim oroli orqali Nikolay, Bellinsgauzen, Lazerev ko'llari va To'qmoqota ko'liga boradigan ikki yo'nalishli qismga bo'linamiz. G'arbiy qismni G'arbiy hovuz deb atash mumkin, sharqiy qism – sharqdan to izobatgacha[1] 10 metr – Markaziy hovuz deb nomlanadi. Shuni aytish mumkinki, dengizning ushbu qismlari gidrologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Dengizning katta qismi Kulandi, Borsakelmas va Ko'kurollar birgalikda Shimoliy hovuz deb nomlangan.

Orol dengizida juda ko'p yarim orol va qo'ltiqlar mavjud. Ulardan eng yirigi Ko'korol orolchasi bo'lib, maydoni 273 kv.km, uzunligi 41 km, kengligi 3–10 km, keyin Nikolay I ko'li bo'lib, maydoni 216 kv. km, uzunligi 22 km, kengligi 17 km, Borsakelmas ko'li [138 kv.km] va To'qmoqota [127 kv. km]. Sirdaryo va Amudaryo quyiladigan joylarida ko'plab qisqa, qumli orollar yotadi. Ular orasida eng yirigi: Kaskako'lan [39 kv. km], Ko'zetmas [32 kv. km], Uyali [Uzunqir], Tyulkeli [Menshikov oroli], Jidali va boshqalar. Barcha orollarning maydoni butun dengiz maydonining 1,9% ni tashkil etadi... [120-bet].

[1] Ko'l chuqurligi birday bo'lgan joylarni tutashtiruvchi chiziqlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

П.П. Семёнов-Тян-Шанский. «История полувековой (1845–1895) деятельности императорского Русского географического общества» («Rus imperatorligi Geografiya jamiyatining yarim asrlik (1845–1895) tarixi»)[1]

P.P.Semyonov-Tyan-Shanskiy (1827–1914) – Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi, Rossiyada geografiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan yetuk olimlardan biri. 1873-yildan boshlab 40 yil davomida ushbu jamiyatning Vitse-raisi bo'lgan, O'rta Osiyoga yuborilgan aksariyat ekspeditsiyalarni tashkil etishda faol ishtirok etgan. P.P.Semyonov-Tyan-Shanskiyning ilmiy ekspeditsiyalari natijasida O'rta Osiyo geografiyasi, gidrografiyasi va orografiyasi tadqiq etila boshladi.

P.P.Semyonov-Tyan-Shanskiyning eng yirik ilmiy asari 3 jilddan iborat bo'lib, 1895–1896-yillarda nashrdan chiqqan. Bu asar Rus imperatorligi Geografiya jamiyatining yarim asrlik tarixiga bag'ishlangan. Asarning 1-jildi 23 bobdan iborat bo'lib, uning 9- va 18-boblari O'rta Osiyo geografiyasiga bag'ishlangan.

Asarning 2-jildidan 1874-yilda Amudaryo deltasini o'rganish maqsadida Rossiya Geografiya jamiyati tomonidan maxsus tashkil qilingan Amudaryo ekspeditsiyasi materiallari o'rin olgan. O'rta Osiyodagi yirik suv arteriyalarini o'rganish maqsadida o'tkazilgan bu ekspeditsiya jarayonida, eng avvalo, Orol dengizi, Amudaryo deltasi va Sirdaryoning quyi oqimi o'rganilgan. Quyida ushbu manbadan parchalar keltiriladi.

N. Kariyeva, S. Hakimova[2]

Geografiyaga oid ma'lumotlar

«Jamiyat tashkil etayotgan davrga kelib geografiya fani «geografiya» tushunchasiga kiruvchi faqatgina yer yuzasini o'rganuvchi fanni tasavvur qiladigan darajada tor doiradan iborat emas edi. XIX asrning buyuk geografi Karl Ritter shuni yaxshi tushungan holda «Yershunoslik» [Erdkunde]asarida Yer shariga aloqador barcha tushunchalarni kiritib, bu iboraga yanada keng ma'no bergan...

Jamiyat tashabbuskorlari «Geografiya» borasida hech qachon akademik bahslarga berilmagan, biroq «Yershunoslik» borasida o'zining muayyan qarashlariga ega bo'lgan. Keng faoliyat jarayonida Jamiyat bir necha bo'limlarga ajralib ketgan. Birinchi bo'lim – matematik geografiya va kartografiya, ikkinchi bo'lim – fizikaviy geografiya, uchinchi bo'lim – etnogra-

[1] *Семёнов-Тян-Шанский П.П.* История полувековой (1845–1895) деятельности императорскаго Русскаго географического Общества. СПб. 1896.

[2] Asarning «Geografiya» qismini N. Kariyeva, «Gidrografiya» qismini esa S. Hakimova o'zbek tiliga tarjima qilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

fiya, antropologiya va tarixiy geografiya, to'rtinchisi – statistika va siyosiy geografiya. Agar matematik geografiya va kartografiya, fizikaviy geografiya faqatgina Yer sathi bo'yicha barcha bilimlarni o'z ichiga olgan bo'lsa, uchinchi va to'rtinchi bo'limda Yer yuzida yashovchi odamlar va ularning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bilimlar o'rganiladi». Bunday qarash XIX asrning 90-yillariga kelib «Geografiya» fani avvalgi davrlarga nisbatan ancha taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Ushbu davrgacha geografiya sohasidagi barcha tadqiqotlar umumiy majmuaviy xarakterga ega bo'lgan bo'lsa, ayni davrga kelib ular muayyan ixtisosliklar – geografiya, geologiya, geodeziya, geobotanika, iqlimshunoslik, gidrografiya kabi sohalarga ajralgan holda olib borildi...

«Yerning qattiq va suyuq qatlamining atrofini yerning integral tarkibidan iborat yengil havo qatlami – «atmosfera» o'rab turadi. Atmosferada esa quyoshning yerga nisbatan joylashuvi, undan tarqaladigan nurlar, havo tarkibi, havo namligi, elektrik va magnetik hodisalar bilan bog'liq qator mukammal fizikaviy o'zgarishlar ro'y berib turadi. Bunday holatlar sayyoradagi har bir mamlakatning iqlimiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yerdagi iqlim, uning xususiyatlarini o'rganish – iqlimshunoslik va meteorologiya deb ataladi. Ushbu sohalar fizikaviy geografiyaning asosiy sohalari hisoblanadi»...

Geografiya jamiyati Tyan-Shan tog'li mamlakatiga oid ma'lumotlarni kengaytirish maqsadida Chernyayev yurishidan foydalandi. Fizikaviy geografiya bo'limi rahbari P.P. Semyonov-Tyan-Shanskiy hamda jamiyatning muhtaram a'zolari G.P. Gelmersen va K.M. Ber tashabbuslarining natijasida jamiyat a'zosi bo'lgan N.A. Seversov Chernyayev ekspeditsiyasida ishtirok etdi. 1864-yilning may-iyun oylarida u Ili orti Olatog' tog'larini tadqiq etishni davom ettirdi. Tog'ning janubiy hududlaridan o'tib, u Avliyo ota va Chimkentga yo'l oldi, so'ngra Toshkent yurishida qatnashdi...

Magistr N.A. Seversov Peterburgdan iyulda yo'lga chiqdi, Voronej guberniyasida oilaviy sharoitlar tufayli biroz ushlanib, Turkiston o'lkasida faqatgina 1866-yilning iyul oyida ish boshladi...

N.A. Seversovning Qoratog'ning tosh-ko'mirli hududlarida olib borgan izlanishlarining natijasi g'oyat qiziq. U ushbu hududning Tersa daryosi bo'ylarida oltin qumlari va temir konlarini kashf etdi. Chirchiq hududidagi oltin konlarida u mahalliy aholi tomonidan oltin ishlab chiqarishning ibtidoiy usullari bo'yicha ma'lumotlar yig'di. Tersa daryosi qirg'oqlarida sharoit butkul boshqacha edi, bu yerda qumlarning xususiyati anchagina yumshoq edi, Chirchiq hududidagi dag'al toshli hududlaridan farqi bor edi.

Turkistondagi ipakchilik sohasi xususida N.A. Seversov anchagina foydali ma'lumotlarni to'pladi. Ipakchilikning asosiy hududi Sirdaryo hududi-

@tarixchi_kutubxonasiga

dagi Namangan tog'lari va uning janubi-g'arbiy qismlari, Sirdaryoni Chirchiqdan ajratib turuvchi Qurama tog'laridan iborat edi. Ipakchilikning eng asosiy markazlari esa – Xo'jand, Namangan, Marg'ilon va Qo'qonda bo'lgan. Toshkentda ipakchilik yaxshi rivojlanmagan edi, mahalliy aholining aytishicha, bu yerdagi ipak tolasining sifati Farg'ona ipagiga teng kela olmasdi. Shu bois tut daraxtini yetishtirishga nisbatan mevali daraxtlar o'stirish foydaliroq edi...

1867-yilning boshlaridanoq, Bosh shtab Harbiy vazirlikning ekspeditsiya uchun ajratgan moliyaviy mablag'i tamom bo'lganligi haqida hisobot berganidan so'ng, Jamiyat Kengashi N.A. Seversov ekspeditsiyasi uchun yana pul mablag'i ajratishni lozim topdi. 1866–1867-yillarning qish mavsumida magistr N.A. Seversov ekspeditsiyasi natijasida yig'ilgan boy ma'lumotlar ustida ish olib bordi, ekspeditsiya esa aprel oyida safarga tayyor bo'ldi...

Yaqinda zabt etilgan Turkiston o'lkasining dastlabki statistik va etnografik ma'lumotlarini 1867-yilda Jamiyat a'zosi A.I. Maksheyev taqdim etgan. Ushbu ishlar hisoboti Rus geografiya jamiyati xabarnomalarining II jildidan joy olgan «Географические и статистические материалы о Туркестанском крае» deb nomlangan ajoyib maqola tariqasida chop etilgan. Maksheyev asosiy e'tiborni o'lkaning turli hududlarida tarqalib yashaydigan ko'chmanchi va o'troq aholisini hech bo'lmaganda taxminiy sonini aniqlashga qaratgan edi. Ko'rsatmalar asosan xizmatchi shaxslardan, kam hollarda esa mahalliy aholi vakillaridan olingan va doimo tekshirib borilgan edi. Natijada muallif Turkiston o'lkasidagi aholi yashovchi xonadonlarning aniq sonini hisobga olgan holda barcha shahar va qishloqlar bo'yicha alohida ro'yxat tuzishga muvaffaq bo'ldi...

1867-yilda Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi bilan Osiyoning tog'li hududlariga ulkan rus madaniy markaz ko'chirildi. Ma'rifatli general-gubernator K.P. fon Kaufmanning lavozimga qo'yilishi esa O'rta Osiyoda geografik tadqiqotlar olib borish uchun ijobiy ta'sir ko'rsatdi...

1868-yilga kelib rus imperatorligi Geografiya jamiyati asosiy e'tiborni, tog'li Markaziy Osiyoda geografiya va tabiiy-tarixiy izlanishlarning soni ko'p bo'lishiga qaramasdan, kam olib borilgan etnografik tadqiqotlarga qaratdi.

Aynan shunday maqsadda Jamiyat a'zolari V.V. Grigoryev, P.P. Semyonov va O.R. Osten-Sakenlar Kengashga ko'rib chiqish maqsadida quyidagi taklifni taqdim etdilar: «O'zining O'rta Osiyo xalqlari borasida etnografik va lingvistik izlanishlari bilan mashhur bo'lgan Barnaul tog' maktabi muallimi V.V. Radlov [hozirda akademik] shu yilning yoz mavsumida Turkiston o'lkasi [Toshkent, Xo'jand]ga safarni amalga oshirmoqchi. Ushbu xatni imzolagan shaxslarning fikricha, bunday taklifdan imkon qadar foydalanmoq

@tarixchi_kutubxonasiga

lozim va bunday vazifani Jamiyat tomonidan topshirish maqsadga muvofiqdir.

Bizning Jamiyat tomonidan tashkil etilgan «Turkiston ekspeditsiyasi» faoliyati Rossiya tomonidan yaqinda zabt etilgan o'lkaning asosan fizikaviy geografiyasini tadqiq etishga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, o'lkaning hududi qiziqarli izlanishlar, shuningdek etnografiya yo'nalishida tadqiqotlar olib borish uchun keng maydon hisoblanadi. Agarda Geografiya jamiyati maxsus etnografik ekspeditsiya uchun yetarli mablag' ajrata olishga imkoni bo'lmagan taqdirda ham bunday imkoniyatni qo'ldan boy bermaslik lozim...

V.V. Radlov uchun maxsus dastur Kengash a'zolari V.V. Grigoryev hamda P.P. Semyonov tomonidan ishlab chiqildi. Unga topshirilgan ko'rsatmalarning asosida shu davrga qadar O'rta Osiyo etnografiyasiga oid ma'lum bo'lmagan masalalarga e'tibor qaratish turgan edi.

V.V. Radlov Barnauldan may oyida, O'rta Osiyoda bizning harbiy kuchlar yangi harakatga o'tgandan so'ng, Toshkentga yetib keldi. Turkistonda o'z himoyasiga olgan general-gubernatori general-adyutant K.P. fon Kaufmanning yordami ila bizning sayohatchimiz shu kunga qadar tadqiqot olib borish uchun mushkul bo'lgan hududlarga yetib borishga muvaffaq bo'ldi. Harbiy harakatlar yakunlangach, mahalliy hukumat rahbariyati tomonidan maxsus ekspeditsiya hozirlandi. V.V.Radlov mazkur ekspeditsiyada ishtirok etishga muyassar bo'ldi va Buxoro xonligining sharqiy qismi, xususan Zarafshon vodiysi, Samarqanddan Xatirchigacha bo'lgan hudud – Zarafshonning ikki irmog'i Oqdaryo va Qoradaryo hududlarigacha sayohat qildi. Bu yerdan ekspeditsiya shimolga yo'l oldi, Nurotaning Oq tog' va Qoratog' tog'lari orasidagi balandliklarda joylashgan vodiyga tashrif buyurdi...

«Описание Зерафшанской долины» deb nomlangan o'z hisobotida V.V. Radlov Zarafshon vodiysining gidrografiyasi va topografiyasi, kanallarning suv bilan ta'minlanishi, sug'orish tizimi, bir haftadan ortiq istiqomat qilgan Samarqand va Kattaqo'rg'on o'troq aholisining joylashgan hududlari bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etdi. Samarqand borasida esa, uning fors tilida so'zlashuvchi yahudiylar xususida bergan ma'lumotlari g'oyat qiziq. Topograflar tayyorlagan bosib o'tilgan yo'nalishning suratlari asosida V.V. Radlov 10 verstdan iborat xarita tuzdi, uning xaritashunoslik borasida erishgan asosiy yutug'i Buxoro xonligining sharqiy hududi bo'yicha mahalliy geografik nomlanishlar va qabilalarning joylashuvini aniq ko'rsatilishida edi...

1869-yil Markaziy Osiyoning shimoli-g'arbiy qismlarida tadqiqotlar olib borish uchun g'oyat hosildor yil bo'ldi. Ayni yilda o'zining ajoyib natijalari bilan mashhur bo'lgan qobiliyatli tabiatshunos A.P. Fedchenko

@tarixchi_kutubxonasiga

boshchiligida imperatorlikning Moskva tabiatshunoslik havaskorlari Jamiyati tomonidan tashkil etilgan Turkiston ekspeditsiyasi amalga oshirildi. Polkovnik Abramovning harbiy ekspeditsiyasidan foydalangan mazkur ekspeditsiya 1869-yilda Zarafshon vodiysining ichkari hududlari Panjikentning orqa hududidan 50 verstgacha bo'lgan hududga kira oldi. Shu yilning o'zida jamiyat a'zosi A.V. Bunyakovskiy Chirchiq daryosining yuqorisida joylashgan Qorabura dovoniga safar qildi. Safar natijasida mazkur hududda turli daraxtlarning balandligini aniqlovchi qiziqarli barometrik kuzatuvlar olib borildi. Shu yilning o'zida, bizning harbiy qismlarimiz Xo'janddan janub tomonga, Sirdaryoning janubrog'ida joylashgan Mirzacho'lga o'tgach, jamiyat yosh a'zosi L. Sobolev tomonidan bu hududlarda qiziqarli kuzatuvlar olib borildi. Turkiston ekspeditsiyasining matematika bo'limi boshlig'i K.V. Struve 1868-yilda Jamiyatga Turkiston hududining 10 verstdan iborat qismlari xaritasini taqdim etdi, 1869-yilda esa Samarqandga safar qildi, qaytishda Kattaqo'rg'on va Jizzaxning joylashuvini aniqladi, shu yo'l bilan Zarafshon o'lkasida izlanishlar olib borish imkoniyatini qo'lga kiritdi. 1870-yilda K.V. Struve Qo'qon xonligiga yuborildi, u yerda u yettita astronomik punktni aniqladi. K.V. Struvening kundaliklari uning ixtiyoriga ko'ra Jamiyat a'zosi V.K. Dellenga yuborildi va ushbu hisobot Jamiyatda e'lon qilindi:

«Qo'qon xonligiga amalga oshirilgan to'rt haftalik safar davomida K.V. Struve oltita astronomik punktni aniqladi. Marg'ilonda yulduzli osmonni kuzatdi, xuddi shunday kuzatuv 1871-yil iyun oyida Buxoroda ham olib borildi. Ushbu ikki kuzatuv – 1870-yilda Toshkent va Olmaotada olib borilgan kuzatuvlar mamlakat hududining maydonini samarali aniqlashga xizmat qiladi. Yulduzli osmonni kuzatish uchun K.V. Struve 27 chiziqdan iborat bo'lgan Myunxen teleskopidan foydalandi, vaqt va maydonlarni aniqlashda kuzatuvchi Pistor doirasini ishlatgan. Yulduzlar kam o'rganilgan, ko'proq Quyoshning holati kuzatilgan...

Vaqt o'lchovlaridagi farqni aniqlash to'rtta xronometr yordamida amalga oshirilgan. Ushbu usul ekspeditsiyaning to'g'ri yo'nalishda ish olib borish imkoniyatini yaratgan».

1870-yilda general-gubernator K.P. fon Kaufman Zarafshon irmoqlari hududiga jasur general-marshal A.K. Abramov boshchiligida «Geografiya» faniga ulkan foyda keltirgan harbiy ekspeditsiyani tashkil qildi. Ushbu ekspeditsiya jarayonida geografik xarita ustida Abramov ish olib borgan bo'lsa, ilmiy tadqiqotlarni A.P. Fedchenko, uning rafiqasi O.A. Fedchenko va sharqshunos A. Kun olib bordilar...

Bu safar ekspeditsiya a'zolari Issiqko'l va Zarafshon tog'lari hududigacha yetib bordi...

@tarixchi_kutubxonasiga

«Geografiya» fani uchun Jamiyat a'zosi, polkovnik baron A.V.Kaulbarsning Tyan-Shanda olib borgan izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi. 1869-yilda A.V. Kaulbars Norin daryosining yuqori qismlari, Altashar chegaralari va Qo'qonda xonlikning shimoli-sharqiy chegaralaridan Qashg'argacha, Issiqko'lning sharqiy chegarasigacha bo'lgan hududni o'z ichiga olgan kenglikda rekognossirovka va yarim aslahali suratga olish ishlarini olib bordi...

1869-yil 2-sentabrda ekspeditsiya Norin hududidagi mahkamadan g'arb tomonga, mazkur hududni suratga olish ishlarini nihoyasiga yetkazish, Qo'qon xonligi va bizning g'arbiy chegaralarimizni tadqiq etish maqsadida yo'l oldi...

...Karvonni vodiyda qoldirgach, Kaulbars Qorasuv vodiysidan Andijon va Dovongacha bo'lgan tog'li yo'lni rekognossirovka qilish maqsadida yo'lga chiqdi. Qorasuv vodiysi va uning Qorako'l vodiysidagi o'simlik dunyosi nihoyatda boy edi. Sayohatchilar Dovonning eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilishga ulgurmadi, sababi, bu yo'l aravada harakatlanish uchun noqulay edi. Baron Kaulbarsning safarda to'plagan ajoyib ma'lumotlari Jamiyat tomonidan 1875-yilda e'lon qilindi...

Gidrografiyaga oid ma'lumotlar

«...1873-yil oxirida Jamiyatning haqiqiy a'zosi A.I. Gluxovskoy Xiva yurishidan qaytib, «Matematika va Tabiiy geografiya bo'limi»da Urundaryo ekspeditsiyasiga rahbarlik davomida amalga oshirgan tadqiqotlari haqida ma'lumot berib, Orol-Kaspiy basseyniga ekspeditsiya uyushtirish to'g'risida mulohaza bildirgan. Bu fikrni Xiva ekspeditsiyasining yana bir ishtirokchisi M.N. Bogdanov ham ma'qullagan. Shundan so'ng Jamiyat a'zolari orasidan Orol-Kaspiy botiqligini o'rganish va u yerga ekspeditsiya jo'natish bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish uchun Komissiya tuzishga kelishilgan[1].

Bo'lajak ekspeditsiyaning o'rganadigan hududi, amalga oshiriladigan vazifalari borasida umumiy rejani tuzib olish uchun Jamiyat kotibi M.I. Venyukov ma'lumotnomasida keltirilgan masalalar asos qilib olinadi. Ushbu masalalar quyidagilardan iborat bo'lgan: 1) Amudaryodagi suv miqdori va uning kema qatnovi uchun yaroqliligi darajasini aniqlash, daryoning barcha tarmoqlarida o'lchov ishlarini amalga oshirish;

[1] «Izv.» X. 6. «Tabiiy va Matematik Geografiya Bo'limi» jurnali. 14 va 21-dekabr, 1873. – B. 301 – 316. Komissiya a'zolari etib A.I. Gluxovskoy, M.N. Bogdanov, R.E. Lens, S.S. Rexnevskiy, M.A. Rikachev, P.I. Lerx, A.L. Kun, L.N. Sobolev, D.I. Shenberg-Ek'-Shaufus va V.V. Grigoryev saylangan. Bulardan tashqari, Komissiya ishida Jamiyat raisining o'rinbosari P.P. Semyonov, kotibi M.I. Venyukov, P.A. Gelmersen, baron N.V. Kaulbars, A.P. Protsenko va baron O.R. Osten-Sakenlar ishtirok etgan.

@tarixchi_kitobxonasiga

2) Xorazm vohasida sug'orishga sarflanadigan suv hajmini aniqlash; 3) Amudaryoning quruq o'zanlarini topografik, geologik, tabiiy-tarixiy jihatdan o'rganish va ayniqsa, O'zboyning Ko'hna Urganchdan 450 verst masofada Igda qudug'i yaqinida to'xtab qolgan nivellirovkasini to'la yakuniga yetkazish; 4) Cho'ldagi suv havzalarining qurishi va qumlarning tarqalishini tadqiq etish; 5) Xorazm vohasining tabiiy va madaniy ishlab chiqarishi haqida batafsil ma'lumotlar yig'ish; 6) Kaspiy dengizi tomonidan Xivaga eltuvchi eng yaxshi quruqlik yo'llari haqida ma'lumot to'plash; 7) Orolbo'yi dashtlaridagi ko'chmanchi aholi, ulardagi chorva miqdori, ularning Xiva xonligiga va o'zaro munosabatini o'rganish. Ushbu 7 ta punktga M.A.Rikachyevning taklifi bilan sakkizinchi vazifa – imkoni boricha ko'proq meteorologik ma'lumotlar to'plash qo'shiladi. Ekspeditsiya faoliyat olib boradigan hudud masalasida Komissiya shunday fikrga keladiki, Rossiya va Xivaga tegishli Amudaryoning quyi oqimi va butun O'zboyni, keyinchalik esa Yangidaryo bo'ylab yurib, eski daryo o'zani qoldiqlari, ehtimol, Sirdaryoning Amuga va undan birgalikda Kaspiyga quyilgan qadimgi o'zanini o'z ichiga olishi kerak edi.

O'zboyni o'rganish va u orqali Amudaryo suvini Kaspiy dengiziga burib yuborish, bu bilan bizning Turkiston va Kaspiyortidagi mulklarimizni qulay yo'l orqali Kaspiy dengizi bilan bog'lash imkoniyati muammosini hal etishga, ayniqsa, Jamiyatning faxriy a'zosi Buyuk knyaz Nikolay Konstantinovich qiziqib qoladi. Komissiya majlislarining ochilishida Jamiyat Kengashi Rais o'rinbosari P.P. Semyonovga Turkiston general-gubernatori bilan ko'rib chiqilayotgan Amudaryo ekspeditsiyasidan tashqari, Tyan-Shanning sharqiy qismiga bitta va Pomirga uchinchi ekspeditsiyani tashkil etish bo'yicha bog'lanish vakolatini beradi. Ushbu ekspeditsiyalarni birlashtirish va ularning hammasini bir vaqtda tashkil etishning imkoni yo'qligi sababli Rais o'rinbosari general Kaufmandan mahalliy va siyosiy shart-sharoitlarni inobatga olib, Jamiyatga bu to'g'risida o'z mulohazalarini bildirishni so'raydi. Keyinchalik ushbu xatdan va Turkiston general-gubernatoriga Amudaryo ekspeditsiyasining maqsadi va faoliyat hududi haqida yetkazilgan ma'lumotlardan ayon bo'lishicha, 1874-yilda Amudaryo ekspeditsiyasini oldindan o'ylangan miqyosda o'tkazish mumkin bo'lmagan, chunki Amudaryoning chap qirg'og'i 1873-yil Xiva voqealari munosabati bilan mahalliy aholining noroziliklari sababli notinch bo'lgan va ekspeditsiyaning u yerda paydo bo'lishi bu noroziliklarni kuchaytirib, xavfli vaziyatni keltirib chiqarishi mumkin edi. Shunday qilib, 1874-yil 9-fevralda Amudaryo ekspeditsiyasini tashkil etish uchun Oliy qaror imzolanadi, lekin bunda: «Ekspeditsiya tadqiqotlarini faqatgina biz egallagan Amudaryoning quyi oqimi bilangina cheklanishi kerak va mahalliy aholida rus tadqiqotchilarining paydo bo'lishi shubha va g'alayonlar uyg'ot-

@tarixiy_kutubxonasiga

maydigan bo'lguncha Xiva xonligi hududiga o'tilmasin», deb buyuriladi. Ekspeditsiya xarajatlari uchun Oliy hokimiyat tomonidan Jamiyat hisobiga 20 000 rubl o'tkazib beriladi.

Demak, yuqorida Komissiya tomonidan ishlab chiqilgan tadqiqotlar dasturidagi ikkinchi masala – quruq o'zanlarni o'rganish – bu ekspeditsiyaning vazifalari doirasidan chiqib olib borilishi kerak edi. Ekspeditsiya ishlaydigan hududning chegaralanishi bilan u o'zining dastlabki maqsadini yo'qotgan bo'lsa-da, baribir u o'z muhimligini yo'qotmay, ikki tomonlama ahamiyat kasb etadigan bo'ldi: bir tomondan, uning Orol-Kaspiy botiqligining umumiy tabiiy-geografik masalalari bilan uzviy bog'liq ilmiy maqsadlari unga Oksning quruq o'zanini bevosita tadqiq etish uchun, keyinchalik uyushtiriladigan ekspeditsiya uchun tayyorlov ekspeditsiyasi xususiyatini baxsh etsa, ikkinchi tomondan, ilk bor ilmiy tadqiqotlar o'tkazish mumkin bo'lgan hududni o'rganishning o'zi Geografik jamiyat faoliyati uchun oliyjanob vazifa edi.

Bunday sharoitda, ayniqsa, ekspeditsiya uchun yetarlicha mablag' ajratilganini inobatga olib, uning dasturidagi ishlar hajmini kengaytirish imkoni paydo bo'ldi.

Avvalo, Komissiya ekspeditsiyaning meteorologik bo'limi[1]ni rivojlantirishni foydali va zarur deb topdi. O'rta Osiyo meteorologiyasi bo'yicha ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lish kelajakda Orol-Kaspiy botiqligida o'tkaziladigan tabiiy-geografik va tarixiy tadqiqotlar uchun mustahkam asos bo'lishidan tashqari, bu vaziyatda meteorologik tadqiqotlar keng hududda ko'chib yurishni taqozo etmasligi bilan Komissiya diqqatini jalb etdi[2].

Topografik bo'limning dasturi esa Amudaryo bo'ylab nivellirovka ishlarini amalga oshirish bilan to'ldiriladi, bu bilan daryoning qiyaligini aniqlash, uni kelajakda mo'ljallanayotgan quruq o'zan nivellirovkasi hamda Amu va Sir daryolari orasidagi nivellirovka bilan bog'lash maqsad qilib olingan edi[3].

Shu bilan birgalikda, ekspeditsiya dasturiga tabiiy-geografik va tabiiy-tarixiy tadqiqotlar[4]dan tashqari, statistik-etnografik tadqiqotlarni kiri-

[1] *Lens R.E.*, baron *Osten-Saken O.R.* va *Rexnevskiy S.S.* taklifi bilan. Izv. X., kn.5., Str. 179.

[2] Ekspeditsiya meteorologik ishlarining batafsil rejasi Meteorologik Komissiya tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning ishida G.I. Vild, P.P. Semyonov, R.E. Lens, M.A. Rikachyev, N.V. Kaulbars, V.P. Keppen, I.A. Fritshe, P.A. Gelmersen, baron E.V. Maydel, baron A.V. Kaulbars va F.B. Dorandtlar ishtirok etgan. Meteorologik bo'limning haqiqiy a'zosi M.A. Rikachyev tomonidan Komissiya a'zolari yordamida tuzilgan batafsil yo'riqnoma. Izv. X tom, kn.5, 193-betda bosib chiqarilgan.

[3] *Shtubendorf O.E.* taklifi bilan. Ibid. Str. 179.

[4] Tabiiy-tarixiy tadqiqotlar dasturi ekspeditsiyaning ushbu bo'limi a'zolari ishtirokida P.P. Semyonov tomonidan ishlab chiqilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

tish zarurligi tan olinadi. Oxirgisining dasturini ishlab chiqish uchun Etnografiya va Statistika bo'limlari tomonidan alohida Komissiya saylangan[1].

Jamiyat Kengashida ikkala Komissiyaning taklif va xulosalari ko'rib chiqilgach, ekspeditsiya tarkibi to'rtta bo'limdan iborat bo'ldi: 1) Geodeziya-topografiya va gidrografiya; 2) Meteoro-gidrologik; 3) Tabiiy-tarixiy; 4) Etnografik-statistik. Tabiiy-tarixiy tadqiqotlar masalasi bo'yicha Jamiyat Kengashi ayni vaqtda Orol-Kaspiy o'lkasiga ilmiy ekspeditsiya uyushtirayotgan Sankt-Peterburg universiteti qoshidagi Tabiatshunoslar Jamiyati Kengashi bilan kelishib, Amudaryo ekspeditsiyasi tarkibiga tilga olingan Tabiiy-tarixiy Jamiyat ilmiy ekspeditsiyasi a'zosi professor N.P. Barbot de-Marni kiritiladi. Ekspeditsiyada, shuningdek, hukumatning ruxsati bilan ingliz muhandislari mayori Gerbert Vud ishtirok etadi. Dastlab ekspeditsiyaga rahbarlik qilish Buyuk knyaz Nikolay Konstantinovich zimmasiga yuklatilib, u ekspeditsiya rejasining muhokamasida qizg'in ishtirok etadi, ammo ularning betobligi tufayli ekspeditsiyani boshqarish Oliy qaror bilan polkovnik N.G.Stoletovga topshiriladi.

Ekspeditsiya a'zolari 1874-yil aprel oyi oxiri va may oyi boshlarida Peterburgdan jo'nab ketadi, oktabrning boshlariga esa ularning aksariyati o'z ishlarini yakunlaydi, o'lkada faqat meteorolog Dorandt va Milberg qolib, ular reja bo'yicha yil davomida kuzatishlar olib borishi zarur edi.

Ekspeditsiya tomonidan quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

Yangi egallangan o'lkada geodeziya-topografiya va gidrografiya bo'limi bo'yicha tasvirga tushirishdagi mavjud bo'shliqlar to'ldirildi. Amudaryo deltasi, Taldiq va Ulkandaryo oralig'i[2]dan tashqari, to'liq ko'rib chiqildi.

Irmoqlar va ko'llar oralig'idagi hudud qayta tasvirga olindi yoki eski tasvirlarga tuzatish kiritildi; so'ng Nukusdan Buxoro chegarasidagi Mashoqli istehkomigacha butun qirg'oq tasvirga tushirildi. Jami 3 000 kvadrat verst hudud tasvirga tushirildi. Nivellirovka ishlari deltada Nukus va dengiz orasida ikkita bo'ylama va ikkita ko'ndalang yo'nalishda amalga oshirildi: Amudaryo bo'ylab Buxoro chegarasigacha hamda Amu va Sir daryolari oralig'ida, Davkor ko'lidan Yangidaryo o'zani bo'ylab Perovsk shahrigacha. Deltada nivellirovka o'tkazilgan chiziqning yalpi uzunligi 431 verst; Amudaryo qirg'og'i bo'ylab Nukusdan Buxoro chegarasi yaqinidagi Tuyamo'yingacha 252 verst va Yangidaryoning quruq o'zani bo'ylab 600 verstni tashkil etadi.

---

[1] Bu Komissiya tarkibiga L.N. Maykov, V.P. Vasilyev, P.I. Lerx, I.I. Vilson, L.N. Sobolev, V.I. Chaslavskiy, Yu. E. Yanson kirgan. Ushbu bo'limning batafsil dasturi L.N. Maykov va L.N.Sobolev tomonidan ishlab chiqilgan.

[2] Amudaryoning bu qismida topografik ishlarni amalga oshirish mahalliy ma'muriyatga xavfli tuyuldi.

@tarixchi_kitobxonasiga

Nukusning Orol dengizi sathidan balandligi 60 futni tashkil etdi. Amudaryoda aniqlangan eng baland nuqta Buxoro chegarasi yaqinidagi Tuyamo'yinda 206 fut, Sirdaryoning balandligi esa Yangidaryoning boshlanish joyida 296 futni ko'rsatdi.

Garchi botqoqliklar yoki qalin to'qaylardan iborat delta hududi nivellirovka uchun juda noqulay bo'lsa-da, ishlar shunday sinchkovlik bilan o'tkazildiki, Qozoqdaryodagi ko'prik, Chimboy va Nukusda o'rnatilgan tekshiruv nuqtalari deyarli farq ko'rsatmadi. Orol dengizidan yuqori deltadagi asosiy nuqtalar [Qushxonatog', Qozoqdaryo ko'prigi, Chimboy, Oqqal'a, Ikki-Ota, Purxon va Nukus]ning qiyosiy balandligi shuni ko'rsatdiki, uning yuzasi sharqqa tomon og'ishgan.

Davkor ko'li eng chuqur botiqlikda joylashgan bo'lib chiqdi, Quvonch-Yorma-Yangisuv chizig'i esa talvegni tashkil etgan. Deltaning bunday og'ishi va Quvonch-Yorma-Yangisuv chizig'i hosil qiladigan chuqurlik bu irmoqni sersuvroq qilgan va uning kema qatnovi uchun qulayroq ekanligi ma'lum bo'ladi.

Amu va Sir oralig'ida o'tkazilgan nivellirovka bu ikki daryo havzasining bog'liqligi to'g'risidagi muhim masalani ijobiy hal etib, Davkor va Perovsk shahri sathining farqi 30 sajen uzluksiz qiyalikdan iborat bo'lgani uchun Sirdaryo suvini Yangidaryoning quruq o'zani orqali o'tkazish mumkinligi aniq bo'ladi. Bunda Yangidaryoning paydo bo'lishi va yo'qolib qolishini izohlovchi bir qator qiziq faktlar ma'lum bo'ladi. O'tgan asrda Inkordaryo nomi bilan ma'lum bo'lgan Yangidaryo Julekdan 15 verst quyida bo'lgan joyda Sirdaryodan ajralib chiqqan va janubi-g'arbga oqib, ikkita irmoqni hosil qilgan, ulardan biri Davkorga yetib borgan, ikkinchisi esa Kichikdaryo nomi bilan shimoli-g'arbga oqib, Orolgacha yetib borgan. Kichikdaryo o'zanining ko'p joyi hozirda qumlar ostida qolgan. Inkordaryodan Qizilqumga ko'plab daryolar ajralib chiqadi. Ularning izlari ko'p joyda bilinib turadi va qamish tomirlarining topilishidan ularda yaqingacha suv mavjud bo'lganligi ayon bo'ladi. O'zan atrofidagi xarobalar bu yerda ilgari ancha yuksak madaniyatga ega bo'lgan o'troq aholi yashaganligidan dalolat beradi. O'sha davrda Qorao'zak qirg'oqlari qamishlarsiz ko'l bo'lgan va uning yuzasi hozirgidan ancha kichik edi. Suv ko'paygan paytda Sir suvi hozirgi Perovsk yaqinida undan ajralib chiqadigan irmoq orqali bu ko'lga quyilgan. Ko'lning Sir bilan Qarmoqchi yaqinida birlashishi hozirda mavjud bo'lmay, 100-yil oldin dalalarni sug'orish maqsadida aholi tomonidan ko'ldan Qarmoqchiga ariq qazilgan edi. Ushbu asrning boshida qo'qonliklar o'z qirg'izlarining Xiva mulklariga o'tishiga to'sqinlik qilish maqsadida Inkordaryoni Bok-To'lan yaqinida [Perovsk yonida] to'sib qo'yadi, natijada Sir suvlari eski o'zanlariga yurolmay, alohida joylashgan ko'lning atroflarini, qirg'oq bo'yidagi ekinzorlarni suv

@tarixchi_kutubxonasiga

bosadi va Inkordaryo qirg'oqlari xuddi Sariqamish bilan Ko'hna Urganch oralig'i singari tashlandiq xarobazorga aylanadi.

Aytilgan voqeadan 20–30 yil o'tib qo'qonliklar Xiva bilan munosabatlar yaxshilangach, Sir suvini yana quruq o'zanga burib yuboradi [Bok-To'lan-dan emas, Oqmasjid yaqinidan] va daryoning bu ko'li Yangidaryo nomini oladi. Bu safar Sirdaryoning Qorao'zakka oqishi natijasida Yangidaryoga ozroq suv yo'naladi va u sharqda hozirda quruq bo'lgan Oqcha va Ko'k-cha dengizgacha borib, Davkorga ham, Orolga ham yetib bormaydi. Bu bilan katta daryoning avval paydo bo'lib, so'ng yo'qolib qolishi izohlanadi, bu holatni Meyendorf Buxoroga ikki marta safari davomida qayd etgan. Nihoyat, ekspeditsiya ishidan 12–15 yil avval Perovsk uyezdi aholisi xo'jalik maqsadida Yangidaryoning Sirdan chiqishini to'g'on bilan to'sib qo'yadi va Yangidaryo bo'ylab hudud yana cho'lga aylanadi.

Sir atrofidagi mahalliy mo'ysafidlarning aytishicha, oxirgi 30–40 yil davomida daryo suvi sezilarli ravishda kamaygan va ular buni Farg'onada daryoning yuqori oqimida sug'orishga ko'proq suv sarflanayotgani bilan izohlaydi. Keltirilgan faktlar ushbu o'lkalarda insonning aralashuvi hududning tabiiy sharoitlariga qay darajada kuchli ta'sir o'tkaza olishini ko'rsatib beradi.

Gidrografik sohada ekspeditsiya tomonidan deltaning irmoqlari, delta markazidagi ko'llar tizimi, Ulkandaryo, Quvonch-Yorma-Yangisuv va Davkor ko'llari o'rganiladi. Ushbu suvlarning barchasida bir necha ko'ndalang yo'nalishlarda o'lchashlar o'tkaziladi, suv oqimining tezligi aniqlanadi, tuproq xossalari o'rganiladi. Bu tadqiqotlarning barchasi, mahalliy mo'ysafidlarning guvohliklari bilan birga shundan dalolat beradiki, Lavzan kanalining to'g'on bilan to'silishidan avval deltaning ko'rinishi hozirgi holatdan ancha farq qilgan. O'sha paytda hozirda qamishlar bilan qoplangan botqoqlikdan iborat markaziy qismi yuzasi u yoki bu darajada relyefli voronkasimon pastqam orollardan iborat bo'lgan. Bu orollarda o'troq aholi yashab, asosan sholi yetishtirgan. Suvning mo'lligi va orollardan bir oz ko'tarilib turishi sug'orish uchun qulay bo'lgan. Lavzanning to'silishi deltaga suv oqimini ko'paytirib, hozirgi holatga olib keladi. Xuddi shu sababga ko'ra daryoning o'ngga og'ishi natijasida ilgari kichkina bo'lgan Quvonch-Yorma va Yangisuv irmoqlari sersuv bo'ladi va admiral Butakov ekspeditsiyasi kuzatgan Yangisuvdagi ko'ndalang qirg'oq yuvilib ketadi. Ulkandaryoning sayozligi natijasida Kazalinsk va Amudaryo bo'limi oralig'ida aloqa o'rnatishni qiyinlashtirishi ekspeditsiyani deltaning boshqa irmog'i orqali boshqa kema qatnaydigan yo'l qidirishga undaydi. Katta qiyinchiliklar bilan bunday yo'l aynan shu Yangisuv orqali topiladi.

Ekspeditsiya tomonidan aniqlangan ko'ndalang profillar, oqim tezligi, farvater va delta irmoqlaridagi o'lchovlar Amudaryo quyi oqimining

@tarixni_kutubxonasiga

xususiyatlari haqida to'la ma'lumot beradi. Daryo suvining ishlatilishi hajmi Tuyamo'yin yaqinida eng past ko'rsatkich – sekundiga 120 000 va eng baland ko'rsatkich – 160 000 kub futni tashkil etib, bu Nevaning irmoqlarga bo'linishidan teparog'ida ishlatiladigan suvdan bir yarim barobar ko'pdir.

Umuman, Amu va uning deltasidagi gidrografik tadqiqotlar quvvati baland paroxodda Nukusdan Amudaryo bo'ylab yuqoriga suzish farvaterning o'zgaruvchanligidan boshqa muammo keltirib chiqarmasligini, bu qiyinchilikni mahalliy baliqchilardan lotsman yollab bartaraf etish mumkinligini ko'rsatadi. Daryoning yetarlicha chuqurligi, suvosti toshlarining yo'qligi va qirg'oqlarning aksariyat qismi to'xtashga qulayligi kema qatnovini osonlashtirar edi.

Bu ishlarning barchasi ekspeditsiya boshlig'ining bevosita rahbarligida va Orol flotiliyasining zobitlari N.N. Zubov, Bryuxov va Shebashov hamda ingliz xizmati muhandislar mayori Vud ishtirokida amalga oshirilib, N.G. Stoletov va uning xodimlari faolligi hamda ekspeditsiya maqsadlariga sodiqligi hisobiga qisqa muddatda o'tkazilgan.

Meteoro-gidrologik bo'lim bo'yicha ekspeditsiya ishlari muvaffaqiyati ham bundan qolishmagan. Ekspeditsiyaning yetakchi meteorologi, Haqiqiy A'zo F.B. Dorandt meteorologiya bo'limiga qo'yilgan muhim vazifalarni a'lo darajada ado etgan munosib shaxs bo'ldi. Joyga yetib borishi bilan u darhol Amudaryo bo'limi boshlig'i polkovnik N.A. Ivanov ko'magida Nukusda meteorologik observatoriya va Petro-Aleksandrovskda stansiya qurishga kirishadi. Qurilish ishlari avgust oyida yakunlansa-da, iyul oyidan boshlab Dorandt o'z yordamchisi Milberg va shu maqsadda uning ixtiyoriga jo'natilgan quyi zobitlar ko'magida kuzatuvlarni boshlab yuboradi va qisqa muddatda katta muvaffaqiyatlarga erishadi.

1874-yil 1-oktabrdan Nukusda har soatlik kuzatuv ishlari boshlab yuboriladi. Bunda havo harorati, namligi, bosimi, shamol yo'nalishi va kuchi, bulutlilik, magnit og'ishning o'zgarishi kabi hodisalar bo'yicha kundalik ma'lumotlar qayd etib borilib, ular 1875-yil 14-oktabrigacha davom etadi. Ushbu kuzatuvlardan tashqari, har ikki soatda tuproqqa 0,00 ^{m} dan 0,02 ^{m} gacha chuqurlikka o'rnatilgan to'rtta termometrdan harorat ko'rsatkichlari yozib olingan, oxirgi yozgi oylarda esa bug'lanish ham qayd etib borilgan. So'ng bir kunda uch marta tuproqqa salmoqli chuqurlikka [0,4 ^{m} dan 4,0 ^{m} gacha] o'rnatilgan termometrlardagi ko'rsatkichlar yozib borilgan hamda turli evaporometr, futshtoklar va suv harorati kuzatib borilgan. Petro-Aleksandrovsk istehkomidagi kuzatishlar 1874-yil 1-sentabridan 1875-yil 1-sentabrigacha davom etib, har kuni soat ertalabki 5 dan kechki 11 gacha har ikki soatda amalga oshirilgan, har 5 kunda esa sutka davomida har soatlik o'lchovlar amalga oshirilgan; bundan tashqari

@tarixchi_kutubxonasiga

iyun, iyul, avgust oylari quyosh nurlarining kuchlanishi kuzatilgan va har ikki soatda bug'lanish o'lchab turilgan. Petro-Aleksandrovsk istehkomi yaqinida Amudaryoga o'rnatilgan futshtok ustidan kuzatuvlarda F. Dorandtga poruchik E.A. Krilov yordam beradi.

Dorandt tomonidan quyidagi 11 ta punktning geografik koordinatalari aniqlanadi: Kazalinsk, Nukus, Petro-Aleksandrovsk, Chimboy, Xiva, Xo'jayli, Qo'ng'irot, Qo'shxonatog', Oqqal'a, Qilichqal'a va Irgiz tegishli balandliklar bo'yicha 167 vaqt o'lchovi va quyoshning peshindagi balandligi bo'yicha 19 ta kenglik o'lchovi amalga oshiriladi. Bundan tashqari, Dorandt tomonidan 176 punktda magnit kuzatishlar olib boriladi.

Sharoitlar tadqiqotchilarga Amudaryoning o'zida bu darajada ko'p gidrometrik o'lchashlarni o'tkazish imkonini bermagan; 1875-yil 22–23-fevralda muz ustida yurish imkonining paydo bo'lishi natijasida Amudaryoning Nukus yaqinidagi ko'rinishi aniq belgilanadi, shuningdek, Voltmann qanotlari yordamida oqim tezligi ham o'lchanadi; xuddi shunday o'lchashlar Nukus yaqinida Dorandt tomonidan Orol flotiliyasi ko'magida 6–7-iyulda takrorlanadi, xuddi shunday o'lchovlar Milberg tomonidan Pitnak yaqinida olib boriladi. Lo'ko'zakda deyarli har oyda, aynan bitta joyda Amudaryo profili va oqim tezligi aniqlab boriladi. Har oyning so'nggi kunlarida daryodan aniq o'lchab olingan suv miqdori filtrdan o'tkazilgan, bu bilan filtrda qolgan cho'kindining og'irligiga qarab Amudaryo suvlari deltaga doimiy ravishda olib boradigan moddalar miqdori aniqlangan.

Yoz oylarida havoning haddan tashqari quruqligi havo namligini aniqlashga xizmat qiladigan turli asboblarni solishtirib ko'rish imkonini berdi; Avgust psixrometri, Sossyur gigrometri va Reno gigrometri bo'yicha solishtirma kuzatuvlar asosida ko'p sonli material to'plandi.

Quyosh nurining kuchlanishini o'lchash uchun mo'ljallangan termometrlarning ko'rsatkichini Pule pirgeliometri bilan bir necha marta solishtirildi.

Nihoyat, Observatoriya termometrlari namunasida o'rnatilgan asboblar ustidan psixrometrik kuzatuvlardan tashqari, ingichka kaltaklar va qamish to'qimalardan iborat katak ichiga o'rnatilgan psixrometr ustidan oxirgi o'rnatilgan holatning o'zgartirilishi hisobiga ro'y beradigan tuzatishlarni aniqlash uchun har soatda kuzatuv olib borilgan.

Amudaryo bo'limi boshlig'i polkovnik N.A. Ivanov tomonidan meteorologiya ishlariga katta qiziqish uyg'ongani uchun, u ekspeditsiya yetib kelishidan avval Qizilqum dashti iqlimshunosligi uchun qimmat bo'lgan materiallarni to'plab qo'yadi. Bu kuzatishlar shaxsan u tomondan psixrometr va aneroid yordamida Tamdada, u yerga uyushtirilgan rekognossirovka davomida, 1872-yil 9-maydan 30-sentabrgacha amalga oshiriladi. Bu kuzatuvlarning natijalarini Ivanov Dorandtga Geografiya jamiyatiga taqdim etish uchun topshiradi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Dorandt ekspeditsiyadan qaytgach, to'plangan materiallarni nashrga tayyorlay boshlaydi; uning rahbarligida tashkil etilgan meteorologik stansiya esa ekspeditsiya a'zolari ketgandan so'ng ham faoliyat olib boradi: Nukusda doktor A.G. Sitovich, Petro-Aleksandrovskda provizor I.I. Valter Dorandt tomonidan o'rgatilgan ikki kuzatuvchi bilan birgalikda kunda to'rt marta o'lchash ishlarini olib borgan.

1876-yilda ekspeditsiyaning tabiiy bo'limi tomonidan yig'ilgan materiallarni qayta ishlash N.N. Zubov va Dorandtning sa'y-harakatlari bilan shu darajada ilgariladiki, Amudaryo ekspeditsiyasi ishlarini nashr etish boshlanadi. Afsuski, shu yili ishini deyarli yakunlagan F.B. Dorandtning o'zi vafot etdi. Shunday bo'lsa-da, ekspeditsiya tabiiy bo'limining barcha ishlari 1877-yil davomida nashr qilinadi. Uchinchi, to'rtinchi va beshinchi nashrlar paydo bo'lib, ularda ekspeditsiyaning gidrografik, gidrometrik va tabiiy-geografik tadqiqotlarining natijalari aks etgan».

Н.А. Северцов. «Путешествия по Туркестанскому краю» («Turkiston o'lkasi bo'ylab sayohatlar»)[1]

***Nikolay Alekseyevich Seversov** (1827–1885) – geograf, zoolog. 1864-yilda Rossiya imperatorligi Geografiya jamiyati tashabbusi bilan general M.G. Chernyayevning Sirdaryo hududiga harbiy ekspeditsiyasida ishtirok etgan. N.A. Seversov O'rta Osiyo hududida olib borilgan 11 yillik izlanishlar natijasida tabiiy sharoitlar bilan tanishdi, qiyosiy tahlil va taqqoslash usuli asosida mintaqa tabiatining bir qancha xususiyatlarini batafsil yorita oldi. Uning mintaqada olib borgan tadqiqotlari natijalari asosida 1873-yilda «Puteshestviya po Turkestanskomu krayu» asari chop etildi.*

N. Kariyeva

Orol-Kaspiy pasttekisligi va Tyan-Shan hududlarida olib borgan 11 yillik tadqiqotlarimning rejasi va dasturi borasida bir qancha so'z yuritmoqchiman. Ushbu asarning birinchi qismida o'quvchilar uchun uch sayohatning qisqacha hisoboti va 6 haftalik safarning batafsil bayoni taqdim etiladi...

Asarning ikkinchi qismi joriy 1873-yilda chop etiladi, unda Turkiston o'lkasi va Yuqori Osiyoning fizikaviy geografiyasiga oid ma'lumotlar yoritilgan. Bu qismga quyidagilar kirgan:

A. Gipsometriya va orografiya:

1. Turkiston o'lkasiga oid Tyan-Shan va Pomir tog' tizmalarida o'rnatilgan balandliklar ro'yxati...

2. Yuqori Osiyoda amalga oshirilgan yangi sayohatlarning tarixiy tafsiloti...

[1] *Северцов Н.А.* Путешествия по Туркестанскому краю. СПб. 1873.

@tarixchi_kutubxonasiga

3. Yuqori Osiyoning orografik taqsimlanishi va tog' tizmalari.
4. Tyan-Shan tog' tizmalari batafsil sharhi...

B. Gidrografik kuzatuvlar:

1. Suv havzalari sharhi; Turkiston o'lkasi daryolarining umumiy xarakteri.
2. Tog'lardan suv oluvchi daryolar.
3. Sirdaryoning o'z oqimini o'zgartirgan o'zan va irmoqlari; Orol dengizining qurib borishi borasidagi kuzatuvlar; ushbu kuzatuvlarni Amudaryoning Kaspiy dengiziga quyilganligi bo'yicha masalalarda foydalanish.

V. Turkiston o'lkasining iqlimi va botanik geografiyasiga oid ma'lumotlar:

1. Perovsk, Azret, Chimkent va Xo'jandda meteorologik kuzatuvlar.
2. Turli balandliklardagi iqlim xususiyatlari bo'yicha ma'lumotlar:

– yil mavsumlarining umumiy tafsiloti, qish va yoz mavsumining davomiyligidagi vertikal farqlari bo'yicha; tog' hududlaridagi yomg'irlar mavsumi; qorli tizmalar va uning turli balandliklari; Tyan-Shan tog'laridagi qorlarning yig'ilishi va erishi bo'yicha tafsilotlar; Musart kuzatuvlari asosida Tyan-Shan muzliklarining joylashuvidagi o'zgarishlar; Poltoratskiy, Kaulbars va Shepelevning kuzatuvlarini o'rganish; iqlim va uning o'zgarib borishi...

3. Turkiston o'lkasining turli daraxtlari va madaniy o'simliklarning xaritasiga qo'shimchalar; ularning joylashuvi va tarqalishining fizikaviy sharoitlari.

Uchinchi qism. Geologik xarita va ilovalar. Turkiston o'lkasi geologiyasi bo'yicha ma'lumotlar

A. Qadimgi formatsiyalar, temir va ko'mir konlarining joylashuvi:

1. Geologik o'lchovlar.
2. Kristall va metamorfoza turlari. Rudalarning joylashuvi.
3. Yog'ingarchilik natijasida hosil bo'lgan geologik turlar, ularning joylashuvi va ko'mir konlari.
4. Hozirgi Tyan-Shan relyefi hosil bo'lishi bo'yicha tarixiy tafsilot.

B. Tyan-Shan tog' tizmalarida muz davrining izlari; ularning muz davri fizikaviy sharoitlarini asoslash uchun bo'lgan ahamiyati:

1. Kamina tomonidan topilgan qadimgi muzliklar ro'yxati, ularni Alp tog'lari muzliklari bilan taqqoslash.
2. Qirg'iz cho'lida qadimgi dengiz izlari.
3. Tyan-Shan muzliklari va qadimgi qirg'iz dengizi bilan o'zaro bog'liqlik.

@tarixchi_kutubxonasiga

4. O'rta Osiyo o'simliklari va hayvonot dunyosining geografik tarqalishiga muz davrining ta'siri.

Umumiy xulosa: Turkiston o'lkasining tabiiy va ishlab chiqarish vositalari; ularning sanoat va savdoning rivojlanishidagi ahamiyati va rivojlantirish imkoniyatlari bo'yicha tavsiyalar...

Turkiston o'lkasi bilan kaminaning ilk tanishuvi Botanik va zoologik geografiya va mintaqaviy iqlimning ta'sirini o'rganish bo'yicha Fanlar akademiyasi tomonidan tashkil etilgan ekspeditsiya jarayonida ro'y berdi. 1-avgustdan oktabr oyining ikkinchi yarmigacha biz Sirdaryo o'rniga Iloq va Emba daryolari havzalarini ko'rib chiqdik. Sirdaryo havzasiga esa 18-oktabrda chiqdik...

Safardan qaytgach, I.G. Borshov Fanlar akademiyasining nashrlarida botanik izlanishlari natijalarini chop etdi, men esa yig'ilgan ma'lumotlar ustida ish olib bordim, buning natijasida O'rta Osiyo tabiatini o'rganishni davom ettirish lozimligi haqidagi xulosaga keldim...

...1858-yilda Sirdaryo havzasida olib borgan kuzatuvlarim Orol-Kaspiy pasttekisligidan farqli o'laroq, ushbu daryoning o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini isbotladi.

Perovskiy qal'asiga qaytgach, men ekspeditsiya muhandislariga doimiy zoologik kuzatuvlar asosida namunalar yig'ishni topshirdim. Bu ishlar keyingi yilning sentabr oyigacha davom etdi va ish nihoyasiga yetgach, natijada hayvonlar, sudralib yuruvchilar, baliqlar va ayniqsa, qushlarning turlari bo'yicha qiziqarli va boy to'plam yig'ildi...

Ayni ekspeditsiyada 26-aprel kuni meni ov paytida Qo'qon sarkardalari yaralangan holda asir sifatida Turkiston shahriga olib ketdilar. Og'ir sharoitlarda men Qoratog'ning janubiy hududlarini kuzatdim. Bor imkoniyatlarimni ishga solgan holda o'zim haqimda xabar bergach, Sirdaryo harbiy qismining boshlig'i general Danzasning jasur harakati ila 25-mayda asirlikdan ozod etildim, 30-mayda esa og'ir yaralangan ahvolda Perovskiy qal'asiga yetib keldim...

Shunday vaziyatda men bilan safarga kelgan muhandis I. Guryanovga minnatdorchiligimni bildirishni lozim topdim, sababi, mening asirdaligim paytida u to'plamlarni boyitishni davom ettirdi. Qaytib kelgach, men meteorologik kuzatuvlarni davom ettirdim...

Sog'lig'im tiklangach, yura oladigan ahvolga qaytganimdan so'ng yana ovga chiqa boshladim, 1-avgustdan esa ekskursiyalar uyushtirdim: 1-4-larda [iyun oyi] Sirdaryo va Quvondaryoning havzasiga; 7–17-larda esa otliq holda Sirdaryoning yangi o'zani Jondaryo bilan barobar bo'lgan Xon-uzuk o'zaniga. So'ngra 13–20-avgustda Mirzacho'l hududiga yirik ekskursiyalar amalga oshirildi...

@tarixchi_kutubxonasiga

1864-yilning boshida hukumat Sirdaryo va Olatog' atrofidagi Qo'qon mulkining chegaralarini egallash uchun ruxsat berdi. Buning uchun general Chernyayev Olatog' okrugi tomondan Avliyootani egallashi va Turkiston shahriga yo'l olishi lozim edi...

Bundan xabar topgach, men G'arbiy Tyan-Shanni ko'rib chiqish uchun general Chernyayevdan uning harbiy safarlarida ishtirok etishni iltimos qildim... Men Harbiy vazirlik tomonidan maxsus reja va moliyaviy mablag', Geografiya jamiyatidan 500 rubl miqdoridagi pul bilan ta'minlangan holda ilmiy ish olib borish maqsadida safarni boshladim.Zoologik to'plamni yig'ish uchun muhandis yolladim, mart oyining ikkinchi yarmida Peterburgdan yo'lga chiqdim...

Ushbu safar bo'yicha hisobot 1867-yilda Geografiya jamiyati xabarlarining «Umumiy geografiya» bo'limida, 1-jildning 75–164-betlarida chop etildi. Mazkur hisobot mening O'rta Osiyoga amalga oshirgan safarlarimning natijalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan holda ikkinchi nashri edi.

Tog' tizmasida qorli ko'priklar soni yettitadan iborat: eng kichkinasi – eng yuqorida, ikkita o'rtacha – barchasidan katta, eng baland ko'prik 8650 fut, eng past ko'prik 1200 fut pastroqda joylashgan. Oxirgi qorli ko'prikning yonida baland minoralar kabi o'tkir qirrali qorli tog'lar mavjud – bu Chirchiq daryosining chap qirg'og'ida joylashgan Namangan tog'larining qirralari edi. Uning eng yaqin qorli cho'qqilari 15–20 verst uzoqlikdadir. Ushbu burilishdan keyin dovon kengayib boradi...va yana torayib boradi. Oxirgi qorli ko'prikdan keyin uch verstdan pastroqda Chotqol vodiysi ko'rinadi...

May–iyun oylarida ushbu tog'larda 4000–5000 fut balandliklarda yomg'ir mavsumi kuzatiladi. Bu holat kunduzgi soat 4 dan 7 gacha vaqt ichida yuz beradi. 8000 fut yuqorida ushbu yomg'irlar tez eruvchi qor bilan aralash yog'adi. 9000–9500 fut balandlikda esa yomg'ir umuman yog'maydi, faqat qor yog'adi...

Chotqol vodiysi Talas vodiysidan farqli o'laroq, cho'lli xususiyatiga egadir, uning atrofi o'simliklarga boy...Chotqolning asosiy hududida o'rmonzorlar ko'p, ba'zi joylarida keng dalalar uchraydi...

Bodomdan janubga bo'lgan joylarni men oktabr oyining boshlarida Chimkentdan Toshkentga qaytayotganda kuzatdim. Ushbu yo'l Qaziqurtning sharqiy tog'oldilariga qo'shiladi va Keles daryosiga olib boradi. Bu hududda yo'l adirliklarga boy to'lqinsimon shaklga aylanadi... Keles daryosining kengligi 6–7 sajen, sayoz, ayrim joylarining chuqurligi ½ arshin... oqimi o'rtacha tezlikda, tubi loy va qumli, ba'zi qismlari vodiyning chekkalariga yaqinlashgan, 10 sajen balandlikdagi qirg'oqlarni yuvib turadi. Vodiy anchagina keng, 2 verstgacha boradi, ko'plab bug'doyzorlar mavjud, beda kam uchraydi, paxta o'simligini esa umuman ko'rmadim. Tuprog'i

@tarixiy_kutubxonasiga

yumshoq. Sug'orish tizimi yaxshi emas, hosil boy emas. Cho'l hududining tuprog'i birmuncha hosildor...

Toshkent shahri quyi Chirchiqning 20 verstdan iborat keng vodiysida joylashgan, vodiyning shimoliy chegarasi 25–30 sajen*dan iborat. Toshkent vodiysi Niyozbek qal'asi hududida qazilgan kanallar orqali Chirchiq daryosidan sug'oriladi. Chirchiq daryosi vodiyning shimoliy qismida joylashgan shahardan 8 verst uzoqlikda oqib o'tadi. Men shaharni ilk bor 1864-yilda faqatgina uzoqdan ko'rganman. Shahar atrofi paxsa devor bilan o'ralgan, kichik xonadonlar orasida joylashgan mevazorlarga to'la ulkan o'rmonga o'xshaydi. Katta qurilish inshootlari ko'rinmaydi, ayrimlarning so'zlariga qaraganda, masjidlarning soni 50 ta, boshqa kishilarning aytishicha esa, ularning soni 500 yoki 2000 tadan iborat. Uzoqdan masjidlarning ko'rinishi oddiy uylardan farqlanmaydi va terak daraxtlaridan baland emas.

Ushbu mevazorlar va hovlilar orasida bug'doy, beda va asosan paxta ekilgan dalalar mavjud. O'simliklardan kunjut, shuvoq ko'p uchraydi... Toshkent atrofida paxtazorlar soni anchagina, sholi ko'p, biroq bug'doy shahar aholisi soniga nisbatan kam, asosan Kelesdan va Chimkent atrofidan olib kelinadi. Toshkentliklar sotish maqsadida mevali daraxtlarni ko'p yetishtiradi. Daraxtlardan tut daraxti, uzum ko'p uchraydi. Mevalar oktabr oyida ham g'arq pishib yetilmaydi, biroq juda mazali. Turkiston o'lkasi shaharlari o'zining va mevazorlarining miqdori bilan bir-biridan farq qiladi.

Toshkent va Turkiston o'lkasining katta qismini egallash bilan yakunlangan general Chernyayevning 1864–1865-yillarda amalga oshirilgan unutilmas yurishlari kaminaning 1864-yilda boshlagan izlanishlarimni boyitish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Shu bois 1865-yilning yozida 1-iyuldagi harbiy vazirning ko'rsatmasi va yuqori buyruq asosida Turkiston o'lkasiga ikki bo'lim – fizika va matematika bo'limlaridan iborat ekspeditsiya yuborildi. Topograflardan iborat bo'lgan birinchi bo'limni astronom K.V. Struve boshqargan, ular suratga olish ishlarini davom ettirishi lozim edi. Fizika bo'limi esa o'lkaning fizikaviy geografiyasi, geologik holati, tabiiy ishlab chiqarish vositalarining imkoniyatlari, o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganishi lozim edi. Ushbu izlanishlarning barchasi qisqa vaqt orasida ularning va asosan, geologik tadqiqotlarning foydali natijalarini amaliyotga tatbiq etish maqsadida shaxsan menga topshirilgan edi. Men ekspeditsiya tarkibiga mis va toshko'mir konlarini izlash hamda geologik kuzatuvlar natijasida to'plangan foydali mineral turlarini texnikaviy usul bilan o'rganish uchun bir qancha tog' muhandislarini taklif etishga ruxsat so'radim. Moliya vazirligining roziligi bilan ekspeditsiyaning fizika bo'limiga kapitan L.L. Nikolskiy, bir qancha konchilar va 10 nafar tog' ishchilari qo'shildi.

@tarix_chi_kutubxonasiga

1865-yilning kuz oylarida menga botanik va entomologik to'plamlarni yig'ishda yordam berayotgan rafiqam bilan Orenburgdan Turkiston viloyatiga yo'lga chiqdim...

Dastlabki zoologik to'plam yig'ish ishlarini Chimkent hududida boshladim, bu yerda uzoq ekspeditsiyalarni amalga oshirish sharoitlari g'oyat og'ir edi. Bahor oylarida Sirdaryo hududiga chiqmoqchi edim, biroq Chirchiqdan Julakkacha bo'lgan hududda Buxoro va Qo'qon askarlari bor edi. Toshkentda Geografiya jamiyatining topshirig'iga binoan ipakchilikka oid ma'lumotlarni yig'dim. Topograflarga geologik suratlarni qo'lga kiritish maqsadida tez vaqt ichida 10 verst kenglikdagi Qoratog'ning xaritasini tuzishga buyurtma berdim. Qolib ketgan qismlarni o'zim qo'shimchalar bilan to'ldirdim. Shu tariqa Qoratog'dagi geologik izlanishlar xaritasini yaratdim...

29-may kuni Nikolskiy, oltin kon muhandisi Osokin va ikki tog'-kon muhandisi bilan Qoratog' hududiga yo'lga chiqdim. Ushbu safarning asosiy maqsadi 1864-yilda amalga oshirgan sayohatimda mahalliy aholi vakili, qirg'iz millatiga mansub Chemir avlodidan bo'lgan To'g'rikeldibiyning bergan ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda oltin konlarini topish edi. Uning bergan ma'lumotlari xonlikda tarqalgan oltin konlari xususidagi gap-so'zlar kabi aniq emasdi. Uning ko'rsatma berishicha, Talas va Chirchiq daryolarining oqimi bo'ylab 200–300 verst atrofidagi hududlardan qidirmoq darkor edi. Biroq uning bergan ma'lumotlari to'g'ri chiqdi, bu ko'rsatmalar Qoratog' tog' tizmasiga kirish qismidagi Kurkura daryosi hududiga to'g'ri kelayotgan edi. Oltin kam miqdorda bo'lsa ham topildi, 2 arshin chuqurlikda oltin tozalangan...

Dastlabki uch marta olib borilgan qum ichidan oltin ajratish ishlari natijasida qora kukun ajraldi, keyingi 3 marta tozalov ishlarining natijasida esa oltin chiqmadi...

Ekspeditsiyaning asosiy maqsadi bo'lgan oltin konini topgach, Turkiston o'lkasida oltin konlari mavjudligiga yana bir bor ishonch hosil qilgan holda Geografiya jamiyati uchun tayyorlagan hisobotimni yakunladim. So'ngra Keles va Chirchiq balandliklarida toshko'mir konlarini qidirishga tushdim...

@tarixchi_kutubxonasiga

Н. Булаевский. «П. К. Залесский и его научная деятельность» («P. K. Zalesskiy va uning ilmiy faoliyati»)[1]

Toshkent observatoriyasida faoliyat olib borgan harbiy geodezist, astronom olim ***P.K. Zalesskiy*** *(1850–1916) Turkiston o'lkasida astronomiya hamda topografiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Rossiya imperatorligi Geografiya jamiyati Turkiston bo'limining 1916-yildagi yalpi majlisida Toshkent observatoriyasi xodimi* ***N. Bulayevskiy*** *tomonidan qilingan ma'ruzada olimning ilmiy faoliyati yoritilib, uning ilmiy merosi, xaritashunoslikka qo'shgan hissasi, astronomiya sohasida olib borgan tadqiqotlari aks etgan.*

J.A. Peremkulov

Pyotr Karlovich Zalesskiy ...Petrograddagi Harbiy topografik bilim yurtida ta'lim olib, o'qishning so'nggi bosqichida [1873-yilda] Turkiston harbiy topografiya bo'limiga yo'llanma oldi. Shu tariqa, yosh harbiy topografning keyingi taqdiri Turkiston o'lkasi bilan bog'liq holda kechdi. P.K. Zalesskiy dastlab Turkistonda topograf bo'lib ishladi. 1875-yilda tasvir bo'limi boshlig'i lavozimiga tayinlandi. Uning boshchiligida Yettisuv va Buxoro amirligi hududlarida topografik tadqiqotlar amalga oshirildi.

1876-yildan unga trigonometrik tadqiqotlar ishlab chiqish vazifasi yuklandi. Shu tariqa, u uch yil davomida trigonometrik tasvirlarni qo'lga kiritish ishlarida qatnashdi. 1878-yilga kelib, Toshkent astronomiya va fizika observatoriyasining vaqtinchalik nizomi ishlab chiqildi. Unga ko'ra P.K. Zalesskiy observatoriya boshlig'ining astronomiya qismi bo'yicha yordamchisi etib tayinlandi. Bu lavozimda u umrining oxiri [1916-yil] ga qadar ishladi. Observatoriyadagi dastlabki yillarda harbiy topograf P.K. Zalesskiy uchun astronomiya ilmi notanish edi. Ammo bu sohadagi ilk bilimlarni Toshkent observatoriyasi birinchi rahbari, taniqli geodezist astronom I.I. Pomeransevdan o'rgandi. Ikki yil davomida olim astronomiya nazariyasi va amaliyoti bo'yicha, astronomik kuzatuv usullari va ularni tahlil qilish uslublari xususida ilmiy bilimlarni egalladi. 1881-yildan boshlab I.I. Pomeransev boshchiligida Toshkent – Verniy shaharlari o'lchamini telegraf orqali aniqlash ishida ishtirok etdi. 1882-yilda esa, P.K. Zalesskiy ilk bor Samarqand – Panjikent shaharlari xronometrik yo'nalishi bo'yicha mustaqil astronomik-geodezik tadqiqotlar olib bordi. Bundan tashqari, ilmiy faoliyatining dastlabki yillarida yosh olimga vaqtni nazorat qilish vazifasi ham yuklatilgan edi. O'sha davrda Toshkent shahrining asosiy soati observatoriya nazoratida edi. Keyingi yillarda vaqtni

[1] *Булаевский Н.* «П.К. Залесский и его научная деятельность» // Доклад на Общем Собрании Туркестанского Отдела Императорского Русского Географического общества. 22.XII.1916.

@tarixchilarkutubxonasiga

belgilashda telegrafdan foydalanish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, P.K. Zalesskiy bo'sh vaqtlarida tovush tezligining bosim, harorat va namgarchilikka ta'sirini ham o'rgandi. 1884-yilda olim xronometrlarning turli haroratga chidamliligini o'rganish bo'yicha ham ilmiy izlanishlar olib bordi. Turkiston o'lkasidagi harorat o'zgaruvchanligi inobatga olinsa, mazkur tadqiqot ekspeditsiyalar uchun qanchalik muhim ekanligi ma'lum bo'ladi. Bundan tashqari, P.K. Zalesskiy refraktor pardasi orqali quyosh dog'larini kuzatib, tasvirga olish ishlari bilan ham shug'ullandi.

P.K. Zalesskiyning izlanishlari ilmiy astronomiyadan ko'ra geodeziyaga ko'proq aloqador edi. Olimning geodeziya sohasida amalga oshirgan ilmiy tadqiqotlari orasida yer tortishish kuchini aniqlashga oid ma'lumotlari diqqatga sazovor. Buni amalga oshirishda P.K. Zalesskiy Shternek mayatnigidan foydalandi. Mazkur ilmiy izlanishlari natijasida Turkiston va unga qo'shni hududlardagi juda ko'plab manzillarning geografik koordinatlari aniqlandi. Olim dastlab Tiflis va Pulkovodagi observatoriyalarga ekspeditsiyalar uyushtirib, Toshkent shahrini ular bilan astronomik bog'ladi. Unga ko'ra, Toshkent shahrining astronomik nuqtasi g = 980,080 etib belgilandi. P.K. Zalesskiy 1881–1913-yillarda Turkiston o'lkasi bo'ylab 46 marotaba ekspeditsiya tashkil qildi va uni boshqardi. Umumiy hisobda topograf va astronom P.K. Zalesskiy ishtirokida jami 75 ta ekspeditsiya amalga oshirildi...

...Ko'plab ekspeditsiyalar oylab davom etar edi. Ekspeditsiya ishi qishga to'g'ri kelib qolgan paytlarda uni bahorgacha cho'zishga majbur bo'lar edilar. Asosiy transport vositasi – ot, u o'tolmaydigan vaziyatlarda piyoda yurishga majbur bo'lar edilar. Texnikalar og'ir, noqulay, qo'pol edi. Bundan tashqari, astronomik tadqiqotlar quyosh botgandan keyin, havo harorati kunduzgiga nisbatan anchayin past, kun bo'yi yurib holdan toygan vaqtda amalga oshirilar edi. Shunga qaramay, 1900-yilga kelib ekspeditsiya natijasida Turkistondagi 145 manzillarning geografik koordinatlari aniqlandi. Bu tadqiqotni u 1911-yilga qadar davom ettirdi. Uning ishlariga baho berish uchun mazkur davrda Rossiyada jami 400 gravimetrik manzillar aniqlanganini e'tirof etish mumkin. Umuman olganda, 1884-yilda Yer kurrasining 122 ta nuqtasidagi yer tortishish kuchi hajmi fanga ma'lum bo'lib, 1901-yilda bu ko'rsatkich 1400 tani, 1909-yilda esa 2600 tani qamrab olgan edi. Ushbu geografik nuqtalar ichida 150 tasini P.K. Zalesskiy fanga kiritdi. Ushbu ilmiy yangilikni olim Toshkent observatoriyasida qo'lga kiritgan edi.

Olimning yirik tadqiqotlarini o'zida jamlagan «Turkiston harbiy okrugi va unga qo'shni hududlarning astronomik manzillari to'liq katalogi» deb nomlangan asari ham diqqatga sazovor. Mazkur tadqiqot Geografiya jamiyati Turkiston bo'limi tomonidan nashr etilgan bo'lib,

@tarixchi_kutubxonasiga

ushbu katalogda 1099 ta manzillar, jumladan 143 ta tortishish kuchi hududlari qayd etilgan edi. Kitob Turkiston o'lkasiga kelgan sayyohlar, tadqiqotchi-injenerlar, topograflar va boshqalar uchun muhim qo'llanma bo'lganligi bois tezda tarqalib ketdi. 1914-yilda ushbu kitobning tahrir qilingan qayta nashri chop etildi. Bundan tashqari, P.K. Zalesskiy tomonidan 1889–1891-yillarda amalga oshirilgan Xiva, Amudaryo, Turkiston, Orenburg va Pomir astronomik ekspeditsiyalari natijalarini ham o'lka geografiyasini tadqiq etishda muhim manba sifatida qayd etish mumkin.

И.В. Мушкетов. «Туркестан. Геологическое и орографическое описание...»[1] («Turkistonning geologik va orografik tavsifi»)[2]

Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilganidan so'ng o'lka geologiyasini o'rganish borasidagi ilmiy izlanishlar maqsadli va tizimli tarzda olib borilgan. Imperiya hukumati va mahalliy ma'muriyat tomonidan uyushtirilgan maxsus geologik ekspeditsiyalar Markaziy Osiyo hududining geologik tuzilishi hamda mintaqaning tabiiy boyliklar manbalari haqidagi ma'lumotlar ko'lamini boyitgan. Bu davrda tadqiqotlar geografiyasi kengayib, Turkistonning Sirdaryo, Samarqand, Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlari, Buxoro va Xiva xonliklarining chekka hududlari o'rganilgan. Bundan tashqari, geolog-mutaxassislar tomonidan olib borilgan izlanishlar natijalari muntazam ravishda chop etib borilgan. Jumladan, Turkistonni geologik jihatdan tadqiq etishga katta hissa qo'shgan I. Mushketovning asarida o'lkaning geologik tuzilishi tahlil etilgan. Quyida keltirilgan parchada muallifning mintaqada olib borgan geologik izlanishlariga doir umumiy ma'lumotlar aks etgan.

t.f.n. A.Z. Tog'ayeva

---

[1] ***Ivan Vasilyevich Mushketov*** (1850–1902) – rus geolog va geografi. 1774–1975-yillarda Tyanshan va Sirdaryo vodiysida sayohatda bo'lib, u yerda qator foydali qazilmalarni aniqlagan. 1874–1880-yillarda O'rta Osiyoda tadqiqot ishlarini olib borib, shu asosda ikki qismli yirik «Turkiston» asarini yozgan. 1881-yilda G.D. Romanovskiy bilan birgalikda Turkistonning birinchi geologik xaritasini tuzgan. U geologik tadqiqotlarning vazifalarini yangicha qo'yib, asosiy e'tiborni tektonik, seysmik va geomorfologik jarayonlarga qaratgan. Imperiyadagi ayrim tog' cho'qqilari va O'rta Osiyo [Qirg'iziston]dagi muzliklar olimning nomi bilan atalgan. (Большая советская энциклопедия. 17-том. – Москва: «Советская энциклопедия». 1974. –147–148-betlar.)

[2] *Мушкетов И.В.* «Туркестан. Геологическое и орфографическое описание по данным собранным во время путешествий с 1874 по 1880 гг. В двух частьях. Т.1. СПб. – Типография М.М. Стасюлевича, 1886.

@tarixchi_kitobxonasiga

Barcha rus olimlari jamoasiga ma'lumki, Turkiston general-gubernatori Konstantin Petrovich fon Kaufman ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor bilan qarab, nafaqat ularga muntazam ravishda ma'naviy va moddiy ko'mak bergan, balki ko'p hollarda tadqiqotlarning tashabbuskori ham bo'lgan... Yevropada mashhur bo'lgan Seversov, Fedchenko, Middendorf ekspeditsiyalari va boshqalar aynan uning tashabbusi va ajratgan mablag'lari tufayli tashkil etilgan.

Mening va prof. G.D. Romanovskiyning Turkistondagi geologik izlanishlarimiz 1874-yilda, deyarli bir vaqtda boshlandi va olti yil davom etdi. Dastlab ular oldiga bir necha amaliy savollarga javob topish, jumladan, toshko'mir va qo'rg'oshin, ruda konlarini aniqlash singari qator vazifalar qo'yilgan bo'lib, ish bugungi darajada katta natijalarga olib kelishi ko'zda tutilmagan edi... Biroq, bir tomondan, ilmiy qiziqishlar, o'lkaning yangiligi, ikkinchi tomondan, Turkistonning bepoyon hududidagi foydali qazilmalar konlarini izlab topish imkoniyati yanada kengroq va tizimli tadqiqotlar olib borilishiga sabab bo'ldi...

Dastlab biz faqatgina nazariy jihatdan foydali qazilmalarga boy ekanligi taxmin qilingan va e'tiborimizni tortgan Sirdaryo viloyati hamda Yettisuvning tog'li hududlarida izlanishlar olib borishni rejalashtirgan edik. Biroq, keyinroq yangi hududlarning bosib olinishi Farg'ona, Pomir va Turkistonning boshqa e'tiborga loyiq qismlarida ham tadqiqotlar olib borish imkonini berdi... 1880-yilda, izlanishlarimiz yakunida juda katta va qayta ishlanishi lozim bo'lgan material to'plandi, buni tartibga keltirish alohida mehnat va vaqtni talab etar edi. K.P. fon Kaufman yordam bermaganda, bizning barcha ishlarimizni nashrga tayyorlash hamda tizimli ravishda chop etish aqlga sig'magan ish bo'lar edi...

...Mening tadqiqotlarim 1874-yilda Qoratov va g'arbiy Tyan-Shan tog' etaklarida boshlangan. Turkistonda xizmat qilar ekanman, Qoratovdagi toshko'mir konlarini izlash borasida topshiriq oldim va yo'l-yo'lakay umumiy tadqiqotlarimni boshladim. Ajratilgan ozgina mablag' bilan aprel oyidan iyulga qadar yolg'iz ishladim. Bu vaqt oralig'ida Qoratovning janubi-sharqiy hududi, Boroldaу vodiysi, Aris va ayniqsa, Bodomni tadqiq etdim. Qaziqurtni o'rganish chog'imda kasallanib, Toshkentga qaytdim. Iyul oyida maxsus taklif bilan yozgi geologik tadqiqotlarni olib borish va asosan, Toshkent atrofidagi foydali qazilmalarni o'rganish maqsadida professor G.D. Romanovskiy keldi. Iyul va avgust oylarida birgalikda sayohat qildik... Dastlab Ugam vodiysi bo'ylab, Qiziltoldagi qo'ng'ir ko'mir konlariga bordik, Bodom va Mashat orqali Qoratovdagi Tatarin konlariga yo'l oldik; Qoratovning shimoli-sharqidan Turlan darasigacha bo'lgan hududdagi boshqa ko'mir konlarini tadqiq qildik. So'ngra Turlan darasi orqali Toshkentga qaytdik. Shundan so'ng Samarqandda bo'ldik, qaytish-

@tarixchi_kitobxonasiga

da O'ratepa shahri atroflarini va Esmana, Tangbosh, Ko'kanasoy vodiylaridagi ko'mir konlarini o'rgandik; Xo'jand yaqinidagi Mo'g'ultov tog'lariga sayohat qildik, Oqchekuv tog'laridagi toshtuz konlari, Mirzarabot stansiyasi yonidagi qo'rg'oshin rudasi va feruza konlarini tekshirdik. Keles vodiysidagi yana bir necha sayohat bilan bizning shu yilgi birgalikdagi tadqiqotlarimiz nihoyasiga yetdi.

...1874-yilda olib borgan tadqiqotlarimiz, bir tomondan, Turkiston geologiyasi haqida favqulodda qiziqarli savollarni tug'dirdi, ikkinchi tomondan, kon-qidiruv ishlaridagi amaliy vazifalarning yechimi kam o'rganilgan o'lka bilan chuqur tanishishni taqozo etishini ko'rsatdi...

Men, Romanovskiydan ayri holda, Tyan-Shanni tizimli tadqiq etishni boshladim.... 1875-yilda Tyan-Shanning shimoliy qismi bo'ylab Toshkentdan G'uljagacha bo'lgan katta sayohatga otlandim. Erta bahorda, ayni aprel oyida, Chirchiq vodiysi bo'ylab qilgan bir necha sayohatimdan so'ng, Pskom vodiysiga yo'l oldim.... Ilioldi mamlakatlari va Tyan-Shan tog' etaklaridagi tadqiqotlar bilan mening 1875-yildagi ekspeditsiyam o'z nihoyasiga yetdi. Uning tafsilotlari, mening boshqa sayohatlarim singari, Turkistonning umumiy geologik kartasida aks etgan.

1876-yilda, ...Uralga xizmat safariga jo'natilganligim sababli, Turkistondan bir yilga uzoqlashdim. Ushbu ishni tugatganimdan so'ng, Turkistondagi ishlarimni 1877-yildan davom ettirdim, bu paytga kelib Farg'ona viloyati va Oloyning qo'shib olinishi bilan bizning hududlarimiz kengaygan edi. Bu geologik jihatdan mutlaqo noma'lum bo'lgan Tyan-Shan tizimining Pomir-Oloy tog'lari bilan aloqasini kuzatishga imkon berdi...

...Mening Farg'ona, Oloy va Pomirdagi izlanishlarim vaqti marhum N.A. Seversovning ishlari bilan to'g'ri kelib, 1877 va 1878-yilning yoz oylarida davom etdi. ...Oloy va Farg'ona tizmasini tadqiq etish natijasida Tyan-Shan va Oloyning muzlik davri Yevropanikidan butunlay farq qilishiga amin bo'ldim. Bunga to'liq ishonch hosil qilish uchun qaysidir yirik muzliklar guruhini tadqiq etish kerak edi – men kam o'rganilganligi va ulkanligi bilan ajralib turuvchi Zarafshon muzligini tanladim...

Biroq, muhim va kutilmagan sharoitlar sababli Zarafshon muzliklarini tadqiq etish rejasi 1879-yilda amalga oshmagan bo'lsa-da, shu yili menga Hisor, Amudaryo va Qizilqum bo'ylab juda qiziq sayohat uyushtirish, Turon pasttekisligi va uning bepoyon qumli cho'llari bilan tanishish imkoniyati berildi...

...1880-yilda men o'zimning maqsadim – Zarafshon muzliklari guruhini tadqiq etishga erishdim. Topograf Petrov va konchilik injeneri Ivanov bilan birgalikda ...Zarafshon vodiysi bo'ylab muzliklargacha ko'tarildik. Karvonni boshqa yo'l bilan jo'natib, o'zimiz Zarafshonning asosiy muzligini piyoda

@tarixchi_kutubxonasiga

bosib o'tdik va Zardala muzligidan So'x vodiysiga tushdik hamda Farg'ona orqali Toshkentga qaytdik.

1880-yildagi Zarafshon ekspeditsiyasi bilan mening Turkistondagi bevosita tadqiqotlarim o'z nihoyasiga yetdi.... [Kirish, XIII–XXVI betlar].

В.Н. Вебер. «Геологические исследования в Сырдарьинской области» («Sirdaryo viloyatidagi geologik tadqiqotlar»)[1]

Rus geologi va paleontologi ***Valerian Nikolayevich Veber*** *(1871–1940) rahbarligida 1904-yilda Sirdaryo viloyatidagi tog' va tog'oldi hududlarda amalga oshirilgan ekspeditsiyaning dastlabki natijalari 1905-yilda Geologiya qo'mitasi xabarnomasida chop etilgan. Ushbu hisobotda Toshkent uyezdi atrofida aniqlangan tabiiy resurslar haqidagi ma'lumotlar ham jamlangan bo'lib, quyida undan ayrim parchalar keltirildi.*

J.A. Peremkulov

1902-yilda amalga oshirilgan Farg'ona viloyatidagi ishlarning davomi sifatida va temir yo'llar uchun toshko'mir zarurligi sababli, 1904-yilning yozida Sirdaryo viloyatida o'tkazilgan geologik tadqiqotlarga boshchilik qildim [Orenburg–Toshkent temir yo'li]. Men ish olib borayotgan tarkibga A.I. Yuferov taklif qilingan edi, u mustaqil holda yoki mening izimdan xomashyoni tez-tez o'z manziliga jo'natishga mas'ul, shuningdek, u Qoratog'da joylashgan ko'mir qatlamlarini qidirish bilan band edi.

Bizning tarkib bilan bir qatorda M.M. Bronnikov guruhi ham ishlayotgandi, biz ular bilan tadqiqot hududini bo'lishib oldik; bizning hududlar tutash bo'lganligi uchun biz hisobotlarni umumlashtirib, xarita tarzida taqdim etdik. Shuning uchun M.M. Bronnikov tomonidan bir yil oldin yozilgan hisobotning chop etilishi kechikmoqda [347-bet].

Biz tadqiqot olib borayotgan maydon G.D. Romanovskiy va I.B. Mushketovlar bilan bir hududga to'g'ri kelar edi: bu yerda N.A. Seversov ko'p ishlar olib borgan bo'lib, manzilgohning Toshkentga yaqinligi va yer qatlamlaridagi toshko'mir rudasining ko'pligi sababli, Turkistondagi ishlab chiqarish korxonalarining dastlabki namunalari aynan shu yerlarda joylashgan.

[1] Геологические исследования в Сырдарьинской области в 1904 году. (Предварительный отчет В.Н. Вебера). // Известия геологического комитета 1905 года. Том 24. № 7–8. –СПб.: Типо-литография К. Биркенфельда. 1905. –С. 347–369.

@tarixiy_kutubxonasiga

Bu yerlardagi tog' jinslarining 90 ga yaqin turi A. Meyster tomonidan ko'rib chiqilgan. Tog' jinslarini E.N. Chernishov va N.A. Sokolovlar bilan birgalikda o'rganyapmiz.

Men izlanish olib borayotgan hududni M. Bronnikov hududi bilan ayri o'rganish mumkinligiga qaramasdan, yakdil tadqiqot olib borildi. Bunga sabab, Qoratog' tizmasini Aris daryosi etagidagi keng vodiy ajratib turadi, bu tuzilishiga ko'ra Talas–Olatog' tog'larining g'arbiy nuqtasidan Keles [Karjantog'] va Qaziqurt orollari o'ziga xos tarzda bir-biridan farq qiladi...

Toshkent uyezdi

...Chirchiq daryosi doim sersuv daryo bo'lib, Talas – Olatog' va Chotqol tog'larining erigan muzlaridan hosil bo'ladi. Tadqiqotchilar tomonidan bu daryoning quyi irmoqlari eng yirik Chotqol va Pskom cho'qqilaridan boshlab yaxshi o'rganilgan. Chirchiq pastroqdagi Xo'jakent qishlog'ida Ugam daryosi bilan ulanib, keng vohaga yuzlanadi [348-bet]. Aynan shu yerdan Chirchiq ko'plab o'zan va irmoqlarga ajralib, tog' daryosi xususiyatini yo'qotadi. O'lkadagi Keles daryosi esa, Karjantog' va Qaziqurt nomli o'rtacha kattalikdagi cho'qqilardagi qorlar erishi natijasida hosil bo'lgan bo'lib, yoz oylarida u butunlay qurib qoladi.

Sariq jilg'a jarligi ham temir yo'l va asosiy traktat bo'ylab tadqiq etilgan bo'lib, «cho'l» deb nom olgan hududlar yoz oylarida butunlay qurib ketadi. Ushbu so'nggi manzilgoh o'rganilayotgan hududdan geologik va fizik-geografik jihatdan tubdan farq qilganligi bois alohida izlanish taqozo etiladi... [349-bet].

...Tadqiqot natijasida mazkur hududdan quyidagi xomashyo manbalari aniqlandi:

Men tomonimdan eng yirik mis koni Oqtosh tog'idagi Uya daryosi chap irmoqlaridan birining yuqori nuqtasida, Karjantog'dagi tog' jinslari xususiyati o'zgargan joyda aniqlandi. Mazkur konda tog' muhandisi D.K. Mishenkov davlat banki ajratgan mablag' hisobidan izlanish olib borgan edi. Bu yerdagi chuqur daralarda ohaktosh, ba'zi joylarda esa ohaktosh parchalari [Dengiz sathidan 6160 m. balandlikda ko'plab minerallangan ohaktosh quduqlari, zichligi 2,5 mt.[1]] uchradi.

[1] *mt. – milli tonna. 1 mt.* = 0,001 tonnaga teng. 0,001 tonna = 1 kg.ga teng og'irlik o'lchovi.

@tarixchi_kutubxonasiga

В.В. Бартольд. «Состояние и задачи изучения истории Туркестана» («Turkiston tarixini o'rganish holati va vazifalari»)

Mashhur rus sharqshunos olimi ***V.V. Bartold*** *(1869–1930)ning mazkur maqolasida Turkiston o'lkasining hududi, geografiyasi, tarixi va madaniyatiga oid tadqiqotlar, ularning yaratilishiga ta'sir ko'rsatgan omillar, rus va yevropalik tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari xususida fikr yuritiladi. Ushbu maqola ilk bor nemis tilidagi «Die Geisteswissenschaften» nomli jurnalda chop etilgan*[1]*, keyinchalik rus tilida V.V. Bartoldning tanlangan asarlaridan o'rin olgan*[2]*.*

t.f.n., dots. D. Rajabova

«Turkiston» forschada «Turkiylar mamlakati» ma'nosini bildiradi. Hozirda esa Yevropada aynan shunday deb turkiy tillarida so'zlashadigan xalqlar yashaydigan Kaspiy dengizidan tortib Xitoygacha joylashgan mamlakatlar ataladi. Yevropa ilm-fani uchun bu mamlakatlar faqatgina XIX asr siyosiy voqealari va Angliya bilan Rossiya o'rtasidagi raqobat, ayniqsa, o'tgan asrning ikkinchi yarmidagi Rossiyaning muvaffaqiyatlaridan so'ng tanila bordi...

Turkistonning geografik o'rganilishi [shu so'zning keng ma'nosida] hozirda nihoyasiga yetib bormoqda; uning aholisi, ayniqsa, uning o'tmishini o'rganish bobida deyarli ish qilinmagan. Aynan shu sohada rus olimlarining e'tirof etib bo'lmaydigan xizmatlari mavjud; shunga qaramasdan, hozirgacha ushbu tadqiqotlarning taqdiri aniq emas. Eng zo'r kuchlar muddatidan oldin qayta chaqirtirib olingan edi, vaholanki, ularning o'rnini oladiganlar yo'q edi. O'rta Osiyo tarixini o'rganishni o'z hayotining maqsadi deb tanlagan ikkita olim – rus olimi Velyaminov-Zernov va nemis olimi Ferd. Teyfelga ayrim sabablar [birining 1878-yilda, ikkinchisining esa 1884-yilda vafoti] bu borada o'z niyatlarini amalga oshirishga xalaqit berdi.

...O'tmishda va hozirgi kunda ushbu madaniy hayotni qanday tasavvur qilish mumkinligi haqidagi fikrlar nihoyatda muammolidir. U yerda makedoniyalik Aleksandrning bo'lganligi, yunonlar «Marakanda» deb nomlagan shaharning nomi Samarqand deb saqlanganligi, islom dini kirib kelgan davrning dastlabki yuz yilliklarida Buxoro va Samarqand gullagan shaharlar bo'lganligi... xalqaro munosabatlar uchun butunlay boshqacha ahamiyatga ega ekanligini bilar edik.

[1] Jg .1, Leipzig,1913–1914, H. 39, S. 1075–1080.
[2] *Бартольд В. В.* Сочинения. Т.IX.–М., «Наука», 1977. –С. 510–521.

@tarixchi_kutubxonasiga

Rus hukmronligining o'rnatilishi tufayli shu masalalarni rivojlantirish bilan shug'ullanish hamda uning yechimi uchun joylarda material topish imkoniyati paydo bo'ldi. Boshqa joylarda bo'lgani kabi [masalan, Eronda] islom hukmronligi davrida qazilma ishlariga, shu davrning ma'lum bo'lgan yodgorliklarini tadqiq qilishga kam e'tibor berilgan edi. Yozma manbalardan faqat bir nechtasi chop etildi, tarixiy tadqiqotlarda ham ularni uchratish amrimahol. Istilodan avval Senkovskiy, birinchi bo'lib matbuotda chiqqan Velyaminov-Zernov, keyinchalik Grigoryev, Lerx, Kun, Veselovskiy, Nalivkin va boshqalar mamlakatning ayrim hududlari haqida o'z monografiyalarini nashr ettirdilar. G'arbiy Yevropada esa F. Teyfelning vafotidan keyin O'rta Osiyo tarixini o'rganish uchun undan ham kam ish qilingan edi.... X asr arab geograflarining ma'lumotlarida bu mamlakat madaniyatining tarixiga oid nihoyatda qimmatli materiallar topish mumkin.

Tarixiy an'analarni o'rganish bilan bog'liq ishlar qanday kechgan bo'lsa, moddiy madaniyat qoldiqlarini o'rganish ham shu darajada bo'ldi; bu yerda eng muhimini ajratish kerak. Eski sayohatlar tafsilotlaridan ma'lumki, Samarqanddagi Amir Temur va uning avlodlari davriga tegishli qurilishlar juda ham mashhur edi; shuningdek, hozirda arxitekturaning ushbu ajoyib yodgorliklari vayronaga aylangandi. Turkistonni zabt etgandan keyin Kaufman arxitektura yodgorliklarini saqlash choralarini ko'rishni lozim topdi; bozor maydoni sifatida xizmat qilgan hamda eski davrlarda qadimgi binolar devorlarigacha joylashgan ko'plab rastalardan iborat bo'lgan Samarqandning markaziy qismi Registon kelajakda bo'shatilgan bo'lishi kerak edi. Turkiston fath etilgan yilda (1868-y.) o'zining sayohat hisobotida V.V.Radlov katta xursandchilik bilan: «Shunday qilib, hozirda shaharga kofirlar qadam qo'yganda bu muhtasham maydon hurmat va hayratga ega bo'lib qoldi», deydi. Afsuski, maqtovga arzigulik niyat amalga oshmadi; fath etilishiga qadar Registon bozor maydoni sifatida xizmat qilgan bo'lsa, hozirda ham shu vazifani bajarmoqda; rus hukmronligi davrida binolar beto'xtov yo'q qilinishida davom etdi, hozirda esa buni to'xtatib bo'lmaydi. Hech bo'lmaganda yodgorliklarni ilm-fan uchun saqlab qolish maqsadida Imperator Arxeologiya komissiyasi «Samarqand masjidlari» [fotosuratlar, chizmalar, rus va fransuz tillaridagi matnli rangli eskizlar] nashrini amalga oshirishni rejalashtirdi. Qimmatbaho nashrning faqatgina bitta nashri chiqdi, xolos [1905-y.], bu ishni oxirigacha yetkazish uchun ancha vaqt kerak va qator yillar davomida tugallash ishlari olib borilmayapti[1].

[1] Uning ikkinchi nashri Bibi-Xonim masjidiga bag'ishlangan bo'lishi kerak edi, ammo nashr qilinmadi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Hozirgi Samarqandning shimolida Afrosiyob shaharchasi joylashgan; arab geograflarining ma'lumotlari va 1885-yildan beri bu yerda o'tqazilgan qazilma ishlarining natijalariga ko'ra VIII asrda arablar nigohiga tushgan Samarqand aynan shu yerda joylashgan edi. Ehtimol, Aleksandr yurishlari davridayoq ma'lum bo'lgan qadimgi turar joyga ham shu shaharchaning joylashuvi to'g'ri keladi. Islom dini hukmron davrda shahar asta-sekinlik bilan janubga siljidi, ammo eski shaharni mo'g'ullar tamomila yo'q qilganidan keyin [1220-y.], aholi uni tark etdi. Mo'g'ullar tomonidan yondirilgan masjid qoldiqlaridan iborat eng yuqori qatlam XIII asr, eng qadimgi qazib olingan qoldiqlar esa Somoniylar davri [IX–X asrlar]ga tegishli. Ayrim narsalar undan ham qadimiyroq bo'lishi mumkin. Masalan, sopol haykalchalar [yunon san'atining aniq ta'sir alomatlari bilan odam va hayvonlar tasvirlari] hamda 1913-yilning yozida topilgan [afsuski, saqlab qolinmagan] budda yoki manixey kliriklari ifodalangan freskaning bir qismi [fragmenti] – Rus Turkistonida shu kabi topilmalarning yagonasi deb hisoblanadi [uning nusxasi Peterburg akademiyasining Antropologiya va etnografiya muzeyida saqlanmoqda]. Qazilmalar haqida faqatgina qisqa ma'lumotlar chop etilgan, xolos, bu muhim shaharchani ilm-fan uchun saqlashda esa deyarli hech nima qilinmayapti. Afrosiyobning janubiy qismi hozirda qabriston sifatida xizmat qilyapti. Hali qabrlar bilan to'ldirilmagan uning shimoliy qismidan imkon darajasida lalmi dehqonchilikda foydalanilmoqda...

Bulardan tashqari, Turkistonda topilgan qadimgi yodgorliklar yoki sinov qazilmalarining natijalari, yoki tasodifiy topilmalar hisoblanadi [masalan, dala ishlari jarayonida topilgan]. Hattoki, ana shu kam sonli va yetarli darajada o'rganilmagan yozma manbalar asosida xalifalikning sharqiy chekkalari musulmon olamining madaniy hayoti uchun ma'lum darajada ahamiyat kasb etgan. Bu yerda Xitoy, Hindiston va hatto, qadimgi [Rimgacha] yunon madaniyati ta'sirida keyinchalik boshqa musulmon mamlakatlariga ham yetib borgan madaniy markazlarga asos solingan.

Taxminan VIII asrlar o'rtalarida Samarqandda Xitoy asirlaridan qog'oz ishlab chiqarish o'rganildi. ...Aynan Samarqanddan qog'oz musulmon olami, keyinchalik esa, Yevropa bo'ylab tarqaldi... .

O'rta Osiyodan olib ketilgan asirlar hatto Makkaning chekka joylarida ham sug'orish ishlarini olib borganlar, bu esa O'rta Osiyo sug'orish san'atining o'sha davrlardayoq yuqori va mukammal darajada bo'lganligidan dalolat beradi. Bu yerda G'arb [Sosoniylar imperiyasi orqali kirgan Rim texnikasi] va Sharq [Hindiston] madaniyati ta'sirining qanchalik muhim o'rin egallaganligi noma'lum. Shuningdek, yana bir masala noaniq: O'rta Osiyoda Baqtriya davridan saqlangan yunon san'atining ta'siri qoldiqlari boshqa musulmon mamlakatlar san'atining rivojlanishida qay darajada namoyon

@tarixchi_kutubxonasiga

bo'ldi? Bu haqda ko'p munozaralar bo'ldi. Yakuniy xulosa chiqarish uchun material yetarli emas.

Turkistonning islomgacha bo'lgan tarixi masalalarida tadqiqotchi faqatgina moddiy madaniyatning qoldiqlariga tayanishi mumkin, chunki bizgacha yetib kelgan afsonalar yetarli ma'lumot bermaydi. 1895-yilda tashkil etilgan Arxeologiya havaskorlarining Turkiston to'garagi tomonidan talaygina ma'lumotlar yig'ilgan edi. Qadimgi turkiy yozuvlar [1896-y.], «suyakdon» [ossuariy] deb nomlangan katta bo'lmagan doira [oval] yoki to'rtburchak shaklidagi sopolli dafn qutilarining topilishi [1899-yil] shular jumlasidandir. Oxirgi yirik topilma 1908-yilda Samarqanddan g'arbroqda joylashgan Kattaqo'rg'on yaqinida aniqlandi. Dafn qutilaridagi tasvir va bezaklar yunon ta'siri ostida paydo bo'lgan bo'lib, o'ziga xos diniy marosimlar va san'at haqida dalolat beradi. Rus Turkistoni tashqarisida bu kabi qutilar shu vaqtgacha topilmagan.

...Somoniylar sulolasining qulashi davri [X asrning oxiri]dan boshlab mamlakat doimiy ravishda, asosan, begona, varvar xalqlarning hukmronligi ostida edi. O'z-o'zidan tushunarliki, bu, o'z navbatida, madaniyatga salbiy ta'sir o'tkazsa-da, bu haqiqatga nihoyatda katta e'tibor berilgan; hattoki, ayrim fikrlarga ko'ra, Turkiston uchun eng og'ir bo'lgan kunlarda mamlakatning iqtisodiy ahvoli bu darajada noumid bo'lmagan. Hatto Xivada ham qishloq xo'jaligi gullab-yashnagan; rus elchisi Muravyevning [1819-y.] fikricha, hech bir joyda, hattoki Germaniyada ham, yetishtirilgan yerdan shunchalik ehtiyotkorlik bilan foydalanilganligi aniqlanmagan. XIX asrning birinchi yarmida Farg'onada ajoyib sug'orish ishlari olib borilgan katta shaharlar paydo bo'ldi...

Shunday qilib, Rus Turkistonining madaniy hayoti, ayniqsa, qishloq xo'jaligi tarixining o'rganilishi nafaqat ilmiy bilimlar, balki Rossiyaning iqtisodiy manfaatlari uchun ham ahamiyatga ega.

«Задачи русских востоковедов в Туркестане» («Turkistonda rus sharqshunoslarining vazifalari»)[1]

***V.V. Bartold**ning ushbu maqolasida Turkiston hududida mahalliy madaniyatning vujudga kelishi, ilk madaniyat o'choqlarini mavjudligidan dalolat beruvchi moddiy va ma'naviy yodgorliklar, bu borada rus tadqiqotchilarining ilmiy natijalari haqida so'z boradi.*

t.f.n., dots. D. Rajabova

[1] 1914-yil 29-dekabrda Akademiyaning yillik tantanali yig'ilishida so'zlash uchun nutq. // 1914-yil uchun Imperator fanlar Akademiyasining fizika-matematika va tarix-filologiya bo'limlari bo'yicha faoliyati haqidagi hisoboti. – Pg., 1914, 443-460-betlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

...Turkiston haqidagi bizgacha yetib kelgan dastlabki ma'lumotlar mahalliy madaniyatning boshlanishiga nisbatan ancha uzoq davrga to'g'ri keladi, shuning uchun bu madaniyatning paydo bo'lish masalasi arxeologiya va lingvistik paleontologiya yordamida aniqlanadi... Turkistonda bu kabi qoldiqlar, 1904-yilda amerikalik ekspeditsiya tomonidan qazib topilgan Kaspiyorti viloyatidagi Anau qishlog'i yonidagi ikkita qo'rg'ondan tashqari, boshqa joylarda kuzatilmagan. Shuni bilamizki, mil.avv. VI asrda Amu-Daryo, Zarafshon va Sir-Daryo havzasidagi madaniy hududlar mashhur bo'lgan, ya'ni birinchi jahon imperiyasi, xususan, fors hukmdorlari imperiyasiga kirgan. Mil.avv. IV asrda aynan shu hududlar makedoniyalik Aleksandr yurishlari tufayli Yevropa antik madaniyati ta'siri ostiga tushdi; ikki asr keyin esa o'lkada Uzoq Sharq madaniyatining birinchi vakillari paydo bo'ldi va ularning tafsilotlariga ko'ra, undan ham ancha oldin mamlakat Hindiston bilan madaniy aloqalarni o'rnatgan edi...

VI asrda tarixda o'zlarini turk deb ataydigan xalq paydo bo'ldi; mamlakatda siyosiy hukmronlik turklarga o'tdi va Amu-Daryo ortidagi hududlar «Turkiston» yoki «turklar mamlakati» nomiga ega bo'ldi.

VII va VIII asrlarda o'lka makedoniyalik Aleksandr va uning vorislari yurishlaridan keyin birinchi marotaba g'arbdan tajovuzkor yurishga duchor bo'ldi; istilochi arablar o'zlari bilan yangi din – islomni olib kirdi va u, o'z navbatida, tezlik bilan aholining asosiy diniga aylandi va nafaqat zardushtiylik, boshqa ungacha kirib kelgan buddaviylik, nasroniylik, moniylik dinlarini siqib chiqardi... Amu-Daryo ortidagi yoki arablar ta'biricha, «Movarounnahr» hududlari Oldosiyo madaniy dunyosining ajralmas qismiga aylandi va musulmon mamlakatlarining umummadaniy hayoti uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shuni ham aytish lozimki, X asrda Buxoro fors adabiyotining qayta rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan Somoniylar sulolasining poytaxti bo'lgan. Mahalliy madaniy hayot haqidagi bizgacha yetib kelgan eng batafsil ma'lumotlar aynan shu davrga tegishlidir; ularga ko'ra islom davrining dastlabki yuz yilliklari o'lka uchun jadal taraqqiyot, sanoat va shahar hayotining keskin rivojlanish davri edi.

Rus hukumatining Turkiston xonliklari bilan aloqalari rus olimlariga Turkiston va uning o'tmishi haqida G'arb Yevropasi bexabar ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatini yaratdi; 1824-yilda hali Turkiston «Buyuk Buxariya» deb atalgan vaqtda, Petrogradda Buxoro amiri rus elchisiga taqdim etgan Buxoro xonligi tarixi bo'yicha manbalardan biri – qadimgi qo'lyozma tahlil qilindi va chop etildi.

1840-yillarning boshlarida sharqshunos N.V. Xanikov bir necha oy Buxoro xonligida bo'lishga muvaffaq bo'ldi va poytaxtga qaytganidan so'ng bu davlat haqida qimmatli tafsilotlarni nashr ettirdi. Mamlakat o'tmishi haqidagi ma'lumotlar esa yangi topilgan yozma manbalardan

@tarixiy_kutubxonasiga

olingan edi. Ruslar tomonidan o'lkani egallanishi tadqiqotlarni muvaffaqiyatli olib borish uchun qulay imkoniyatlar yaratganligi tufayli harbiy harakatlar tugallanmasdanoq o'lkaga sharqshunos olimlarning safar va sayohatlari boshlandi.

1867-yilda, Toshkent egallanishidan ikki yil o'tgach, Imperator Arxeologik komissiyasi tomonidan maxsus arxeologik maqsad bilan Turkistonga sharqshunos P.I. Lerx jo'natildi; 1868-yilda, Buxoro bilan urush paytida, general Kaufman armiyasi tarkibida bo'lajak akademik V.V. Radlov bor edi. Uning ishtiroki natijalari sifatida Zarafshon vohasi va uning asosiy shahri Samarqand yodgorliklari haqidagi batafsil tafsilotlarida namoyon bo'ldi. Shu yilning o'zida obro'li sharqshunos Kazem-Bek sharq tillari fakultetida o'qish uchun Turkistonni o'rganish aniq rejasini kiritdi; bunda u, birinchidan, arab geograflarining asarlaridan Amu-Daryo ortidagi madaniy hududlar haqidagi ma'lumotlarni olish, ikkinchidan esa, Turkistonga bir necha yillar davomida yozgi vaqtda yodgorliklarni o'rganish va qo'lyozma, lingvistik, etnografik, numizmatik va epigrafik ma'lumotlarni yig'ish maqsadida malakali professor rahbarligida uch-to'rtta yosh sharqshunoslarni safarga jo'natishni tavsiya qilgan.

Afsuski, 1860-yillar oxiridagi ilmiy jo'shqinlik kutiladigan natijalarni bermadi. Rus sharqshunosligi ushbu rejalarni amalga oshirish uchun yetarli darajada kuchlarga ega bo'lmagan, shuning uchun yarim asr oldin ko'zlangan ilmiy vazifalar hanuzgacha bajarilmay qolgan. Poytaxt kutubxonalaridagi sharq qo'lyozmalari sonining ko'payishini hisobga olmagan holda, Turkiston o'lkasi tashkilotchisi K.P. fon Kaufmanning faoliyati rus sharqshunosligi uchun deyarli izsiz o'tdi. O'lkaning oldingi davrlar madaniyati yodgorliklari ham tadqiq qilinmadi. Ma'lumki, XVI asrgacha siyosiy va madaniy hayotning markazi sifatida Samarqand tan olingan edi; shu tufayli hozirgi Samarqandning shimolida joylashgan, mahalliy aholi orasida Eron xalq dostoni qahramoni, «Afrosiyob» nomi bilan mashhur bo'lgan shaharcha ham e'tiborni tortmasligi mumkin emas edi. Shubhasiz, bu shaharchaning tadqiq qilinishi Turkistonning qadimgi madaniyatini o'rganilishi uchun qimmatli material bo'lib xizmat qilar edi, ammo ilmiy tayyorlangan tadqiqotchilarning yo'qligi sababli general Kaufman Afrosiyob va boshqa qadimgi turar joylarni vahshiyona qazilma ishlaridan himoya qilish uchun tegishli choralar ko'ra oldi, xolos. Kaufmanning vorisi M.G. Chernyayev 1883-yilda yozuvchi V.V. Krestovskiyga Afrosiyobni qazishni topshirgan edi.

Qazilma ishlari boshlandi; mahalliy matbuotda tezda qimmatli topilmalar haqida ma'lumotlar paydo bo'ldi; ushbu ma'lumotlar Imperator Arxeologik komissiyasining e'tiboridan chetda qolmadi va maxsus tayyorgarchiligi yo'q shaxslarni ishdan chetlatish hamda zudlik bilan qadim-

@tarixiy kutubxonasiga

gi yodgorliklarni mutaxassislar tomonidan o'rganish choralari ko'rildi. Bu vazifani bajarish prof. N.I. Veselovskiyga yuklatildi. Arxeologik ishlar 1885-yilda amalga oshirildi. Komissiya Afrosiyob va boshqa qadimgi yodgorliklar to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lmaganligi tufayli tadqiqot ishlarining faqatgina umumiy jihatlari aniqlandi, xolos. Afrosiyobda materik qatlamigacha bo'lgan madaniy qatlamni ochish kabi bajarib bo'lmaydigan vazifa qo'yildi; qolgan izlanishlar oldida esa «Turkiston o'lkasini arxeologik jihatdan umumiy o'rganish» maqsadi qo'yildi.

Tabiiyki, prof. N.I. Veselovskiy Afrosiyob yoki boshqa joylardagidek, sinov qazilma ishlari bilan cheklanmadi. Veselovskiyning ishlari natijasida qadimgi shahar va turar joylarning madaniy qatlami qanchalik qimmatbaho xazinaga boy ekanligi, mahalliy hayotga yunon san'atining ta'siri alomatlari namoyon bo'lganligi aniqlandi. Ammo ishlarni muntazam ravishda olib borishni davom ettirish uchun ushbu ma'lumotlar yetarli deb hisoblanmadi. Keyingi yillarda Turkistondagi arxeologik kashfiyotlar tasodifiy topilmalar natijalari tusini oldi, bu esa, o'z navbatida, ilm-fan olamida mashhur bo'lmay qoldi.

Arab istilochilari Buxoro xonligining ark qismida buddaviylik, Samarqand va boshqa hududlarda – zardushtiylik, xristianlik va manixeylik hukmronligiga duch keldilar. Mahalliy buddaviylarning yozuvi mavjud edi... Boshqa mahalliy tillardan So'g'd yoki Zarafshon vohasi hamda Xorazm yoki hozirgi Xiva xonligi tillaridagi o'zining yozuviga ega edilar; II asrlardayoq hujjatlar eroniylar uchun tushunarsiz bo'lgan xorazm tilida yozilgan edi.

Samarqand va Buxoro topografiyasiga oid ma'lumotlar nisbatan yaxshi o'rganilgan; Samarqandda ushbu ma'lumotlardan Afrosiyobdagi muntazam ravishda olib borilayotgan qazilma ishlarida foydalanish mumkin. Vaholanki, o'lkaning qadimgi turar joylari ichida birinchi o'rinda turgan qadimgi shahar mahalliy aholining iqtisodiy manfaatlariga zid bo'lmagan holatda o'rganilishi va tadqiq qilinishi mumkin. Mo'g'ullar yurishi davridan so'ng bu shahar sug'orilmagan va qabristonga aylantirilgan uning janubiy qismidan tashqari, Samarqand aholisi va unga yaqin joylashgan hududlari uchun hech qanday ahamiyatga ega emas. Turar joyi hech qachon o'zgarmagan va zichligi bilan doimo ajralib turgan Buxoroda esa, qazilma ishlarini amalga oshirish mumkin emas; bu yerda tadqiqotchining e'tibori islom dinining dastlabki asrlardagi shahar tuzilishidan deyarli farqlanmaydigan hozirgi shahar topografiyasining o'rganilishiga qaratilgan bo'lishi kerak... Shahar xarobalaridan tashqari islom dinigacha bu yerda hukmronlik qilgan «dehqonlar» – yer egalarining mustahkam uylari, «turar joy qo'rg'onlari» ham e'tiborga loyiq. Ushbu qo'rg'onlarning o'rganilishi ijtimoiy tarix uchun muhim ahamiyatga ega.

@tarixchi_kutubxonasiga

...Hozirgi tadqiqotchining fikriga ko'ra, «Turkiston faxri» bo'lmish Temur va uning vorislari davriga oid mahobatli qurilishlar XIV asr oxiri va XV asrlarga tegishli. ...Turkistonga egalik qilgan madaniyatli davlat uchun ushbu qurilishlarni o'rganish va muhofaza qilish sharafli ishdir.

Samarqand binolari o'z turi bo'yicha fors arxitekturasining yodgorliklariga taalluqli, ammo o'zining mahobatli o'lchovlari bo'yicha fors namunalaridan ancha yirikroqdir; mahalliy arxitektura an'analariga ular ma'lum darajada ta'sirini o'tkazdi; bilimdonlar fikricha, Eron bilan siyosiy va madaniy aloqalarning uzilishiga ancha vaqt bo'lganligiga qaramasdan, XVII asr binolaridan Sherdor madrasasi haligacha XV asr xususiyatlarini saqlab qolmoqda. 1908-yilda mahalliy faollardan biri[1] tomonidan XV asr Turkiston madaniyatining yangi ulkan yodgorligi, Temur nabirasi Ulug'bek tomonidan qurilgan rasadxona qoldiqlari kashf etildi...

5-§. HARBIY STATISTIKA VA TAFTISH MATERIALLARI

В. Гиршфельд. «Военно-статистическое описание Хивинского оазиса» («Xiva vohasining harbiy-statistik tavsifi»)

1867-yilda Turkiston general-gubernatorligining harbiy qo'shini sifatida tashkil etilgan Turkiston Harbiy Okrugining muhim vazifalaridan biri mintaqada harbiy strategik tadqiqotlar va rekognossirovka ishlarini olib borish edi. Shu maqsadda Xiva vohasiga XX asr boshida kapitan V. Girshfeld tomonidan maxsus ekspeditsiya uyushtirildi. Mazkur ekspeditsiya natijalari Amudaryo bo'limi boshlig'i general-mayor M. Galkin tomonidan qayta ishlanib, nashr etiladi. Asarning birinchi qismida Xiva vohasining geografik o'rni, topografiyasi, iqlimi, tabiati, chegaralari to'g'risida, ikkinchi qismida esa, Xiva xonligi va Amudaryo bo'limining ma'muriy-hududiy tuzilishi, boshqaruv tizimi, harbiy holati, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida statistik ma'lumotlar keltiriladi. Ayrim ma'lumotlarda chalkashliklar va noaniqliklar bo'lsa-da, tadqiqot o'sha davr tarixini aks ettiruvchi qimmatli manbalardan hisoblanadi.

Quyida ushbu asardan ayrim lavhalar o'zbek tilida ilk bor chop etilmoqda.

t.f.n. Q.K. Yakubov

...1717-yilda Xiva xonligiga Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida uyushtirilgan ekspeditsiya Sherg'ozixonning qo'llagan harbiy hiylasi tufayli muvaf-

[1] Vasiliy Lavrentyevich Vyatkin.

@tarixchilar kutubxonasiga

gi yodgorliklarni mutaxassislar tomonidan o'rganish choralari ko'rildi. Bu vazifani bajarish prof. N.I. Veselovskiyga yuklatildi. Arxeologik ishlar 1885-yilda amalga oshirildi. Komissiya Afrosiyob va boshqa qadimgi yodgorliklar to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lmaganligi tufayli tadqiqot ishlarining faqatgina umumiy jihatlari aniqlandi, xolos. Afrosiyobda materik qatlamigacha bo'lgan madaniy qatlamni ochish kabi bajarib bo'lmaydigan vazifa qo'yildi; qolgan izlanishlar oldida esa «Turkiston o'lkasini arxeologik jihatdan umumiy o'rganish» maqsadi qo'yildi.

Tabiiyki, prof. N.I. Veselovskiy Afrosiyob yoki boshqa joylardagidek, sinov qazilma ishlari bilan cheklanmadi. Veselovskiyning ishlari natijasida qadimgi shahar va turar joylarning madaniy qatlami qanchalik qimmatbaho xazinaga boy ekanligi, mahalliy hayotga yunon san'atining ta'siri alomatlari namoyon bo'lganligi aniqlandi. Ammo ishlarni muntazam ravishda olib borishni davom ettirish uchun ushbu ma'lumotlar yetarli deb hisoblanmadi. Keyingi yillarda Turkistondagi arxeologik kashfiyotlar tasodifiy topilmalar natijalari tusini oldi, bu esa, o'z navbatida, ilm-fan olamida mashhur bo'lmay qoldi.

Arab istilochilari Buxoro xonligining ark qismida buddaviylik, Samarqand va boshqa hududlarda – zardushtiylik, xristianlik va manixeylik hukmronligiga duch keldilar. Mahalliy buddaviylarning yozuvi mavjud edi... Boshqa mahalliy tillardan So'g'd yoki Zarafshon vohasi hamda Xorazm yoki hozirgi Xiva xonligi tillaridagi o'zining yozuviga ega edilar; II asrlardayoq hujjatlar eroniylar uchun tushunarsiz bo'lgan xorazm tilida yozilgan edi.

Samarqand va Buxoro topografiyasiga oid ma'lumotlar nisbatan yaxshi o'rganilgan; Samarqandda ushbu ma'lumotlardan Afrosiyobdagi muntazam ravishda olib borilayotgan qazilma ishlarida foydalanish mumkin. Vaholanki, o'lkaning qadimgi turar joylari ichida birinchi o'rinda turgan qadimgi shahar mahalliy aholining iqtisodiy manfaatlariga zid bo'lmagan holatda o'rganilishi va tadqiq qilinishi mumkin. Mo'g'ullar yurishi davridan so'ng bu shahar sug'orilmagan va qabristonga aylantirilgan uning janubiy qismidan tashqari, Samarqand aholisi va unga yaqin joylashgan hududlari uchun hech qanday ahamiyatga ega emas. Turar joyi hech qachon o'zgarmagan va zichligi bilan doimo ajralib turgan Buxoroda esa, qazilma ishlarini amalga oshirish mumkin emas; bu yerda tadqiqotchining e'tibori islom dinining dastlabki asrlardagi shahar tuzilishidan deyarli farqlanmaydigan hozirgi shahar topografiyasining o'rganilishiga qaratilgan bo'lishi kerak... Shahar xarobalaridan tashqari islom dinigacha bu yerda hukmronlik qilgan «dehqonlar» – yer egalarining mustahkam uylari, «turar joy qo'rg'onlari» ham e'tiborga loyiq. Ushbu qo'rg'onlarning o'rganilishi ijtimoiy tarix uchun muhim ahamiyatga ega.

@tarixchi_kutubxonasiga

...Hozirgi tadqiqotchining fikriga ko'ra, «Turkiston faxri» bo'lmish Temur va uning vorislari davriga oid mahobatli qurilishlar XIV asr oxiri va XV asrlarga tegishli. ...Turkistonga egalik qilgan madaniyatli davlat uchun ushbu qurilishlarni o'rganish va muhofaza qilish sharafli ishdir.

Samarqand binolari o'z turi bo'yicha fors arxitekturasining yodgorliklariga taalluqli, ammo o'zining mahobatli o'lchovlari bo'yicha fors namunalaridan ancha yirikroqdir; mahalliy arxitektura an'analariga ular ma'lum darajada ta'sirini o'tkazdi; bilimdonlar fikricha, Eron bilan siyosiy va madaniy aloqalarning uzilishiga ancha vaqt bo'lganligiga qaramasdan, XVII asr binolaridan Sherdor madrasasi haligacha XV asr xususiyatlarini saqlab qolmoqda. 1908-yilda mahalliy faollardan biri[1] tomonidan XV asr Turkiston madaniyatining yangi ulkan yodgorligi, Temur nabirasi Ulug'bek tomonidan qurilgan rasadxona qoldiqlari kashf etildi...

5-§. HARBIY STATISTIKA VA TAFTISH MATERIALLARI

В. Гиршфельд. «Военно-статистическое описание Хивинского оазиса» («Xiva vohasining harbiy-statistik tavsifi»)

1867-yilda Turkiston general-gubernatorligining harbiy qo'shini sifatida tashkil etilgan Turkiston Harbiy Okrugining muhim vazifalaridan biri mintaqada harbiy strategik tadqiqotlar va rekognossirovka ishlarini olib borish edi. Shu maqsadda Xiva vohasiga XX asr boshida kapitan V. Girshfeld tomonidan maxsus ekspeditsiya uyushtirildi. Mazkur ekspeditsiya natijalari Amudaryo bo'limi boshlig'i general-mayor M. Galkin tomonidan qayta ishlanib, nashr etiladi. Asarning birinchi qismida Xiva vohasining geografik o'rni, topografiyasi, iqlimi, tabiati, chegaralari to'g'risida, ikkinchi qismida esa, Xiva xonligi va Amudaryo bo'limining ma'muriy-hududiy tuzilishi, boshqaruv tizimi, harbiy holati, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida statistik ma'lumotlar keltiriladi. Ayrim ma'lumotlarda chalkashliklar va noaniqliklar bo'lsa-da, tadqiqot o'sha davr tarixini aks ettiruvchi qimmatli manbalardan hisoblanadi.

Quyida ushbu asardan ayrim lavhalar o'zbek tilida ilk bor chop etilmoqda.

t.f.n. Q.K. Yakubov

...1717-yilda Xiva xonligiga Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida uyushtirilgan ekspeditsiya Sherg'ozixonning qo'llagan harbiy hiylasi tufayli muvaf-

[1] Vasiliy Lavrentyevich Vyatkin.

@tarixchi_kutubxonasiga

faqiyatsizlikka uchradi... 1839-yilning qish oylarida Perovskiy tomonidan boshlangan harbiy ekspeditsiya ham ob-havoning noqulay kelishi tufayli 1840-yilda qator yo'qotishlar bilan yakunlandi. 1841-yilda Xivaga Olloqulixon saroyiga Nikiforov boshchiligida rus diplomatiyasi tashrif buyurdi. U bir necha shartlar aks etgan shartnomani imzolash talabi bilan kelgan edi, biroq u javobsiz qoldi...

1842-yilda esa, polkovnik Danilevskiy boshchiligidagi elchilar Xivaga yuborildi va u yuqorida zikr etilgan shartnomani Rahimqulixon bilan imzoladi. Biroq shartnoma shartlari bajarilmay qoldi. Danilevskiyning missiyasi ham muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo'lsa-da, u Bazingel bilan birgalikda Xiva haqida qimmatli ma'lumotlar bilan ortga qaytdi...

1869-yilda Krasnovodsk bo'g'ozining egallanishi bilan ruslar Xivani uch tomondan o'rab oldilar. Xonlik g'arbdan Kavkaz okrugi, shimoldan Orenburg okrugi va sharqdan Turkiston okrugi bilan chegaralangan edi... 1872-yilda Xivaga qarshi yurish masalasi hal qilindi va u 1873-yil bahorida boshlandi. Qo'shin uch tomondan – Kavkaz, Orenburg va Turkistondan harbiy harakat boshladi va ularga fon Kaufman boshchilik qildi. 1873-yil 29-mayda uch tomondan harakatlangan qo'shin Xiva yaqinida birlashdi va shahar ishg'ol etildi. Muhammad Rahim Bahodurxon bilan shartnoma imzolandi. Shartnoma shartlariga ko'ra Amudaryoning o'ng sohili ruslarga berildi va u yerda keyinchalik Amudaryo bo'limi tashkil etildi.

Orol Kaspiy pasttekisligining shimoli-sharqiy qismini egallagan Xiva vohasi Amudaryo bo'limi va Xiva xonligidan tashkil topgan. U shimol va sharqdan Orol dengizi va Sirdaryo viloyatining Kazalinsk, Perovsk va Chimkent uyezdlari, Samarqand viloyatining Jizzax uyezdi bilan, janubdan Buxoro amirligiga tobe hududlar va Kaspiyorti viloyatining Marv, Ashxobod va Krasnovodsk uyezdlari bilan, g'arbdan Kaspiyorti viloyatining Mang'ishloq uyezdi bilan chegaradosh...

Uning hududi 130 590 kvadrat verst bo'lib, shundan 75 900 kv.verst Amudaryo bo'limiga, 54 690 kv.verst Xiva xonligiga tegishli...

Shayx Jalil va Sulton Uvays tog'i Xiva rayonidagi eng muhim tog' tizmalaridan sanaladi. Sulton Uvays tog' tizmasining nomi shu yerga dafn qilingan diniy ulamo sharafiga qo'yilgan. Tog'larning eng baland cho'qqisi 2 000–3 000 futga yetadi...

Sulton-Saroy ko'lining sharqiy qirg'og'i bo'ylab baland cho'qqili tog'lar, uning g'arbiy va janubi-g'arbiy qismida baland bo'lmagan tog'lar joylashgan.

Xiva rayonidagi barcha qumliklarning umumiy-maydoni 80 000 kv. verstni tashkil etadi. Shundan 56 000 kv. verst Qizilqumga va qolgan 24 000

@tarixchi_kutubxonasiga

kv. verst Qoraqumga to'g'ri keladi... Xiva aholisi o'zi foydalanayotgan dehqonchilik yerida shamol orqali kelgan va ekinlarga zarar yetkazadigan qum uyumlari bilan kurashib kelgan.

1873-yilgi shartnoma bo'yicha Amudaryoning o'ng sohili Amudaryo okrugi ixtiyoriga o'tgach, Xiva xonligi yerlari ustidan rus boshlig'i nazorati o'rnatildi va unga okrug boshqaruvida katta imtiyozlar berildi hamda Turkiston general-gubernatoriga to'g'ridan to'g'ri bo'ysunishi belgilab qo'yildi...

Ma'muriy jihatdan Xiva xonligi 20 ta beklikka va 2 ta noiblikka bo'linadi. Shuningdek, Xiva shahri va uning atrofi xon qo'l ostidagi alohida ma'muriy hududni tashkil etadi.

Bekliklar quyidagilardan iborat: 1) Pitnak; 2) Hazorasp; 3) Xonqa; 4) Urganch; 5) Qo'shko'pir; 6) G'azovot; 7) Qiyot; 8) Shoh Obod yoki Shovot; 9) Toshhovuz; 10) Ambar-Manoq; 11) Gurlan; 12) Mang'it; 13) Qilich Niyozboy; 14) Qipchoq; 15) Porsu; 16) Ilyoli; 17) Ko'hna Urganch; 18) Xo'jayli; 19) Chumanoy va 20) Qo'ng'irot. Bundan tashqari, Beshariq noibligi 5 noib tomonidan va Qiyot-Qo'ng'irot 2 noib tomonidan boshqariladi.

Bekliklarga xon tomonidan tayinlangan hokim boshchilik qiladi. Unga o'z hududining o'zbek va sart [o'troq – *tarj.*] aholisi to'g'ridan to'g'ri bo'ysunadi. Ko'chmanchi aholi – turkman, qirg'iz va qoraqalpoqlar o'z oqsoqollari tomonidan boshqariladi. Hokim 10 dan 100 nafargacha o'z askariga ega bo'ladi. Eng kichik ma'muriy-hududiy birlik masjid qavmlari [jamoasi]dan tashkil topgan...

Urug' oqsoqollari turkmanlarda – kadxudo, oqsoqol: qoraqalpoqlarda – biy va qirg'izlarda – otaliq deb ataladi. Barcha urug' oqsoqollari beklarbegiga bo'ysunadi. Ushbu lavozimlarning barchasi avloddan avlodga o'tadi...

Har bir shaharda ikkita qozilik mavjud. Xiva shahrida darajasi bo'yicha xonlikda eng nufuzga ega 2 qozi – qozi-kalon va qozi-o'rda mavjud. Ular huzurida a'lam va muftiylar faoliyat ko'rsatadilar. Shuningdek, har bir shaharda bitta qozi-rais faoliyat ko'rsatadi. Unga musulmon aholining kundalik hayotda shariat ahkomlariga asoslanib yashayotgani ustidan nazorat topshirilgan...

Xiva xonligida quyidagi soliq va yig'im turlari mavjud:

1) yer solig'i – solg'ut, solg'ut-kesma va dahyak;

2) Eron, Buxoro va Afg'onistondan olib kelingan chorva mollari uchun – zakot;

3) mazkur hududlardan olib kelingan tovarlar uchun – zakot va savdo huquqini beruvchi kesim;

@tarixchi_kutubxonasiga

4) o'tov solig'i;
5) tagijoy yoki bozor yig'imi;
6) tarozi puli;
7) cho'p puli yoki davlat yerlarida chorvasini o'tlatish huquqini beruvchi yig'im.

Xonlikdagi barcha yerlarni 2 ga bo'lish mumkin: davlat yerlari va mulk [xususiy] yerlari...

Soliq to'lash jihatdan yerlar quyidagilarga bo'linadi: yorliqli mulk, atoyi mulk va mulk...

Davlat yerlarida ishlovchilar merosiy ijarachilar sifatida chig'ir yordamida sug'oriladigan podsholik yerlariga hosilning $^1/_{10}$ miqdorida dahyak, chig'ir yordamida sug'orilmaydigan yerlarga ⅕ miqdorda soliq to'laydilar. Dahyak xonlik g'aznasiga 35 000 rubl foyda keltiradi...

Yorliqli mulk – yerlari alohida xizmati va boshqa sabablarga ko'ra turli davrlarda davlat yerlari hisobidan shaxslarga umrbod mulk qilib berilgan yerlardir. Ular yorliq asosida xon va qozikalon muhri bilan rasmiylashtirilgan. Bunday yerlarning har 10 tanobidan davlat 4 tillo miqdorda solg'ut undirib oladi. Mulkdorlar ham xuddi shu miqdorni to'laydi. Ushbu soliqning jami 60 300 rublni tashkil etadi...

Atoyi mulk [merosiy mulklar] – huquqiy jihatdan yorliqli mulklardan farq qilmaydi. Biroq soliq to'lashda farq qiladi. Bu mulk turi a'lo [yiliga 6 tillo soliq], avsat [4 tillo soliq] va adno [2 tillo soliq] kabilarga bo'linadi...

Otliq yerlari – turkmanlarga tegishli yerlar bo'lib, avval turkmanlar o'z yerlaridan soliq to'lamaganlar. Lekin xon talabi bilan har 30 tanob yer hisobidan bitta otliq berganlar. Shu bois, 30 tanob yer otliq deb ham nomlanadi. Xiva mahkamasi hujjatlarining guvohlik berishicha, turkmanlar qo'l ostida 2 250 otliq – 67 500 tanob yer bo'lgan. Ruslar bosqinidan keyin otliq qo'shinga zarurat sezmagan Xiva xonlari otliq yerlarga ham soliq soldilar. Uning miqdori har 30 tanobga 12 tillo miqdorda belgilangan va solg'it-kesma deb nomlangan...

Xon yorliqlariga ega bo'lgan vaqf yerlari, ba'zi mansabdorlar, barcha saidlar va aksar xo'jalar soliqlardan ozod etilgan. Xiva xonligida said va xo'jalar umumiy soni 4000 oila [xo'jalik]ni tashkil etgan. Harbiy xizmatni o'tayotgan navkarlar ham soliq to'lashdan ozod etilganlar. Ular doimiy g'aznadan ish haqi olmaganlar, ularga yerlar berilgan...

Xiva xonligining 2 400 nafar qo'shini bo'lib, shundan 2000 nafari aholining dehqon qismidan shakllantirilgan. Qolgan 400 nafari Xivada xon va uning mulozimlari xizmatida bo'lganlar...

Qirg'iz va qoraqalpoqlardan avvallari ⅖ miqdorda yer uchun dahyak va $^1/_{40}$ miqdorda qoramoldan zakot olingan. Keyinchalik bu soliq turla-

@tarixchi_kutubxonasiga

ri cho'p puli bilan almashtirilgan. Qo'ydan 5 kopeyek, yirik qoramoldan 0,5 tanga va tuyalardan 1 tanga olina boshlagan. Turkmanlar ham cho'p puli to'laganlar. Soliqlar asosan kuzda yig'ib olingan. Soliqlardan tushgan daromadning 10 foizi soliq yig'uvchi shaxslarga ish haqi sifatida berilgan...

Qoramollarni sotish hisobidan ham zakot olingan. Qoramollardan zakot miqdori uning umumiy tannarxining 1 foizi atrofida bo'lgan. Chet o'lkalardan olib kelingan qoramol uchun uning tannarxining $^1/_{40}$ miqdorida soliq solingan. Ayrim savdo tovarlaridan 1897-yilgacha zakot olingan. Keyinchalik u *kesim* bilan almashtirilgan. Biroq ruslar xonlikda savdo qilishda imtiyozga ega bo'lib, ular hech qanday soliqqa va majburiy mehnatga jalb etilmaganlar.

Bozorlarda tarozi puli va tagijoy kabi soliqlar amal qilgan. Tarozi puli sotilayotgan tovarning har pudidan 2 kopeyekdan undirib olingan. Tagijoy esa, bozordagi har bir do'kondan yiliga 1 tillo miqdorda olingan. Ruslar tarkibida bo'lgan qirg'izlarga qo'y uchun 5 kopeyek, qoramol va otdan 10 kopeyek miqdorda cho'p puli joriy etilgan... Pasport uchun ham 1 tillo miqdorda davlat boji to'lanadi...

Xonlikda harbiy xizmatdan tashqari begar va obxo'r kabi majburiyatlar ham bo'lib, ular irrigatsiya inshootlarini qurish, ta'mirlash, yo'llarni qurish bilan bog'liq. Har bir begarga chiquvchi shaxs 30 kopeyek miqdorda *afinak* puli to'lagan. Bu mablag' irrigatsiya inshootlariga mas'ul mansabdor shaxsga uning xizmati uchun to'langan.

1897-yilda Amudaryo bo'limida aholini ro'yxatga olish o'tkazilgan. Xiva xonligi aholisining umumiy soni kamida 600 000, Amudaryo bo'limi aholisi soni taxminan 205 000 ni tashkil etadi...

Xonlikdagi o'zbeklar 30 urug'ga bo'linganlar. Xonlikdagi barcha turkmanlar 7 ta katta urug'ga bo'linadi: Essen-Ili, Yovmut, Imreli, Qoradoshli, Go'klan, Ota va Arabachi. Ushbu urug'lar bir necha urug'cha va qismlarga bo'linadi. Xonlik va Amudaryo bo'limida turkmanlarning umumiy soni 30 050 xonadon, taxminan 152 370 kishini tashkil etadi.

Vohada qoraqalpoqlar XVIII asrda paydo bo'lganlar. Ularning umumiy soni 115 000 kishini tashkil etadi. Shulardan yigirma mingi xonlikda, qolganlari bo'limda yashaydi. Barcha qoraqalpoqlar 2 ga: Qo'ng'irot va O'nto'rt urug'ga bo'linadi.

Vohadagi qirg'iz [qozoq]lar 3 ta yirik urug'ga bo'linadi: Tabin, Alim va Boyuli.

Amudaryo bo'limida ruslar soni 3 113 kishini [qo'shinni hisobga olmaganda] tashkil etadi.

Xonlikda nemislar Kaufman taklifi bilan Turkiston o'lkasiga qishloq xo'jaligi holatini yaxshilash uchun Saratovdan kelganlar. Keyinchalik ular xonlikka ko'chib o'tganlar. Ular 36 xonadon, 142 kishini tashkil etadilar.

@tarixchi_kutubxonasiga

Vohada armanlar ham bor, ular savdo-sotiq bilan shug'ullanadilar...

Bo'limda aholining o'sishi yiliga 2,4 foizni tashkil etadi.

Vohaning umumiy aholisi 136 496 xonadon – 713 937 kishidan iborat. Qum va cho'l hududlari voha hududining 74 foizini tashkil etadi. Vohaning aholisi 2 ga: 1) o'troq [91,4 foiz] va 2) ko'chmanchi [8,6 foiz]ga bo'linadi. Aholining 95 foizi qishloqlarda va 5 foizi shaharlarda istiqomat qiladi. Vohada jami 25 ta shahar mavjud. Petro-Aleksandrovsk shahri Amudaryodan, Bo'zyob va To'rtko'ldan 1,5 verst oraliqda joylashgan. Unda 800 ga yaqin uylar mavjud...

Xivada 3 840 xonadon mavjud bo'lib, uning aholisi 19 000 kishidan ortiq. Xivada 7 ta xon saroyi, 20 ta masjid, 38 ta madrasa, bir necha karvonsaroylar va bozorlar mavjud...

Shaharlar. Yangi Urganch Xivadan 31 verst (1 verst [chaqirim] – 1,06 km) shimoli-sharqda joylashgan. Unda 15 ta masjid va 250 ta xonadon, 1 250 kishi yashaydi. Yangi Urganchda yirik savdogarlar va hunarmandlar istiqomat qiladi. Paxta zavodi va karvonsaroy ham mavjud.

Ko'hna Urganch shahrida esa 50 xonadon yashaydi. Shaharda Katta bozor mavjud va unda asosan voha turkmanlari savdo-sotiq qiladilar. Shaharda 6 ta masjid va 6 ta madrasa bor. Masjidlardan biriga Shayx Najmiddin Kubro xoki dafn etilgan. Maqbarani qurish uchun Naqshband talabi bilan Amir Temur tomonidan Samarqanddan mohir ustalar yuborilgan. Ko'hna Urganch bozori Shayx Kubro masjidi vaqfi sanaladi.

Xo'jayli shahri – turkmanlar kabi xonlikning shimoliy qismidagi qirg'iz va qoraqalpoqlar uchun muhim shahar. Shaharda yirik Xo'jayli bozori bor. 20 ta xonadon bor va shahar bog' va sug'oriladigan yerlar bilan o'ralgan.

Qo'ng'irot shahri – xonlikning shimoliy chekkasida joylashgan bo'lib, unda 68 ta xonadon va yirik bozor mavjud.

Chimboyda 801 xonadon, 4000 aholi istiqomat qiladi. Chimboy deltadagi asosiy savdo markazidir.

Guldursun qal'a xarobasi – Sho'raxon uchastkasida joylashgan bo'lib, arablar kelgan davrda ham bo'lgan.

Amudaryoning chap qirg'og'i bo'yida ikki yirik shahar – Daudan va Shoh Senema xarobalari mavjud.

Qadimgi Jurjoniya – 20 kv. verst maydonni egallagan. Shaharda masjid, madrasa va karvonsaroy xarobalari saqlanib qolgan. Jurjoniyadan 0,5 verst sharqda Oqqal'a xarobasi joylashgan. U Ko'hna Urganchni turkmanlardan himoya qilish uchun Arabxon tomonidan qurilgan. Uning maydoni 350 kv. sajen [*1 sajen* – 2,134 metr].

Qishloq xo'jaligi. Vohada haydaladigan yer jami yerlarning 2,8 foizi [xonlikda 5,7 foiz]ni tashkil etadi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Vohada g'alla o'simliklaridan bug'doy, sholi, arpa, tariq, jo'xori, dukkakli o'simliklardan yasmiq, no'xot, shuningdek, paxta, tamaki, ro'yan, kunjut va beda ekiladi.

Xonlikda sug'oriladigan yerlar 380 025 desyatinani tashkil etadi va har bir xonadonga 7,6 tanob yoki 2,9 desyatina demakdir. 100 000 desyatina xon va uning qarindoshlari, mulozimlari, boylarga tegishlidir...

Aholi magistral kanallarni *yob* deb, yerlarni sug'orishga mo'ljallangan ikkinchi darajali kanallarni *solma* deb ataydi. Chig'ir – suvni yuqoriga olib chiquvchi uskuna...

Xonlikda katta tegirmonlar yo'q. Har bir qishloqda 3–4 ta kichik tegirmonlar mavjud va ularda ot, tuya mehnatidan foydalaniladi...

Xonlikda bog'dorchilik va polizchilik juda rivojlangan. Vohada sug'oriladigan yerlarning 8,8 foiziga [33 510 desyatinaga] (xonlikda 9,1 foiz – 29 530 desyatinaga) paxta ekiladi. Vohada har yili 426 900 pud toza paxta tolasi ishlab chiqariladi.

Maysazorlarning yetishmasligi sababli o'troq aholi orasida chorvachilik yaxshi rivojlanmagan. Qirg'iz va turkman ko'chmanchi aholisi qo'y, ot, tuya va eshaklarni, qoraqalpoqlarning o'troq va ko'chmanchi aholisi yirik qoramol ko'paytirish bilan mashg'ul bo'lganlar...

Vohada otlar soni 159 600 bosh [Xiva xonligida – 97 300]ga yetadi. Vohada otlarning qirg'iz, qorabayir va arg'amaq kabi turlari uchraydi. Tuyalar qirg'iz [bir va ikki o'rkachli) va turkmanlar [bir o'rkachli] tomonidan yetishtiriladi. Bir o'rkachli tuya – nor, ikki o'rkachli tuya – air-urkush deb ataladi. Tuyalar 30 yilgacha umr ko'radi...

Vohada har yili jami 350 pud shoyi yetishtiriladi.

Ko'chmanchi aholi orasida gilam va shoyi ishlab chiqarish keng rivojlangan. Eng yaxshi shoyilardan biri yovmut shoyilari bo'lgan.

Tuz ishlab chiqarish vohada Pitnak atrofi va Qo'ng'irot yaqinida rivojlangan...

Baliqchilik bilan asosan qirg'iz va qoraqalpoqlar shug'ullanadilar...

Ko'hna Urganchdan selitra olinadi va undan porox hosil qilinadi.

Savdo. Katta miqdorda ulgurji savdo amalga oshiriladigan shahar Yangi Urganchdir. Shuningdek, Xiva, Xo'jayli va Xonqa kabi shaharlar ham ulgurji savdo markazlaridandir. Mayda savdolar asosan bozorlarda haftasiga ikki marta xonlikning barcha hududlari bo'ylab o'tkazib turiladi. Katta va kichik turdagi bozorlar mavjud. Bozorlar ustidan nazorat, boj to'lovi masalalari Matniyoz devonbegi tomonidan olib boriladi...

Xiva xonligida asosan kumush tanga muomalada keng tarqalgan. Undan keyin tilla bo'lib, u 9 tangaga teng. 18 tanga – *puxta tilla*ni tashkil etadi. Tangada xon ismi va unvoni zarb qilingan bo'lib, pulni zarb qilish Xivadagi xon saroyi zarbxonasida amalga oshiriladi. 1892-yildan

@tarixchi_kutubxonasiga

boshlab Xivada tanga zarb qilish rus hukumati talabi bilan taqiqlab qo'yildi...

Xivada import yuqori o'rinda bo'lib, eksport hajmi import hajmidan 2 barobar kam. Asosiy savdo yo'li Amudaryo bo'lib, ushbu yo'lga barcha savdo [yuki]ning ⅔ qismi to'g'ri keladi. Shuningdek, Qo'ng'irot–Orenburg, Kazalinsk-Orenburg va Krasnovodsk kabi savdo yo'llari ham mavjud.

Vohaning barcha quruqlikdagi yo'llarini 2 ga bo'lish mumkin: aholi yashaydigan hududlarga tutashgan yo'llar va Xiva vohasini 3 tomondan o'rab turuvchi karvon yo'llari. Cho'llardan o'tgan yo'llar yo'nalishi quduqlarga qarab aniqlanadi. Amudaryo bo'ylab harakatlanuvchi kemalarning umumiy soni 300 ta. Kemalar Hazorasp, Xonqa va Toshhovuzda quriladi.

Ф.К. Гирс. «Отчёт о состоянии Туркестанского края» («Turkiston o'lkasining holati haqidagi hisobot»)[1]

Turkiston general-gubernatori M.G. Chernyayevning topshirig'iga binoan o'lkada 1882–1883-yillarda maxfiy maslahatchi F.K. Girs tomonidan birinchi senat reviziyasi o'tkaziladi. Ushbu taftish natijalari alohida kitob holida chop etiladi. Unda Turkistonning iqtisodiy-ijtimoiy ahvoliga oid ma'lumotlar yoritilgan.

F.Girs o'lka boshqaruvi masalalari bilan yaqindan tanishib, uning asosiy jihatlarini tahlil qilgan. Taftish davomida mustamlakachi amaldorlar tomonidan mahalliy aholi huquqlarining kamsitilish holatlari aniqlanadi. Quyida senatorga o'lka aholisi tomonidan berilgan shikoyatlar va ularni tekshirish natijalari haqidagi ma'lumotlardan parchalar keltiriladi.

t.f.n. A.Z. Tog'ayeva

Zarafshon okrugi

Zarafshon okrugi 1868-yilda Buxoro amirligining zabt etilgan hududlari va 1870–1871-yillarda bosib olingan Zarafshon daryosining tog'li yerlarida joylashgan bir qancha mayda bekliklar o'rnida tashkil etilgan. Ma'muriy jihatdan okrug ikkita bo'lim – Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlari va Tog'li tumanlar boshqarmasidan iborat.

...O'lkaning turli hududlarini uning boshqaruv tartibi va iqtisodiy shart-sharoitlari bilan tanishish maqsadida kezib chiqar ekanmiz, taftish a'zolari mahalliy aholining arizalari, shikoyat va iltimoslarini qabul qilishni

[1] Отчет о состоянии Туркестанского края, составленный сенатором, тайным советником Гирсом, командированным для ревизии края по высочайшему повелению. В 2-х частях. Часть 1. Администрация. Управление краем; Часть 2. Суд. Финансы. – СПб., 1888.

@tarixchi_kutubxonasiga

ham lozim deb topdi. Ularning katta qismi Farg'ona viloyati va Zarafshon okrugidan tushgan. Bu iltimoslarning aksariyati shaxsiy xarakterda bo'lishiga qaramay, taftish uchun ahamiyatga egadir. Chunki ularning ko'pchiligi mazmunan bir-biriga yaqin bo'lib, o'lkada mavjud tartibotlarning kamchiligi yoki muassasalar va mansabdor shaxslarning noto'g'ri xatti-harakatlarini aks ettiradi. Farg'ona viloyati aholisining iltimosnoma va arizalari asosan yer tuzilishi bilan bog'liq bo'lib, ular moliya qismining hisobotidan o'rin olgan.

Zarafshon okrugi aholisining shikoyatlari, asosan mansabdor shaxslarning noqonuniy faoliyati va noto'g'ri xatti-harakatlaridan dalolat beradi... Ular orasida quyidagi holatlar e'tiborimizni tortdi.

Samarqand shahri yaqinida va shaharning ichida rus hukumati tomonidan tan olingan ikkita vaqf muassasalari bor. Bular: a) yer maydoni ancha katta bo'lgan bog' va uning ichidagi Samarqand aholisi yirik bayramlarda yilda ikki bor to'planib, ibodat qiladigan yirik Namozgoh masjidi; b) muqaddas musulmon avliyosi qabri joylashgan, Ruhobod deb nomlangan ibodatxona va uning huzuridagi oliy ta'lim maskani [madrasa]. Ko'rsatilgan har ikkala muassasa Okrug boshlig'ining buyrug'i bilan harbiy ehtiyojlar uchun band qilingan: Namozgoh bog'ida yozda lager ochiladi, Ruhoboddagi binolarda esa 11-batalyon ustaxonalari joylashtirilgan.

Arz qiluvchilarning ko'rsatishicha, bu yerlar band bo'lganligi uchun ular odat bo'yicha ziyorat qilishdan mahrum bo'libgina qolmay, balki vaqfdan olinadigan daromaddan ham foydalana olmayaptilar... Yuqoridagi shikoyatni o'rinli deb topib, men ishni ko'rib chiqish uchun general-gubernator e'tiboriga havola qildim.

Bag'rin qishlog'ining Qoratepa volosti aholisi sug'oriladigan yerlari bo'lmaganligi sababli, lalmi yerlarda dehqonchilik qilishga majbur edilar. Biroq, uch yil ilgari ular bu yerlaridan ham mahrum qilinganlar. Ularning yerlari tortib olinib, davlat o'rmon xo'jaligi tajriba maydoniga aylantirilgan. Okrug ma'muriyati lalmi yerlarni egasiz yerlar deb hisoblasa-da, ammo hozirgi vaziyatda, arznomachilarning tushuntirishicha, ularga tegishli yerlar avloddan avlodga meros qilib qoldirilgan. Bundan tashqari, yerlarning ma'lum qismi qozilar tasdiqlagan vasiqa asosida sotib olingan. ...Mazkur iltimosnoma mulkchilik huquqining buzilganligidan dalolatdir. Bundan tashqari, Okrug boshlig'i devonxonasi hujjatlarining guvohlik berishicha, Qoratepa volostida davlatga tegishli bog'larda ishlagan ishchilarning ish haqi volost boshlig'i tomonidan o'zlashtirilganligi tufayli u ishdan bo'shatilgan.

Men Bag'rin qishlog'i aholisining iltimosnomasini ko'rib chiqish uchun general-gubernatorga jo'natdim.

Samarqandda bo'lganimda ikkita mahalliy ayollar huzurimga iltimosnoma bilan kirishdi. Unda ko'rsatilishicha, ayollardan birining akasi, ikkin-

@tarixchi_kutubxonasiga

chisining turmush o'rtog'i, ilgari O'ratepa hokimi bo'lgan Nazarbek Isoqbek o'g'li ...rus ma'muriyatining buyrug'i bilan noqonuniy tarzda Shahrisabz bekligiga jo'natilgan va hozirgi vaqtga qadar o'sha yerda turibdi. Haqiqatan ham, shikoyat arizasi bo'yicha ish tekshirilganda, 1882-yil 22-sentabrda Samarqand bo'limi boshlig'i [mayor Arendarenko nazarda tutilmoqda] Samarqand Okrugi boshlig'i vazifasini bajaruvchi oldiga raport bilan kirib, unga Nazarbekni generalning oldiga qandaydir ariza bilan kirmoqchi bo'lgan aqldan ozgan [devona] deb tanishtirgan hamda mahalladoshlari uni shahrisabzlik, ya'ni Buxoro amirligi fuqarosi deb hisoblashlarini bildirgan. Natijada, mayor Arendarenko Nazarbekning Shahrisabzga badarg'a qilinishiga ruxsat olgan. Boshqaruv hujjatlari orasida bu haqda Shahrisabz begi Ostonaqulning xati mavjud. ...Shu tariqa, rus amaldori... asossiz ravishda, mahalladoshlarining isbotlanmagan gapiga tayanib, bir kishini oilasidan uzoqqa, begona yurtlarga badarg'a qilib yuborgan. Ushbu ariza ko'rib chiqish uchun general-gubernatorga taqdim etildi.

Samarqand bo'limi boshlig'i Samarqand shahri qozisi Mir Nizomiddin Abdug'afforovni xizmat vazifasi yuzasidan asossiz ayblab, shaxsan tergov qilgan va Sirdaryo viloyati boshqarmasining tegishli aralashuvisiz sudlov tizimiga zid xatti-harakatlarni olib borgan. Yuqorida nomi keltirilgan qozi taftishchiga shaxsiy ariza bilan murojaat qilgan. Unda ko'rsatilishicha, Samarqand bo'limi boshlig'i mayor Arendarenko qoziga Samarqandga kelishi kutilayotgan general-gubernator nomiga Samarqand aholisi nomidan xat yozishni topshirgan. Maktubda aholidan olinayotgan soliqlar unchalik katta emasligi aytilgan. Vaholanki, general-gubernatordan soliqlar miqdorini kamaytirishni so'ramoqchi bo'lgan ba'zi bir kishilar xatda o'z imzolarini ko'rsatishdan bosh tortganlar. Qozini aholiga shikoyatnoma yozib berganlikda ayblab, mayor Arendarenko uni bo'lim boshqarmasiga chaqirgan va ko'pchilik oldida uning lavozim muhrini sindirib, xizmat vazifasidan bo'shatgan. Keyinchalik qozilik lavozimiga bo'lgan saylovlarda Mulla Nizomiddin yana qaytadan o'z lavozimiga saylangan. Biroq bo'lim boshlig'i bunga o'z noroziligini bildirib, saylovchilardan boshqa shaxsni saylashni talab qilgan.

Taftishchilarning talabi bilan muammoni muhokama qilish chog'ida mayor Arendarenko qozi ishonchsiz ekanligi uchun ishdan bo'shatilganligini qayd etgan.

Taftishchilarga Samarqandning ko'p sonli aholisi iltimosnomalaridan ma'lum bo'lishicha, Nizomiddin o'zini muntazam ravishda qozilik lavozimiga saylagan aholining hurmat va ishonchini qozongan. U uzoq davom etgan xizmat faoliyati natijasida ko'p marotaba oliy mukofotlarni qo'lga kiritgan...

Mayor Arendarenkoning o'ziga berilgan saylovlarga aralashish huquqidan foydalanib qilgan noto'g'ri xatti-harakatlarini e'tiborga olib, men

@tarixchi_kutubxonasiga

Nizomiddin va aholining arizasini ko'rib chiqish uchun general-gubernatorga topshirishni lozim deb topdim... [95–98-betlar].

Imzoladilar:

Turkiston o'lkasini...taftish qiluvchi yashirin maslahatchi F. Girs va boshqalar.

К.К. Пален. «Народные суды Туркестанского края» («Turkiston o'lkasining xalq sudlari»)[1]

Graf K.K. Palen (1861–1923) Rossiya imperiyasining davlat arbobi, maxfiy maslahatchi, gubernator va senatori bo'lib faoliyat yuritgan. 1908-yil 19-martda unga Turkiston o'lkasida senatorlik taftishi o'tkazish vazifasi yuklatilgan. 1908–1909- yillardagi Turkiston o'lkasi boshqaruvi bo'yicha taftish natijasida mahalliy qozilik sudlari faoliyatiga oid ma'lumotlar qayd etilgan. Quyida ulardan ayrim parchalar tarjimasi berilgan.

N.Q. Rahimjonova

...Turkiston o'lkasida xalq sudlari 3 turga bo'linadi: 1) Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand va Yettisuv viloyatlarining o'troq aholisi uchun; 2) shu viloyatlarning ko'chmanchi aholisi uchun; 3) Kaspiyorti viloyati aholisi uchun.

Kaspiyorti viloyati xalq sudi yuqoridagi viloyatlar sudlaridan tuzilishi va tartibi jihatidan farq qilgan. Aksincha, Turkiston o'lkasining mahalliy o'troq va ko'chmanchi aholisining sudlari orasida o'ziga xos umumiylik, o'xshashlik bor bo'lib, ayniqsa jinoiy, fuqarolik, shaxsiy da'vo ishlarida qisman bo'lsa-da, qadimgi frank-germanlarning sud jarayonlariga o'xshab ketadi [3- bet].

...Ko'chmanchi va o'troq sudlar orasidagi farq quyidagicha: o'troq aholi sudyasi mahalliy sudya, sobiq qozi, Nizomga muvofiq va shariat normalaridan chiqmagan holda faoliyat olib boradi. Ko'chmanchi aholi uchun sudya – qirg'iz biyi odat va vaqti, joyiga qarab o'zgaruvchi, oddiy me'yorlar bo'yicha da'volarni ko'rib chiqadi.

...Ruslar xonlikni zabt etguniga qadar Turkiston o'lkasida musulmon qonunshunosligi – shariat bo'yicha faqatgina bitta qozilik sudlari mavjud bo'lgan. Musulmonlar orasida tan olingan «Hidoya» qonunshunoslik to'plamining «Qozining majburiyatlari haqida»gi bobida aytilishicha, qozilik lavozimi Xudo tomonidan adolatli hukm chiqarish uchun amr etilgan va qozining

[1] Отчет по ревизии Туркестанского края произведенной по высочайшему повеленую сенатором, гофмейстром графом К.К. Паленом. Народные суды Туркестанского края. – СПб: Сенатская типография, 1909.

@tarixchi_kutubxonasiga

adolatparvar, fazilatli, taqvodor shaxs bo'lishi talab etilgan. Qozi hukmdor tomonidan tayinlangan.

Hozirgi kundagi Buxoro va Xiva xonliklari kabi ilgari Turkiston bosib olingunga qadar ham xonlikda qozilikka xon, amir tomonidan musulmon qonunshunosligidan xabardor shaxsni o'rnatilgan tartibdagi imtihon asosida tanlab olgan. Ko'p nomzodlar orasidan eng munosibi saralab olingan. Shuningdek, tayinlangan qozi xalq nazoratida ham bo'lgan. Qozi hukmdor tarafidan martabali lavozimga tayinlangani uchun ham hukmdorning ishonchini oqlashga bor kuchi bilan intilgan.

...Hech qanday sud instansiyasi mavjud bo'lmagan. Qozi ustidan shikoyatlarni yuqori hukmdor [xon, amir]ga yoki uning vakili bekka berish mumkin edi. Agar shikoyat asosli bo'lsa, uni ko'rib chiqish uchun boshqa qoziga yuborilgan.

Da'volarni ko'rib chiqish vakolati cheklanmagan. Har qanday summadagi da'volarni ko'rib chiqishga ruxsat berilgan. Qozi aybdorni ozodlikdan mahrum qilishi, tan jazosi kabilar bilan va hatto, bek tasdiqlasa, o'lim jazosi berishga ham haqli edi. [4-5-betlar]

...Turkiston o'lkasi bosib olingandan so'ng, o'lka boshqaruvini tashkil etishda rus hukumati «mahalliy xalqning foydasi uchun hamda ruslar bilan yaqinlashishga to'sqinlik qiluvchi mutaassiblikni kamaytirish maqsadida mahalliy sud tizimiga biroz o'zgartirishlar kiritgan holda uni saqlab qoldi».

...O'troq aholi uchun xalq sudlarini ta'sis etish bo'yicha birinchi qonunchilik aktlari qisqa va aniq etib tuzildi. 1865-yil 6-avgustdagi Turkiston o'lkasini boshqarish bo'yicha Nizomda bu sudlar haqida ilk marotaba qayd etilgan edi. [6-bet]

...Bu vaqtinchalik qonunga ko'ra mahalliy xalq sudlari saqlanib qolindi. Unga ko'ra, 214-§da qaror qilinadiki, mahalliy sartlar o'z xalq sudyasini saylab, saralab oladilar. Bunda loyihada ikkita mustaqil xalq sudlari instansiyasi ishlab chiqildi: 1) 100 rublgacha bo'lgan da'volarni ko'rib chiquvchi qozi; 2) qozilar syezdi bo'lib, ular 100 rubldan ortiq bo'lgan da'volarni va jinoiy ishlarni ham qabul qilgan. Tan va o'lim jazosini olib tashlash va uning o'rniga jarimaga tortish, ozodlikdan mahrum qilish, ishlab berish va Sibirga surgun qilish kabilar joriy qilingan. Qozi va qozilar syezdi shariat bo'yicha hukm chiqargan. Shu bilan birga, ikki tarafning ham qarori qoniqtirmasa, rus sudiga murojaat qilishlari mumkin bo'lgan. [7-bet]

...Sharq an'analari asosida asrlar davomida tarbiyalangan mahalliy xalq qozilarni saylashning qulay taraflarini tushunib, o'zlashtira olmadi. Natijada turli xil fitnalar uyushtirildi. Saylovchilarni sotib olish hollari ko'paydi va sudya lavozimiga munosib eng yaxshilar qolib, olg'ir, ustomon shaxslar qozilikka saylandi. Oqibatda xalq sudyasi bo'lish uchun nomzod katta pul

@tarixiy_kitoblar_kutubxonasiga

sarflab saylovchilarni sotib olgan va bu lavozimni egallab, sarf qilgan pullarini qaytarishga uringan.

Maxfiy maslahatchi Girsning taftishidayoq xalq sudining qoniqarsiz holati jiddiy e'tiborni tortgan. Darhaqiqat, 1886-yilda tuzilgan Nizom o'zini oqlamagan. Hozirgi kunda xalq sudi o'z tuzilishidagi yo'lga qo'yilgan kamchilik va nuqsonlar tufayli qiyin ahvolda. Ularda adolatparvarlik, haqqoniylik yetishmaydi. [8- bet]

...Hozirgi kunda amaldagi Turkiston o'lkasini boshqarish bo'yicha Nizomning III bo'limi xalq sudlariga bag'ishlanadi va u 210 dan 254 tagacha bo'lgan 45 ta moddadan iborat. Bu qonunchilik akti avvalgisiga o'xshab amaliyotda qiyinchilik tug'diradigan jiddiy kamchiliklardan xoli emas. Xalq sudyalariga oid ko'p moddalari tushunarsiz, atamalar hamma yerda bir xil takrorlanadi, qarama-qarshilik, ziddiyatlar mavjud. Masalan, ...252-moddada vorislik haqida to'xtalib o'tiladi. Unga ko'ra o'troq aholining vorislikka, xususan, kichik yoshlilarning vorislikka doir da'volari hududiy (uchastkoviy) sudyalar tomonidan ko'rib chiqilgan. Ammo Nizomda ko'chmanchi aholi orasidagi vorislik, aqliy noqislarning vorislikka doir masalalari yodga olinmagan. [9- bet].

...O'troq aholi uchun xalq sudlarining tuzilishi quyidagicha:

Qonunga ko'ra, qozi atamasi olib tashlanib, uning o'rniga xalq sudyasi va ularning syezdlari deb ataladi. Birinchi instansiya, barcha jinoiy va fuqarolik ishlarini bitta xalq sudyasining o'zi ko'rib chiqadi. Xalq sudyasi lavozimiga 25 yoshga to'lgan, sudlanmagan, jinoiy ishlar qilmagan, jazolanmagan mahalliy xalq vakili 3 yil muddatga saylangan. Har bir xalq sudyasi faqatgina o'ziga biriktirilgan hudud aholisining da'volarini ko'rib chiqishi mumkin. Bunda bittadan kam bo'lmagan, ba'zi hollarda bir necha volost nazarda tutilgan. Ikkinchisi, bu apelyatsiya instansiyasi hisoblanib, xalq sudyalari syezdini tashkil etgan. Bunday syezdlarda hududdan saylangan 3 ta xalq sudyasidan kamida 2 tasi qatnashishi shart hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, turli xil uyezd va volostlardan bo'lgan da'vogar ishi bo'yicha xalq sudyalarining favqulodda syezdlari Nizomning 247-moddasiga muvofiq gubernator buyrug'i asosida tashkil qilingan. [10- bet].

...Farg'ona vodiysida favqulodda qozilar syezdi maxsus meros mulklari bo'yicha yig'iladi. 1906-yilga qadar meros masalalari yakka qozi tarafidan ko'rib chiqilgan. Ammo amalda bu bir qancha tushunmovchilik va nizolarni keltirib chiqargan. Chunki meros mulkini talab qiluvchi vorislar turli hududda yashaganlari sababli, qaysi qoziga murojaat qilishni bilmay, kelishmovchiliklar kelib chiqqan. Buning oldini olish maqsadida Turkiston general-gubernatori 1906-yil 23-fevralda meros masalalarini favqulodda syezdlarda ko'rib chiqish va bu syezdlarda vorislar

@tarixchi_kutubxonasiga

yashaydigan hududdagi qozilar ham ishtirok etishi to'g'risida qaror chiqargan. 1906-yildan boshlab Farg'ona viloyatida favquloddagi syezdlar turli xil tarkibda chaqiriladigan bo'lgan. Masalan, Marg'ilon uyezdida Madraim Eshonov degan marhumning meros mulkiga oid ish ko'rilib, favquloddagi syezd chaqirilgan va unda Marg'ilon uyezdining 6 ta volostidan, Marg'ilon shahrining bir qismidan, Andijon uyezdining bitta volostidan va Namangan uyezdining bitta volostidan qozilar chaqirilgan. [76-bet].

...Umuman olganda, mahalliy ma'muriyatning tasdiqlashicha, xalq sudyalari syezdlari mahalliy xalq orasida ko'proq ishonch qozongan va birinchi instansiya bo'lmish yakka ish olib boruvchi xalq sudyalariga nisbatan haqqoniy edi. [77-bet].

...Xalq sudyalariga saylovlarda nomzodlarning saylovchilarni sotib olishi, saylangan sudyalarning keyingi jarayonlarda poraxo'rligi o'troq aholi xalq sudlarining jiddiy kamchiligi edi. Saylovlar bekor izohlanar edi. Boshqa tarafdan esa, saylov bekor qilinsa, rasmiy ma'muriyat, xususan, uyezd boshlig'i va gubernatorlar uchun ularni tanlash mas'uliyati qiyinchilik tug'dirar edi, chunki ular musulmon qonunchiligidan bexabar edilar. Xalq sudyalari bir yoki bir necha emas, jumladan, Sirdaryo viloyatining o'zida xalq sudyalari 400 dan ortiq, Yettisuvda esa, 1800 tani tashkil qiladi. Shuning uchun xalq sudyalariga saylovni bekor qilish mumkin emas, ammo saylov jarayonlaridagi saylovchilarni sotib olish va poraxo'rlikning oldini olish kerak. [206-bet]

...Xalq sudlarining tuzilishidagi o'zgartirishlarda ularni qayta ko'rib chiqish, qonunlar va xalq sudyalarining bilim chegarasini belgilab berishi kerak edi. «Turk. Nizom»ning[1] 141 va 142-moddalari talab darajasida emas va hattoki, ma'lum darajada eskirgan. Ushbu hisobotning boshida ko'rsatilganidek, Nizom matnidagi atamalarning noaniq va to'liq emasligi, jinoiy qonunlarga moddalardagi iqtibosning yo'qligi amalda ko'pincha jiddiy qiyinchiliklar keltirib chiqarar edi. [211- bet]...

[1] Bu yerda «Turkiston o'lkasini boshqarish bo'yicha Nizom» nazarda tutilmoqda.

@tarixchi_kutubxonasiga

IZOHLI LUG'AT

A

Abrichin (abrishum) – shoyi (ipak). 215.

Avsat – O'rta Osiyo xonliklari hududidagi madrasa talabalarining o'rta guruhi. 45, 102, 103, 104, 105, 108.

Adad – son, raqam shakli. 17, 18, 21, 43, 80, 81, 82, 83, 84, 102, 105, 106, 107, 109, 138, 160, 181, 185, 193, 197, 210, 301.

Adno – madrasa talabalarining boshlang'ich guruhi. 102, 103, 104, 105, 106, 108.

Ayvonchayi ro'g'anfurushiy – yog' sotiladigan joy. 120.

Akobir – kattalar (amaldorlar). 9, 10, 15, 19, 25.

Amir – yirik hukmdor yoki lashkarboshiga nisbatan qo'llanilgan. 4, 14, 23, 37, 38, 39, 40, 41, 42, 43, 44, 45, 46, 48, 51, 54, 55, 57, 63, 70, 71, 79, 85, 86, 88, 89, 93, 111, 136, 138, 181, 187, 217, 221, 236, 237, 250, 258, 263, 264, 340, 352, 354, 356, 357, 360, 384, 440, 448, 454.

Amlokdor – Buxoro amirligiga qarashli eng kichik ma'muriy-hududiy bo'linma – amlokni boshqaruvchi mansabdor. 16, 42, 44, 136, 137, 138, 149, 150, 353, 354.

Ark – qadimgi qal'a. 22, 23, 27, 38, 380, 391, 392, 442.

Arxeologiya – saqlangan moddiy yodgorliklar asosida qadimgi xalqlarning mai-shiy hayoti va madaniyatini o'rganadigan fan. 262, 437, 439, 440.

Axiy – aka-uka, sherik. 225.

Aqoid – diniy e'tiqodlar. 37, 183, 322, 323.

Ag'niyo – boy. 32, 163, 175, 206, 207.

B

Bay'-shiro – savdo-sotiq. 287.

Balada – shahar, davlat. 208,

Batnan ba'da batnin – avloddan avlodga. 196.

Bid'at – dinda paydo bo'lgan yangiliklar. *«Bid'ati hasana»* – din qabul qilishi mum-kin bo'lgan yangiliklar, *«bid'ati sayyi'a»* – din qabul qilishi mumkin bo'lmagan yangilik-lar. 143, 168, 169, 198, 386.

Biy – ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turkiy xalqlarning urug' oqsoqollariga berilgan unvon. 11, 21, 27, 29, 40, 41, 49, 78, 79, 107, 108, 122, 123, 124, 126, 136, 138, 150, 229, 234, 251, 321, 322, 393, 394, 397, 428, 445, 453.

@tarixchi_kutubxonasiga

Borgoh – zodagon, mansabdorlar dargohi. 9, 23.
Botina – ichki, bu yerda hovli-uy ma'nosida ishlatilgan. 200.
Budda – (sanskritcha) buddaviylik dinining asoschisi. 239, 438.

D

Darbar – dargoh, oldi, qabul qilish. 199.
Darj – nashr. 209, 212, 224.
Dahyak – 1) O'rta Osiyo xonliklarida davlat va xususiy yerlarning hosilidan $^1/_{10}$ miqdorda olinadigan soliq, 2) Buxoro amirligida vaqf yerlardan olingan daromadning madrasa toliblariga beriladigan qismi. 40, 42, 45, 126, 209, 445, 446, 447.
Devonbegi – devonxona boshlig'i. Xonliklar davrida boj, soliq va moliya ishlariga mas'ul mansabdor. 21, 27, 28, 29, 32, 33, 35, 36, 40, 41, 42, 48, 117, 119, 236, 242, 317, 391, 397, 449.
Digar – boshqa. 126, 157, 163, 168, 186, 213,
Dodxoh – xonliklar davrida mansabdor amaldorlar va harbiylarga berilgan unvon. 8, 11, 12, 40, 41, 67, 79, 101, 105.
Dorilsano'a – korxona, sanoatxona. 163.
Dorulqazo – mahkamalar, qozixona. 187.
Doxilinda – ichida. 218.
Du bolo – ikki barobar. 205.
Duro'ya furush – mato chetiga tikiladigan maxsus qismini tayyorlab sotuvchi hunarmand. 101.

E

Evaporometr – bug'lanishni o'lchaydigan asbob. 421
Esplanadalar – qal'a bilan shahar o'rtasidagi yalanglik. 383
E'dodiy – maxsus ta'lim. 171
Ehmol – beparvolik. 188, 210

F

Fazla – ortiqcha. 196,
Fallohot – dehqonchilik. 217
Fano – tugovchi, foniy, yakun topguvchi. 199, 210
Farvater – kemalarning o'tishi uchun yetarlicha chuqurlikka ega bo'lgan suv qismi, kema qatnaydigan suv yo'li. 420, 421
Fasohat – go'zal, chiroyli gapirish, so'zamollik. 174
Fatxor – faxr. 212
Fahamat – ulug', hurmatli. 219
Fosid – buzuq. 166, 195
Freska – nam shtukaturkada suv bo'yoqlaridan foydalanib chizilgan rasm. 438
Futshtok (nem. *Fubstock*) – dengiz, daryo yoki ko'lda suv sathini nazorat qilib turish uchun mo'ljallangan moslama (darajalarga bo'lingan reyka). Suv o'lchash postlariga o'rnatiladi. 421, 422

@tarixchi_kutubxonasiga

G

Gidrometr – havo namligini o'lchash uchun ishlatiladigan asbob. 422, 423.
Gidrografiya (yun. *hydro* – suv, *grapho* – tasvirlayman) – gidrologiyaning bir tarmog'i, quruqlikdagi suv obyektlari (daryo, ko'l, suv omborlari)ni o'rganadi. 410, 411, 413, 415, 418.

H

Hamsoya – qo'shni. 86, 87, 92, 94, 163, 194, 215,
Hasor kimga – har kimga. 212
Hirfat – kasb ilmi. 168
Hifz – saqlash. 203
Hukumat jaliliyamiz – buyuk hukumatimiz. 219

I

Ijtihod – harakat, jahdlar. 154, 155, 206, 207, 209, 210, 224.
Iztiror – zarur. 170.
Imdod – yordam, madad. 172, 221,
Inoqi kalon – Buxoro amirligida hukmdorning amr-farmonlarini va buyruqlarini tegishli shaxs va mahkamalarga yetkazuvchi, amir qabuliga muyassar bo'lganlarni uning huzuriga kirituvchi mansabdor. 40.
Inoqi xurd – Buxoro amirligida amir nomiga kelgan xatlar va nomalarni qabul qilib, ovoz chiqarib o'quvchi mansabdor. 40.
Intiboh – e'tibor. 175, 210.
Intizom – tartib, jiddiy qabul qilish. 170, 176, 177.
Irfon – ma'rifat. 223, 225.
Istaqroz (istiqroz) – qarz olish, kredit. 217.
Istatistuq – statistik. 212.
Istifoda – foydalanish. 63, 142, 176, 208, 290.
Istixsor – muxtasar, qisqa. 173.
Ifrotparast – haddan oshuvchilar. 192.
Iftiro – to'qilgan gaplar. 166.

J

Jalila – buyuk. 213, 217, 218.
Juhalo – johilning ko'plikda qo'llanilishi, nodonlar. 166.

K

Kadufurushiy – qovoq sotiladigan rasta. 118.
Kamokona bilur – ozgina bo'lsa ham. 209.
Kofiriston – Afg'onistonning shimoli-sharqida joylashgan tog'li viloyat, hozirgi Nuriston. 217.

@tarixchi_kutubxonasiga

Kulli – barcha. 83, 126.
Kultapo'sh – ayollar kiyadigan bosh kiyim. 157.
Kurmak – pilla (sheva). 214.

L

Lijomgaron rastasi – bozorning otga yugan yasab sotuvchi hunarmandlar joylashgan qismi. 101.
Loyiqincha – loyiq bo'lguncha. 190.

M

Mazoraf – xarajat. 212.
Mazra'at – ekinzor. 213.
Mayizfurushiy —mayiz sotiladigan joy. 118.
Makariya – Nijniy Novgoroddagi savdo yarmarkasi. 67.
Manzuma – nazm, risola. 159, 164, 165, 183.
Manixey – III asrda Yaqin Sharqda paydo bo'lgan va Shimoliy Afrikadan Xitoygacha tarqalgan diniy-falsafiy ta'limot. 438.
Mann – 1) yer o'lchov birligi, O'rta Osiyo hududida yer yuzasini o'lchashda katta (20 kg gacha) va kichik (4,32 kg gacha) mann ishlatilgan. Yerni o'lchashda ma'lum bir og'irlikdagi don ekiladigan yer nazarda tutilgan.; 2) og'irlik o'lchovi, mintaqa bo'ylab turli og'irlikda qo'llanilgan. Toshkentda mann o'rnida ko'proq botmon ishlatilgan; 3) Mann Xiva, Hazorasp, Toshhovuz, Shohobod (Shovot), Kat va boshqa hududlarda 20 kg, Xonqa, Urganch, Qo'ng'irot, Beshariq, Sho'raxon va Shayx Abbos Vali (Shabboz) da 40 kg. ga teng og'irlik o'lchovi.
Marbah – foyda, narx-navo. 218.
Markabxona – ulovlar turar joyi. 118.
Masoili e'tiqodiya – e'tiqod masalalari. 164, 165.
Masraflikdor – sarf-xarajat kamroq. 218
Matlab – talab. 62, 64, 65, 169.
Mashak – loyqa, (sariq). 213.
Mashvarat – maslahat. 40, 96, 131, 158, 178, 196, 207.
Ma'a al-mamnuniyat – mamnuniyat bilan. 177.
Ma'a fihi – shu bilan birga. 197.
Ma'murdor – amaldor. 199.
Maqovlonoma – rasmiy. 218.
Mag'oza – do'kon, magazin. 221, 292.
Meteorologiya (yun. *meteora* – atmosfera va osmon hodisalari hamda *logos* – fan) – Yer atmosferasi va unda sodir bo'ladigan fizik jarayonlarni o'rganadigan fan. Atmosfera Yer sirti bilan doimo o'zaro ta'sirda bo'lgani uchun meteorologiya, shuningdek, suv havzalarining ustki qatlami va tuproqning issiqlik rejimi, havoning tuproq yoki suv bilan issiqlik almashuvi, bug'lanish va boshqalarni o'rganadi. 236, 407, 411, 417, 421, 422.
Mehrob – masjidda imomlar xutba o'qish uchun turadigan joy. 165, 202.
Mingboshi – harbiy va ma'muriy unvon. Qo'qon xonligida xondan keyingi mansab. Asosan harbiy ishlar bilan shug'ullangan. Rossiya imperiyasi mustamlakasi yilla-

@tarixchi_kutubxonasiga

rida Toshkent dahalarining boshliqlari ham mingboshi deyilgan. 19, 42, 108, 229, 244, 294, 295, 298, 302, 304, 353.

Mirobboshi – miroblarga boshchilik qilgan mansabdor. 39.

Miroxo'r – Buxoro amirligida saroy mansabdorlaridan biri. 39, 40, 41, 79, 80, 137, 138, 149, 236.

Mirshab – xonliklar davrida shaharda tunda jamoat tartibini saqlashga mas'ul lavozim egasi. 27, 40, 41, 44, 160, 226, 228, 229, 237, 280, 296, 298, 340, 347, 381, 382.

Moli mushtaraki – sherikchilikdagi mol, ommaviy mollar. 169.

Mubin – ochiq-oydin, ravshan. 198.

Muborizai hayot – hayot bilan jang. 163, 176.

Muvakkil – vakilga ishonch bildiruvchi shaxs. 116, 117, 123.

Mulki hurr – soliqlardan ozod yer. 122.

Munqariz – inqiroz. 163, 164.

Murodif – sinonim. 192.

Musamma (musammot) – erkak va ayollarning ismlari oldidan kelib, nomli, ismli degan ma'noni anglatadi, nomlanish. 114, 122, 123, 196.

Mustahab – yaxshi sanalgan amal. 164, 200.

Mutaalluq – taalluqli. 208.

Mutavalli – vaqf mulkiga va undan keladigan daromadni nazorat qilish, taqsimlash, vaqf mulklarini ijaraga berish, vaqf xo'jaligi ishlarini yuritish bilan shug'ullangan. 12.

Mutamaddun – taraqqiyoti, tamadduni. 162, 163, 209.

Mutaraqqiy – taraqqiy topgan, rivojlangan. 162, 202.

Mufattish – tekshiruvchi, taftish a'zolari. 187.

Mufqit – maqsad, murod. 213.

Muftiy – diniy-huquqiy masalalarni izohlash, talqin etish, shariat qoidalarini tatbiq etish masalalarida fatvo beruvchi huquqshunos. 15, 40, 45, 103, 104, 129, 182, 230, 231, 386, 387, 388, 389, 390.

Muxtalif – turli, ixtilofli, har xil. 163.

Mushorun alayh – nazarda tutilgan. 177.

Mu'ovanat – ko'mak, hamkorlik. 172.

Muhlik – halokat (olib boruvchi, halok qiluvchi) 24, 176.

Muhoraba – kurashish, jang qilish. 10, 12, 62, 64, 66, 69, 92, 95, 147, 208.

N

Navs – na'v. 174.

Nazzora [nazoran] – jihatidan. 164,

Namakfurushiy – tuz sotiladigan rasta. 118.

Nasoro – xristian diniga mansub. 14, 15, 180,

Nafl – ixtiyoriy, qo'shimcha ibodat. 200.

Naf'a – manfaatli ilmlar. 225,

Nivellirovka – geodezik o'lchashning bir turi; yer nuqtalari balandliklari farqi (nisbiy balandligi) aniqlanib, ular orqali ushbu nuqtalarning qabul qilingan boshlang'ich sathdan hisoblanadigan balandliklari topiladi. 416, 417, 418, 419,

@tarixchi_kutubxonasiga

Nimkola – chala, yarim. 176.

Nisfi masho' – aynan bir kishiga tegishli bo'lmagan yoki bir joyda joylashmagan, tarqoq va bo'lingan yer. 120.

Numizmatika – tangashunoslik. 318.

O

Odina – yakka, yagona, bitta, juma. 192,

Ossuariy – suyakdon, 439

Otash aroba – parovoz, poyezd. 159, 160, 169, 287

Oxund – diniy bilimi yuqori darajada bo'lgan ulamo, muftiyning yaqin yordamchisi. 15, 30, 40, 42, 228, 230,

Og'il – molxona. 214,

P

Paleontologiya – oldingi geologik davrlarda mavjud bo'lgan va qazilma qoldiqlar ko'rinishida saqlangan organizmlar va ularning hayoti izlarini o'rganadigan fan. 440

Parvonachi – xonliklar davrida yirik mansabdor shaxslarga berilgan unvon va daraja. 27, 40, 136, 236

Pirgeliometr (yun. *pyr* – olov, *helios* – quyosh, *metr* – o'lchayman) – Quyosh nurlariga tik o'rnatilgan yuzaga to'g'ri tushayotgan quyosh nurlanishi quvvatini o'lchaydigan asbob. 422

Psixrometr (yun. *psychros* – sovuq va *...metr*) – havo namligi va haroratini aniqlashda ishlatiladigan asbob. 406, 422.

Q

Qozikalon – shariat qonunlariga asoslangan sud tizimi iyerarxiyasidagi eng oliy mansab. Bosh qozi ham diniy, ham adliya ishlarini boshqargan. 27, 64, 65, 68, 69, 127, 129, 134, 353, 390, 445, 446

Quvvayi askariya – harbiy quvvat. 163

Qo'shbegi – xonliklar davrida davlat boshqaruv tizimidagi oliy darajadagi mansabdor. Buxoro amirligida qo'shbegi bosh vazir hisoblangan. Mang'itlar sulolasi davrida qo'shbegiga barcha viloyatlarning hokimlari, beklari bo'ysungan hamda amirning poytaxtda bo'lmagan vaqtida xonlikning barcha ishlarini boshqargan. 26, 27, 40-42, 63-68, 76-79, 85, 89, 103, 107-109, 136-138, 186, 227, 229, 230, 236, 250, 252, 315, 352, 353.

R

Rajol – shaxs. 158

Rais – xonliklar davrida raislar har bir beklik, tuman va shaharda faoliyat yuritgan, rais bozorlarda narx-navo, tarozi haqi, o'lchovlar, hisob-kitoblar to'g'riligini, musulmon aholining shariat qonun-qoidalariga rioya qilishlarini, o'z vaqtida namoz o'qib, ro'za tutishlarini, bolalarni maktab ta'limiga berishlarini nazorat qilgan. 40-45, 71, 136, 137, 187, 207, 208, 222, 223, 230, 237, 353, 354, 381, 387, 388.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ruju' – murojaat qilish, qaytish; qarshilik. 183, 197,
Ro'shdiy – o'rta (ta'lim), e'tiqod masalasida to'g'ri yo'ldan yuruvchi. 171.

S

Sadadi – to'g'ri so'z. 166,
Sadr – xonliklar davridan diniy ulamolarga beriladigan unvon. 45, 46, 219.
Sadrinishin – rais. 179,
Saklya – Kavkazda tog'liklar uyi. 383
Sanoe' – sanoat. 176
Sano'i – san'at. 209
Sarrof – pul dalloli. 158, 204, 360
Safahat (safohat) – jinnilik, tentaklik, zino. 201
Safolchirog'bon – moychirog'. 173
Sirf – oddiy. 193-195
Sobungar – sobunchi. 119
Suluki jadid – jadid yo'li. 173, 174
Sug'ushig'a – birlashishiga, kelishishiga. 208

T

Tabdil – almashmoq, o'zgartirish. 20, 31, 61, 100, 170
Tablig' – targ'ibot, tushuntirish, yetkazish. 212,
Tabodul mulk – hukumat o'zgarishi. 211,
Tabodul olam – olam o'zgarishi. 210
Taboh – yomon. 163
Tavassul – bog'lanish. 175
Tadanniy – taraqqiy, rivojlangan. 193
Tadvin – yozish. 195
Tajvid – Qur'on o'qish qoidalari. 183
Tazdif – to'qnash. 218
Tazof qilmoq – qo'shilish. 217
Takmil – butun, to'liq. 173, 212
Tamdid – yo'l yotqizmoq (cho'zilmoq). 217, 219
Tanob – O'rta Osiyoda keng tarqalgan sath o'lchov birligi, mintaqalar bo'yicha turlicha. 23, 28-32, 56, 80-84, 103, 104, 106, 108, 109, 122, 124-127, 143, 157, 161, 242, 446, 449.
Tarahhum – rahm, shafqat. 183
Tarh – qisqartirish, minus qilish. 212
Tasiminat – sement. 162
Tasfiyayi axloq – xulqni soflashtirish. 170
Tasxir – masxara. 163
Tafriqa – firqa, ajralish. 175
Ta'zim va takrim – izzat va ikrom. 199
Taqrir – iqror, bayon. 187, 188
Tag'yir – o'zgarmoq. 168, 170, 195,

@tarixchi_kutubxonasiga

Tahzib – tarbiya. 170, 320

Topografiya (yun. *topos* – joy va *...grafio*) – Yer sirti (quruqlik tabiiy sirti elementlari va unda joylashgan inson faoliyatiga bog'liq obyektlar)ni geometrik jihatdan o'rganish, ularni plan va xaritalarda tasvirlash bilan shug'ullanadigan ilmiy-texnik fan. 413, 418, 429, 442, 443,

Tuqa – iltimos, o'tinch. 218

To'qsoba – xonliklar davridagi harbiy unvon. 236

U

Udabo – adiblar. 187, 188,

Uyezd – Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Turkiston o'lkasida joriy etilgan tuman darajasidagi ma'muriy-hududiy bo'linma. 17, 18, 109, 110, 133, 181, 247, 249, 250, 294, 296, 297, 300, 302-304, 327, 330, 331, 345, 347, 348-350, 353, 363, 434, 435, 444, 455, 456,

Uluv juz'iyya – juz'iy, eng kam darajada. 191

Ulumi zaruriya – zaruriy ilmlar. 165

Usuli ehtisobi – hisob-kitob usuli. 204

Uch durat sanada – uch yil oldin. 212

Ushr – o'ndan bir hissa. 42, 45, 117, 120–123, 187.

V

Vadoti ko'b tazoyid qilur – hukumat xazinasi boyiydi. 217.

Vam uvod – butun, to'laligicha. 217.

Vardonze – eramizning V–VIII asrlarida mavjud bo'lgan Vardonxudotlar saltanatining maxsus qarorgohi, hozirda Buxoro viloyati Shofirkon tumani hududida joylashgan. Narshaxiyning yozishicha, Vardonze Buxoro shahridan qadimiyroq bo'lgan. Xalq o'rtasida «Qo'rg'oni Vardonze» nomi bilan mashhur. 44.

Vasiqa – tilxat, hujjat. 5, 34, 108, 111, 128, 129, 131, 132, 133, 134, 135, 136, 138, 367, 451.

Vaqf – davlat va xususiy shaxslar tomonidan diniy muassasalar, masjidlar, madrasalar ixtiyoriga daromaddan foydalanib turish, ammo sotmaslik sharti bilan o'tkazilgan yoki vasiyat qilib qoldirilgan mol-mulk. 5, 18, 19, 27, 29, 30, 33, 40, 45, 48, 49, 50, 51, 84, 99, 100, 101, 102, 103, 104, 105, 106, 107, 108, 109, 110, 111, 112, 113, 114, 115, 116, 117, 118, 119, 120, 121, 122, 123, 124, 125, 126, 127, 128, 168, 181, 182, 230, 249, 250, 312, 314, 315, 317, 387, 446, 448, 451.

Vizorat – vazirlik. 180.

Volost – Rossiyada va Turkistondagi ma'muriy-hududiy tizimning eng quyi bo'g'ini yoki bo'linmasi, uyezdning ma'lum bir bo'lagi. 105, 249, 327, 350, 451, 455, 456.

Voris – meros olish huquqiga ega bo'lgan shaxs, meros egasi, merosxo'r. 286, 440, 441, 443, 456.

Vosila bo'lur – yetishadi. 218.

X

Xatmi xo'ja – tasavvuf ahli tarafidan o'tkaziladigan maxsus xatm marosimi, «xatmi xo'jagon» deb ham ataladi. 106, 107

@tarixchi_kutubxonasiga

Hijja – hijjalab o'qitish (harfma-harf). 164.

Ye

Yer istirohat qolmaydir – hech joyda xotirjamlik bo'lmaydi. 201.

Yo

Yof – ariq, kanal. 32, 33, 124, 125, 126.

Y

Yo'li omma (yoki rohi omma) – ko'pchilik yuradigan katta yo'l. 32.

Z

Zakot – Shariatga muvofiq sarmoyasi muayyan nisobdan ortgan musulmon mol-mulki va sarmoyasining $^1/_{40}$ ulushini zakot sifatida muhtojlar, yetim-yesirlar, bemor, beva yoki yolg'iz ayollarga xayr-ehson sifatida bergan. 13, 16, 19, 40, 94, 138, 164, 200, 217, 230, 317, 334, 353, 378, 384, 445, 446, 447.

Zarf – miqdor, muddat, idish, o'lchov birligi. 177.

Zohira – ko'ringan, tashqi holati. 152, 200.

O'

O'ram – murakkab. 194

G'

G'azot – jang, «muqaddas» urush. 14

G'ayb – nobud, g'oyib, ko'zga ko'rinmas. 212, 225

G'ayri matlub – nojoiz. 202

G'ayub va talaf qiladilar – kasallikka chalinadilar, vafot qiladilar. 212

G'o'lai ohani – temir quvur.

Sh

Shaboxun – 1) kechasi qo'qqisdan bostirib kirmoq, hujum qilmoq; 2) qochmoq. 13

Shirinfurushiy – shirinliklar sotiladigan joy. 119

Shig'ovul – elchilar va choparlarni xon huzuriga olib kirishga, xon yoki podsho saroyida tantana marosimlarini boshqarib va nazorat qilib turadigan katta amaldor. 27, 39, 41

Shukurrezi – qo'l berish, shukronaga osh berish. 224

@tarixchi_kutubxonasiga

Ch

Chanladi – charlari. 157
Chahorchashm – to'rtko'zlik. 205
Cho'p puli – Xiva xonligida amalda bo'lgan soliq turlaridan biri. 124, 125, 446, 447

O'lchov birliklari

1 ag'ri – 62,5 gramm. 125
1 akr – 0,4 gektar (4047 m²). 244. 249, 252, 255, 256
1 arshin – 0,71 metr. 355, 380, 381, 426, 428
1 botmon – 163,8 kg. 108, 109, 125–127, 228, 282
1 mann – 1) yer o'lchov birligi, O'rta Osiyo hududida yer yuzasini o'lchashda katta (20 kg gacha) va kichik (4,32 kg gacha) mann ishlatilgan. Yerni o'lchashda ma'lum bir og'irlikdagi don ekiladigan yer nazarda tutilgan.; 2) og'irlik o'lchovi, mintaqa bo'ylab turli og'irlikda qo'llanilgan. Toshkentda mann o'rnida ko'proq botmon ishlatilgan; 3) Mann Xiva, Hazorasp, Toshhovuz, Shohobod (Shovot), Kat va boshqa hududlarda 20 kg, Xonqa, Urganch, Qo'ng'irot, Beshariq, Sho'raxon va Shayx Abbos Vali (Shabboz) da 40 kg. ga teng og'irlik o'lchovi. 108, 125, 137
1 milli tonna (mt) – 1 kg. 436
1 mil – 1609 m. (quruqlikda). 251, 252, 259
1 pud – 16,38 kg. 90, 143, 216, 256, 271, 272, 281, 308, 318, 336, 337, 355-357, 359, 361-366, 371, 377, 379, 393, 447, 449,
1 sajen – 2,134 metr. 383
1 sari – $^1/_{40}$ mann. 125
1 tanob – 0,4 gektar. 23, 28-32, 56, 80-84, 103, 104, 106, 108-110, 122-127, 143, 157, 161, 230, 242, 302, 446, 449
1 farsax (farsang, parsang) – Sharqda, jumladan, O'rta Osiyoda qadimdan ishlatilib kelingan masofa o'lchov birligi. Bir farsax 9–12 ming qadamga yoki 6–8 km.ga teng bo'lgan. 38
1 funt – Buyuk Britaniyaning pul birligi funt sterling deb nomlanadi. 1 funt sterling 20 shillingdan; 1 shilling 12 pensdan iborat. Voqealar sodir bo'layotgan o'sha davrda 1 rus qog'oz rubli (100 kopeyka) 2 shillingga teng bo'lgan. 228, 248–250, 252, 256–258, 364, 370, 380, 381, 385,
1 shilling – 1,8 tanga. 230, 248, 250,
1 yard – 91,44 sm. 246, 251, 252, 257

@tarixchi_kutubxonasiga

KO'RSATKICHLAR

ISMLAR KO'RSATKICHI

Abdujabbor Shayx 127,
Abdulazizxon ibn Abdullaxon 36
Abdulvosi' oqsoqol 126,
Abdulg'affor 125
Abduljabbor 125,
Abduljalil 118
Abduljalil Mahmud mudarris 186
Abdulkarim 125,
Abdulkarimbek to'qsoba 79
Abdulqayyumboy valadi Subxonquliboy 113, 114
Abdulqodir qori 133
Abdulqodir parvonachi 79
Abdulqodirbek miroxo'r 80
Abdulkarimbek to'qsoba 79
Abdulla Boltayev 27, 29
Abdullojon qozi 107
Abdulloh 97, 122, 123
Abdulloh Qo'chqor 77
Abdulloh qo'shbegi 77
Abdulloh Mullo Mo'min o'g'li 118
Abdulloh to'ra 22, 126
Abdulmajidxon 103, 107
Abdulrahimbek to'qsoba 79
Abdulrahimbekbiy 79
Abdulsattorbiy Bahrayni 79
Abdulhakimboy Fayziboy o'g'li 117
Abdulhaq Homid 188
Abdulhafiz 35, 120
Abdumavlon 109
Abdumavlon mufti 102
Abdumalikxo'ja 129
Abdumutallib Ismoiljonboy o'g'li 105
Abdurauf Fitrat 48, 69
Abduraufxo'ja valadi
Abdurahimxo'ja 135
Abdurahmon mutavalli 126
Abdurahmon Xudoyberganboy o'g'li 110
Abdurahmonxo'ja 101
Abdurashid 214
Abdusattor maxzum Aliakbarxo'ja eshon o'g'li 105
Abdusattor mudarris Yarashboy 110
Abduxoliq Marg'iloniy 12
Abduhakim Mirzo o'g'li 109
Abdushukur muftiy 109
Abdushukurxo'ja 129
Abu Bakr Rig'damuniy 38
Abu Bakr Sa'd 38
Abu Bakr Tarxon 38
Abu Bakr Fazl 38
Abu Hanafiya 37
Abulqosim mulla Boymuhammad 106
Abulqosim eshon 110
Abulhay xo'ja 186
Avliyoqulbekbiy dodxoh 79
Avliyoxo'ja ibn Shoh Yunusxo'ja 135
Avliyoxo'ja Muhammad Rahimxo'ja o'g'li 100
Azizlarxon qozi mudarris
Oyxo'ja eshon o'g'li 110
Azizxo'ja 114, 115
Azimboyvachcha Otaboyhoji 111
Akbar qori 103
Akbarxon 68
Akram Tursunboy o'g'li 120
Ali Muhammad oxund 33, 109, 130
Aliakbarxo'ja mudarris 101
Alibek Badalmuhammad o'g'li 129

@tarixchi_kutubxonasiga

Alim Maxdum 182
Alimquli 9, 10, 11, 12, 14
Alisher Navoiy 164, 165, 166, 188, 193, 194
Almosbiy dodxoh 79
Alchakuf to'ra 106
Aminjon maxdum Ziyoiy 70
Amir Muzaffar (Sayyid Amir Muzaffar) 88, 89
Amir Temur 44, 263, 448,
Amir Fuzayl domla ibn
Miraziz mufti 111
Arendarenko 452,
Arsenyev 91
Arxangelskiy A.D. 407
Asadullaxo'jayev Ubaydullaxo'ja 340
Asolatbibi Avliyoxo'ja Eshon qizi 129
Asfandiyor 20, 22, 23, 31
Ahmad Donish 71, 72
Ahmad Jandiy 37
Ahmad Kamol 70
Ahmad S. 293
Ahmadali 130
Ahmadjon 35, 133
Ahmadjon maxdum 67, 70
Ahmadxo'ja eshon 15, 108
Ashur so'fi 104
A'lam Xolxo'ja valadi qozi Yunus 114
Bazingel 444
Baqoxo'ja 186
Barbot de-Marni N.P. 418,
Baron Vrevskiy 398
Bahovuddin Naqshband 37
Bahouddin maxzum mulla Miriso o'g'li 101
Bedil 164, 165, 166, 184, 188, 194
Bekjon 126
Bekovich-Cherkasskiy 444
Berg L. 406, 407
Bibijon bibi binti Mulla Siddiq oxund 130
Birulya A.A. 407
Bobo Samosiy 38
Bobojonxo'ja 114, 115
Boboqo'zi oqsoqol valadi Ro'zimuhammadboy 128
Bogdanov M.N. 415
Bogomolets 407
Boltaxo'ja valadi Ya'qubxo'ja Koshg'ariy 114
Botirgareyev Qutlug' Muhammad-Tevkelev 340
Brauning A. 402
Bronnikov M.M. 435,
Budilovich A.S. 399
Buqrot 52, 188
Bo'rixo'ja Boboshayx o'g'li 105
Burhoniddin qozikalon 64
Buxoriy 37, 38, 71, 114, 121, 122, 147, 189, 223, 225, 323
Buyuk knyaz Nikolay 416, 418,
Davidov Yusuf 345
Danilevskiy 318, 444
Ditlov A. 453
Dovudxo'ja Sulaymonxo'ja o'g'li 101
Doktor Borshov 369
Dolimov U. 293
Domla Muhammad Aziz qozi maxdum Buxoriy 114
Domlo Abdurahmon maxdum A'lam ibn Domlo Abdulqayyum 113, 114
Domlo Ya'qub oxund mudarris Ne'matshayx o'g'li 112
Dorandt F.B. 421, 423
Dukchi Eshon 293, 294, 297, 304, 305, 306,
Durmohbibi G'aniboy qizi 134
Do'sim 126
Ergash 134

@tarixchi_kutubxonasiga

Ernazar 49
Ernazarbiy dodxoh 79
Esh Niyoz 126
Eshmurod mirob 28, 127
Eshon Boboxo'ja maxzum 108
Eshon qozi mudarris 101
Eshonjon Mahmud 106
Eshonquli dodxoh 8, 11, 12, 101
Eshonxo'ja maxzum Mahmudxo'ja eshon o'g'li 105
Eshonxo'ja Najmiddinxo'ja o'g'li 106
Fazilat bibi Mirtolib hoji qizi 131
Fazl Ahad qori 109
Fazliddin maxdum 70,71
Fayzi bibi 128
Fayziboy Abdulmo'minboy o'g'li 122
Faxriddin 38
Fedchenko A.P. 292, 370, 413, 414, 432
Firdavsiy 38, 188
Flaksman 365
Fozilbek Otabek o'g'li 293
Fozilbekbiy 79
Forobiy 223, 225
Frishber I.L. 330
Fuzuliy 164, 165, 166, 188, 194
Fulod yahudiy Mullojon yahudiy o'g'li 78
Galdinskiy N. 453
Galkin M.N. 33, 251, 443
Gelmersen P.A. 415, 417
General Rozenbax 399
Gilzen K.K. 407
Girs F.K. 450, 453, 455
Girshfeld K. 408
Gluxovskoy A.I. 415
Golovochev N. 319
Gramenitskiy S. M. 399
Grigoryev V.V. 412, 413, 415
Hazrat bobo Shavq 37
Hazrati Rasul (s.a.v.) 222
Haydarqulbekbiy dodxoh 79
Hayit Murod 117
Hayit Muhammad 101
Hayit Niyoz 117
Hakim ibn Imron 225
Hakim sobungar 119
Hakimxo'ja 15, 14, 104
Hakimxo'ja Eshon ibn Norxo'ja 127
Halokuxon (Elxon Haluka) 38
Hamroqul Mehtar ibn Jurqunboy 111
Hamroqul Eshik oqoboshi 111
Hasanboy 130
Hasanmurod Laffasiy 31
Hikmatulloh oxund 33
Hodixo'ja 14
Hojarbibi 133
Hoji Abdumajid 69
Hoji Abdusattor dallol 71
Hoji Ahmad mudarris 185
Hoji dodxoh 67
Hoji Kamoliddin ibn Mullo Shamsiddin 114
Hoji Mir Saydulloh 114
Hoji Nasrulloh Rahmatboy o'g'li 119
Hoji Rofe' 70, 71
Hoji Siroj 70
Hoji Hamroh Yo'ldosh o'g'li 70
Homid Xo'ja Mehriy 70, 71
Hoshidi Gumnom 37
Husayn Muhammadboy 21
Husaynbek maxzum domullo Solihbek oxund o'g'li 110
Ibodulloh afandi 161
Ibodullohxo'ja Sulaymoniy 161
Ibrohim Atojon 127
Ibrohim Haqqiy 183
Ibrohimboy temurchi Bobojonboy o'g'li 132
Ibrohimboyvachcha A'zamboy o'g'li 106
Ibrohimxo'ja 21

@tarixiy_kutubxonasiga

Ibrohimxo'ja Shohxo'ja o'g'li 100
Ivanov 97
Imom Abu Hafsi Kabir Buxoriy 37
Imom Qozixon 37
Imomi A'zam 166
Imomxon maxzum 103
Imomxon eshon 107
Inomjon Dodojon o'g'li 131
Inoyatboy 133
In'omxo'ja mingboshi 108
In'omhoji 133
Iris Muhammad so'fi 103
Ismoil Gaspirinskiy 403
Ismoil maxzum 18
Ismoil mirzo G'aspirali 291
Ismoil Sadriy 70
Ismoil Somoniy 37
Ismoilbek Ibrohimbek o'g'li 133, 134
Ismoiljonboy Bobojonboy o'g'li Bo'rixo'ja 105
Ismoilxo'ja Abdurahimxo'ja o'g'li 101
Ismoilxo'ja imom 12
Ismoilxo'ja oxund 22
Iso Muhammad Imom Muhammad o'g'li 134
Isroilxo'ja Oxundxo'ja o'g'li 129
Is'hoqxon Ibrat 159, 160, 212
Is'hoqxon Mahmud dasturxonchi o'g'li 100
Javhariy 225
Jalol 220, 223
Jaloliddin Boxarziy 37
Jamilabibi 132
Jannat pocha 129
Ja'farov 346
Ja'farxo'ja ibn Hakimxo'ja mufti 115
Jiyan so'fi 103
Jonmirzobiy parvonachi 79
Jum'a Niyozboy 125
Jo'rabek Qalandarhoji o'g'li 49
Jo'raboy Mullo Yunus o'g'li 120
Jo'raboy oqsoqol 119, 120
Jo'raboy Fozilboy o'g'li 119
Juravsko-Pokorskiy 358
Jurjis binni Baxtyasho' 52
Jurqunboy 111
Jyul Vern 188
Kazem-Bek 441
Kalita Shendrek 402
Kaminskiy A.A. 407
Karimbobo 133
Karomat bibi 131
Karomat pocha 129
Karpinskiy 367
Kaulbars N.V. 415
Kaufman K.P. 17, 88, 91, 92, 96, 316, 391, 432, 441, 444, 447, 450
Kepler 188
Kerenskiy A. 340, 341, 347
Kerzon J. N. 255,
Kiaer N. 407
Kiorkovlar 365
Kolesov 71
Kolpakovskiy G. 319, 320, 324
Komiljonboy 132
Kopernik 188
Kostenko L.F. 244, 253, 379, 382,
Krasnoyarsev 349,
Krauze I.I. 369
Krivoshein A.V. 330
Kuznetsov P.Y. (Kuznitso'f) 288
Kun A.L. 392, 393, 394, 395, 396, 397, 398
Kurapatkin A.N. 287
Leman A.A. 369
Le-Mezore 402
Lens R.E. 415, 417
Leon M. 402,
Lerx P.I. 441
Litvinov D.I. 407

@tarixchi_kutubxonasiga

Logofet D.N. 352, 354
lord Stenli of-Alderley 402
Lutfulloh 128
Lutfulloh oxund mudarris
Mirxon o'g'li 100
Lyadinskiy 348
Mavlon 102
Mavlonberdi karvonboshi 117
Mavlono Husayn 37
Mavlono Shamsiddin Qahistoniy 37
Mavlonxon Ziyo maxzum o'g'li 106
Mavlonxo'ja Eshon Ne'matxo'ja o'g'li 112
Madaminxon (Muhammad Aminxon) 228, 394
Mazhar maxdum Burhon o'g'li 70
Mannop qori 182
Mansurov 340
Mariyamniso 133
Marhum Oxundov 203
Masolov 348
Matkarim naqqosh Ne'matulloh o'g'li 30
Matniyoz devonbegi 449
Mahmud bobo dasturxonchi Hasanjon o'g'li 100, 106
Mahmudxo'ja Behbudiy 69,
Mahmudxo'ja eshon Ne'matxo'ja eshon o'g'li 106
Meysner V.I. 407
Meyster A. 435
Middendorf 331, 432
Miyon Rofe' 135
Mizrobboy Rahimboy Andxuyi 116, 117
Milberg 421
Minkevich R.K. 407
Mir Badi' maxzum 110
Mir Burhoniddin 123, 124
Mir Ikrom maxdum 64
Mir Nizomiddin Abdug'afforov 452
Mir Ubayd shayx Mir Homid o'g'li 117
Mir Umoduddin 37
Mir Hodi 117
Mirza Abdulloh Muhammadboy o'g'li 182
Mirzo Abduvohid Manzum 70
Mirzo Abduqodir Muhiddin 70
Mirzo Ahmad qo'shbegi 103, 107, 109
Mirzo Ahmad parvonachi 103,
Mirzo Ahmadbek 63,64, 65
Mirzo Badriddin 119, 120, 122
Mirzo Izzatulla 67
Mirzo Muhammad 70
Mirzo Muhammad a'lam 102
Mirzo Muhammad to'qsoba 79
Mirzo Muhiddin Mansur o'g'li 70
Mirzo Nazrulloh Abdug'afur o'g'li 70
Mirzo Nasrulloh 67
Mirzo Rahmatboy o'g'li 134
Mirzo Sahbo 67
Mirzo Siroj Mirzoxo'rdov hakim 222
Mirzo Urganjiy 67
Mirzo Fo'lad (Po'lat) 70
Mirzo Yunus Bobojon o'g'li 112
Mirzoboy Oqsoqol 117
Mirrahim mulla Alimboy o'g'li 100
Mirsaid G'iyosiddin o'g'li 119
Mirsayyid so'fi 104
Mirsoatboy Usmonboy o'g'li 135
Mirtohirshoh 103
Mirxond 233, 317
Muzaffar maxzum 102, 107
Muzaffarxo'ja Badalxo'ja o'g'li 118
Mukmiliddin maxdum 69, 70

@tarixchi_kutubxonasiga

Muqim Kunji Tursunboy o'g'li 134
Muqimboy Abdulloh o'g'li 118
Mulla Nizomiddin 77, 452, 453
Mullo Abdulvahhob qozikalon ibn Shayx Muhammad 114
Mullo Abdullo qori Orif qori o'g'li 112
Mullo Abdulloh ibn Mullo Odina mufti 115
Mullo Abdurahmon mudarris Xudoybergan o'g'li 112
Mullo Ahmad Oqil ibn Ahmad Sodiq 115
Mullo Bobojon Xudaynazar mufti 115
Mullo G'oyibnazar ibn Mullo Muhammadshoh mufti 114
Mullo Islomxo'ja Boboxo'ja o'g'li 112
Mullo Yo'ldosh ibn Muhammad mudarris 113
Mullo Muhammad Ali mutavalli 113
Mullo Muhammad mudarris 113
Mullo Muhammad Murod ibn Mullo Miskin Muhammad mufti 115
Mullo Nasriddin mutavalli 113
Mullo Nasrullo ibn Muhammad Rizo 113
Mullo Oxund Bobo ibn Mullo Muhammadqosim mufti 115
Mullo To'raxon 112
Mullo Tursun Muhammad mufti 114
Mullo Shohrahmat mutavalli 113
Mullo Yunusxon mudarris 112
Mo'minbek Miroxo'r 79
Mo'minxonto'ra Sayyidxonto'ra 110
Munavvar qori Abdurashidxonov 167, 180, 184, 204, 208
Munis 20, 233
Muravyev 365, 439
Musammot Munavvarxon Mirzo Umar qizi 122
Muso To'ra 29, 126
Muso Turkistoniy 285
Musojon Yo'ldosh o'g'li 70
Musoxo'ja O'roq 80
Muhammad Alixon 110, 112
Muhammad Aziz Marg'iloniy 16, 17
Muhammad Ayyub Muhammad Rahim qori o'g'li 133
Muhammad Ali Baljuvoniy 34
Muhammad Ali Eshon
Muhammad Amin 24, 28, 29, 115, 124, 125, 228, 391, 394
Muhammad G'injor 37
Muhammad Isoxo'ja mudarris 186
Muhammad Karimbek 18
Muhammad Karimboy 182
Muhammad Murod mahram 124
Muhammad Murodbiy dodxoh 79
Muhammad Muhiddinxo'ja 108, 127, 128, 129, 130,131, 134, 135
Muhammad Nazar maxdum 70, 71
Muhammad Nazarboy 124
Muhammad Niyozbek 125
Muhammad Obid Bobojon oxund o'g'li 117
Muhammad Rasul 22
Muhammad Rahim Bahodurxon 92, 95
Muhammad Rahimxon 20, 22, 28, 91,92, 96, 233
Muhammad Salim 21, 23
Muhammad Sodiq ibn Muhammad Sharif 118
Muhammad Solih Ho'qandiy 117, 118
Muhammad Solihxo'ja Toshkandiy 8, 13, 105
Muhammad Taqobiy 79
Muhammad Umarbek 130

@tarixchi_kutubxonasiga

Muhammad Sharif 35,36, 37, 49, 111, 114, 127
Muhammad Yusuf Bayoniy 20
Muhammad Ya'qub usta Jumaniyoz 20
Muhammadvafo karvonboshi 34
Muhammadmurod devonbegi 21, 32
Muhammadxalifa o'g'li 130
Muhyiddin maxdum 67, 70
Muhsin 118
Mushketov I.B. 431, 432, 435
Mishenkov D.K. 436
Najmiddin Kubro 448,
Najmiddin Mullo Shamsiddin 122
Najmiddinxo'ja Kattaxo'ja o'g'li 106
Nazar Muhammad Qo'yliboy o'g'li 100
Nazarbek 9,10, 107
Nazarbek Isoqbek o'g'li 451
Nasr ibn Ibrohim Tamg'ochxon Qoraxoniy 36
Nasriddinxonto'ra To'rajonto'ra o'g'li 110
Nasrulloxo'ja Azamatxo'ja o'g'li 101
Nasrulloxo'ja mudarris 102
Nasrulloxo'ja eshon Qoraxo'ja eshon o'g'li 105
Nasrulloh qo'shbegi 66, 67
Nekrasov 347
Ne'matxo'ja mufti mudarris 102
Niyoz Muhammad Beklarbegi o'g'li 101,102,105
Niyoz Muhammad Lashkar beklarbegi o'g'li 101
Nikitin 326
Nikiforov 444
Nuriddin maxzum 110
Nurmuhammad qori 131
Nurmuhammad Mirzomuhammad o'g'li 131, 131
Nurobod Imom Abu Hafs 37
Nurulloh 21, 29, 118
Nurxo'jayev 129
No'mon maxzum 107
Odil Boyjon o'g'li 118
Odil Is'hoqboy o'g'li 133, 134
Ogahiy 20, 233
Oybibi 116
Oydo'st 233
Oyxo'ja 103, 104, 110, 135
Olimboy 117, 333
Olloyor 128, 140, 199
Olloqulixon 228, 318, 392, 444
Onanuf 212
Orif Revgariy 38
Orifxo'ja maxzum Sharifxo'ja 105
Osten-Saken 412, 415
Ostonaqul 116,
Ostonaqul Qulmuhammad o'g'li 117
Ostonaqulbek qo'shbegi 79
Ostroumov A.A. 407
Ostroumov N.P. 397, 405
Otaboyhoji 111
Otajon devon 23, 32
Otaniyoz 125
Otapodshohxo'ja a'lam 101, 102
Otaxo'ja valadi Kattaxo'jaboy 114
Oxundxon ibn Mullo Muhammad Hofiz mufti 115
Oxunjonboy hoji 18
Oshur 34, 125
Palen K.K. 328, 330, 453.
Palibin I.V. 408.
Pal'm. 370.
Parkinson. 402.
Pahlavon. 24, 28, 32, 33, 128.
Perovskiy A.V. 238, 407, 409, 425, 444.
Petrov. 345.

@tarix_va_kutubxonasiga

Petrovskiy M. 252
Petrovskiy N. 453
Pirmuhammad muftiy 129.
Pirnazar parvonachi 79.
Pomeransev I.I. 429.
Porso Xo'ja Hasan Xo'ja o'g'li 70.
Potelyaxov 365.
Protsenko A.P. 415
Pulkovnik Betunsov 112.
Qadam yasovulboshi 21, 29
Qalandar 125
Qalandarxo'ja Abdullohxo'ja o'g'li 122
Qamariddin G'ani 186
Qizil Arslonxon 36, 38
Qodir Abdulloh o'g'li 106
Qodirqul 69
Qozi al-quzzot Mullo Abdulhamid maxdum bin Domullo Boqi Muhammad A'zam 117
Qozi al-quzzot Mullo Mir Badriddin bin qozi al-quzzot Mullo Mir Sadriddin 123, 124
Qozikalon Muhammad Amin ibn Mullo Muhammad Ya'qub 115
Qozi Mullo Oxund Bobo mufti ibn Mullo Shohnazar 111
Qozi Muhammad Sodiq ibn Mullo Muhammad Sharif 111
Qozi To'raxo'ja ibn domlo Miraziz Maxdum 114
Qorabek to'qsoba 79
Qori Hoshim Shoiq 70, 71
Qosimboy 106
Qosimboy Qarotutiy Toshkandiy 113
Quvondiq Norbo'ta o'g'li 105
Qulmuhammad to'qsoba 79
Qurbon Abdulloh o'g'li 118
Qurbonkal 124
Qutayba ibn Muslim 36
Rasul Muhammad 134.
Rauf Muzaffarzoda (Abdurauf Muzaffarov) 140, 151, 192, 202.
Rahimbergan 23.
Rahimberdi 104.
Rahimjon mudarris 100.
Rahimqulboy Abdulhakimboy o'g'li 122.
Rahimxo'ja 132, 134.
Rahmatullaxo'ja A'zamxo'ja eshon o'g'li 105.
Rahmatulloh 130, 131.
Rahmatullohbek to'qsoba 79
Rashid afandi 226
Rexnevskiy S.S. 415, 417.
Rjevskiy 347
Rizayev Sh. 293
Romanovskiy G.D. 431, 432, 433, 435.
Ruzskiy M.D. 408.
Rikachev M.A. 415, 416, 417.
S. Yezuchevskiy 453.
Sabrinniso 133
Sagdullayeva 129
Sadriddin Ayniy 61, 65, 67, 70, 140, 190.
Said Rasul xo'ja 174
Saidkarimboy Saidazimboy o'g'li 182
Sayyid Abdullo to'ra 22
Sayyid Akram 128
Sayyid Aminboy 117
Sayyid Amir Abdulahad 136, 138
Sayyid Amir Kulol 38
Sayyid Ahmad Vasliy 185
Sayyid Ahmad oxund 103, 107
Sayyid G'anixo'ja 107
Sayyid Islom Xo'ja 32, 33
Sayyid Muzaffar maxzum 107
Sayyid Umar maxzum 107
Sayyidalixo'ja Sulaymonxo'ja o'g'li 105
Sayyidjon 70
Sayyidqulbek to'qsoba 79

@tarixchi_kutubxonasiga

Sayyidumar Maxdum 129
Salimboy 18, 19
Salimjon 70
Salimjon mudarris Halimjon o'g'li 100
Salimxon oxund mudarris 110
Salomat bibi 130, 131
Samoylov Ya.F. 408
Samsonov A. V. 400
Sanoyi 118
San'atulloh 128
Safar Ali Valibeko'f (Valibekov) 291
Safarboy Abdulloh o'g'li 120
Safoboy 125
Sa'diy 153, 188, 194
Seversov N.A. 253, 411, 412, 423, 432, 433
Semyonov P.P. 369, 410, 411,412, 415, 416, 417
Sergeyev N.M. 147
Siddiq oxund 130
Sitovich A.G. 423
Siyovush Vali 38
Skvirskiy Lev 365
Skobelev 280, 319
Sobelev L.N. 414, 415, 418,
Sokolov N.A. 435
Sodiq so'fi 103
Soyibnazar Eshnazar o'g'li 135
Solihbek oxund 12, 13, 14, 15, 16
Solovyov K.M. 363, 364
Somiy 188
Sorliq 233, 234
Sosnovskiy M.I. 367
Stepanov 408
Stoletov N.G. 418, 421
Sulton Mahmudbiy 126
Sulton Mahmudxo'ja eshon
Sulton Sa'idxo'ja eshon o'g'li 106
Sulton Muhammadxo'ja Mufti bin Abdullohxo'ja shayx al-islom 177
Sulton Xo'ja 117
Sultonboy sarrof 130
Sultonmuhammad ibn Sayyid Rahmon mufti 115
So'fi Abdurahim 70
Tevyashev N.N. 399
Temurg'ozi to'ra 33
Tillo A.A. 408
Tohir Eshon 126
Tohirboy 120
Toshxo'ja Ulug'xo'ja Eshon o'g'li 129
To'laganboy 131
To'ra Mo'minxon 79
To'raxo'ja Sudur 79
To'raxo'ja eshon 105
Turobboy 117
Ulug'xo'ja 102, 129
Umar ibn Sadr ush-shariya 37
Umarbek oxund 110
Umar-Rashid-Bek 402
Usmon 102
Usmonjon 132
Usmonxo'ja Dadaxo'ja o'g'li 130, 135
Usta Abdulvahhob 101
Ustinov 365
Usto Bobo 126
Usto Quvondiq 125
Usto Mirzo Kafshdo'z 115
Usto Sodiq 118
Ulug'xo'ja 102, 129
Umar ibn Sadr ush-shariya 37
Umarbek oxund 110
Umar-Rashid-Bek 402
Usmon 102
Usmonjon 132
Usmonxo'ja Dadaxo'ja o'g'li 130, 135
Usta Abdulvahhob 101
Ustinov 365
Usto Bobo 126

@tarixchi_kutubxonasiga

Usto Quvondiq 125
Usto Mirzo Kafshdo'z 115
Usto Sodiq 118
Valter I.I. 423
Vamberi Arminiy 226
Veber V.N. 434
Velman 63, 68
Venyukov M.I. 415
Vadyayevlar 365
Vali Hoji mullo Abdumalik o'g'li 182
Xadichabibi Muhammadiyboy qizi 133
Xalifa Mansur 52
Xanikov N.V. 251, 252, 441
Xolbibi Odina qizi 116
Xonxo'ja eshon 101
Xorun ar-Rashid 52
Xosiyat bibi 131, 132
Xudoyor Biy 124
Xudoyorxon 280, 387, 389, 390
Xudoydod Vali 37
Xo'ja Ahror 8, 100, 107, 109, 110, 276
Xo'ja Ismat 38
Xo'ja Hofiz 164, 165, 166, 184, 194
Xo'jabek Qovoqli 79
Xo'jamberdi 102
Yunusxon eshon Xonxo'ja eshon o'g'li 110
Yusuf mahram 21, 97
Yuferov A.I. 434
Ya'qub oxund Ne'matshayx o'g'li 110, 112
Ya'qubjon 103, 104, 108,
Ya'qubxo'ja a'lam 101
Ya'qubxo'ja eshon 101, 105
Yo'ldoshjon 132,133
Yezuchevskiy S. 453
Yelena Folau 402,
Yelpatyevskiy V.S. 407,
Yermolov Aleksey 325, 327,
Yoqutoy 116
Zayd bin Sobit 189
Zaynuddin maxzum 101
Zalesskiy P.K. 429, 430, 431
Zernov S.A. 407, 436
Ziyouddin maxdum 69
Zilolabibi 114
Zohida bibi 128
Zunnun qori 109
Zuhuriddin Fathiddinzoda 69
Shayx Sayfiddin Boxarziy 37
Shayxnazarboy 32, 33
Sharifjon Sadr 70
Sharifxo'ja qozi 110
Sharl Sanivyus 51
Sharofat bibi 130, 131
Shahobiddinxon Imommuhammadxon o'g'li 129
Shahodat bibi 131
Shenberg-Ek'-Shaufus D.I. 415
Sherg'ozixon 28, 228, 444
Shlozber 365
Shmitsa-de-Mulen 402
Shokalskiy Yu.M. 408
Shoh Abduqahhorxo'ja eshon 104
Shoh Ahmadxo'ja Shoh Mansurxo'ja o'g'li 100
Shoh Sayyidxo'ja Shoh Obidxo'ja 128
Shoh Yunusxo'ja 108, 135
Shohmahmud 102, 107
Shohmurod inoq 124
Chaykovskiy 293, 295
Chahor Bakr 38, 49
Chernishov E.N. 435
Chernyayev M.G. (Shirinuv) 12, 14, 15, 275, 411, 426, 427, 441, 450
Chetverikov S.S. 408
Chuyko V. 319
Cho'qayev Mustafo 340
G'iyosaliddin 213
G'ozibek 67
G'ulom Qodir 69

@tarixchi_kutubxonasiga

GEOGRAFIK JOY NOMLARI

Avstraliya 403
AQSH 238, 259, 362, 363
Aleksandrovsk qishlog'i 328
Ambar-Manoq 445
Amerika 58, 145
Amudaryo 92, 97, 98, 99, 213, 226, 233, 236, 253, 254, 255, 256, 259, 260, 261, 265, 266, 268, 269, 270, 271, 273, 278, 334, 336, 354, 391, 393, 394, 395, 396, 408, 409, 410, 415, 416, 417, 418, 419, 420, 421, 422, 423, 431, 434, 443, 444, 445, 447, 448, 450
Angliya 58, 171, 255, 366, 436
Andalus 51
Andijon 18, 100, 158, 160, 197, 234, 247, 280, 285, 289, 290, 292, 293, 294, 297, 301, 302, 306, 319, 340, 347, 349, 374, 375, 377
Andijon uyezdi 18, 294, 456
Andxo'y viloyati 116, 117
Anjeroy 358
Arabiston (Saudiya Arabistoni) 116, 121, 123, 198, 388
Arabiston yarimoroli 198
Aris daryosi 435
Asaf qishlog'i 350
Astraxan 477
Astrobod 232
Afg'oniston 37, 90, 158, 194, 217, 235, 255, 258, 259, 263, 285, 287, 337, 338, 339, 340, 360, 364, 377, 384, 386, 404, 445, 460
Afrosiyob 9, 38, 263, 438, 441, 442
Ashfara 10
Ashxobod 337, 362, 444
Bag'dod 51, 52, 53, 245, 293
Bag'rin qishlog'i 451
Badaxshon 236, 338
Baljuvon 44, 79, 138, 354
Batumi 365
Bekobod 293
Belinsgauzen ko'li 407
Berlin 280, 286
Besharig' 292, 293
Beshariq 81, 125, 445, 460
Beshyog'och 16, 109,110, 182, 241, 244, 245
Biysk uyezdi 327, 328
Bodenskiy ko'li 408
Bodom 426, 433
Boysun 44, 79, 265, 358
Boku 91, 178, 203
Borolday vodiysi 433
Borsakelmas ko'li 409
Britaniya orollari 402
Bo'zyob 448
Buxoro 4, 6, 8, 14, 25, 34, 35, 36, 37, 38, 39, 40, 42, 43, 44, 45, 46, 47, 48, 49, 50, 51, 53, 55, 56, 58, 59, 60, 61, 62, 63, 64, 66, 67, 68, 69, 70, 71, 76, 79, 84, 85, 86, 87,

@tarixchi_kutubxonasiga

88, 89, 90, 91, 93, 98, 99, 101, 103, 104, 115, 116, 117, 118, 119, 121, 122, 123, 136, 140, 147, 148, 149, 150, 158, 170, 171, 181, 182, 185, 186, 188, 194, 197, 205, 212, 213, 214, 215, 216, 217, 218, 219, 220, 222, 223, 224, 225, 226, 227, 228, 232, 233, 234, 235, 236, 237, 238, 242, 243, 246, 250, 251, 252, 255, 256, 257, 258, 259, 260, 264, 265, 266, 267, 268, 269, 270, 274, 278, 282, 283, 284, 293, 307, 308, 309, 310, 311, 317, 318, 332, 337, 338, 339, 340, 352, 354, 355, 356, 357, 357, 359, 360, 363, 365, 377, 380, 381, 382, 383, 384, 385, 386, 388, 391, 393, 396, 404, 413, 414, 418, 419, 420, 428, 432, 437, 440, 441, 442, 445, 454
Buxoro amirligi (Buxoro xonligi) 34, 61, 71, 76, 79, 85, 89, 115, 116, 136, 212, 236, 242, 243, 259, 271, 337, 339, 352, 354, 358, 360, 362, 382, 393, 413, 429, 440, 441, 442, 444, 450, 452, 457, 458, 459, 461, 465
Davkor 418
Darvoza,9
Dashti Qipchoq, 10
Devonbegi, 21
Denov, 79
Do'rmon, 78
Dushanbe, 44
Dushox, 91
Eron 51, 90, 91, 148, 171, 192, 193, 194, 227, 231, 232, 237, 255, 260, 263, 287, 317, 354, 360, 364, 365, 380, 384, 404, 437, 441, 443, 445.
Eski Badalbek 49.
Esmana 433.
Farg'ona (muzofoti, viloyati, oblasti) 13, 14, 16, 17, 18, 19, 110, 140, 142, 143, 144, 145, 146, 148, 158, 159, 161, 162, 188, 193, 194, 216, 246, 247, 256, 280, 281, 287, 288, 293, 294, 301, 325, 327, 328, 330, 347, 363, 366, 367, 399, 400, 412, 420, 432, 433, 434, 439, 450, 451, 453, 455, 456,
Farg'ona tog' tizmasi 433,
Fransiya (Farangiston) 51, 53, 54, 216, 277, 402.
Gamburg 337
Gandumgoh (Gandimiyon) 91, 227
Ganchtepa 135
Germaniya 58, 66, 171, 259, 366, 402, 439
Govkushon 76
Gugerdli 85
Gurlan 28, 82, 98, 231, 233, 334, 394, 395, 396, 445
Hazorasp (Xazorasp) 28, 80, 98, 125, 227, 229, 231, 333, 335, 381, 391, 392, 445, 450, 460.
Hindiston 89, 90, 217, 255, 257, 258, 263, 271, 287, 315, 339, 360, 378, 384, 386, 388, 404, 438, 439, 440.
Hindixitoy 255.
Hirot 232, 338.
Hisor 44, 79, 138, 217, 234, 247, 250, 265, 354, 355, 356, 357, 358, 359, 362, 363, 434.
Holoto 85.
Ilyoli, 82
Ispaniya, 51
Istanbul (Konstantinopol), 53
Italiya, 214
Jalolobod, 160
Kavkaz (Kafkaz, Tiflis), 188
Karbos, 49
Karki, 69
Karmana, 79

@tarixchi_kutubxonasiga

Kaspiy, 91
Kaspiy dengizi, 91
Kaspiyorti, 91
Kaspiyorti viloyati, 91
Kerki, 79
Kitob, 79
Kichik Qozirabot, 109
Ko'kaldosh, 8
Ko'kcha dahasi, 105
Ko'lob, 44
Ko'hna Urganch, 28, 83, 396, 416, 420, 445, 448,
Madina, 104, 116
Makka, 116
Mang'it, 28
Marv, 76
Marsel, 216
Mashhad, 19
Milan, 216
Mingo'rik, 9
Misr, 51
Movarounnahr, 88
Nayman qishlog'i,350
Namangan, 363
Namangan viloyati, 114
Niyozbek, 105
Niyozboy mahallasi, 114
Nijniy Novgorod, 67
Nog'aysaroy, 384
Norin, 415
Nukus, 418
Nurota, 355, 79
Nyu-York, 484
Odessa,365
Oks, 417
Oq Jumalon, 358
Oqtepa, 103
Oqchekuv, 433
Olatog', 435
Oldosiyo, 440
Olmatu (Olmaota), 414, 160
Oltiarig',293
Oltintepa, 9
Orol dengizi, 232, 213
Orolbo'yi, 256, 416
Osiyo, 431, 436, 437, 8
Panjikent, 249
Panjob, 354
Pekin, 231,
Perovsk, 238
Perovsk uyezdi, 329
Perovskiy qo'ltig'i, 407
Petro-Aleksandrovsk, 421
Petrograd, 429,
Petropavlovsk, 234, 235, 257
Pitnak, 28, 391, 80, 422, 445,
Pishpek, 286
Pomir, 416, 423, 431, 432,
Pomir-Oloy tog'lari 433
Porsu 233, 445,
Pulkovo 430
Qaziqurt 426, 433, 435.
Qal'ai Garm 356.
Qal'ai Xum 356.
Qarshi (Nasaf) 38, 44, 53, 54, 55, 79, 197, 217, 218, 219, 235, 237, 247, 251, 252, 354, 355, 356, 357.
Qashg'ar (Qoshg'ar, Qashqar) 160, 216, 233, 256, 257, 285, 296, 298, 364, 375, 377, 378, 379, 404, 415, 453.
Qashqadaryo 250, 254.
Qiyot 8, 11, 101, 105, 445, .
Qiyot-Qo'ng'irot 445.
Qizil Ur 358.
Qizilqum 226, 233, 253, 254, 419, 422, 434, 445.
Qizilqo'rg'on 135.
Qizilsuv (Surxob, Krasnovodsk) 265, 293, 354.
Qiziltol 433.
Qilich Niyozboy 445.

@tarixchi_kutubxonasiga

Qipchoq 28, 82, 394, 445.
Qobul (Qobuliston) 307, 372, 386.
Qovunchi (Kaufman) 293.
Qoziali (Gezelimsk, Kazalinsk) 293.
Qozog'iston 103, 288.
Qozon 169, 178, 184, 317, 388.
Qorako'l 38, 44, 64, 69, 79.
Qorako'l kalon qishlog'i 113, 114.
Qoraqum 253, 445.
Qorategin 44, 79, 268, 270, 354, 359.
Qoratepa volosti 408, 451.
Qoratog' (Qora Tov, Qoratov) 44, 47, 358, 411, 413, 425, 428, 432, 433, 434, 435.
Qoratomoq 407.
Qorato'p daryosi 407
Qorao'zak 419, 420.
Qrim (Qirim) 169, 193, 197, 404,
Quvonch-Yorma 419, 420.
Qugintong Tau 358.
Quytan 358.
Qo'qon (Ho'qand, Hakand) 4, 8, 9, 10, 16, 84, 99, 100, 103, 104, 110, 111, 113, 115, 140, 152, 156, 158, 159, 160, 193, 194, 195, 226, 233, 234, 235, 236, 238, 242, 246, 247, 248, 257, 280, 281, 303, 306, 307, 308, 310, 311, 312, 315, 316, 319, 320, 324, 340, 346, 348, 363, 367, 370, 371, 373, 374, 375, 376, 377, 378, 379, 383, 386, 387, 388, 389, 412, 414, 415, 425, 426, 428, 461.
Qumsoat qirg'oq 407.
Qo'ng'irot 25, 28, 44, 49, 77, 83, 98, 125, 393, 422, 445, 447, 448, 449, 450, 460.
Qurama 109, 110, 256, 412.
Qo'rg'ontepa 44, 265, 354, 355, 358.
Qo'tanbuloq bulog'i 408
Qo'shko'pir 445
Registon 101, 102, 107, 281, 437,
Riga 365
Rishton 18
Romiton 44
Rossiya (Rusiya, O'rusiya) 4, 8, 9, 10, 12, 13, 14, 15, 16, 19, 24, 25, 26, 33, 51, 53, 61, 65, 66, 67, 84, 85, 86, 87, 88, 89, 91, 92, 93, 94, 95, 96, 108, 113, 139, 145, 147, 148, 150, 172, 173, 179, 180, 181, 185, 189, 194, 195, 214, 216, 217, 231, 234, 235, 238, 239, 242, 243, 246, 255, 256, 257, 258, 259, 261, 272, 273, 278, 281, 286, 287, 289, 290, 291, 297, 301, 302, 306, 307, 308, 309, 310, 316, 325, 327, 329, 330, 331, 332, 334, 335, 338, 339, 340, 341, 342, 343, 352, 355, 356, 357, 359, 360, 362, 363, 364, 365, 366, 370, 371, 372, 377, 378, 379, 380, 381, 382, 384, 385, 386, 387, 389, 395, 396, 397, 400, 401, 404, 406, 407, 410, 413, 416, 423, 429, 430, 436, 453, 458, 461, 464.
Roshidon volisi 112
Samarqand 34, 54, 55, 56, 69, 85, 86, 88, 140, 170, 185, 186, 188, 193, 205, 208, 214, 216, 218, 223, 238, 247, 248, 249, 250, 251, 252, 256, 257, 259, 260, 263, 274, 275, 281, 282, 283, 308, 325, 328, 329, 330, 340, 349, 370, 377, 383, 399, 413, 414, 429, 432, 433, 436, 437, 438, 439, 441, 442, 443, 444, 448, 450, 451, 452, 453.
Samarqand darvoza 38.
Sankt-Peterburg (Peterburg, Fiterburx, Peterburg') 13, 31, 218, 226, 289, 291, 307, 316, 319, 324, 324, 331, 332, 336, 340, 353, 370, 403, 411, 418, 426, 438.

@tarixchi_kutubxonasiga

Saratov 306, 447
Sariqamish 420
Sariog'och 103, 107.
Sariosiyo (Sarijo'y) 44.
Saripul 258, 338, 339
Saroy 358.
Safetdaryo 358,
Sebzor 102, 104, 105, 106, 107, 109, 127, 129, 130, 131, 134, 135, 136, 182, 241, 244.
Semipalatinsk 246, 257, 311, 377.
Sibir 256, 261, 307, 309, 311, 355, 363, 365, 377.
Sirdaryo 247, 256, 271, 374, 375, 394, 407, 409, 410, 412, 414, 416, 419, 420, 424, 425,
Sirdaryo viloyati 33, 103, 159, 193, 216, 253, 256, 261, 308, 325, 328, 329, 331, 389, 399, 406, 423, 426, 428, 431, 432, 434, 444, 452, 453, 456.
Sirdaryo deltasi 406
Sulton Uvays 444.
Sulton-Saroy 445
Surxon 214, 354
So'fiyon 36, 77
So'x vodiysi 434
Talas 426, 428, 435,
Taldiq 418
Tangbosh 433
Termiz 212, 357, 360.
Tehron 226, 234.
Toir-Su daryosi 354
Toldiq ko'rfazi 407
Tomsk guberniyasi 327, 328,
Toshkent (Toshkand) 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 33, 71, 88, 99, 100, 101, 102, 103, 104, 105, 106, 107, 108, 109, 110, 112, 127, 129, 130, 131, 132, 133, 134, 135, 136, 140, 158, 159, 166, 170, 175, 177, 178, 182, 195, 202, 205, 206, 207, 208, 234, 235, 238, 239, 240, 241, 242, 243, 244, 246, 248, 250, 252, 257, 260, 275, 276, 277, 278, 279, 280, 303, 304, 307, 308, 309, 310, 311, 312, 313, 314, 315, 318, 319, 324, 340, 348, 349, 366, 369, 371, 375, 377, 378, 381, 383, 386, 390, 397, 398, 399, 400, 405, 407, 411, 412, 413, 414, 426, 427, 428, 429, 430, 433, 434, 435, 441.
Toshkent uyezdi 434.
Toshovuz (Toshhovuz) 28, 82, 124, 125, 231, 334, 335, 391, 392, 445, 450, 460
Troitsk 257, 311, 377
To'qmoq 10, 286
To'qmoqota ko'li 409
To'qmoqota oroli 254
Tuproqqo'rg'on 298
Turkiston (Turkistonzamin, Rus Turkistoni) 4, 5, 6, 10, 13, 14, 15, 17, 33, 44, 51, 71, 84, 86, 87, 88, 89, 91, 92, 96, 97, 101, 112, 140, 141, 144, 145, 150, 151, 152, 153, 154, 155, 158, 159, 160, 161, 166, 170, 171, 172, 173, 174, 175, 176, 177, 178, 179, 180, 181, 182, 183, 184, 185, 186, 187, 188, 189, 192, 193, 194, 195, 196, 197, 198, 199, 202, 203, 204, 205, 206, 209, 210, 212, 215, 216, 217, 221, 233, 234, 235, 238, 241, 243, 244, 245, 246, 249, 252, 253, 255, 256, 257, 259, 261, 262, 263, 270, 271, 273, 275, 276, 277, 278, 279, 280, 281, 284, 285, 286, 287, 288, 289, 292, 294, 306, 318, 319, 324, 325, 326, 327, 328, 329, 330, 331, 340, 341, 343, 344, 345, 346, 347, 350, 351, 352, 361, 362, 363, 364, 365, 366, 369, 370, 378,

@tarixchi_kutubxonasiga

382, 386, 389, 391, 394, 395, 396, 397, 398, 399, 400, 401, 403, 404, 405, 406, 407, 411, 412, 413, 414, 416, 423, 424, 425, 426, 427, 428, 429, 430, 431, 432, 433, 434, 435, 436, 437, 438, 439, 440, 441, 442, 443, 444, 445, 447, 450, 453, 454, 455, 456, 458, 464.
Turkiston shahri 393
Turkiya 66, 163, 208, 231, 290, 318, 337, 398, 404
Turlan darasi 433
Turon 44, 140, 180, 202, 213, 214, 217, 219, 221, 225
Turon pasttekisligi 434
To'rtko'l 448
Tuyamo'yin 418, 419, 421
Tyulkeli (Menshikov oroli) 407, 409
Tyanshan (Tyan-Shan) 411, 423, 424, 425, 431, 433.
Ugam vodiysi 433,
Ugam daryosi 435
Uzboy 416
Uzunoda 91
Ulkandaryo 418, 420.
Urganch 23, 28, 81, 98, 125, 227, 231, 235, 334, 380, 393, 394, 396, 397, 445, 448, 460,
Urgut tog'i 370
Urgut 249
Ustyurt 334, 392.
Uchtepa 104.
Uchutko'l qo'ltig'i 408
Uyali ko'li 407
Vag'onzi tumani 80
Vardonze 44, 458
Varshavskiy 292
Vaxsh 358
Vengriya 231
Verniy 429
Vladikavkaz 337
Vobkand (Vobkand tumani) 44, 69, 80
Vodil 296
Volga 334, 365, 404
Volgabo'yi 336
Xazar 194, 292.
Xayrobod 44
Xatirchi 44, 55, 56, 79, 413.
Xatlon 44.
Xiva (Xivaq) 4, 20, 25, 26, 27, 28, 29, 30, 31, 32, 33, 80, 81, 84, 85, 91, 92, 93, 94, 95, 96, 97, 99, 115, 124, 125, 158, 194, 226, 227, 228, 229, 230, 231, 232, 233, 234, 235, 242, 243, 248, 255, 256, 257, 260, 261, 270, 274, 278, 307, 308, 316, 317, 318, 331, 332, 333, 334, 335, 336, 337, 379, 380, 381, 382, 386, 391, 392, 393, 395, 396, 397, 404, 415, 416, 419, 420, 422, 431, 432, 439, 442, 443, 444, 445, 446, 447, 448, 449, 450, 454, 460, 465.
Xiyobon 14, 15, 35, 36, 49..
Xitoy (Chin, Qitoy) 52, 160, 168, 215, 216, 360, 377, 403, 436, 438, 460,
Xonqa 28, 81, 125, 391, 397, 445, 449, 450, 460.
Xorazm 14, 20, 25, 26, 27, 28, 30, 34, 80, 395, 397, 415, 416, 442.
Xo'ja Mo'min 358.
Xo'jayli 28, 83, 98, 336, 393, 394, 422, 445, 448, 449
Xo'jakent 241, 435.
Xo'jand 205, 216, 234, 241, 247, 256, 311, 315, 375, 376, 377, 378, 383, 412, 414, 424, 433.
Xuroson 36, 44, 91.
Yevropa (Ovrupa), 148
Yangi Buxoro (Kogon) 217, 265, 357, 360.

@tarixchi_kutubxonasiga

Yangi Marg'ilon (Skobelev, Sim, Iskobilo'f) 280, 288, 293, 327, 350.
Yangidaryo 416, 418, 419, 420.
Yangiqal'a 227.
Yaponiya 147, 216.
Yax-Suv 358.
Yuqori ko'l 408.
Yunon 51, 53.
Yakkabog' 44, 79.
Zakavkaz (Kavkazorti), 216
Zakaspiy (Kaspiyorti), 90
Ziyovuddin, 44
O'zbekiston 3, 4, 5, 6, 20, 25, 27, 61, 99, 121, 123, 307, 309, 311.
O'zgand (O'zgan) 160, 211, 247, 288, 374, 376.
O'ratepa 433, 451.
O'rta Osiyo (Osiyoi Vusto) 8, 84, 103, 108, 116, 160, 193, 198, 238, 240, 241, 242, 261, 262, 264, 267, 307, 309, 310, 311, 316, 318, 331, 355, 361, 364, 369, 370, 374, 377, 379, 380, 383, 384, 385, 410, 412, 413, 417, 423, 425, 426, 431, 436, 437, 438, 439, 457, 458, 460, 463, 464.
G'azovot 233, 392, 445, .
G'ijduvon 65, 69.
G'oziyon 35, 36, 49, 77.
G'oziobod 81.
G'uzor 44, 79, 354, 362.
G'ulja (Xulja) 10, 13, 238, 243, 247, 310, 311, 315.
Shayx-Jalil tog'i 444.
Shayxovanditohur (Shayxontohur, Shayx Xovand Tohur) 9, 10, 100, 101, 105, 108, 129, 182, 207, 241, 244.
Shakarlik Ostona 358.
Sharqiy Turkiston (Xitoy Tataristoni, Xitoy Tatariyasi) 216, 231, 232, 234, 263, 285, 310, 377,
Shahrisabz (Kesh). 44, 54, 55, 69, 79, 89, 250, 251, 354, 355, 356, 452.
Shahrixon 235, 375.
Shveysariya 366.
Sherdor madrasasi 443.
Sherobod 44, 79, 212, 213, 214, 265, 358.
Shibirg'on 258, 338, 339.
Shimoliy Amerika 408
Shoh Abbos Vali 334, 397.
Shohobod (Shovot) 81, 124, 125, 126, 231, 392, 460.
Shohrud kanali 259.
Sho'raxon 125, 391, 397, 448, 460.
Sho'rko'l 119.
Sho'rtepa 9, 10.

Chaqichmon (Saqichmon) 13, 134,
Chernishev bo'g'ozi 407.
Chig'atoy 103, 131.
Chimboy 98, 393, 394, 419, 422, 448.
Chimkent 10, 14, 256, 386, 411, 424, 426, 427, 428, 444.
Chiroqchi 44, 79, 251, 355.
Chirchiq (Farak). 9, 241, 411, 412, 414, 426, 427, 428, 433, 435.
Chorjo'y (Chorjuy). 44, 69, 79, 236, 273, 337, 354, 357, 359, 360.
Chorsu 111, 282.
Chotqol 241, 426, 435.
Chubek 358.
Chumanoy 83.
Chust 159, 235, 247, 363, 389.

@tarixchi_kutubxonasiga

MUNDARIJA

KIRISH 3

I BOB. MAHALLIY QO'LYOZMA VA TOSHBOSMA ASARLAR

Muhammad Solihxo'ja Toshkandiy. «Tarixi jadidayi Toshkand» 8
Muhammad Aziz Marg'inoniy. «Tarixi Aziziy» 16
Muhammad Yusuf Bayoniy. «Shajarayi Xorazmshohiy» 20
Sayyid Homid to'ra – Komyob. «Tavorix ul-xavonin» 25
Abdulla Boltayev. «Xorazm tarixiga doir materiallar» 27
«Xiva xonligi tarixiga oid materiallar» 29
Hasanmurod Laffasiy. «Gulshani saodat» 31
Muhammad Ali Baljuvoniy. «Tarixi nofeiy» («Foydali tarix») 34
Ibn al-Muborak Muhammad al-Qazviniy. «Javohirnoma» 46
Abdurauf Fitrat. «Hind sayyohining qissasi» 48
Sadriddin Ayniy. «Buxoro inqilobining tarixi». 61
Ahmad Donish. «Navodir ul-vaqoye» 71

II BOB. MAHALLIY ARXIV HUJJATLARI

1-§. Ma'muriy-huquqiy va xo'jalik hisobiga oid hujjatlar 76
Buxoro amirligi ma'muriy-hududiy tuzilmasiga oid hujjatlar 76
Xiva xonligi ma'muriy-hududiy tuzilmasi va
xo'jalik hisobiga oid hujjatlar 80
Sulh shartnomalari, rasmiy kelishuvlar bilan bog'liq hujjatlar 84
2-§. Vaqf hujjatlari 99
Toshkent madrasalarining vaqf mulklariga oid hujjatlar 99
Qo'qon xonligi vaqf hujjatlari 111
Buxoro amirligi vaqf hujjatlari 115
Xiva xonligi vaqf hujjatlari 124
3-§. Qozilik hujjatlari 127
1. Tilxat 128
2. Ibro 129
3. Dalolatnoma 132
4. Vasiqa 134
Buxoro amirligida soliqqa oid hujjatlar 136

@tarixchi_kutubxonasiga

III BOB. MAHALLIY MATBUOT MATERIALLARI

1-§. Turkiston milliy matbuoti materiallari 141
2-§. Buxoro amirligi matbuot materiallari 212

IV BOB. XORIJIY MANBALAR

1-§. Ingliz tilidagi manbalar 226
Arminius Vambery. «Travels in Central Asia» («Markaziy Osiyo bo'ylab sayohat») 226
Eugine Schuyler. «Turkistan: Notes of a Journey in Russian Turkistan, Khokand, Bukhara and Kuldja» («Rossiya tasarrufidagi Turkiston, Qo'qon, Buxoro va G'uljaga sayohat qaydlari») 238
Henry Lansdell. «Russian Central Asia including Kuldja, Bokhara, Khiva and Merv» («Rossiyaga bo'ysundirilgan hamda G'ulja, Buxoro, Xiva va Marvni o'z ichiga olgan Markaziy Osiyo») 243
George Nathaniel Curzon. «Russia in Central Asia in 1889 and the Anglo-Russian question» («Rossiya 1889-yilda Markaziy Osiyoda. Angliya – Rossiya masalasi») 255
William Eleroy Curtis. «Turkestan "The Heart of Asia"» («Turkiston – Osiyo yuragi») 259
Ole Olufsen. «The Emir of Bokhara and his Country». («Buxoro amiri va uning mamlakati») 264
2-§. Fransuz tilidagi manbalar 271
Moser Henri. «L'Irrigation en Asie Centrale: étude géographie et économique» («Markaziy Osiyoda sug'orish tizimi: geografiya va iqtisodiyot tadqiqotlari») 271
Joseph-Antoine Castagné. «Notes des voyage en Asie Centrale» («Markaziy Osiyodagi sayohat xotiralari») 275
3-§. Nemis tilidagi manbalar 277
Hans-Hermann graf von Schweinitz. «Orientalische wanderungen in Turkestan und im nordoestlichen Persien» («Sharq sayohatlari: Turkiston va shimoli-sharqiy Eron») 277

V BOB. MEMUAR ASARLAR

Muso Turkistoniy. «Ulug' Turkiston fojiasi» 285
Fozilbek Otabek o'g'li. «Dukchi eshon voqeasi» 293

VI BOB. RUS TILIDAGI MANBALAR

1-§. Arxiv hujjatlari 307
O'rta Osiyoning Rossiya bilan savdo aloqalariga oid hujjatlar 307
Xonliklardan Rossiya kutubxonalariga olib ketilgan noyob durdonalar 316
Rasmiy yozishmalar 324
Turkistonda Rossiya imperiyasining ko'chirish siyosatiga oid manbalar 325

@tarixchi_kutubxonasiga

Xiva xonligida savdo aloqalari 331
Buxoro amirligi va Afg'oniston savdo aloqalarining arxiv ma'lumotlariga asoslangan tahlili 337
Rossiya Davlat Dumasi yig'ilishi stenogrammasi 340
2-§. Tarixiy adabiyotlar 352
Логофет Д.Н. «Бухарское ханство и его современное состояние» («Buxoro xonligi va uning zamonaviy holati») 352
«Бухарское ханство под русским протекторатом» («Buxoro xonligi rus protektorati ostida») 354
Оглоблин В.Н. «Промышленность и торговля Туркестана» («Turkiston sanoati va savdosi») 361
Демидов А.П. «Экономический очерк хлопководства, хлопкоторговли и хлопковой промышленности Туркестана» («Turkistonda paxtachilik, paxta savdosi va sanoati haqida iqtisodiy ocherk») 366
3-§. Davriy nashr va to'plamlardagi materiallar 369
Краузе И.В. «Заметки о медицинских и некоторых промышленных растениях в Средней Азии» («O'rta Osiyodagi dorivor va ba'zi sanoat o'simliklari haqida qaydnomalar») 369
Н.В. «Кокандское ханство по новейшим известиям» («Qo'qon xonligiga oid yangi xabarlar») 374
Костенко Л.Ф. «Город Хива в 1873 году» («Xiva shahri 1873-yilda») 379
«Город Бухара в 1870 году» («Buxoro shahri 1870-yilda») 382
Абдулгаффаров С. «Краткий очерк внутреннего состояния Кокандского ханства перед завоеванием его Россией» («Rossiya istilosi arafasida Qo'qon xonligining ichki ahvoli haqida qisqacha ocherk») 386
Кун А.Л. «Культурный оазис Хивинского ханства» («Xiva xonligining madaniy vohasi») 390
Остроумов Н. «Колебания во взглядах на образование туземцев в Туркестанском крае» («Turkiston o'lkasida mahalliy aholi ta'lim tizimi haqidagi turfa qarashlar») 397
4-§. Ilmiy adabiyotlar 406
Берг Л.С. «Аральское море» («Orol dengizi») 406
Семёнов-Тянь-Шанский П.П. «История полувековой (1845–1895) деятельности императорского Русского географического общества» («Rus imperatorligi Geografiya jamiyatining yarim asrlik (1845–1895) tarixi») 410
Северцов Н.А. «Путешествия по Туркестанскому краю» («Turkiston o'lkasi bo'ylab sayohatlar») 423
Булаевский Н. «П.К. Залесский и его научная деятельность» («P.K. Zalesskiy va uning ilmiy faoliyati») 429
Мушкетов И.В. «Туркестан. Геологическое и орографическое описание» («Turkistonning geologik va orografik tavsifi») 431

@tarixchi_kutubxonasiga

Вебер В.Н. «Геологические исследования в Сырдарьинской области»
(«Sirdaryo viloyatidagi geologik tadqiqotlar»).....434
Бартольд В.В. «Состояние и задачи изучения истории Туркестана»
(«Turkiston tarixini o'rganish holati va vazifalari»).....436
«Задачи русских востоковедов в Туркестане»
(«Turkistonda rus sharqshunoslarining vazifalari»).....439
5-§. Harbiy statistika va taftish materiallari.....443
Гиршфельд В. «Военно-статистическое описание Хивинского оазиса»
(«Xiva vohasining harbiy-statistik tavsifi»).....443
Гирс Ф.К. «Отчёт о состоянии Туркестанского края»
(«Turkiston o'lkasining holati haqidagi hisobot»).....450
Пален К.К. «Народные суды Туркестанского края»
(«Turkiston o'lkasining xalq sudlari»).....453

IZOHLI LUG'AT.....457
KO'RSATKICH LAR.....467
GEOGRAFIK JOY NOMLARI.....477

@tarixchi_kutubxonasiga

O‘ 17 O‘zbekiston tarixi [Matn] VI jild. O‘zbekiston tarixi va manbalari. 1860–1917-yillar / mas'ul muharrir D.H. Ziyoyeva. –Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2023. – 488 b.

ISBN 978-9943-8054-4-6

UO‘K 94(575.1)«1860/1917»
KBK 63.3(5O‘)«1860/1917»

Ilmiy-ommabop nashr

O‘ZBEKISTON TARIXI

Xrestomatiya

VI jild

(1860 – 1917-yillar)

(O‘zbekiston tarixi va manbalari)

Muharrir *Gulchehra Azizova*
Badiiy muharrir *Behzod Zufarov*
Texnik muharrir *Lina Xijova*
Kichik muharrir *Matluba Salimova*
Kompyuterda sahifalovchi *Gulmira Qulnazarova*

Nashriyot litsenziyasi AI№ 158, 14.08.2009.
Bosishga 2023-yil 8-sentabrda ruxsat etildi. Ofset qog‘ozi. Bichimi 70x100 $^{1}/_{16}$.
«Palatino Linotype» garniturasida ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 39,65. Nashr tabog‘i 38,13.
Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 2958.

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz

«Colorpack» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Yangishahar ko‘chasi, 1-A.

@tarixchi_kutubxonasiga

«O‘ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-8054-4-6